

T.S. MALIKOV

**BYUDJET-SOLIQ
SIYOSATI**



BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI

T.S. MALIKOV



T.S. MALIKOV

**BYUDJET-SOLIQ
SIYOSATI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

T.S. MALIKOV

BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI

*O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2019**

UO'K: 336.143+336.02(075.8)
KBK: 65.261.4

Taqrizchilar: *i. f. d., prof.* **N.H. Haydarov**;
i. f. d., prof. **O.K.Iminov**

M-22 **Byudjet-soliq siyosati**: O'quv qo'llanma / T.S.Malikov;
O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Iqtisod-
Moliya", 2019. – 376 b.

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya institutining magistraturasida chuqurlashtirilgan va munozarali tarzda o'tiladigan "Byudjet-soliq siyosati" fani (kursi) o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda zamonaviy byudjet-soliq siyosatining mazmun-mohiyati, turlari, dolzarb muammolari, uni takomillashtirishning fundamental asoslari va yo'nalishlariga oid masalalar o'z aksini topgan.

Qo'llanma magistraturaning "Davlat moliyasini boshqarish" yo'nalishida ta'lim olayotgan magistrantlar, shuningdek, iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarining ilm toliblari, magistrantlari, aspirantlari, professor-o'qituvchilari, mamlakatning moliya-byudjet-soliq tizimida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi mutaxassislar hamda byudjet-soliq siyosati muammolari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

UO'K: 336.143+336.02(075.8)
KBK: 65.261.4

ISBN 978-9943-13-774-5

© T.S. Malikov, 2019
© «IQTISOD-MOLIYA», 2019

KIRISH

“Byudjet-soliq siyosati” oliy ta’limning 230000 – “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasidagi 5A230601 – “Davlat moliyasini boshqarish” magistratura mutaxassisligi uchun mo’ljallangan fan (kurs)¹ hisoblanadi. Uni o’qitishning asosiy maqsadi magistrantlarda byudjet-soliq siyosati xususida chuqur nazariy bilimlar berish va atroflicha amaliy ko’nikmalar hosil qilishdan iborat. Buning uchun shu sohaning bo’lg’usi magistrantlari byudjet-soliq siyosatining mohiyati, uning tarkibiy qism (yo’nalish)lari, hozirgi davrdagi byudjet-soliq siyosati va uning o’ziga xos xususiyatlari, byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish vositalari, byudjet defitsitini kamaytirish – byudjet siyosatining markaziy masalasi, zamonaviy soliqlik siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishning fundamental asoslari, soliqlik yuklamasini optimallashtirish – soliqlik siyosatining eng dolzarb muammosi, soliqlik yuklamasini taqsimlash nazariyalari va byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqishda ularning roli, soliqlik imtiyozlarini oqilona taqdim etish – soliqlik siyosati samaradorligini ta’minlash garovi, byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e’tirozlar, muammolarni hal qilish va e’tirozlarni yumshatish yo’llari, O’zbekistonda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asos (ustuvor yo’nalish)lari to’g’risida aniq tasavvurga va o’z mustahkam pozitsiyalariga ega bo’lmoqlari lozim.

¹ “Byudjet-soliq siyosati”ning “fan” yoki “kurs” deb atalishi munozarali va yagona to’xtamga kelinmagan masala. Uning aynan nima ekanligini aniqlash o’quv qo’llanmamizning maqsadi va unga erishish uchun bajarilishi lozim bo’lgan vazifalar doirasidan chetga chiqadi. Bu yerda “fan(kurs)” “variant”i tanlanganligining boisi ham ana shunda. Qolaversa, bunday holatning mavjud ekanligi hozircha magistrantlarning “boshini og’ritish”ga hali (biroz, sal) ertalik qiladi.

Bir vaqtning o'zida bu fan (kurs)dan olingan bilimlar bilan bir qatorda, magistrantlar byudjet-soliq siyosatiga tegishli bo'lgan xalqaro maydondagi o'zgarishlardan xabardor ham bo'lib turishlari darkor. Bunda, eng avvalo, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar byudjet-soliq siyosatida qanday o'zgarishlarning sodir bo'layotganligini kuzatib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xuddi shu masalada jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida qanday qarorlarning qabul qilinayotganligi va ularning qanday oqibatlariga olib kelayotganligi xususidagi ma'lumotlar hamda ularning qiyosiy tahlili magistrantlarning nazaridan chetda qolmasligi kerak.

Ayni paytda, "Byudjet-soliq siyosati" fani (kursi)dan olingan bilimlar asosida magistrantlar jahonning ilg'or mamlakatlarida ro'y berayotgan byudjet-soliq siyosatidagi o'zgarishlar va ularning O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari xususida ham atroflicha va chuqur asoslangan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqarishga qodir bo'lmoqlari lozim.

"Byudjet-soliq siyosati" fani (kursi)ni o'rganish asosida qo'lga kiritilgan bilimlar bo'lg'usi magistrlarda oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng byudjet-soliq siyosati amaliyotiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni yechishda va juda ko'plab hayotiy savollarning javobini topishda qo'l kelishi, shubhasiz.

E'tiboringizga havola etilayotgan o'quv qo'llanmasi o'ziga xos bo'lgan tarkibiy tuzilmaga ega. Uni shartli ravishda bir necha qismga bo'lish mumkin. Qo'llanmaning dastlabki qismi (1-bobi) "Byudjet-soliq siyosati: nimalarni va qanday o'rganamiz?" masalasiga aniqlik kiritishga bag'ishlangan. Uning ikkinchi qismida (2-bobda) byudjet-soliq siyosatining fundamental asosi hisoblangan bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosatining o'zaro vobastaligi o'z aksini topgan.

Qoʻllanmaning uchinchi qismida (4-boblarda) moliyaviy va byudjet-soliq siyosatining nisbatan mustaqil va eng muhim koʻrinishi boʻlgan soliq siyosatiga doir masalalar mujassam etilgan. Va nihoyat, uning toʻrtinchi qismi (7-8-boblar) byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, unga nisbatan bildirilayotgan eʼtirozlar, muammolarni hal etish va eʼtirozlarni yumshatish yoʻllari hamda Oʻzbekistonda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asos (ustuvor yoʻnalish)lariga bagʻishlangan.

1-BOB. BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI: NIMALARNI VA QANDAY O'RGANAMIZ

Siyosat – juda nozik va murakkab masala. Uning oddiy ko'z ilg'amaydigan yoki aql bovar qilmaydigan tomonlari juda ko'p. Siyosatda “kosa tagida – nimkosa”, “qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” kabi holatlar ko'plab uchraydi. Shuning uchun uni to'g'ri tushunishga hamma ham har doim yetarli darajada tayyor bo'lavermaydi. Buning aynan shunday ekanligi ham tabiiy. Shunday ekan, unga nisbatan munosabat bildirayotganda juda ehtiyot bo'lmoq lozim.

Aslida, siyosatni tushunishga tayyor bo'lmagan (tushunmagan)lar unga nisbatan munosabat bildirmaganlari ma'qul. Chunki bu jarayonda “qosh qo'yaman” deb, “ko'z chiqarish” hech gap emas. Hatto siyosatga nisbatan fikr bildirishim kerak, degan qaror qabul qilinganda ham yetti o'lchab, ayrim joylarda esa, yetmish o'lchab, bir kesish lozim. Aksincha, tarzda ish tutganlar hayotning achchiq tajribasi va haqiqatining ko'rsatishicha, qolgan umrlarining oxirigacha muzdek qatiqni ham puflab ichishni xush ko'radilar yoki afzal biladilar.

Siyosatning juda ko'p yoki xilma-xil tur (ko'rinish)lari mavjud. Ulardan biri byudjet-soliq siyosatidir. Bu siyosat ayrim hollardagidek, quruq gap bilan emas, balki pul mablag'larining harakati bilan bevosita bog'liq. Undan doimo pul mablag'larining o'ziga xos bo'lgan o'tkir “hid”i ufurib turadi. “Pul bo'lsa, changalzorda – sho'rva”, “Vaqt – bu pul” degan maqollar bekordan-bekorga kundalik hayotimizga shiddat bilan kirib borib, tobora dolzarbroq ahamiyat kasb etayotgani yo'q. Ijobiy ma'noda “Hammasini pul hal qiladi”, deb ham bejizga aytilmaypti.

Byudjet-soliq siyosatini pul mablag'larining harakatidan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bordi-yu, shunday qilinsa, u o'z kuchini va ta'sirchanligini yo'qotib, siyosatga emas, balki oddiy safsataga aylanadi-qoladi. Shuning uchun

ham u nihoyatda murakkab, nozik, mas'uliyatli va qaltis siyosat hisoblanadi. Shu bois bu siyosat bilan ham odatda, "o'ynashib" bo'lmaydi. Aks holda, u haqiqatdan ham "kuydirish"i va "qimmat"ga tushishi mumkin.

Eng umumiy va sodda tarzda byudjet-soliq siyosati bir tomondan, byudjet daromadlarini (oqilona) shakllantirish va ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarini (samarali) sarflash bilan bog'liq. Aslida byudjet siyosati tom ma'noda o'z ichiga soliqlik siyosatini ham qamrab oladi. Biroq amaliyotda ko'pchilik hollarda, byudjet daromadlarini shakllantirishga qaratilgan siyosatni, odatda, soliqlik siyosati² va byudjet xarajatlarini sarflashga qaratilgan siyosatni esa byudjet siyosati³, deb yuritiladi. Shu ma'noda byudjet-soliq siyosatini shartli ravishda bir-biridan va nisbiy jihatdan mustaqil bo'lgan byudjet va soliqlik siyosatlarining majmuyi sifatida ham e'tirof etish mumkin⁴.

Biroq bu siyosat bekordan-bekorga yagona nom bilan atalib, byudjet-soliq siyosati, deb yuritilmaydi. Buning o'ziga xos sababi bor. Bu sababning negizida ularni bir-biridan mutlaqo ajratib bo'lmazligi yotadi. Byudjet siyosatidan absolyut mustaqil bo'lgan hamda unga bevosita bog'liq bo'lmagan holda ishlab chiqilgan soliqlik siyosati mavjud emas va aksincha. Navbatdagi moliya yilida soliqlik siyosatining asosiy yo'nalishlari va unda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi

² Byudjet daromadlarining ma'lum bir kichik yoki sezilarsiz qismi soliqlik daromadlar hisobidan shakllantirilayotganligi inobatga olingan taqdirda ham bu siyosatni o'zgacha atab bo'lmaydi. Chunki aynan soliqlar byudjet daromadlarining taqdirini belgilab berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

³ Bu siyosatning boshqa jihatlari xususida qo'llanmaning keyingi o'rinlarida yana bir necha bor alohida e'tibor qaratiladi.

⁴ Lekin bundan byudjet-soliqlik siyosatini alohida olingan byudjet siyosati va soliqlik siyosatining mexanik tarzda qo'shilishidan vujudga kelgan siyosat sifatida talqin etish maqsadga muvofiq, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Aniq tasavvur hosil qilish maqsadida o'quv qo'llanmada byudjet siyosati va soliqlik siyosatining alohida-alohida olingan tarzda ko'rib chiqilganligi ham ularning absolyut mustaqil siyosat ekanligini ko'rsatishga asos bo'la olmaydi.

bir o'zgarishlar, boshqa ba'zi bir sabablar bilan bir qatorda, oxir oqibatda, o'sha yilga daxldor bo'lgan byudjet xarajatlari ko'lamining qanday ekanligiga borib taqaladi. O'z navbatida, shu yildagi byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini va unda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ayrim o'zgarishlarni asosan, shak-shubhasiz, byudjet daromadlari hajmi (miqdori) ning qanday ekanligi belgilab beradi. Shu ma'noda byudjet siyosatisiz soliq siyosatini va aksincha, soliq siyosatisiz byudjet siyosatini to'g'ri tasavvur etib bo'lmaydi. Ular ikkalasining o'zaro mushtarakligi, bir-birini taqozo etishi va vobastaligi byudjet-soliq siyosatining yagonaligidan dalolatdir.

Ifodali qilib aytilganda, byudjet siyosati oqqush singari ko'kka tomon parvoz qilayotganda, soliq siyosati cho'rtanbaliq kabi dengiz tomon yoki qisqichbaqaga o'xshab quruqlik sari yo'l olmog'i kerak emas. Aks holda, arava o'rnidan qo'zg'al-maganidek, byudjet-soliq siyosatining samarador (natijali)ligi ham pastligicha yoki "0"ga tengligicha qolaveradi.

Byudjet-soliq siyosati to'g'ri va oqilona yurgizilsa, bir so'mlik mablag'ni sarflab, ba'zi hollarda o'n so'mlik samarani kutsa bo'ladi. Aksincha bo'lganda esa, milliard-milliard so'mlik mablag'lar samarasiz, "qumga suv singib ketgandek" g'oyib bo'lishi mumkin. To'g'ri va oqilona yurgizilayotgan byudjet-soliq siyosati (albatta, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda) ishlab chiqarishning rivojlanishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga, soliqqa tortish bazasining kengayishiga, mablag'larning samarali sarflanishiga va h.k.larga olib kelsa, aksincha bo'lganda esa, bu siyosat iqtisodiy taraqqiyotga to'siq, xufyona iqtisodiyot ko'lamini kengaytirish, mablag'larni talon-taroj qilish va shu kabi salbiy holatlar vujudga kelishining omiliga aylanishi turgan gap.

Bunday vaziyatda "Byudjet-soliq siyosatining o'zi nima, uning asosini nima tashkil etadi, tarkibiy qismlari nimalardan iborat, bu siyosat ishlab chiqilayotgan paytda nimalarga e'tibor berish kerak, uning zamonaviy dolzarb muammolari nimalar va ularni qanday qilib hal qilish maqsadga muvofiq?" kabi ko'plab savollarga aniqlik kiritib olish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu va shunga o'xshash yana bir necha o'nlab ha-

yotiy savollarning mavjudligi, tabiiy ravishda mazkur o'quv qo'llanmaning tarkibiy tuzilmasini belgilab (aniqlab) berdi. Shuningdek, o'quv qo'llanmaning tarkibiy tuzilmasini belgilashda ta'lim tizimining nisbatan mustaqil bosqichi bo'lgan magistraturada o'quv jarayonining o'ziga xos bo'lgan xususiyati (jumladan, ayrim dolzarb mavzuni "ipidan-ignasigacha" yoki chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish) inobatga olindi. Xususan, o'quv qo'llanmada ta'lim tizimining bakalavriat bosqichida muhokama qilingan "Moliyaviy siyosat" mavzusini atroflicha ko'rib chiqishga harakat qilindi. Bunda uning asosan, ikki jihatiga, ya'ni byudjet va soliq siyosatlarining majmuyidan iborat ekanligiga jiddiy e'tibor qaratildi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu yerda eng avvalo, boshqa bir narsaga aniqlik kiritildi. Gap shundaki, hozirgi paytda u yoki bu mamlakat doirasida ishlab chiqilayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan har qanday siyosatni shu mamlakatda tarkib toptirilayotgan bozor iqtisodiyotining qaysi modelga asoslanganligidan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari sun'iy tarzda emas, balki tabiiy ravishda mamlakatdagi har qanday siyosatga, jumladan, byudjet-soliq siyosatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Chunki bozor iqtisodiyotini shakllantirishning har bir modeli faqat o'ziga xos bo'lgan bir necha xususiyatlarga egaki, ular albatta, siyosatda o'z izini qoldiradi. Ularni hisobga olmasdan ishlab chiqilayotgan va yurgizilayotgan byudjet-soliq siyosati mamlakatni muvaffaqiyat sari yetaklamaydi. Shu bois o'quv qo'llanmaning dastlabki bobidayoq ana shu masalaga alohida e'tibor qaratildi hamda masala bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosatining o'zaro vobastaligi kesimida qisqacha tarzda bo'lsa-da, ilk bora ko'rib chiqildi (2-bob).

Biroq bu yerda yana bir masalaga oydinlik kiritib olish kerak. Gap bu o'rinda siyosatning nisbatan mustaqil bo'lgan bir turi sifatida byudjet-soliq siyosatining qayerdan "start" olishi, unga tegishli bo'lgan boshlang'ich "nuqta"ning qayerda ekanligini aniqlab olish xususida ketayapti. Bu bejiz

emas, albatta. Chunki amaliyotda ayrim hollarda, byudjet-soliq siyosati makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qaralsa, boshqa hollarda esa, u moliyaviy siyosatning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Shu munosabat bilan ushbu masalaga aniqlik kiritishda bizningcha, uning quyidagi jihatlariga e'tibor bermoq lozim:

- makroiqtisodiy siyosat iqtisodiy siyosatning tarkibiy (bir) qismi. Uning bunday ko'rinishi iqtisodiy siyosat tur (ko'rinish)larining ma'lum bir belgilarga (iqtisodiy siyosatning qaysi darajada ketayotganligiga) qarab turkumlarga ajratish natijasi hisoblanadi;

- moliyaviy siyosat ham iqtisodiy siyosatning tarkibiy (bir) qismi. Uning bunday ko'rinishi iqtisodiy siyosat tur (ko'rinish)larining boshqa bir belgilarga (iqtisodiy siyosatni amalga oshiruvchi instrumentlarga) qarab turkumlarga ajratish natijasidir;

- ma'lum ma'noda va ba'zi bir istisnolarni hisobga olgan holda bir vaqtning o'zida moliyaviy siyosatni iqtisodiy siyosatning va makroiqtisodiy siyosatning ham tarkibiy qismi sifatida e'tirof etish mumkin;

- xalqaro amaliyotda makrodarajada fiskal siyosat to'g'risida gap ketganda uning konkret mazmuni byudjet-soliq siyosati orqali namoyon bo'layotgan bo'lishiga qaramasdan, bu narsa byudjet-soliq siyosatining faqat va faqat makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishiga yetarli darajada asos bo'la olmaydi. Chunki aslida, o'shanda ham makrodarajadagi fiskal siyosatni moliyaviy siyosatdan ajratib bo'lmaydi. Ko'p hollarda, haqiqatdan ham xorij amaliyotida "fiskal siyosat" deyilganda "moliyaviy siyosat" nazarda tutiladi va aksincha;

- byudjet-soliq siyosati moliyaviy siyosatdan ajralgan holda mustaqil ravishda, iqtisodiy siyosatning ham va makroiqtisodiy siyosatning ham tarkibiga bevosita (to'g'ridan to'g'ri) kira olmaydi;

- iqtisodiy siyosat doirasida byudjet-soliq siyosati xususida gap ketayotganda moliyaviy siyosat to'g'risida gap ketmayapti, deb bo'lmaydi;

- makroiqtisodiy siyosat doirasida ham byudjet-soliq siyosati to'g'risida gap ketganda uni moliyaviy siyosatdan ajralgan holda tasavvur etish mumkin emas.

Yuqoridagi mulohazalardan "aylanganda ham, o'rgilganda ham" byudjet-soliq siyosatining "start" oladigan "joyi" yoki "tayanch nuqta"si moliyaviy siyosatdir, byudjet-soliq siyosatining makroiqtisodiy siyosatdagi o'rni umumiy moliyaviy siyosatning doirasi bilan belgilanadi (amalga oshiriladi), degan mantiqiy xulosaning kelib chiqishi, tabiiy⁵.

Byudjet-soliq siyosati moliyaviy siyosat doirasida ishlab chiqiladi va hayotga tatbiq etiladi. Qolaversa, uning tub asosini yoki fundamentini ham moliyaviy siyosat tashkil qiladi. "Byudjet-soliq siyosatini moliyaviy siyosatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Usiz byudjet-soliq siyosati xususida gapirish o'z ma'nosiga ega emas. Bu siyosat moliyaviy siyosatdan kelib chiqadi va uni yanada konkretlashtiradi" degan fikrlar o'zi-da obyektiv reallikni aks ettiradi. Shuning uchun ham oldin moliyaviy siyosatning ma'no-mazmuniga yoki mohiyatiga⁶

⁵ Garchi bu yerda biz "byudjet-soliq siyosati"ning "makroiqtisodiy siyosat" va "moliyaviy siyosat"ga nisbatan munosabati xususida "kuyib-pishib" mulohaza yuritayotgan bo'lsak-da, aslida xorij amaliyotida bu muammo allaqachon o'z yechimi topgan. U yerda masala kun tartibiga "Byudjet-soliq siyosati qayerdan "start" oladi? Uning boshlang'ich "nuqta"si qayerda?" tarzi qo'yilmaydi. Makroiqtisodiy siyosat nuqtayi-nazaridan "byudjet-soliq siyosati" xususida gapirilayotganda uning moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi ekanligi bir daqiqa ham e'tibordan chetda qolmaydi. Bir vaqtning o'zida "byudjet-soliq siyosati" moliyaviy siyosatning ajralmas qismi ekanligi to'g'risida fikr bildirilayotganda uning makroiqtisodiy siyosatga tegishli bo'lgan jihatlari ham, albatta, nazarda tutiladi. Buning ustiga eng umumiy tarzda aytiladigan bo'lsa, xorij amaliyotida juda ko'pchilik hollarda "makroiqtisodiy siyosat" va "byudjet-soliq siyosati", "makroiqtisodiy siyosat" va "moliyaviy siyosat", "makroiqtisodiy siyosat" va "fiskal siyosat", "moliyaviy siyosat" va "byudjet-soliq siyosati", "moliyaviy siyosat" va "fiskal siyosat", "byudjet-soliq siyosati" va "fiskal siyosat" o'rtalarida tenglik yoki barobarlik belgilari qo'yib, ishlatilaveradi. Bundan hech kim hayratga tushmaydi, "masala"ga "aniqlik" kiritishga ham harakat qilmaydi. Bu ularning, qanday iboralarni ishlatishidan qat'iy nazar "bir til"da gaplashayotganlaridan dalolatdir.

⁶ Ushbu o'rinda bu so'zlar erkin tarzda yoki ixtiyoriy ravishda o'z-o'zidan ishlatilayotgani yo'q. Ular shaklan bir-biridan farq qilsa-da, maz-

tushunmasdan turib byudjet-soliq siyosatiga nisbatan shunday urinish befoyda hisoblanadi. Moliyaviy siyosat doirasida amal qiladigan byudjet-soliq siyosatining ma'no-mazmunini o'quvchilarga (ayniqsa, magistrantlarga) qanday tarzda tushuntirish maqsadga muvofiq? "Hamma narsa va hech narsa" tarzidami yoki ayrim hollardagidek, "omixta" qilibmi? Balki "har sohadan – bir shingil" qilib tushuntirish kerakdir? Xursand bo'lib, qayd etiladigan joyi shundaki, mustaqillik sharofigi ila qo'lga kiritilgan yutuqlardan bahramand bo'lgan hozirgi kundagi ko'plab o'quvchilarning bilim saviyasi juda baland, didi nozik. Ular o'z oldilariga qo'yilgan har qanday taomni iste'mol qilavermaydilar (bu jummalarni "qo'llariga tushgan har qanday kitobni o'qiyvermaydilar", deb o'qing). Shu bois, o'quv qo'llanmaning keyingi qismlarida masalaning ana shu jihatlari e'tiborga olindi va byudjet-soliq siyosati hamda unga tegishli bo'lgan muammolar alohida-alohida tarzda, ya'ni byudjet siyosati va soliqlik siyosati kesimlarida ko'rib chiqildi. Bularning har biri to'g'risida aniq tasavvur-

munan bir-biriga juda o'xshaydi. Shuning uchun garchi o'quv qo'llanmamizning oldiga qo'yilgan vazifalardan biroz chetga chiqishga to'g'ri kelsa-da, quyidagilarni qayd etib o'tishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik. Xususan, "ma'no" arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida mazmun, tushuncha va g'oyani anglatadi. U a) so'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalangan tushuncha; b) aynan mazmun; v) ba'zi xatti-harakat va sh.k.dan anglashiladigan narsa; ifoda; g) biror narsaning mohiyati, nima ekanligi; mohiyatni bildiradi. "Mazmun" ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida mundarija yoki ma'noni anglatadi. U a) aql, fikrlash bilan tushuniladigan, mantiqiy mundarija; boshqa belgi bilan ifodalangan ichki mundarija; b) ish-harakat, voqea-hodisa va sh.k.ni belgilovchi asos, mohiyat; v) biror hodisaning mohiyatini belgilovchi, narsalarni aynan shu narsa sifatida ifodalovchi muhim element va o'zgarishlarning yig'indisi, asosini bildiradi. "Ma'no" va "mazmun"ga o'xshash "mohiyat" ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida haqiqat, har narsaning asli, tub-negizini anglatadi. U a) biror narsaning zamiridagi tub, eng muhim ma'no, ichki mazmun, mag'iz; b) narsalarning ichki mazmuni bo'lib, ularning turli-tuman xossalari va munosabatlarini yaxlit aks ettiradi. Bular to'g'risida batafsil qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. E-M / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 525-526, 565-566 va 621-betlar.

ga ega bo'lgan o'quvchi byudjet siyosati va soliq siyosatini muvaffaqiyatli birlashtirib, yagona byudjet-soliq siyosatini mustaqil ravishda vujudga keltirish vazifasini uddalaydi, deb o'yladik va buni o'quvchilarimizning ixtiyoriga qoldirdik.

U yoki bu mamlakatda byudjet-soliq siyosatining ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, o'z-o'zidan emas, balki obyektiv reallikka asoslanadi. Bu yerda, eng avvalo, inobatga olinishi lozim bo'lgan narsa shu mamlakatda bozor munosabatlari unga o'tishning qanday modeliga borib taqalishi bilan belgilanadi. Bunga alohida urg'u berilib, ushbu masala o'quv qo'llanmaning 2-bobida bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosatining o'zaro vobastaligi aspektida ko'rib chiqildi.

Byudjet siyosati byudjet-soliq siyosatining va shunga mos ravishda moliyaviy siyosatning ham eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan birlamchi xarakterga ega. Eng oddiy tarz (primitiv shakl)da bu narsa masalaning "soliq-byudjet siyosati" tarzida emas, balki aynan "byudjet-soliq siyosati" tarzida qo'yilayotganligi bilan ham belgilanadi. Bu yerda "Alixo'ja" "Xo'jaali" emas.

Byudjet siyosati doirasidagi eng dolzarb muammolarning barchasi beixtiyor byudjet defitsitiga borib taqaladi. Birgina uning darajasiga qarab turib, byudjet siyosatining ahvoliga makrodarajada baho berish mumkin. Bir vaqtning o'zida byudjet defitsitining darajasi har qanday davlatning moliyaviy mustaqilligini belgilashda muhim ahamiyatga ega. U ma'lum bir daraja (me'yor)da bo'lmog'i lozim. Byudjet defitsitining darajasi umum-e'tirof etilgan (umumiy qabul qilingan) daraja (me'yor)dan oshsa, u mamlakatning mustaqilligiga jiddiy xavf soladi. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi sharoitda byudjet defitsitini kamaytirish byudjet siyosatining markaziy, ayrim hollarda esa, "Yo hayot, yo mamot!" masalasi bo'lib qolganligini anglatadi. Ana shularni e'tiborga olgan holda bu bilan bog'liq bo'lgan muammolar o'quv qo'llanmaning 3-bobida o'ziga xos tarzda ko'rib chiqildi.

Soliq siyosati byudjet-soliq siyosatida alohida salmoqli o'ringa ega. Shuning uchun o'quv qo'llanmaning bunga te-

gishli bo'lgan qismi (4-bob)da dastlab, zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishning fundamental asoslariga jiddiy e'tibor qaratildi. Ular soliqlar, soliq tizimi va soliq siyosatidagi vaziyat; soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosi va soliq siyosati; soliq tizimi, soliqqa tortish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari, ularning soliq siyosati hayotiychanligiga ta'siri; iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida soliqlar va soliq siyosati; soliq siyosati va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari kesimida bayon qilindi.

Soliq yuklamasiga nisbatan bo'lgan munosabat masalasi soliq siyosatida eng muhim o'rin tutadi. Amaliyotda unga nisbatan befarq bo'lgan soliq to'lovchini topishning iloji yo'q. Ko'pchilikning nazarida barcha iqtisodiy muammolarning yechimi oxir-oqibatda soliq yuklamasiga borib taqaladi. Ayrim hollarda soliq yuklamasini yengillashtirish barcha iqtisodiy muammolarni hal qilishning "sehrli tayoqcha"si sifatida qaralmoqda. Soliq yuklamasini optimallashtirish – soliq siyosatining eng dolzarb muammosi bo'lganligi uchun o'quv qo'llanmaning 5-bobida maxsus tarzda unga alohida e'tibor qaratildi.

Soliq siyosatidagi eng munozarali muammolardan yana biri soliq imtiyozlariga tegishli. Bir vaqtning o'zida soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish soliq siyosati samaradorligini ta'minlashning garovi hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'quv qo'llanmaning 6-bobida ushbu masala soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish prinsiplari; soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish uchun hisobga olinadigan holatlar; soliq va imtiyoz dialektikasi; soliq imtiyozlarining salbiy jihatlar; soliqlarni to'lash – qullik emas, hurlik belgisi; "stimul"mi yoki "rag'bat"? aspekt (yo'nalish)larida muhokama etildi.

Byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlar, muammolarni hal etish va e'tirozlarni yumshatish yo'llariga o'quv qo'llanmaning 7-bobi bag'ishlandi. Bu bobning materiallari ham o'ziga xos xususiyatga ega. Unda tor doiradagi iqtisodchi-olimlarni emas, balki eng avvalo, keng jamoatchilik om-

masi, oddiy fuqarolar, tadbirkorlar, xullas barcha oddiy soliq to'lovchilarni qiziqtiruvchi hayotiy savollarga javob berishga harakat qilindi. Buning ustiga bu bobda bayon qilingan fikrlarning barchasi mualliflarning shaxsiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Yetarli darajada o'zining obyektiv asosiga ega bo'lishiga qaramasdan, biz bu yerda ko'r-ko'rona ularga itoat qilinishi, ularning ma'qullanishi yoki qo'llab-quvvatlanishi tarafdori emasmiz. Aksincha, bu bobda bildirilgan fikrlarning har biriga o'quvchilarimizning katta shubha bilan qarashlarini, ularni o'ziga xos tarzda "shtik"da qarshi olishlarini istardik. Bir vaqtning o'zida ana shu jarayonda o'quvchilarimiz bu bobda bildirilgan fikrlarning ayrimlarini rad etishga o'zlarini tayyor, deb hisoblashdan oldin shoshilmasdan o'z-o'zlariga "Nima uchun mualliflar bunday fikrni bildirayapti? Uning asosida nima yotibdi ekan? Buning bir "balo"si bo'lsa kerakov?" qabilidagi hushyorona savollarni berib, ularning xolisona javoblarini topsalar, ayni muddao bo'lur edi.

Byudjet-soliq siyosati – dogma emas. Garchi "shamolning qay tomondan esayotganligi" unga unchalik ta'sir ko'rsatmasa-da, hayotning o'zi o'zgaruvchan bo'lganligi uchun u ham o'zgarib turadi. Kishilik jamiyati taraqqiyotida bir bosqichdagi vazifalar muvaffaqiyatli hal etilganidan so'ng navbatdagi yangi vazifalar kun tartibiga qo'yiladi. Yangi vazifalarni "eski" byudjet-soliq siyosati doirasida bajarishga urinish hamma vaqt ham muvaffaqiyat keltiravermaydi. Yangi vazifalarga nisbatan yangi byudjet-soliq siyosati zarur. Shuning uchun ham vaqt o'tib, takomillashtirishni taqozo etmagan byudjet-soliq siyosati mavjud emas. Bunda esa "boshni har toshga urmasdan" dastlabki kunlardanoq byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asos (ustuvor yo'nalish)larini aniqlab olish prinsipial ahamiyat kasb etadi. Ularni aniqlashga o'quv qo'llanmaning 8-bobi bag'ishlandi.

Biroq bu yerda ba'zi hollardagidek, "Amerikani kashf etish"ga harakat qilinmadi. "Velosipedni ham ixtiro qilish"ga urinilmadi. Aksincha, O'zbekistonda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari allaqachon

mustahkam yaratilganligi yoki ustuvor yo'nalishlari belgilanganligi qayd etildi. Eng muhimi, ularning hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganligi va o'tayotganligi, bizni esa buyuk kelajak sari ishonch bilan yetaklayotgani e'tirof etildi.

Va nihoyat, yana bir muhim narsa. Masala kun turtibiga "Byudjet-soliq siyosati: nimalarni va qanday o'rganamiz? shakli va mazmunida qo'yilganda avvalo, nimalarni o'rganish albatta, muhim va u birinchi darajali ahamiyat kasb etishi tabiiy. Biroq shu jarayonda uning qanday o'rganilishi ham undan kamroq bo'lgan muhimlik va ahamiyat kasb etmaydi. Shu munosabat bilan e'tiboringizga havola etilayotgan ushbu "loyiha"ni biz "o'ylab-netib" o'tirmasdan yoki sira ikkilanmasdan atayin "o'quv qo'llanma" deb atagan bo'lsak-da, lekin u bilan tanishish jarayoni, bir tomondan, uning o'quv qo'llanma ekanligi o'quvchida "shubha" tug'dirsa, ikkinchi tomondan, u shunday deb e'tirof etilganda ham, uning o'ziga xos "o'quv qo'llanma" ekanligi ma'lum bo'ladi. Tegishli mutaxassislar esa, ushbu "loyiha"ning aslida nima ekanligini aniqlashga astoydil kirishsalar va "po'stagimizni qoqish"ga harakat qilsalar, biz bunga sira ajablanmaymiz. Chunki u Siz bilan biz o'qib, allaqachon ko'nikib qolgan boshqa o'quv qo'llanmalariga, yumshoqroq qilib aytganda ham unchalik o'xshamaydi. Buning aynan shunday ekanligini uzoqqa bormasdan "loyiha"mizning barcha boblarini an'anaviylik ustuvor bo'lgan boshqa "loyiha"larning tegishli boblari bilan taqqoslash natijasida aniqlasa bo'ladi.

Albatta, an'anaviy tarzda e'tirof etib kelinayotgan va o'ziga xos ziyo manbayi bo'lgan o'quv qo'llanmaning oldiga ma'lum bir talablar qo'yilishidan biz ham ogohmiz. Biroq ana shunday talablarning qo'yilishi o'quv qo'llanmaga nisbatan o'quvchida qanday munosabatni shakllantirmoqda? Bu talablar bir tomondan, uning sifatini oshirishga astoydil xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular o'quvchi nazari-
da o'quv qo'llanmaning "ishtaha" bilan o'qilmaydigan, o'ziga ixtiyoriy ravishda jalb qilmaydigan va qo'ldan qo'lga o'tmaydigan "zerikarli kitob" nomini olishiga o'zining "munosib" hissasini qo'shmayaptimi?... Va xullas, foydali yoki kerakli

kitob sifatida uning jozibadorligini yetarli darajada ta'minlamayapti-ku!?⁷. Buning ustiga ta'lim tizimining bakalavriyat bosqichidagi o'quv qo'llanmalari o'zining barcha o'lcham (parametr)lari bilan uning magistratura bosqichidagi o'quv qo'llanmalari bilan bir xil bo'lishi kerakmi yoki farqlangani maqsadga muvofiqmi? Xususan, magistraturada bakalavriyatga nisbatan kengroq, chuqurroq, mustahkamroq va kuchliroq bilim beriladigan bo'lsa, bunga qanday qilib erishish mumkin? Aynan bakalavriyatdagi usullarni qo'llash bilanmi yoki...? Balki an'anaviy "qolip"dan chiqish kerakdir?

Ana shu yuqoridagi real holatlarni hisobga olgan holda "qanday o'rganish? masalasi bu yerda o'zgacha hal qilindi⁸. Xususan, juda muhim va o'ta prinsipial ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan, qo'llanmaning boshlang'ich qismida an'anaviy tarzda o'z o'rnini egallashi lozim bo'lgan ba'zi masalalar, ya'ni "Byudjet-soliq siyosati" fani (maxsus kursi) ning predmeti, o'rganish obyekti, metodlari, uning maqsadi, vazifalari va h.k.lar ongli ravishda e'tibordan deyarli chetda qoldirildi. Bularni mustaqil ravishda aniqlashni o'quvchilari-mizning ixtiyoriga qoldirdik va bu vazifani bajarishga ularni qodir, deb hisoblaymiz.

O'quv qo'llanmaning katta qismi o'ziga xos uslub va til-da yozilgan. Undagi ayrim masalalarni muhokama etishda an'anaviy usullardan foydalanilmadi, sun'iy ravishda bosqichlik qilinmadi, tabiiy tarzda yotig'i bilan tushuntirilmadi. Chunki hozirgi sharoitda hayot tajribasining ko'rsatishicha, ba'zi bir obyektiv sabablarga ko'ra an'anaviy, oddiy, monoton bayon etish va tushuntirishlar ilm toliblariga sezilarli ta'sir qilmay qoldi. Bunday "variant"da ish tutish ularning talablariga yetarli darajada javob ham bermayapti. Ularda befarqlik, hafsalasizlik kayfiyatini tug'dirayapti, mavjud mua-

⁷ "O'quv qo'llanmaning jozibadorligi" deyilganda nima tushuniladi o'zi? Uning aynan shunday ekanligini qanday ko'rsatkichlar xarakterlashi mumkin? Umuman, o'quv qo'llanma jozibador bo'lishi kerakmi yoki ...? Bilimga ega bo'lish yoki ilm izlash (istash)ning yo'llaridan biri shu emasmi?

⁸ Biroq bu tasdiq qo'llanmamizning barcha boblari uchun o'rinli emas. Ba'zi bir sabablarga ko'ra biz ham bu masalada biroz "qo'rqqulik" qildik.

mmolarni hal etish bo'yicha qiziqishni keskin o'yg'otmayapti, mantiqiy fikrlashga olib kelmayapti (jalb qilmayapti) va h.k.

Aksincha, his-hayajon bilan, ehtirolarga berilib, "provokatsion" yo'llar orqali muammolarni hal etish va maqsadga erishish hamma vaqt ham oqilona yo'l emasligini oldindan bilsa-da, ba'zi-bir obyektiv sabablarga (jumladan, o'quvchilarning e'tiborini o'ziga jalb qilish, ularning "mudrab" o'tirganlarini "o'yg'otish", qiziqish uyg'otish, befarqlik kayfiyatidan xalos etish va b.) ko'ra mualliflar shu yo'llarni tanladi. Chunki, oqillik chegarasi kesib o'tilmasa yoki me'yorga qat'iy rioya qilinsa, ayrim orator notiqlarning o'quv-pedagogik amaliyoti bu yo'llarning ham ijobiy samara berishi mumkinligini va ular bizni ko'zlagan maqsadimizga tezroq yetib borishga xolisona xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatayapti.

Undan tashqari o'quv qo'llanmada byudjet-soliq siyosatiga bevosita daxldor bo'lgan bir qator muammolar o'quvchilarga oddiy ko'rinishda bildirilib, ongli ravishda va sun'iy tarzda oldindan ochiq qoldirildi. Bundan maqsad, xalqano va hayotiy "har kallada – har xayol" prinsipidan ijodiy va ijobiy foydalangan holda tegishli muammolarni hal etish yo'llarini qidirib topishda o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlashdir. Hech bo'lmaganda, qo'llanma shu maqsadga erishish uchun biroz xizmat qilsa, mualliflar o'z vazifasini bajarilgan, deb hisoblaydi.

Va nihoyat, qo'llanmada har bir mavzuning materiallari bayon etilganidan so'ng bahs-munozara yoki nazorat uchun savollarni ifodalashga ham jiddiy e'tibor berildi. Ularda odatdagidek, nomigagina 5-6 ta savolni shakllantirish bilan cheklanilmadi. Aksincha, savollarning mavzu materiallarini to'liq qamrab olishiga erishishga harakat qilindi. Bu tarzda yo'l tutish ham o'quv qo'llanmada aks ettirilgan fikrlarning to'liq o'zlashtirilishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi, deb umid qilamiz.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Siyosatning nozikligi nimada?

- Siyosatning qanday ko‘rinish (tur)lari bo‘lishi mumkin?
- Byudjet-soliq siyosatining o‘ziga xos bo‘lgan eng muhim xususiyati nimadan iborat?
- Byudjet-soliq siyosatini pul mablag‘larining harakati-dan ajralgan holda tasavvur etib bo‘ladimi?
- Eng umumiy va sodda tarzda byudjet-soliq siyosati nimalar bilan bog‘liq?
- Byudjet siyosati, tom ma’noda, o‘z ichiga soliq siyosatini ham qamrab oladimi?
- Amaliyotda, ko‘pchilik hollarda, qanday siyosatni byudjet va qanday siyosatni soliq siyosati, deb yuritiladi?
- Byudjet-soliq siyosatini shartli ravishda bir-biridan va nisbiy jihatdan mustaqil bo‘lgan byudjet va soliq siyosatlarining majmuyi sifatida ham e’tirof etish mumkinmi?
- Nega bu siyosat yagona nom bilan atalib, byudjet-soliq siyosati, deb yuritiladi? Buning o‘ziga xos sababi bormi? U nimadan iborat?
- “Byudjet siyosatidan absolyut mustaqil bo‘lgan hamda unga bevosita bog‘liq bo‘lmagan holda ishlab chiqilgan soliq siyosati mavjud emas va aksincha”. Shu fikr to‘g‘rimi? To‘g‘ri bo‘lsa, uni isbotlab berishga harakat qilingchi?
- Byudjet-soliq siyosati to‘g‘ri va oqilona yurgizilsa, uning oqibatlarini qanday tasavvur etish mumkin? Aksincha, bo‘lsa-chi?
- “Byudjet-soliq siyosati” fani (kursi)ning tarkibiy tuzilmasini nimalar aniqlab berishi mumkin?
- “Byudjet-soliq siyosatini moliyaviy siyosatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Usiz byudjet-soliq siyosati xususida gapirish o‘z ma’nosiga ega emas. Bu siyosat moliyaviy siyosatdan kelib chiqadi va uni yanada konkretlashtiradi” degan fikrlar o‘rinlimi? Ularning aynan shunday ekanligini asoslab bera olasizmi?
- Moliyaviy siyosat doirasida amal qiladigan byudjet-soliq siyosatining ma’no-mazmunini o‘quvchi (ayniqsa, magistrant) larga qanday tarzda tushuntirish maqsadga muvofiq?

- “Byudjet siyosati byudjet-soliq siyosatining va shunga mos ravishda, moliyaviy siyosatning ham eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan birlamchi xarakterga ega” degan tasdiqni qoʻllab-quvvatlaysizmi? Agar qoʻllab-quvvatlasangiz uni tushuntirib bering-chi?!

- Byudjet siyosati namoyon boʻlishining asosiy shakllari nimalardan iborat?

- Byudjet tizimi, byudjet tuzilmasi va byudjet jarayoni orqali byudjet siyosati oʻzini qanday namoyon etadi?

- Haqiqatdan ham byudjet siyosati doirasidagi eng dolzarb muammolarning barchasi, beixtiyor, byudjet defi-tsitiga borib taqaladimi?

- Nega “Byudjet-soliq siyosati” fani (kursi)da zamonaviy soliqlik siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishning fundamental asoslariga jiddiy eʼtibor qaratish kerak? Ularni qanday aspektlarda oʻrganish maqsadga muvofiq?

- “Byudjet-soliq siyosati” fani (kursi)da soliqlik yuklamasini yengillashtirish (optimallashtirish) masalasiga nega jiddiy eʼtibor qaratilishi kerak?

- “Byudjet-soliq siyosati” fani (kursi)ning mazmunini soliqlik imtiyozlarini oqilona taqdim etish soliqlik siyosati samaradorligini taʼminlashning garovi ekanligisiz tasavvur etish mumkinmi? Bu masalani qaysi aspektlarda koʻrib chiqish lozim?

- Byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan eʼtirozlar, muammolarni hal etish va eʼtirozlarni yumshatish yoʻllari “Byudjet-soliq siyosati” fani (kursi)da oʻrganilishi kerakmi? Nega?

- Nega byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asos (ustuvor yoʻnalish)larini aniqlash “Byudjet-soliq siyosati” fani (kursi)da prinsipial ahamiyat kasb etishi kerak?

- “Byudjet-soliq siyosati” fani (kursi)da masalalarni qanday tartibda oʻrganish maqsadga muvofiq? Anʼanaviy tarzda mi yoki noanʼanaviy? Nega?

- Byudjet-soliq siyosati” fani (kursi)da masalalarni noanʼanaviy tartibda oʻrganishning afzalliklari nimalardan ibo-

rat? Bunda nimalarga e'tibor berish kerak-u, aksincha, nimalarni e'tibordan chetda qoldirish zarur?

- Qo'llanmaning boshlang'ich qismida an'anaviy tarzda o'z o'rnini egallashi lozim bo'lgan ba'zi masalalar, ya'ni "Byudjet-soliq siyosati" fani (kursi)ning predmeti, o'rganish obyekti, metodlari, uning maqsadi, vazifalari va h.k.larga ongli ravishda e'tibor berilmaganligi va ularni mustaqil ravishda aniqlashni o'quvchilarning ixtiyoriga qoldirilganligini qanday baholaysiz? Bu vazifalarni mustaqil ravishda bajarishga magistrantlarni qodir, deb hisoblash mumkinmi?

- Xalqona va hayotiy "Har kallada – har xayol" prinsipidan ijodiy va ijobiy foydalanish masalasiga qanday qaraysiz? Uning ijobiy va salbiy tomonlari xususida nimalar deya olasiz?

- Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar sonining qo'llanmada keskin ko'paytirilganligiga munosabatingiz qanday? Bu yaxshimi, yoki...?


2-BOB. BOZOR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH MODELLARI VA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI- NING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Har bir mamlakatda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishi lozim bo‘lgan byudjet-soliq siyosatining mazmun-mohiyati va uning yo‘nalishlarini eng avvalo, shu mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirishda uning qanday modeliga tayanilgani (asoslanganligi) belgilab beradi. Shu ma’noda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosati o‘zaro vobastadir. Ularning ikkinchisi (byudjet-soliq siyosati)ni birinchisi (bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari)dan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Agar aksincha ish tutilsa, bu bir tomondan, mamlakatda sog‘lom bozor munosabatlarining rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi, uni murakkablashtiradi. Ikkinchi tomondan esa, byudjet-soliq siyosatida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning u yoki bu modelining o‘ziga xos xususiyatlari, talablari va prinsiplari inobatga olinmasa, bu bunday siyosatning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga o‘ziga xos zamin tayyorlaydi va byudjet-soliq siyosati albatta, ertami-kechmi, baribir muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shuning uchun ham bu yerda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosatining o‘zaro vobastaligini to‘g‘ri idrok etish prinsipial ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan alohida qayd etish lozimki, u yoki bu mamlakatda xo‘jalik yuritishning zamonaviy shakli yoki usuli sifatida bozor iqtisodiyotini shakllantirish (tarkib topirish, vujudga keltirish) to‘g‘risida gap ketar ekan avvalo, uning dunyo amaliyotida umume’tirof etilgan quyidagi ikki modeli mavjudligi qayd etiladi:

- 1.Liberal model.
- 2.Sotsial (ijtimoiy) yo‘naltirilgan model.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning bu ikki modeli o'ziga xos xususiyatlarga yoki xarakterli belgilarga ega. Buni 1-chizmadan yaqqol ko'rishimiz mumkin.



1-chizma. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va byudjet-soliq siyosatiga ta'siri

1-chizmada qayd etilgan holatlarni tahlil qilish va ularning xarakterli belgi yoki xususiyatlarini bir-birlari bilan qiyoslash natijasida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning bu har ikki modeli bir-biridan tubdan farq qilishini aniqlashimiz mumkin. Ular deyarli barcha pozitsiyalar bo'yicha, haqiqatdan ham bir-birining aksidir. Buning ustiga bir modelga tegishli bo'lgan xarakterli belgi ikkinchi modelga xos emas.

Shu o'rinda har bir modelga tegishli bo'lgan bu xarakterli belgilarni kimlarningdir ijod mahsuli sifatida emas, balki iqtisodiy hayot aksiomasi tarzida e'tirof etish lozimligini ham qayd etib o'tish joiz. Bizning xoxish-irodamizga bog'liq bo'lmagan holda ular tabiiy ravishda o'zini namoyon etib turibdi. Bu yerda sun'iy ravishda u yoki bu modelga "tiqishtirilgan" xarakterli belgi yo'q. Shu bois ba'zi-birovlar tomonidan ular "reviziya" qilinmasligi yoki shubha ostiga olinmasligi kerak.

Odatda, yaratilgan u yoki bu model ma'lum bir muallif(lar) tomonidan ishlab chiqiladi. Yaratilgan va amalda faoliyat ko'rsatayotgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari ham bundan mustasno emas. Ularning ham muallif(lar)i bor. Lekin bozor iqtisodiyotini shakllantirish modelarining muallif(lar)i Siz bilan biz ko'nikib qolgan va nazarda tutadigan muallif(lar)dan farqlanadi. Ularning muallif(lar)i – HAYOT, deb ataladi. Shuning uchun bozor iqtisodiyotini shakllantirishning bu modellari alohida olingan shaxslar tomonidan ishlab chiqil(yaratil)maganligini yoki "ixtiro" qilinmaganligini yana bir marta qayd etib, ularning ana shunday ko'rinishda tarkib topganligi o'z navbatida, uzoq vaqt davom etgan tarixiy taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojining natijasi ekanligini ta'kidlash joiz.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va ularning har biriga xos bo'lgan xarakterli belgilarni inobatga olish barcha sohalarda (shu jumladan, byudjet-soliq siyosatiga nisbatan ham) oqilona qarorlarni qabul qilish uchun prinsipial ahamiyatga ega. Shuning uchun gap alohida olingan mamlakat xususida ketayotganda, eng avvalo, bu mamlakatning bozor munosabatlarini qaysi model asosida shakl-

lantirayotganligiga aniqlik kiritish lozim. Undan so'ng bu modelga tegishli bo'lgan xarakterli belgilarni inobatga olgan holda qarorlar qabul qilishga chog'lanmoq kerak. Aks holda qabul qilingan qaror Siz bilan bizni ko'zlangan maqsad sari yetaklamaydi.

Oddiy fuqaro (inson) sifatida har bir modelga tegishli bo'lgan xarakterli belgilarning bizga maqbul bo'lgan variantlarini o'z manfaatlarimizga "moydek" yoqishini sezib, "qarsak chalib" kutib olishimiz tabiiy. Masalan, o'zida bozor munosabatlarini "liberal model" asosida shakllantirayotgan mamlakatlarda a) xo'jalik jarayonlariga davlatning kam aralashuvi; b) xo'jalik yurituvchi subyektlarning keng erkinligi; v) davlat tomonidan tartibga solishning monetar xarakterdaligi va asosan, makroiqtisodiy jarayonlar bilan cheklanganligi ularning fuqarolari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadi. Xuddi shu joyning o'zida aksincha, a) iqtisodiyotda davlat sektorining torligi; b) sotsial (ijtimoiy) vazifalarni bajarishda davlatning minimal ishtirok etishi; v) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning faqat aholi kambag'al-qashshoq qismiga yo'naltirilganligi ma'qullanmasligi mumkin.

Xuddi shunday holatni o'zida bozor munosabatlarini "sotsial (ijtimoiy) yo'naltirilgan" model asosida shakllantirayotgan mamlakatlarda ham kuzatamiz. Masalan, ularning fuqarolari uchun; a) sotsial (ijtimoiy) vazifalarni bajarishda davlatning ko'proq ishtirok etishi; b) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning aholi barcha qatlamiga yo'naltirilganligi muhim ahamiyatga ega bo'lsa, aksincha, a) davlat tomonidan tartibga solishning nisbatan yuqori darajadaligi; b) xo'jalik yurituvchi subyektlarning nisbatan kamroq erkinligi; v) bozorni faqatgina makro-darajada emas, balki mikrodarajada ham reglamentatsiya qilinishi "shtik"da qarshi olinishi turgan gap.

O'z holimizga qo'yib berilsa, albatta, har ikki modelning faqat o'zimizga ma'qul keladigan tomonlarini qabul qilishni va shunday ijobiy xarakterli belgilarni o'zida mujassam etuvchi uchinchi modelning yaratilishini istaymiz. Ammo buning iloji yo'q. Chunki, birinchidan, bozor munosabatlarining

rivojlanish tarixi shundan dalolat bersa, ikkinchidan, bunday modelni yaratishga harakat qilish behuda urinishdan boshqa hech narsa emas. Buning boisi shundaki, bu yerda ham tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlaridan biri bo'lgan qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni o'z kuchini ko'rsatadi. Zero, bu qonunning o'zini namoyon etishi Siz bilan bizning xoxish-irodamizga bog'liq emas. Shuning uchun ham usiz bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellarining amalda faqat ijobiy yoki faqat salbiy tarzda namoyon bo'lishini tasavvur etish o'z-o'zini aldash bilan barobar.

Mavzumizning mazmunini hisobga olgan holda 1-chizmada bozor iqtisodiyotini shakllantirish har bir modeliga xos bo'lgan xarakterli belgilarning, jumladan, soliqlar va soliqqa tortish hamda byudjet-soliq siyosati masalalariga ta'siri ham ko'rsatilgan. Undan ko'rinib turibdiki, liberal model minimal, sotsial (ijtimoiy) yo'naltirilgan model esa, aksincha, maksimal darajada(gi) soliqlarning olinishini taqozo etmoqda. Bu o'z-o'ziga(dan) emas, balki kuchli mantiqqa asoslangan. Shuning uchun ham liberal modelga xos bo'lgan xarakterli belgilar boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda ko'proq soliqlarning olinishiga sira hojat qoldirmaydi. Va aksincha, sotsial (ijtimoiy) yo'naltirilgan modelga tegishli bo'lgan xarakterli belgilar esa kamroq soliqlarning olinishiga imkon bermaydi. Bu holatni ma'lum ma'noda absolyut haqiqat sifatida talqin qilmoq maqsadga muvofiq.

Vaziyatning aynan shunday ekanligi faqat soliqlar va soliqqa tortish masalalariga yoki byudjet-soliq siyosatiga daxldor emas. Iqtisodiyot va iqtisod ilmining qaysi sohasida bo'lmasin bu narsa o'z izini albatta, qoldiradi. Undan qochib qutilishning iloji yo'q. Uni ko'rolmaslik yoki ko'rib, ko'rmaslikka olish nodonlik alomatidir. Shunday ekan, endi bir tasavvur qilib ko'raylik: iqtisodiy, jumladan, byudjet-soliq siyosati sohasidagi muammolarni hal qilishga shaylanib turganimizda yuqoridagi "absolyut haqiqat" qay darajada inobatga olinayapti? Inobatga olinayaptimi o'zi yoki yo'qmi? Yoki u o'z yo'ligami? U biz qo'yayotgan "diagnoz" yoki berayotgan tayyor "retsept"larimizga qay darajada aks etishi

kerak? Unga bog'liq bo'lmagan holda "taklif-tavsiya"larimizni ilgari surib, ularni ilmiy va amaliy jihatdan "asoslab" bermayapmizmi? Qolganlarimiz oddiy tomoshabin bo'lib, "Sen – menga tegma, men – senga tegmayman" qabilida ish tutib, "qarsak chalib" o'tirmayapmizmi? Bu narsa qachongacha davom etishi kerak?...

Ishonchingiz komil bo'lsin, barcha iqtisodiy muammolarni, shu jumladan, soliqlar va soliqqa tortish yoki byudjet-soliq siyosati sohasidagi muammolarni ham hal etishda yuqoridagi "tamal toshi" inobatga olinadigan bo'lsa, folbinlik qilishga, asossiz fantaziya va xayolparastlikka hojat qolmaydi. Boshni har toshga urish ham shart emas. O'zimizni "o't"ga ham, "suv"ga ham uravermaymiz. Har qanday musiqa-ga "yo'rg'alash"dan o'zimizni tiyib turamiz. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi uchun "zig'ircha" bo'lsada foydasi tegadigan asosli va to'g'ri, odilona va oqilona, foydali va samarali qarorlarning qabul qilinishiga o'zimizning munosib hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Va nihoyat, yana bir fikr: 1-chizmada qayd etilgan holatlardan ogoh bo'lib, beixtiyor "Bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellarining qaysi biri yaxshiroq ekan", - degan savolni o'z-o'zingizga berib, uning javobini topishga intilmang. Shunday savolni berganingizda ham xayolingizni boshqa o'rinsiz narsalar cho'lg'ab olmasin. Chunki uning javobi 1-chizmaning o'zida mujassam (aks ettirilgan). Uni topmoqchi bo'lsangiz bozor iqtisodiyotini shakllantirishning ikki modeliga mos ravishda keltirilgan davlatlarning ikki guruhi-ga e'tibor bering. Har ikki guruhga kiruvchi davlatlar barcha asosiy "pozitsiya"lar bo'yicha bugungi kunda dunyoning eng taraqqiy etgan mamlakatlari hisoblanadi. Ajablanarlisi shundaki, turli "yo'l"dan borib yoki "model"dan foydalanib, ularning taraqqiyot va aholisining turmush darajasi deyarli bir xil. Biri oldinga ketib, ikkinchisi ortda qolgani yo'q. Qanday "model"ning tanlanganligi ko'zlangan maqsadga erishishga ta'sir qilmayotir. Har ikki "model"ning ham "a'lo" ekanligini tasdiqlovchi bundan ortiq dalilga ne hojat?!

Albatta, har bir mamlakat xo'jalik yuritishning zamonaviy samarali yo'li sifatida o'z oldiga bozor iqtisodiyotini tarkib toptirish yoki shakllantirish vazifasini qo'yar ekan, shu ikki "model"dan birini tanlashi tabiiy. Zero, yuqorida qayd etilganidek, "HAYoT" deb atalmish muallif hali uchinchi "yo'l"-ga asos solmagan. Bu o'rinda, ayni damda, kimlarningdir fikricha, go'yo o'zida ham "rejali iqtisodiyot" va ham "bozor iqtisodiyoti" elementlarini mujassam etayotgan va keyingi yillarda yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'layotgan Xitoydan o'rnak olish kerak, degan xayolga ham bormang. Xitoyning bu boradagi yutuqlaridan biz ham xursand bo'lsak-da, ular nimaning evaziga qo'lga kiritilayotganligini esdan chiqar-masligimiz lozim. Undan tashqari shunday xayolga boru-vchilar quyidagi real holatni ham inobatga olishlari kerak: yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'layotgan Xitoyning xolis ekspertlar hisob-kitoblariga qaraganda dunyoning eng rivoj-langan davlatlari qatoriga kirishiga eng kamida, hali bir asr-ga teng bo'lgan vaqt talab qilinadi.

Bir vaqtning o'zida shu ikki "model"dan biri tanlanar ekan, ularni bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'r-ko'rona, avtomatik tarzda ko'chirish, ularga hamma vaqt ham "sajda" qilish maqsadga muvofiq emas. Ularni tanlayotgan paytda shubhasizki, har bir mamlakat, eng avvalo, "model"ni o'zi-ga "o'lchab" ko'radi. "Model" yarashsa, uning hamma "para-metr"lari to'g'ri kelsa, nur ustiga – a'lo nur. Yarashmasa yoki to'g'ri kelmasa-chi? U holda qabul qilinishi lozim bo'lgan "model"ning u yoq-bu yog'i "to'g'rilanishi" kerak, albatta. Chunki masalan, "laylak"ning "kiyim"i "chumchuq"qa kiyin-tirilmaydi yoki aksincha. Bu yerda ham xuddi shunday. Shu bois, bozor iqtisodiyotini shakllantirishning sotsial (ijtimoiy) yo'naltirilgan modeliga tayangan holda qaror topayotgan, yangicha(dan) o'zbekona ma'no-mazmun va mohiyat kasb etayotgan hamda jahonda e'tirof etilayotgan, o'zimizga xos va mos bo'lgan zamonaviy hosila "o'zbek modeli" ana shun-day o'zgartirishlar natijasidir.

Qisqa qissadan – hissa: iqtisod ilmini rivojlantirishga va shu asosda amaliyotdagi iqtisodiy, jumladan, byudjet-soliq

siyosatiga doir muammolarni hal etishga hissa qo'shish uchun harakat qilayotgan barcha izlanuvchilardan, ayniqsa, magistrantlardan umidimiz juda katta. Bu borada xususan, kelajakda iqtisodchi-olim bo'lishni, olimlikning "og'ir" yuklamasini gard yuqtirmay, sharaf bilan ko'tarib yurishni va xalqimizning koriga yarashni o'z oldiga niyat qilib qo'yg'an iqtidorli yoshlarimizga katta ishonch bilan qaraymiz. Shuning uchun ham ularning ilmiy "taqdir"iga befarq qaramasdan, to'g'ri joydan "start" olishlarini juda-juda istardik. Zero, "marra"ga qanday va qachon yetib kelish avvalo, olingan "start"ga bog'liq. Quchilgan "zafar"ni ham olingan "start"dan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- "Bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosati"ning o'zaro vobastaligi, deganda nimalarni tushunasiz?
- Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning umume'tirof etilgan qanday modellari mavjud?
- Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning liberal modeli uchun qanday xarakterli belgilar xos?
- Liberal modelda xo'jalik jarayonlariga davlat kam aralashadigan bo'lsa, bundan byudjet-soliq siyosatiga nisbatan qanday xulosalar kelib chiqishi kerak?
- Byudjet-soliq siyosatida nimalarga e'tibor berilganda xo'jalik yurituvchi subyektlarning keng erkinligi ta'minlanishi mumkin?

3-BOB. BYUDJET DEFITSITINI KAMAYTIRISH – BYUDJET SIYOSATINING MARKAZIY MASALASI

3.1. Byudjet defitsiti: mohiyati, ta’rifi, turlari va vujudga kelish sabablari

Nazariy jihatdan olib qaralganda byudjetning sogʻlom (normal) faoliyat koʻrsatishi odatda, unga tegishli boʻlgan daromadlar va xarajatlarning tengligini taqozo etadi. Haqiqatdan ham u yoki bu miqdordagi xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjet shu miqdordagi daromadlarga ega boʻlishi kerak. Aks holda bu xarajatlarni amalga oshirishning iloji boʻlmaydi. Byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligi byudjetning balanslashtirilganligidan dalolat beradi⁹.

Amaliyotda byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda byudjetning daromadlari uning xarajatlaridan koʻp boʻlishi mumkin. Bunday byudjet profitsitli byudjet, deyiladi. Aksincha, baʼzi hollarda esa byudjetning xarajatlari uning daromadlaridan koʻproq boʻladi. Shunga muvofiq ravishda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan koʻp boʻlishiga byudjet defitsiti¹⁰, deyiladi.

⁹ Baʼzi hollarda iqtisodiy nazariyada byudjet defitsiti yoki byudjet profitsiti uning umumiy xarajatlari hajmiga nisbatan 1%dan oshmagan taqdirda ham bunday byudjetni balanslashtirilgan byudjet, deb eʼtirof etish qabul qilingan.

¹⁰ Oʻzbek tilida “byudjet defitsiti” iborasining oʻrniga ayrim iqtisodchilarimiz va iqtisodchi-olimlarimiz tomonidan baʼzi hollarda “byudjet kamomadi”, “byudjet taqchilligi” (bu ibora hatto, Oʻzbekiston Respublikasi “Byudjet tizimi toʻgʻrisida”gi qonunining “Asosiy tushunchalar” deb nomlangan 3-moddasida ham oʻz aksini topib qoldi), “byudjet tanqisligi”, “byudjet yetishmovchiligi” kabi iboralar ishlatilmoqda. Bu iboralarning mavjud ekanligi ona tilimizning nihoyatda boy ekanligini yana bir bor koʻrsatsada, bizning fikrimizcha, bu ishlatilayotgan iboralarning hech biri “byudjet defitsiti” iborasi bilan maʼno-mazmun va mohiyat jihatidan teng kuchga ega

Yuqoridagi jihatlardan olib qaraganda byudjet-soliq siyosatining tarkibiy qismi sifatida byudjet siyosatining yakuniy (miqdoriy) natijasi byudjet defitsiti, byudjetning balansliligi yoki byudjet profitsitida o'z ifodasini topishi mumkin. Biroq bularning har biriga qarab turib yakka-yu yagona bo'lgan yakuniy xulosani chiqarishning iloji yo'q. Bu yerda gap shundaki, byudjetning balansliligi yoki uning profitsitli ekanligiga qarab turib oqilona byudjet siyosati va aksincha, uning defitsitli ekanligini inobatga olgan holda nooqilona byudjet siyosati yuritildi, deb bo'lmaydi. Chunki byudjet siyosatining yakuniy miqdoriy ifodasi sifatida ularning har biri o'zida ijobiy va salbiy tomonlarni mujassam etadi¹¹.

Byudjet daromadlari va xarajatlarining o'zaro to'g'ri nisbati xususidagi muammo moliyaviy adabiyotlarda mu-nozarali hisoblanadi. Hamon unga nisbatan yagona bir to'xtamga kelinmagan. Munozaralarda ishtirok etuvchilarni eng umumiy ko'rinishda ikki guruhga ajratish mumkin ular quyidagi ikki maktabning vakillari hisoblanadi:

- keynschilar maktabi vakillari;
- neoklassik yo'nalishdagi maktab vakillari.

emas. Shuning uchun vaziyat, holat, jarayon yoki voqelikning asl holda aks ettirilishini nazarda tutib, o'zbek tilida ham bu o'rinda "byudjet defitsiti" iborasini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Muammoni hal etishga aynan shu tarzda yondashish bizning fikrimizcha, o'zbek tilining sofligiga ziyon yetkazmaydi. Aksincha, jahon hamjamiyatida va xalqaro maydonda barcha xalqlarning tilida deyarli bir xil shaklda qo'llanilib, bir xil ma'noni anglatib kelayotgan yana bir xalqaro ibora bilan ona tilimizni boyitgan va bir-birimizni bir xil tushunishga munosib hissamizni qo'shgan bo'lur edik. Buning ustiga ona tilimizning tegishli mutaxassisleri tomonidan "byudjet" va "defitsit" so'zlari o'zbek tilida ishlatilishi mumkin bo'lgan so'zlar sifatida e'tirof etilgan va ularga belgilangan tartibda izoh berilgan. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.I. A-D / Tahrir hay'ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.394- va 602-betlar.

¹¹ Bu ijobiy yoki salbiy tomonlar nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Ularga bir necha misollar keltiringchi!

Keynschilar maktabining vakillari sistematik yoki doimiy byudjet defitsiti konsepsiyasini qo'llab-quvvatlab, ular bunda quyidagi ijobiy holatlarning bor ekanligini qayd etadilar:

- byudjet defitsiti milliy iqtisodiyot uchun xavf tug'dirmaydi. Buning sababi shundaki, byudjet defitsiti sharoitida barcha xarajatlar, shu jumladan, ularning daromadlardan ortiqcha bo'lgan qismi ham shu byudjet defitsiti mavjud bo'lgan davlatning hududi doirasida amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida, undagi turmush sharoitining oshishiga (yaxshilanishiga) o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Albatta, milliy iqtisodiyotdan chetga chiqib ketuvchi mablag'larning oqib ketishini anglatuvchi tashqi savdo balansining salbiy qoldig'i bundan mustasno;

- byudjet defitsiti boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda o'z navbatida, byudjet mablag'larini oluvchilar, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi daromadlarining oshganligini anglatadi. Bu byudjet defitsitining ular sotib olish qobiliyatining o'sganligiga, milliy ishlab chiqarish ko'lamining kengayganligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini bildirib, bularning hammasi oxir-oqibatda byudjetga kelib tushishi mumkin bo'lgan soliq to'lovlari hajmining (miqdorining) kengayishiga (oshishiga) olib keladi.

Keynschilar maktabi vakillarining byudjetni defitsitli moliyalashtirish nazariyasi mavjud defitsitni Taraqqiyot byudjetida to'planishini taqozo etadi. Chunki faqat shu holdagina defitsitli moliyalashtirishning o'sishi investitsion, innovatsion va tadbirkorlik o'sishiga olib kelishi mumkin¹².

¹² Ana shu nuqtayi-nazardan Germaniya tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Bu mamlakatda byudjet tizimi investitsion yo'nalishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu narsa mamlakatning Konstitutsiyasida ko'zda tutilgan "oltin qoida"ga qat'iy rioya etish hisobidan amalga oshiriladi. Unga ko'ra kreditlar hisobidan byudjet defitsitini moliyalashtirish byudjetda ko'zda tutilgan investitsion xarajatlarning summasidan oshib ketmasligi lozim. Bu esa o'z navbatida, qarziy mablag'larning investitsion maqsadlarga yo'naltirilishi lozimligini anglatib, buning natijasida kelajak avlod uchun davlat qarzga olishlarining salbiy oqibatlari kamayadi. Chunki investitsion tovarlarning ishlab chiqarilishi joriy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishdan farqli o'laroq, mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining

Bu masalaga nisbatan neoklassik maktab vakillarining qarashlari keynschilar maktabining qarashlariga butunlay teskari bo'lib, ular byudjet defitsitiga nisbatan quyidagi xavflarning mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadilar:

- hozirgi kunda (davrd) mavjud bo'lgan byudjet defitsiti pirovardida (yaqin) kelajakda yuqori darajadagi soliqlarning bo'lishini taqozo etadi;

- byudjet defitsitini qoplash (moliyalashtirish) uchun favquloddagi daromadlar – pul va qarzlar emissiyasi, kreditlar va boshqalar – jalb qilinib, bu o'z navbatida, mamlakatning pul-kredit tizimini izdan chiqaradi, inflyatsion jaryonlarning kuchayishiga, davlat qarzlarining o'sishiga olib keladiki, bularning barchasi, oxir-oqibatda, milliy iqtisodiyot va davlatning rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Byudjet defitsitini ma'lum bir belgilar asosida turkumlarga ajratish va uning tegishli turlarini ko'rsatish mumkin. Umuman olganda byudjet defitsitini quyidagi belgilar asosida turkumlarga ajratish maqsadga muvofiq:

- vujudga kelish sabablariga ko'ra;
- iqtisodiy mazmuni va ta'sirchanlik yo'nalishiga qarab;
- ishsizlikning darajasi bilan bog'langanligiga binoan;
- vujudga kelish xarakteriga muvofiq;
- rejaga munosabati bo'yicha;
- doimiyligiga nisbatan;
- davomiyligiga ko'ra;
- moliyalashtirish manbalariga bog'liqligiga qarab;
- davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha foizlarni to'lashning xalqaro metodologiyasiga binoan.

Vujudga kelish sabablariga ko'ra byudjet defitsitining quyidagi turlari bo'lishi mumkin:

- favqulodiy byudjet defitsiti;
- inqiroziy byudjet defitsiti;

kuchayishiga va demak, byudjet daromadlari bazasining kengayishiga olib keladi. Aksincha, aholining joriy ehtiyojlarini qondirish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan byudjet xarajatlarining o'sishi esa davlat qarzining o'sishiga va uning og'irligi bir qismini kelajak avlodning gardaniga yuklanishini bildiradi.

- antiinqiroziy¹³ byudjet defitsiti;
- byudjetlari byudjet defitsiti.

Favqulodiy byudjet defitsitining negizida favquloddagi holatlar, ya'ni urushlar, tabiiy ofatlar va shunga o'xshashlar yotadiki, ulardan sug'urta qilinish murakkab yoki buning iloji yo'q. Favquloddagi vaziyatlarning oqibatlarini ogohlantirish va ularga barham berish uchun odatda, turli-tuman zaxira va byudjetdan tashqari fondlar shakllantiriladi.

Inqiroziy va antinqiroziy byudjet defitsitlari iqtisodiyot, pul-kredit, moliya sohalaridagi inqirozlar va ularni bartaraf etish choralari bilan bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan rag'batlantiruvchi va aksincha, rag'batlantirmovchi (taqiqlovchi, aks ta'sir ko'rsatuvchi) ahamiyatga ega bo'lgan byudjet defitsitlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Xalqaro amaliyotda byudjetlararo byudjet defitsiti, deyilganda odatda, mintaqaviy va mahalliy byudjetlarning salbiy qoldig'i tushuniladi. Mintaqaviy va mahalliy byudjetlarda bunday salbiy qoldiqlar quyidagilar natijasida vujudga kelishi mumkin:

- hududlarning byudjet va mulkiy huquqlari o'rtasida nomuvofiqlikning vujudga kelishi natijasida;
- mintaqaviy va mahalliy byudjetlar daromadlarini qisqartirish yoki oshirish xususida boshqa darajadagi hokimiyat organlari tomonidan qarorlar qabul qilinganda.

Bunday byudjet defitsitini qoplash odatda, quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

- byudjetiy tartibga solish vositasida;
- byudjetlararo munosabatlarning turli-tuman shakllaridan foydalanish orqali.

¹³ Bu yerda "anti" old qo'shimchasining "inqiroz" so'ziga qo'shilganligidan xayratga tushmaslik lozim. Chunki "anti" ruscha emas, balki yunoncha "anti" so'zidan olingan bo'lib, u ma'lum so'zlarga old tomondan qo'shiladi, shu so'z ifodalagan narsa (belgi, harakat)ning qarshisini, ziddini bildiruvchi qo'shimchadir. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.I. A-D / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 88-bet.

Iqtisodiy mazmuni va ta'sirchanlik yo'nalishiga qarab byudjet defitsiti quyidagi tarzda ikkiga bo'linadi:

- aktiv byudjet defitsiti;
- passiv byudjet defitsiti.

Bunday turlarga (ko'rinishlarga) ega bo'lgan byudjet defitsitlarini boshqarish natijasida jamiyat yoki alohida olingan ma'muriy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi rag'batlantirilishi yoki aksincha, rag'batlantirilmaslgi mumkin.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi sharoitida passiv byudjet defitsitining darajasi YaIMga nisbatan 2-3%, MDga nisbatan – 5% va byudjetning xarajatlar qismiga nisbatan 8-10% atrofida chegaralanishi qabul qilingan. Shu bilan birgalikda, iqtisodiyot va sotsial sohadagi inqiroz sharoitida mamlakatlarning hukumatlari iqtisodiy o'sish, ishsizlar sonini qisqartirish va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida byudjetning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi uzilishni oshirish (xarajatlarni oshirish va soliq olinmalarini kamaytirish yo'li bilan) tomon yuz tutadilar. Bunday vaziyatda byudjet defitsiti aktiv shaklga ega bo'ladi. Agar byudjet defitsitini moliyalashtirish uchun inflyatsion manbalar jalb qilinsa, bunda davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish uchun byudjetning xarajatlari keskin ortadi va byudjet defitsitining aktiv shakli passiv ko'rinishga ega bo'la boshlaydi hamda moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy inqirozning chuqurlashuvi boshlanadi. Shuning uchun byudjet defitsitini boshqarish va uning rag'batlantiruvchi, faol salohiyatidan unumli foydalanish maqsadida uni qoplashning maqbul manbalarini qidirib topmoq lozim. Buning uchun alohida olingan ma'muriy-hududiy mintaqalarning va yaxlit tarzda olingan mamlakatning, shuningdek, xalqaro omillarning aniq moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilishga alohida e'tibor berish kerak.

Ishsizlikning darajasi bilan bog'langanligiga binoan byudjet defitsiti quyidagi ikki ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

- tuzilmaviy byudjet defitsiti;
- siklik byudjet defitsiti.

Tuzilmaviy byudjet defitsiti, deyilganda to'liq bandlilik sharoitida (yoki ishsizlikning doimiy belgilangan darajasi doirasida) davlat daromadlari va xarajatlarini shakllantirishning shunday tizimida byudjetning salbiy qoldig'i tushuniladi. Iqtisodiy pasayish sharoitida ishsizlikning darajasi uning bazaviy darajasidan osha boshlaydi. Tabiiyki, bunday sharoitda haqiqiy byudjet defitsiti ham o'sadi va ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lanmalarining oshishi, soliqlar tushumlarining qisqarishi, asosan, ishlab chiqarishning qisqarishi natijasida soliqqa tortiladigan bazaning qisqarishi oqibatida u tuzilmaviy byudjet defitsitining darajasidan katta bo'lib qoladi. Shu munosabat bilan haqiqatda mavjud bo'lgan va tuzilmaviy byudjet defitsiti o'rtasidagi farq siklik byudjet defitsiti, deyiladi. Tuzilmaviy va siklik byudjet defitsitlarining darajasini mamlakatning iqtisodiy ahvoli belgilab beradi. Siklik byudjet defitsiti darajasining qisqarishi haqiqiy va tuzilmaviy byudjet defitsiti darajalarining tenglashishi tendensiyasidan darak berib, bu o'z navbatida, iqtisodiy o'sishga tengdir.

Vujudga kelish xarakteriga muvofiq byudjet defitsiti quyidagi ko'rinishlarga ega:

- tasodifiy (kassaviy) byudjet defitsiti;
- haqiqiy byudjet defitsiti.

Tasodifiy (kassaviy) byudjet defitsiti mablag'larning byudjetga kelib tushishi va ularning byudjetdan sarflanishi o'rtasidagi kassaviy (davriy) uzilishlarning mavjudligi natijasida paydo bo'ladi. Masalan, byudjet daromadlarining yer solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va shu kabi ayrim manbalari mavsumiy xarakterga ega. Bular boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda ba'zi hollarda tasodifiy (kassaviy) byudjet defitsitining paydo bo'lishiga olib keladi.

Haqiqiy byudjet defitsiti esa byudjetdan qilinadigan xarajatlarning doimiy ravishda ortib borishi va undan daromadlarning haqiqatda ortda qolishi munosabati bilan vujudga keladi. Odatda, haqiqiy byudjet defitsiti chegaraviy o'lcham sifatida navbatdagi moliyaviy yil uchun byudjet to'g'risidagi

qonunda¹⁴ o'z aksini topadi. Uning haqiqiy darajasi byudjet ijrosi jarayonida belgilangan chegaraviy o'lchamdan past yoki aksincha, yuqori bo'lishi mumkin.

Rejaga munosabati bo'yicha byudjet defitsiti quyidagi ikki ko'rinishga ega:

- rejali byudjet defitsiti;
- rejadan tashqari (rejasiz) byudjet defitsiti.

Rejali byudjet defitsiti har moliya yili uchun qabul qilinadigan byudjet parametrlarida o'z aksini topadi. Uning miqdori va moliyalashtirish (qoplash) manbalari rejada ko'zda tutiladi.

Rejadan tashqari (rejasiz) byudjet defitsiti esa bir tomondan, byudjet daromadlari hajmining ko'zda tutilmagan holda qisqarishi, masalan, jahon bozorida neft bahosining pasayishi va shunga o'xshashlar, ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarining xuddi shu tarzda oshishi, masalan, urush, yer qimirlashi, halokatlarning sodir bo'lishi, qurg'oqchilik, baholarning o'sishi, hosilsizlik va boshqalar natijasida paydo bo'ladi. Bunday hollarda byudjet defitsitini tartibga solish (keltirish) turli zaxira fondlarining mablag'lari va har xil tezkor tadbirlarni o'tkazish hisobidan amalga oshiriladi.

Doimiyligiga nisbatan byudjet defitsitining quyidagi tur-lari bo'lishi mumkin:

- barqaror byudjet defitsiti;
- o'zgaruvchan (barqaror bo'lmagan) byudjet defitsiti¹⁵.

Davomiyligiga ko'ra byudjet defitsiti quyidagi ko'rinish-larga ega:

- xronik (sistematik, nisbatan uzluksiz) tarzdagi byudjet defitsiti;
- vaqtinchalik byudjet defitsiti.

Xronik (sistematik) tarzdagi byudjet defitsiti eng qiyin "davolanadigan" byudjet defitsiti hisoblanadi. Byudjet defitsitining bunday ko'rinishi vujudga kelishining sabablari quyidagilardan iborat:

¹⁴ Bu narsa mamlakatimiz sharoitida qanday o'ziga xos bo'lgan xususiyatga ega?

¹⁵ Bularning har biriga mustaqil ravishda izoh berishga harakat qilib ko'ringchi?!

- iqtisodiy inqirozning uzoq siklda davom etishi;
- uzoq davom etgan urushlar va tinch vaqtda (tinchlik paytida) harbiy maqsadlar uchun katta miqdordagi xarajatlarning qilinishi;
- favqulodda sodir bo'lgan holatlar va ularning oqibatlarini barham etish uchun yirik miqdordagi xarajatlarning uzoq davr mobaynida sarflanishi;
- qoplanish muddatlari oldindan aniq ma'lum bo'lmagan, bir necha 10 yilga davom etishi mo'ljallanilgan qimmatli dasturlarning qabul qilinishi va ularning amalga oshirilishi.

Vaqtinchalik byudjet defitsiti bir necha oylik muddatda davom etishi mumkin. U unchalik xavfli va barham berish nuqtayi nazaridan unchalik qiyin bo'lmagan byudjet defitsiti hisoblanadi. Chunki bunday ko'rinishga ega bo'lgan byudjet defitsitining vujudga kelishida iqtisodiyotdagi chuqur inqirozli holatlar emas, balki bir necha obyektiv (tabiiy ofatlar va shunga o'xshashlar) va subyektiv (rejalashtirish va bashoratlashdagi xatoliklar, jahon tovar va fond bozorlarida baholarning tebranishi va boshqalar) sabablar muhim rol o'ynaydi.

Moliyalashtirish manbalariga bog'liqligiga qarab byudjet defitsitining quyidagi turlari mavjud:

- kelgusi avlodga o'tkaziladigan byudjet defitsiti;
- kelgusi avlodga o'tkazilmaydigan byudjet defitsiti.

Byudjet defitsitining ana shunday turlari mavjudligi asosan, byudjet defitsiti natijasida vujudga kelgan davlat qarzlarining kelgusi avlod zimmasiga o'tkazilishi (yuklatilishi) yoki o'tkazilmasligi (yuklatilmasligi) bilan bog'liq. Odatda, byudjet defitsiti natijasida paydo bo'lgan davlat qarzi kelgusi avlod zimmasiga yuklatiladi. Bu asosan, xronik (sistematik, nisbatan uzluksiz) tarzda byudjet defitsitiga tegishlidir. Shu munosabat bilan bunday byudjet defitsiti kelgusi avlodga o'tkaziladigan byudjet defitsiti, deb ham yuritiladi.

Ayrim hollarda byudjet defitsitini moliyalashtirish yangi soliqlarni joriy etmasdan va davlat qarzlarini muomalaga chiqarmasdan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin. Bunday boshqa manbalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- davlat aktivlari va davlat mulkini realizatsiya qilish;
- soliqlarning undiriluvchanligini oshirish;
- iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish;
- samarasiz xarajatlar miqdorini kamaytirish;
- va boshqalar.

Byudjet defitsiti ana shu yuqorida keltirilgan manbalar hisobidan moliyalashtirilsa, bu holda byudjet defitsiti kelgusi avlodga o'tkazilmaydi va u kelgusi avlodga o'tkazilmaydigan byudjet defitsiti, deyiladi.

Davlat qarzlari xizmat ko'rsatish bo'yicha foizlarni to'lashning xalqaro metodologiyasiga binoan byudjet defitsiti quyidagi ko'rinishlarga ega:

- birlamchi byudjet defitsiti;
- ikkilamchi byudjet defitsiti.

Byudjet defitsitining bunday turlarga bo'linishi xalqaro metodologiyaga muvofiq davlat qarzlari xizmat ko'rsatish bo'yicha foizlar to'lovining byudjet xarajatlari kiritilishi bilan bog'liq. Shunga ko'ra byudjet defitsitini turkumlarga ajratishning asosiga byudjet defitsitini aniqlashda davlat qarzlari xizmat ko'rsatish xarajatlarning hisobga olinishi yoki olinmasligi yotadi. Agar byudjet defitsiti davlat qarzlari bo'yicha foizlar to'lovini hisobga olmasdan uning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlansa, bunday byudjet defitsiti birlamchi byudjet defitsiti deyiladi. Aksincha, byudjet defitsiti, davlat qarzlari bo'yicha foizlar to'lovini hisobga olib, uning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlansa, bunday byudjet defitsiti ikkilamchi byudjet defitsiti, deyiladi.

Boshqa hollar teng bo'lgan sharoitda byudjet defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablari¹⁶ quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yirik davlat kapital qo'yilmalarini amalga oshirishning zarurligi;
- favqulodda hodisalarning mavjudligi;
- iqtisodiyotdagi tanazzulli (krizisli) holatlar va uning yemirilishi;

¹⁶ Keltirilgan sabablarning har biriga atroflicha izoh bera olasizmi?

- moliya-kredit aloqalarining yetarli darajada samarali emasligi;
- hukumat tomonidan mamlakatdagi moliyaviy holat ustidan yetarli darajada nazorat qila olmaslik;
- ijtimoiy ishlab chiqarishning nisbatan past darajada samaradorligi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning nisbatan kam natijaliligi;
- byudjet xarajatlarining nooqilona tarkibiy tuzilishi (strukturasi);
- mamlakat miqyosida mavjud bo'lmagan mablag'lar hisobidan yashashga intilish;
- yirik davlat investitsiyalarini amalga oshirish amaliyotining mavjudligi;
- harbiy xarajatlar darajasining nisbatan kattaligi;
- ichki real imkoniyatni yetarli darajada inobatga olmaganda boshqa mamlakatlarga yordam berilishi;
- davlatga iqtisodiyot va sotsial sohani rivojlantirishga stimulyat sifatida foydalanish imkonini bermaydigan va yetarli darajada samarali bo'lmagan byudjet mexanizmining mavjudligi;
- boshqa sabablar.

Byudjet defitsiti turlarining klassifikatsiya qilinishi (turkumlarga ajratilishi), uning vujudga kelish sabablarini tahlil qilish va moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish, o'z navbatida, mamlakatning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirishga qaratilgan (yo'naltirilgan) byudjet defitsitini qisqartirish va bashoratlash, byudjetlararo munosabatlarni, byudjet va soliq tizimini isloh qilish bo'yicha aniq tadbirlar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi.

3.2. Byudjet defitsitiga nisbatan strategik yondashuv va uning darajasini kamaytirish chora-tadbirlarining asosiy yo'nalishlari

Byudjet defitsiti vujudga kelganda unga nisbatan strategik yondashuv¹⁷ (strategiya) quyidagilarga alohida e'tibor berilishini taqozo etadi:

¹⁷ Qayd etilgan strategik yondashuvlar har birining aynan to'g'ri ekanligini mantiqiy fikrlash asosida isbotlab bera olasizmi?

- byudjet defitsitining mavjudligini matematik yo'l bilan hal qilishga harakat qilmaslik kerak. Chunki, bu holda iqtisodiyotni "davolash" o'rniga uning kasalligi kuchayadi;

- byudjetning balansliligi, daromadlarning xarajatlaridan ko'pligi sog'lom va uzluksiz rivojlanayotgan iqtisodiyotdan dalolat bermaydi. Byudjet defitsiti bo'lishi mumkin;

- byudjet defitsitining miqdori (darajasi) odatda, mamlakat yalpi milliy mahsulotining 2-3%dan oshmasligi lozim. Ana shu chegaradan oshilsa, uni tezroq qisqartirish (yoki shu darajaga keltirish) choralarini ko'rish kerak;

- byudjet defitsitini qoplash uchun eng avvalo, davlat kreditining turli shakllaridan foydalanmoq lozim. Shuningdek, davlat qimmatli qog'ozlarini moliyaviy bozorda joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, milliy pul birligi belgilarini zarb etuvchi uskunani (stanokni) ishga solmaslik kerak;

- byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish uchun birinchi navbatda, iqtisodiyotning o'zini "davolamoq" lozim. Aks holda, ana shu maqsadga erishish uchun ko'zda tutilgan har qanday tadbir albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlari¹⁸ quyidagilardan iborat:

- byudjet xarajatlarining (mablag'larining) investitsion yo'nalishini o'zgartirish, ularni eng ko'p samara beradigan yo'nalishlarga yo'naltirish;

- xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi moliyaviy imtiyoz va jazolardan keng foydalanish;

- davlatdan moliyalashtirishni va davlat iqtisodiyoti sohasini qisqartirish, xorijiy davlatlarga yordam ko'rsatishni keskin kamaytirish;

- harbiy xarajatlarni qisqartirish;

¹⁸ Ana shu asosiy yo'nalishlarda tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilishining oqibati nimalar bo'lishi mumkin? Bir mulohaza yuritib ko'ringchi, qanday manzara vujudga kelar ekan?

- eng muhim sotsial dasturlarnigina moliyalashtirishni saqlab qolish, yirik byudjet xarajatlarini talab etuvchi dasturlarni qabul qilishni to'xtatib turish;

- qarzlarni davlat qimmatli qog'ozlari shaklida rasmiylashtirmasdan turib hukumat organlariga kredit berishni Markaziy bank uchun taqiqlab qo'yish;

- xorijiy sarmoyalarni jalb etish;

- va boshqalar.

Byudjet defitsitini qisqartirish maqsadida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

- konversiya;

- moliyalashtirishdan kreditlashtirishga o'tish;

- zararga (ziyonga) ishlayotgan korxonalarga dotatsiya berishni uzluksiz ravishda qisqartirib borish;

- davlat boshqaruvi xarajatlarini qisqartirish;

- soliqqa tortish tizimini o'zgartirish;

- mahalliy byudjetlarning rolini oshirish.

Davlat byudjetining daromadlariga va shunga mos ravishda byudjet defitsitining ko'lamiga (darajasiga) mamlakat milliy valyutasi va pul muomalasining barqarorligi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aksincha, mamlakat milliy valyutasining zaifligi, iqtisodiy aylanmagan xizmat ko'rsatish uchun uning yetarli emasligi barter operatsiyalarining rivojlanishiga, pul surrogatlarining paydo bo'lishiga, sog'lom hisob-kitoblarning buzilishiga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga va byudjetga bo'lgan noto'lovlariga olib keladi.

3.3. Byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari

Byudjet defitsiti vujudga kelgan paytda uni moliyalashtirish manbalarini aniqlab olmoq zarur. Uni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri davlatning qarz olishidir.

Davlatning qarz olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qayta-

rish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Davlatning ichki qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning o'z milliy valyutasida ifodalangan qarz majburiyatlari paydo bo'ladi.

Davlatning tashqi qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo'yicha kafolatchi sifatida hukumatning xorijiy valyutada ifodalangan qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalari jalb qilingan mablag'larning barcha asosiy turlari bo'yicha navbatdagi moliyaviy yilga mo'ljallangan byudjet to'g'risidagi qonunda qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan albat-ta tasdiqlanishi kerak.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning manbayi sifatida mamlakat Markaziy bankining kreditlari va Markaziy bank tomonidan hukumatning sotib olingan qarz majburiyatlari maydonga chiqishi maqsadga muvofiq emas¹⁹.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalarini ikki guruhga bo'lish qabul qilingan:

- 1) ichki manbalar;
- 2) tashqi manbalar.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- mamlakat hukumati tomonidan shu mamlakatning milliy valyutasida kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar;
- mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilayotgan davlat zayomlari;

¹⁹ Nima uchun?

- davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan tushumlar;
- davlat zaxiralari va rezervlar bo'yicha daromadlarning xarajatlardan o'sgan qismi summasi;
- byudjet mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'ining o'zgarishi;
- va boshqalar.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning tashqi manbalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- mamlakat hukumati nomidan qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali xorijiy valyutada amalga oshirilgan davlat zayomlari;
- xorijiy valyutada taqdim etilgan va mamlakat hukumati tomonidan jalb qilingan xorijiy davlatlar, banklar va firmalar, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kreditlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari oldidagi (davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlarni qo'shgan holda) mamlakat hukumatining qarz majburiyatlari hukumatning davlat qarzini vujudga keltiradi. Bu qarz davlat xazinasini tashkil etadigan davlat mulki bilan to'liq va hech qanday shartsiz ta'minlanishi kerak. Bunda davlat hokimiyati organlari mamlakat hukumatining qarz majburiyatlari va davlat qarziga xizmat qilish uchun respublika byudjetining daromadlarini shakllantirish bo'yicha barcha vakolatlardan foydalanadilar.

Mamlakatning qarz majburiyatlari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- qarz oluvchi sifatida mamlakat hukumati nomidan kredit tashkilotlari, xorijiy davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan kredit bitimlari va shartnomalari;
- mamlakat hukumati nomidan qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilgan davlat zayomlari;
- mamlakat hukumati tomonidan davlat kafolatini berish to'g'risidagi shartnomalar;
- o'tgan yillardagi mamlakatning qarz majburiyatlarini restrukturizatsiya qilish va muddatini o'zgartirish to'g'risi-

dagi mamlakat hukumati nomidan tuzilgan (shu jumladan, xalqaro) bitimlar va shartnomalar;

- va boshqalar.

Mamlakatning qarz majburiyatlari o'zining muddatiga qarab qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan ortiq va besh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yildan yuqori) bo'lishi mumkin. Ular zayomning konkret shartlariga muvofiq ravishda (zayom shartlarini, jumladan, to'lov muddatlari, foiz to'lovlarining miqdori, muomala muddatlarini o'zgartirmasdan) qaytarilishi kerak.

Mamlakat hukumatining davlat ichki qarzlarini quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- hukumat davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha qarzining asosiy nominal summasi;

- hukumatga taqdim etilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzning hajmi;

- mamlakat hukumati tomonidan berilgan kafolatlar bo'yicha majburiyatlar hajmi;

- va boshqalar.

O'z navbatida, hukumatning davlat tashqi qarzlarini:

- xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlarga mamlakat hukumati tomonidan taqdim etilgan davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlar hajmi;

- xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlardan hukumat olgan kreditlar bo'yicha asosiy qarz hajmidan iborat bo'ladi.

Byudjet defitsitini moliyalashtirish jarayonini quyidagi yo'llardan foydalangan holda boshqarish mumkin:

- moliyalashtirish manbalarining u yoki bu turlarini tanlash yordamida;

- davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish shartlari (hajmi, muomalada bo'lish muddatlari, daromadlilik darajasi va sh.k.) bilan manyovr qilish orqali;

- ichki va tashqi qarzlarining o'zaro nisbatlaridan foydalangan holda;

- aholining ichki jamg'armalarini saqlash uchun qulay sharoitlarni yaratish asosida;
- qimmatli qog'ozlar va omonatlarni indeksatsiya qilish yo'li bilan;
- davlat qarzlariga xizmat qilish bo'yicha cheklavlarni o'rnatish orqali;
- va boshqalar.

O'z navbatida, byudjet defitsitini samarali boshqarish davlat xarajatlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirish yo'nalishlarida sarflanishini ko'zda tutadi. Shunga muvofiq ravishda byudjet ajratmalari va kreditlar ma'lum bir samaraga erishiliga qarab va mablag'larning qaytarilishi uchun kafolatlar yetarli bo'lgan taqdirda aniq dasturlar ostida ajratilmog'i lozim. Ana shuni hisobga olgan holda byudjet defitsitini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar davlatning umumiy iqtisodiy, moliyaviy va byudjet siyosati bilan muvofiqlashtirilmog'i maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari xalqaro amaliyotda byudjet defitsitini kamaytirish uchun uning mamlakatga xorijiy kapitalni jalb qilish shaklidan ham foydalanish mumkinligi e'tiborga olinmog'i lozim.

Bu jarayonda deflyatsion tadbirlarning o'ta murakkabligi shunda namoyon bo'ladiki, ularning amalga oshirilishi davlat xarajatlarining qisqarishini, kredit resurslarining qimmatlashuvini, pul massasining kamayishini taqozo etadi. Bularning barchasi o'z navbatida, yalpi talabning kamayishiga, kapital qo'yilmalarning qisqarishiga va demak, ishbi-larmonlik faolligining pasayishiga va ishsizlikning ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Va nihoyat, yuqoridagilar byudjet defitsiti muammosi pul muomalasi, byudjet siyosati, iqtisodiy faollik va sotsial sohadagi jarayonlarga davlat ta'sirchanligining samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan murakkab muammolar bilan o'zviy ravishda bog'lanib ketganligidan darak beradi.

Shunday qilib, byudjet defitsitini kamaytirish byudjet siyosatining markaziy masalasi ekan, uni muvaffaqiyatli ud-dalamoq uchun eng avvalo, yuqorida bayon etilganlarning

har biriga, ya'ni a) byudjet defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablariga; b) byudjet defitsiti vujudga kelganda unga nisbatan ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan strategik yondashuvga; v) byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlariga; g) byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalarini aniqlashga jiddiy e'tibor bermoq lozim. Bularni to'liq va uzil-kesil hisobga olmagan holda ishlab chiqilgan va byudjet defitsitini kamaytirishga qaratilgan byudjet siyosati o'z-o'zini aldash bilan barobar bo'lib, albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi yoki kutilgan natijani bermaydi.

3.4. Byudjet defitsiti va byudjet siyosati muammolariga konseptual yondashuvlar

Hozirgi paytda iqtisod (moliya) ilmda va jahon amaliyotida byudjet defitsiti va byudjet siyosati muammolariga nisbatan bir necha konseptual yondashuvlar mavjud. Byudjet defitsitiga nisbatan byudjet siyosati ishlab chiqilayotgan paytda ularni hisobga olish yoki ularga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan quyida ularning ayrimlari xususida, qisqacha to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosatining birinchi konsepsiyasi ostida mamlakatning davlat byudjeti har yili balanslashtirilgan bo'lishi kerak, degan g'oya yotadi. O'z navbatida, bu g'oyaning amaliyotda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi byudjet defitsiti va u bilan bog'liq bo'lgan muammolarning barchasini tabiiyki kun tartibidan olib tashlaydi. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, bunday g'oya o'z-o'zidan yoki sun'iy ravishda paydo bo'lmagan. Chunki o'tgan XX asrning 30-yillaridagi (1929-1932-yillar) "Buyuk depressiya"ga qadar har yili balanslashtiriladigan byudjet davlat moliyasi va moliyaviy siyosatning istagan (ko'zda tutgan) maqsadi sifatida umume'tirof etilgan edi.

Biroq bu muammo atroflicha ko'rib chiqilganda har yili balanslashtiriladigan byudjet antisiklik, barqarorlashtiruvchi yo'nalishga ega bo'lgan davlat fiskal siyosatining samaradorligini asosan yo'qqa chiqarishi yoki uning bu darajasini keskin kamaytirishi mumkinligi ma'lum bo'ladi. Buning ustiga har yili balanslashtiriladigan byudjet aslida iqtisodiy siklning tebranishini chuqurlashtiradi ham. Bir tasavvur qilib ko'ring: iqtisodiyot ishsizlikning uzoq vaqt davom etishiga duch kelgan. Bunday sharoitda (vaziyatda) aholining daromadlari pasayadi, byudjetga borib tushuvchi soliq tushumlari esa, avtomatik tarzda qisqaradi. Byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosati konsepsiyasining ostida mamlakatning davlat byudjeti har yili balanslashtirilgan bo'lishi kerak, degan g'oya yotgan hukumat byudjetni tezda balanslashtirishga harakat qilib, yo mavjud soliqlarning stavkasini oshirishi, yo davlat xarajatlarini qisqartirish yoki bir vaqtning o'zida ana shu ikki varintning kombinatsiyasidan foydalanishi kerak. Holbuki, bunday choralarning qo'llanishi oxir-oqibatda jami talabning yanada ko'proq qisqarishiga olib keladi.

Davlat byudjetini har yili balanslashtirishga urinish pirovardida inflyatsiyani ham rag'batlantirishi mumkin. Chunki inflyatsiya sharoitida aholining pul daromadlarini oshirish avtomatik tarzda soliq tushumlarini oshiradi. Buning natijasida byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasida musbat farq vujudga kelib, davlat byudjetini balanslashtirish uchun hukumat yana quyidagi choralarni qo'llashi lozim: yo amaldagi soliqlarning stavkasini pasaytirish, yo davlat xarajatlarning hajmini oshirish yoki ana shu ikki choraning kombinatsiyasidan foydalanish kerak. Bunday sharoitda byudjetni balanslashtirish maqsadida yuqoridagi choralarning qo'llanilishi iqtisodiyotdagi inflyatsion bosimni kuchaytiradi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadigan asosiy xulosasi quyidagidan iborat: har yili balanslashtiriladigan byud-

jet iqtisodiy jihatdan xolis hisoblanmaydi. Ana shu va boshqa muammolarning mavjudligiga qaramasdan dunyoning juda ko'p mamlakatlarida byudjetni har yili balanslashtirilgan bo'lishini ko'zda tutuvchi konstitutsion tuzatmani qabul qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlovchilar mavjud²⁰.

Byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosati ikkinchi konsepsiyasining asosiy yoki tub mazmunini mamlakatning davlat byudjeti har yili emas, balki iqtisodiy sikl davomida balanslashtirilishi kerak, degan g'oya tashkil qiladi. Bu konsepsiyaga ko'ra mamlakat hukumati bir tomondan, iqtisodiy jarayonlarga antisiklik ta'sirni amalga oshirsa, ikkinchi tomondan, bir vaqtning o'zida mamlakat byudjetini balanslashtirishga ham intiladi. Biroq bu holda yuqorida qayd etilganidek, byudjet har yili balanslashtirilmasligi mumkin. Aksincha, bunday vaziyatda iqtisodiy sikl davomida byudjetning balanslashtirilganligiga erishishning o'zi yetarli hisoblanadi.

Bu konsepsiya ham o'zining mantiqiy asosiga ega. Uni oddiy, oqil va jozibador, deb hisoblash mumkin. Bularning sababi shundaki, bu konsepsiyaga binoan ishlab chiqarishning qisqarishiga qarshi turish uchun hukumat dastlab, bir tomondan soliqlarni pasaytirishi va ikkinchi tomondan, davlat xarajatlarini oshirish evaziga ongli ravishda byudjet defitsitini vujudga keltirishi kerak. Navbatdagi inflyatsion yuksalish davrida esa aksincha, hukumat soliqlarni oshirishi va davlat xarajatlarini qisqartirishi lozim. Ana shu asosda vujudga keladigan byudjetning ijobiy qoldig'i iqtisodiy pasayish davrida vujudga kelgan davlat qarzlarini (byudjet defitsitini) qoplashga sarf qilinishi mumkin. Shunday qilib, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bunda mamlakat hukumati ijobiy (pozitiv) antisiklik siyosatni amalga oshira borib, bir vaqtning o'zida byudjetni ham balanslashtiradi. Faqat bunday

²⁰ Bir tasavvur qilib ko'ringchi, buning sabablari nimalardan iborat ekan?

balanslashtirish har yili emas, balki bir necha yil davom etgan davrda amalga oshiriladi.

O'zining bir necha ijobiy tomonlariga qaramasdan bu konsepsiyada ham hisobga olinishi yoki hal etilishi kerak bo'lgan bir necha murakkab muammolar bor. Iqtisodiy sikldagi pasayish va yuksalishning o'z chuqurliklari va davomiyligi jihatidan bir-birlaridan farq qilishi mumkinligi ana shunday muammolardan biridir. Masalan, amaliyotda ba'zi hollarda chuqur va uzoq davom etgan pasayish yuksalishning qisqa davri bilan ham xarakterlanishi mumkin. Bunday vaziyatda iqtisodiy pasayish davrida vujudga kelgan katta miqdordagi defitsitni qisqa muddatda davom etgan yuksalish davridagi byudjetning ijobiy qoldig'i hisobidan qoplashning iloji bo'lmaydi va demak, bu yerda siklik xarakterdagi byudjet defitsiti mavjud bo'lib qolaveradi.

Va nihoyat, byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosati uchinchi konsepsiyasining negizida funksional moliya, degan g'oya yotadi. Bu konsepsiyaning g'oyasiga muvofiq byudjetni balanslashtirish to'g'risidagi masala – uni har yili balanslashtirish kerakmi yoki siklik asosda balanslashtirish zarurmi, bu prinsipial ahamiyatga ega emas, u ikkinchi darajali ahamiyatga molik bo'lgan masala. Chunki davlat moliyasining asosiy maqsadi byudjetni emas, balki eng avvalo, noinflyatsion to'liq bandlilikni ta'minlashdan, ya'ni iqtisodiyotni balanslashtirishdan iborat. Agar ana shu maqsadga erishish byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi barqaror ijobiy saldo yoki katta, o'sib boruvchi davlat qarzlarini sharoitida amalga oshirilsa, mayli – oshirilaversin. Bu konsepsiyaga muvofiq davlat byudjeti defitsiti yoki profitsiti bilan bog'liq bo'lgan muammo yuqori muqobil darajadagi uzoq davom etuvchi iqtisodiyotdagi pasayishlar yoki barqaror inflyatsiya bilan qiyoslaganda deyarli ahamiyatga ega emas. Chunki davlat byudjeti avvalo, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va uni qo'llab-quvvatlash instrumenti hisoblanadi.

Ana shu maqsadga erishish uchun har qanday darajadagi byudjet defitsiti yoki profitsitiga borilishidan hukumat shubhaga tushmasligi lozim.

Byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosati-ning ikkinchi va uchinchi konsepsiyalari byudjet defitsiti-ga yo'naltirilgan va mamlakat pul xo'jaligining salohiyatiga tayanadigan moliyaviy siyosatning asosida yotadi. Bunday siyosat quyidagilarning bo'lishini taqozo etadi:

- mamlakatning pul salohiyati doirasida moliyaviy tadbirlar aniq dasturining mavjudligi;
- byudjet defitsitining rivojlanishi ustidan nazorat va uni qoplash manbalarini qidirib topish;
- eng yuqori iqtisodiy samara beradigan tadbirlarga byudjet mablag'larini ajratish.

Bu siyosatni egallash jamiyatga byudjet defitsitining optimal (oqilona) o'lchamini topishga imkon beradi. Masalan, o'tgan XX asrning 80-yillarida YaIMga nisbatan byudjet defitsiti Fransiyada 9,6%ni, AQShda – 11,6%ni, Germaniyada – 14,0%ni, Yaponiyada – 15,6%ni, Belgiyada – 25,1%ni, Italiyada – 25,2%ni va Gretsiyada – 31,2%ni tashkil etgan. Biroq byudjet defitsiti bilan bog'liq bo'lgan siyosat u qanchalik jozibador bo'lmasin, nisbatan katta miqdordagi byudjet defitsitlari hatto iqtisodiy jihatdan “boy” sanalgan mamlakatlar uchun ham keskin salbiy oqibatlar olib kelmoqda. Xususan, dunyoda eng kuchli iqtisodiyotga ega bo'lgan AQSh iqtisodiyoti uzoq yillar davomida federal byudjetning barqaror defitsitli sharoitida faoliyat ko'rsatib kelgan bo'lishiga qaramasdan, o'tgan asrning 90-yillari o'rtalariga kelib, federal byudjet defitsiti shunday katta (yirik) darajaga yetdiki, bu narsa unga qarshi kurashish uchun ta'sirchan vositalarni qidirib topishga AQSh hukumatini majbur etdi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun qo'shimcha savollar

- Byudjet defitsiti deb nima aytiladi?

- Byudjet-soliq siyosatining tarkibiy qismi sifatida byudjet siyosatining yakuniy (miqdoriy) natijasi byudjet defitsiti, byudjetning balansliligi yoki byudjet profitsitida o'z ifodasi-ni topishi mumkinmi? Ularning har biriga qarab turib yakka-yu yagona bo'lgan yakuniy xulosani chiqarsa bo'ladimi?

- Byudjet daromadlari va xarajatlarining o'zaro to'g'ri nisbati xususidagi muammoga doir munozaralarda ishtirok etuvchilarni eng umumiy ko'rinishda qanday guruhlar-ga ajratish mumkin va ular qanday ikki maktabning vakillari hisoblanadi?

- Keynschilar maktabining vakillari sistematik yoki doimiy byudjet defitsiti konsepsiyasini qo'llab-quvvatlab, ular bunda qanday ijobiy holatlarning bor ekanligini qayd etadilar?

- Keynschilar maktabi vakillarining byudjetni defitsitli moliyalashtirish nazariyasi mavjud defitsitni qanday byudjetda to'planishini taqozo etadi va u qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

- Neoklassik maktab vakillarining qarashlarida byudjet defitsitiga nisbatan qanday xavflarning mavjud ekanligi ko'rsatib o'tilgan?

- Byudjet defitsitini qanday belgilar asosida turkumlarga ajratish maqsadga muvofiq?

- Vujudga kelish sabablariga ko'ra byudjet defitsitining qanday turlari bo'lishi mumkin?

- Favqulodiy byudjet defitsitining negizida nimalar yotadi?

- Inqiroziy va antinqiroziy byudjet defitsitlari nimalar bilan bog'liq bo'ladi?

- Xalqaro amaliyotda byudjetlararo byudjet defitsiti, deyilganda odatda, nima tushuniladi?

- Iqtisodiy mazmuni va ta'sirchanlik yo'nalishiga qarab byudjet defitsiti nimalarga bo'linadi?

- Jahon amaliyotida iqtisodiyotning barqaror rivojlani-shi sharoitida passiv byudjet defitsitining darajasi YaIMga,

MDga va byudjetning xarajatlar qismiga nisbatan necha foiz atrofida chegaralanishi qabul qilingan?

- Qanday vaziyatlarda byudjet defitsiti aktiv shaklga ega bo'ladi?

- Ishsizlikning darajasi bilan bog'langanligiga binoan byudjet defitsiti qanday ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin?

- Tuzilmaviy byudjet defitsiti, deyilganda nima tushuniladi?

- Siklik byudjet defitsiti, deb nimaga aytiladi?

- Vujudga kelish xarakteriga muvofiq byudjet defitsiti qanday ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin?

- Tasodifiy (kassaviy) byudjet defitsiti nimaning mavjudligi natijasida paydo bo'ladi?

- Haqiqiy byudjet defitsiti qachon vujudga keladi?

- Rejaga munosabati bo'yicha byudjet defitsiti qanday ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin?

- Rejali byudjet defitsiti nimalarda o'z aksini topadi?

- Rejadan tashqari (rejasiz) byudjet defitsiti nimalar natijasida paydo bo'ladi?

- Doimiylikiga nisbatan byudjet defitsitining qanday turlari bo'lishi mumkin?

- Davomiyligiga ko'ra byudjet defitsiti qanday ko'rinishlarga ega?

- Xronik (sistematik) tarzdagi byudjet defitsiti vujudga kelishining sabablari nimalardan iborat?

- Vaqtinchalik byudjet defitsitining vujudga kelishida qanday sabablar muhim rol o'ynaydi?

- Moliyalashtirish manbalariga bog'liqligiga qarab byudjet defitsitining qanday turlari mavjud?

- Kelgusi avlodga o'tkaziladigan va o'tkazilmaydigan byudjet defitsiti deb nimaga aytiladi?

- Ayrim hollarda byudjet defitsitini moliyalashtirish yangi soliqlarni joriy etmasdan va davlat qarzlarini muomalaga chiqarmasdan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirishi mumkin. Bunday boshqa manbalar qatoriga nimalar kiradi?

- Davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha foizlarni to'lashning xalqaro metodologiyasiga binoan byudjet defitsiti qanday ko'rinishlarga ega?

- Birlamchi va ikkilamchi byudjet defitsiti, deb nimalarga aytiladi?

- Byudjet defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablari nimalardan iborat?

- Byudjet defitsiti vujudga kelganda unga nisbatan strategik yondashuv (strategiya) nimalarga alohida e'tibor berishni taqozo etadi?

- Byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

- Byudjet defitsitini moliyalashtirishning asosiy manbalariga nimalar kiradi?

- Davlatning ichki va tashqi qarzlari, deyilganda nimalar tushuniladi?

- Davlat ichki qarzlarining tarkibi nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

- Davlat tashqi qarzlarining tarkibiga nimalar kiradi?

- Byudjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalari qanday guruhlardan tashkil topadi?

- Byudjet defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalariga nimalar kiradi?

- Byudjet defitsitini moliyalashtirishning tashqi manbalari nimalardan iborat?

- Mamlakatning qarz majburiyatlari qanday shakllarda bo'lishi mumkin?

- "Byudjet defitsiti", "Byudjet kamomadi", "Byudjet taqchilligi", "Byudjet yetishmovchiligi" iboralarining ma'no-mazmuni bir xilmi?

- Byudjet defitsitini moliyalashtirish jarayonini qanday yo'llardan foydalangan holda boshqarish mumkin?

- Byudjet defitsitini kamaytirish byudjet siyosatining markaziy masalasi ekan uni muvaffaqiyatli uddalamoq uchun eng avvalo, nimalarga e'tibor bermoq lozim?

- Byudjet defitsiti va byudjet siyosati muammolariga konseptual yondashuvlar nimalardan iborat?

- Byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosatining birinchi konsepsiyasi ostida qanday g'oya yotadi? Unda qanday muammolar mavjud?

- Byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosatining ikkinchi konsepsiyasi asosiy mazmunini qanday g'oya tashkil qiladi? Uning afzalliklari va nuqsonlariga nimalar kiradi?

- Byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosatining uchinchi konsepsiyasi negizida nima yotadi?

- Byudjet defitsiti va unga daxldor bo'lgan byudjet siyosatining ikkinchi va uchinchi konsepsiyalari byudjet defitsitiga yo'naltirilgan va mamlakat pul xo'jaligining salohiyatiga tayanadigan moliyaviy siyosatning asosida yotadi. Bunday siyosat nimalarning bo'lishini taqozo etadi?

4-BOB. ZAMONAVIY SOLIQ SIYOSATINI ISHLAB CHIQUISH VA UNI HAYOTGA TATBIQ ETISHNING FUNDAMENTAL ASOSLARI

4.1. Soliqlar, soliq tizimi va soliq siyosatidagi vaziyat

Zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishni uning fundamental asoslarini aniqlab olishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buning uchun eng avvalo, soliqlar, soliq tizimi va soliq siyosatiga tegishli bo'lgan amaldagi vaziyatga aniqlik kiritish zarur. Ana shu vaziyat keyingi bir necha o'n yillik davomida O'zbekiston Respublikasining buyuk iqtisodiy eksperimentni o'z boshidan kechirayotganligi, unga ko'ra xalq xo'jaligini rejali usulda boshqarishdan iqtisodiy taraqqiyotning bozor mexanizmlaridan foydalanishga o'tilayotganligi bilan xarakterlanadi. Yangi iqtisodiy instrumentlar avvalgi iqtisodiy tizimning qoldiq elementlari va iqtisodiy munosabatlar subyektlarning ongida mustahkam ildiz otgan an'analar bilan birgalikda yashamoqda. Bu jarayon o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakat bir vaqtning o'zida huquq, siyosat va iqtisodiyot sohalarida tegishli o'zgarishlarni parallel ravishda amalga oshirish zarur bo'lganligi uchun yanada murakkablashayotir. Iqtisodiyotni qayta qurish ma'lum darajada ishlab chiqarishning qisqarishiga, inflyatsiyaning o'sishiga, ishsizlikning vujudga kelishiga, davlat sektorining qisqarishiga olib kelmoqda. Bunday salbiy hodisalarga barham berish kerak. Shu munosabat bilan soliq siyosati va mamlakatimizdagi soliq organlari tizimining samarali isloh qilinishi iqtisodiyotimizni bozor iziga ko'chirishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri ekanligini hozirgi paytda deyarli hamma tan olayapti.

Soliqlar muammosi bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri ekanligini hozirgi paytda deyarli hamma tan olayapti.

muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda juda keskin tanqidga uchrayotgan, juda qaynoq munozaralarga sabab bo'layotgan, isloh qilish bo'yicha tahlil obyekti va qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'layotgan soliqlardan bo'lak islohotlarning boshqa bir yo'nalishi yo'q. Boshqa bir tomondan esa, soliq tizimi bozor munosabatlarining eng muhim elementlaridan bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga bog'liq. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda yaratilgan soliq tizimini keskin (tubdan) qayta o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Bunday hollarda faqat bir daqiqalik samarani (qaytimni) hisobga olmasdan, balki bu takliflarning mamlakat iqtisodiyoti va moliyasining barcha tomonlariga qay darajada ta'sir etishi albatta, inobatga olinmog'i lozim.

Tabiiyki, ideal (benuqson) soliq tizimini jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, undagi yaratilgan ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga oluvchi muhim nazariy asos yordamidagina yaratish mumkin.

Soliq tizimi xo'jaliklardagi bozor munosabatlari rivojlantirishiga ta'sir qilishi, tadbirkorlikning taraqqiy etishiga yordam berishi va bir vaqtning o'zida aholining kam ta'minlangan qatlami turmush tarzining pasayib ketishiga to'sqinlik qilishi kerak.

Ana shunday sharoitda bozor iqtisodiyotida soliq tizimini tashkil qilishning asosiy prinsiplari tariqasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlari, ularning mulkiy ahvolini hisobga olish imkonini beruvchi soliq tizimi, ularning turlari, to'g'ri (bevosita) hamda egri (bilvosita) soliqlar nisbatining bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos tarzda rivojlanishi;

- mulkchilik shakliga va uning tashkiliy-huquqiy shakllariga bog'liq bo'lmagan holda xo'jalik yuritishning samaradorligi uchun barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagona talablarni o'rnatish maqsadida soliqqa tortish uslublarini universallashtirish;

- daromad olishning manbayi, xo'jalik yuritish sohasi va iqtisodiyotning tarmog'iga bog'liq bo'lmagan holda soliq miqdorini hisoblashda bir xil yondashish;

- soliqqa tortishning bir martalilik tamoyilini ta'minlash va ikki martalilik soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik;

- soliq to'lovchiga korxona va tashkilotning sog'lom rivojlanishini ta'minlaydigan, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish imkonini beruvchi soliqqa tortishning hissasini (qismini) hamda soliq stavkasini belgilashning (o'rnatishning, aniqlashning) ilmiy jihatdan asoslanganligi;

- daromad darajasi yoki mol-mulkning qiymatiga va bir vaqtning o'zida xo'jalik yuritishning bozor asoslarini sog'lom rivojlanishiga sharoit yaratib berishiga qarab soliq stavkalarini tabaqalashtirish (differensiatsiyalashtirish);

- uzoq vaqt davomida soliq stavkalarining barqarorligini, ularni hisoblashning oddiyligini ta'minlash;

- tadbirkorlik faoliyatiga mablag'larni investitsiyalashtirish jarayonini real rag'batlantiradigan va bir vaqtning o'zida ijtimoiy adolat prinsiplariga javob beradigan, fuqarolarga kun (hayot) kechirish minimumini kafolatlaydigan soliq imtiyozlari tizimini o'rnatish;

- soliq to'lovchilarning barcha toifalariga nisbatan soliq imtiyozlarining yagonaligi;

- kuchli, aniq ishlaydigan, texnik jihatdan yaxshi jihozlangan soliq xizmatini yaratish;

- davlat boshqaruv darajasi bo'yicha soliqlarning aniq taqsimlanishi²¹.

Biroq mamlakatimizda amal qilib kelayotgan soliq tizimi yuqorida qayd etib o'tilgan prinsiplarning barchasiga ham to'liq javob berayotgani yo'q. Boshqa bir tomondan, amaldagi soliq tizimi soliq to'lovchilarning ham (soliq yuklamasining og'irligi, tadbirkorlar huquqini cheklanganligi, qonuniy va me'yoriy hujjatlarni (aktlarni) talqin qilishning murakkabligi, chigalligi, bir xil emasligi, qonunlarga va tegishli me'yoriy

²¹ Bu va shunga o'xshash boshqa prinsiplar xususida o'quv qo'llanma-mizning 4.3-paragrafidagi yana bir bor to'xtalamiz va ularga izoh berishga harakat qilamiz.

hujjatlarga tez-tez o'zgar-tirishlarning kiritib turilganligi va boshqalar), soliq xizmatining ham (soliq to'lashdan qochish imkoniyatlarining ko'pligi, turli xildagi imtiyozlarning mavjudligi soliq to'lovchilar o'rtasida notenglikni vujudga keltirayotganligi va mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazayotganligi, iqtisodiyotda qisqa muddatlarda faoliyat ko'rsatayotgan firmalarning mavjudligi, soliq xizmati huquqining cheklanganligi, soliq inspektori ishining xavfliligi, og'irligi, kam maoshligi va boshqalar) manfaatlariga to'liq darajada javob bermayapti.

Umumiy jihatdan olib qaraganda mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilishning bir necha yo'llari mavjud bo'lib, ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

- muvaffaqiyatli ravishda faoliyat ko'rsatayotgan va O'zbekiston sharoitiga yaqin bo'lgan g'arb mamlakatlaridan birining soliq tizimidan nusxa olish;

- o'tish davri iqtisodiyotiga moslashtirilgan soliq tizimlarining biridan foydalanish;

- iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda ilgari borayotgan o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda butunlay yangi soliq tizimini ishlab chiqish (yaratish).

O'zbekistonda hozirgi paytda amal qilib kelayotgan soliq tizimini tezda va tubdan o'zgartirishga qaratilgan har qanday tadbir mamlakat iqtisodiyotiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazishi mumkinligi, shubhasiz. Bu yerda soliqlar va soliqqa tortishning rivojlanishi tarixi iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan turlicha bo'lgan mamlakatlardagi soliq tizimlarini o'rganish va tahlil qilish hamda olingan bilimlarni O'zbekiston sharoitiga muvofiqlashtirish (moslashtirish) asosida puxta o'ylab, hisob-kitob qilib yondashish maqsadga muvofiq.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining dastlabki bosqichlarida sotsialistik iqtisodiyotda hukm surgan soliq tizimi amaliyotivauning tarkibiy tuzilishi O'zbekistonga ham «meros» bo'lib o'tdi. Undan keyingi davrlarda bo'lgan o'zgarishlarning sur'atlari va yo'nalishlarini belgilashda quyidagilar o'zining asosiy ta'sirini ko'rsatdi: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi

va yalpi ichki mahsulotda davlat sektori salmog'ining yuqori darajadali; «kelishuvli soliqlar»ning mavjudligi (bir xil vaziyatdagi ikki soliq to'lovchi bir-birining qancha soliq to'layotganligini bilmasligi); soliqlarning mavjud ekanligini aholidan yashirish va soliq intizomiga ixtiyoriy ravishda rioya qilish an'alarining yo'qligi; soliq organlarining rivojlanmaganligi va aholining davlat institutlariga nisbatan ma'lum darajadagi ishonchsizligi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi soliq tizimining qanday sharoitlarda vujudga kelganligini (paydo bo'lganligini) ham esdan chiqarmaslik kerak. Bozor toifasidagi iqtisodiyotda soliqlar va soliq tizimi bozorning eng asosiy instrumentlaridan hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat boshqaruvining barcha darajalarida olinadigan soliqlar byudjet jami daromadlarining 90-95 foizini shakllantiradi. Ana shu munosabat bilan soliq tizimini shakllantirish, soliqlarni to'plash va ulardan foydalanish mexanizmini yaratish alohida (birinchi darajali) ahamiyat kasb etadi.

1987-1990-yillarda joriy etilgan iqtisodiy normativ va limitlar tizimi, resurs to'lovlari, ularning markaziy hukumat tomonidan yuqoridan taqsimlanishi zaruriy (ko'zlangan) natijalarga olib kelmadi. Ular boshqaruvning rejali usullaridan bo'lib, oqibat natijada moliyaviy boqimandalikni tug'dirdi. Soliq tizimining asosiy maqsadi reja topshiriqlarini bajarishdan iborat bo'lgan korxonalarining faoliyat manfaatlariga bo'ysundirilgan edi.

Sobiq SSSR iqtisodiyotida soliqqa tortishning tarkibiy tuzilishini o'zining hajmi (o'lchami) bo'yicha bir-biriga teng bo'lmagan byudjetga borib tushuvchi ikki guruhdagi soliqlar tashkil etgan. Birinchi guruhga korxonalar foydasidan ajratmalar: fond haqi to'lovlari, qat'iy renta to'lovlari, keyinroq foyda solig'i bilan almashtirilgan byudjetga olinadigan foydaning ozod qoldig'i kabilar kirgan. Oborot solig'i va byudjetga sotsial (ijtimoiy) sug'urta badallari ham shu guruhga kiritilgan. Ana shulardan tarkib topgan birinchi guruh yordamida byudjet daromadlarining 70 foizgacha bo'lgan qismi shakllangan.

Ikkinchi guruhga aholidan olinadigan daromad solig'i, bo'ydoq va kam oilalilardan olinadigan soliq hamda qishloq xo'jaligi solig'i kiritilgan bo'lib, ular yordamida byudjet daromadlarining 7 foizigacha daromadlari tashkil topgan.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida amaldagi soliq tizimi bozor iqtisodiyotining jadallik bilan faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qila boshladi va yangi soliq tizimiga asos solish zaruriyati paydo bo'ldi.

Mamlakat iqtisodiyotida vujudga kelgan real vaziyat (inflatsion jarayonlarning kuchayishi, tovarlar bozoridagi nomutanosiblik, ishlab chiqarishning qisqarishi, byudjet xarajatlarini moliyalashtirishning emissiya hisobidan amalga oshirilishi va boshqalar) inobatga olgan holda juda keskin choralarni ko'rish taqozo etildi va shunga mos ravishda amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan soliq tizimi juda qisqa muddatda (3 oy ichida) ishlab chiqildi va mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy etildi. Dunyoda bunday qisqa muddatda yangi soliq tizimini qo'llash amaliyoti bo'lmagan. 1992-yil-dayoq davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi asosiy og'irlikni ancha murakkab bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i o'z zimmasiga olgan edi.

Amaldagi yangi soliq tizimi tuzilish (qurilish) prinsiplari va tarkibiy qismlariga ko'ra butun jahon amaliyotida keng tarqalgan soliq tizimini ham aks ettirgan. Hozirgi zamondagi barcha soliq tizimlari xuddi shunga o'xshash turli xildagi soliqlardan iborat.

Yangidan joriy etilgan qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar bekor qilingan oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliq singari egri (bilvosita) soliqlar hisoblanib, ular o'zlarining mohiyatiga ko'ra iste'molga solinadigan soliqlardir. Chunki bu soliqlar bilan iste'molchilar tomon yuz tutgan mahsulotlar va xizmatlar soliqa tortiladi. Oxirgi iste'molchi bu yerda faqat shaxs sifatida maydonga chiqmasdan, balki ular soliqlarni to'lovchilar bo'lib noishlab chiqarish sohasidagi iste'molchilar ham hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar bozor iqtisodiyoti amalda bo'lgan juda ko'p mamlakatlarda o'zlarini faqatgina

byudjetning samarali fiskal instrumentlari sifatida namoyon etib qolmasdan, balki barcha tadbirkorlar uchun xo'jalik yuritishda teng sharoitlar yaratib beradigan vosita sifatida ham yaqqol ko'rindi.

Qo'shilgan qiymat solig'i oborot solig'idan soliq to'lovchilar kontingenti, faoliyat ko'rsatish sohasi, byudjetga olish uslubi, stavkalari soni va hisoblanishning oddiyligi bilan farq qiladi.

Oborot solig'i uchun qat'iy baholarning qattiq reglamentatsiya qilinganligi, soliq stavkalari keng to'plamining mavjudligi va soliqning faqat tayyor buyumlar bo'yicha olinishi xarakterlidir. Bu soliq asosan, xalq iste'mol buyumlari bo'yicha olinib, qurilish, transport, aloqa, qishloq xo'jaligi, savdo, ta'minot, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa tarmoqlarga deyarli ta'sir ko'rsatmagan edi.

Qo'shilgan qiymat solig'i eng umumiy soliq bo'lib, ishlab chiqarish va texnikaviy maqsadlarga mo'ljallangan xalq iste'mol tovarlari, bajarilgan ishlar va to'lovli (haqli) xizmatlar, ishlab chiqariladigan va realizatsiya qilinadigan moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu soliq tovarlar, ishlar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratiladigan qiymat o'sishining bir qismini byudjetga olish shakli bo'lib, ularning realizatsiya qilinishiga (ortib jo'natilishiga) qarab byudjetga olinadi (o'tkaziladi).

Qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyatini to'liq idrok etish uchun tarkibiga xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy va qo'shimcha ish haqi (ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar bilan birgalikda), asosiy fondlarning amortizatsiyasi va boshqa xarajatlarning qiymati kiruvchi ishlab chiqarish xarajatlarning elementlariga murojaat qilmoq zarur. Ko'rsatilgan moddiy xarajatlardan buyumlashgan mehnatni o'zida gavalantirganlarning barcha elementlari boshqa korxonalarda ishlab chiqarilgandir. Asosiy va qo'shimcha ish haqi (ijtimoiy ehtiyojlarga hisoblashlar bilan birgalikda) esa jonli mehnat bilan shu korxonaning o'zida yaratiladi va ular qo'shilgan (o'stirilgan) qiymat hisoblanadi. Tabiiyki, mahsu-

lotlar va tovarlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlarini qoplaydigan va korxonaning foyda olishiga imkon beruvchi baholarda realizatsiya qilinadi va u ham shu korxona ishchilarining mehnati bilan yaratiladi hamda qo'shilgan (o'stirilgan) qiymatga tegishli bo'ladi. Bu yerda qo'shilgan yoki o'stirilgan qiymat o'zida qayta ishlash xarajatlari va eng avvalo, mehnat haqi xarajatlarini gavalantirishi ma'lum bo'ladi. Qo'shilgan qiymatning tarkibiga yuqoridagilardan tashqari amortizatsiya va ishlab chiqarish sikli bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarning boshqa elementlari ham kiradi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining ustuvorlik roli uning umumiyli bilan belgilanadi. Mulkchilik shakli va u qaysi yuqori tashkilotga itoat etishidan qat'iy nazar deyarli barcha korxonalar bu soliqning to'lovchisi hisoblanadi (shu jumladan, xorijiy investitsiyali korxonalar ham).

Oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliq bekor qilinishi munosabati bilan ularning o'rniga joriy etilgan qo'shilgan qiymat solig'i barcha hollarda ham «tushib qolayotgan» byudjet daromadlarining hammasini to'ldirishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham dastlabki paytlarda bu vazifani bajarish mas'uliyati aksizlar zimmasiga yuklatildi.

Aksiz stavkalarining darajasi sotilish bahosiga (qo'shilgan qiymat solig'i chegirilgan) nisbatan foizlarda o'rnatilgan bo'lib, ular butun mamlakat hududi uchun yagona hisoblangan. Biroq bizning amaliyotimizda aksizlar stavkasini foizlarda o'rnatish natijasida jahon amaliyotidan biroz chetga chiqildi. Chunki bu yerda aksizlar tovarlarning natural birligiga nisbatan qat'iy stavkalarda o'rnatiladi.

Moliyaviy va iqtisodiy vaziyatning nobarqarorligi, inflyatsiya sur'atlarining yuqoriligi sharoitida aksiz stavkalarining mahsulot natural birligiga nisbatan qat'iy stavkalarda o'rnatilishi byudjet uchun doimiy ravishda juda katta miqdordagi daromadlarning olinmasligini anglatganligi uchun aksiz stavkalarini tovarni sotish bahosiga nisbatan foizlarda o'rnatish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Bozorning tovarlar bilan to'ldirilishi, talab va taklifning muvozanatlashuvi, iqtisodiyotning barqarorlashuvi va mamlakatda inflyatsion jarayonlar darajasining minimallashtirishuvi pirovardida aksiz stavkalarini umumqabul qilingan uslubda, ya'ni mahsulot birligiga nisbatan qat'iy ravishda so'm va tiyinlarda o'rnatish imkonini beradi.

Amaliyotda qo'llanilgan soliqlarda maxsus ravishda inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi hisobga olindi. Oy davomida baholarning 25-30 foizga o'sishi sodir bo'lgan bir paytda faqat to'g'ri soliqlarning qo'llanilishi daromadlarga nisbatan xarajatlarning yuqori sur'atlarda o'sishi hisobidan byudjet daromadlarining 35-40 foiz yo'qotilishiga olib keldi. Shuning uchun ham qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi bunday «samara»ni ikki barobarga kamaytirdi va egri soliqlarning har dekadada olinishiga o'tilishi bilan yuqoridagi salbiy oqibatlarga barham berildi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan inflyatsion iqtisodiyot uchun amaldagi soliq tizimi yetarli darajada moslashtirilgan edi. Qo'shilgan qiymat solig'i avtomatik ravishda tovar bahosining tarkibiga qo'shilib va iste'molchilarga o'tkazildi. Jismoniy shaxslar daromadi, mol-mulk va erga solingan soliqlar, minimal foydadan olinadigan soliqlar esa yuqori darajada bo'lgan. Lekin baribir o'sha davr uchun soliqlarning yuqori darajadaliigi, soliq stavkalarining o'sib borishi, yangidan yangi soliqlarning joriy etilishi xarakterli bo'lsa-da, shunday bo'lishiga qaramasdan davlat byudjetining daromadlarini shakllantirayotgan soliqlarning yalpi milliy mahsulotdagi salmog'i pasayib borgan va ayrim oylarda 8-9 foizga teng bo'lgan. Bularning hammasi amaldagi soliq tizimini isloh qilish yo'llarini qidirib topishni zarur qilib qo'ydi.

O'tish davrida soliq islohotlarini amalga oshirish maqsadida bozor iqtisodiyoti sharoitidagi xorijiy mamlakatlarning soliq tizimidan andoza olish tarzida yondashishni shartli ravishda «katta sakrash» deb atash mumkin. Biroq xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridan nusxa olishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatuvchi bir necha sabablar mavjud.

Xorijiy mamlakatlardagi soliq tizimlarining hammasini ham takomillashgan va hozirgi kunning talablariga to'liq javob beradi, deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu mamlakatlarning soliq tizimlarini sistematik ravishda isloh qilib turilishi bejiz emas. Albatta, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar rivojlangan g'arb mamlakatlarining soliq tizimlaridan avtomatik ravishda nusxa olmasdan, ularning xatolaridan tegishli saboq olishlari kerak. Rivojlangan mamlakatlarning soliqqa tortish amaliyoti va ularning tajribasini tadqiq qilish bir necha xulosalarga olib keldiki, ular bizning mamlakatimiz uchun ma'lum darajada amaliy ahamiyatga ega.

Ko'p yillar davomida kapitalistik jamiyat, deb atalib kelingan hozirgi rivojlangan jamiyat, aholining turli ijtimoiy guruhlarini o'rtasidagi murakkab munosabatlar tizimini o'zida namoyon etadi. Bu jamiyat kapital va bozor munosabatlari, xususiyl mulkchilik, raqobat hukmron bo'lgan va foyda iqtisodiy faoliyatning rag'batlantiruvchisiga aylanganligi bilan xarakterlanadigan jamiyatdir. Ammo XIX asr va XX asrning birinchi yarmidagidan farqli o'laroq, kapitalistik iqtisodiy bazis, ya'ni uning ishlab chiqarish munosabatlari siyosat, madaniyat, huquq va shu kabilarga nisbatan hal qiluvchilik rolini o'ynashdan to'xtadi.

Hozirgi paytda kapitalistik ishlab chiqarish usulining tarkibiy qismlariga ma'lum darajadagi mustaqillik va ixtiyoriylilik xosdir. Davlat siyosiy ustqurma sifatida birinchi navbatda, turli ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi organ sifatida maydonga chiqadi. Demokratlashtirishga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga asoslangan kapitalizmning insonparvarligi ana shunda namoyon bo'ladi.

Dunyodagi yetakchi davlatlar iqtisodiyotining insonparvarligi ijtimoiy resurslarni maorif va intellektual ehtiyojlarni qondirish foydasiga qayta taqsimlashga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Ilg'or mamlakatlar iqtisodiyotidagi bunday to'ntarish ishlab chiqarish jarayonining o'zidagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha davlatning tadbirlari bilan ta'minlanadi. Har

bir konkret sharoitda iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda jamiyatdagi tub o'zgarishlarga qodir bo'lgan barcha omillar hisobga olinadi va iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy, ekologik va siyosiy oqibatlarining xarakteri ham nazardan chetda qolmaydi. Bir vaqtning o'zida ular iqtisodiy darajalarida tafovutlar bo'lishiga qaramasdan xo'jalikning internatsionalizatsiyalashuvi sharoitida mamlakatlarning tarkibiy qayta qurilishi bir-biri bilan uzviy bog'langandir.

Yuqori darajada rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar, ayniqsa, ularning integratsiyalashganlari faqatgina dunyoning boshqa qismiga (jumladan, bizning mamlakatimizga ham) ta'sir ko'rsatib qolmasdan, balki ularning o'zlari faoliyatlarini tashqi omillarni hisobga olgan holda o'zgartirayaptilar. Mamlakat ichkarisidagi va undan tashqaridagi iqtisodiy jarayonlarga davlatning ta'siri turli moliyaviy, kredit, pul uslublari yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy uslublarni orasida muhim o'rinni soliqlar egallaydi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida vujudga kelganligi va faoliyat ko'rsatganligi uchun ishlab chiqarish munosabatlarining bir qismi hisoblanadi. Ularning moddiy mazmuni shundan iboratki, ular davlatning o'z funksiyalarini bajariishi uchun davlat tomonidan milliy daromadning bir qismini davlat ixtiyoriga mobilizatsiya (jalb) qilinishidir.

Soliqlarning ijtimoiy mazmuni siyosiy hokimiyatning iqtisodiy munosabatlarga aralashuviga imkoniyat yaratib beradi. Masalan, hozirgi dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida soliqlar davlat byudjetining asosiy (70-90 foiz) daromadini tashkil etadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi soliq siyosati bu vaziyatni tubdan o'zgartira olmadi. Obyektiv va subyektiv holatlarning ta'siri ostida davlat faoliyatining keskin kengayishi natijasida soliqqa tortish yuqori darajaga yetdi va u soliqlarning yalpi milliy mahsulotga nisbati bilan xarakterlanayapti. Hozirgi zamon davlati insoniyatga katta xavf tug'dirayotgan ekologiya, urbanizatsiya, moddiy qashshoqlashuv va boshqa shu kabi muammolarni echishni o'z zimmasiga olayapti. Bu, albatta, katta xarajatlarni talab qiladi.

Bundan tashqari, inson ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanib borayotganligi uchun ijtimoiy-madaniy xarajatlar ham o'sib borayapti. Asosiy rivojlangan mamlakatlarda soliq tushumlarining eng cho'qqisi 70-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, bu paytda soliqlarning yalpi milliy mahsulotdagi salmog'i 30-45 foiz va undan ko'proqni tashkil etgan. Soliq tushumlarining ortishi Ikkinchi jahon urushidan keyin xoriy mamlakatlar soliq tizimlariga kiritilgan «yangiliklar» bilan izohlanadi. Ularning tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqqa tortish obyektlarining keskin kengaytirilishi;
- soliqqa tortish uslublarining o'zgartirilishi;
- amaldagi soliq stavkalarining oshirilishi;
- to'g'ri (bevosita) soliqlar bo'yicha to'lov muddatlarini joriy yilga o'tkazilishi va egri (bilvosita) soliqlar bo'yicha to'lov muddatlarining ancha tezlashtirilishi;
- qattiq qonunlarning joriy etilishi (kiritilishi) va elektron texnikadan foydalanish yordamida soliq to'lovchilar ustidan davlat organlari nazoratining kuchaytirilishi.

G'arb mamlakatlarida soliqqa tortishning yuqori darajadali bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan:

- kapital qo'yulmalarning manbalarida cheklanishlarning mavjudligi munosabati bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish imkoniyatlari yomonlashdi va iste'moldagi nisbat buzildi;
- daromadlar oshgan qismining soliqqa tortilishi munosabati bilan mehnatning rag'batlantirilishi pasayishi natijasida aholining iqtisodiy tashabbuskorligi susaydi;
- soliq to'lashdan bo'yin tovlash masshtabi kengayishi natijasida yashirin iqtisodiyot rivojlandi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlar qatoriga faqat o'z daromadlarini soliqqa tortishdan yashirganlar kirib qolmasdan, balki qonunni buzmasdan o'z faoliyat shaklini o'zgartiradigan va bu faoliyatni soliqqa tortish uchun qiyinlashtiruvchilar ham kiradi;
- ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlar bahosining tarkibiga egri soliqlar va sotsial sug'urta badallari hamda bir

necha to'g'ri soliqlarni kiritishlari sababli inflyatsion jarayonlar chuqurlashdi;

- soliq apparati kengaydi, soliqqa tortish subyektlari va obyektlarining o'sishi munosabati bilan soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlar ortdi;

- ijtimoiy nizolar vujudga keldi, goho ular yollanma ishchilar ish haqining oshirilishi bilan yakunlandi va bu o'z navbatida, ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi hamda tovarlar realizatsiyasi jarayonini murakkablashtirdi.

Yuqori darajada soliqqa tortishning yuqorida qayd etilgan salbiy oqibatlari birdaniga ko'zga tashlanmasdan, balki sekin-astalik bilan to'plana boradi va ma'lum sharoitlarda ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishiga olib kelishi hamda siklik tanazzulga yaqinlashtirib qo'yishi mumkin. XX asrning 70-yillari o'rtalarida shunday bo'ldi ham.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy tushkunligiga barham berish uchun xorijiy mamlakatlarning hukumatlari o'zlari-ning soliq siyosatlarini qayta ko'rib chiqayaptilar. Bu jarayon uchun «takliflar iqtisodiyoti» deb nomlangan nazariya asos qilib olinayotirki, unga ko'ra ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun soliqqa tortishni ancha pasaytirish taqozo etiladi. Shu munosabat bilan XX asrning 80-yillarida ko'p mamlakatlarda birinchi navbatda, to'g'ridan to'g'ri soliqqa tortishni pasaytirishga qaratilgan soliq tadbirlari amalga oshirildi.

Rivojlangan mamlakatlar uchun rivojlangan soliq tizimi xarakterlidir. Masalan, Germaniyada 50 dan ortiq turli soliqlar mavjud. Amalda nima sotilayotgan bo'lsa, o'shandan ma'lum bir foiz davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Xorijdagi soliqlarning rang-barangligi davlat organlariga har bir soliq to'lovchi (yuridik va jismoniy shaxs) ustidan va demak, ishlab chiqarish, muomala, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

So'nggi yillarda soliq tizimlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Juda ko'p mamlakatlarda daromad solig'i eng muhim soliq hisoblanib, u keng aholi qatlami orasida ommaviy soliqqa aylangan. Ko'pgina mamlakatlarda amal qilib kelgan

shedulyar soliq undirish qulay va tejamli bo'lgan global soliq bilan almashtirildi. Yil davomida soliqning olinishi daromadni to'laydigan korxona buxgalteriyasi tomonidan individual shaxsning daromadi yonida (butun oilaning emas) amalga oshiriladi. Yil oxirida soliq deklaratsiyasining taqdim qilinishi bo'yicha soliq imtiyozlari va chegirmalar hisobga olinib, soliqlar summasi qayta hisoblanadi.

2. O'z ahamiyatiga ko'ra sotsial (ijtimoiy) sug'urta badallari davlatning ikkinchi muhim soliq daromadi hisoblanadi. Bu maqsadli soliq bo'lib, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Sotsial (ijtimoiy) sug'urta badallari jismoniy shaxslardan soliq chegirmalari inobatga olinmagan holda ularning daromadlaridan proporsional stavkalarida olinsa, yuridik shaxslardan esa ish haqi fondiga nisbatan foizda olinadi. Bir vaqtning o'zida stavka qo'llaniladigan maksimal badal yoki maksimal daromad ham belgilanadi. Ko'pgina mamlakatlarda sotsial (ijtimoiy) sug'urta badallarining tushib turish sur'atlari boshqa soliqlarga tegishli bo'lgan shu ko'rsatkichlardan yuqoriroqdir.

3. Yuridik shaxslardan olinadigan muhim soliq sifatida hamon korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq qolayotir. Bu soliq foydadan imtiyozlar chegirilganidan so'ng joriy yildagi soliqqa tortiladigan foydadan olinadi. Soliqning stavkasi proporsional bo'lib, oxirgi yillarda tadbirkorlik faoliyatining manfaatlarini hisobga olgan holda birmuncha pasaytirildi. Umumiy ko'rinishda yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortish daromadlarni soliqqa tortishga nisbatan ancha past.

4. Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarning qonunchiligi investitsiyalarni soliqqa tortishda qulay sharoitlar yaratishni ko'zda tutgan. Bu mamlakatlarda investitsion soliq kreditiga amal qilinib, tezashtirilgan amortizatsiya qo'llanilishi xususiy kapital qo'yulmalarining o'sishini ta'minlayapti. Kompaniyalarning aksionerlik shaklida tashkil qilishning kengayishi ikki marta soliqqa tortish (kompaniya darajasida va aksionerlar darajasida) muammosining vujudga kelishi munosabati bilan foydani soliqqa tortish tarkibini qayta

ko'rib chiqishni taqozo etdi. Bir qator mamlakatlarda (Germaniya, Yaponiya, Avstriya, Norvegiya va boshqalarda) korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqning turli stavkalari amal qilib kelayapti: yuqoriroq stavkalar - taqsimlanmagan foyda uchun va pastroq stavkalar - taqsimlangan foyda uchun. Belgiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Kanada, Fransiya va yana bir necha mamlakatlarning qonunchiligi aksionerlar dividendlarini daromad solig'iga tortishda soliq kreditlarini ko'zda tutadi. AQSh va Italiyada esa foydani soliqqa tortishdagi ikki martalikni pasaytirishga qaratilgan soliq imtiyozlari mavjud emas.

Byudjetlarning soliq daromadlari tarkibida korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliq hissasining pasayib borishi kuzatilmoqda. Bu soliqning salmog'i rivojlangan mamlakatlarda jami soliq tushumlarining 1/10 qismiga to'g'ri kelayapti.

5. Undirilishining yengilligi va oddiyligi uchun xorijiy mamlakatlarda egri (bilvosita) soliqlar keng tarqalgan. Eng keng tarqalgan egri (bilvosita) soliq universal aksiz (oborot) solig'i bo'lib, bu soliq juda ko'p iste'mol tovarlari va xizmatlarni qamrab olganligi uchun byudjetga juda katta tushumlarning kelishini ta'minlaydi.

6. Hozirgi paytda universal aksiz juda ko'p mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i shaklini olib, soliq tizimini unifikatsiyalashtirishni boshlab berdi. Bu soliqning kengayishi uning ba'zi bir afzalliklari (soliqqa tortishning oddiyligi, yuqori daromadligi, iqtisodiyotni tartibga solishdagi samaradorligi, ishlab chiqarish ustidan nazoratning mavjudligi) sabab bo'ldi. To'g'ri (bevosita) soliqlarning qisqarishi bilan bir vaqtning o'zida individual aksizlarning stavkasi oshirildi.

7. O'zlarining qiymat asosiga o'tkazilgan bo'lishiga qaramasdan boj to'lovlarining fiskal ahamiyati pasayib borayotir. Hozirgi dunyoning xarakterli belgilaridan biri bojni tartibga keltirish bo'lib, u mintaqaviy birlashish doirasida yoki tashqi savdoni kengaytirish maqsadidagi xalqaro soliq bitimlarida ko'zda tutilayapti.

Yetakchi xorijiy mamlakatlardagi soliqqa tortishning asosiy tendensiyalari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Ikkinchi jahon urushidan keyingi birinchi uch o'n yillikda birinchi navbatda, harbiy maqsadlar uchun xarajatlarning keskin oshishi munosabati bilan solikli daromadlarning tez o'sishi kuzatildi.

- 80-yillarning boshlariga kelib, soliqlar o'zining yuqori nuqtasiga yetdi, ya'ni to'g'ri soliqlarning (eng avvalo, daromad va korporatsiya soliqlarining) oshishi faqatgina davlat byudjeti daromadlarining oshishiga olib kelmasdan, balki og'ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga ham olib keldi.

- Bunday sharoitlarda g'arb davlatlari xarajatlarni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rayapti va ayniqsa, o'zgargan iqtisodiy sharoitlarga soliq tizimini moslashtirishga harakat qilinib, u takomillashtirilmoqda.

- 80-yillarda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda soliq stavkalarini pasaytirish, soliqqa tortish tartibini osonlashtirish, turli-tuman soliq imtiyozlarini qisqartirish orqali daromad va korporatsiya soliqlarini kamaytirishga yo'naltirilgan soliq islohotlari amalga oshirildi.

G'arb mamlakatlarida soliq tizimlarining takomillashtirilishi soliqqa tortishdagi bir necha tarkibiy o'zgarishlarga olib keldi. To'g'ri (bevosita) soliqlarning hissasi (salmog'i) kamayib, egri (bilvosita) soliqlarning va sotsial (ijtimoiy) sug'urta badallarining hissasi (salmog'i) ortib borganligi kuzatildi. Umuman olganda, bu mamlakatlarda Ikkinchi jahon urushiga qadar soliqqa tortish soliqlarning kattagina qismini to'lagan yuridik shaxslardan jismoniy shaxslar gardaniga o'tkazilgan edi.

Urushdan keyingi yillarda soliqlarning miqdoriy ko'payishi (ortishi) ularni sof fiskal instrumentdan davlatning ishlab chiqarish jarayoniga samaraliroq aralashuviga imkon beradigan iqtisodiy instrumentiga aylantirdi. Foyda va daromadni soliqqa tortishdagi o'zgarishlar kapital harakatning tezligiga, mahsulot sifatiga, jamg'arma va investitsiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlat umum-milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan moddiy boyliklarni taqsimlash jarayonida faol aralashadi. Soliq stavkalari, obyektlari, imtiyozlari, undirish uslublaridan foydalangan holda hokimiyat ishlab chiqarish va ayirboshlashning turli o'lchamlariga hamda aholining talabiga ham ta'sir qiladi. Buning natijasida esa, iqtisodiy rivojlanishning nisbatan o'zgaruvchanligi, asosiy ijtimoiy va iqtisodiy tarkibiy tuzilmalarning yuqori darajadagi moslanuvchanligi ta'minlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda soliqlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solish bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish jarayonini o'zining ziddiyatlilikidan kelib chiquvchi qarama-qarshilik bilan xarakterlanadi. Ishlab chiqarish siklik tarzda rivojlanadi, faqat tanazzulgina talab va taklif o'rtasida vaqtinchalik muvozanatni o'rnatadi. Jamiyatlardagi soliqlar yordamida tartibga solish ana shu qarama-qarshiliklarning salbiy oqibatlarini pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, u ayovsiz tanazzul jarayonlarining sodir bo'lishini faqat biroz kichiktirishi mumkin. Biror-bir qiyinchiliklarni yecha borib, soliq tadbirlari ularning yangilarining (ekologik, energetik va boshqalar) vujudga kelishiga olib keladi, kelajakdagi iqtisodiy vaziyatni yomonlashtiradi, murakkablashtiradi.

Soliqlar yordamida tartibga solishning qarama-qarshiliklari (ziddiyatlari) quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Tartibga solish maqsadlarining qarama-qarshiliklari (ziddiyatlilik). Davlat soliq tadbirlarini amalga oshira borib, turli, ayrim hollarda bir-biri bilan mutlaqo to'g'ri kelmaydigan maqsadlarni ko'zlaydi. Masalan, AQSh ma'muriyati 1981-1986-yillar davomida soliq islohotini amalga oshirish yordamida federal byudjet defitsitiga barham berish va inflyatsiya jarayonlarini susaytirishni ko'zda tutgan edi. Islohot inflyatsion jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, byudjet defitsitini qisqartirish tomon biroz qadam tashlagan bo'lishiga qaramasdan baribir byudjetning balanslilikini ta'minlashning iloji bo'lmadi.

2. Soliq tadbirlarining e'lon qilinadigan demokratik prinsiplari va ularning real namoyon bo'lishlari o'rtasidagi qara-

ma-qarshilik (ziddiyat). Soliq qonunlari yaratilayotgan paytda bu qonunlarning odatda tenglik, oddiylik va ommaviylik kabi maqsadlarni ko'zlashi rasmiy ravishda e'lon qilinadi. Biroq amaliyotda ijroiya hokimiyati partiya, kasaba uyushmalari kabi siyosiy kuchga ega bo'lgan jamoatchilik tashkilotlariga, birlashgan guruhlariga tayanadi. Shuning uchun ham aholining bu qatlami ko'proq soliq afzalliklariga ega bo'lgan bir paytda, jamoatchilik tashkilotlariga birlashmagan aholi qatlami o'zlarining tegishli muammolarini yechish imkoniga ega bo'lmaydilar.

3. Iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etishdagi qarama-qarshilik (ziddiyat). Soliqlar yordamida tartibga solishdan foydalangan holda davlat umummilliy maqsadlarni hisobga olib ayrim tarmoqlarda, iqtisodiyotning sohalarida va mamlakatning ayrim mintaqalarida kapitalning jamg'arilishini rag'batlantiradi. Bir vaqtning o'zida u xo'jalikdagi vujudga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosiblikni susaytirishga harakat qiladi. Tadbirkorlarning bir guruhi uchun qulay soliq muhitini yaratib berib, ularning ikkinchi bir guruhiga zarar yetkazadi va ularning noroziliklariga sabab bo'ladi. Xuddi ana shunday holat AQShda butun sanoat uchun soliqqa tortishni tenglashtirish maqsadida sanoatning qazib chiqaruvchi tarmoqlari uchun qazilma boyliklariga nisbatan ustamaning keskin qisqartirilishi natijasida sodir bo'ldi. Tadbirkorlikni, umumiy manfaatlariga javob beradigan bu tadbir oldin xuddi shu imtiyozdan foydalanib kelganlarning, ayniqsa, neft kompaniyalarining noroziliklariga sabab bo'ldi.

4. Natijalarning qarama-qarshiligi (ziddiyatliligi). Soliq siyosatini amalga oshira borib, yuqorida ta'kidlanganidek, hukumat hamma uchun teng imkoniyatlarning mavjud ekanligi to'g'risida bayonot beradi. Biroq imkoniyatlarning tengligi ulardan hammaning ham foydalana olishi mumkinligidan dalolat bermaydi. Yagona iqtisodiy manfaatlar mavjud bo'lmaganligi uchun hozirgi jamiyat nihoyatda rang-barangdir. Hozirgacha dunyo mamlakatlarida, hatto yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda ham tengsizlik mavjud. Soliq siyosati tashqi tomondan qanchalik demokratik

bo'lishiga qaramasdan jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari o'rta-sida farq bo'lganligi uchun hammani bir xil tarzda qanoat-lantira olmaydi. Bu siyosat eng avvalo, kapital egalariga, ko'proq ta'minlangan guruhlariga qulayliklar tug'diradi va ular qo'shimcha afzalliklarga ega bo'ladilar.

Umumiy tarzda soliqlar yordamida tartibga solish mul-kiy ahvolni (holatni) tenglashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa-da, hozirgacha biror bir mamlakatda bu narsaga er-ishilmagan va xususiy mulkchilik hukmronligi sharoitida bunga erishish gumon. Soliq tadbirlarining natijasida ayrim yillarda kuchayadigan ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi noteng-lik (tengsizlik) vaqti-vaqti bilan konfliktli (munozarali) vazi-yatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 1990-yilda Buyuk Bri-taniyada mahalliy byudjetlarning daromadlarini ko'paytirish maqsadida qabul qilingan «Jon solig'i to'g'risida»gi qonun jamoatchilik tomonidan qattiq tanqid ostiga olindi va soliq yuklamasi oshgani uchun aholi keng qatlamining ochiqdan ochiq noroziligiga olib keldi. Bir vaqtning o'zida hammani va har bir kishini bir xil tarzda qondira oladigan soliq tizimlari-ga tegishli bo'lgan chorani hozirgacha iqtisodiyot fani taqdim eta olgani yo'q.

Soliqlar yordamida tartibga solish cheklangandir. Soliq-larning iqtisodiyotga ta'siri ma'lum bir chegara doirasida amalga oshiriladi. Buning obyektiv sabablari bor. Ularning orasida eng asosiylari quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlikning ixtiyorida katta miqdordagi ortiqcha kapitalning mavjudligi. Bu narsa unga soliq tadbirlariga bog'liq bo'lmagan holda mablag'lar bilan manyovr qilish im-konini beradi;
- turli holdagi soliq imtiyozlarining amal qilishi natijasi-da daromadlarni qamrab olish va foydani soliqqa tortishning to'liq emasligi, soliq imtiyozlarining davlatni tartibga solu-vchanlik faoliyatiga xalaqit berishi;
- soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash o'lchamining keng-liqi. Bu narsa ham iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha hu-kumatning imkoniyatlarini pasaytiradi;

- zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan to'g'ri soliqlarga tortishning «pasayib borish» tendensiyasining mavjudligi;

- tovarlar oqimi, ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar hamda ishlab chiqarish kooperatsiyasini qamrab olgan holda xo'jaliklarning internatsionalizatsiyalashuvi va xalqaro aloqalarning o'sishi. Buning oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning xorijiy filiallari va bo'limlari davlatning milliy nazorati ostidan chetga chiqadi. Ahamiyati tobora o'sib borayotgan jahon bozori alohida olingan bir mamlakatning soliq qonunchiligiga bo'ysunmaydi. Bunday o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida ham soliqlar yordamida tartibga solish mexanizmini yaratish zarurligini taqozo etadi. Dastlab bunday tartibga solish ikki tomonlamalik asosida amalga oshirilgan bo'lsa, sekin-astalik bilan ko'p tomonlamalik shaklini oldi. Shunday bo'lishiga qaramasdan soliqlar yordamida tartibga solishning xalqaro shakli keng rivojlana olmadi. Chunki u ma'lum darajada suverenitet masalalariga borib taqaladi;

- soliq tadbirlarining vaqt jihatdan cheklanganligi. Chunki bu tadbirlar soliqlarga tortishdagi o'zgarishlarning dastlabki bosqichlarida amal qiladi, so'ng vaqt o'tishi bilan uning ta'sirchanligi pasaya boradi va nihoyat, yo'qqa chiqadi;

- tadbirkorlik va savdo faoliyati milliy to'siqlarni bilmaydigan hamda davlat ta'siridan ma'lum mustaqillikni (ozodlikni) taqozo etadigan transmilliy kompaniyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi. Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida filiallari bo'lgan va valyutalarda ko'p milliardli aktivlarga ega bo'lgan bu xalqaro gigantlar hech qanday to'siqlarsiz manovr qilish va davlat organlarining cheklovchi-taqiqlovchi xarakterga ega bo'lgan soliq choralaridan osongina qochib qutilish imkoniyatiga egadir. Bu transmilliy kompaniyalar soliqlarga tortish masalalari bo'yicha turli davlatlar bilan tez-tez nizoli vaziyatlarga tushib qoladi. Lekin u yoki bu davlat hamma vaqt ham bu kurashda g'olib kelavermaydi.

Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari bir-birlaridan farq qilsa-da, lekin ular uchun umumiy tendensiyalar

ham xarakterlidir. Ana shunday umumiy tendensiyalardan biri mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda soliqlar rolining oshishidir.

Hozirgi paytda mamlakatlar byudjetining katta hissasi (Yaponiyada 30%, AQSh da 65%) mahalliy soliqlarga to'g'ri kelayapti.

Ko'pgina mamlakatlar uchun mahalliy soliqlarning xilma-xilligi (mamlakat doirasida ularning 100ga yaqin ko'rinishlari mavjud) xarakterlidir. Bunga istisno tariqasida Buyuk Britaniyani ko'rsatish mumkin. Bu yerda faqat yagona mahalliy soliq - mulkiy soliq mavjud. Lekin shu yagona mahalliy soliq mahalliy byudjetlarning 40% daromadini shakllantiradi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda mahalliy soliq va yig'imlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud: aholidan olinadigan daromad solig'i, mulk solig'i, hunarmandchilik solig'i, yer solig'i, meros solig'i, ekologiya solig'i, sotuvdan olinadigan soliq, oborot solig'i, elektr energiyadan foydalanganligi uchun soliq, tomosha solig'i, ov va baliq ovi uchun yig'im, it uchun yig'im, transport vositalariga egalik qilganlik uchun soliq, avtomobil texnik pasportini qayddan o'tkazganlik uchun yig'im, boshqa soliq va yig'mlar.

AQSh shaharlari byudjeti daromad qismining asosiy manbayi mol-mulk solig'i bo'lib, bu soliq ko'pgina shaharlarda byudjet daromadlarining 35-70 foizini shakllantirmoqda. Bir vaqtning o'zida bu jarayonda ishbilarmon faolligi uchun olinadigan soliq ham muhim rol o'ynaydi. Gollandiyada ikki mahalliy soliq - ko'chmas mulk va turistlar solig'i - Gaaga shahri byudjet daromadining 75 foizdan ko'prog'ini tashkil qilmoqda. Xelsinki shahri byudjetida mahalliy soliqlar va yig'mlar poytaxt byudjetining 2/3 qismini ta'minlamoqda. Tokioda mahalliy soliqlarning salmog'iga 70 foizdan ortiq ko'rsatkich to'g'ri kelmoqda. Yaponiya mahalliy soliqlarining tarkibiy tuzilishida yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (52 foiz), yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i (30 foiz) va sotuvdan olinadigan soliq (16 foiz) hal qiluvchi ahamiyatga ega. To'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) mahalliy soliqlarning olinishi (undirilishi)

barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan holdir (Buyuk Britaniya bundan mustasno, chunki bu yerda egri (bilvosita) soliqlar amal qilmaydi).

Mahalliy soliqlar orasida eng muhimi mol-mulk solig'idir. Bu soliq bo'yicha soliqqa tortish obyekti bo'lib yer, sanoat va uy-joy qurilishlari, ko'chmas mulkning boshqa shakllari xizmat qiladi. Stavkalarining darajasi hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan, hukumat tomonidan bu stavkalarining chegaralari o'rnatilgan. Mol-mulkni baholash qiymati soliqqa tortishning asosidir. Biroq mol-mulklar kam (10-20 yilda bir marta) qayta baholanganligi uchun bu soliqning samaradorlik darajasi ko'zda tutilganidan ancha past hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlardagi soliqqa tortish tajribasidan O'zbekiston uchun foydalanish masalasi hal etilayotgan paytda biz eng avvalo, G'arbdagi iqtisodiy tizim uchun nisbatan barqaror baholar va barqaror bandlik darajasi xarakterli ekanligini, shuning uchun ham soliq tizimlarining elementlari bizning mamlakatimiz sharoitida butunlay boshqacha ishlashi mumkinligini sira nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak. Va nihoyat, g'arb mamlakatlarining davlat strukturasini (tuzilishi) uchun murakkab qonunchilik tizimi va hisobot qoidalari tegishli bo'lib, ular o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarning (jumladan, O'zbekistonning ham) o'ziga xos bo'lgan an'analardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham soliqqa tortishning u yoki bu g'arb tizimini qabul qilish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi amaliyotda uni joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshiliklarga, to'siqlarga duch kelishi shubhasiz. Shu bilan birga milliy iqtisodiyotning o'ziga xos sharoitlari, aholining mehnat an'analari va shunga o'xshash boshqa omillarni ham hisobdan chiqarib tashlamaslik kerakki, buning natijasida hatto G'arb mamlakatlarida ham bir-biriga o'xshash bo'lgan ikki soliq tizimi yoki hamma tomonidan e'tirof etilgan mukammal yoki qulay soliq tizimining o'zi ham yo'q.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan ko'pgina mamlakatlarda soliq organlarini tub isloh qilishga 80-yillardan boshlab astoydil kirishilgan edi. Bu is-

lohotlar stavkalarini tenglashtirish va soliqlarga tortish bazasini kengaytirish yo'li bilan daromad soliqlarining tarkibiy tuzilishini oddiylashtirish, qo'shilgan qiymat solig'ini ko'pgina tovarlar va xizmatlar tarkibiga kiritishga, aksizlar stavkasini oshirishga yo'naltirilgan edi. Soliq siyosati iqtisodiyotdagi «uzilish»larga soliqlarning ta'sirini yumshatish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat ko'rsatish sharoitlarini tenglashtirish va soliq tizimini soddalashtirish maqsadini ko'zda tutgan edi. Ta'kidlash joizki, xorijiy mamlakatlarning hammasi ham bu maqsadlarga erishishning uddasidan chiqqan olmadi. G'arb modeli misolida o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakat kelajakda nimaga intilishi zarurligi va nima ehtiyot bo'lishi kerakligini tushunib olish mumkin. Keng ma'noda, kelajakda soliq islohoti o'tish davrida quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- jismoniy shaxslar daromadiga nisbatan soddalashtirilgan tuzilishga ega bo'lgan keng masshtabli daromad solig'ini joriy etish;

- e'tiborni korxonalar foyda solig'idan fuqarolarning daromad solig'iga qaratish;

- korxonalar foyda solig'i va fuqarolarning daromad solig'ini yagona soliqqa integratsiyalashtirish;

- keng bazali qo'shilgan qiymat solig'ini va tovarlarning alohida turlariga aksizlarni qo'llash;

- an'anaviy aksizlarni saqlab qolish va ularni birmuncha oshirish;

- neft va boshqa tabiiy resurslarni qazib olishni soliqqa tortishdan, ularni realizatsiya qilishdan olingan foydani soliqqa tortishga o'tish;

- eksport tariflaridan voz kechish va me'yoriy proteksionizmni ta'minlash uchun tor intervaldagi stavkalar bilan faqat past import tarifini saqlab qolish.

Ana shu tavsiyalarni juda ko'p xorijlik ekspertlar ma'qullashadi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, yuqoridagi tavsiyalarning hammasidan ham hozirgi paytda to'liq ravishda, O'zbekistonning konkret sharoitida foydalanishning iloji yo'q. Chunki milliy iqtisodiyotimiz bozor munosabatlari

asoslangan iqtisodiyot turiga to'liq o'tmagan va shu sababli ayrim bozor qonunlarining to'laqonli amal qilishi kuzatilmayapti. Biroq ulardan to'liq foydalanish g'oyasi ko'pgina iqtisodchilar va iqtisodchi-olimlar tomonidan ilgari surilmogda. Shu boisdan ta'kidlash joizki, bular nazariy jihatdan juda yaxshi, lekin bizning iqtisodiy hayotimiz amaliyotidan ancha uzoq bo'lgan qarorlardir.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi o'tkazilayotgan islohotlar tajribasini tahlil qilish ham bu mamlakatlar bilan O'zbekiston o'rtasida bir necha o'xshash sharoitlar mavjud bo'lganligi uchun mamlakatimizda soliq sohasida o'zgarishlarni amalga oshirishda bir necha foydali saboqlarni berishi mumkin. Bu mamlakatlar bilan O'zbekiston o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashliklarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: bozor va soliq organlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi; soliq intizomiga ixtiyoriy ravishda rioya qilish an'alarining yo'qligi; zaruriy xarajatlarni qoplash uchun byudjet daromadlarining yetarli emasligi; qisqa muddatli rejada soliq tushumlarining tushib turishini ta'minlashning ustuvorligi.

Umumiy ko'rinishda rivojlanayotgan mamlakatlardagi soliq islohotlarining konkret tajribasi o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun quyidagi yo'nalishlarda (aspektlarda) foydalidir:

1. Egri (bilvosita) soliqlarni qonunchilikda oson rasmiylashtirish va oson yig'ish mumkin. Shuning uchun ham egri (bilvosita) soliqlar o'tish davrida daromad tushumlarining manbalari orasida kelajakka nisbatan katta o'rin egallaydi.

2. Mulkiy soliqlar va ularni undirish tizimini yirik byudjet tushumlarining samarali manbayi sifatida tashkil etish murakkabdir. Shu boisdan ularni yaqin kelajakda byudjet tushumlarining muhim manbayi sifatida hisobga olish maqsadga muvofiq emas.

3. Keng masshtabda soliqqa tortishning prezumptiv uslubining va alternativli minimal soliqlarning qo'llanilishi yaxshi natija berdi. Bu tajribani o'tish davri iqtisodiyotiga bevosita ko'chirish mumkin.

4. An'anaviy aksizlar yaxshi tushumlarning berilishini ta'minlaydi va oson undiriladi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi aksizlardan foydalanishning ijobiy tajribasini o'tish davri iqtisodiyoti tizimiga o'tkazish mumkin.

5. Kapitaldan olinadigan daromadning hajmiga (miqdoriga) inflyatsiyaning ta'sirini hisobga olish kerak.

6. Soliq organlarining bir necha funksiyalarini bank tizimiga yuklash lozim.

O'tish davri uchun maxsus soliq tizimini yaratish evolyutsion yoki bosqichma-bosqich isloh qilishni, ideal tarkibiy tuzilish sari intilishni taqozo etadi. Bir vaqtning o'zida bu narsa oraliq bosqichda mavjud bo'lgan ma'muriy va institutsional cheklanishlarni hisobga olishi, tez islohotlar tufayli shubhasiz vujudga keladigan byudjet kamomadining makroiqtisodiy oqibatlariga katta e'tibor berishi lozim. O'tish davrida faqat sof iqtisodiy va xo'jalik muammolarininggina emas, balki ijtimoiy muammolarning ham alohida ahamiyat kasb etishini doimo esda tutish kerak. Shu boisdan soliq tizimining ularga ta'sirini ham inobatga olmoq lozim.

O'zbekistonda soliq tizimini isloh qilish uchun ikki xil yo'lni taklif qilish mumkin edi:

1. Yagona yangi hujjat - Soliq kodeksini qabul qilish orqali soliq tizimini tubdan o'zgartirish.

2. Amal qilib turgan me'yoriy hujjatlar va qonunchilik aktlarini bir necha yillar davomida sekin-astalik bilan o'zgartirish.

Sirtidan qaralganda ikkinchi yo'l oqilonadek tuyuladi. Chunki bu yo'l orqali soliq tizimi isloh qilinganda qisman o'zgarishlarni osonlik bilan amalga oshirish mumkin, amaliyotni tubdan o'zgartirish zarur emas, mutaxassislarini o'qitish va tayyorlash uchun vaqt yetarlidir. Lekin kelajakda ushbu yo'l bu sohadagi ishlarni boshi berk ko'chaga olib kirishi shubhasiz. Bu o'sha davrda amal qilgan me'yoriy hujjatlarning haddan ziyod ko'pligi, bu hujjatlarning ayrim hollarda bir-biriga zid kelishi, amaliyotda qo'llanilayotgan tushunchalarning eskirganligi, qonunlarning ko'p marta o'zgartirilganligi bilan izohlanadi. Bunday sharoitda qonun-

lar va boshqa me'yoriy hujjatlarning ma'lum darajada transformatsiyalanishini kutib turish nojoizdir.

Bizning mamlakatimiz uchun soliq tizimini isloh qilishning yagona real varianti sifatida Soliq kodeksini qabul qilish, deb tan olindi va MDH mamlakatlari orasida birinchilar qatorida bu muhim hujjat qabul qilindi.

Soliq kodeksi qabul qilinganidan so'ng soliq organlarining ish amaliyoti shuni ko'rsatdiki, mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyatda soliqlarning undirilish darajasini oshirish uchun davlat tomonidan rahbarlik qilishni qattiq markazlashtirishni ta'minlagan holda uning shakl va uslublarini takomillashtirish yo'li orqali soliq organlari nazorat-iqtisodiy ishlarining sifati va sonini keskin oshirish, vazifalarni aniq taqsimlash, soliqlarni boshqarishning yagona avtomatlashtirilgan tashkiliy tuzilmasini yaratish, nazorat-iqtisodiy vazifalarni bajarish bilan band bo'lgan xodimlarni boshqa ishlarga jalb qilmaslik, soliq qonunchiligini targ'ib qilish, tovarning (ishning, xizmatning) bozor bahosini aniqlash, soliq organlariga soliq to'lovchi to'g'risida kelib tushadigan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash zarur.

Hozirgi paytda soliq to'lovchilarni soliqlarni to'lashga jalb qilish (undash) maqsadida soliq organlari tomonidan soliq qonunchiligini targ'ib qilish borasida ma'lum ishlar amalga oshirilyapti. Radio, televideniye va matbuotda chiqishlar tashkil qilinyapti, eslatmalar jo'natilayapti, fuqarolar ko'plab to'planadigan joylarda (omonat kassalarida, aloqa idoralari-da va boshqalarda) tegishli e'lonlar berilyapti. Albatta, bunday ishlarning amalga oshirilishi davlat soliq inspeksiyasi xodimlarining o'z asosiy burchlarini bajarishlariga xalaqit beradi va ular uchun bu narsalar qo'shimcha yuklamadir.

Hozirgi bosqichda turli toifadagi soliq to'lovchilar va soliq organlarining huquqlari, burchlari va majburiyatlari hamda qabul qilingan qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarni soliq qonunchiligini o'z ichiga olgan alohida risolalari va amaliy dasturiy mahsulotlari shaklida nashr etib, ularning mohiyatini tushuntirib beradigan, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasining yagona uslubiy rahbarligi ostida

ishlaydigan, yuqori kasbiy darajada tashkil qilingan hamda davlat tomonidan maqsadli yo'naltirilgan ish zarur. Bir vaqtning o'zida mintaqaviy soliq organlarining matbuot xizmatini tuzish va ularning zimmasiga soliq qonunchiligining shu mintaqaga xos bo'lgan xususiyatlarini ko'rsatuvchi risolalar nashr etish vazifasini yuklash kerak.

Amaldagi soliqqa tortish tizimining yana bir muhim muammolaridan biri mulkchilik huquqi asosida soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan mulkning va daromadning qiymatini (bozor bahosini) aniqlashdir. Amaliyotda qo'llanilayotgan qonunchilik va me'yoriy aktlarga ko'ra yuqorida ta'kidlangan soliqqa tortish obyektlarining bozor bahosini aniqlash mexanizmi belgilanmagan. Shuning uchun ham bu narsa amaliyotda soliq inspektorining zimmasiga yuklanganki, unga ko'ra u bozor konyunkturasini aniqlashi, mulkning (daromadning) bahosi to'g'risidagi barcha xulosalarni to'plashi, ularni tahlil qilishi va soliqqa tortiladigan summani aniqlashi kerak. Bundan tashqari bozor bahosini aniqlash mexanizmining yo'q ekanligi soliqqa tortish maqsadlari uchun obyektlarni baholovchi organlar tomonidan siyosiy motivlardan foydalangan holda (aholini uy-joy fondini xususiylashtirishga jalb qilish, ko'chmas mulk ikkilamchi bozorini kengaytirish va boshqalar) soliq qonunchiligini rad qilib (inkor etib) obyektning qiymati bilan manipulyatsiya («o'ynash»ga) qilishga olib keldi.

Shunday qilib, soliqqa tortish maqsadlari uchun tovarning (ish yoki xizmatning) bozor bahosini aniqlashning ilmiy jihatdan asoslangan uslubi bo'lmaganligi uchun soliqqa tortiluvchi bir obyekt ikki, uch va undan ortiq qiymatlangan baholarga ega bo'lib qolyapti. Tabiiyki, bunday baholash obyektiv bo'lishi mumkin emas va bu narsa amaliyotda soliq to'lovchi tomonidan sud tartibidagi shikoyatlarga sabab bo'lyapti. Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olib soliqqa tortish obyektlarining real bozor qiymatini aniqlash va shunga mos ravishda soliqlardan yo'qotmalarni qisqartirish maqsadida hamda xorijdagi shu ishlarga tegishli bo'lgan tajribalarni inobatga olgan holda juda qisqa muddatlarda soliq organlarining tarkibida soliqqa tortish maqsadlari uchun tovar

(xizmat, ish) larning bozor bahosini aniqlash bo'yicha mutaxassis-baholovchilarning institutini tashkil qilish to'g'risidagi masalani hal qilish zarur.

Ekspert-baholovchining malakali xulosasi soliqlarni hisoblash va soliq majburiyatlarini undirishda asos bo'lib xizmat qilishi hamda soliq organlari va soliq to'lovchilarning da'volari bo'yicha sudga taqdim etilishi lozim.

Endi soliq islohotining asoslari va yangi soliq tizimiga nisbatan qo'yiladigan talablarga to'xtalib o'taylik.

O'zbekiston ham ko'pgina xorij mamlakatlari singari davlatning solikli daromadlarini oshirish yo'llarini qidirib topishga harakat qilmoqda. O'zbekistonda bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda, soliqlarning undirilishi og'ir bo'lgan va keyingi yillarda byudjetning profitsitli ijro etilayotganligiga qaramasdan byudjet defitsiti mavjud bo'lgan bir paytda eng avvalo, hozirgi bosqichda mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning uzoq muddatli Dasturini qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Bu dasturning tarkibiy qismi sifatida soliq tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hisoblanishi kerak.

O'zbekistonning soliq tizimini rivojlantirish konsepsiyasi asosida eng avvalo, bir necha rivojlangan xorij mamlakatlari-da asos sifatida olingan va o'zining samaradorligini amalda ko'rsatgan prinsiplar qo'yilishi kerak. Bunday prinsiplar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Soliqlarning markaziy (davlat) byudjetga tushuvchi va mahalliy soliqlarga qat'iy bo'linishi, ikki martalik soliqqa tortishga yo'l qo'ymaydigan va ayrim hollarda soliq to'lovchiga soliqning konkret turi yoki soliq stavkasini tanlash huquqini berish orqali soliqlarning o'zaro bog'langanligi, davlat tomonidan soliqlarni boshqarishning qattiq markazlashtirilish asosida soliq tizimini yaxlitligi bilan ta'minlangan tizimligi.

2. Davlat byudjeti masalalari bo'yicha ovoz berishda har yili qabul qilinadigan davlat qonunlari asosida siyosiy va iqtisodiy konyunkturadagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda soliq siyosatini amalga oshirish va soliqlar stavkasini har yili

aniqlashtirish imkoniyati bilan ta'minlangan soliq tizimining moslashuvchanligi.

3. Rivojlanish sur'atlari iqtisodiyot tarmoqlarining moliyaviy ahvoli, inflyatsiya va ishsizlik darajasi, mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini tenglashtirish omillarini hisobga olgan holda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan soliq tizimining ijtimoiy yo'nalishdalliligi.

Soliq tizimini tuzish (qurish)ning yuqorida keltirilgan prinsiplarining buzilishi va buning oqibatida soliq qonunchiligi, soliqlar bilan boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, nazoratning shakl va uslublari takomillashmaganligi, soliqlar bilan boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimining yo'qligi soliq organlari tomonidan ularga xos bo'lmagan vazifalarning bajarilishi - soliqlarni undirishdan olinadigan byudjet daromadlarining keskin qiskarishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari yuqorida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra amalga oshirilayotgan nazorat - iqtisodiy ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida soliq organlari qonunchilik sohasida tajribaga qo'l urishga, amaldagi soliq qonunlarini targ'ibot qilishga, zamonaviy talablarga javob beradigan nazorat - iqtisodiy ishlarning shakllari va uslublari hamda ularning yangi tashkiliy tuzilmalarini yaratishga majbur bo'ldilar. Xullas, ularning zimmalariga qonunchilik va ijroiya hokimiyat organlarining funksiyalari ham yuklangan.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarda soliqlarning quyidagi asosiy turlari mavjud: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i; oborot solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; sotsial (ijtimoiy) sug'urta fondiga badallar; iste'mol solig'i; mulkiy solig'i meros solig'i va boshqalar.

Alohida olingan mamlakatlar iqtisodiyotining turli ko'rinishdagi daromadlardan olinadigan soliqlar bilan bog'liqligi bir xil emas va uning o'zgaruvchanligi tushunarlidir. Biroq oxirgi yillarda rivojlangan mamlakatlarning barchasida byudjet tarkibida daromad solig'i va sotsial (ijtimoiy) sug'urta badallari salmog'ining oshganligi kuzatilyapti. Bu tendensiya

soliq tizimini isloh qilishga bag'ishlangan tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida bizning mamlakatimizda ham keyingi yillarda sodir bo'lyapti. Ana shularni hisobga olgan holda soliq tizimini rivojlantirish konsepsiyasida soliqlarning ustuvor ko'rinishlari va ularning yakuniy shakllari, masalan, faqat aholi daromadlarini yoppasiga shaxsan soliqqa tortish yoki iste'mol xarajatlarni hisobga olgan holda oila daromadlarini yoppasiga soliqqa tortish masalalari aniqlanishi kerak.

Ba'zi xorijiy mamlakatlarda soliq organlari faoliyatining samaradorligi bir necha ko'rsatkichlar bilan tavsiflanib, ularning orasida eng asosiysi soliq rentabelligidir. O'zbekistonda soliq tizimining shakllanish bosqichida soliq tizimi tuzilishi (qurilishi)ning yuqorida keltirilgan tamoyillari talablarini amalga oshirishni ta'minlash faqat mamlakat rivojlanishini karakterlaydigan tegishli ko'rsatkichlar tizimi va soliqqa tortish tizimidagi sodir bo'layotgan jarayonlarni tahlil qilish orqaligina mumkindir. Bunga esa iqtisodiyotning har bir tarmog'i va soliq organlari faoliyatining yo'nalishlari uchun analitik va o'ziga xos bo'lgan hisobot yaratilgandagina erishiladi. Soliqqa tortish sohasidagi bunday hisobotni tahlil qilishning natijasi soliq qonunchiligi, nazoratning shakl va uslublarini takomillashtirish bo'yicha takliflar hamda soliqqa tortish jarayonlari ustidan operativ boshqarish funksiyasini ta'minlashdir. U yoki bu turdagi soliqlarni undirish bo'yicha soliq organi faoliyatini chuqur tahlil qilishni amalga oshirish boshqaruvning tarkibiy tuzilishi tarmoq tamoyili bo'yicha emas, balki funksional tamoyil asosida tashkil qilingandagina mumkin. Hozirgi vaqtda amaliyotda qo'llanib kelinayotgan hisobot esa o'zida faqat statistik miqdoriy ma'lumotlarni aks ettirib, iqtisodiyotda va soliq organlarining faoliyatida hamda soliqlarning har bir turi bo'yicha sodir bo'layotgan jarayonlar va ularga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan omillarni tahlil qilishga imkon bermaydi.

Byudjetga borib tushuvchi sof daromadni ko'rsatuvchi va soliq organlari faoliyatini karakterlovchi muhim ko'rsatkich hisoblangan soliq rentabelligi (real soliq summasi va uni undirish bo'yicha soliq organlarining xarajatlari o'rtasi-

dagi nisbat) ko'rsatkichining yo'qligi ham soliq organlarini samarali va oqilona bo'lishiga ta'sir ko'rsatmadi, avtomatik rejimda soliqqa tortish jarayonlarini boshqarishda yuqori katta xarajatlar talab qiluvchi ko'p yillik va past samarali izlanishlarga olib keldi.

Soliq islohotini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mantiqiy jihatdan to'g'ri harakat qilmoq lozim. Buning uchun eng avvalo, byudjet xarajatlarining oqilona ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish kerak. Chunki hozirgi paytda soliqlarni keskin qisqartirmasdan turib, soliq to'lovchilarning ahvolini keskin yaxshilashning iloji yo'q. Umumiy tarzda hozirgi paytda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulotning sezilarli qismini byudjet ixtiyoriga o'tkazishmoqda. Byudjet xarajatlarini oqilonalashtirish va qisqartirish natijasida soliq stavkalarini birmuncha pasaytirish va buning oqibatida esa yalpi ijtimoiy mahsulotdagi soliqlarning salmog'ini biroz pasaytirish mumkin. Shuning uchun ham bunday sharoitda noreal byudjet xarajatlarini qisqartirish va buning uddasidan chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq islohotini amalga oshirish rejalashtirilayotgan paytda quyidagilarga alohida e'tibor bermoq lozim:

- qonunchilik va me'yoriy aktlar butun majmuyini yagona hujjatga integratsiyalashtirish;
- yagona tushunchalar apparatining qo'llanilishi, soliq qonunchiligi qoidalarini bir xil tartibda tushunish;
- mamlakatdagi soliqlarning umumiy sonini keskin qisqartirish, soliq qonunchiligida ko'rsatilmagan soliqlar va yig'implarni joriy etilishini taqiqlab qo'yish;
- ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi asos bo'lib hisoblanuvchi barcha soliq va yig'implarni bekor qilish;
- mehnat haqiga yo'naltirilayotgan mablag'larni soliqqa tortishni isloh qilish;
- foydadan olinadigan soliqning bazasini hisoblashda butun dunyoda qabul qilingan andozadan foydalanish, «tan-narx» tushunchasidan amalda voz kechish, yangi amortizatsiya siyosatini yurgizish;

- ko'psonli imtiyozlardan voz kechish.

Bir necha soliq qonunlarini modifikatsiyalash asosida yagona soliq qonunining qabul qilinishi amalda samaralidir. Chunki hozirgi vaqtda hatto mutaxassislar ham yo'riqnomalardagi joriy o'zgarishlarni kuzatishga, alohida olingan qonunlarning o'zaro ko'p sonli nomutanosibliklarini tahlil qilib borishga ulgurmayaptilar.

Soliq qonunchiligida yagona atamalar, turli hujjatlarda qo'llanilgan tushunchalarni bir xil tarzda talqin etish zarurki, bular oqibat-natijada, mamlakatimiz va xorijiy kompaniyalarni soliqqa tortishda bir xil tarzda yondashishga, soliq qonunidagi kamchiliklarning barham topishiga, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlamaslikka olib keladi.

Soliq tizimini takomillashtirishda quyidagilarga ham alohida e'tibor berish lozim:

- moliyaviy yil davomida soliqlar tizimining va boshqa majburiy to'lovlarning o'zgarmasligini, qarama-qarshi (ziddiyatli) bo'lmasligini, ularning birligini ta'minlovchi barqaror soliq tizimini yaratish;

- yirik tushumlarni berolmaydigan maqsadli soliqlarni bekor qilish va soliqlarni yiriklashtirish hisobiga ularning umumiy sonini qisqartirish;

- mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchilar zimmasidagi soliq yuklamasini yengillashtirish;

- soliqqa tortish umumiy rejimidagi imtiyozlar va istisnolarni qisqartirish.

Bu vazifalar O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri uning tashkiliy tuzilishini takomillashtirishdir. Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida respublikamiz soliq tizimining shakllanish bosqichida soliqlarning turlari bo'yicha ixtisoslashgan holda dastlab, soliq organlarining markazlashtirilgan iyerarxik tizimi shakllandi.

Soliq tizimini shakllantirishning dastlabki bosqichida soliqlarni hisoblash va undirish metodologiyasi hamda soliq hujjatlarining shakllari ma'lumotlarni an'anaviy ravishda qo'lda ishlashga to'liq mo'ljallangan edi. Ma'lum darajada soliq metodologiyasi rivojlanishining ana shunday tendensiyasi hozirgi vaqtda ham saqlanib qolayaptiki, bu narsa ma'lumotlarni elektron tarzda qayta ishlashni tashkil qilishdagi muhim muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining rivojlanish va takomillashish jarayoni davom etayotgan bo'lishiga qaramasdan uning dastlabki tashkiliy tuzilmasi va soliq organlari ishining tarkib topgan tizimi o'zlarining juda ko'p o'lchamlariga ko'ra tegishli ishning samaradorligini oshirish salohiyatini tugatgan.

G'arb (xorij) andozalariga ko'ra soliq organlari tizimi ikki elementdan tarkib topgan: soliq ma'murchiligi tizimi; soliq organlarini tashkil qilish tizimi.

Soliq ma'murchiligi soliq organlari ishini tashkil etish bo'lib, u soliq organlarida qonun tomonidan ko'zda tutilgan funksiyalarni bajarishni ta'minlaydi. Bu tushuncha o'z tarkibiga quyidagilarni oladi: soliq organi funksiyasining tarkibini aniqlash; soliq organi har bir funksiyasini amalga oshirish uchun ish protseduralarining tarkibini aniqlash; soliq organining bo'linmalariga o'z funksiyalarini birlashtirish. Bir vaqtning o'zida soliq ma'murchiligi tizimi va soliq organlarini tashkil etish o'zaro bog'liq bo'lganligi uchun bu kategoriyalarni har doim kompleks holda olib qaramoq lozim.

Hozirgi paytda soliq organlarini modernizatsiya qilishning zarurligi quyidagi obyektiv omillar bilan belgilanadi:

- soliq tizimining muttasil ravishda murakkablashib borayotganligi;
- hududiy soliq organlari inspektorlariga to'g'ri keluvchi yuklama hajmining oshib borayotganligi;
- soliq organlarini moliyalashtirish hajmining cheklan-ganligi.

Hududiy soliq organlari uchun modernizatsiya qilishning majburiy komponentlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- tipli tashkiliy tuzilishga o'tish;
- tipli soliq ma'murchiligi tizimini yaratish;
- samarali soliq texnologiyalarini joriy etish;
- informatizatsiya darajasini oshirish;
- informatsion resurslarning xavfsizligini ta'minlash;
- mutaxassislar va soliq to'lovchilarni o'qitish.

Soliq xizmatini modernizatsiya qilishning muhim komponenti mutaxassislar va soliq to'lovchilarni o'qitishdir. Mutaxassislarni o'qitish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- soliq inspeksiyasi rahbarlari va mutaxassislarini soliq organlari ishini tashkil qilishning tipli tizimiga o'tishini ta'minlash uchun o'qitish;
- ma'lumotlarni elektron qayta ishlashning yangi tizimini ekspluatatsiya qilish uchun o'qitish.

Soliq to'lovchilar uchun esa o'qitishni tashkil qilish loyiha resurslarining cheklanganligi sababli eksperimental va cheklangan xarakterga ega.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti hamda soliq informatsion tizimlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarlikni taqozo etadi. Soliqqa tortish sohasidagi malakali mutaxassis nazariy jihatdan soliq tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini bilishi; turli tipdagi iqtisodiyot va rivojlanish darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar soliq tizimlaridagi farqlar va ularning tarkibiy tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; har bir soliqni hisoblash uslubini bilishi, soliqqa tortiladigan bazani tahlil qila olishi; tadqiqotning zamonaviy statistik uslublaridan foydalangan holda soliq tushumlarining istiqbolini belgilay olishi; kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi va soliqqa tortish sohasida avtomatlashtirilgan tizimlar hamda zamonaviy informatsion texnologiyalardan oqilona foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak va h.k.

Albatta, ana shu bilimlarni egallashga tegishli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, kollejlarda, malaka oshirish kurslarida va boshqalarda keng e'tibor beriladi. Bir vaqtning o'zida soliqqa tortish sohasidagi malakali mutaxassis soliq to'lovchilar tomonidan beriladigan barcha savollarga malakali tarzda va har tomonlama javob bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun uning o'zi eng avvalo, hayotga tatbiq etilayotgan soliq siyosatining asl mohiyatini to'g'ri idrok etishi, soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosining nimadan iborat ekanligini bilishi, soliq tizimi va soliqqa tortish asosiy prinsiplarining mazmunini to'g'ri tushunishi, soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ko'ra bilishi, soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy ko'rinishlari (yo'nalishlari) nimalardan iborat ekanligini belgilay olishi kerak.

Ushbu bobning navbatdagi paragraflari ana shu masalalarni ommabop tarzda yoritishga bag'ishlanadi.

4.2. Soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosi va soliq siyosati

Ishlab chiqilayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan soliq siyosatining asl mohiyatini soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosisiz to'g'ri idrok etib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, soliqqa tortish nazariyasi tarixida eng dolzarb muammo sifatida quyidagi savolning javobini izlab topish sanaladi: byudjet daromadlarini shakllantirishda sof fiskal uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqmi yoki soliqlarni pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish kerakmi? Bularning qaysi biri afzal? Qaysi biri maqsadga muvofiq?

Albatta, bizning sharoitimizda hamma ham (hatto shu sohaning mutaxassislari ham) bu savolga qat'iy qilib bir xil tarzda javob bera olmaydi. Lekin sirtidan qaralganda bu savolning javobi uncha murakkab ko'rinmaydi. Chunki savolning o'zida uning javobi mavjud. Faqat uning murak-

kabligi shundaki, savolning ikki xil javobi berilgan. Birinchi javobga ko'ra byudjet daromadlarini shakllantirishda faqat sof fiskal uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Ikkinchi javobga ko'ra esa, byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarni pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish afzaldir. Shunday bo'lishiga qaramasdan har ikki javobning qay biri tanlanishidan qat'iy nazar undan so'ng «Nima uchun aynan shu variantni tanladingiz?», - degan navbatdagi savolning kun tartibiga qo'yilishi tabiiy. Bu savolga javob berish esa ancha murakkab hisoblanadi.

Quyida keltirilgan fikrlar muammoning asl mohiyatini to'g'ri idrok etishga va to'g'ri javobni tanlashga yordam beradi, deb o'ylaymiz:

1. Soliq yuklamasini real pasaytirish hukmdorning xohish-istagiga emas, balki mustahkam iqtisodiy asosga tayanadi. Aks holda bu narsa butunlay teskari natijalarga olib kelishi mumkin²².

2. Ikkinchi jahon urushidan keyingi Germaniyaning davlat arbobi, professor L.Erxardning fikricha, barcha fuqarolar va xo'jalik yurituvchi toifalarning soliq yuklamasini pasaytirishga yo'naltirilgan istaklarini adolatli deb tan olmoq lozim. Bir vaqtning o'zida u maqsadga erishishning vositalarini ham ko'rsatib beradi: xarajatlarning talab qilingan barqarorligiga va unumdorlikning rivojlanishini belgilangan sur'atlarda amalga oshirilishiga erishilsa, soliqlarni qanday pasaytirish imkoniyatini hisoblab topish va tasavvur qilish mumkin. Faqat shu yo'l bilangina bizning hammamizni ezib kelayotgan soliq muammosini haqqoniy va realistik tarzda yechishga erishishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, L.Erxardning Germaniya xo'jalik vaziri, so'ngra esa kansleri bo'lgan davrlarida uning tashabbusi yordamida qabul qilingan tadbirlar orasida uning soliq siyosati urushdan keyin Germaniya iqtisodiyotini ko'tarishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

²² Bu tasdiqning to'g'ri ekanligini isbot qilaolasizmi?

3. XX asrning 70-80-yillarida G'arb mamlakatlarida Amerika iqtisodchisi A. Lefferning byudjet konsepsiyasi tan olindi. Uning fikricha, soliq tushumlari ikki asosiy omilning mahsulidir: 1. Soliq stavkasi. 2. Soliq bazasi.

Soliq yuklamasining og'irlashuvi (o'sishi) faqat ma'lum bir chegaraga yetgunga qadar davlat daromadlarining ko'payishiga (oshishiga) olib kelishi mumkin. Bu chegara milliy ishlab chiqarish soliqqa tortiladigan qismining qisqarishi bilan boshlanadi. Agar ana shu chegaradan bosib o'tilsa, soliq stavkasining o'sishi byudjet daromadlarining o'sishiga emas balki, aksincha, qisqarishiga olib keladi.

A.Leffer egri chizig'i davlat byudjeti daromadlarining soliq stavkasi darajasiga (o'lchamiga) bog'liqligini ko'rsatadi. Undan soliq stavkalarining o'sishi ma'lum bir kritik (maksimal) nuqtaga yetgunga qadar davlat byudjeti daromadlarining o'sishiga (ortishiga) olib kelishi mumkinligini aniqlash qiyin emas. Ana shu kritik (maksimal) nuqtadan so'ng soliq stavkalarining yana oshirilishi (ko'tarilishi) teskari natijalarga olib keladi: korxonalar olingan foydani qanday qilib bo'lsa ham soliqdan «qochirish», uni yashirib qolish yo'llarini qidira boshlaydilar (afsuski, bu «yo'llar»ni qidirib topadilar ham), ishlab chiqarish va investitsiyalar hajmi qisqaradi. A.Lefferning fikricha, soliq stavkalarining maksimal darajasi (kritik nuqtasidagisining) pasaytirilishi (kamaytirilishi) tadbirkorlikning (jumladan, xususiy tadbirkorlikni ham) rivojlanishi uchun yaxshi, qulay vaziyatni vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida, ishlab chiqarishning rivojlanishiga, investitsiyalarning o'sishiga, bandlikka erishishga, daromadlarning ko'payishiga va nihoyat, davlat byudjetiga soliq tushumlarining ortishiga olib keladi. Bu pirovardida byudjet defitsitining qisqarishi va inflyatsion jarayonlarning susayishi demakdir.

Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyatini jonlantirish vazifasini soliq «zulmi»ni yengillatish orqali hal qilish lozim. Soliqqa tortish stavkasining pasaytirilishi ishlab chiqarishning o'sishiga va bu esa, o'z navbatida, kelajakda soliq tushumlarining vaqtinchalik kamayishini kompensatsiya qilinishiga (qayta tiklanishiga) olib keladi. Inflyatsiyasiz ishlab

chiqarishning o'sishiga eng avvalo, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari va soliqlarga tortishning progressivligini oqilona manipulyatsiya qilish hisobiga erishiladi.

XX asr 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshlarida dunyoning AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Shvetsiya va boshqa bir qator yetakchi mamlakatlari kapital jamg'arilishini tezlashtirishga va ish-bilarmonlik faolligini rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliq islohotlarini amalga oshirdilar. Ana shu maqsadlar uchun korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqning stavkasi bir-muncha pasaytirildi. Masalan, AQShda korporatsion soliqning stavkasi 46 foizdan 34 foizgacha pasaytirildi; Buyuk Britaniyada - 45 foizdan 35 foizgacha, so'ng esa 33 foizgacha, Fransiya - 1986-yilda 50 foizdan 45 foizgacha, 1991-yilda 42 foizgacha, so'ng esa 34 foizgacha; Yaponiyada - 1989-yilda 42 foizdan 40 foizgacha (prefektura va mahalliy soliqlarni hisobga olgan holda). 1994-yilda Daniyada soliq islohotini sekin-astalik bilan amalga oshirish boshlandi. Parallel ravishda bu mamlakatlarda jismoniy shaxslar shaxsiy daromadlarini soliqlarga tortishning yuqori darajasi pasaytirildi va soliqlarga tortilmaydigan daromadning intervallari kengaytirildi.

To'g'ri soliqlarning kamaytirilishi qo'shilgan qiymat solig'i va sotuvdan olinadigan soliq singari egri soliqlarning oshirilishini taqozo etganligini qayd etib o'tishimiz kerak. Masalan, 90-yillarning o'rtalarida Germaniyada qo'shilgan qiymat solig'ining umumiy stavkasi 14% dan 15% ga, Yaponiyada esa sotuvdan olinadigan soliqning stavkasi 3% dan 5% ga ko'tarildi. Shveytsariya ham qo'shilgan qiymat solig'i joriy etildi. Ba'zi bir mamlakatlarda yer solig'ining ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

Soliq sohasida iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishida tartibbuzar yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan soliq qonunchiligiga rioya qilish ustidan nazoratning kuchaytirilayotganligi va iqtisodiy hamda ma'muriy jazolarning og'irlashayotganligi ham xarakterlidir.

4.3. Soliq tizimi, soliqqa tortish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari, ularning soliq siyosati hayotiychanligiga ta'siri

Soliq siyosati hayotiychanligining²³ negizida uning barqaror (samarali, natijali)ligi yotadi. O'z navbatida, uning hayotiychanlik darajasi bunday siyosatning negizini tashkil etuvchi soliq tizimi va soliqqa tortishning prinsiplariga borib taqaladi. Shu munosabat bilan, dastlab, soliq tizimining (soliqqa tortishning)²⁴ asosiy prinsiplari to'g'risida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, bu masalaning kun tartibiga qo'yilishi, eng avvalo, hayotga tatbiq etilayotgan soliq siyosatining asl mohiyatini to'g'ri tushunishga ham yordam beradi. Shu bilan birga alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz soliq tizimiga asos solinayotgan paytda bu prinsiplarga ma'lum darajada rioya qilingan bo'lsa-da, ayrim sabablarga ko'ra ularning asl mohiyati hanuzgacha soliq to'lovchilarga to'liq yetib bormagan. Buning natijasida soliq to'lovchilarimiz soliqlarga nisbatan o'z munosabatlarini bildirayotgan paytda ma'lum noaniqlikka, noobyektivlikka yo'l qo'yayotirlar. Soliq tizimi (soliqqa tortish) prinsiplarining tub mohiyatini to'g'ri idrok etmasdan turib, soliq kodeksi-ning asl mazmunini ham to'laqonli tarzda tushunish mumkin emas. Negaki, bu holatlar prinsipial ahamiyatga molik bo'lgan masala bo'lib, undan har bir soliq to'lovchi o'z vaqtida ogoh bo'lmog'i lozim.

Soliq tizimi (soliqqa tortish) asosiy prinsiplarining birinchisi **soliqlarning (soliqqa tortishning) haddan ziyod og'ir bo'lmashligidir**.

²³ Bu o'rinda "Soliq siyosatining hayotiychanligi" deyilayotganda bunday siyosatning barcha fuqarolar, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat manfaatlariga oqilona mos kelishi hamda uning yordamida maksimal ijobiy natijalarga erishilishi nazarda tutilayapti.

²⁴ Soliq tizimi va soliqqa tortish prinsiplari o'rtasida, tarkibiy jihatdan, ma'lum bir farqlar bo'lib, ular munozarali xarakterga ega bo'lsa-da, bu o'rinlarda, eng avvalo, ularning har ikkisi uchun umumiy bo'lgan prinsiplarni ko'rib chiqishga harakat qilindi va shu munosabat bilan ular birgalikda bayon qilinmoqda.

Biz bu o'rinda soliq to'lovchilarimizning «Soliqlar (soliqqa tortish) haddan ziyod og'ir bo'lmasligi kerak» degan har bir so'zga va so'zlar birikmasiga, ularning ma'nosiga alohida-alohida e'tibor berishlarini istardik. Ana shunda bu yerda soliqlarning soliq to'lovchilar uchun og'ir bo'lishini tan olmayotganligini ko'rishimiz, o'rni kelganda soliqlarning «ziyod og'ir» bo'lishi ham taqozo etilayotir va bu narsa tabiiy narsadek qaralmog'i lozim. Soliq to'lovchilarimiz eng avvalo, bundan ogoh bo'lmoqlari va bunga ko'nikishlari kerak bo'ladi.

Albatta, shu o'rinda «To'lanadigan soliqlarning summasi nechaga teng bo'lganda soliqlar (soliqqa tortish) haddan ziyod og'ir bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin?», - degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bu savolga raqamlar bilan javob berish ma'no bildirmasligini birdaniga aytib qo'ya qolaylik. Chunki gap aslida, soliq (soliqqa tortish) faoliyatning u yoki bu turini rag'batlantirishi yoki rag'batlantirmasligi to'g'risida ketayotir. Agar soliq (soliqqa tortish) og'ir bo'lib, faoliyatning u yoki bu turining rivojlanishiga keskin to'sqinlik qilsa, u holda bunday soliqni (soliqqa tortishni) haddan ziyod og'ir, deb qabul qilish mumkin va aksincha. Lekin shu bilan birga ajablanarli tomoni shundaki, bizning soliq to'lovchilarimizda har qanday soliq summasi (soliqqa tortish) faoliyatning u yoki bu turining rivojlanishiga doim to'sqinlik qiladi²⁵, degan fikr mustahkam o'rnashib qolgan. Nazarimizda, bunday fikr yuritishlarga barham berish vaqti yetib keldi va soliq to'lovchilar ham bu masalaga nisbatan oqilona munosabatda bo'lmoqlari darkor.

Mazkur muammoning ikkinchi tomoni ham borligini qayd etib o'tmoq lozim. Gap shundaki, soliqlarni (soliqqa tortishni) haddan ziyod og'irlik darajasini faqat soliq to'lovchilargina emas, balki bu narsani mamlakatimiz doirasida soliq siyosatini ishlab chiqaruvchilar va hayotga tatbiq etuvchilar ham aniq idrok etmoqlari kerak. Chunki soliqlarning (soliq tortishning) haddan ziyod og'ir ekanligi muvaffaqiyatli soliq

²⁵ Bu fikr qanchalik to'g'ri hisoblanadi? Unga qo'shilasizmi yoki uni rad etasizmi? Nima uchun?

siyosati yurgizilayotganligidan dalolat bermaydi va bunday soliq siyosatini yurgizish bilan ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Buning to'g'ri ekanligini jahon tajribasi yaqqol tasdiqlab turibdi.

Soliqlarning (soliqqa tortishning) soliq to'lovchilarga tushunarli bo'lishi mazkur tizimda (jarayonda) asos sifatida olinishi lozim bo'lgan ikkinchi prinsipdir. Boshqacha aytganda, har bir soliq to'lovchi u yoki bu soliq turini nima uchun to'layotganligini aniq bilishi kerak. Soliq to'lovchi soliqni to'lasa-yu, lekin nima uchun aynan shu soliqni to'laganligining sababini bilmasa yoki uning mohiyatini tushunmasa, buni ayanchli hol, deb baholash mumkin, xolos. Chunki bunday vaziyatda soliqning to'lanishi, bir tomondan, soliq to'lovchilarning bilimlilik darajasi pastligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, soliq siyosatini yurgizuvchilar va uni hayotga tatbiq etuvchilarning o'z vazifalarini sidqidildan bajarmayotganliklarini ko'rsatadi.

Soliqlar (soliqqa tortish) soliq to'lovchilarga tushunarli bo'lmog'i lozim ekan, xo'sh, bu prinsipga rioya qilish nimalarga bog'liq? Fikrimizcha, bu prinsipning bajarilishi eng avvalo, soliq to'lovchilarning o'zlariga bevosita bog'liq. Chunki har bir soliq to'lovchi o'zi to'laydigan soliqlarga (soliqqa tortish jarayonlariga) va ularning summalariga befarq qaramasligi kerak. Bozor iqtisodiyotining tegishli qonun-qoidalari xuddi shu narsani taqozo etadi. Soliq to'lovchilar soliqlar nima uchun to'lanayotganligini aniq bilganlari taqdiridagina soliqlarga (soliqqa tortishga) nisbatan xolisona munosabatda bo'lishlari mumkin²⁶. Aks holda asossiz noroziliklarning cheki bo'lmaydi. Bir vaqtning o'zida soliqlarning (soliqqa tortishning) soliq to'lovchilarga tushunarli bo'lishi ko'p jihatdan, soliq tizimida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning xatti-harakatlariga ham bog'liq. Bu yerda gap xodimlarning soliq to'lovchilarga soliqlarning (soliqqa tortishning) tushunarli bo'lishi borasida olib borayotgan yoki olib borishi lozim

²⁶ Soliq to'lovchilar soliqlar nima uchun to'lanayotganligini aniq biladilarmi? Bilmasalar, bilish uchun nima qilish kerak?

bo'lgan ishlari to'g'risida ketayotir²⁷. Afsuski, bu boradagi bizning amaliyotimizda olib borilayotgan ishlarni yetarli darajada. deb bo'lmaydi. Bu masalalar vaqtli matbuot sahifalarida ommabop, oddiy soliq to'lovchilar tushunadigan tilda yetarli darajada yoritilmayotir. «Soliqlar haqida saboqlar» rukni ostida berilgan teleko'rsatuvda esa ular ko'pincha nazardan chetda qoldi. Yana shunisi achinarliki, ayrim hollarda soliqlarning (soliqqa tortishning) soliq to'lovchilarga tushunarli bo'lishini targ'ib qilayotgan ba'zi bir «mutaxassis» larning o'zlari ham nihoyatda sayoz bilimga ega ekanliklari vaqtli matbuot organlari, televideniye va radio orqali «chiqish»larida sezilib qolmoqda.

Soliq tizimining (soliqqa tortishning) oldiga qo'yilgan uchinchi prinsipga ko'ra **har bir soliq to'lovchi necha so'm, qachon va nima uchun soliq to'lashi lozimligini bilmog'i kerak.**

Nazarimizda soliq to'lovchilarning bu narsalardan ogoh bo'lishlari ham ko'p jihatdan soliq siyosatini ishlab chiqaruvchilar va uni hayotga tatbiq etuvchilarning faoliyatlari bilan bevosita bog'liq. Chunki ular tomonidan tayyorlangan tegishli qonun va yo'riqnomalarda yuqorida qayd etilgan holatlar aniq va sodda ravishda o'z ifodasini topmog'i lozim. Ammo ming afsuski, ayrim hollarda tegishli me'yoriy hujjatlarda shunday iboralar uchraydi-ki, ularni o'qigan har bir soliq to'lovchida ularga nisbatan bir necha o'nlab savollar tug'iladi va ularning aniq javobini topish amri maholdir. Ayni paytda, o'sha hujjatga izoh berishni so'rab soliq tizimi mutaxassislariga murojaat qilgan tomonning (odatda, soliq to'lovchilarning) talabi qondirilmayotir yoki o'sha hujjatning tegishli moddasi turli mutaxassislar tomonidan bir necha variantda talqin qilinayotir.

Yana bir narsaga alohida to'xtalmoqchimiz. Gap shundaki, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq siyosatini hayotga tatbiq etuvchilar - soliq tizimi xodimlari

²⁷ Bu narsa ularning vazifalariga kiradimi yoki yo'qmi? Kirishi kerakmi o'zi yoki yo'qmi?

fikrimizcha, bu borada ma'lum darajada sustkashlikka yo'l qo'ymoqdalar. Garchi keyingi yillarda ular tomonidan shu sohada ancha-muncha ishlar qilingan bo'lsa-da, ularni hali yetarli darajada, deb bo'lmaydi. To'g'ri, shu mavzuga bag'ishlab turli seminarlar o'tkazilayotir, radio va televideniylarda chiqishlar qilinayotir, vaqtli matbuot sahifalarida tegishli maqolalar e'lon qilinayotir va hokazo. Lekin hanuzgacha biror-bir soliq tizimi xodimining mehnat jamoasiga borib, har bir soliq to'lovchi necha so'm, qachon va nima uchun soliq to'lashi lozimligi to'g'risida kuyib-pishib gapirayotgani yoki tushuntirayotganligiga guvoh bo'layotirmizmi?²⁸

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi: qanday ish tutilsa, ko'zlangan maqsadga iloji boricha to'liqroq va tezroq erishiladi? Nazorat qilingandami yoki tegishli tushuntirish ishlari olib borilgandami? Bu savollarga javob berish jarayonida byudjet daromadlarini shakllantirishning hozirgi ahvoli-ni inobatga olsak, u holda birinchi variantni qo'llash orqali ko'zlangan maqsadga erishish ancha og'ir kechayotganligiga shohid bo'lamiz. Balki tegishli tushuntirish ishlarini oldin-dan olib borish ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishni bi-roz osonlashtirar. Agar masalaga vaqt nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, ikkinchi variant anchagina afzalliklarga ega. Chunki boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda bu variant daromadlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlaydi hamda soliq siyosatiga nisbatan asossiz norozilik kayfiyati vujudga kelishining oldi olinadi.

Ayrim ommaviy axborot vositalarining xodimlari har bir soliq to'lovchi necha so'm, qachon va nima uchun soliq to'lashi lozimligi masalasini soliq to'lovchilarga tushuntirib berish niyatida turli iqtisodchilarga, tegishli sohaning mutaxassislariga murojaat etib, reportajlar, munozaralar va mulo-hazalar e'lon qilayotirlar va hokazo. Achinarli joyi shundaki, ularning bu xayrli ishlarida ishtirok etayotgan ayrim iqtisod-chilar va tegishli mutaxassislar ko'zda tutilayotgan vazifani

²⁸ Bu fikr o'rinlimi yoki yo'qmi? Balki juda keskin tarzda aytilayotgan-dir? Yoki...?

ko'ngildagidek bajarishni uddasidan chiqa olmayotirlar, masalani ayrim hollarda esa noto'g'ri talqin ham etayotirlar²⁹.

Soliqlarning (soliqqa tortishning) adolatli bo'lishi va teng sharoitlarda turli soliq to'lovchilar bir xil soliqlarni to'lashi lozimligi soliq tizimining (soliqqa tortishning) oldiga qo'yilgan to'rtinchi prinsipdir.

Bu prinsipning asl mohiyatini to'g'ri idrok etmoq uchun, eng avvalo, «adolatli bo'lish», «teng sharoitlar» va «bir xil soliqlarni to'lash» kabi iboralarning har biriga alohida-alohida e'tibor bermoq lozim. Ayni paytda, bir vaqtning o'zida bu iboralar o'rtasida uzviy bog'liqlikning borligini ham ko'ra bilmok kerak. Ana shundagina bu prinsipning asl mohiyati to'g'ri talqin etilishi mumkin.

Soliqlarning (soliqqa tortishning) adolatli bo'lishi - mazkur tizimning oldiga qo'yilgan bu prinsipga ko'ra turli soliq to'lovchilar teng sharoitlarda bir xil soliqlarni to'lashlari kerakligi orqali amalga oshirilayotir. Shuning uchun ham soliqlarni (soliqqa tortishni) adolatli bo'lishi ustida gap ketar ekan, bunga nisbatan fikr bildiruvchilar teng sharoitlarda bir xil soliq to'lanishi lozimligini tan olishlari kerak.

Shu o'rinda yana bir aniqlik kiritish lozim. Gap shundaki, teng sharoitlarda bir xil soliqlarning to'lanishi bir xil summadagi soliq to'lanishini anglatmaydi. Teng sharoitlarda nisbatan samarali faoliyat ko'rsatib, nisbatan ko'p daromadga yoki foydaga ega bo'lgan, ham o'zini va ham ko'proq summadagi soliqlarni to'lab o'z davlatini boyitgan soliq to'lovchilar soliqlarning adolatsizligidan norozi bo'lmashliklari kerak. Agar shu ma'noda norozilik bildiriladigan bo'lsa, uni noobyektiv yoki asosga ega bo'lmagan norozilik, deb qabul qilish darkor³⁰. Yana bir bor takrorlamoqchimiz: teng sharoitlarda teng faoliyat ko'rsatgan soliq to'lovchilargina teng miqdordagi soliq summalarini byudjetga to'lashlari mumkin.

Soliq tizimining (soliqqa tortishning) oldiga qo'yilgan beshinchi prinsipga ko'ra **davlat ko'p mablag' sarf etmasdan soliq undirishni (yig'ishni) uddalamog'i kerak.**

²⁹ Bunga misollar keltira olasizmi?

³⁰ Nega?

Fuqarolarimiz (soliq to'lovchilarimiz) ko'pgina hollarda hayotda sodir bo'layotgan voqealarga - daromadlarni yashirib qolish, soliqlashdan bo'yin tovlash, baholarni o'z bilganlaricha o'rnatish va hokazolarga - o'z munosabatlarini bildirib turib, «Soliq tizimi vakillarining ko'zi qayoqda? Nahotki, ular shu narsalarni ko'rmayotgan bo'lsalar?» qabilidagi fikrlarni bildiradilar. Go'yo soliqlash tizimining xodimlari ancha hushyor bo'lishsa, yuqoridagi salbiy holatlar o'z-o'zidan tezda yo'q bo'lib ketadigandek. To'g'ri, muammolarning hal etilishi bu xodimlarning hushyorligiga ham bevosita bog'liq. Lekin shu bilan birga bunday fikrlarga boruvchilar daromadlarni yashirib qolish, soliqlashdan bo'yin tovlashning oldini olish, narx-navoni tartibga solish maqsadida har bir tijoratchining oldiga alohida-alohida soliqlash tizimi xodimlarini biriktirib qo'yilganda ham bu muammo to'liq hal etilmasligini bilishlari kerak. Bir vaqtning o'zida shu tarzda ishning tutilishi soliqlash tizimi xodimlari sonining keskin ko'payishiga olib keladiki, buning oqibati nima bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas. Bunday yo'l soliqlash tizimining (soliqlash tortishning) oldiga qo'yilgan beshinchi prinsipga zid bo'lishi (ekanligi) aniq ko'rinib turibdi.

Bu masalaning boshqa tomoni ham bor. Gap shundaki, soliqlash tizimi xodimlarining sonini ko'paytirishni va har bir tijoratchining «tepasida» soliqlash tizimi xodimini «qorovul» qilib qo'yishni istaganlar, buning natijasida soliqlash yuklamasining yanada og'irlashishini, bunaqangi «ajoyib tadbir»ning amalga oshirilishi soliqlash to'lovchilarning o'zlariga qimmatga tushishini ham unutmasliklari lozim.

Yana bir narsa ustida alohida to'xtalmoqchimiz. Aslida davlatning ko'p mablag' sarf etmasdan soliqlash undirishni uddalay olishi yoki olmasligi soliqlash to'lovchilarning xatti-harakatlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Bir tasavvur qilib ko'ring: har bir soliqlash to'lovchi tegishli soliqlash summalarini o'z vaqtida va belgilangan miqdorda byudjetga to'lab tursa³¹, soliqlarni un-

³¹ Bu utopiyami yoki...? Unga siz kinoya bilan qaramayapsizmi? Nima uchun?

dirish uchun davlat tomonidan mablag'larning sarf etilishiga hojat qolarmikan? Yo'q, albatta. To'g'ri, bizning bu fikrlarimizni faqat nazariy jihatdangina tasavvur qilib ko'rish mumkin. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan davlatning ko'p mablag' sarf etmasdan soliq undirishni uddalash darajasi soliq to'lovchilarning o'zlariga bog'liq ekanligi shubhasizdir. Shu bois yana bir marta takrorlamoqchimiz: o'z zimmasiga og'ir soliq yuklamasini ko'tarib yurishni istamagan (istamasligi shubhasiz) har bir soliq to'lovchi tegishli soliq summalarini byudjetga vaqtida to'lab qo'yimg'i lozim. Bunday mas'uliyat hissi davlatning ko'p mablag' sarf etmasdan soliq undirishni uddalay olishiga yordam beradi va bir vaqtning o'zida soliq yuklamasini ham birmuncha yengillashtirish uchun real sharoitni vujudga keltiradi³².

To'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning turli xillaridan oqilona foydalanish soliq tizimining (soliqqa tortishning) oltinchi prinsipidir. Unga ko'ra soliq tizimida (soliqqa tortish jarayonlarida) to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning turli xillaridan oqilona foydalanmoq lozim. Albatta, mamlakat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida, uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda soliqlardan foydalanishning u yoki bu turlariga ustuvorlik berilishi mumkin. Lekin bu narsa vaqtinchalik xarakteriga ega bo'lishi kerak. Chunki to'g'ri (bevosita) soliqlardagi o'zgarishlar asosan, ishlab chiqarish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lsa, egri (bilvosita) soliqlardagi o'zgarishlar esa iste'mol jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi o'zaro muvozanatni ta'minlashga juda katta e'tiborning berilishi ham o'z navbatida, ko'zlangan maqsadga erishish uchun soliq tizimida (soliqqa tortishda) to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning turli xillaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning turli xil-

³² Buni raqamlar bilan isbotlab berishga bir harakat qilib ko'ringchi?!

laridan oqilona foydalanishga yetarli darajada e'tibor berilsa, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda ishlab chiqarish ta'sirchan darajada rag'batlantirilishi va iste'mol jarayonlarida sezilarli muammolar vujudga kelmasligi mumkin.

Soliq tizimining (soliqqa tortishning) yettinchi prinsipi **soliqqa tortishni universallashtirish** hisoblanadi. Buning ma'nosi shundan iboratki, soliqlar turli obyektiv sabablarning mavjud bo'lishiga qaramasdan, iloji boricha individual xarakterga ega bo'lmasligi lozim. Soliq tizimining ilg'orligi, hayotiychanligi va taraqqiyotini soliqlar tortishning universallik darajasi ham belgilab beradi. Soliq tizimi va soliqlar tortishni soddalashtirishning yo'llaridan biri ham ularni universallashtirishdir³³.

Soliqlar tortishni universallashtirish, o'zining mohiyatiga ko'ra ma'lum ma'noda barcha soliq to'lovchilar uchun yagona tartib-qoidalarning joriy etilishini taqozo etsada, amaliyotda hamma holatlarda ham bunga to'liq erishishning iloji yo'q. Shuning uchun ham barcha o'rinlarda soliqlar tortishni universallashtirish yakkayu-yagona maqsad sifatida kun tartibiga qo'yilmasligi lozim. Chunki ayrim holatlarda soliqlar tortishni yoppasiga universallashtirish ko'zlangan maqsadga erishish imkonini bermaydi. Bu o'z navbatida, soliqlar tortishni universallashtirish prinsipidan hamma joyda ham to'g'ridan to'g'ri xulosa chiqarish maqsadga muvofiq emasligidan darak beradi.

Bir marta soliqqa tortish soliq tizimining (soliqlar tortishning) sakkizinchi prinsipi bo'lib, u o'ta muhim va amaliyotda juda munozarali sanaladi. O'zining mohiyatiga binoan bu prinsip soliqlar tortishning bir obyektidan bir soliqning bir marta olinishini anglatadi. Shunga mos ravishda soliqlar tortishning bir obyektidan bir soliq ikki va undan ko'p marta olinmasligi kerak. Bir vaqtning o'zida soliqlar tortishning bir obyektidan boshqa bir necha soliqning undirilishi

³³ Shu narsani axborot texnologiyalari asri, internet va dasturlashtirishning taraqqiy etganligi nuqtayi nazaridan bir ko'rib chiqingchi, qanday xulosalarga kelarkansiz?

esa bir marta soliqqa tortish prinsipiga zid ish tutilganligini bildirmaydi³⁴.

Afsuski, buning aynan shunday ekanligi hamma vaqt ham to'g'ri e'tirof etilmayapti. Amaliyotda foyda, daromad, tushum, ish haqi va boshqalarning bir necha marta (qayta-qayta) soliqqa tortilayotganligi va bu bilan bir marta soliqqa tortish prinsipiga qat'iy rioya qilinmayotganligi xususida "munozara"lar juda ko'p uchraydi.

Bunday "munozaralar" o'zining ilmiy va amaliy asosiga ega bo'lmagan, ular soliq to'lovchilarni o'ziga xos tarzda chalgitishi, noto'g'ri yo'lga boshlab yuborishi va ularda yurgizilayotgan soliq siyosatiga nisbatan asossiz norozilik kayfiyatining shakllanishiga olib kelishi yoki mavjud norozilik kayfiyatini yanada kuchaytirishi mumkin.

Ilmiy yondashuv soliq tizimining (soliqqa tortishning) to'qqizinchi prinsipidir. Soliq tizimining (soliqqa tortishning) prinsiplaridan biri sifatida ilmiy yondashuv haqida gap ketar ekan avvalo, bu o'rinda soliqqa tortilayotgan obyektning (foyda, daromad, tushum, qo'shilgan qiymat va boshqalarning) soliq to'lovchi (yuridik va jismoniy shaxslar) va soliq undiruvchi (davlat) o'rtasida oqilona taqsimlanishi (bo'linishi) nazarda tutilayotganligini alohida qayd qilib o'tish maqsadga muvofiq. Bu nisbatning qanday bo'lishini aniqlash, ayrimlar o'ylaganidek oson ish emas.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida ana shu oqilona nisbatni aniqlash o'zining dolzarbligini yo'qotmagan va hamon yo'qotmasdan kelayotir. Buning aynan shundayligini turli davrlarda insoniyat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan shaxslar tomonidan aytilgan quyidagi fikrlar yaqqol tasdiqlaydi:

1. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur: "Soliq to'lovchilardan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, soliq to'lovchilarni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashuviga olib keladi. Xazinaning ka-

³⁴ Buni qanday tushunmoq lozim?

mayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Uning tarqoqligi o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi"³⁵, - degan edi.

Bu o'rinda "soliq to'lovchilarni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak" deyilganda nimalar nazarda tutilayapti? Hozirgi paytda bu "yaratilgan boylikni byudjet va soliqlik to'lovchi o'rtasida oqilona taqsimlash kerak", - degan fikrni anglatmaydimi? O'sha fikrning taqsimlanish jarayoni shunday ilmiy yondashuvga asoslanishi kerakki, buning natijasida soliqlik to'lovchining ham, davlatning ham ahvoli yaxshilanishi kerak",- degan fikr bilan bir xil emasmi?! Bundan bir necha asr burun bildirilgan bu fikr bugungi kunda o'z ahamiyatini, qadr-qimmatini yo'qotibdimi yoki yo'qmi? Buning aynan shunday ekanligi muammoning o'ta dolzarbligidan dalolat bermaydimi?

2. "Soliqlarni o'rnatishning me'zoni hukmdorning umumiy farovonlikka yo'naltirilgan sog'lom aqlidir"³⁶, - deya ta'kidlaydi F.Akvinskiy (1225.1226-1274- yillar).

Hozirgi tilga va davrga o'giradigan bo'lsak, bu yerda "hukmdor" degan paytda F.Akvinskiy "Prezident", "Bosh vazir", "Kansler", "Qirol", "Amir", "Podshoh" yoki "Sulton"ni nazarda tutmayotganligi ma'lum bo'ladi. Garchi u yoki bu mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda tegishli lavozimni egallagan shaxsning roli sezilarli darajada bo'lsa-da, hozirgi paytda soliqlarni o'rnatish (oxir-oqibatda ilmiy yondashuv asosida soliqlik to'lovchi va byudjet o'rtasidagi nisbatning qandayligini aniqlash) masalasi kimning vakolatida ekanligini yaxshi bilamiz. Bunday sharoitda sog'lom aql o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Bu aql tegishli joyda va jarayonda munozara qilish, mulohaza yuritish va murosaga kelish natijasida paydo bo'ladi. O'z navbatida, bularning har birida u yoki bu tarzda ilmiy yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega.

³⁵ Sohibqiron A. Temurning bu fikriga qo'llanmamizning 10-bobida yana bir marta o'rin beramiz va u ustida batafsil to'xtalib o'tishga, unga o'ziga xos tarzda sharh berishga harakat qilamiz.

³⁶ Qarang: Все начиналось с десятины: этот многоликий налоговый мир. – С. 161, 367.

Shu joyda F.Akvinskiy tomonidan ta'kidlangan "umumiy farovonlik"ning hozirgi paytda nimani anglatishi mumkinligini aniqlash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, bu ibora hozirgi paytda, eng oddiy tarzda soliq to'lovchilarning ham va byudjetning ham "farovonligi"ni bildiradi. Bunga esa yana "tomdan tarasha tushgan"dek tarzda emas, balki chuqur ilmiy yondashuv asosidagina erishish mumkin.

3. Ingliz faylasufi F. Bekonning (1561-1626-yillar) fikricha, "Xalqning roziligi bilan yoki uning roziligisiz olinadigan soliqlar ularning hamyoni uchun bir xil bo'lishi mumkin, lekin xalq ruhiyatiga uning ta'siri turlichadir"³⁷.

Gap bu yerda aslida, soliq to'lovchilarning roziligi bilan yoki ularning roziligisiz olinadigan soliqlar to'g'risida ketmayaptimi? "Xalq ruhiyati" soliq to'lovchilar ruhiyati emasmi? Soliqlar soliq to'lovchilarning roziligi bilan olinsa, nima bo'ladi-yu (hech bo'lmaganda, manfaatdorlik so'nmaydi) va aksincha, roziligisiz olinsa, qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin (hech bo'lmaganda, manfaatdorlik so'nadi)? Soliqlar qanday olinganda (undirilganda) rozilik bilan yoki roziliksiz olindi, deyiladi? Uning chegarasi qayerda va uni qanday qilib aniqlash (ko'rish) mumkin? Soliqlar qanday undirilganda soliq to'lovchilarning ruhiyatiga bir xil ta'sir ko'rsatadi? Bu savollarning javobini ilmiy yondashuvsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

4. Buyuk fransuz yozuvchisi va filosofi Sh.Monteske (1689-1755-yillar) o'z davridayoq "To'lovchilardan qancha qismni olish va ularning ixtiyoriga qanchasini qoldirishni aniqlashdek hech bir narsa bunchalik donolik va aqlni talab qilmaydi"³⁸, - deb ta'kidlagan edi.

Bu fikrning o'zi yuqoridagi muammoning naqadar o'tkir yoki murakkab ekanligini yana bir marta ko'rsatayotir. Muammo qancha o'tkir yoki murakkab bo'lsa, uni oqilona hal qilish shuncha o'tkirlashadi yoki murakkablashadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, o'zimiz bu muammoni, ayrim hollar-

³⁷ Qarang: Бекон Ф. Соч. в 2 т. Т.2. – М.: "Мир" 1972, - с. 416.

³⁸ Qarang: Chernik D.G., Pochinok A.P., Morozov V.P. Osnovi nalogovoy sistemi: uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: Finansy, YuNITI, 1998. – 57.

da, “shartta” hal qilib yubormayapmizmi? Muammoni “shartta” hal qilib yuborganimiz oxir-oqibatda o‘zimizga qanchaga tushishi mumkinligini, ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan bir hisob-kitob qildikmi? Ana shunday puxta hisob-kitob qilsak, undan tegishli ilmiy va amaliy xulosalar chiqarsak, muammoni balki bu tarzda hal qilmagan bo‘larmidik?...

Mulohazalarimizdan ko‘rinib turibdiki, bu variantda (yerda) ham muammoni hal etish ilmiy yondashuvni taqozo etmoqda.

Stavkalarini tabaqalashtirishni soliq tizimining (soliqqa tortishning) o‘ninchi prinsipi sifatida e‘tirof etish mumkin. Bu o‘rinda stavkalarini tabaqalashtirish soliq tizimining (soliqqa tortishning) prinsipi sifatida qaralayotgan paytda alohida olingan tarzda ayrim soliqlar bo‘yicha stavkalarining tabaqalashtirilishi nazarda tutilayapti. Gap shundaki, ayrim hollarda soliqlarning ayrim turlariga nisbatan yagona stavkalarining o‘rnatilishi maqsadga muvofiq emas. O‘z faollik darajasiga bog‘liq bo‘lmagan holda turli subyektlarda foyda normasining darajasi yoki ularning rentabelligi, olinadigan daromadlarning darajasi va h.k.lar turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning xilma-xil bo‘lishiga iqtisodiyotning tarmoqlari, faoliyat turi, xo‘jalik yuritish shakli va usuli, korxonalarning toifalari, tadbirkorlik faoliyatining ayrim ko‘rinishlari va boshqalar o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Ana shularni inobatga olgan holda keyingi yillarda, masalan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining stavkasi 9%dan 35%gacha³⁹, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkasi 11%dan 22%gacha, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to‘lovi-ning stavkasi 5%dan 33%gacha, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun (mikrofirmalar va kichik korxonalarni ham qo‘shib hisoblaganda) yagona soliq to‘lovi-ning stavkasi 1%dan 10%gacha, korxonalarning alohida

³⁹ Bu o‘rinlarda O‘zbekiston Respublikasiga tegishli bo‘lgan 2010-yilgi ma‘lumotlar keltirildi.

toifalari uchun yagona soliq to'lovining stavkasi 33%dan 50%gacha tebrangan.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliqning stavkasi faoliyat turi (masalan, avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash, bolalar o'yin avtomatlari), soliq to'lovchilar (masalan, yuridik va jismoniy shaxslar), faoliyatning shu turini xarakterlaydigan tabiiy ko'rsatkichlar (masalan, egallagan maydoni yoki jihozlangan joylar soni) va ularning joylashgan joyiga qarab (masalan, Toshkent shahri, viloyatlardagi shaharlar, tumanlar va qishloq tumanlari) tabaqalashtirilishi mumkin.

Yuridik shaxs tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslardan (yakka tartibdagi tadbirkorlardan) olinadigan qat'iy soliqning stavkasi tabaqalashtirilayotganda faoliyat turi (masalan, chakana savdo, maishiy xizmatlar, o'z mahsulotini ishlab chiqarish va yetkazib berish, avtomobil transporti bilan yuklarni yetkazib berish xizmati va boshqalar) va ularning joylashgan joyi (masalan, Toshkent shahri, viloyatlardagi shaharlar, tumanlar va qishloq tumanlari) hisobga olinadi.

Aksiz solig'i stavkalarining tabaqalashtirilishi aksiz-osti tovarlarining shu mamlakatda ishlab chiqarilayotganligi yoki ularning chetdan keltirilayotganligiga, tovarlarning turlariga va ularning kodiga bog'liq.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ining stavkalari erlarning toifalariga, ular joylashgan ma'muriy hududlarga, yerlarning baliga va baholanmagan yerlarga qarab tabaqalashtirilmoqda.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkasi tabaqalashtirilayotganda yuridik shaxsning tovarlarni eksport qilishda ishtirok etayotganligi yoki etmayotganligi, realizatsiyaning umumiy hajmida eksport salmog'ining darajasi, asbob-uskunalarining o'rnatilganligi yoki o'rnatilmaganligi hisobga olinadi va h.k.

Shuni alohida qayd etish lozimki, soliq stavkalarini tabaqalashtirishni su'istemol qilish maqsadga muvofiq emas.

Bu jarayon soliq stavkalarini individuallashtirish xarakterini olmasligi kerak.

Soliq tizimining (soliqqa tortishning) o'n birinchi prinsipi sifatida **soliq stavkalarining barqarorligini** ko'rsatish mumkin. Soliq stavkalarining barqarorligi soliq siyosati muvaffaqiyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda, soliq stavkalari qancha barqaror bo'lsa, soliq siyosati shuncha muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Biroq o'rnatilgan har qanday soliq stavkalari hamma vaqt ham barqaror bo'lavermaydi. Uning barqarorligi tegishli soliqning oldiga qo'yilgan maqsadga qanday erishilayotganligi bilan belgilanadi. Har qanday soliqning oldiga bir vaqtning o'zida tegishli maqsadga erishish uchun bir-biri bilan teng kuchga ega bo'lgan ikki vazifa, ya'ni byudjetni daromadlar bilan ta'minlash (fiskal vazifa) va tegishli jarayonni rag'batlantirish (rag'batlantiruvchi vazifa) vazifasi qo'yilar ekan, soliq stavkasining darajasi ana shu vazifalarning bir vaqtda muvaffaqiyatli bajarilishiga xizmat qilmog'i lozim. O'rnatilgan soliq stavkasi yuqoridagi har ikki vazifaning bajarilishiga xizmat qilsa, uni u yoki bu tarzda o'zgartirishga hojat qolmaydi hamda buning natijasida soliq stavkasining barqarorligi ta'minlanadi va aksincha.

Soliq siyosatining muvaffaqiyatli ishlab chiqilishi va yurizilishi nuqtayi nazaridan ham soliq stavkalarining barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Biroq har qanday sharoitda ham soliq stavkalarining barqarorligi soliq siyosatining muvaffaqiyatini ta'minlay olmasligi mumkin. Masalan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'layotgan davrda soliq stavkalarining barqarorligi samarali va ta'sirchan soliq siyosatini hayotga tatbiq etishga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki bu boradagi barcha say'-harakatlarni yo'qqa chiqarib qo'yishi mumkin.

Barqaror iqtisodiy vaziyat sharoitida soliq stavkalarining ham barqaror bo'lishi maqsadga muvofiq. Shu ma'noda barqaror iqtisodiy vaziyat soliq stavkalarining barqarorligini taqozo etsa o'z navbatida, soliq stavkalarining barqarorligi

ham oxir-oqibatda, iqtisodiy vaziyatning barqarorlashuviga o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin.

Boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda soliq stavkalarining barqarorligi muvaffaqiyatli soliq siyosatining ishlab chiqilib, yurgizilayotganligidan darak beradi, tadbirkorlar va xorijiy investorlar uchun esa o'ziga xos "kompas" vazifasini bajaradi.

Soliq imtiyozlari tizimidan keng foydalanish soliq tizimining (soliqqa tortishning) o'n ikkinchi prinsipidir. Ma'lumki, soliq imtiyozlari⁴⁰ iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida jamiyat oldida turgan vazifalarni samarali yechishga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda soliq imtiyozlari ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishini, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazishni, eng defitsit bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishni, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini, sanoatning ustuvor obyektlarini qurishni, talab qilinayotgan sohalariga kapital qo'yilmalarni oshirishni va h.k.larni rag'batlantirmog'i lozim. Shuningdek, soliq imtiyozlari davlat tomonidan sotsial funktsiyaning muvaffaqiyatli bajarilishiga ham qaratilgan.

Soliq imtiyozlarining ta'sirchanligiga ularning xilma-xilligi va moslashuvchanligi, soliq to'lovchilarning manfaatlari va xatti-harakatiga yuqori salohiyatli ta'sir ko'rsatish, yaqqol ifodalangan manzilliligi va qat'iy maqsadga yo'naltirilganligi orqali erishiladi. Bir vaqtning o'zida soliq imtiyozlari haqiqatda (amalda) bilvosita (egri) moliyalashtirishni anglatib, unga ko'ra ishlab chiqarishga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarni oshirish evaziga kelajakda daromadlarni oshirish uchun sharoitlar yaratiladi, byudjetning potentsial xarajatlari (masalan, kapital quyilmalar) qisqaradi. Ko'rinib turibdiki, soliq imtiyozlari soliqlarning rag'batlantiruvchi (tartibga soluvchi) funktsiyasini va demak, soliq siyosatini amalga oshirishda muhim instrument bo'lib xizmat qilishi mumkin.

⁴⁰ Shu o'rinda soliq imtiyozlariga ularning mazmun-mohiyatini ifodalashga xizmat qiluvchi ta'rifni beraolasizmi?

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shundan iboratki, amaliyotda soliq imtiyozlari tizimidan keng foydalanish zarur. Ulardan keng foydalanmaslik soliq siyosatining ta'sirchanligini susaytiradi, samaradorligini pasaytiradi, natijaliligini kamaytiradi.

Soliq tizimining (soliqqa tortishning) o'n uchinchi prinsipi **davlat boshqaruv darajasiga qarab soliqlarning taqsimlanganligidir**.

Haqiqatdan ham ishlab chiqilayotgan va hayotga tatbiq etishga mo'ljallangan soliq siyosatida davlat boshqaruv darajasiga qarab soliqlarning taqsimlanganligi hisobga olinishi kerak. Chunki ana shu belgiga ko'ra soliqlar va majburiy to'lovlarning bir qismi "umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar" deb yuritilsa, ikkinchi qismi esa "mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar" deb yuritiladi⁴¹.

Mahalliy hokimiyat organlari byudjetlari daromad bazalarining barqarorligi va uning mustahkamligini ta'minlashda mamlakatimiz amaliyotida "tartibga keltiruvchi (solvchi) daromadlar" nomini olgan umumdavlat soliqlarining hamon yetakchi o'rinni egallayotganligi, bu jarayonda "biriktirilgan daromadlar" nomini olgan mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning sezilarli o'ringa ega emasligi, mahalliy byudjetlarni balanslashtirish maqsadida respublika byudjetidan daromadlarni mahalliy byudjetlarga berish, subvensiyalash va dotatsiyalash amaliyotining (mexanizmlarining) mavjudligi va h.k.lar bu sohadagi soliq siyosatida talay muammolarning mavjudligi va ularni hal qilish zarurligidan darak beradi⁴².

Manbalaridan qat'iy nazar barcha daromadlardan soliq to'lashning majburiyligi soliq tizimining (soliqqa tortishning) o'n to'rtinchi prinsipi bo'lib hisoblanadi. Bu prinsip soliq siyosatidagi juda ko'p masalalarga aniqlik kiritish imkonini beruvchi muhim va qadimiy prinsiplardan biridir. Soliq tizimining (soliqqa tortishning) fundamenti (asosi, negizi) ana shu prinsipga asoslanib qurilishi kerak. Unga ko'ra

⁴¹ Tarkibiy jihatdan ular nimalardan iborat?

⁴² Ularning birortasini muhokama qilishga urinib ko'ringchi?!

vujudga kelish manbayiydan qat'iy nazar barcha daromadlardan soliq to'lash majburiy bo'lmog'i lozim⁴³. Bu amalda "U yoki bu daromaddan soliq olinadimi yoki yo'qmi?" shaklida savol qo'yilishining maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda soliq tizimi va soliqqa tortish maqsadlari uchun "daromad" tushunchasi o'zida nimalarni mujassam etishini aniqlab olish prinsipial ahamiyatga ega.

"Daromad" forscha so'z bo'lib, ona tilimizda "kirim"; "foйда"; "boshlanish, ibtido" ma'nolarida ishlatiladi, savdo-sotiq, mehnat, ishlab chiqarish sohalaridan davlat yoki ayrim shaxslar hisobiga kelib tushadigan sof pul va boshqa xil tushumlar, kirimni anglatadi⁴⁴. Eng umumiy tarzda va iqtisodiy jihatdan olib qaralganda, pul yoki natural shakldagi iqtisodiy nafga (foydaga, manfaatga) daromad deyiladi.

Soliq to'lovchining daromadi quyidagi ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- mamlakatdagi manbalardan olinadigan daromadlar;
- mamlakatdan tashqaridagi manbalardan olinadigan daromadlar.

Mamlakat hududida joylashgan mulkdan yoki undan foydalanish huquqidan foydalanish natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarga to'lanadigan har qanday daromadlarga mamlakatdagi manbalardan olinadigan daromadlar, deb ataladi. Bunday daromadlarning tarkibiga, xususan, quyidagilar kiradi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarda har qanday ko'rinishdagi (turdagi) ishlarni bajarishdan olinadigan daromadlar;
- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, ijro etish va boshqa tarzda foydalanish asosida olingan daromadlar;
- kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalariining mualliflariga beriladigan rag'batlantiruvchi mablag'lar;
- litsenziyalar bo'yicha to'lanmalar;

⁴³ Shu nuqtai nazardan bir mulohaza qilib ko'ringchi, bu yerda qanday muammolar mavjud ekan?

⁴⁴ Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.1. A-D / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -567-568 b.

- dividendlar yoki foizlar ko'rinishida olingan daromadlar;
- tadbirkorlik (tijoriy) faoliyat(i)dan olingan daromadlar;
- mulkni ijaraga berishdan keladigan daromadlar;
- va boshqa daromadlar.

Daromad yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'iga nisbatan alohida ahamiyatga ega. Bu o'rinda jami daromad ikkiga bo'linadi:

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar, deyilganda realizatsiya qilingandan so'ng tarkibidan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirib tashlangan holda olingan tushum nazarda tutiladi. U yuklab jo'natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo'natish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Boshqa daromadlar esa tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromatlardan iborat bo'ladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati ko'rinishidagi daromadlar;
- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;
- talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olinadigan daromadlar;
- ilgari chegirilgan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzida olinadigan daromadlar;

- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;
- birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penyalari;
- valyuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi ijobiy farq, shuningdek, chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha olingan daromadlar;
- dividendlar va foizlar;
- royalti;
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Bir vaqtning o'zida kredit va sug'urta tashkilotlari, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari daromadlarini aniqlash o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solish ham bir qancha o'ziga xos xarakteriga rga.

Amaldagi tartibga binoan quyidagilar soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmasligi mumkin⁴⁵:

- ustav fondiga (kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan, aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birlashtiriladigan mablag'lar;
- muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (kapitaliga) hissa doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

⁴⁵ Bular O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 129-moddasida ko'zda tutilgan. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 101-103-betlar.

- oddiy shirkat shartnomasi sherigining (ishtirokchisi-ning) shartnoma sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulki-dagi ulushi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lin-gan taqdirda, hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

- realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (avans) tarzida olingan (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

- qonun hujjatlariga muvofiq majburiyatlarni ta'min-lash tariqasida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar)⁴⁶;

- byudjetdan berilgan subsidiyalar;

- tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar⁴⁷;

- olingan grantlar;

- yuridik shaxsning – aksiyadorning qo'shimcha ak-siyalar qiymati yoki ustav fondini (kapitalini) ko'paytirish uchun o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydani yo'nalti-rishda aksiyalar nominal qiymatining ko'payishi tarzida olingan daromadlari;

- notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko'ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar;

- sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonni (sum-masi) tariqasida olingan mablag'lar;

- ijaraga (lizingga) beruvchi ijara (lizing) to'lovining qismi tariqasida olgan obyekt qiymatining qiplamasi;

- telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shu-ningdek, mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlardan olingan daromadlar;

⁴⁶ Ularga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tadigan paytga qadar.

⁴⁷ Agar mablag'larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekis-ton Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Va-zirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa.

• ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyekti muassislaridan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar⁴⁸.

• investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Gap jismoniy shaxslarning daromadi xususida ketadigan bo'lsa, u holda ularning jami daromadi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.

O'z navbatida, mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, deyilganda mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar nazarda tutiladi. Ushbu turdagi daromadlarga yana quyidagilar ham kiradi:

• rag'batlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan to'lovlar (yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot, bir yo'la beriladigan mukofotlar; yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar; kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlariga ustamalar; ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar; ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar; ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov)⁴⁹;

⁴⁸ Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, ushbu mablag'lar jami daromad tarkibiga kiritiladi va soliqqa tortiladi.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 173-modda. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 158-159-betlar.

- kompensatsiya to'lovlari (tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar; texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtida tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlar(i)da ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar; ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik va xizmat ko'rsatish doirasi-ni kengaytirganlik uchun ustamalar; doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek, qonun hujjatlari-da nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda, ish haqiga ustamalar; yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ish-lar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo'lga ketadigan kun-lar, shuningdek, xodimlar metereologik sharoitlar sababli va transport korxonalarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, maoshi miqdorida to'lanadigan summalar; yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar; qonun hujjatlarida belgilangan normadan ortiqcha dala ta'minoti; xizmat safar-lari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar); va boshqalar)⁵⁰;

- ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash (qonun hujjat-lariga muvofiq navbatdagi (har yillik) va qo'shimcha ta'til-larga haq to'lash, foydalanilmagan navbatdagi (har yillik) va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiya, o'smirlarning im-

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 174-modda. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 159-160-betlar.

tiyozli soatlariga, onalar bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash; asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan hola majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar; donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash; O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat va jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash; qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi; boshqa yuridik shaxslardan avvalgi ish joyida lavozim bo'yicha maoshi miqdorlari ma'lum bir muddat davomida saqlab qolingan holda ishga olingan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to'lash; yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralga holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi; xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to'lash; mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash; qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqti yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to'lash; o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi bor ayollarga qonun hujjatlariga muvofiq qo'shimcha ta'til haqini to'lash; yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlar mehnatiga haq to'lash; yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi amalga oshiradigan to'lovlar; moddiy yordam to'lovi; yuridik shaxsning mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar; oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh

mutaxassislarga ta'lim vaqti uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar; xodimlarga muhim sana, uzoq yildagi xizmati, jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlari munosabati bilan to'lanadigan rag'batlantirish tarzidagi to'lov)⁵¹.

Bozor munosabatlarining qaror topishi va ularning rivojlanib borishi munosabati bilan jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibida ularning mulkiy daromadlari ham muhim rol o'ynamoqda. Bunday daromadlar tarkibi quyidagilardan iborat:

- foizlar;
- dividendlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- sanoat mulki obyektlariga berilgan patent (litsenziya) sotilgan taqdirda, patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxs sotishdan olgan daromad;
- royalti⁵²;
- qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar va yuridik shaxslarning ustav fondidagi (kapitalidagi) ulushini (payini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi⁵³.

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibida moddiy naf tarzidagi daromadlar ham ma'lum bir o'ringa ega. Ularning tarkibi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

⁵¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 175-modda. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 160-161-betlar.

⁵² Bu nima?

⁵³ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 176-modda. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 162-bet.

- yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini koʻzlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni toʻlash (jumladan, jismoniy shaxslarning bolalarini maktab-gacha taʼlim muassasalarida oʻqitish, tarbiyalash; kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini yoki ularning oʻrnini qoplash qiymatini toʻlash; oziq-ovqat, oylik yoʻl chiptalari yoki ularning oʻrnini qoplash qiymatini toʻlash; sanatoriy-kurortlarda davolanish yoʻllanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning oʻrnini qoplash qiymatini toʻlash; yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi boʻlgan boshqa xarajatlari);

- sovgʻalar, tekin berilgan, shu jumladan, hadya shartnomasi asosida berilgan tovarlar, soliq toʻlovchining manfaatlarini koʻzlab bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlar qiymati;

- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi;

- qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yoʻl, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish boʻyicha beriladigan imtiyozlar summasi;

- jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summolari;

- ish beruvchi tomonidan toʻlovlar hisobiga toʻlanib, xodimlar ushlab qolinishi lozim boʻlgan, lekin ushlab qolinmagan summalar⁵⁴.

Oʻz navbatida, jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari quyidagilardan iborat:

- davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar;

- stipendiyalar;

- jismoniy shaxslarga xayriya va ekologiya jamgʻarmalarining mablagʻlaridan koʻrsatiladigan moddiy yordam;

- donorlik uchun pul mukofotlari;

⁵⁴ Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 177-modda. Qarang: Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 162-163-betlar.

- alimentlar;
- hayvonlarni tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;
- jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan, hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;
- musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;
- yutuqlar;
- grantlar, shu jumladan, chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar;
- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;
- yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar;
- O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati;
- xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egalaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;
- xodim bilan mehnat shartnomasi alohida asos bo'yicha tugatilgan taqdirda, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moddiy yordam sifatida beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar⁵⁵.

Shu o'rinda yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning ma'lum bir turlari jismoniy shaxslarning daromadi sifatida e'tirof etilmasligini ham e'tibordan

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 178-modda. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 163-164-betlar.

chetda qoldirmaslik lozim. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi⁵⁶:

- xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiq sut hamda boshqa davolash-profilaktika oziq-ovqati, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

- kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam (bundan kasaba uyushmasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno);

- xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish bilan bog'liq xizmat transportini saqlash xarajatlari;

- diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar;

- xodimga ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish bo'yicha xarajatlar;

- xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoki ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

- xizmat safarlaridagi kompensatsiya to'lovlari (tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun to'lovlar; uy-joyni ijaraga olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar; tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to'lovlar; qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 171-modda. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 155-158-betlar.

uchun haq (sutkalik pullar); qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to'lovlar);

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasi-da xodimga to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari (doimiy ishi yo'lda kechadigan yoki harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimga kompensatsiya to'lovlari; xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlari (bundan xizmat safarlari mustasno); dala ta'minoti; amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa kompensatsiya to'lovlari);

- mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqa shikast etganlik bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash bo'yicha to'lovlar (jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lganiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlar; maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to'lovlar; xodimning sog'lig'iga shikast etkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar);

- boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar (marhum o'rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar; boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar);

- talabalarining ta'lim olishi uchun agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlari bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosida o'tkaziladigan to'lovlar;

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hisobvagar'iga muqobil xizmat shartnomasi bo'yicha o'tkaziladigan mablag'lar;

- mol-mulkni sug'urtalash va hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari⁵⁷;

- yosh oilalar a'zolarining uy-joy olish uchun yuridik shaxsdan – ish beruvchidan olgan mablag'lari⁵⁸.

Shu joyda jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari xususida ham tasavvurga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, amaldagi tartibga ko'ra jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlariga quyidagilar kiradi⁵⁹:

- moddiy yordam summolari (tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari; vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari – eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda; boshqa hollarda – eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda);

- yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari (turistik yo'llanmalar bundan mustasno);

- o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogiron-

⁵⁷ Mol-mulkni sug'urtalash va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug'urtalagsh shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinganda va sug'urtalovchi sug'urta qilinuvchiga sug'urta mukofotlarining bir qismini yoki to'liq qaytarsa, qaytarilgan sug'urta mukofoti miqdori jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritiladi.

⁵⁸ Uy-joy olingan (mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, bunday daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 179-modda. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 164-170-betlar.

lik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalari va boshqa summalar (qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida);

- vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar (agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa);

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxona miqdori, fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

- O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati;

- xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egalaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

- sanoat mulki obyektlariga va seleksiya yutug'i patentiga patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentni (litsenziyani) ularning amal qilish muddati doirasida, lekin foydalanish boshlangan kundan e'tiboran quyidagi ko'rsatilgan davrdan ko'p bo'lmagan muddatda sotishdan olingan daromadi summasi: ixtirolar va seleksiya yutug'idan – besh yil davomida; sanoat namunasidan – uch yil davomida; foydali modeldan – ikki yil davomida;

- donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

- jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar (amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan mol-mulkni sotishdan tushadigan daromadlar bundan mustasno);

- uy xo'jaligida, jumladan dehqon xo'jaligida yetishtirilgan hayvonlari tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda (sanoatda qayta ishlashdan tashqari), tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar (bundan manzarali (gulchilik) mahsulotlari mustasno);

- xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

- yuridik shaxslardan olingan, soliq davrining oxiridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, bir yil mobaynidagi eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan summadagi sovg'alarning qiymati;

- jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar (bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno);

- davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

- depozit sertifikatlari bo'yicha daromadlar, tijorat banklaridagi omonatlar va davlat xazina majburiyatlari bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

- xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek, ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organing xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan – grant oluvchidan olgan grant summasi;

- fuqarolarning ish haqi va soliq solinadigan boshqa daromadlarining davlat korxonalari mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun

yo'naltiriladigan summalari, shuningdek, dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (kapitaliga) yo'naltirilgan qo'shimcha aksiyalarning qiymati yoki o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda ustav fondini (kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda aksiyalar nominal qiymatining ko'payishi tarzida olingan daromadlar⁶⁰;

- mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, davlat ijtimoiy sug'urtasi va davlat ijtimoiy ta'minoti bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari;

- olingan alimentlar;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sug'urta bo'yicha oladigan summalari;

- ta'lim muassasalarida o'qiyotganlarga to'lanadigan, ularda qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda shu muassasalar tomonidan tayinlanadigan stipendiyalar;

- davlat pensiyalari;

- davlat pensiyalariga ustamalar (I, II va III guruh urush nogironlariga, ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironlariga, II guruh yolg'iz nogironlarga, urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga, 1941-1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga, vafoti harbiy xizmat burchlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va xotinlariga, O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga va boshqalarga);

- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

⁶⁰ Biroq bu imtiyozlar qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak.

- soliq solinishi kerak bo'lgan va mol-mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ish haqining hamda boshqa daromadlarining summolari;

- yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektiga – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summolari⁶¹;

- jismoniy shaxslarning – yosh oila a'zolari ish haqining va soliq solinadigan hamda yakka tartibda uy qurish, uni rekonstruksiya qilish va olish yoki ko'p kvartiradagi uyni rekonstruksiya qilish va olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ularga hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltiriladigan boshqa daromadlarining summolari⁶²;

- va boshqalar.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan holatlardan ko'rinib turibdiki, manbalaridan qat'iy nazar barcha daromadlardan soliq to'lashning majburiyligi soliq tizimining (soliqqa tortishning) eng muhim prinsiplaridan biri bo'lib hisoblansa-da, hozirgi sharoitda amaliyot undan bir qator cheklanishlarning tarkib topganligini ko'rsatayapti. Albatta, buning o'ziga xos obyektiv sabablari bor. Biroq, shunday bo'lishiga qaramasdan, u yoki bu tarzda soliq tizimiga (soliqqa tortishga) asos solinayotgan paytda yoki unga o'zgartirishlar kiritilayotgan holatlarda manbalaridan qat'iy nazar barcha daromadlardan soliq to'lashning majburiyligi qanchalik inobatga olinadigan bo'lsa, ushbu masalaga nisbatan tegishli qaror qabul qilishning obyektivlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

⁶¹ Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

⁶² Mazkur mol-mulk olingan (mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinishi kerak.

Barcha hududiy-ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosatini mahalliy hokimiyat idora (organ)larining umumdavlat soliq siyosati doirasida soliqlarga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi bilan uyg'un holda amalga oshirish soliq tizimining (soliqqa tortishning) o'n beshinchi prinsipi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu prinsip, bir vaqtning o'zida, soliq tizimining (soliqqa tortishning) bir necha yoqlamalik xarakterga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Unga ko'ra soliq tizimida (soliqqa tortishda) eng avvalo, mamlakatning barcha hududiy-ma'muriy pog'onalari uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosati mujassam bo'lmog'i va u ustuvorlik kasb etmog'i lozim. Eng oddiy tarzda aytiladigan bo'lsa, mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy va boshqa asoslarning yagonaligi shuni taqozo etadi. Shu munosabat bilan barcha hududiy-ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosati ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgan paytda u yoki bu tarzda alohida olingan ma'muriy-hududiy pog'onalar uchun har bir soliq turi bo'yicha o'ziga xos bo'lgan soliq siyosatini yurgizishning zarurligi, unda bu ma'muriy hududlarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari to'liq inobatga olinishi kerakligi, bir ma'muriy hududda yurgizilayotgan soliq siyosati ikkinchi bir ma'muriy hududda yurgizilayotgan soliq siyosatidan farq qilishi lozimligi xususidagi qarashlar bizningcha, yetarli darajada o'zining ilmiy-amaliy asosiga ega emas.

Shunday bo'lishiga qaramasdan barcha hududiy-ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosati doirasida alohida olingan ma'muriy hududlarning o'ziga xos bo'lgan obyektiv xususiyatlari albatta, hisobga olinadi. Bu narsa tegishli soliqlarni (yig'implarni) joriy qilish yoki aksincha, bekor qilish, soliqqa tortiladigan obyekt tarkibini qisman o'zgartirish, soliq stavkalarini differentsiatsiyalash (tabaqalashtirish), umumdavlat soliqlari tushumlaridan ajratmalarning normativlarini o'rnatish, soliqqa tortish toifalarini joriy qilish va boshqalar orqali amalga oshiriladi.

Bir vaqtning o'zida ikkinchi tomondan, yagona umum-davlat soliqlar siyosati doirasida mahalliy hokimiyat idora (organ)larining soliqlarga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi ham saqlanib qolmog'i kerak. Bu narsa soliqlar tizimi (soliqlar tortish) prinsipining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan bo'lishiga qaramasdan mahalliy hokimiyat idora (organ)larining soliqlarga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqillikdan amaliyotda yetarli darajada foydalanilmasdan kelinayapti va ayrim hollarda, bu masalada ham sustkashlikka, o'zi bo'larchilikka yo'l qo'yilmoqda.

Shuningdek, bir tomondan, barcha hududiy-ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliqlar siyosati va ikkinchi tomondan, mahalliy hokimiyat idora (organ)larining soliqlarga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi, uchinchi tomondan esa, ularning uyg'unligiga ham erishilishini taqozo etadi. Bu masalada ham aravani ildam tortishni niyat qilganlarning bir tomoni oqqushdek ko'kka parvoz qilishi, ikkinchi tomoni baliqdek dengiz tomon yo'l olishi va uchinchi tomoni esa, qisqichbaqadek quruqlik sari intilishi maqsadga muvofiq emas. Shunday yo'l tutilsa, shubhasizki, arava o'rnidan siljimaydi. Unga asoslangan soliqlar tizimi (soliqlar tortish) esa soliqlar siyosatining muvaffaqiyatga erishilishini ta'minlamaydi.

Ko'rinib turibdiki, soliqlar tizimining (soliqlar tortishning) bu prinsipi o'ta murakkab va nozik bo'lib, u bir vaqtning o'zida va parallel ravishda eng kamida yuqoridagi uchta yo'nalishda tegishli ishlarning baravar amalga oshirilishini talab qiladi.

Soliqlar tizimining (soliqlar tortishning) o'n oltinchi prinsipi **o'z faoliyat bilan eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlovchi korxonalarga imtiyoz berish, shuningdek, xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish tizimi orqali soliqlar me'zonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlashdir.**

Gap bu yerda soliqlar tizimining (soliqlar tortishning) asosida imtiyoz berish va soliqlar me'zonlarining rag'batlantiruvchi

ahamiyatini ta'minlash masalasi ham yotishi kerakligi xususida ketayapti. Bu masala ayrimlar o'ylaganidek, oddiy masala emas. Aslida bu prinsipda soliq tizimidagi (soliqqa tortishdagi) ikki muammo o'z yechimini topgan. Uning birinchisida soliq tizimida (soliqqa tortishda) imtiyoz berish muammosi qanday hal etilishi kerak bo'lsa, ikkinchisida soliq me'zonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash muammosining qanday hal etilishi lozimligi ko'rsatilgan.

Ana shu prinsipning asosiy talabiga ko'ra eng avvalo, hammaga (barcha soliq to'lovchilarga) emas, balki eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlovchi korxonalarga imtiyoz berish kerak. Demak, bunga ko'ra barcha soliq to'lovchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: a) eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan korxonalar; b) eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishgako'maklashmayotgankorxonalar. Shuninguchunham soliq tizimida (soliqqa tortishda) imtiyoz berish muammosiga nisbatan tegishli moliyaviy qaror qabul qilinayotgan paytda bu yerdagi ikkinchi guruhga kiruvchi korxonalar shakshubhasiz, e'tibordan chetda qolmog'i lozim. Biroq buning o'zi ham yuqoridagi prinsipning mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish uchun yetarli emas. Chunki bu prinsip aslida eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan barcha korxonalarga imtiyozning berilishini ham ko'zda tutmaydi. Buning sababi shundaki, eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan barcha korxonalar faoliyatini samaradorlik nuqtayi nazaridan yana quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: a) eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan **samarali** faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar; b) eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan, lekin **samarasiz** faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar. Shuning uchun ham soliq tizimida (soliqqa tortishda) imtiyoz berishyoki bermaslik masalasiningtaqdirini

eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan **samarali** ishlovchi korxonalarga imtiyoz berish kerakligi hal etmog'i lozim.

Bu prinsipning mazmun-mohiyatini to'liq ochib berishga xizmat qiluvchi ikkinchi holat xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish tizimi orqali soliq me'zonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash hisoblanadi. Unga ko'ra bu joyda "Soliq me'zonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini qanday ta'minlash kerak?" yoki "Soliq me'zonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlashda nimaga e'tibor berish lozim?" degan savolning javobi mavjud. Bu prinsip ushbu savolga quyidagicha javobning bo'lishini talab qiladi: xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish tizimi orqali soliq me'zonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash kerak. Demak, ko'rinib turibdiki, soliq tizimida (soliqqa tortishda) imtiyoz berish masalasi hal qilinayotgan paytda xo'jalik yuritishning shakllariga ham jiddiy e'tibor bermoq lozim. Agar soliq to'lovchi o'z faoliyatini xo'jalik yuritishning **ilg'or shakllaridan** foydalangan holda tashkil qilayotgan bo'lsa, unga imtiyoz berish yoki bermaslik masalasi uning foydasiga hal qilinmog'i lozim va aksincha⁶³.

Deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlarni uyushtirish asosida barcha subyektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlari ustidan moliyaviy nazorat qilish, qonunlarni buzuvchilarga nisbatan iqtisodiy choralar ko'rish soliq tizimining (soliqqa tortishning) o'n ettinchi prinsipidir.

Bu prinsipning ma'no-mazmunini ifodalashda quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

- barcha subyektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlari moliyaviy nazorat qilinishi lozim;

⁶³ Soliq imtiyoziga daxldor bo'lgan masala soliq siyosatining eng murakkab va eng nozik masalalaridan biri bo'lganligi uchun unga biz o'quv qo'llanmamizning keyingi o'rinlarida yana bir necha bor maxsus ravishda to'xtalamiz.

- barcha subyektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlarining moliyaviy nazorat qilinishi deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlarni uyushtirishga asoslanishi kerak;

- qonunlarni buzuvchilarga nisbatan, albatta, ta'sirchan iqtisodiy choralar ko'rish shart.

Barcha subyektlar soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlarining moliyaviy nazorat qilinishi oldindan ma'lum bo'lmasa, u yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi. O'z navbatida, shu narsaning oldindan ma'lum bo'lishi barcha subyektlar soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda hal qiluvchi rolni o'ynaydi.

Shuningdek, barcha subyektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlarining moliyaviy nazorat qilinishi nimalar asosida amalga oshirilishi kerakligini ushbu prinsipning ma'no-mazmunini ifodalashda xizmat qiluvchi ikkinchi holat ko'rsatib beradi, ya'ni bu narsa deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlarni uyushtirishga asoslanishi kerak. Bu jarayonda moliyaviy nazoratni amalga oshirishda deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlarning qo'llanilishi barcha subyektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlarini moliyaviy nazorat qilinishini anglatmaydi. Bu yerda ularning harakat etish doirasi, jumladan, soliq to'lovchilarning intizomli soliq to'lovchi yoki aksincha, intizomsiz soliq to'lovchi guruhiga kiritilganligiga bog'liq.

Qonunlarni buzuvchilarga nisbatan albatta, ta'sirchan iqtisodiy choralar ko'rishning shartligi ham yuqoridagi prinsipning ma'no-mazmunini belgilab berishda muhim o'rin tutadi. Gap bu yerda ko'rinib turibdiki, oddiygina "iqtisodiy choralar" xususida emas, balki "ta'sirchan iqtisodiy choralar" xususida ketayapti. O'z navbatida, ta'sirchan iqtisodiy choralarning ko'rilishi, oxir-oqibatda, barcha subyektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlarining so'zsiz bajarilishiga, soliq to'lovchilarda hayotda faqat o'limdan emas, balki soliqlarni to'lamaslikdan ham qochib qutilishning iloji yo'qligi xususida qat'iy fikrning shakllanishiga olib kelmog'i lozim.

Soliq siyosatining muvaffaqiyati **soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplariga**⁶⁴ ham bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari quyidagilardan iborat⁶⁵:

- soliq solishning majburiyligi;
- soliq solishning aniqligi;
- soliq solishning adolatligi;
- soliq tizimining yagonaligi;
- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi;
- soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi.

Sirtidan qaralganda, yuqorida keltirilgan prinsiplarning faqat bittasi, ya'ni soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsipi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplariga bevosita daxldordek tuyuladi. Aslida esa, ularning barchasi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari hisoblanadi. Buning eng umumiy sababi shundaki, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari ana shu yuqorida keltirilgan barcha prinsiplarga sira ham zid kelmasligi kerak.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsipi sifatida **soliq solishning majburiyligi prinsipi** bir tomondan, har bir shaxs (soliq to'lovchi) Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shartligini va ikkin-

⁶⁴ E'tibor bering, gap bu yerda ba'zi hollarda uchrab turadigan "soliqlarning prinsiplari" yoki haqiqatda qo'llanilayotgan "soliqqa tortish prinsiplari" va "soliq tizimining prinsiplari" xususida ketayotgani yo'q. Aksincha, gap bu yerda aynan "soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari" to'g'risida ketayapti. Shu munosabat bilan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari qatoriga soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipining kiritilishi munosabati bilan soliqlar tortish prinsiplari yoki soliq tizimining prinsiplarida o'zgarish sodir bo'ldi, degan fikr, ularning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishiga qaramasdan, o'zining etarli asosiga ega emas. Shu sababli ularni, o'ziga xos tarzda, aralashtirib yuborish ham maqsadga muvofiq emas.

⁶⁵ Bu prinsiplar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 5-11-moddalarida o'z aksini topgan. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2008. 6-8 betlar.

chi tomondan esa, hech kimning (hech bir soliq soliq to'lovchining) zimmasiga Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emasligini anglatadi. Bu narsa o'z navbatida, avtomatik ravishda Soliq kodeksining har bir moddasida va soliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarida o'z aksini topmogi lozim.

Soliq solishning aniqligi prinsipi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsipi sifatida e'tirof etilar ekan u avvalo, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida aks ettirilayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning aniq bo'lishi kerakligini taqozo etadi. Shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to'lovchi qanday soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak. Bir vaqtning o'zida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilashda⁶⁶ soliq to'lovchilar shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi lozim. Bular ham shak-shubhasiz, Soliq kodeksining har bir moddasida va soliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarida aniq ifodalangan bo'lishi shart.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining navbatdagi prinsipi **soliq solishning adolatligidir**. Unga ko'ra soliq solishning umumiyligi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplari mos bo'lishi kerakligi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmasligi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning kamsitish xususiyatiga ega bo'lmasligi hamda ularning ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi me'zonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishining mumkin emasligi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari barcha jabhalarida o'z aksini topishi kerak.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining yana bir muhim prinsipi hisoblanadi. Unga muvofiq soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida, bir to-

⁶⁶ Agar Soliq kodeksida boshqa qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa.

mondan, soliq tizimining mamlakat butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonaligi va ikkinchi tomondan, mamlakatning bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi o'z ifodasini topmog'i lozim.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari orasida **soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi** prinsipi o'ziga xos o'ringa ega. Bu prinsipning ma'no-mazmunini quyidagi ikki holat belgilab beradi:

- soliq solish masalalarini tartibga soluvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy ravishda e'lon qilinishi shart;
- barchaning e'tibori uchun e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biror bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi prinsipi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari orasida alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasi-ga talqin qilinmog'i zarur.

Yuqorida keltirib o'tilgan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining barcha prinsiplari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga nisbatan har qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilayotgan paytda albatta, hisobga olinishi kerak. Ularning qanchalik to'liq hisobga olinganligi o'z navbatida, shu hujjatlarining barqarorligiga, qat'iyligiga va o'zgaruvchan masligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Soliq siyosati ana shu barqaror me'yoriy-huquqiy hujjatlariga tayanib yurgizilishi inobatga olinadigan bo'lsa, uning hayotiyligini ta'minlashda bu hujjatlarining roli yaqqol namoyon bo'ladi.

4.4. Iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida soliqlar va soliq siyosati

Soliq siyosatida soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti ekanligi ham o'z aksini yaqqol topishi lozim. Chunki sof fiskal funksiyadan tashqari soliqlar va yig'imlar tizimi ijtimoiy ishlab chiqarishga, uning tarkibiy tuzilishiga va dinamikasiga, joylashishiga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi mexanizm bo'lib ham xizmat qiladi. Soliqlar yordamida tadbirkorlar faolligini rag'batlantirish yoki aksincha, cheklab qo'yish va demak, tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu tarmog'i rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish mumkin. Soliqlar korxonalarda ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini qisqartirish, jahon bozorida milliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Soliqlar orqali proteksionistik iqtisodiy siyosatni yurgizish yoki tovarlar bozorining erkinligini ta'minlash mumkin. Soliqlar davlat va mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy qismini tashkil etib, byudjetning xarajatlar qismi orqali iqtisodiyotga moliyaviy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning moliya-byudjet mexanizmi ta'sirining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- byudjetdan subsidiyalashtirish, masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ortiqchasini sotib olishga, chakana baholarni bir xil darajada ushlab turishga va h.k.;
- iqtisodiyotga davlat investitsiyalari;
- dotatsiya yoki qaytariladigan ssuda ko'rinishida korxonalarni to'g'ridan to'g'ri subsidiyalashtirish, kredit siyosati. Davlat kreditlarining olinishi riskdan qutulishga va kompaniya mablag'larining ozod bo'lishiga olib keladi;
- zaruriyat tug'ilgan hollarda pul-kredit cheklanishlarini joriy etish. Bular qatoriga baholarni tartibga solish, iste'mol kreditining shartlari, kreditni cheklash, valyuta nazorati kabilar kiradi⁶⁷;

⁶⁷ Bularning ma'no-mazmunini sharhlab bera olasizmi?

- litsenziyalashtirish;
- xususiy savdo to'g'risidagi qonunchilik: mahsulotlarni standartizatsiyalashtirish, davlat arbitraji, trestlarga qarshi qonunchilik;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish;
- soliq siyosati.

Yuqoridagilardan tashqari ortiqcha ishlab chiqarish tanazzuli sharoitida davlat restriksionistik siyosat yurgizadiki, uning mohiyati tovarlar ishlab chiqarishni cheklashdan iboratdir. Bir vaqtning o'zida davlat bunday sharoitda ijtimoiy ishlarni amalga oshirishni, subsidiyalar va arzon kreditlar berishni, sotib olishni ko'paytirishni o'z zimmasiga oladi.

Iqtisodiyotni boshqarishda iqtisodiy dasturlashtirishdan foydalanish xo'jalik vazifalarini kun tartibiga qo'yishni va ularni yechish bo'yicha tadbirlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Buning asosiy maqsadi davlat tadbirlarini: investitsiyalarni tartibga solish; kreditlarni taqsimlash; byudjetning yo'nalishini aniqlash; foiz stavkasini va kreditlashtirish tartibi (qoidasi)ni o'zgartirish orqali pul bozorini boshqarish; ish haqi va ijtimoiy ehtiyojlar sohasidagi siyosat va boshqalarni muvofiqlashtirishdir. Milliy iqtisodiyotni topshirilgan yo'nalishdan biror-bir tarzda o'zgartirish davlatning investitsion siyosatga aralashuvisiz sodir bo'lmaydi. Moliyaviy imtiyozlarning shartlari davlat tomonidan belgilangani uchun bu narsa unga alohida tarmoqlarning rivojlantirishini yoki birinchi darajali vazifalarni hal etishga yo'naltirish imkonini beradi.

Iqtisodiyotni tartibga solishga mahalliy boshqaruv organlari ham faol jalb qilinmoqda⁶⁸. 80-yillarda AQShdagi 326 yirik shaharlarning hokimlari so'rovnomada ishtirok etib, ularning 90 foizga yaqini eng muhim muammolar orasida iqtisodiy rivojlanish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashni alohida ko'rsatganlar. Bir vaqtning o'zida har to'rtinchi hokim o'zining ahamiyati va muhimligi jihatidan aholi band-

⁶⁸ Bizning sharoitimizda bu nimalarda o'z aksini topmoqda?

lik darajasini oshirishni 1-o'ringa qo'yishgan bo'lsa, ularning 70 foizi bu masalani birinchi darajali uch vazifaning biri sifatida qayd etgan.

Ana shu so'rov natijalarini inobatga oladigan bo'lsak, u holda ustuvor yo'nalishlar quyidagi ko'rinishni oladi:

- shaharlar (tumanlar) daromad bazasining o'sishi (soliq bazasining mustahkamlanishi nazarda tutilayapti);
- amaldagi korxonalar va mavjud ish joylarini saqlab qolish;
- iqtisodiyotning mutanosibli sifat o'sishiga erishish;
- sanoat va tijorat bazasining rivojlanishi;
- xaroba va vayronalarni yo'q qilish;
- qoloq (kambag'al) tumanlarga yordam berish.

Mahalliy boshqaruv organlari o'zlarining hududlariga xususiy kapitalni jalb etishdan manfaatdor bo'lib, ular investorlarga bilvosita yordam berishga har doim tayyordirlar. Bular yer maydonlari va binolar sotib yoki ijaraga olinayotganda sotuv bahosi yoki ijara haqiga nisbatan chegirmalarining berilishida, zayomlar bilan ta'minlashda kafolatli fondlarda ishtirok etishda, sanoat zonalarini yaratishda namoyon bo'ladi. Sanoat zonalarida hududlar va binolar korxonalarga qulay moliyaviy sharoitlarda taqdim etiladi. Ayrim hollarda mahalliy hokimiyat organlari hisobidan maxsus ravishda xo'jalik yuritishning yangi turlarini rivojlantirishga imkon beradigan ishlab chiqarish inshootlarini qurish amalga oshiriladi. Va albatta, rag'batlantiruvchi choralarga ularning doimiy ravishda yoki vaqtinchalik mahalliy soliqlardan ozod etilishi ham kiradi.

Davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan iqtisodiy infrastrukturaga kapital qo'yilmalar foyda olishga mo'ljallanmagan bo'lsa-da, ular pirovard natijada xususiy kapital foydasining oshishiga olib keladi. Eng avvalo, bu transport kommunikatsiyasi, aloqa liniyalari, sanoat, suv ta'minoti, tozalash inshootlari, yer maydonlarini sanoat qurilishiga tayyorlash tizimlarini qurish va ularni saqlash xarajatlaridan iboratdir.

Bir necha mamlakatlarda alohida mintaqalardagi hududlarda investitsiyalarning joylashtirilishi o'ziga xos tarzda rag'batlantirilib kelinmoqda. Masalan, shahar chetidagi tumanlarda investitsiyalar joylashtirilishining rag'batlantirilishi bunga misol bo'la oladi. Iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan tumanlarda esa ishlab chiqarishni qayta qurish va modernizatsiya qilishga mo'ljallangan investitsiyalarning rag'batlantirilishi maqsadga muvofiqdir⁶⁹. Jumladan, byudjetdan kapital qo'yimalarga to'g'ridan to'g'ri subsidiyalar ajratilishi mumkin. Bunday tartib masalan, Germaniyada keng qo'llanilmoqda.

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab juda ko'p mamlakatlarda yangi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratishni rag'batlantirish uslublaridan foydalanilmoqda. Eski sanoat tumanlari ko'pchilik hollarda xo'jalikning eskirgan industrial tarkibiy tuzilishiga ega. Albatta, oldingi yillarda bu tumanlar yuqori darajada rivojlangan yoki taraqqiy etgan tumanlar qatoriga kirgan bo'lsa-da, keyinchalik ilmiy-texnika revolyutsiyasining ta'siri ostida boshqa tumanlardan ortda qolgan va ular o'z mintaqalarining iqtisodiy o'sishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmay qoldilar.

Masalan, Buyuk Britaniyada bunday mintaqalar qatoriga Uels, Shotlandiya, Angliyaning Shimoliy rayoni, Shimoliy Irlandiya, Kornuell, Mersisaydlarni kiritish mumkin. Belgiyada - bu toshko'mir va metallurgiya sanoat rayonlari bo'lsa, AQShda esa to'qimachilik sanoati kuchli rivojlangan mamlakat shimoli-sharqidagi bir necha shtatlarini ko'rsatsa bo'ladi. XX asrning ikkinchi yarmida bu rayonlar oldida sanoatni, yangi ilg'or ishlab chiqarishni rivojlantirishga, infrastrukturani modernizatsiya qilishga va ishchi kuchini qayta tayyorlashga yo'naltirilgan tarzda qaytadan o'zgartirish vazifasi ko'ndalang bo'lib qoladi. Ushbu vazifani bu jarayonlarga faqatgina davlatning faol ishtirok etishi, u tomonidan turli soliq imtiyozlari va ta'sir etishning boshqa moliyaviy uslublarini qo'llash evaziga bajarish mumkin edi.

⁶⁹ O'z amaliyotimizdan bunga misollar keltira olasizmi?

Shuning uchun ham Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya kabi mamlakatlarning rivojlanishi lozim bo'lgan rayonlarida davlat investitsiyalaridan, subsidiya va maqsadli zayomlardan foydalanildi, o'sha rayonlarda milliylashtirilgan tarmoqlarning korxonalari joylashtirildi, keng maqsadlarga mo'ljallangan ishlab chiqarish binolari qurildiki, ular oqibat-natijada tadbirkorlarga ijaraga berildi yoki ularga qulay moliyaviy shartlar va mulk solig'idan vaqtinchalik ozod qilingan holda sotildi.

Hozirgi paytda Germaniyada sharqiy yerlarda kapitalni investitsiya qilayotgan firmalar yirik soliq imtiyozlarini olaypti. Po'lat quyish sanoati joylashgan Rur viloyati ham soliq imtiyozlari bilan qo'llab-quvvatlanib turibdi. Qishloq joylarida sanoatning zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish rag'batlantirilmoqda. Lyubek shahrining qadimiy kvartallari ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi firmalarning yirik soliq imtiyozlarini olish evaziga saqlab qolindi.

Gretsiyada Frakiya viloyati, materikning chegara viloyatlari va orollaridagi investitsiyalar soliq imtiyozlari bilan rag'batlantirilmoqda.

Iqtisodiy faoliyatni jonlantirish uchun moliyaviy ta'sir ko'rsatishning sanoatda kapital qo'yilmalarni subsidiyalashtirish, alohida tumanlar uchun suv va elektro-energiya haqining imtiyozli tariflari, kreditlashtirishning imtiyozli shartlari (past foizli zayomlar, uzoq muddatli zayomlar, kreditlar bo'yicha dotatsiyalar) kabi shakllaridan foydalanilmoqda.

Ba'zi bir mamlakatlarda, masalan, Germaniya va Fransiya ayrim munitsipalitetlar hududida har bir yangidan yaratilgan ish joyi uchun soliq imtiyozlari bilan birgalikda maxsus byudjet ustamalari joriy etilgan. Mahalliy boshqaruv organlari xo'jalikning yangi tarmoqlari uchun ishchi kuchini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning kattagina qismini o'z zimmasiga olaypti. Bundan tashqari ishchi, xizmatchi va mutaxassislarni tayyorlash hamda qayta tayyorlashni tashkil etishni mustaqil ravishda o'z zimmasiga olgan korxonalar soliq imtiyozlariga egadirlar.

Iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga moliyaviy ta'sir ko'rsatish faqat rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lmasdan, balki to'xtatib turuvchi yoki ta'qiqlovchi xarakterga ham ega. Bunday zaruriyat eng avvalo, ishlab chiqarish va aholi konsentratsiyasi yuqori bo'lgan rayonlarning rivojlani-shini tartibga solish uchun vujudga keladi. Aholi va xo'jalik faolligining haddan ziyod konsentratsiyalashuvi atrof-muhit, aholishunoslik, resurslar bilan ta'minlash va boshqalarda mavjud muammolarning yanada keskinlashuviga olib kela-di. Ta'kidlash joizki, cheklab yoki taqiqlab qo'yish vazifasi, eng avvalo, Buyuk Britaniya va Fransiyada paydo bo'ldi. Bu yerda monotsentrik tarkibiy tuzilish o'z ta'sirini ko'rsatdi, shaharlar va aglomeratsiyalar iyerarxiyasida yagona shahar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Yaponiyaning Tokaydo rayonida aholi juda ko'p joylashgan bo'lib, u yerda uchta eng yirik munitsipalitet - Tokio, Nagoya, Osaka joylashgan.

Davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan to'xtatib turuvchi, ta'qiqlovchi yoki to'sqinlik qiluvchi choralar asosida tadbirkorlik faoliyatini qo'shimcha ravishda soliqqa tortish va litsenziyalashtirish yotadi. Ana shu maqsadlar uchun qo'shimcha ravishda soliqqa tortish amaliyoti Niderlandiya va Yaponiyada qo'llanilmoqda. Barqarorlashtiruvchi (stabilizatsion) soliqlar Germaniyada ham mavjud.

Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiyada litsenziyalashti-rishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu o'rinda litsenziyalash-tirishni ham qo'shimcha mahalliy soliq - litsenziya yig'imi si-fatida qaramoq kerak. Yaponiyada bu muammo asosan, yer solig'i stavkasini manipulyatsiya qilish evaziga hal qilinadi.

U yoki bu shaklda soliqlarni oshirish "qaynoq" kon'yunk-turani ushlab turishning (to'xtatib turishning) eng samarali va ishonchli vositasi bo'lib hisoblanadi. Bunday usullardan yana biri soliq imtiyozlarini bekor qilishdir.

Ayrim hollarda yangi soliqlarning joriy etilishi sof tarti-bga solish maqsadlarini ko'zda tutadi. Buning klassik mi-sollaridan biri asrimizning boshida Germaniyada joriy etil-gan va hozirgi paytgacha qadar o'zgarmasdan hamon saqla-nib kelinayotgan sirka kislotasi solig'idir. Bu soliqni joriy

etishga sun'iy sirka kislotasini yaratish va shu maqsadda vinoni sarflashga barham berish zaruriyati sabab bo'ldi. Bu soliqlardan keladigan pul tushumlari soliqni undirish xarajatlarini zo'rg'a-zo'rg'a qoplasa-da, texnik vazifa hal qilingan va tartibga soluvchi iqtisodiy maqsadga erishilgan edi. Bu soliq hozirgi kunda Germaniya byudjetiga bor-yo'g'i bir necha million evro keltirsa-da, hamon tarixiy relikviya shaklida saqlanib kelmoqda.

Soliqlarni oshirish evaziga faqat iqtisodiy vazifalarni emas, balki ijtimoiy vazifalarni ham hal etish mumkinligi to'g'risida o'sha Germaniya amaliyotidan zamonaviy yana bir misol keltiraylik. Bu mamlakatda chekishning zararli ekanligi to'g'risida uzoq vaqt davomida amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlarining natijasiga ko'ra tamakiga qo'yilgan aksizning oshirilishi natijasida chekuvchilarning soni bir necha marta kamaygan.

Soliqlar yordamida G'arb mamlakatlarida ekologiya muammolari ham hal etilmoqda. O'z vaqtida Germaniya sanoati avtomobillarni katalizatorlar bilan jihozlash to'g'risidagi qarorga qarshilik ko'rsatgan edi. O'shanda katalizator bilan jihozlangan avtomobillar uchun soliq keskin pasaytirildi. Katalizatorli avtomashinalarda foydalaniladigan benzinlarning turlari bo'yicha aksiz yig'implari ham pasaytirildi. Bir vaqtning o'zida eski dvigatellarda foydalaniladigan va tarkibida qo'rg'oshin hamda boshqa qo'shilmalar bo'lgan benzinning turlari bo'yicha aksizlar miqdori oshirildi. Ana shu tarzda katalizatorlar uchun qo'shimcha xarajatlar tiklandi va qoplandi.

Bugungi kunda ham Germaniyada avtomobillar uchun soliq ikki omilga bog'liq: 1) silindrning hajmi, ya'ni dvigatelnining quvvatiga; 2) katalizatorning mavjudligi (yo'qligi)ga.

AQShda XX asrning 70-yillaridanoq dvigatelning ekologik tozaligini hisobga oluvchi avtotransport uchun tabaqa-lashtirilgan soliqlar qo'llanilib kelinayapti⁷⁰.

Davlat iqtisodiyotning rivojlanishiga baholarni shakllantirish orqali ham moliyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mas-

⁷⁰ Bu sohada bizdagi ahvol qanday?

alan, hozirgi paytda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish bahosi faqat bozor uslublari yordamida o'rnatilib qolinmasdan, balki ko'p hollarda Bryusselda joylashgan Yevropa Ittifoqi rahbar organlari tomonidan direktiv tarzda belgilanyapti. Bunda baholarni mahsulotni ishlab chiqarish haqiqiy tannarxidan ancha yuqoriroq tarzda belgilash va uni shu darajada ushlab turishga harakat qilinayapti. Buning evaziga esa ikki maqsadga erishilmoqda. Birinchisi - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermerlar qo'llab-quvvatlanmoqda. Ikkinchisi - iste'mol mahsulotlaridan samarali foydalanishga erishilmoqda. Sun'iy ravishda yuqori baholar ushlab turilgani uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari tejab-tergab sarflanmoqda, talab real ehtiyojdan oshmayapti va bu narsa biroz ortiqcha mahsulotlarning paydo bo'lishiga, hech bo'lmaganda esa mahsulot taqchilligining bo'lmasligiga imkon beryapti⁷¹.

Juda ko'p mamlakatlarda mahalliy boshqaruv organlari ijtimoiy foydalanishga mo'ljallanilgan tarmoqlar mahsulotlarining (xizmatlarining) baholarini ham tartibga solib turadi. Bozor erkinligi sharoitida baholarni tartibga solib turish zaruriyati ma'lum bir mahsulot turiga me'yoriy tariflar bo'yicha ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Bu jarayondagi tartibga solishning asosiy prinsipi ijtimoiy foydalanishga mo'ljallanilgan tarmoq korxonalari foyda normasining asosiy kapitalga nisbatan 5-7% darajada cheklab turishdir. AQShda masalan, shtatlar komissiyasi agar kompaniyalar foyda normasi belgilangan darajadan ortib ketadigan bo'lsa, suv, elektroenergiya va boshqa shunga o'xshash mahsulotlar uchun yangi tariflarni joriy etishi mumkin. Shuningdek, Germaniya va Yaponiyada ham shunday tartib mavjud bo'lib, bu mamlakatlarda mahalliy boshqaruv organlari alohida mintaqalar bo'yicha kommunal xizmatlarning yuqori chegaradagi miqdorini belgilab, baholarni tartibga solib turadi.

⁷¹ Bizning ham maqsadimiz shu emasmi?

Bu yerda bir holat ustida alohida to'xtalib o'tmoq lozim. Gap shundaki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tadbirkorlik faoliyatining erkinligiga asoslangandir. Raqobat - bozor mexanizmi resurslarining taqsimlanishini tartibga soladi va tovarlar ishlab chiqarish xarajatlari hamda o'rtacha foyda normasini hisobga olgan holdagi darajani o'zida aks ettiradigan muvozanat bahoning o'rnatilishini ta'minlaydi. Raqobat sharoitida bozorda kompaniyalar o'zlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ixtiyoriy ravishda baho o'rnata olmaydilar. Ular o'zlarinikiga o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi firma va korxonalar tomonidan belgilangan baholarni hisobga olishlari kerak. Raqobat bozori iste'molchiga tanlov imkoniyatini beradiki, bu uning o'ziga xos bo'lgan eng asosiy xususiyatidir. Kurash jarayonida sotib oluvchi uchun baholar pasayadi va ishlab chiqarish xarajatlari darajasiga yaqinlasha boradi.

Biroq monopoliyalar vujudga kelganda bozor mexanizmi yaxshi ishlamaydi va bu narsa resurslarning samarasiz taqsimlanishiga va foydalanilishiga hamda bahoning o'sishiga olib keladi. Masalan, II Jahon urushi tugaguniga qadar Germaniya yirik kartellar mamlakati bo'lib, ular juda katta iqtisodiy va siyosiy quvvatga ega edi.

Monopoliyalar faoliyati salbiy oqibatlarini cheklash bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Ularning orasida firmalar daromadini progressiv soliqqa tortish va ustama foyda solig'i alohida o'rin tutadi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda trestlarga qarshi qonunchilik amal qiladi. Masalan, Germaniya qonunlarida raqobat qoidasi belgilab berilgan va ularda erkin raqobatning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Jumladan, tadbirkorlar o'rtasida baho to'g'risida kelishuv qonun yo'li bilan taqiqlangan.

Trestlarga qarshi qattiq qonunchilik AQSh va Yaponiyada ham amal qilib kelinmoqda. Lekin bu qonunlar infrastruktura tarmoqlariga - transport, bank ishi, kommunal xizmatlarga tegishli emas. Ayrim hollarda bu qonunlar sanoatning qazib chiqaruvchi tarmoqlariga, ma'lum darajada qishloq xo'jaligiga ham xos emas. Bu tarmoqlarda davlat mahsu-

lot ishlab chiqarish hajmini, baholarni va bozorni egallashni tartibga solib turadi. Raqobat bu yerda tarmoqlar oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam berolmaydi, deb hisoblangan. Bu tarmoqlarda davlat korxonalarining salmog'i katta bo'lib, ularning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki jamiyatning ehtiyojini qondirishdan iborat.

4.5. Soliq siyosati va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari

Zamonaviy soliq siyosatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalariga ham keng o'rin berilmog'i lozim. Chunki mustaqil respublikamizning jahon iqtisodiy xo'jaligi integratsiyalashuviga intilishi xorijiy kapitalning bizning mamlakatimizda ham erkin harakatlanishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi vaziyatda jumladan, soliq siyosatidan foydalangan holda xorijiy kapitalni o'z mamlakatimizga jalb etish muammosi o'ta dolzarb bo'lib turibdi. Vatanimiz sanoatining bir necha tarmoqlari investitsion «ochlik»ni his etmaqdaki, ularga o'zimizning ham va ayniqsa, xorijiy kapitalning ham oqib kelishi bu tarmoqlarning tanazzuldan tezroq chiqib ketishiga kuchli turtki berib, ichki bozorda ish-bilarmonlik faoliyatining faollashuvini rag'batlantirar hamda jahon bozorida esa O'zbekiston tovarlarining raqobatbardoshligini oshirar edi.

Xorijiy tadbirkorlar O'zbekiston iqtisodiyotiga katta qiziqish bilan qarayaptilar. Chunki vatanimiz tabiiy qazilma boyliklarga boy, qiyosan arzon energetika resurslariga ega. Bu yerda nisbatan arzon ishchi kuchi qiymatiga ega bo'lgan malakali mehnat resurslari va chuqur ichki bozor mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra xorijiy investorlar uchun eng qulay va maqbul regionlar qatoriga Toshkent shahri, Farg'ona vodiysi, Navoiy va Samarqand viloyatlarini ko'rsatish mumkin.

Haqiqatdan ham, hozirgi paytda O'zbekistonda bir necha ming xorijiy investitsiyali qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatayapti. Bir necha yuzlab xorijiy firmalar o'zlarining vakolatxonalariga, filiallariga va bo'limlariga ega. Yana bir guruh xo-

rijij kompaniyalar o'zlarining doimiy vakolatxonalariga ega bo'lishmasa-da, ular ham vatanimizda ish yuritishmoqda.

Ayniqsa, qurilish kompaniyalari yuqori darajada faollik ko'rsatishyapti. O'zbekistondagi qurilish ishlarini Turkiya, Yugoslaviya, Italiya, Germaniya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning firmalari amalga oshiryapti.

Shunday bo'lishiga qaramasdan hozirgi paytga qadar bizning mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarning ko'lamini (masshtabini) ko'ngildagidek, deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham shu o'rinda «Xorijiy investitsiyalarni yanada faolroq jalb etishga nimalar to'sqinlik qilyapti?», - degan savolning tug'ilihi tabiiy.

Qisqacha tarzda to'sqinlik qiluvchi omillar, deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- amaldagi soliq tizimining (soliqqa tortishning) yetarli darajada mukammal emasligi;
- bojlar bo'yicha tartibga solishdagi muammolar;
- moliyalashtirish manbalariga yo'l topishdagi muammolar, kredit olish bo'yicha qiyinchiliklar;
- mamlakatning ayrim mintaqalarida malakali mehnat resurslarining yetarli emasligi;
- transport bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- telekommunikatsiya va aloqa bo'yicha muammolar;
- ijtimoiy infrastrukturaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- erkin harakatlanish hamda konsullik xizmatini ko'rsatishdagi muammolar va boshqalar.

Ko'rinib turibdiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi salbiy omillar orasida soliq qonunchiligining takomillashmaganligi 1-o'rinda turgan bo'lsa, boj qonunchiligining kamchiliklari 2-o'rinni egallab turibdi. Demak, 1 va 2-o'rinlarni egallab turgan omillar soliqlar, yig'imlar va boj to'lovlari bilan bevosita bog'liqdir. Agar o'z mamlakatlarida nisbatan ancha yuqori soliqlarni to'lashga allaqachon ko'nikib qolgan xorijiy investorlarni aynan nima qo'rqitayotganligi to'g'risida salgina o'ylasak, bu narsa har holda soliqqa tortishning darajasi emasligi ma'lum bo'ladi. Soliq tizimining nobarqarorli-

gi, teskari kuchga ega bo'lgan qonunlarning qabul qilinishi, soliq qonunlari ayrim moddalarining yetarli darajada aniq emasligi va ayrimlarining qarama-qarshi xarakterda ekanligi, soliq qonunchiligining salgina buzilishi natijasida juda og'ir moliyaviy jazolarning qo'llanilishi xorijiy investorlarning juda ehtiyotkorlik bilan ish tutishlariga majbur etmoqda.

Ikki marta soliqqa tortish riskining mavjud ekanligi ham soliqlar bo'yicha bu sohadagi eng muhim muammolardan yana biridir. Bu muammo xalqaro soliqqa tortish amaliyotidagi eng asosiy muammodir.

Davlatlar o'rtasidagi savdo-sotiq ishlari amalga oshirilayotgan paytda har ikkala savdolashayotgan tomonlarning hukumatlari ana shu savdodan kelayotgan daromaddan soliq olishni istashadi. Ikki marta soliqqa tortish potentsial ravishda shuning uchun ham vujudga keladiki, bir mamlakat soliq to'lovchining yashash faktiga asoslangan holda soliqqa tortish huquqini da'vo qilsa, ikkinchi mamlakat esa daromadning olinish joyini hisobga olgan holda xuddi shu narsaga da'vo qiladi. Ikki marta soliqqa tortish har ikkala mamlakat soliq to'lovchi uning rezidenti yoki daromad aynan shu mamlakatda olingan deb e'lon qilgan yoki tasdiqlagan paytda ham vujudga kelishi mumkin.

Ana shunday sharoitda bizning fikrimizcha, xolisona xalqaro soliqqa tortish konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiya uch asosiy qoidani o'z ichiga oladi:

- kapitalni eksport qilishga nisbatan xolisonalik. Agar soliq to'lovchining o'z mamlakatiga yoki xorijiy mamlakatga investitsiyalashtirishdagi tanloviga soliqqa tortish masalasi o'z ta'sirini ko'rsatmasa soliq tizimi yuqoridagi qoidaga mos keladi. Bunday sharoitda korporatsiya investitsiyalashtirish to'g'risidagi qarorni soliq omili asosida emas, balki tadbirkorlik omili asosida qabul qiladi. Ideal raqobat sharoitida kapitalni eksport qilishga nisbatan xolisonalik kapitalni samarali taqsimlanishiga va undan oqilona foydalanishga olib keladi;

- kapitalni import qilishga nisbatan xolisonalik. Agar bozorda faoliyat ko'rsatayotgan barcha korporatsiyalar yagona

soliq stavkasi asosida soliqqa tortilsa, bu qoidani bajarilgan, deb hisoblash mumkin;

- milliy xolisonalik. Bu qoidaga ko'ra soliq to'lovchi va byudjet o'rtasida taqsimlanadigan kapitaldan olinadigan umumiy foyda kapitalning qayerda (o'z mamlakatidami yoki xorijiy mamlakatdami) investitsiya qilinganligiga bog'liq bo'lmagan holda bir xil bo'lmog'i lozim.

O'zbekiston ikki marta soliqqa tortish hollarini bekor qilish to'g'risida bir necha hukumatlararo bitimlarni imzolagan. Soliqlarni undirish bo'yicha hukumatlararo bitimlar O'zbekiston Respublikasining soliq qonunlariga nisbatan ustuvor mavqega ega. Hukumatlararo bitimlar bo'lmaganda xorijiy firmalar va kompaniyalar O'zbekiston Respublikasining qonunlari bo'yicha soliqqa tortiladi. Bunda xorijiy yuridik shaxs foydasining O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qismigina soliqqa tortilishi mumkin.

4.6. Soliqlarning undiriluvchanligini oshirish va soliq siyosati

Soliq siyosatida soliqlarning undiriluvchanlik darajasini⁷² oshirish masalalari ham o'ziga xos tarzda o'z aksini topmog'i lozim. Bu muammo doimiylik xarakteriga ega bo'lib, uni hal qilishni orqaga surish (kechiktirish) maqsadga muvofiq emas. Hozirgi iqtisodiy vaziyatda, haqiqatdan ham soliqlarning undiriluvchanlik darajasini oshirish mumkinmi? Buning uchun, avvalo, nimalarga e'tibor berish kerak?

Jahon ilg'or tajribasining ko'rsatishicha, quyidagi muammolarning muvaffaqiyatli hal etilishi soliqlarning undiriluvchanligini oshirishga xizmat qilishi mumkin:

1. Tadbirkorlik subyektini (faoliyatini) ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilish.

⁷² Ayrim hollarda iqtisodiy adabiyotlarda "soliqlarning undiriluvchanligi" iborasining o'rniga "soliqlarning yig'iluvchanligi" iborasi ham ishlatiladi. Garchi bu iboralar ularda sinonim iboralar tarzida ishlatilayotgan bo'lishiga qaramasdan bizning fikrimizcha, aslida bu jarayonni "soliqlarning undiriluvchanligi" iborasi o'zida to'liqroq ifoda etadi.

Haqiqatdan ham tadbirkorlik faoliyati yangi subyektni (korxonani) ro'yxatdan o'tkazish bilan boshlanadi. Ana shu jarayonning o'zida soliqni to'lashdan ongli ravishda bosh tortmoqchi bo'lganlar uchun "teshikcha" mavjud. O'rnatilgan qoidaga ko'ra tadbirkorlik subyektni ro'yxatdan o'tkazish uning joylashgan joyiga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Shunday bo'lishiga qaramasdan ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish "huquqiy manzil" deb ataluvchi manzilda amalga oshirilishi mumkin. O'z navbatida, "huquqiy manzil" tovarga aylanib, u ayrim tashkilotlar va tijoriy tuzilmalarga o'z manzilini taqdim etgan xususiy fuqarolar uchun daromadga ega bo'lish predmetiga aylanmoqda. Odatda, bunday tadbirkorlik subyektlari amalda ro'yxatdan o'tgan manzilida mavjud bo'lmasdan, bu narsa soliq idoralari tomonidan ular faoliyatining nazorat qilinishini murak-kablashtirmoqda. Ro'yxatdan o'tishning bunday qalbaki manzillarini amalda ko'plab uchratish mumkin.

Buning ustiga ba'zi bir tadbirkorlik subyektlari uy manzillari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan. Albatta, soliq inspektori qonunga muvofiq ravishda u yerga kirib borishi va tegishli nazorat ishlarini amalga oshirishi mumkin. Lekin buning psixologik jihatdan o'ziga xos bo'lgan murakkabliklari mavjud.

Amaliyotda boshqa shaharlardagi tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi holatlar ko'plab uchrab turibdi. Bu qonun bilan taqiqlanmagan bo'lsa-da, soliqqa tortish nuqtayi nazaridan esa, maqsadga muvofiq emas. Ta'sischisi aslida bir jismoniy shaxs bo'lgan ko'plab korxonalarning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini ko'rsatuvchi dalillar ham mavjud. Juda ko'p korxonalarni, shu jumladan, oziq-ovqat ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish va shunga o'xshash korxonalarni hech qanday kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan shaxslar vujudga keltirib, davlat ro'yxatidan o'tkazishmoqda. Holbuki, bunday tadbirkorlik "erkinligi"ga bozor iqtisodiyoti rivojlangan hech bir mamlakatda yo'l qo'yilmaydi va h.k.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish borasida bunday muammolarning mavjudligi tufayli ularning ma'lum bir qismi balans hisobotlarini topshirmayptilar va soliqlarni qisman yoki umuman to'lamayaptilar. Soliq inspeksiyalari tomonidan izlanayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni ham anchagina.

Vaziyat ana shunday bo'lib turganda, bu muammoni hal qilishning yo'li bormi? Bor. U uncha murakkab ham emas. Buning uchun tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishni faqat uning boshqaruv organlari joylashgan joyiga muvofiq amalga oshirmoq lozim. Bu o'z navbatida, tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishning aniqligi uchun soliq to'lovchi ma'muriy va moliyaviy javobgar bo'lgan aloqa manzili bo'yicha amalga oshirilishi kerakligini anglatadi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ va soliq inspeksiyasi shu korxona rahbari va bosh buxgalterining, ya'ni soliq qonunchiligining so'zsiz bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning qayerda joylashganligini aniq bilishi kerak. Tajribaning ko'rsatishicha, bunday vaziyatda balans hisobotlarini topshirmaydigan korxonalarining 25-30%ini qidirishga hojat qolmaydi. Ular soliqqa tortilishga jalb qilinadi yoki faoliyatlarini to'xtatishga majbur qilinadi. Bu aytishga arzigulik qo'shimcha urinishlarsiz, byudjet daromadlari va soliq bazasining deyarli avtomatik tarzda oshishiga olib keladi. Bu choraning ko'rilishi (tartibning o'rnatilishi) faqat ongli ravishda soliqlarni to'lamayotganlarga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Aksincha, qonunga itoatkor soliq to'lovchilar va ularning manfaatlari bundan chetda qoladi.

Soliqlarning undiriluvchanligini ta'minlashda soliq to'lovchi identifikatsion raqamining (STIRning) joriy etilganligi muhim rol o'ynamoqda. Biroq hozirgi paytda mamlakatning butun hududi bo'yicha fuqarolik aylanmasining ishtirokchilari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun yagona raqamni (nomerni) joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu raqam (nomer) soliq to'lovchining, sug'urta badallari yoki boshqa to'lovlarni to'lovchilarning, hisobga olinuvchi birlik sifatida jismoniy shaxsning raqami (nomeri) bo'lmasdan,

balki shaxsning tugʻilishidan to uning umri oxirigacha bar-cha idoralarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatidagi jismoniy shaxsning raqami (nomeri) boʻlishi kerak. Albatta, bunday raqamning (nomerning) joriy etilishi jismoniy shaxslardan undirilishi lozim boʻlgan soliqlarning undiriluvchanligini yaxshilaydi. Buning ustiga fuqaro oʻziga tegishli boʻlgan maʼlumotlarning toʻliqligidan oʻzi ham bevosita manfaatdor boʻladi. Chunki ana shu maʼlumotlarning toʻliqligi unga tegishli boʻlishi mumkin boʻlgan pensiya va boshqa nafaqalarning koʻlamini (oʻlchamini) belgilab beradi.

2. Kredit muassasasida tadbirkorlik subyektining hisob-kitob schyotini ochish tartibi bilan bogʻliq boʻlgan muam-molarni yechish.

Gap bu yerda bir tadbirkorlik subyektiga tegishli boʻlgan hisob-kitob schyotining soni, uning bir yoki bir necha kredit muassasasida boʻlishi yoki boʻlmasligi, schyotlarning moliyaviy resurslarni jamgʻarishga moʻljallangan “strategik” va har kunlik operatsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi “taktik” schyotlarga boʻlinishi yoki boʻlinmasligi, ularning qanday koʻrinishlarga (soʻmlik yoki valyuta) ega boʻlishi xususida ketayapti. Kredit muassasasi har bir yangidan ochilgan schyot xususida soliq inspeksiyasiga xabar berishiga qaramasdan ularga nisbatan maʼlum bir cheklovlar oʻrnatilmasa, bu narsa soliqlarni toʻlashdan ongli ravishda bosh tortuvchilar uchun yana bir silliqqina yoʻlni ochib berishi mumkin. Shu munosabat bilan bir soliq toʻlovchi tadbirkorlik subyektida bir necha turli schyotlarning boʻlishi maqsadga muvofiq emas. Bunday holatning mavjudligini tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning zaruriy sharti yoki qulayligi bilan izohlashning iloji yoʻq. Aksincha, schyotlar koʻp boʻlgan holda uning hech boʻlmaganda bittasini soliq inspeksiyasining eʼtiboridan chetda qoldirish ehtimoli mavjud boʻladi⁷³.

⁷³ Amaliyotda bunday holatlarning mavjudligini xarakterlovchi koʻplab misollarni keltirish mumkin. Ularning koʻpchiligida ogʻir moliyaviy holat, debitorlarning masʼuliyatsizligi yoki insofsizligi, davlat buyurtmasi boʻyicha mablagʻlarning byudjetdan oʻz vaqtida kelib tushmaganligi va

Soliqlarning undiriluvchanligiga salbiy ta'sir etuvchi bunday "teshik"larni "yopish" uchun asosiy faoliyat bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlarida bittadan so'mlik va valyuta schyotlarining bo'lishiga erishmoq lozim. Albatta, bunday chora-tadbirkorlik subyektlarining manfaatlariga "moydek" yoqadigan (mos keladigan) chora emas. Lekin mamlakatdagi haqiqiy iqtisodiy vaziyat va to'lov intizomining ahvoli shuni taqozo etishi mumkin. Aytganday bunday keskin chora ko'rilishini biroz "yumshatish" va qonunga itoatkor soliq to'lovchilar uchun soliq inspeksiya bilan muvofiqlashtirilgan holda ikki yoki uch schyotdan foydalanishga ruxsat ham bersa bo'ladi. Biroq soliqlarning undiriluvchanligini keskin oshirishga so'zda emas, balki amalda harakat qilinayotgan bo'lsa, bu borada yetarli darajada keskin bo'lgan cheklovlarni joriy qilish albatta, kerak.

3. Soliqqa tortish faqat litsenzion yig'imlarni olish yoki patent uchun to'lovlarni amalga oshirish orqali sodir etiladigan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyat turlari ro'yxatini aniqlash borasidagi muammolarga barham berish.

Bunday fikr bildirilganda eng avvalo, mayda chakana savdo, fuqarolarga transport, maishiy xizmat ko'rsatish va x.k.lar nazarda tutilayapti. Haqiqatdan ham, ana shu ko'rsatilgan va boshqa faoliyat turlari bo'yicha daromad va xarajatlarning haqqoniyligini aniqlash juda murakkab. Buning ustiga soliq to'lovchilarning bu toifaga kiruvchilari deklaratsiya taqdim etmaydilar yoki unda haqiqatdagiga mos bo'lgan daromadlarni ko'rsatmaydilar. Shu munosabat bilan, patent asosida faoliyat ko'rsatayotgan va unchalik katta bo'lmagan daromadga ega bo'lganlarning faoliyatlarini kelajakda albat-ta, majburiy tanlab olib tekshirishga o'tkazish kerak.

h.k.lar soliqlarni to'lanmaganligi ro'kach qilib ko'rsatiladi. Unga nisbatan soliq inspeksiya qat'iy va ta'sirchan choralar ko'rib, boqimanda sum-malarini undirish qarzdorning mol-mulkiga qaratilsa va unga erishishga harakat qilinsa, boqimanda summalarni to'lash uchun mablag' topiladi. Aybdorning bir necha schyotlari va ularning orasida esa soliq inspeksi-yasiga ma'lum bo'lmagan schyotlarning ham borligi ma'lum bo'ladi.

Soliqqa tortish, hisob va hisobotning soddalashtirilgan tizimi kichik korxonalar va mikrofirmalarni yagona soliq to'lovini to'lashga va hisobning soddalashtirilgan tizimiga o'tishini ko'zda tutadi. Biroq amaliyotning ko'rsatishicha, bunday jozibador ko'rinishga ega bo'lgan shaklga o'tishga ular shoshilayotgani yo'q. Buning sababi shundaki, soliqqa tortishning an'anaviy tizimida ham kichik biznes subyektlari uchun imtiyozlar kam emas. Ular avans to'lovlarini amalga oshirmaydilar va har chorakda bir marta hisob-kitob qiladilar. Bu narsa ular uchun inflyatsiya sharoitida juda foydali. Ularning moslashuvchanligi va o'zgaruvchanligi, naqd pul-larning keng aylanishi bilan qo'shib hisoblaganda, haqiqiy daromadlarini yetarli darajada muvaffaqiyat bilan yashirish-ga imkon berayapti. Buning natijasida ularning choraklik o'rtacha to'lovlari soliqqa tortishning haqiqiy bazasiga to'g'ri kelmayapti. Shu sababli, obyektiv iqtisodiy tahlil natijasida aniqlangan patent uchun to'lovning summasi shu summa-dan keskin yuqori bo'lgan summada olinishi kerak. Buning natijasida soliq organlari minglab buxgalteriya hisobotlarini qabul qilish va ularni tekshirishdan ozod bo'lib, bir vaqtning o'zida boshqa soliq to'lovchilar ustidan nazoratni kuchayti-rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. Soliqqa tortish obyektlarining faqat buxgalteriya hiso-bi qoidalari bo'yicha (tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizat-siya qilish bo'yicha tushum, balans foyda va h.k.) shakllanti-rishni qonuniy tarzda ko'zda tutish, soliqqa tortish maqsad-lari uchun esa aniq qonuniy aktlar asosida o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ijobiy hal etish.

Buxgalteriya va soliq hisobida iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashdagi turli yondashuvlar soliq to'lovchilarning byud-jet oldidagi majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini keskin murakkablashtiradi, katta miqdordagi moli-yaviy jazolarga olib keluvchi ko'psonli "texnik" xatolar uchun sharoit yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, amaldagi soliqqa tor-tish tizimining jozibadorligini kamaytiradi.

Soliqlarning undiriluvchanligini oshirish va shu maq-sadlarda soliq nazoratining ta'sirini kuchaytirish uchun

shunday tartibni o'rnatish maqsadga muvofiqki, unga ko'ra hujjatli tekshiruvni amalga oshirish jarayonida soliq to'lovchi tomonidan soliq organining xodimiga o'rnatilgan tartibga ko'ra taqdim etilmagan birlamchi hisob hujjatlari va boshqa hujjatlar soliq to'lovchi tomonidan soliq organi xatti-harakatining noqonuniyligi xususida arbitrajlik sudiga da'vo qilinib, taqdim etilganda inobatga olinmasligi lozim. Taklif etilayotgan bunday tartib joriy etilganda, hujjatli tekshiruv tugatilib, moliyaviy jazolar qo'llash to'g'risida tegishli qarorlar qabul qilinganidan so'ng soliq to'lovchilar tomonidan soliqqa tortish obyektlarini yashirganligi va soliqlarni to'lamaganligi xususida guvohlik beruvchi hujjatlarning mazmunini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlardan qochib qutilishga imkon bergan bo'lar edi.

Qanday bo'lishidan qat'iy nazar bizning mamlakatimizda ham boshqa mamlakatlardagi singari alkogol mahsulotlari va pivo ishlab chiqarish, ularni ulgurji va chakana savdo qilish iqtisodiyotimizning yetarli darajadagi yirik sektori hisoblanadi. Spirtli ichimliklar uchun aksizlar bugungi kunda ham har qanday mamlakatning soliq tizimida muhim rol ni o'ynamoqda. Biroq bu sektorga xususiy kapitalning kirib kelishi bilan katta miqdordagi daromadlar ularning qo'liga o'tib qolmoqda. Spirtli ichimliklarni ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish ustidan nazorat susaydi. Bunday mahsulotlar savdosida aksizlarni to'lashdan bo'yin tovlash soliq holatlari kuchaydi. Aksiz va undan so'ng esa maxsus markalarning joriy etilishi, ularni qalbakilashtirish juda oson bo'lganligi va farqlovchi apparatlarning mavjud emasligi sababli, vaziyat o'nglanmayapti. Shuning uchun vino-arog mahsulotlarini ishlab chiqarishga davlat monopoliyasini to'liq tiklash zarur. Bu bilan bog'liq bo'lgan choralar tugallanmaganlik xarakteriga ega bo'lmasligi lozim. Agar spirtli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularning savdosiga nisbatan davlat monopoliyasi to'liq joriy etiladigan bo'lsa, qisqa muddatlarda davlat xazinasiga borib tushuvchi pul mablag'larining tushumini

ancha oshirish mumkin. Bir vaqtning o'zida bunday tartibning joriy etilishi bu mahsulotlar sifati ustidan nazoratning yaxshilanishiga ham olib keladi.

5. Soliq summalarining byudjetga o'z vaqtida o'tkazilishiga to'sqinlik qilayotgan banklarga nisbatan tez va keskin choralarni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan muammolarning yechimini topish;

Keskin choralarni faqat o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmayotgan soliq summalariga nisbatangina emas, balki korxonalar boshqa to'lovlarining o'tkazilishida to'xtalishlar yo'l qo'yilayotgan holatlar uchun ham qo'llash zarur. Chunki bunday holatlarga yo'l qo'yilayotganligi qo'shimcha ravishda korxonalarning moliyaviy ahvolini yanada yomonlashtirmoqda. Banklar tomonidan hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan dalillar amaliyotda ko'p uchrab, ular oxir-oqibatda, noto'lovlarning o'sishiga olib kelmoqda, mamlakatdagi pul muomalasining ahvoriga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Pul muomalasining harakati mamlakat doirasida buzilayotgan ekan, uni tuzatish uchun, ayrim hollarda, ma'muriy xarakterdagi qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Jumladan, mablag'larning davlat byudjetiga o'z vaqtida borib tushishini ta'minlash borasida banklar va boshqa kredit tashkilotlarining javobgarligini kuchaytirish zarur. Xususan, soliq organlarining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarining so'zsiz undirilishi to'g'risidagi to'lov talabnomalari banklar tomonidan birinchi navbatda ijro etilishi kerak. Ularni so'zsiz undirish to'g'risidagi to'lov talabnomalari banklar tomonidan ijro etilmasa yoki o'z vaqtida ijro etilmasa, soliq organlariga to'lov talabnomasida ko'rsatilgan summaning eng kamida 10%gacha bo'lgan qismi doirasida bank muassasalaridan jarima talab qilish huquqini bermoq lozim.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan va shunga o'xshash boshqa choralarning qo'llanilishi mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun yetarli emas. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ular birdaniga va hech qanday qo'shimcha xarajatlarsiz ijobiy moliyaviy natija berishi va

davlat resurslarini sezilarli darajada to'ldirishi mumkin. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, bunday choralarning qo'llanilishi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida davlatning qo'lga tegishli instrumentni beradiki, u mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini yanada rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

6. Foydadan olinadigan soliq va boshqa soliqlarning stavkasini tabaqalashtirish, to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlar o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlardan maksimal olinishi mumkin bo'lgan foizning darajasini o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilish.

Hamon tom ma'noda iqtisodiyot demonopolizatsiyalashtirilmagan ekan, uning ba'zi tarmoqlarida mahsulotlar bozorida u yoki bu ishlab chiqaruvchining monopol mavqega egaligidan foydalangan holda ustama foydaning olishini soliqlar yordamida cheklash mumkin. Buni amaliyotda masalan, rentabellik ko'rsatkichi ma'lum bir darajadan oshgandan so'ng soliq stavkasini o'zgartirish orqali amalga oshirsa bo'ladi. Ana shu usul yordamida faqat byudjetni daromadlar bilan to'ldirish vazifasi uddalanib qolmasdan, balki monopolist korxonalarning o'z mahsulotlariga nisbatan o'rnatilishi lozim bo'lgan baho darajasini chegarasiz va nazoratsiz o'rnatish imkoniyatini ham cheklash mumkin. Bu o'rinda bizning fikrimizcha, qaysidir mamlakatda mahsulot qandaydir bir turining 80-90%ini ishlab chiqaruvchi gigantkorxonani faqat monopolist sifatida e'tirof etish xato hisoblanadi. Aslida, amalda har bir mintaqada mahsulot yoki xizmatning yetishmagan turini ishlab chiqaruvchi har qanday korxonani yoki shu mahsulot va xizmat turi shu mintaqada boshqa bir korxona tomonidan taqdim etilmasa ham uni monopolist korxona o'rnida ko'rish mumkin. Ana shu ma'noda xususiy lashtirish jarayonlari hamon milliy iqtisodiyotimizdagi monopolizmga barham bera olgani yo'q. Shu munosabat bilan bunday korxonalarning faoliyatini foydadan olinadigan soliqning stavkasini tabaqalashtirish orqali tartibga solish o'rinli hisoblanadi.

Bir vaqtning o'zida foydadan olinadigan soliqning stavkasini ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan korxonalar va tashkilotlar bo'yicha ham tabaqalashtirish mumkin. Ishlab chiqarmaydigan korxonalar va tashkilotlar sohasida hamda monopolist korxonalarga nisbatan foydadan olinadigan soliqning stavkasini biroz yuqoriga ko'tarish hisobidan milliy ishlab chiqaruvchilar uchun bu soliqning stavkasini, shunga mos ravishda pasaytirish imkoniyati mavjud.

Soliqlarning undiriluvchanligini ta'minlashda har bir mamlakat soliq tizimidagi to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlar o'rtasidagi tarkib topgan nisbat muhim rol o'ynaydi. Bu nisbatni shakllantirishda to'g'ri (bevosita) soliqlarning mamlakatda ishlab chiqarish faoliyatining natijalarini bevosita aks ettirishi mumkinligi sira esdan chiqmasligi kerak. Shuningdek, soliqlar undiriluvchanlik darajasining yuqoriligini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'larining byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga olinishi maksimal darajasining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegarasini qonuniy tarzda oldindan belgilanishi ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

7. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning texnikaviy jihatdan oddiyligini, qulayligini va tushunarligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni oqilona hal etish.

Hech bo'lmaganda, hozirgi paytda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bu prinsiplarga muvofiq emas. Soliq deklaratsiyasi ham soddalashtirishga muhtoj. Yuridik shaxs tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarni daromad solig'iga tortish prinsiplarini o'zgartirish kerak. Bunda soliqlarning byudjetga tushmay qolishidan xavotirga bormaslik lozim. Aksincha, qo'shimcha ishlarni bajarishga, o'zining shaxsiy vaqtini sarflab, o'tlangan shaxslarni ko'proq rag'batlantirmoq zarur. Patentlar tizimi mayda tadbirkorlar uchun daromad solig'iga nisbatan afzalroq (samaraliroq) ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda va h.k.

Umuman olganda, yuqoridagi muammolarning muvaffaqiyatli hal etilishi soliqlarning yuqori darajada undirilu-

vchanligini ta'minlashda o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun qo'shimcha savollar

- Soliqlar, soliq tizimi va soliq siyosatidagi vaziyatni qanday baholaysiz?
- Nega soliqlar muammosi bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi?
- Bozor iqtisodiyotida soliq tizimini tashkil qilishning asosiy prinsiplari tariqasida nimalarni ko'rsatish mumkin?
- Mamlakatimizda amal qilib kelayotgan soliq tizimi uni tashkil qilishning barcha prinsiplariga to'liq javob berayaptimi?
- Umumiy jihatdan olib qaraganda mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilishning qanday yo'llari mavjud?
- O'zbekiston Respublikasida amaldagi soliq tizimi qanday sharoitlarda vujudga kelgan?
- Amaldagi yangi soliq tizimi tuzilish (qurilish) prinsiplari va tarkibiy qismlariga ko'ra butun jahon amaliyotida keng tarqalgan soliq tizimini ham aks ettirganmi?
- Xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridan aynan nusxa olishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatuvchi qanday sabablar mavjud?
- Xorijiy mamlakatlardagi soliq tizimlarining hammasini ham takomillashgan va hozirgi kunning talablariga to'liq javob beradi, deb bo'ladimi?
- Soliq tushumlarining ortishi Ikkinchi jahon urushidan keyin xorijiy mamlakatlar soliq tizimlariga kiritilgan «yangiliklar» bilan izohlanadi. Ularning tarkibiga nimalarni kiritish mumkin?
- G'arb mamlakatlarida soliqqa tortishning yuqori darajadali bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu nimalarda namoyon bo'lishi mumkin?
- So'nggi yillarda soliq tizimlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar nimalardan iborat?

- Yetakchi xorijiy mamlakatlardagi soliqqa tortishning asosiy tendensiyalari tarkibiga nimalarni kiritish mumkin?
- G'arb mamlakatlarida soliq tizimlarining takomillashtirilishi soliqqa tortishdagi qanday tarkibiy o'zgarishlarga olib keldi?
- Soliqlar yordamida tartibga solishning qarama-qarshiliklari (ziddiyatlari) nimalarda namoyon bo'ladi?
- Soliqlarning iqtisodiyotga ta'siri ma'lum bir chegara doirasida amalga oshiriladi. Buning qanday obyektiv sabablari bor?
- Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari uchun umumiy tendensiyalar nimalardan iborat?
- Rivojlangan mamlakatlardagi soliqqa tortish tajribasidan O'zbekiston uchun foydalanish masalasi hal etilayotgan paytda nimalar nazardan chetda qolmasligi kerak?
- Keng ma'noda kelajakda soliq islohoti o'tish davrida nimalarni o'z ichiga olishi lozim?
- Umumiy ko'rinishda rivojlanayotgan mamlakatlardagi soliq islohotlarining konkret tajribasi o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun qanday yo'nalishlarda (aspektlarda) foydali?
- O'zbekistonda soliq tizimini isloh qilish uchun qanday yo'llar taklif qilinishi mumkin edi?
- Bizning mamlakatimiz uchun soliq tizimini isloh qilishning yagona real varianti sifatida nimani qabul qilish tan olindi va MDH mamlakatlari orasida birinchilar qatorida qanday muhim hujjat qabul qilindi?
- O'zbekistonning soliq tizimini rivojlantirish konsepsiyasi asosida, eng avvalo, bir necha rivojlangan xorij mamlakatlarida asos sifatida olingan va o'zining samaradorligini amalda ko'rsatgan prinsiplar qo'yilishi kerakmi? Bunday prinsiplar qatoriga nimalarni kiritish mumkin?
- Soliq islohotini amalga oshirish rejalashtirilayotgan paytda va soliq tizimini takomillashtirishda nimalarga alohida e'tibor bermoq lozim?
- Hozirgi paytda soliq organlarini modernizatsiya qilishning zarurligi qanday obyektiv omillar bilan belgilanadi?

- Hududiy soliq organlari uchun modernizatsiya qilishning majburiy komponentlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

- Soliq xizmatini modernizatsiya qilishning muhim komponenti mutaxassislar va soliq to'lovchilarni o'qitishdir. Mutaxassislarni o'qitishni qanday yo'nalishlarda amalga oshirsa bo'ladi?

- Soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosi nima va u soliq siyosati bilan qanday bog'langan?

- Byudjet daromadlarini shakllantirishda sof fiskal uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqmi yoki soliqlarni pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish kerakmi? Bularning qaysi biri afzal? Qaysi biri maqsadga muvofiq?

- Soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosi xususida L.Erxard va A.Lefferlarning fikrlari qanday?

- Soliq tizimi, soliqqa tortish, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari va ularning soliq siyosati hayotchanligiga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?

- Soliq siyosatining hayotiychanligi, deganda nimani tushunasiz?

- Soliq tizimi (soliqqa tortish)ning qanday asosiy prinsiplari mavjud? Ularning har biriga alohida-alohida izoh bera olasizmi?

- Soliqlarning (soliqqa tortishning) haddan ziyod og'ir bo'lmasligi deganda nimani tushunish kerak?

- Soliqlarning (soliqqa tortishning) soliq to'lovchilarga tushunarli bo'lishi nimalarni anglatadi?

- Har bir soliq to'lovchi necha so'm, qachon va nima uchun soliq to'lashi lozimligini bilmog'i kerakligini qanday izohlaysiz?

- Soliqlarning (soliqqa tortishning) adolatli bo'lishi va teng sharoitlarda turli soliq to'lovchilar bir xil soliqlarni to'lashi lozimligi nimadan darak beradi?

- Davlat ko'p mablag' sarf etmasdan soliq undirishni (yig'ishni) uddalamog'i kerak. Bu nima degani?

- To'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning turli xillaridan oqilona foydalanish, deganda nimalar nazarda tutilayapti?
- Soliqqa tortishni universallashtirishning ma'no-mazmuni nimadan iborat?
- Bir marta soliqqa tortish, deganda nimani tushunasiz?
- Soliqqa tortish masalasida ilmiy yondashuv nimani anglatadi?
- Stavkalarni tabaqalashtirish, deganda nima tushuniladi?
- Nega soliq stavkalarining barqarorligini ta'minlash kerak?
- Soliq imtiyozlari tizimidan keng foydalanish lozimmi?
- Davlat boshqaruv darajasiga qarab soliqlar taqsimlanishining sabablari nimalardan iborat?
- Manbalaridan qat'iy nazar barcha daromadlardan soliq to'lashning majburiyiligi nimani bildiradi?
- Soliq to'lovchining daromadi qanday guruhlariga bo'linadi?
- Mamlakatdagi manbalardan olinadigan daromadlarga nimalar kiradi?
- Boshqa daromadlarning tarkibiga nimalar kirishi mumkin?
- Amaldagi tartibga binoan nimalar soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmasligi mumkin?
- Jismoniy shaxslarning jami daromadi nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
- Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga nimalar kiradi?
- Mulkiy daromadlar nimalardan iborat?
- Moddiy naf tarzidagi daromadlarning tarkibi qanday?
- Barcha hududiy-ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosatini mahalliy hokimiyat idora (organ)larining umumdavlat soliq siyosati doirasida soliqlarga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi bilan uyg'un holda amalga oshirish, deganda nimani tushunasiz?

- O'z faoliyati bilan eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlovchi korxonalarga imtiyoz berish, shuningdek, xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish tizimi orqali soliq me'zonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash, deganda nimalar nazarda tutilayapti?

- Deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlarni uyushtirish asosida barcha subyektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olgan majburiyatlari ustidan moliyaviy nazorat qilish, qonunlarni buzuvchilarga nisbatan iqtisodiy choralar ko'rish, deganda eng avvalo, nimalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi?

- Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari nimalardan iborat? Ularning har biriga izoh beringchi?!

- Iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida soliqlar va soliq siyosati o'rtasida qanday bog'lanish mavjud?

- Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning moliya-byudjet mexanizmi ta'sirining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

- Davlatning restriksionistik siyosati nimani bildiradi?

- Iqtisodiyotni tartibga solishga mahalliy boshqaruv organlarining roli qanday?

- Alohida mintaqalardagi hududlarda investitsiyalar joylashtirilishining o'ziga xos tarzda rag'batlantirilishi xususida misollar keltira olasizmi?

- Iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga moliyaviy ta'sir ko'rsatish faqat rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lmasdan, balki to'xtatib turuvchi yoki ta'qiqlovchi xarakterga ham ega bo'ladimi? Misollar keltiringchi!

- Soliqlarni oshirish evaziga faqat iqtisodiy vazifalarni emas, balki ijtimoiy vazifalarni ham hal etish mumkinmi?

- Soliqlarning ekologik muammolarni hal etishdagi roli qanday?

- Davlat iqtisodiyotning rivojlanishiga baholarni shakllantirish orqali ham moliyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkinmi? Buni izohlab beringchi?!



- Soliq siyosatining xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalarini hal qilishdagi roli qanday?
- Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni yanada faolroq jalb etishga nimalar to'sqinlik qilyapti?
- Xolisona xalqaro soliqqa tortish konsepsiyasining uch asosiy qoidasi nimalardan iborat?
- Soliqlarning undiriluvchanligini oshirish masalasi soliq siyosatida o'z aksini topishi kerakmi?
- Qanday muammolarning muvaffaqiyatli hal etilishi soliqlarning undiriluvchanligini oshirishga xizmat qilishi mumkin?
- Soliqlarning undiriluvchanligini oshirish uchun tadbirkorlik subyektini (faoliyatini) ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni qanday hal qilish kerak?
- Kredit muassasasida tadbirkorlik subyektining hisob-kitob schyotini ochish tartibi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechish soliqlarning undiriluvchanligini oshirishga o'zining qanday ta'sirini ko'rsatadi?
- Soliqlarning undiriluvchanligini oshirishda soliqqa tortish faqat litsenzion yig'implarni olish yoki patent uchun to'lovlarni amalga oshirish orqali sodir etiladigan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyat turlari ro'yxatini aniqlash borasidagi muammolarga barham berish qanday rol o'ynaydi?
- Soliqqa tortish obyektlarining faqat buxgalteriya hisobi qoidalari bo'yicha (tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha tushum, balans foyda va h.k.) shakllantirishni qonuniy tarzda ko'zda tutish, soliqqa tortish maqsadlari uchun esa aniq qonuniy aktlar asosida o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ijobiy hal etish bilan soliqlarning undiriluvchanligini oshirish o'rtasida qanday uzviy bog'liqlik mavjud?
- Soliq summalarining byudjetga o'z vaqtida o'tkazilishiga to'sqinlik qilayotgan banklarga nisbatan tez va keskin choralarni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan muammolarning yechimini topish soliqlarning undiriluvchanligini oshirishda o'z ta'sirini ko'rsatadimi?

- Foydadan olinadigan soliq va boshqa soliqlarning stavkasini tabaqalashtirish, to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlar o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlardan maksimal olinishi mumkin bo'lgan foizning darajasini o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan muammolar hal etilsa, soliqlarning undiriluvchanligi oshadimi?

- Soliqlarning undiriluvchanligini oshirish jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning texnikaviy jihatdan oddiyligini, qulayligini va tushunarligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni oqilona yechishga bog'liqmi?

5-BOB. SOLIQ YUKLAMASINI YENGILLASHTIRISH – SOLIQ SIYOSATINING ENG DOLZARB MASALASI

5.1. “Soliq yuklamasi”, “soliq yuklamasi”mi yoki “soliqiy yuklama”mi

O‘zbek iqtisodiy (moliyaviy) ilmda “soliq yuklamasi” iborasining hech qanday e’tirozlarsiz, “muvaqqiyatli” qo‘llanilib kelinayotganligiga qariyb 30 yil bo‘ladi. Uning shu tarzda ishlatilayotganligi hech kimda shubha tug‘dirayotgani yo‘q. Bu iboraning shu ko‘rinishda ishlatilishiga o‘zim ham “munosib” hissa qo‘shganman. Shu paytga qadar yozgan darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya, broshyura, ilmiy maqola va tezislrimda ham bu ibora aynan shu shaklda ishlatilgan. O‘z davrida bu masalaga nisbatan men ham ko‘pchilik qatori “oqimga qarshi suzish”ni o‘zimga ep ko‘rmagan edim. Lekin ...

Holbuki, azal-azaldan ma’lum: har narsa o‘z nomi bilan to‘g‘ri atalishi kerak. “Eshmat”ni “Toshmat” deb bo‘lmaganidek, ayniqsa fanda “Qizim to‘g‘risida gapirganimda, kelinimni nazarda tutgan edim” deyishning aslo iloji yo‘q. Shunday qilinsa – bu yaxshilik alomati emas: u fanning fanligiga “soya” soladi, vaqti kelib uning kushandasiga aylanadi, taraqqiyotiga emas, tanazzuliga xizmat qiladi.

“Soliq yuklamasi” degan iboraning zamirida nima yotibdi? Shu shakl va mazmunda u aslida qanchalik to‘g‘ri ishlatilayapti? Shunday ishlatish mumkin bo‘lsa, u holda nega shunga o‘xshash tarzda “moliya yuklamasi”, “kredit yuklamasi”, “sug‘urta yuklamasi” va h.k.larni ishlatish hatto, xayolimizga ham kelmaydi? Bunda bir “sir-sinoat” yo‘qmikan?...

Biz “soliq yuklamasi” deb nomlagan va nazarda tutgan narsamiz dunyoning boshqa xalqlari tillarida qanday nomlandiykin? Xususan, ingliz tilida u “tax burden”, nemis tilida

“steuerlast”, “abgaben belastung, steuerliche Belastungen, steuerliche Last, Steuerbürde, Steuerlast”, frantsuz tilida “charge fiscale, fardeau fiscal” tarzlarida ishlatilmoqda. Bu ibora bizga nisbatan bo’lsa-da yaqin va tushunarli bo’lgan rus tilida, asosan, “nalogovaya nagruzka” ko’rinishida ishlatiladi. Shuningdek, uning “nalogovaya bremya” shaklida ishlatilish varianti ham mavjud.

Shunday ekan, endi mantiq qoidalariga qat’iy rioya etgan holda eng avvalo, biz nazarda tutayotgan narsaning aynan nega “soliq yuklamasi” nomi bilan atalayotganligiga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim. Gap shundaki, ushbu ibora yoki so’zlar birikmasi o’zbek tilida ilk bora (ilmiy) aylanma (muomala)ga kiritilayotgan paytda uning shunday atalishiga izoh berish masalasi kun tartibiga qo’yilmadi. U e’tibordan chetda qoldi. “Soliq yuklamasi” tushunchasi, uning to’g’ri yoki noto’g’ri nomlanganligi, nazarda tutilayotgan narsa (voqelik, holat, vaziyat)ning asl mazmun-mohiyatiga qanchalik to’g’ri kelish yoki kelmasligi o’zbek iqtisodiy adabiyotida muhokama qilinmadi. Holbuki, bu ibora sho’rolar davrida Ona tilimiz so’z aylanmasida, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, umuman bo’lmagan. U respublikamizda mustaqillikning qo’lga kiritilishi va bozor munosabatlari sari qadam tashlanishi bilan birgalikda, o’ziga xos tarzda, shiddat bilan to’satdan kirib keldi. Shunday bo’lishiga qaramasdan tegishli daxldor me’yoriy hujjatlar⁷⁴ning “Asosiy tushunchalar” qismida u hanuzgacha rasmiy ravishda o’z aksini topganicha yo’q. Bu bejiz emas. Buni bizningcha, faqat ushbu masalada balki yagona to’xtamga kelinmaganlik, balki umuman o’ylab ko’rilmaganlik yoki maxsus ravishda ilmiy tadqiqot olib borilmaganlik bilan izohlash mumkin. Lekin bu narsani aslo e’tiborga loyiq yoki diqqatga sazovor bo’lmagan masala sifatida e’tirof etish mutlaqo mumkin emas.

To’g’ri hozirgi paytda o’zbek iqtisodiy (moliyaviy) adabiyotida “soliq yuklamasi” tushunchasi yuqorida ta’kidlanga-

⁷⁴ Bu o’rinda “O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” nazarda tutilmoqda.

nidek, hech qanday e'tirozlarsiz va hech qanday qarshilikka duch kelinmasdan ishlatilmoqda. Yozilgan va hamon yozilayotgan ilmiy tezislari, maqolalar, broshyuralar, dissertatsiyalar, monografiyalari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarda u aynan shu tarzda o'z aksini topgan va topmoqda. Bu borada maxsus ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borayotganlar⁷⁵ning ilmiy izlanishlari natijalarida ham u xuddi shu tarzda, ya'ni "soliq yuklamasi" ko'rinishida ifodalanmoqda. Xullas, uning qanday atalishi hamon shubha ostiga olinganicha yo'q⁷⁶.

Buni ma'lum ma'noda, ushbu masalada o'zbek iqtisodchi olimlari o'rtasida o'ziga xos yakdillik tarkib topganligidan darak berishi va uni o'zbek iqtisodiy (moliyaviy) ilmining yutug'i sifatida e'tirof etish ham mumkin. Biroq bizningcha, aslo bunday emas. Bunday keskin tarzda bildirgan fikrimizni quyida asoslashga harakat qilamiz.

Buning uchun dastlab, biz nazarda tutayotgan "narsa"ning dunyoning boshqa xalqlari tillarida qanday atalayotganligiga va ularning o'zbek tilida qanday tarjima qilinishiga yana bir bor e'tibor qaratishimiz zarur. Shu munosabat bilan O'zbekiston sharoitida ko'pchilik uchun tushunarli va yaqin bo'lgan rus tilida uning qanday atalishiga e'tibor beraylik⁷⁷. Biz nazarda tutayotgan "narsa" rus tilida bir necha variantlarda ishlatilayotgan bo'lishiga qaramasdan, yuqorida ta'kidlanganidek, u aksariyat hollarda "nalogovaya nagruzka" shakli va mazmunida qo'llaniladi. Uning ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ko'rinishi ana shunday. Biroq rus tilida, ayrim hollarda, "nalogovaya nagruzka"ning o'rniga "gosudarstvennaya nagruzka", "nalogovaya bremya",

⁷⁵ Masalan: T.Malikov, N.Haydarov, A.Jo'rayev, Sh.Toshmatov, M.Almardonov, P.Jalilov, I.Niyazmetov, O.G'aybullayev, Sh.To'rayev, B.Sanaqulova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida.

⁷⁶ Shunday bo'lsa-da, ayrim hollarda, Ona tilimizda "soliq yuki"ning o'rniga "soliq og'irligi" iborasining ishlatilayotganligiga ham duch kelishimiz mumkin.

⁷⁷ Bu o'rinda, xorijiy tillardan tarjima masalalarida rus tilining Ona tilimiz uchun o'ziga xos tarzda "ko'priki" vazifasini bajarayotganligini xolisona e'tirof etmoqimiz lozim. Buni istaymizmi yoki yo'qmi, hayot obyektiv haqiqati shundan iborat.

“nalogovaya tyajest”, “nalogoviy “gnet” va “nalogoviy press” iborolari ham qoʻllaniladi. Lekin ularning qoʻllanilishi oʻziga xos sabablarga⁷⁸ ega boʻlib, oʻta darajada yoki tor doirada cheklanganlik xarakteriga ega.

Rus tilida asosan, “nalogovaya nagruzka” koʻrinishida ishlatilayotgan ibora oʻzbek tilida qanday tarjima qilinishi kerak? Masalaga shu tarzda yondashib, eng avvalo, uning soʻzma-soʻz tarjimasiga jiddiy eʼtibor beradigan boʻlsak, Ona tilimizda “soliq yuklamasi” tarzidagi tarjimaning muvaffaqiyatli emasligi maʼlum boʻladi. Chunki sirtidan hatto eng yuzaki qaraganda ham dastlab, rus tilida “nalogovaya” tarzida ifodalangan soʻz oʻzbek tilida “soliq” deb tarjima qilinmaydi yoki qilinmasligi kerak. Chunki oʻzbek tilidagi “soliq” soʻzining rus tilidagi ekvivalent varianti “nalog” ekanligi hammaga maʼlum.

Bundan koʻrinib turibdiki, “nalogovaya” soʻzidagi “-aya” qoʻshimchasi oʻzbek tilidagi tarjimada, “negadir” eʼtibordan chetda qolgan⁷⁹ va u yetarli darajada hisobga olinmagan. Holbuki, rus tilidagi birgina “-aya” qoʻshimchasi oʻzbek tilida oʻzining ikki ekvivalent variantiga ega. Ular qoʻshiladigan soʻzlarining undosh yoki unli harflar bilan tugashiga qarab farqlanadi. Shunga koʻra uning birinchisi “-iy” boʻlsa, ikkinchisi “-viy”dir.

Bizningcha, bu yerda oʻzbek tilida “soliq yuklamasi” iborasining ishlatilishida yana boshqa bir oʻta jiddiy xatolikka yoʻl qoʻyilgan. Gap bu oʻrinda rus tilidagi “nagruzka” soʻzining Ona tilimizda “yuk” yoki “yuklamasi” deb tarjima qilinganligi xususida ketayapti. Haqiqatdan ham tegishli

⁷⁸ Xususan, bunday sabablar qatoriga mualliflarning oʻzlariga ortiqcha erk berishlari, asossiz “originallik”ka intilishlari, sababsiz ixtiyoriy talqin qilishlari, maqsadsiz soʻz oʻyinlaridan foydalanishlari, beeʼtibor til soʻz boyligini oʻrinsiz qoʻllashlari va h.k.larni koʻrsatish mumkin.

⁷⁹ Holbuki, boshqa holatda bunga jiddiy eʼtibor berilmoqda. Masalan, rus tilidagi “finansovaya politika” oʻzbek tilida “moliya siyosati” emas, balki “moliyaviy siyosat”, “finansovoe planirovanie” “moliya rejalashtirilishi” emas, balki “moliyaviy rejalashtirish” koʻrinishi va mazmunini oʻzida mujassam etmoqda.

manbalar⁸⁰ga murojaat qilinsa, rus tilidagi “nagruzka” so’zi o’zbek tilida “yuk” deb tarjima qilinmasligi ma’lum bo’ladi. Uning Ona tilimizdagi so’zma-so’z tarjimasi “yuk” emas, balki “yuklama”dir.

Shunday qilib, yuqoridagi mantiqiy mulohaza va xulosalardan kelib chiqiladigan bo’lsa, biz nazarda tutayotgan “narsa” so’zma-so’z olib qaralganda ham o’zbek tilida “soliq yuklamasi” deb emas, balki “soliqiy yuklama” yoki “soliq yuklamasi” deb atalishi kerak. Uning aynan shunday deb atalishining to’g’ri ekanligini tasdiqlashga rus tilidagi “uchebnaya nagruzka”, “nauchnaya nagruzka”, “proizvodstvennaya nagruzka”, “texnologicheskaya nagruzka” va h.k.larning, mos ravishda, “o’quv yuklamasi”, “ilmiy yuklama”, “ishlab chiqarish yuklamasi”, “texnologik yuklama” va h.k.lar tarzida tarjima qilinganligi va amaliyotda xuddi shu shaklda foydalanib kelinayotganligi ham xizmat qiladi. Shu munosabat bilan yana bir marta alohida ta’kidlamoqchimiz: “nalogovaya nagruzka”ning so’zma-so’z tarjimasi “soliqiy yuklama”dir.

Endi masalaning boshqa jihatiga, ya’ni o’zbek tilidagi “soliq yuklamasi” iborasining rus tiliga qanday tarjima qilinishiga e’tibor beraylik. Ma’lumki, u so’zma-so’z “gruz nalog” yoki juda nari borsa “nalogoviy gruz” deb tarjima qilinishi kerak. Bu iboralar esa, savodxonlik nuqtayi nazaridan rus tilida deyarli ishlatilmaydi va bu bejiz emas. Bunday vaziyatda xuddi shu ma’noni o’zbek tilida “soliq yuklamasi” tarzida ishlatilishi bizningcha, hech qanday shubhasiz yoki e’tirozsiz bo’lishi mumkin emas.

Biz yuqorida rus tilida ishlatiladigan “nalogovaya nagruzka” iborasining o’zbek tilida “soliq yuklamasi” deb emas, balki “soliqiy yuklama” yoki “soliq yuklamasi” deb so’zma-so’z tarjima qilinishining maqsadga muvofiqligi xususida o’z fikrlarimizni bayon etdik. Bu fikrimizni yanada kuchaytirmoqimiz, ya’ni rus tilidagi “nalogovaya nagruzka”

⁸⁰ Bu o’rinda turli yillarda mamlakatimizda nashr qilingan “Ruscha-o’zbekcha lug’at”lar va “Ruscha-o’zbekcha izohli lug’atlar” nazarda tutilmoqda.

o'zbek tilida ma'no jihatidan tarjima qilinganda ham "soliqiy yuklama" yoki "soliq yuklamasi" deb tarjima qilinmog'i lozim. Faqat shundagina u biz nazarda tutayotgan "narsa"ning asl mazmun-mohiyatini o'zida to'g'ri ifoda etishga xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham ilmiy aylanmaga "soliq yuklamasi" iborasining o'rniga "soliqiy yuklama" yoki "soliq yuklamasi" iboralaridan birini kiritish maqsadga muvofiq.

Albatta, qo'llanilib kelinayotgan, shu paytga qadar hech kim tomonidan e'tirozga sabab bo'lmayotgan, quloqlarimiz allaqachon ko'nikib qolgan "soliq yuklamasi" iborasining o'rniga "soliqiy yuklama" yoki "soliq yuklamasi" iborasini qo'llashga urinish ba'zi bir e'tirozlarga sabab bo'lishi mumkin. Bizningcha, bunday e'tirozlar bo'lishini tabiiy tarzda qabul qilmoq lozim⁸¹. Chunki ma'lum vaqt o'tishi bilan hammasi o'z joyiga tushib ketadi: "soliqiy yuklama" yoki "soliq yuklamasi" iboralarini "soliq yuklamasi"ning o'rnini ilmiy va amaliy so'z aylanmasida mustahkam egallaydi. Buni "Hayot" deb atalmish maktab bajaradi. Vaqt esa bunga hakamlik qiladi.

Bunday xulosaga kelishimizning bir necha sabablari mavjud. Birinchidan, gap bu o'rinda ma'lum bir holat (iqtisodiy, moliyaviy voqe'lik)ni anglatish yoki ifodalash uchun o'zbek tilida muvaffaqiyatsiz ishlatilayotgan bir so'zning (xalqaro atamaning emas) o'rniga muvaffaqiyatli ishlatilishi lozim bo'lgan ikkinchi so'zning qo'llanilishi haqida ketayapti. Ikkinchidan, "soliq yuklamasi" iborasining o'rniga "soliqiy yuklama" yoki "soliq yuklamasi" iboralaridan birining ishlatilishi tegishli holatni ifodalashda puxta o'ylanmasdan oldin yo'l qo'yilgan xatolikning tuzatilishiga olib keladi. Uchinchi-

⁸¹ Esingizdami, bir paytlar Ona tilimizning sofligini ta'minlash nuqtainazaridan, masalan, "kandidat" so'zining o'rniga "nomzod", "ministr"ning o'rniga "vazir" va h.k.larning kiritilishi qanday e'tirozlarga sabab bo'lgan edi-yu, kimlarningdir g'ashiga tegib, ba'zi-birovlarning qulog'ini "arralagan" edi. Bu narsalarning oqibati nimalar bilan tugadi? Yakun ma'lum: "kandidat" va "ministr" va h.k.lar o'z o'rnini "nomzod", "vazir" va h.k.larga, shak-shubhasiz, to'liq bo'shatib berdi. Bu so'zlar o'zbek tilidagi aylanma (muomala)dan mustahkam o'rin oldi va yaqin orada ularning o'z o'rinlarini boshqa so'zlarga bo'shatib berishiga ishonish nihoyatda qiyin.

dan, “soliq yuklamasi”ga nisbatan “soliqiy yuklama” yoki “soliq yuklamasi” iborolari tegishli jarayonning mazmun-mohiyatini o‘zida yanada to‘liqroq va to‘g‘riroq aks ettiradi.

Fikrimizcha, “soliq yuklamasi” iborasining o‘rniga “soliqiy yuklama” yoki “soliq yuklamasi” iboralaridan qay biri ishlatilishining maqsadga muvofiqligi prinsipial ahamiyatga ega bo‘lmagan masala hisoblanadi. Chunki Ona tilimiz grammatikasi qoidalari nuqtayi nazaridan ularning har ikkalasi ham, garchi shakl jihatidan bir-biridan biroz farqlansa-da, aslida ular bir xil ma’no-mazmunni anglatadi. Ular o‘rtasiga sira ikkilanmasdan, “tenglik” ishorasini qo‘yish mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, rasmiy ravishda taklif qilingan har ikkala variant (“soliqiy yuklama” yoki “soliq yuklamasi”)dan qay biri qo‘llanilishining maqsadga muvofiqligi, masalan, “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi”dagi “Asosiy tushunchalar” qismida bu iboralarining qay biriga ustuvor berilganligiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Agar ushbu hujjatning “Asosiy tushunchalar” qismida “soliqiy yuklama” yoki “soliq yuklamasi”dan biriga sharh berilgan bo‘lsa, uni hech ikkilanmasdan mamnuniyat bilan qabul qilmoq va moliya ilmining o‘ziga xos bo‘lgan navbatdagi haqiqiy yutug‘i sifatida e’tirof etmoq lozim. Shunday bo‘lsa-da, har ehtimolga qarshi, ma’lumot sifatida, quyidagini ta’kidlashni shart deb hisoblaymiz: ma’no va mohiyat, shakl va mazmun nuqtayi nazaridan ham tegishli hujjatlarda “soliq yuklamasi”ga nisbatan “soliqiy yuklama”ni ishlatish o‘rinli hisoblanadi.

Bu o‘rinda bizningcha, yana bir narsaga alohida e’tibor berish kerak. Gap shundaki, “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi”dagi “Asosiy tushunchalar” qismida “soliqiy yuklama” yoki “soliq yuklamasi” iboralaridan birining joy olishi va unga xalqaro andozalarga muvofiq izoh berilishi oldindan yetarli darajada puxta o‘ylanmasdan ilmiy va amaliy aylanma (muomala)ga kirib qolgan “soliq yuklamasi” iborasining aylanma (muomala)dan chiqib ketishi va uning o‘rniga ma’no-mazmun jihatidan to‘g‘ri bo‘lgan va o‘zida tegishli mazmun-mohiyatni mujassam etgan “soliqiy yuklama” yoki “soliq yuklamasi” iboralaridan birining kirib kelishini te-

zlashtiradi. Shuningdek, bu narsa uning turli-tuman tarzda asossiz talqin qilinishiga ma'lum darajada chek qo'yadi.

5.2. Soliq yuklamasi: nima u?

Sarlavhaning bunday shakl va mazmunda qo'yilganligidan hayratga tushsangiz, tushing-gu, lekin taajjublanmang. Buning sababi bor. Chunki keyingi yillarda soliq yuklamasi to'g'risida ko'p gapirilayapti. U to'g'risida o'z munosabatini bildirmaydiganlar safi tobora toraymoqda. Aksincha, unga nisbatan o'z fikrini bildiruvchilar soni esa ortib borayotir. Albatta, buni tabiiy hol sifatida e'tirof etish mumkin. Chunki har birimiz – soliq to'lovchimiz. Shu bois, jumladan, o'zimizning gardanimizga yuklanayotgan soliq yuklamasiga nisbatan befarq qarashga ma'lum ma'noda haqqimiz yo'q. Shuning uchun munosabat bildirganimiz ma'qul.

Ma'qullikka ma'qul-ku-ya, faqat masalaning bir "lekin"i bor-da!? Bu o'rindagi "lekin" shundan iboratki, soliq yuklamasiga nisbatan munosabat bildirayotgan paytimizda, eng avvalo, uning o'zi nima ekanligini anglashimiz kerak, nimaligidan boxabar bo'lmog'imiz lozim. Aks holda, hech bo'lmaganda, o'rni kelganda "er chizib", "izza bo'lib", "peshonani ti-rishtirib", "aftni burishtirib", xijolatsifat vaziyatlarning biriga tushib qolishimiz – turgan gap.

Endi "Soliq yuklamasi. Nima u", - degan aniq va qisqa savolni o'z-o'zimizga beraylik-da, javobni topish uchun tegishli manbalarga murojaat qilaylik.

Taajjublar bo'lsinkim, ana shu aniq va qisqa birgina savolimizning turli manbalardagi javobi – turlicha, xilma-xil, rang-barang. Eng yumshoqroq qilib aytganda, bir joyda savolimizning javobi "soliqlarning daromadga nisbati" tarzida aks ettirilgan bo'lsa, boshqa bir joylarda esa "soliqlarning foydaga", "soliqlarning yalpi ichki mahsulotga", "soliqlarning milliy daromadga", "soliqlarning qo'shilgan qiymatga", "soliqlarning yangidan yaratilgan qiymatga", "soliqlarning tannarxga" va h.k.larga nisbati tarzida ifodalangan.

Shuningdek, “Soliq yuklamasi. Nima u”,- degan savolning javoblaridan birida suratda “hisoblangan soliqlar” qayd etilgan bo’lsa, boshqalarida “to’langan soliqlar”, “hisoblangan va to’langan soliqlar”, “soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar”, “soliqlar, to’lovlar, yig’imlar, ajratmalar”, “soliqlar va boshqa maqsadli fondlarga ajratmalar” va h.k.lar o’z ifodasini topgan.

“Soliq yuklamasi. Nima u”,- degan savolning javobini izlab, topgan “yutug’i”miz shu bo’ldiki, javob mualliflarining aksariyati uni nisbatning ifodasi ekanligini e’tirof etishdan o’zga choralari qolmagan. Ular kelgan yagona to’xtam – ana shu. Lekin, ming afsuski, yagona to’xtamga kelingan nisbatni aks ettiruvchi suratda ham, maxrajda ham – tayin yo’q.

Shunday ekan, surati va maxrajining tayini bo’lmagan nisbatdan iborat bo’lgan “Soliq yuklamasi. Nima u?”,- deya berilgan savolga bu tarzda “o’zbekona” javoblarning kimga keragi bor?! Ular Siz bilan bizni, hech bo’lmaganda chalg’itmaydimi? Noto’g’ri yo’llarga boshlamaydimi? Asossiz xulosalarning chiqarilishiga va qarorlarning qabul qilinishiga olib kelmaydimi?

Shu munosabat bilan aytib qo’yaylik: “Soliq yuklamasi. Nima u”,- degan “birlik”da berilgan savolga yuqoridagi tarzda “ko’plik”da berilgan “o’zbekona” javoblarga – fanimiz aslida muhtoj emas. Ularni aslo fanimizning yutug’i, deb bo’lmaydi. Aksincha, ular fanimiz fojeasidir. Chunki bunday “javoblar” fanimizning yuksalishiga emas, balki uning tanazzuliga xizmat qiladi.

Holbuki, “Soliq yuklamasi. Nima u”,- degan savol aniq va lo’ndajavobiningtopilganiga bir nechayilemas, balki bir necha asr bo’lgan. Mana u javob: mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) tarkibidagi soliqlar miqdori (hajmi)ning yalpi ichki mahsulot miqdori (hajmi) ga nisbati soliq yuklamasi, deyiladi. Afsuski, bu ta’rif jahon amaliyoti va fanida umume’tirof etilgan ta’rif bo’lishiga qaramasdan, u “izlanish”larimizda, asossiz va sabablarsiz, turlicha talqin qilinmoqda. Ularda soliq yuklamasini pasaytirish (optimallashtirish) muammosi osongina, hech qanday mehnat talab etilmasdan, xizmat

stoli atrofida, soliq yuklamasini hisoblash tartibini biroz o'zgartirish orqali, matematik yo'l bilan "isbotlanib", "muvaffaqiyatli" hal etilmoqda. Bunday "kashfiyot" orqali qo'lga kiritilgan "yutuq"ning kimga kerakligi xususida sira o'ylab ko'rayotganimiz yo'q.

Soliq yuklamasini hisoblash tartibini o'zgartirish orqali uning og'irligini kamaytirish yoki aksincha, ko'paytirish uchun katta aql talab etilmaydi. Buning uchun maxraj o'zgarmas bo'lganda – suratni o'zgartirishning o'zi kifoya. Yoki aksincha, surat o'zgarmas bo'lganda, maxrajning o'zgartirilishi – yetarli va h.k.

"Soliq yuklamasining nima ekanligini ifodalovchi yuqoridagi ta'rif makro darajadagi ta'rif hisoblanadi. U mikro darajadagi (tarmoq, ma'lum bir mintaq, iqtisodiy tuman yoki alohida olingan korxona va h.k.lar doirasidagi) soliq yuklamasini ifoda eta olmaydi", - deguvchilar oramizda ko'plab uchraydi. Shu bois, ularga qarata quyidagilarni qayd etmoqchimiz: bu tarzda bildirilgan "e'tiroz", masalan, butun dunyoda qabul qilingan va "Uchburchakning yuzi asosi bilan balandligi ko'paytmasining yarmiga teng", degan qoidaning O'zbekistonga to'g'ri kelmasligiga qaratilgan "e'tiroz" bilan mohiyatan bir xil. Shuning uchun ikkinchi "e'tiroz"ni bildirishga hech kimning haddi sig'mayotgan bir paytda, ayrimlarning birinchi "e'tiroz"ni bildirishda alohida "jonbozlik" ko'rsatayotganlariga "hayron"miz.

Nahotki, mikro darajadagi soliq yuklamasi xususida gap ketganda surat va maxrajda, qanday atalishidan qat'iy nazar yuqorida keltirilgan makro darajadagi ta'rifning surati va maxrajiga mazmunan va mohiyatan to'liq mos keluvchilar aks ettirilishini idrok etish shunchalik qiyin bo'lsa?

Yana bir holat: "izlanish"larimizda soliq yuklamasiga nisbatan "soliq yuklamasini hisoblash", "soliq yuklamasini aniqlash", "soliq yuklamasini baholash" iboralari va shunga o'xshash yana bir qancha so'zlar birikmasi ishlatilmoqda. Ishlatilgani – yaxshi-ku-ya?! Lekin ular o'rtasiga, hech qanday izohlarsiz yoki sabablarsiz, "tenglik" belgisining qo'yilayotganligi "chatoq"-da!

Masalaga bunday yondashish “tadqiqotchi”ni, sira o’ylab o’tirmasdan “jar” yoqasiga olib borib qo’yishi – mutlaqo aniq. Shu bois, gapni ko’paytirmasdan, qisqacha quyidagini qayd etmoqchimiz: soliq yuklamasini hisoblash orqali uning og’irlik darajasi aniqlanadi; og’irlik darajasi aniqlangan soliq yuklamasiga qarab unga baho beriladi.

Shuningdek, “umumiy soliq yuklamasi”, “haqiqiy soliq yuklamasi”, “real soliq yuklamasi”, “sof soliq yuklamasi”, “jamlangan soliq yuklamasi”, “egri (bilvosita) soliqlar bo’yicha soliq yuklamasi”, “to’g’ri (bevosita) soliqlar bo’yicha soliq yuklamasi”, “alohida olingan soliq bo’yicha soliq yuklamasi” va h.k. shunga o’xshash tarzdagi so’z birikmalarini ishlatishda ham ehtiyot bo’lmoq lozim. Chunki ularda ishlatilayotgan har bir so’zning o’ziga xos nozik, qaltis joylari mavjud. Ular Siz bilan biz nazarda tutayotgan “narsa”ni o’zida aks ettir-masligi mumkin.

Soliq yuklamasi ko’pchilik o’ylaganidek, to’g’ri ma’nodagi og’irlik o’lchovi emas. U ma’lum darajada ko’chma ma’nodagi og’irlik o’lchovidir. Uni to’g’ri ma’nodagi og’irlik o’lchovining birliklari bo’lgan tonna, sentner, kilogramm yoki grammlarda ifodalab bo’lmaydi. Soliq yuklamasi nisbatning ifodasi bo’lganligi uchun u koeffitsiyentda yoki foizda ifodalanishi mumkin. Amaliyotda soliq yuklamasining og’irligini foizda aks ettirish qabul qilingan.

Bu yuklama og’irlik darajasining qandayligiga bog’liq ravishda soliq to’lovchi “xonavayron” bo’lishi, “sinish”i, kasodga uchrashi va aksincha, “ko’klarga parvoz” qilishi ham mumkin. Oxir-oqibatda “moliyaviy taqdir”imizning qanday bo’lishini ham ko’p hollarda, shu belgilab beradi. Shunday ekan, uning aslida nima ekanligiga nisbatan befarq bo’lmaylik.

Alqissa, boshqa har qanday fan singari moliya ilmiga ham aniqlik yarashadi. Shu narsa uni “bezab” turadi. Aniqliksiz uning taraqqiyotini tasavvur etish ham mumkin emas. “Unday desak ham bo’laveradi, bunday desak ham bo’laveradi”,- qabilida ish tutish – fanimiz kushandasi. “Mulla bilganini o’qiydi” – bu o’rinda faqat nochorlik alomati sifatidagina qabul qilinishi mumkin.

Moliya ilmi sohasida qalam tebratayotganlar barchasining niyati bir xil – fanimiz taraqqiyotiga xolisona, munosib va foydali hissa qo'shish. Shunday ekan, uni har birimiz o'z qarichimiz bilan o'lchamasdan, fanning umume'tirof etilgan o'lchanadigan qarichlari bilan o'lchaylik!

5.3 Soliq yuklamasi: aniqlanish tartibi, darajasi, kamaytirishning nimalarga bog'liqligi, taqsimlanganligi

O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, uning rivojlanish sur'atlari, iqtisodiyotning hozirgi ahvoli, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan mavjud muammolar to'g'risida mulohaza yuritilayotganda va bu muammolarning yechimi izlanayotgan paytda, ko'pchiligimiz beixtiyor «Iqtisodiyotning gardaniga yuklangan soliq yuklamasi og'ir. Hamma balo ana shunda. Uning og'irligini keskin kamaytirish kerak. Bunga erishsak, olam guliston! Qolgan hammasi o'z-o'zidan hal bo'lib ketadi!» degan «tayyor retsept»ga ko'nikib qolayapmiz. Soliq yuklamasining og'irligini keskin kamaytirishni nazarda tutgan holda «Soliq tizimini isloh qilmasdan turib iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligiga erishish mumkin emas!» deb «bong» urayapmiz. Bunday «bong»lar ayrimlarning qulog'iga moydek yoqayapti. Yon-atrofga bundoq astoydil qaramasdan iqtisodiyotimizni «davolash» maqsadida «diagnoz»larni qo'yib tashlayapmiz.

Ishonchingiz komil bo'lsin, bunday «diagnoz»lardan iqtisodiyotimiz «shifo» topayotgani yo'q. Iqtisodiyotimizdagi soliq yuklamasining darajasiga nisbatan «diagnoz»ni qo'yishdan yoki «tayyor retsept»ni berishdan oldin bir-ikki «narsa»larni aniqlashtirib olish kerak. Eng avvalo, «Soliq yuklamasi» deganda nima tushuniladi va u qanday o'lchanadi», - degan savolning javobiga ega bo'lmoq lozim.

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) tarkibidagi soliqlar miqdorining yalpi ichki mahsulot miqdori (hajmi) ga

nisbati soliq yuklamasi, deyiladi⁸². Unga boshqacha ham ta'rif berish mumkin: davlat xarajatlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatiga soliq yuklamasi, deyiladi⁸³. Garchi bu keltirilgan ta'riflar bir-biridan shaklan biroz farq qilsada, ularning har ikkalasi mohiyatan bir narsani, ya'ni solik yuklamasining mazmunini xarakterlaydi (belgilab beradi)⁸⁴.

Soliq yuklamasi ko'pchilik o'ylaganidek, to'g'ri ma'nodagi og'irlik o'lchovi emas. U ko'chma ma'nodagi og'irlik o'lchovidir. Uni to'g'ri ma'nodagi og'irlik o'lchovining birliklari bo'lgan tonna, sentner, kilogramm yoki grammlarda ifodalab bo'lmaydi. Soliq yuklamasi nisbatning ifodasi bo'lganligi uchun koeffitsiyentda yoki foizda ifodalanishi mumkin. Amaliyotda soliq yuklamasining og'irligini foizda aks ettirish qabul qilingan.

Ko'pchilik hollarda soliq yuklamasi ikki xil tarzda (usulda) hisoblanadi (o'lchanadi). Birinchi holda soliq yuklamasini hisoblashda faqat soliqlarning sof miqdori inobatga olinadi. Ikkinchi holda esa soliqlarning tarkibiga boshqa ijtimoiy ajratmalar yoki boshqa maqsadli fondlarga ajratmalar ham qo'shib hisoblanadi⁸⁵. Bularning har ikkalasi soliq yuklamasini aniqlashdagi nisbatning (kasrning) suratini tashkil etgan holda uning maxraji esa ikkala holda ham bir ko'rsatkichga – YaIMning miqdoriga (hajmiga) teng bo'lishi kerak.

Ko'rinib turibdiki, nisbatning suratida ikki xildagi ko'rsatkich (biri kichik, ikkinchisi esa katta) aks etishi natijasida, bunday holatlarda ikki xil tarzda o'lchangan (hisoblangan) soliq yuklamasining darajasi (og'irligi) ikki xil bo'lishi tabiiy.

⁸² Afsuski, bu ta'rif jahon amaliyoti va fanida umume'tirof etilgan ta'rif bo'lishiga qaramasdan, o'zbekistonlik ayrim iqtisodchi olimlarning izlanishlarida asossiz sabablarsiz, turlicha talqin qilinmoqda. Ular tomonidan soliq yuklamasini pasaytirish (optimallashtirish) muammosi osongina, hech qanday mehnat talab etilmasdan, xizmat stoli atrofida, soliq yuklamasini hisoblash tartibini biroz o'zgartirish orqali, matematik yo'l bilan "isbotlanib", "muvaqqiyatli" hal etilmoqda.

⁸³ Bu ta'rifning kuchsiz yoki aniqlashtirishni talab etuvchi joyi qayerda?

⁸⁴ Nima uchun?

⁸⁵ Nega shunday qilinadi? Buning sabablari nimalardan iborat?

Soliq yuklamasining og'irligini faqatgina mamlakat miqyosida emas, balki alohida olingan tarmoqlar, hududlar, korxonalar yoki alohida olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ham aniqlash mumkin. Buning uchun soliq yuklamasi og'irligini o'lchashning umumiy tartibiga rioya qilish kerak. Bu yerda soliqlar, ijtimoiy yoki boshqa maqsadli jamg'armalarga ajratmalarning miqdorini aniqlashda unchalik muammo bo'lmaydi. Faqat tarmoq, hudud, korxona yoki alohida olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar doirasida YaIMni aniqlashda ba'zi bir muammolar bo'lishi mumkin⁸⁶.

"Soliq yuklamasi" deganda nima tushuniladi va u qanday o'lchanadi?", - degan savolning javobiga ega bo'lgandan so'ng endi "Soliq yuklamasining og'irligi qanday?", - degan savolga ham javob bermoq lozim.

Statistik ma'lumotlardan foydalangan holda keyingi yillarda mamlakatimizdagi soliq yuklamasining og'irligi 25-30% atrofida ekanligini aniqlashimiz mumkin. Bu O'zbekiston YaIMning shuncha qismi soliqlarga to'g'ri keladi, demakdir. Bu holat boshqa mamlakatlarda qanday? Mana ular: Daniyada – 60,0%; Shvetsiyada – 58,4%; Norvegiyada – 55,3%; Finlyandiya – 53,1%; Belgiya – 51,5%; Gollandiyada – 51,4%; Avstriyada – 47,5%; Portugaliya – 45,7% va hokazo⁸⁷.

Bu raqamlarni (faktlarni) keltira turib, biz bu o'rinda «Bizda soliq yuklamasi og'ir, deb nega dod solayapsiz? Bundoq tevarak-atrofga qarasangizchi?!» demoqchi emasmiz. Ularni qayd etishdan maqsadimiz hozircha quyidagi savolga javob topish: soliq yuklamasining og'irligi O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardosh emasligida «klyuchevoy rol»ni o'ynayotgan ekan, nega yuqorida biz keltirgan davlatlarning

⁸⁶ Bu muammolar nimalardan iborat? Ularni qanday qilib hal etish mumkin?

⁸⁷ Bu raqamlar ma'lum bir sanadagi holatni o'zida aks ettiradi. Ularni qotib qolgan yoki o'zgaraydigan raqamlar sifatida e'tirof etmang. Hayotning o'zi doimo o'zgaruvchan bo'lganligi uchun bu raqamlar ham o'zgarib (oshib yoki pasayib) turishi mumkin. Shunday bo'lishiga qarmasdan gap bu yerda ayrim xorij mamlakatlarida soliq yuklamasining nisbatan ancha yuqoriligi va bu narsaning ular iqtisodiy hayotida bizdagidek o'tkirlik kasb etmayotganligi xususida ketayapti.

iqtisodiyoti raqobat, degan narsani nazar–pisand qilmayapti? Gap boshqa joyda emasmikan, nima dedingiz?

Siz bilan bizga qo'yib bersa, soliq yuklamasining og'irligi qancha past (kam) bo'lsa, shuncha yaxshi. Axir biz ham tirik jonmiz. Yengillik kimga yoqmadbi? Lekin masalaning boshqa tomonlari ham bor-ku! Ularni inobatga olmaymizmi? Hech bo'lmaganda insof bilan yana bir masalaga aniqlik kiritib olaylik, ya'ni: "Soliq yuklamasining og'irligi qay darajaga yetgunga qadar chidab turish mumkin?"

To'g'risini aytib qo'yaqolaylik: masala bu shaklda ko'ndalang qo'yilganda «Nimasini aytasiz? Soliq yuklamasining og'irligi «bir gramm» bo'lganda ham chidab bo'lmaydi!» deguvchilar ko'plab topiladi. Hamon «O'z peshona terim bilan topgan va ona sutidek halol bo'lgan daromadimning bir qismini soliqlar shaklida nega davlatga berishim kerak?» degan fikrda bo'lgan yoki shunday kayfiyatda yurganlar ham oramizda yo'q emas.

Bundan tashqari "Soliq yuklamasining og'irligi qay darajaga yetgunga qadar chidab turish mumkin?" degan savolning javobi izlanayotgan paytda alohida olingan mamlakat iqtisodiyotining umumiy ahvoli ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Biz bu yerda "alohida olingan mamlakat iqtisodiyotining umumiy ahvoli" deganda, oddiy so'zlar bilan aytiladigan bo'lsa, shu mamlakat iqtisodiyotining "baquvvatligi" yoki aksincha, "nimjonligi"ni nazarda tutayapmiz. Tabiiyki, bunday vaziyatda iqtisodiyoti baquvvat bo'lgan mamlakat nisbatan og'irroq bo'lgan soliq yuklamasini ko'tarishga tayyor bo'lsa, aksincha, iqtisodiyoti nimjon bo'lgan mamlakatda soliq yuklamasi past bo'lgan darajada ham uning tizzasi qaltirashi mumkin. Shu bois, "Soliq yuklamasining og'irligi qay darajaga yetgunga qadar chidab turish mumkin?" degan savolga barcha mamlakatlarning uchun yagona bo'lgan "retsept"ni berib bo'lmaydi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan eng umumiy tarzda fanda soliq yuklamasining og'irligi 30-33%ga yetgunga qadar uning bu darajasi (ayrim mamlakatlarning tajribasi bundan mustasno) ishlab chiqarishning o'sish sur'atlariga sal-

biy ta'sir ko'rsatmasligi isbotlangan. Buning aynan shunday ekanligini amaliyot ham tasdiqlaydi. Xullas, oddiy tilda ayt-sak, soliq yuklamasining og'irligi 30-33%ga yetgunga qadar chidasa bo'ladi.

Lekin shu o'rinda siz bilan biz havas qilayotgan va yuqori-da keltirilgan davlatlardagi soliq yuklamasining og'irlik da-
rajasiga yana bir bor e'tibor berilishini istardik. 60,0%lik soliq yuklamasini ko'tarib kelayotgan daniyaliklarning joni toshdanmikan, 58,4%lik soliq yuklamasiga ega bo'lgan shvedlar nega dod solishmayapti, 55,3%lik soliq yuklamasi-ning og'irligini ko'tarib kelayotgan norvegiyaliklarning og'zi-ga talqon solinganmi? Nega 53,1%lik soliq yuklamasiga ega bo'lgan finlar «oh-voh» chekishmayapti? Har birlari 50%dan ortiqroq darajadagi soliq yuklamasining ostida bo'lgan gollandlar va belgiyaliklar nega jim?...

Oldimizda bu savollar ko'ndalang bo'lganda «g'iq» deyaol-masdan qolsak-da, baribir o'z bilganimizdan qolmaymiz. «... oldin soliq yuklamasining og'irligini keskin kamaytirishimiz kerak!» degan fikrni ilgari suraveramiz. Bunday fikrni ilgari surish avjga chiqqan paytda «Bundan 10-15 yil oldin soliq yuklamasining og'irlik darajasi qanday edi? Hozir qancha? Og'irlik oshibdimi yoki kamayibdimi? Kamaygan bo'lsa qan-chaga kamayibdi? Hadeb kamaytiraversak, buning oqibati nimalarga olib kelishi mumkin? Doimiy ravishda kamayti-raverishning o'zi iloji bormi yoki yo'qmi?» va hokazo shunga o'xshash savollarga oldin javob berib, keyin shunday fikrni ilgari surishimiz kerakligi «negadir» esdan chiqadi.

Bir vaqtning o'zida oldin biz yuqorida keltirgan mam-lakatlar tajribasiga murojaat qilib, «Nega bularda soliq yuk-lamasi bunchalik og'ir-u, lekin ular hammasining nafasi ichida? Ularning tadbirkorlari «Soliq yuklamasining og'irligi burnimizni yerga tegdirib qo'yayapti!» deb nega dod solish-mayapti? Nega ularda «Soliq yuklamasini keskin kamaytirish kerak!» degan takliflar bilan chiqilmayapti? degan savollar ustida bosh qotirib, undan so'ng «maslahat» berilsa, yaxshi bo'lmasmidi?

Soliq yuklamasi og'irligining keskin kamaytirilishi «dardimizga davo» ekan va biz shuni istar ekanmiz, o'zimizni-o'zimiz hurmat qilib, do'ppimizni astagina pastga olib qo'yib, hech bo'lmaganda, «Soliq yuklamasining og'irligini kamaytirish nimaga bog'liq ekan?»⁸⁸ degan savolga javob istasak, asakamiz ketmas. Ha, aytganday, soliqlik yuklamasining og'irligini kamaytirish nimaga bog'liq?

Bu savolning ming bitta javobi bor. Lekin biz bu o'rinda ularning hammasini sanab berib, boshingizni qotirmoqchi emasmiz. Eng asosiy va muhim javobni bermoqchimiz: soliqlik yuklamasining og'irligini kamaytirish byudjet xarajatlarining hajmiga (miqdoriga) bog'liq. Boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda byudjet (davlat) hisobidan qilinadigan xarajatlarni kamaytirishga rozi bo'lsak, davlat ham o'zining soliqlik siyosatida xo'jalik yurituvchi subyektlar (soliqlik to'lovchilar) zimmasiga yuklangan soliqlik yuklamasini kamaytirish (pasaytirish) bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshiraveradi. Matematik tilda aytadigan bo'lsak, soliqlik yuklamasining og'irlilik darajasi va byudjetdan qilinadigan xarajatlarning hajmi (miqdori) o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik bor. Byudjetdan katta hajmdagi xarajatlarning qilinishi, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda soliqlik yuklamasining nisbatan og'ir bo'lishini taqozo etadi va aksincha.

Shunday ekan, «Soliqlik yuklamasining og'irligini keskin kamaytirish kerak!» deyayotganlar endi mantiqning tegishli qoidalariga rioya qilgan holda «Byudjetdan qilinayotgan xarajatlarni ham keskin kamaytirish kerak!» deb aytishlari lozim. Bunday deyishga asoslari bormikan? Ayting, shu kecha-yu kunduzda byudjetdan qilinayotgan xarajatlarning qay biri mutlaqo keraksiz? Qaysi birini keskin qisqartiraylik?

Byudjetdan maorif sohasini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni keskin qisqartiraylikmi? Unda ilm dargohlarining holi ne kechadi? Ziyo tarqatayotgan, «ko'r» ko'-

⁸⁸ Savol bu tarzda qo'yilganda soliqlik yuklamasining og'irligini kamaytirish ish stoli atrofida o'ylab topilgan va uni aniqlash uchun «falonchini qo'shish yoki pistonchini ayirish kerak» qabilidagi sun'iy javoblarga bog'liq emas.

zimizni ochayotgan muallim-ustozlarimizning ko'ziga qanday qaraymiz? Shundoq ham ilm dargohlarining ahvoli, mustaqillik yillarida keskin va hayron qolarli darajada ishlar qilingan bo'lishiga qaramasdan⁸⁹, hamon ko'ngildagidek bo'lmagan va undagi xodimlarning qilgan mehnatlari yetarli darajada munosib taqdirlanmayotgan bir paytda bu ishni qilsak qanday bo'larkan? O'zimizning oyog'imizga o'zimiz bolta urmasmikanmiz?

Balki sog'liqni saqlash sohasini byudjetdan moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni keskin qisqartirish kerakdir? Unda davolanish maskanlaridagi ahvolni qanday yaxshilaymiz? Shifo topishimiz uchun kerak bo'ladigan tibbiyot xodimlarini qayerdan topamiz? Turli obyektiv sabablarga ko'ra moliyaviy ahvoli nochorlar hayot uchun jon talashib yotgan bir paytda oddiy, berahm, toshbag'ir tomoshabin bo'lib o'tiraveramizmi?

Bemorlar ustida murakkab operatsiyalar oddiy qaychi-pichoq bilan qilinmaydi. Bunday hollarda «kuf-suf» ham «yordam» bera olmay qoladi. Nima qilamiz? Padari buzrukvorimizni yoki jigarbandimizni ko'tarib xorijga chopamizmi? Qachongacha?!...

Bu va shunga o'xshash boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan tibbiyotning zamonaviy asbob-uskunalarini shu maqsadlar uchun byudjetdan qilinayotgan xarajatlarni keskin

⁸⁹ Mustaqillik sharofati ila yaratilgan hozirgi sharoitni sobiq Sho'rolar davridagi quyidagilar bilan bir taqqoslang: qishlog'imizda "Iskra" nomli 33-sonli boshlang'ich maktab bo'lib, u bor-yo'g'i ikki sinfxonadan iborat edi. Sinfxonalarning har birida ikki qatordan partalar joylashtirilib, bitta sinfda uning 1-qatorida 1-sinf, 2-qatorida esa 3-sinf o'quvchilari, ikkinchi sinfxonada esa uning 1-qatorida 2-sinf va 2-qatorida 4-sinf o'quvchilari ta'lim olishardi. Ajratilgan 45 minutning yarmi 1-sinfga, qolgani esa 3-sinfga bag'ishlanardi. 2- va 4-sinf o'quvchilariga nisbatan ham xuddi shu tarzda "dars" o'tilardi. Sinfxonalar "pol" qilinmagani uchun tanafusdagi sho'xliklar evaziga chang, ayrim hollarda, shiftgacha chiqar va bir-birimizni tanimasdan qolardik. Maktabning tomi oddiy loy bilan suvalgani uchun bahor va qish oylarida "chakki" (tomchi) o'tmagan kun bo'lmardi. O'z qishlog'imizda kattaroq maktab binosi bo'lmaganligi uchun 5-8-sinfni qishlog'imizdan 5 km, 9-10-sinfni esa 7 km naridagi qishloqlardagi maktablarda yakun qildik (muallif xotiralaridan).

qisqartirish evaziga sotib olishning iloji yo'q. Sehrgarlik qilish esa, qo'limizdan kelmaydi.

Madaniyat, sport va ommaviy axborot vositalari uchun mo'ljallangan xarajatlarni keskin qisqartiraylikmi? Bizda bu sohalarida bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalari to'liq amal qilishiga hali yetti qovun pishig'i bor. Ular inobatga olinadigan va shunga mos ravishda o'z holiga tashlab qo'yiladigan bo'lsa, hech kim kitob o'qimay qo'yadi. Teatrda hamma ham kiravermaydi. Oldin o'z hisobidan pulini to'lab qo'yib, undan so'ng sport bilan shug'ullanish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Gazeta va jurnallarning oldiga yaqinroq boravermaymiz va hokazo.

Endi o'zingiz bir tasavvur qilib ko'ring: yuqoridagilardan mahrum bo'lganlarning holi ne kechadi? Bu yorug' dunyoda madaniyat, sport va ommaviy axborot vositalarining «meva»laridan bebahra yashayotgan mavjudodni kim deb atash mumkin? Axir yashashdan maqsad faqat qorin to'ydirish emas-ku!

Ana shunday sharoitda madaniyat, sport va ommaviy axborot vositalarini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning keskin qisqartirilishi ular faoliyati doirasi-ning ham keskin qisqarishiga va bu esa, o'z navbatida, mafkuraviy bo'shliqning vujudga kelishiga olib kelmaydimi? Mafkuraviy bo'shliq bor joyda qanday xavfning vujudga kelishi mumkinligiga aqlimiz yetsa kerak. Bunday bo'shliqni kimlar egallashga shay turganligi hammamizga ayon. «Xarajatlarni keskin qisqartirish kerak» deyaotganda masalaning bu jihatlari hisobga olmaymizmi?

Fanni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni keskin qisqartirsak nima bo'larkan? Har qanday jamiyat taraqqiyotini fanning rivojlanishi belgilab beradi. Bu hech kimga sir emas. Buning aynan shundayligi isbot ham talab etmaydi. Rivojlangan mamlakatlar taraqqiyot darajasining negizida nima yotibdi? «Yapon mo'jizasi»ning asosini nima tashkil etadi? Janubi-sharqiy Osiyodagi bir necha mamlakatlar nisbatan qisqa vaqt ichida «Osiyo sherbachchalari» nomiga nimaning evaziga erishdi?

Savollar bu tarzda qo'yilganda «Fan!» deb javob berishdan o'zga ilojimiz yo'q. O'sha mamlakatlarda fanning taraqqiy etishi oddiy qo'shiq aytib o'tirish evaziga bo'lmagandir? Qisqasi, ulardagi fan-texnika taraqqiyoti otni kallasidek mablag'ni sarflash evaziga qo'lga kiritilgan. Shu maqsad uchun sarflangan mablag'lar miqdorining kattaligini bilish sizga nasib etsa, «Yopiray» deb yoqa ushlashingiz turgan gap.

Byudjetdan ijtimoiy ta'minot maqsadlari uchun mo'ljallangan mablag'larni keskin qisqartiraylikmi? Balki aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar narxidagi farqni byudjetdan qoplash amaliyotiga chek qo'yish kerakdir? Yoki ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar berishni to'xtatish lozimdir? Hali oyog'imiz erdan uzilmagan bo'lsa, osmon-u falakka uchib ketmagan, shu zaminda zahmatkash O'zbekiston xalqi bilan birgalikda nafas olayotgan, kalon-dimog'likdan nariroq yuradigan bo'lsak va ozgina bo'lsa-da o'zimizni O'zbekistondagi haqiqiy vaziyatdan boxabar bo'lgan inson. deb hisoblasak, yuqoridagi maqsadlar uchun byudjetdan qilinadigan xarajatlarni keskin qisqartirish kerak, degan «original taklif»ni berishga tilimiz bormasligiga mening ishonchim komil.

Biz uchun balki byudjetdan iqtisodiyotga va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga qilinayotgan xarajatlar kerak emasdir? Fuqarolarning ma'lum bir guruhi (chunki bu ish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi) o'zining xususiy yoki shaxsiy manfaatiga mos keladigan biznesni rivojlantirish bilan o'zini ovutsa, pulni pulga urishtirib, pul tug'dirish bilan band bo'lsa, unda O'zbekistonning umum-milliy, umumdavlat va umumxalq manfaatlariga mos keladigan ishlarni kim qiladi? Ishonchingiz komil bo'lsin, chetdan bunday ishlarni Sem yoki Jorj amaki biz uchun kelib, tekinga qilib bermaydi. O'zbekistonning ana shunday manfaatlariga «Mana men xizmat qilaman!» deb, belini mahkam bog'lab turgan mard xorijda yo'q. «Ey, xudo! Ishqilib O'zbekistonning iqtisodiyoti gurkirab o'ssin! O'zbekiston gullab yashnasin!» deb iltijo qilayotgan xudojo'y ham o'zga yurtlarda, deyarli, topilmaydi.

Byudjet xarajatlarning ma'lum bir qismi davlat hokimiyati, boshqaruv va huquq-tartibot hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlashga sarf qilinayapti. «Bor-e!» deb shu xarajatlarni keskin qisqartirib yuborsak, nima bo'larkan? Shu narsalar (organlar) bizga kerakmi o'zi? Ularning bahridan kechsak, ertasi kundan boshlab aqlimiz kirib, musichai-beozordek bo'lib, o'rnatilgan tartib-qoidalarga ko'r-ko'rona itoat qilishni boshlaymizmi? O'zimizning zimmamizga yuklatilgan majburiyatlarimizni itoatkorona, qulog'imizni sira qimirlatmasdan, «G'iring» demasdan bajaranimizmi? Boshqa birovlarining haq-huquqlarini paymol qilishni taqa-taq to'xtatamizmi? O'zgalarning haqiga xiyonat qilish, jinoyatchilik va hokazolar barham topadimi?...

Yoki shu organlarga byudjetdan mablag' ajratmasdan, ularni «samofinansirovanie»ga (o'z-o'zini moliyalashtirishga) o'tkazish maqsadga muvofiqdir? Unda siz bilan bizning sho'rginamiz qurimaydimi? Qordan qochib, yomg'irga tutilmaymizmi? Yuqoridagi organlarning oldiga borib qo'shiq aytib bersak, bizning hojatimizni chiqarib bermas?!

Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasini yaratish ham byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu zaxira jamg'armasining nima uchun mo'ljallanganligidan bexabarlariga sodda qilib aytib qo'yaylik: jamg'arma ehtiyot shart uchun, ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplashga, jumladan, siz bilan bizni turli balo-qazolardan asrashga, tabiiy ofatlar natijasida ko'rgan zararlarimizning bir qismini operativ ravishda qisqartirishga mo'ljallangan. Axir dono xalqimizda «Yozda yopinchingni qo'yma, qishda o'zing bilasan!» deb bekorga aytilmagan-ku!

Buning ustiga yomg'irlar tufayli suv toshqini sodir bo'lganda o'zining shaxsiy jamg'armasidan 1,0 mln yevro miqdorida mablag' ajratib, «Xalqimning dardiga malham bo'lay!» deb oyog'ini qo'lga olib chopadigan Shumaxerlar bizda hali-hamon yo'q. Shuning uchun ham bu muammoni hal etish davlatning zimmasida. Hodisa sodir bo'lganda (avvalo, xudoning o'zi asrasin-u) siz bilan biz qo'lni cho'ntakka tiqib, «Endi nima qildik?» deb yoki ilojsizlikdan boshni qashib

o'tirganimizda, davlatning ham shunday holda ish tutishiga haqqi yo'q. U bunga tayyor turishi kerak va turayapti ham. Shunday paytda televideniye ekranlari orqali namoyish etilayotgan yoki gazeta sahifalarida bayon qilinayotgan va tabiiy ofatlar natijasida yillab chodirlarda hayot kechirayotgan yoki bir tog'ora toza va issiq suvga zor bo'layotgan xalqlarning ahvoliga (ularning umidsiz jovdiragan ko'zlariga) bir nazar solib qo'ysangiz, foydadan xoli bo'lmas.

Byudjet xarajatlarining ma'lum bir qismi mamlakatimizning mudofaa qudratini mustahkamlashga ham sarf qilinayapti⁹⁰. Bu xarajatlarni keskin qisqartirish niyatida bo'lganlar yurtimizdagi tinch-osoyishtalikka o'zidan o'zi erishilmayotganligini esdan chiqarmasligi kerak. Mamlakatda tinchlikni ta'minlash tinchlik xususida faqat xayol surish yoki va'z o'qish evaziga ta'minlanmaydi. Buning uchun chegara-sarhadlarimizni mustahkamlash, zamonaviy qurol-aslaha va texnika sotib olish, harbiy qo'shinlarimizning shaxsiy tarkibini baquvat qilib tayyorlash ham kerak. Bularning hammasi havodan olinmaydi. Ularga erishish kattagina miqdordagi «mulla jiring»ning shu maqsadlar uchun ajratilishini taqozo etadi.

Bugun har qanday nokas sarhadlarimizga tumshug'ini tiqa olmayapti. Har qanday zo'ravon chetdan kelib, bir tepib burnimizni qonata olmayapti. Yurtimizga xo'jayinlik qilmayapti. Ona-tuprog'imiz oyoq osti bo'lmayapti. «Ertaga nima bo'larkan?» deb tashvishga tushayotganimiz yo'q. Tizginimizni o'zgalarning qo'lga berib qo'ymasdan, tinch-osoyishta hayot kechirayapmiz.

Mana, hozirgi bizning sharoitimizda soliq yuklamasining og'irligini kamaytirish eng avvalo, byudjetdan qilinishi lozim bo'lgan xarajatlarning miqdorini kamaytirishga bog'liqligi

⁹⁰ Bu xarajatlar har yili qabul qilinayotgan byudjet parametrlarida alohida tarzda aks etmagan bo'lishiga qaramasdan, o'quvchilarimiz ba'zi bir sabablarga ko'ra unga alohida "qiziqish" bilan qarayotirlar. Bunday vaziyatda har qanday oilaning (davlatning) o'ziga xos "siri" borligi, hamma narsani ham "dasturxon" qilaverish maqsadga muvofiq emasligi, uning boshqa tomonlari ham bor ekanligi, ayrim hollarda shunday ish tutishning nihoyatda "qimmat"ga tushib qolishi mumkinligi esdan chiqmasligi kerak.

va shu kecha-kunduzda ularni keskin qisqartirish nimalarga olib kelishi to'g'risidagi jaydari fikr-mulohazalarimiz ana shulardan iborat. Nazarimizda hozirgi kunda soliq yuklamasini kamaytirish uchun byudjet xarajatlarini keskin qisqartirishdan ko'ra undan-da muhimroq bo'lgan yana bir masalaga aniqlik kiritmoq lozim. Bu masala quyidagidan iborat: soliq yuklamasi soliq to'lovchilar o'rtasida qanday taqsimlangan?

Ming afsuski, bu savolga javob berayotib, «Soliq yuklamasi soliq to'lovchilar o'rtasida adolat tarozisiga muvofiq ravishda taqsimlangan» deya olmaymiz. Tilimiz bunga bormaydi. Bunday deyishga vijdonimiz ham yo'l qo'ymaydi. O'rni kelganda, uyalamiz ham. Shu tarzda javob bersak, bizning bu falsafamizga (safsatamizga) ko'pchilik ishonmasligi aniq.

Tevarak-atrofimizga sirtidan bo'lsa-da nazar tashlab hammaning ham bir xilda soliq to'lamayotganligini aniqlashimiz siz bilan bizdan unchalik ko'p aqlni talab etmaydi. Kuza-tishlar va tahlil qilishlar natijasida kimlarningdir qonunda belgilangan soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'liq to'lab qo'yayotganliklarini aniqlashimiz mumkin. Bu toifadagilar soliqni birovning haqi, deb bilishadi. Unga xiyonat qilish noinsoflikdan boshqa narsa emasligini ular allaqachon anglab yetishgan. Shuning uchun ham o'z harakatlari shunga monand ravishda qilishadi.

Ming afsuski, bu toifadagilarning safi keng emas. Shunday bo'lsa ham davlatimiz insof qilib kelayapti. «Boriga – baraka!» deyayapti. Bundaylarni xudoning o'zi yarlaqasin, ularning birini ming qilsin!

Ikkinchi toifadagilar qonunda belgilangan soliqlarning to'lash zarur ekanligini hamma vaqt ham xush ko'rishav-erishmaydi. Iloji bo'lgan joyda uni belgilanganidan kamroq to'lashga harakat qilishadi. Bu yo'lda turli-tuman «nag'ma-usul»lardan foydalanishdan tap tortishishmayti. Soliqlarni iloji boricha kamroq to'lash imkoni bor joyda ular o'zlarini jardan (tomdan) tashlashga tayyor. Ular soliqlarni iloji boricha kamroq to'lashning ming bir «variant»ini allaqachon topib qo'yishgan. «Ixtiro»lar yoki «kashfiyot»lar shu daraja-

daki, ayrim holda yoqangizni ushlab, qoyil qolmasdan o'zga ilojingiz yo'q.

Nadomatlar bo'lsinki, bu toifaga kiruvchi soliq to'lovchilarning soni anchagina⁹¹. Buni davlat bilsa-da, hamon chidab turibdi⁹². Ularning hech biri qon qaqshatilmayapti. Qatag'on qilinmayapti. «Bularga ham bir kun insof kirib qolar!» deb arg'amchini keng tashlab qo'yibdi. Bundaylarga xudoning o'zi insof bersin!

Uchinchi holdagilar soliq to'lash borasida qarg'ishga uchraganlardir. Bular zig'ircha soliq summalarini «falokat bosib» to'lab qo'ysalar, o'sha kecha ularga uyqu harom. Ular soliqlarni to'lamaslik uchun allaqachon qalovini qalashtirib qo'yanlar. Nima bo'lsa, bo'lsin, ishqilib soliq to'lamasalar bo'ldi. Konstitutsiyamizning 51-moddasida «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliq va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar» deb aks ettirilgan tartib yetti uxlab, ularning tushiga ham kirmagan. «Konstitutsion burch» degan tushuncha ulardan juda yiroqda. Soliqlarni to'lash ham qarz, ham farz ekanligi ular uchun begona. Dunyoda faqatgina o'limdan emas, balki soliqlarni to'lamaslikdan ham qochib qutilishning iloji yo'q ekanligi bular uchun bir tiyin.

Taassufki, bular ham oramizda yo'q emas⁹³. Shundaylarning borligidan ham davlat ogoh. Lekin ularning «xurmacha qiliq»larini bilsa-da, davlat hanuzgacha ularning

⁹¹ Ma'lum bir sanada mamlakatimizdagi bu "anchagina"ning qancha ekanligini bilish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlariga murojaat qilishning o'zi yetarli. Bu narsa Sizga qiyinlik qiladigan bo'lsa, u holda, ommaviy axborot vositalari, jumladan, "Soliq to'lovchining jurnali", "Soliq va bojxona xabarlari", "Soliq info" gazetolari orqali e'lon qilinayotgan materiallardan ham uning javobini topish mumkin. Bordi-yu, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qoshidagi tegishli Departamentning ma'lumotlari qo'lingizga tushib qolsa, vaziyatning qanchalik murakkabligi Sizga yanada aniqroq ma'lum bo'ladi-qoladi.

⁹² Bu fikrni "Davlat o'z funksiyalarini etarli darajada bajarmayotgan ekan-da!" mazmunida talqin qilmang.

⁹³ Bu tasdiq - quruq gap emas. Ular ham dalillarga asoslangan. Yoki Siz bunga shubha bilan qaraysizmi?

hiqildog'idan olayotgani yo'q. Solig'ini to'lamagani uchun ularning mol-mulkini musodara qilmayapti. O'zini esa olib borib «tiqib» ham qo'ymayapti⁹⁴. Nega? Chunki bu dunyo - hisobli dunyo. Davlatni laqillatayapman, deb o'ylamang. Shunday o'ylayotgan bo'lsangiz – chuchvarani xom sanabsiz. Bir kun kelib, baribir, hisob berasiz. Buni qaytar dunyo, deydilar. Hozircha, «Bundaylarning yuzini xudoning o'zi teskari qilsin!» deb turaylikchi, oqibati nima bo'larkin?

Soliq yuklamasining amalda taqsimlanishiga oid haqiqiy vaziyat ana shunday. Endi o'zingiz o'ylab ko'ring: bunday vaziyatda soliq yuklamasining asosiy og'irligi kimning zimmasida? Kim burni yerga tekkidek bo'lib, belini xam qilib, peshonasidan shoda-shoda terini to'kib, soliq yuklamasining asosiy og'irligini tortayapti-yu, kim taralla-bedod qilib yuribdi? Soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'liq to'lab kelayotganlar aslida solig'ini qisman to'layotgan yoki umuman to'lamayotganlar zimmasiga yuklanishi kerak bo'lgan soliq yuklamasini o'zlarining zimmalariga qo'shimcha ravishda olishmayaptimi? Bunday sharoitda quyidagi savolning kun tartibiga qo'yilishi tabiiy: soliq yuklamasi soliq to'lovchilar o'rtasida tekis taqsimlanganda vaziyat qanday bo'lar edi?

Savolning bu shakl va mazmunda qo'yilishi barcha soliq to'lovchilarning bir xil miqdorda (summada) soliq to'lashi kerakligini anglatmaydi. Oddiy tilda aytadigan bo'lsak, obyekтив ravishda cho'ntagi qappayganlar – ko'proq, cho'ntagi nochorlar esa – kamroq; boylar – ko'proq, kambag'allar esa – kamroq; salohiyati kuchlilar – ko'proq, salohiyati kuchsizlar esa – kamroq va hokazo soliq to'lashlari kerak. Shuning uchun ham soliq yuklamasining soliq to'lovchilar o'rtasida tekis taqsimlanishi soliqlar olinishining barchaning ahvolidagi bir xil ta'sir ko'rsatish orqali ifodalanadi. Boshqacha aytganda, soliq yuklamasining soliq to'lovchilar o'rtasida bir xil

⁹⁴ Buning ham o'ziga xos bo'lgan sabablari bor. Bir harakat qilib ko'ringchi, ular nimalardan iborat ekan? Shunday vaziyatning vujudga kelishini faqat moliya, soliq, sud, prokuratura organlarining kuchsizligiga yo'ymang! Bular mening vazifamga kirmaydi, deb o'zimizning tomoshabin bo'lib o'tirganimiz ham esdan chiqmasin.

taqsimlanishi ularning manfaatlariga bir xil darajada ta'sir ko'rsatishni anglatadi.

Soliq yuklamasining soliq to'lovchilar o'rtasida tekis taqsimlanishiga erishilsa, bu narsa birovning xonavayron bo'lishiga, boshqa birovning esa gullab-yashnashiga olib kelmaydi. Birovning burni yerga tegib, boshqa birovning dimog'i ko'kka yetmaydi. Birov ayshu-ishratda, boshqa birov esa g'amu-kulfatda yashamaydi. Birov pulga ko'milib, boshqa birov esa bir tiyinga zor bo'lmaydi.

Eng asosiysi, soliq yuklamasining soliq to'lovchilar o'rtasida bir tekis taqsimlanishi natijasida mamlakat miqyosida umumiy soliq yuklamasining tomonlar (davlat va soliq to'lovchilar) manfaatlariga (ahvoliga) ziyon yetkazmasdan pasaytirilishiga erishiladi. Bizga shu narsa kerak emasmidi?!

Shu o'rinda yana bir savolga aniqlik kiritaylik: soliq yuklamasining og'irligini hamma vaqt ham salbiy ma'noda talqin qilish o'rinlimi?

Biz shunga ko'nikib qolayapmiz. Soliq yuklamasi qancha yuqori bo'lsa, shuncha yomon va aksincha, deb o'ylayapmiz. Bizningcha, bunday emas. Bizning nazarimizda, soliq yuklamasining og'irligini faqat salbiy ma'noda talqin qiladiganlar uni hammaga «Ola-bo'ji» sifatida ko'rsatishga harakat qilayotganlar daryoga g'arq bo'layotganlarning oddiy xasga yopishishlarini eslatishadi. Yengilgina xas daryoga g'arq bo'layotganlarni qutqarib qola olmaganidek, o'rinsiz soliq yuklamasining darajasiga yopishaverish ham siz bilan biz kuyatotgan natijani bermaydi.

Shu o'rinda 25-30%li soliq yuklamasi og'irligining das-tidan «Dod!» deyayotganlar 50-60%li soliq yuklamasini mardlarcha ko'tarib, raqobatbardosh iqtisodiyotga erishgan-lardan o'rnak olsa, arzimaydimi? Shuning uchun zimma-mizdagi soliq yuklamasining og'irlik darajasini faqat salbiy ma'noda talqin etib, doim uning go'riga g'isht qalash insof-dan bo'lmasa kerak.

Va nihoyat, yuqoridagi tarzda mulohaza yuritishdan yoki “qissadan – hissa” nimadan ibrat? Buning boisi shundaki, yaqinda bir maqolani o'qib qoldim. Maqola muallifi mamlakat

aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik o'rtacha daromad 3000 AQSh dollaridan oshmayotgan mamlakatlar uchun soliq yuklamasining optimal darajasi 15% bo'lishi kerakligi, masalan, iqtisodiyoti «fenomenal» sur'atlar bilan rivojlangan Xitoyda soliq yuklamasining darajasi 36%dan 13%gacha pasaytirilganligi, bu masalada Gollandiyadan emas, balki yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'layotgan Qozog'iston, Armaniston, Tailand, Gonkong va boshqa shunga o'xshash mamlakatlardan o'rnak olishga (taqqoslashga) chaqirayapti.

Nazarimizda, bu mamlakatlardan soliq yuklamasini pasaytirish masalasida o'rnak olmasak, ular xafa bo'lishmas. Chunki ilojimiz yo'q. «Nega», deysizmi? Buning ming bir sababi bor. Bittaginasini aytib qo'yaqolaylik: soliq yuklamasining darajasini 13%gacha pasaytirgan Xitoyda har bir oilada, hech bo'lmaganda, 2 kishi (er va xotin) ishlab, bir kishi (farzand) «Yeyman!» deb og'zini ochib turgan edi. Bizdachi? Bir kishi (er yoki xotindan birovi) ishlab, o'rtacha 4-6 kishi (farzandlar va ...) shunday deb turibdi.

Eng muhimi, bu masalani hal etish jarayonida Prezidentimiz tomonidan doimo ta'kidlanib kelinayotgan va yana bir marta Konstitutsiyamiz qabul qilinganligiga 13 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan tantanada baralla yangragan «Oldimizda turgan barcha muammo va vazifalarni yechishda «Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun» degan teran ma'noli fikrni aslo unutmashimiz kerak» degan so'zlar har birimizning qulog'imizga qo'rg'oshindek quyilgan bo'lishi va hatti-harakatlarimiz shunga mos ravishda bo'lmog'i lozim.

Ma'zur tutasiz, shuning uchun ham soliq yuklamasining og'irligini siz aytganingizdek birdaniga keskin kamaytira olmaymiz. Bu masalada «Xo'rozqand xorijniki ekan!» deb yotib olib yalayverish bizga to'g'ri kelmaydi. Masalaning barcha tomonlarini puxta o'ylashimiz kerak. Hech bir narsani (taqdirni) e'tibordan chetda qoldirishga haqqimiz yo'q. Ipidan ignasigacha puxta hisob-kitob qilishimiz zarur. Undan so'ng hamma narsani, Prezidentimiz aytganidek, tarozining ikki pallasiga qo'yib, yetti o'lchab, bir kesishimiz kerak. Bu-

ning nomini soliq yuklamasini asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich pasaytirib boorish, deyiladi. Va biz shunday qilayapmiz ham.

Yana bir narsa. Bizning yuqoridagi fikrlarimizdan «O'zbekiston soliq tizimi ideal! O'rnatilgan soliq yuklamasining darajasiga oid hech qanday muammolar yo'q! Muallif soliq yuklamasining pasaytirilishiga qarshi! Eng samarali soliq siyosati yurgizilayapti!» degan xulosalar kelib chiqmasligi kerak. Bunaqangi fikrlarni bildirishdan biz juda ham yiroqmiz. Va yana «Muallifning o'zi soliq to'lamasa kerak-da! Beli og'rimaganning non eyishini ko'ring, qabilida ish tutibdi!» degan xayollarga ham bormang.

Beayb Parvardigor! Boz ustiga soliq tizimimiz, amaldagi soliq yuklamasi va soliq siyosati ham farishta emas. Ularning kuchsiz joylari, kamchilig-u, nuqsonlarining qayerda ekanligini o'zimiz juda yaxshi bilamiz. Bilmasak, Bildiradiganimiz bor. Bilishga harakat ham qilayapmiz. O'qiyapmiz. Tahlil qilayapmiz. Mushohada yuritayapmiz. O'rganayapmiz. Lekin xulosa chiqarishga shoshilayotganimiz yo'q.

«U yerda undoq ekan!», «Bu yerda bundoq ekan!», «Bizda ham shunday bo'lishi kerak!» deb xulosa chiqarib, har tomonga sakrash bizga to'g'ri kelmaydi. Qolaversa, har qanday musiqaga yo'rg'alayveradigan raqqosa ham emasmiz. Bu masalada ham oqilona yo'lni topishda ota-bobomizdan qolgan «Musulmonchilik - astachilik!» degan purhikmat aqidaga og'ishmay amal qilaveramiz. Istasangiz – shu, istamasangiz - ...

5.4. Soliq yuklamasini kamaytirishning munozarali masalalari

Soliq yuklamasining pasaytirilishi boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda xo'jalik yurituvchi subyektlar (soliq to'lovchilar) ixtiyoridan soliqlar shaklida byudjet ixtiyoriga olinayotgan mablag'lar bir qismining shu subyektlar (soliq to'lovchilar) ixtiyoriga qoldirilishini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, shuncha miqdordagi mablag'larning byudjetga borib tushmaganligi bilan barobardir. Bunday vaziyatda

soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjetga borib tushmaydigan mablag'larni byudjet manfaatlari nuqtayi nazaridan kompensatsiya qilish (qayta tiklash, o'rnini to'ldirish, qoplash) masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda iqtisodchi olimlar tomonidan bunday "kompensatsiya qilish"ning bir necha variantlari (yo'llari) ko'rsatilmoqda. Ularning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Soliq yuklamasining pasaytirilishi avtomatik ravishda ishlab chiqarishning jonlanishiga, rivojlanishiga yoki kengayishiga olib keladiki, bu narsa, oxir-oqibatda soliq to'lovchilar sonining ortishi, soliqqa tortish obyekti (bazasi) ning kengayishi, ko'payishi (ortishi)ni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, soliq yuklamasining pasayishi natijasida "yo'qotilgan" mablag'larning byudjet uchun kompensatsiya qilinishini ta'minlashi mumkin.

Mavjud iqtisodiy muammolarni hal etishda soliq yuklamasini pasaytirishning asosiy "davo chorasi" sifatida talqin etayotganlarning asosiy argumenti ham ana shundan iborat. Bu bejiz emas, albatta. Iqtisodiy nazariya ham buning aynan shunday bo'lishi mumkinligini uzil-kesil tasdiqlaydi. Ayrim rivojlangan mamlakatlarning amaliy tajribasi (iqtisodiy hayoti) ham shundan dalolat beradi. Biroq bularning hech biri bizning fikrimizcha, soliq yuklamasining pasaytirilishi albatta, avtomatik ravishda soliq to'lovchilar sonining ko'payishiga, soliqqa tortish obyektining (bazasining) kengayishiga va pirovardida, byudjet "yo'qotgan" mablag'larning kompensatsiya qilinishiga olib keladi, degan tarzda kafolat berishga asos bo'la olmaydi. Buning ham aynan shunday ekanligini ham taraqqiy etgan mamlakatlardagi iqtisodiy hayot shak-shubhasiz, tasdiqlamoqda. Chunki ishlab chiqarish taraqqiy etishi, soliq to'lovchilar soni ortishi, soliqqa tortish obyekti (bazasi) kengayishining yakka-yuyagona sababi yoki omili faqat soliq yuklamasi emas. Boshqa yuzlab sabablarni yoki omillarni inobatga olmagan holda birgina soliq yuklamasining pasaytirilishi, o'z-o'zidan yoki avtomatik ravishda, yuqoridagi ijobiy holatlarni vujudga

keltira olmaydi⁹⁵. Buni ko'ra bilmaslik o'z-o'zini aldash bilan barobardir.

Shuning uchun soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjet "yuqotgan" mablag'larni kompensatsiya qilishda birinchi variant ko'zda tutiladigan bo'lsa, u holda tegishli qaror qabul qilinishidan oldin quyidagi savollarning aniq javobiga ega bo'lmoq lozim: soliq yuklamasining pasaytirilishi haqiqatdan ham ishlab chiqarishning gurkirab rivojlanishiga olib keladimi yoki yo'qmi? Agar shu narsa sodir bo'ladigan bo'lsa, u qancha vaqt ichida yoki davomida sodir bo'lishi mumkin? Uning sodir bo'lishi "cho'zilib" ketadigan bo'lsa, unda nima qilishimiz kerak? "Bugun soliq yuklamasini pasaytirsak, ertaga ishlab chiqarish rivojlanib ketadi" degan kafolatni bizga kim beradi va buning uddasidan kim chiqadi? Uddasidan chiqilmasa, unda ahvolimiz ne kechadi? Va h.k.

2. Soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjet "yo'qotgan" mablag'larni qarz olish yo'li bilan kompensatsiya qilish mumkin.

Haqiqatdan ham shunday. Buning ustiga bugun tez-tez "Butun dunyo qarzga yashamoqda. Hatto taraqqiy etgan mamlakatlar ham. Buning sira uyatli joyi yo'q!" degan gaplarni eshitayapmiz. Bu ham bejiz emas. Lekin soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjet "yo'qotgan" mablag'larni qarz olish yo'li bilan kompensatsiya qilish sari yuz tutilayotgan paytda, hech bo'lmaganda, quyidagi savollarning aniq javobi bizning ish stolimiz ustida yotmog'i lozim: byudjet "yo'qotgan" mablag'larni kompensatsiya qilish maqsadida qarzga olinishi kerak bo'lgan mablag'larning miqdori qancha? Bizga shuncha mablag'ni kim yoki kimlar berishi mumkin? Shundaylar bormi o'zi yoki yo'qmi? Yo'q bo'lsa, unda nima qilish kerak? Agar bor bo'lsa, ular mamlakat ichkarisidami yoki tashqarisida? Qarz beradiganlar bo'lsa, ular qarzni qay muddatga va qanday shartlar asosida berisharkin? Ularning shartlari bizning ham manfaatlarimizga mos keladimi yoki yo'qmi? Qarzni olgandan so'ng uni o'z vaqtida

⁹⁵ Yoki Siz bu fikrga qo'shilmaysizmi? Argumentlaringizni keltiringchi?!

va shartlariga rioya etgan holda qaytarishning uddasidan chiqqa olamizmi yoki yo'qmi? Qarzni olib, o'z tizginimizni qarz berganlarning qo'liga berib qo'ymasmikanmiz? Ular tomonidan "chertiladigan mo'siqa"lariga o'ynash to'g'ri kelib qolsa, unda nima qilamiz? Va shu kabilar.

3. Soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjet yo'qotmalarini kompensatsiya qilishning o'ziga xos varianti ma'lum ma'noda byudjet xarajatlarini byudjet yo'qotmalariga mos ravishda qisqartirishdir.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun bu variantning tanlanishi quyidagi savollarning aniq va ishonchli javobiga ega bo'lishni taqozo etadi: qisqartilishi lozim yoki "keraksiz" bo'lgan xarajatlar byudjetda bormi o'zi? Byudjet xarajatlarini qisqartirishning imkoni qanday? Bor bo'lsa, uning qanchagacha qisqartirilishi maqsadga muvofiq? Byudjet xarajatlari qisqartiriladigan bo'lsa, bu eng avvalo, kimlarning manfaatlariga ta'sir etishi mumkin? Byudjet xarajatlari qisqartirilsa, buning oqibati nima bo'ladi? Ularning qisqartirilishi yana o'zimizga qimmatga tushmasmikan? Va shunga o'xshashlar.

4. Soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjet yo'qotmalarini kompensatsiya qilishning yana bir varianti yuqoridagi variantlarning turli ko'rinishdagi kombinatsiyalaridan iborat bo'lib, unda bir vaqtning o'zida birinchi va ikkinchi variantdan, birinchi va uchinchi variantdan, ikkinchi va uchinchi variantdan va nihoyat, har uchchala variantdan ham foydalanish mumkin.

Qanaqa kombinatsiyadagi variant tanlangan bo'lishiga qaramasdan, bu yerda ham variantlar kombinatsiyasini hisobga olgan holda yuqorida keltirilgan savollarga oldin aniq javobni topib, ularga tayangan holda xulosani chiqarib, undan so'ng tegishli qarorni qabul qilmoq lozim. Aks holda, "yeyilmagan somsaga pulni to'lash" hech gap emas.

Yuqoridagi har bir variantda keltirilgan savollar bir tomondan, hayotiy va juda oddiy bo'lsa-da, ular ikkinchi tomondan, o'ta murakkab, mashaqqatli, og'ir va hatto "qas-sob"ni ham "terlatadi"gan, har qanday "professor"ni ham "burchak"ka olib borib qo'yadigan savollar hisoblanib, ularga

nisbatan to'g'ri, xolisona va oqilona javobni berish hamma-ga ham nasib qilmagan va qilmaydi ham. Ularga malakali, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan javoblarni berish, hech bo'lmaganda, soliqqa tortish va soliq tizimining iqtisodiy si-novdan muvaffaqiyatli o'tgan va hayotiy sanalgan prinsipla-rini so'zsiz to'g'ri idrok etilishini va ularga qat'iy rioya etilishi-ni taqozo etadi. Ularni hisobga olmasdan berilgan javob va qabul qilingan qaror, o'rni kelganda, "bir tiyinga qimmat"ligi-cha qolaveradi. Shuning uchun ham og'zimizga to'g'ri kelgan har qanday javob, o'zimiz o'ylaganimizdek, bu savollarning to'g'ri javobi bo'lmasiligi mumkin.

Bayon qilingan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, soliq yuklamasini pasaytirish masalasi hozirgi kundagi iqtisodiy hayotimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu – juda nozik va murakkab masala. Unga nisbatan munosabatni esa, o'ziga xos tarzda, soliq siyosatining yadrosiga nisbatan munosabat sifatida e'tirof etmoq lozim. Shuning uchun unga nisbatan tegishli qarorni qabul qilishga shaylangan pay-timizda uni, ma'lum ma'noda, "Yo hayot, yo mamot" muam-mosi ekanligini qalban his yetib, har safardagidek, yana bir marta etti o'lchab, bir kesishimiz kerak.

Soliq yuklamasi va uning og'irligini kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan masalaga mas'uliyatsiz, shunchaki panja orasidan qarash ham maqsadga muvofiq emas. Unga nis-batan fikr bildirishga hozirlanganimizda uning oqibati nima-larga olib kelishi mumkinligini ham puxta o'ylashimiz kerak. "Holva" degan bilan og'iz chuchimaganidek, soliq yuklamasi va uni pasaytirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarga ularni hal qilish nuqtayi nazaridan asossiz yopishaverish ham Siz bilan bizni ko'zlagan maqsadimizga olib bormaydi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun qo'shimcha savollar

- Ayrim hollarda O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbar-doshligi, uning rivojlanish sur'atlari, iqtisodiyotning hozirgi ahvoli, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan mavjud muammolar to'g'risida xususan qanday fikrlar bildirilayapti?

- “Soliq yuklamasi” deganda nima tushuniladi va u qanday o’lchanadi?

- “Soliq yuklamasi”ga nisbatan qanday ta’riflarni berish mumkin? Bu yerda prinsipial ahamiyatga ega bo’lgan narsa nima o’zi?

- “Soliq yuklamasi” xususida gap ketganda barcha mamlakatlarda bir narsa nazarda tutilishi kerakmi yoki uni har kim o’z qarichi bilan o’lchayversa ham bo’laveradimi?

- Soliq yuklamasini turli tarzda (usulda) o’lchash mumkinmi? Agar shunday qilinadigan bo’lsa, uning xavfli jihati nimada?

- Soliq yuklamasining og’irligini faqatgina mamlakat miqyosida emas, balki alohida olingan tarmoqlar, hududlar, korxonalar yoki alohida olingan xo’jalik yurituvchi subyektlar uchun ham aniqlash mumkinmi? Bunda qanday qiyinchiliklar bo’lishi mumkin?

- Soliq yuklamasining og’irligi bizda qay darajada-yu, boshqa mamlakatlarda qanday?

- Soliq yuklamasining og’irligi O’zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardosh emasligida «klyuchevoy rol»ni o’ynayotgan ekan, nega unda uning og’irligi bizdan-da yuqori bo’lgan davlatlarning iqtisodiyoti raqobat, degan narsani nazarpisand qilmayapti?

- Soliq yuklamasining og’irligi qay darajaga yetgunga qadar chidab turish mumkin? Bunday chidamlilikka nimalar o’z ta’sirini ko’rsatadi?

- “Soliq yuklamasining og’irligi qay darajaga yetgunga qadar chidab turish mumkin?” degan savolga barcha mamlakatlar uchun yagona bo’lgan “retsept”ni berib bo’ladimi?

- Siz bilan biz havas qilayotgan davlatlarda 60,0%lik soliq yuklamasini ko’tarib kelayotgan daniyaliklarning joni toshdanmikan? 58,4%lik soliq yuklamasiga ega bo’lgan shvedlar nega dod solishmayapti? 55,3%lik soliq yuklamasining og’irligini ko’tarib kelayotgan norvegiyaliklarning og’ziga talqon solinganmi? Nega 53,1%lik soliq yuklamasiga ega bo’lgan finlar «oh-voh» chekishmayapti? Har birlari 50%dan ortiqroq darajadagi soliq yuklamasining ostida bo’lgan gollandlar va belgiyaliklar nega jim?...

- Bundan 10-15 yil oldin soliq yuklamasining og'irlik darajasi qanday edi? Hozir qancha? Og'irlik oshibdimi yoki kamayibdimi? Kamaygan bo'lsa, qanchaga kamayibdi? Hadeb kamaytiraversak, buning oqibati nimalarga olib kelishi mumkin? Doimiy ravishda kamaytiraverishning o'zi iloji bormi yoki yo'qmi?

- Soliq yuklamasining og'irligini kamaytirish nimaga bog'liq?

- Soliq yuklamasining og'irlik darajasi va byudjetdan qilinadigan xarajatlarning hajmi (miqdori) o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik bormi? Byudjetdan katta hajmdagi xarajatlarning qilinishi, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda soliq yuklamasining nisbatan og'ir bo'lishini taqozo etadimi?

- Shu kecha-yu kunduzda byudjetdan qilinayotgan xarajatlarning qay biri mutlaqo keraksiz? Qaysi birini keskin qisqartirsa bo'ladi?

- Byudjetdan maorif sohasini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar keskin qisqartirilsa, buning oqibati nimalarga olib kelishi mumkin?

- Balki sog'liqni saqlash sohasini byudjetdan moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni keskin qisqartirish kerakdir?

- Madaniyat, sport va ommaviy axborot vositalari uchun mo'ljallangan xarajatlarni keskin qisqartirsak, nima bo'ladi?

- Fanni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni keskin qisqartirsak, bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

- Byudjetdan ijtimoiy ta'minot maqsadlari uchun mo'ljallangan mablag'larni keskin qisqartirish maqsadga muvofiqmi?

- Biz uchun balki byudjetdan iqtisodiyotga va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga qilinayotgan xarajatlar kerak emasdir?

- Byudjet xarajatlarning ma'lum bir qismi davlat hokimiyati, boshqaruv va huquq-tartibot hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlashga sarf qilinayap-

ti. «Bor-e!» deb shu xarajatlarni keskin qisqartirib yuborsak, nima bo'ladi? Yoki shu organlarga byudjetdan mablag' ajratmasdan, ularni «samofinansirovanie»ga (o'z-o'zini moliyalashtirishga) o'tkazish maqsadga muvofiqdir?

- Byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi kerakmi yoki kerak emas?

- Byudjet xarajatlari ma'lum bir qismining mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga ham sarf qilinayotganligiga qanday qaraysiz?

- Soliq yuklamasi soliq to'lovchilar o'rtasida qanday taqsimlangan? Soliq to'lovchilarni ularning soliqlarni to'lash darajasiga qarab shartli ravishda bo'lsa-da, qanday toifalarga bo'lish mumkin?

- Hozirgi vaziyatda soliq yuklamasining asosiy og'irligi kimning zimmasida? Kim burni yerga tekkidek bo'lib, belini xam qilib, peshonasidan shoda-shoda terini to'kib, soliq yuklamasining asosiy og'irligini tortayapti-yu, kim taralla-bedod qilib yuribdi? Soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'liq to'lab kelayotganlar aslida solig'ini qisman to'layotgan yoki umuman to'lamayotganlar zimmasiga yuklanishi kerak bo'lgan soliq yuklamasini o'zlarining zimmalariga qo'shimcha ravishda olishmayaptimi?

- Soliq yuklamasi soliq to'lovchilar o'rtasida tekis taqsimlanganda vaziyat qanday bo'lar edi? Savolning bu shakl va mazmunda qo'yilishi barcha soliq to'lovchilarning bir xil miqdorda (summada) soliq to'lashi kerakligini anglatadimi yoki...?

- Oddiy tilda aytiladigan bo'lsa, obyektiv ravishda cho'ntagi qappayganlar – ko'proq, cho'ntagi nochorlar esa – kamroq; boylar – ko'proq, kambag'allar esa – kamroq; salohiyati kuchlilar – ko'proq, salohiyati kuchsizlar esa – kamroq va hokazo soliq to'lashlari kerak, degan fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun?

- “Soliq yuklamasining soliq to'lovchilar o'rtasida tekis taqsimlanishiga erishilsa, bu narsa birovning xonavayron bo'lishiga, boshqa birovning esa gullab-yashnashiga olib

keldi. Birovning burni yerga tegib, boshqa birovning dimog'i ko'kka yetmaydi. Birov ayshu-ishratda, boshqa birov esa g'amu-kulfatda yashamaydi. Birov pulga ko'milib, boshqa birov esa bir tiyinga zor bo'lmaydi", degan fikrga munosabatingiz qanday? Uni qo'llab-quvvatlaysizmi yoki rad etasiz?

- Haqiqatdan ham soliq yuklamasining soliq to'lovchilar o'rtasida bir tekis taqsimlanishi natijasida mamlakat miqyosida umumiy soliq yuklamasining tomonlar (davlat va soliq to'lovchilar) manfaatlariga (ahvoliga) ziyon yetkazmasdan pasaytirilishiga erishiladimi? Buning to'g'riligini isbotlab berishga yoki rad etishga harakat qilib ko'ringchi?!

- Soliq yuklamasining og'irligini hamma vaqt ham salbiy ma'noda talqin qilish o'rinlimi?

- 25-30%li soliq yuklamasi og'irligining dastidan «Dod!» deyayotganlar 50-60%li soliq yuklamasini mardlarcha ko'tarib, raqobatbardosh iqtisodiyotga erishganlardan o'rnak olsa, arzimaydimi? Yoki bu fikr noto'g'rimi?

- Soliq yuklamasiga nisbatan munosabat masalasida kimlardan (qaysi mamlakatlardan) o'rnak olish maqsadga muvofiq? Bunda oxirgi yoki eng yuqori (yakuniy) me'zon sifatida nimalarga e'tibor berish kerak? Iqtisodiyotning raqobatbardoshligigami, aholining turmush darajasigami, mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'atlarigami yoki boshqa narsalargami?

- Soliq yuklamasi masalasida «U yerda undiq ekan!», «Bu yerda bundiq ekan!», «Bizda ham shunday bo'lishi kerak!» deb xulosa chiqarib, har tomonga sakrash to'g'rimi? Yoki bu o'rinda boshqacha ish tutish kerakmi? Qanday?

- Soliq yuklamasini kamaytirishning munozarali masalalari nimalardan iborat?

- Soliq yuklamasining pasaytirilishi boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, nimani anglatadi?

- Soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjetga borib tushmaydigan mablag'larni byudjet manfaatlarini nuqtayi nazaridan kompensatsiya qilish (qayta tiklash, o'rnini to'ldirish, qoplash)ni qanday qilib hal qilish mumkin? Hozirgi

paytda iqtisodchi olimlar tomonidan bunday “kompensatsiya qilish”ning qanday variantlari (yo’llari) ko’rsatilmoqda?

- Soliq yuklamasining pasaytirilishi o’z-o’zidan, avtomatik ravishda ishlab chiqarishning jonlanishiga, rivojlanishiga yoki kengayishiga olib keladimi? Agar shu narsa sodir bo’ladigan bo’lsa, u qancha vaqt ichida yoki davomida sodir bo’lishi mumkin? Uning sodir bo’lishi “cho’zilib” ketadigan bo’lsa, unda nima qilishimiz kerak? “Bugun soliq yuklamasini pasaytirsak, ertaga ishlab chiqarish rivojlanib ketadi” degan kafolatni bizga kim beradi va buning uddasidan kim chiqadi? Uddasidan chiqilmasa, unda ahvolimiz ne kechadi?

- Soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjet “yo’qotgan” mablag’larni qarz olish yo’li bilan kompensatsiya qilish sari yuz tutilayotgan paytda, hech bo’lmaganda, qanday savollarning aniq javobi bizning ish stolimiz ustida turmog’i lozim?

- Soliq yuklamasining pasaytirilishi natijasida byudjet yo’qotmalarini kompensatsiya qilishning o’ziga xos varianti, ma’lum ma’noda, byudjet xarajatlarini byudjet yo’qotmalariga mos ravishda qisqartirish ekan, bu, avvalo, qanday savollarning aniq va ishonchli javobiga ega bo’lishni taqozo etadi?

- Soliq yuklamasiga munosabat masalasi doirasida vujudga kelgan savollar, bir tomondan, hayotiy va juda oddiy bo’lsa-da, ular ikkinchi tomondan, o’ta murakkab, mash-aqqatli, og’ir va hatto “qassob”ni ham “terlatadi”gan, har qanday “professor”ni ham “burchak”ka olib borib qo’yadigan savollar hisoblanib, ularga nisbatan to’g’ri, xolisona va oqilona javobni berish hammaga ham nasib qilmagan va qilmaydi ham, deyilgan fikrga munosabatingiz qanday?

- Soliq yuklamasi va uning og’irligini kamaytirish bilan bog’liq bo’lgan masalaga mas’uliyatsiz, shunchaki panja orasidan qarash ham maqsadga muvofiq emas. Unga nisbatan fikr bildirishga hozirlanganimizda uning oqibati nimalarga olib kelishi mumkinligini ham puxta o’ylashimiz kerak, degan fikrga qo’shilasizmi yoki uni rad etasizmi? Nima uchun?

6-BOB. SOLIQ IMTIYOZLARINI OQILONA TAQDIM ETISH – SOLIQ SIYOSATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASH GAROVI

6.1. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish prinsiplari

Byudjet-soliq siyosatining tarkibiy va bir vaqtning o'zida uning nisbiy jihatdan mustaqil qismi sifatida qaralayotgan soliq siyosatining muvaffaqiyati, ta'sirchanligi, natijaviyligi, ilg'orligi va nihoyat, uning samaradorligi ko'p jihatdan soliq imtiyozlarini taqdim etish masalasiga borib taqaladi. Boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda soliq imtiyozlari qanchalik oqilona taqdim etilsa, bu siyosatning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Bunday vaziyatda quyidagi savollarning kun tartibiga qo'yilishi tabiiy: soliq imtiyozlarini qanday qilib oqilona taqdim etish mumkin? Bu nimaga bog'liq?

Agar soliqlar bo'yicha u yoki bu shaklda imtiyozlarni berib turib, ko'zlangan maqsadlarga yetarli darajada erishilmayotgan bo'lsa, bizning fikrimizcha, uning asosiy sabablaridan biri soliq imtiyozlarini berishda inobatga olinishi lozim bo'lgan prinsiplarga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi bilan belgilanadi.

Haqiqatdan ham soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilayotgan paytda ma'lum bir tartibga, ma'lum bir qoidaga rioya etish kerak. Soliqlar bo'yicha imtiyoz berishning ham o'ziga xos bo'lgan prinsiplari bor. Ularning talablarini inobatga olmaslik yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Bir vaqtning o'zida ularni mensimasdan, ularni oyoq osti qilib berilgan soliq imtiyozlari ham bizni ko'zlangan maqsad tomon yetaklamaydi.

Xo'sh, shunday qilib, soliq imtiyozlarini berishda nimalarga e'tibor bermoq kerak, qanday asosiy prinsiplarga rioya etmoq lozim?

Iqtisodiy hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan va o'zining hayotchanligini hamon saqlab kelayotgan bu prinsiplarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi mulkchilik shakli, faoliyat turi, parlamentdagi ayrim manfaatdor guruhlarining subyektiv baholariga bog'liq bo'lgan holda tanlanish xarakteriga ega bo'lmasligi kerak⁹⁶.

2. Soliq imtiyozlarini berishga noiqtisodiy tarzda majbur qilish va qo'llanilishning majburiyligi xos emas.

3. O'zining ichki tabiatiga ko'ra soliq imtiyozlariga qo'llanilishning ma'muriy-buyruqbozlik xarakteri begonadir.

4. Investitsion soliq kreditlari umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan investitsion dasturlarning bajarilishini ta'minlaydigan soliq to'lovchilar guruhiga berilishi kerak.

5. Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi byudjet daromadlariga, korporativ va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarga zarar yetkazmasligi lozim⁹⁷.

6. Imtiyozli soliq portfelini shakllantirish tartibi umumdavlat miqyosida aniqlanadi va qonuniy tarzda markaziy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadi.

7. Mahalliy darajada soliq imtiyozlarining qo'llanilishi oliy qonunchilik organi tomonidan belgilanadigan ramka doirasida bo'lishi kerak.

Bu o'rinda avvalo shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan soliq imtiyozlarini berish masalasida inobatga olinishi lozim bo'lgan prinsiplar biror-bir iqtisodchi olim ijodining mahsuli emas. Ular bo'sh joydan o'z-o'zidan o'ylab ham topilmagan. Ularning ijodkori – iqtisodiy hayot. Bu prinsiplarning to'g'ri ekanligini va ular albatta soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilayotgan paytda inobatga olinishi shart ekanligini hayotning o'zi, iqtisodiy jihatdan rivojlangan

⁹⁶ Bir mulohaza yuritib ko'ringchi, amaliyotda soliq imtiyozlarini taqdim etishning bu prinsipiga qay darajada qat'iy rioya qilinmoqda? Bunga to'liq rioya etmaslikning oqibati nimalarga olib kelishi mumkin?

⁹⁷ Bu yerda nimalar nazarda tutilayapti? Bu bir o'q bilan ikki quyonni emas, balki uch quyonni urish emasmi? Buni uddalash uchun nimalar qilish kerak?

mamlakatlarning tarixiy tajribasi, hayot yo'li to'liq va uzil-kesil tasdiqlaydi.

Endi soliq imtiyozlarini berish borasida bizning amaliyotimizdagi har bir holatni ana shu yuqorida keltirilgan prinsiplarning talablariga asosida tahlil qilib chiqaylikchi, ularning qaysi biri qay darajada yuqorida keltirilgan prinsiplarning talablariga javob berar ekan? Ishonchingiz komil bo'lsin, hatto sirtidan qilingan kuchsizgina tahlil natijalari hamma vaqt ham soliqlar bo'yicha imtiyozlarni berishda to'g'riligini iqtisodiy hayotning o'zi uzil-kesil tasdiqlagan yuqoridagi talablarga yetarli darajada rioya qilinmayotganligini ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning samaradorligi to'g'risida e'tiborga loyiq bo'lgan fikrlarni bildirish amri-mahol.

Bizning nazarimizda soliqlar bo'yicha imtiyozlarni oqilona taqdim etish masalasi quyidagi bir necha savollarning aniq javobiga ega bo'lishni ham taqozo etadi: Soliqlar bo'yicha imtiyoz berishdan maqsad nimadan iborat? Soliq imtiyozlarining berilish darajasi qanday? Mavjud soliq imtiyozlaridan to'liq foydalanishning uddasidan chiqa olayapmizmi? Soliq imtiyozlarini berib, ko'zlagan maqsadlarga erishayapmizmi? U yoki bu soliqlar bo'yicha imtiyozga ega bo'lganlarning ahvoli qanday? Berilgan soliq imtiyozlari qanday «ishlayapti»? «Ishlayaptimi» o'zi? Yoki... Soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlardan to'liq foydalanishning uddasidan chiqa olsak, unda nima bo'lishi mumkin? Berilgan soliq imtiyozlaridan to'liq foydalanmasdan turib qo'shimcha imtiyozdan umidvor bo'lishga haqqimiz bormi yoki yo'qmi? Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlik nimadan iborat?⁹⁸ Va hokazo.

Shu o'rinda quyidagi fikrni alohida ta'kidlamochimiz: soliqlar bo'yicha imtiyozlarni berish yoki bermaslik masalasi muhokama etilayotgan paytda yuqoridagi savollarning haqiqiy javobiga ega bo'linsa va ularni inobatga olgan holda imtiyozlarni berish yoki bermaslik masalasida tegishli qaror

⁹⁸ Ba'zi bir sabablarga ko'ra bu savollarning javoblari o'z navbatida, ushbu bobning keyingi paragraflarida beriladi.

qabul qilinsa, bunday qarorning ilmiy va amaliy jihatdan asoslanganlik darajasi shunga mos ravishda yuqori bo'lgan bo'lar edi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlarni oqilona taqdim etish masalasini imtiyozni olayotgan tomonning (bu yerda ularning yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi prinsipial ahamiyatga ega emas) soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlik mavjudligini qanday idrok etishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Imtiyozning berilganligi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan subyektga xotirjamlikka berilishga asos bo'la olmasligi kerak. Aksincha, imtiyozni olgandan so'ng bunday imtiyozga ega bo'lgan tadbirkorlik subyekti, oddiy tilda aytadigan bo'lsak, jonini jabborga berib, uyquni harom bilib, ayshu-ishratdan voz kechib, tinib-tinchimasdan, yelib-yugurib, g'ayrat-shijoat bilan faoliyat ko'rsatishi lozim. Ma'lum ma'noda imtiyozga ega bo'lgan tomon oyoqni uzatib o'tirish huquqiga ega emas. Aks holda imtiyozning berilishi o'z ma'no-mazmuni yo'qotadi, maqsadsiz berilgan imtiyozga aylanadi.

Va nihoyat, soliqlar bo'yicha imtiyozlarning oqilona taqdim etilishini o'zbekona aytilgan va aksioma sifatida turmush tarzimizga qabul qilingan «Qars ikki qo'ldan chiqadi», «Six ham kuymasin, kabob ham», «Sizdan «u»gina, bizdan «bu»gina» kabi maqollarning bekorga aytilmaganligini idrok etmasdan turib his etish mumkin emas⁹⁹.

6.2. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish uchun hisobga olinadigan amaliy holatlar

Soliq siyosatining markaziy masalalaridan biri soliqlar bo'yicha berilishi lozim bo'lgan imtiyozlar bilan bog'liqlik, keyingi paytlarda bu masala juda ko'p shov-shuvlarga sabab

⁹⁹ Bu masalalar ushbu bobning 2- va 3-paragraflari doirasida batafsil ko'rib chiqiladi. Buning ustiga keltirilgan maqollardan qo'llanmamizning keyingi qismlarida yana bir necha marta foydalanamiz. Shu bois, oldindan aytib qo'yaylik, o'sha joylarda bizni "takrorlanishga yo'l qo'yg'an"likda ayblamang. Buning o'ziga xos sabablari bor. Ularning qanday sabablari ekanligini aniqlashga bir urinib ko'ringchi?!

bo'lmoqda. Chunki soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etib soliq siyosatining samaradorligini (ta'sirchanligini) ta'minlashga munosib hissa qo'shish mumkin.

Bir vaqtning o'zida shu kecha-kunduzda istalgan har bir tadbirkorga, faqat tadbirkorga emas, aslida har birimizga «Faoliyatingizning ko'ngildagidek emasligiga nima sabab? Nima sizga xalaqit berayapti? Nima qilinsa, sizning faoliyatingiz siz istagan tarzda rivojlanishi mumkin?», - degan mazmunda savol berilsa, buning bir necha sabablari ustida to'xtalishib, ularning har biri bunday sabablarning eng asosiysi sifatida «soliq imtiyozlarining yetarli darajada emasligi va soliqlar tomonidan yetarli darajada rag'batlantirilmayotganligi»ni ko'rsatishi aniq. Yoki «Sizga falonchi soliq bo'yicha imtiyoz bermoqchimiz, ma'qulmi?», - deb so'ralsa, hech o'ylab o'tirilmadan «Albatta, ma'qul! Bormisiz? Ko'nglimizga moydek yoqadigan gapni aytdingiz-ku! Qani endi shundoq qilsangiz! Bizning ham ko'kragimizga shamol tegadigan kun kelar ekan-ku, nihoyat!», - qabilidagi javoblarning guvohi bo'lamiz. Holbuki, bunday xulosaga kelish yoki javobni berish uchun soliq imtiyozlarining nima uchun berilishi yoki soliq imtiyozlarini berishdan maqsad nimadan iborat ekanligini aniq bilish kerak.

Ochiq-oydin aytib qo'ya qolaylik: soliqlar bo'yicha berilayotgan imtiyozlar siz bilan bizga oyoqni uzatib, bimalol o'tirish uchun berilmaydi. Imtiyozni olib, undan so'ng choyxonada palovxonto'rani damlab, ko'k choyni mazza qilib ichib, shammasini chaynab, rohat-farog'atda yashashni istaganlar chuchvarani xom sanashibdi. Boqimandalik kayfiyatida yurganlarning soliqlar bo'yicha imtiyozdan umidvor bo'lishlari, ma'zur tutasiz noinsoflikdan boshqa hech narsa emas. Davlatning mablag'lariga nisbatan sog'in sigir sifatida qaraydiganlarning imtiyozdan umidvor bo'lishga haqqi yo'q. O'zganing nonini tuya qilish niyatida bo'lganlar imtiyozdan umid qilmasa ham bo'ladi. «Olma pish, og'zimga tush!», - deb o'tiradiganlarga soliqlar bo'yicha imtiyoz berilmaydi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar siz bilan bizga «teplichnie usloviya»ni yaratish uchun ham berilmaydi. Aksincha, joni-

ni jabborga beradigan, noz uyquni hozirgi sharoitda harom deb biladigan, ayshu-ishratdan nariroq yuradigan, kechayu-kunduz yelib-yuguradigan, o'z xizmat vazifalarini belgilanganidan ziyoda qilib bajaradigan, o'zini va mehnatkash xalqimizning birini ikki qilish niyatida bo'lgan, O'zbekiston deb atalmish davlatning kelajagi buyuk bo'lishiga o'zining zig'ircha bo'lsa ham hissasini chin dildan qo'shish niyatida bo'lganlargagina soliqlar bo'yicha imtiyoz berilishi kerak.

To'g'ri, hotamtoy davlatimiz siz bilan bizga (tadbirkorlarimizga ham) oyoqqa turib ketishimiz, qaddimizni rostlab olishimiz va qulay sharoitlar yaratish uchun ham soliqlar bo'yicha turli-tuman imtiyozlarni berayapti. Lekin esingizda bo'lsin, bu imtiyozlar faqat oyoqqa turib ketish yoki qadni rostlab olish uchungina berilayotgani yo'q. Oyoqqa turganinigizdan so'ng o'zingiz mustaqil yurib ketasiz, boshqa soliq to'lovchilar qatori ularning safini to'ldirasiz, tenglar ichra teng bo'lib, siz ham solig'ini belgilangan muddatda va summada to'lab qo'yasiz, degan umidda berilayapti.

Soliqlar bo'yicha imtiyoz yanada samarali faoliyat ko'rsatishni rag'batlantirish uchun va faqat shu maqsadda beriladi. Bu fikr har birimizning qulog'imiz ostida doimo baralla jaranglab turishi va qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar o'zini «Tadbirkorman!», - deydiganlarning har biri uni qulog'iga isirg'a qilib osib olishi yoki bu fikr ularning qulog'iga qo'rg'oshindek quyilishi kerak.

Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish soliq siyosati samaradorligini ta'minlash garovi ekan, bunda soliq imtiyozlari berilish darajasining qanday ekanligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuni inobatga olgan holda soliqlar bo'yicha tegishli hujjatlarga nazar soladigan bo'lsak, ularning har birida «ushbu soliq turi bo'yicha quyidagi imtiyozlar mavjud», - degan mazmundagi holatga duch kelamiz va u yerda berilayotgan soliq imtiyozlari keltirilib o'tiladi. Ularni tahlil qilish natijasida har bir soliq bo'yicha berilayotgan imtiyozlarning turi (soni) 3 tadan 40 tagacha tebranayotganligini aniqlashimiz mumkin. Masalan, tadbirkorlarimiz «juda yaxshi ko'radigan», ularning o'rtasida «NDS degan balo»

nomini olgan, eng “mashhur” soliqlarimizdan biri bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlarining 40 turi mavjud. Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha imtiyozlar 27 guruhga birlashtirilgan. Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar 39 ko‘rinishga ega. Yer solig‘i bo‘yicha taqdim etilgan imtiyozlar soni 33 taga teng. Boshqa soliq turlari bo‘yicha ham xuddi shunday raqamlarni keltirishimiz mumkin. Bunday holatning mavjud ekanligi nimadan dalolat beradi? Imtiyozlarning berilish darajasi yetarlimi? Yoki ular keragidan ortiqchami?

O‘zimizning soliqchi-mutaxassislarimiz fikrlarini (ular soliq tizimi manfaatlarini ko‘proq himoya qilishi mumkin) bir chetga surib qo‘yib, xorijlik xolis mutaxassislarning fikriga quloq tutadigan bo‘lsak, ularning bir ovozdan «O‘zbekiston soliq tizimida ko‘zda tutilgan imtiyozlar haddan ziyod ko‘p. Ayrim hollarda ular sonining ko‘pligi oqillik chegarasidan o‘tib ketgan. Bu narsa soliq tizimi va ishlab chiqarish samaradorligining darajasiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi mumkin», - degan fikrlariga guvoh bo‘lamiz (biz bu o‘rinda ushbu fikrlarni ularning mualliflari xorijlik bo‘lgani uchun emas, balki xolis fikr bo‘lganligi uchun keltirdik). Shu sababli keyingi yillarda soliq imtiyozlarini tartibga solish masalalariga alohida e‘tibor berilayotganligi bejiz emas.

Shu o‘rinda yana bir fikrni aytib qo‘yay. Byudjet daromadlarini shakllantirish, soliqlar va soliqqa tortish masalalari bo‘yicha chorak asrdan bo‘yon talabalarga saboq beraman, tadbirkorlar oldida ma‘ruzalar o‘qiyman, rahbar xodimlar uchun tashkil qilingan ilmiy-amaliy seminarlarda ishtirok etaman. Xoh ishonang, xoh ishonmang, shu yillar davomida biror marta ham «Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar yetarli yoki ular keragidan ortiqcha», - degan fikrni bildirgan mardni uchrata olganim yo‘q edi (albatta, quyidagi holat bundan mustasno). Yaqinda «mo‘jiza» ro‘y berdi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo‘mitasining Soliq akademiyasida «Soliq siyosatini yanada takomillashtirish – prinsipial muhim ustuvor vazifa» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazilib, unda boshqa mutasaddi xodimlar bilan birgalikda

respublikamizning ko'zga ko'ringan tadbirkorlari ham taklif etildi. Konferensiyada so'z olgan rahbar-tadbirkorlardan biri mamlakatimizda mustaqillik sharofati ila berilgan soliq imtiyozlari, ulardan qanday foydalanish kerakligi, berilgan soliq imtiyozlaridan oqillik bilan foydalanilsa, buning oqibati nimalarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida o'z korxonasi misolida raqamlarni sayratib, shunday dalillarni keltirdiki, ularni zalga o'tirganlarning barchasi nafasini ichiga yutib, butun vujudi quloqqa aylanib tinglashdi. «Yo'g'-e?», «Nahotki, shunday bo'lsa?», «Sira ham ishonib bo'lmaydi-da!», - deb savol berganlar opaning javobini eshitib, «Biz ham yurgan ekanmiz-da!», - deya mulzam bo'lib, o'z joylarini egallashdi.

Soliq siyosati samaradorligini ta'minlashda soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish muhim rol o'ynar ekan, bu jarayonda "Mavjud soliq imtiyozlaridan to'liq foydalanishning uddasidan chiqa olayapmizmi? Berilgan imtiyozlar qanday ishlayapti? Ishlayaptimi o'zi? Yoki..." qabilidagi savollarning javobiga ega bo'lish prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Albatta, imtiyoz berilganidan so'ng, undan foydalanish darkor. Imtiyoz berilsa-yu, undan foydalanilmasa, bunday imtiyozning nimaga yoki kimga keragi bor? Foydalanilmayotgan imtiyozning berilganligi uning bemaqsadlilikidan, samarasizligidan darakdir. Imtiyoz davlat nomidan va tomonidan beriladi. Undan to'liq foydalanishning uddasidan chiqish imtiyozni olgan tomon (tadbirkor, siz bilan biz) uchun ham qarz, ham farz bo'lishi kerak.

Oddiygina bir misol: tegishli hujjatda olingan daromadning ma'lum bir qismi ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va rekonstruksiya qilishga sarflansa, uning shu qismiga soliq solinadigan daromad kamaytiriladi, deb yozib qo'yilgan bo'lishiga qaramasdan bunday imtiyozdan va imkoniyatdan foydalanmasak, bu nima degani? To'g'ri, ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va rekonstruksiya qilish uchun faqat mablag'lar bo'lishining o'zi yetarli emas, albatta. Buning uchun uddaburonlik qilish va kallani ishlatish ham kerak. Lekin bunda davlatda ne ayb? Axir u «Ishlab chiqarishingni rivojlantirmoqchi, kengaytirmoqchi va re-

konstruksiya qilmoqchi bo'lsang, marhamat, qilaver bu ish-ingni. Daromadingni bir qismini shu maqsadlarga sarflamoqchi bo'lsang, uning shu qismi soliqqa tortilmaydi», - deb turib, soliq bo'yicha imtiyoz berayapti-ku!

Boz ustiga, xolisona tan olaylik, ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va rekonstruksiya qilish uchun, ming bir bahonani ro'kach qilib, turli-tuman «obyektiv» va «subyektiv» sabablarni ko'rsatib, daromadning bir qismini shu maqsadlarga yo'naltirishdan solig'ini to'lab qo'yishni afzal ko'rmayapmizmi? Berilgan imtiyozdan foydalanib ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va rekonstruksiya qilish ustida bosh qotirishdan ko'ra, «Och qornim, tinch qulog'im!», yoki «Bugun o'tsin, ertaga bir gap bo'lar!» shaklida ish yuritmayapmizmi? Imtiyozlarni uvol qilmayapmizmi?

Bu birgina misol. Lekin soliq imtiyozlariga tegishli bo'lgan bunday misollarni qalashtirib tashlashimiz mumkin.

Yuqoridagi holatning vujudga kelganligi bizning mavjud imtiyozlardan to'liq foydalanishning uddasidan chiqa olmayotganligimizni ko'rsatadi. Shu munosabat bilan yana bir voqea yodimga tushdi. Katta bir auditoriyada ma'ruza o'qiyapman. Unda respublikamiz iqtisodiyotining kelajagi, progressiv-ilg'orlari, deb tan olingan bir guruh rahbarlari ishtirok etishayapti. Ma'ruza soliq imtiyozlari bilan bog'liq bo'lgan masalaga bag'ishlangan. Ma'ruza eng qiziq joyiga yetganda ulardan biri: «Domlajon, to'xtang! Fikrlaringizga qo'shilaman. Haqiqatdan ham soliqlar bo'yicha imtiyozlar juda ko'p. Lekin ularning birortasi ham ishlamayapti-ku! Ishlamayotgan imtiyozlarni boshimga uramanmi? Nima qilsak, ular ishlab ketadi? Menga o'shalarni ishlatadigan nuqtasini topib bering, men uni turtib yuborar edim va ular ishlab ketardi», - degan arximedona savol bilan «kuyib-pishib» murojaat qilib qoldi. Bu savoldan «hushyor tortgan», «jonlangan» yana 4-5 kishi «Domlajon! Hamkasbimiz to'g'ri aytayapti. Imtiyozlarni ishlatish mexanizmi yo'q. Shuning uchun ham ular ishlamayapti», - degan fikrni bildirishdi.

Essiz! Soliqlar bo'yicha imtiyozlarning ishlab ketishi eng avvalo, har birimizning, o'zimizning faoliyatimizga bevosita

bog'liq ekanligini anglay olmasak. Axir berilgan imtiyoz, siz o'ylaganingizdek, o'z-o'zidan ishlamaydi. Uning (imtiyozning) turtib ishlatadigan joyi (nuqtasi) yo'q. U (imtiyoz) robot emas, muruvvatini burab qo'ysangiz ishlayversa. Siz aytgan «imtiyozlarni ishlatish mexanizmi»dagi asosiy «vint» siz bilan bizmiz. Ana shu asosiy «vint» (siz bilan biz) «qimirlamasa(k)» mexanizm ishlamaydi. Mexanizmdan foydalanish ham o'z-o'zidan bo'lmaydi. Uning ishlab ketishini ta'minlash, undan foydalanish uchun uddaburonlik kerak, aql-zakovat va bilimlilik talab qilinadi, boshni qotirish lozim, huzur-halovatdan voz kechish kerak, uzoqni (kelajakni) o'ylab, sovuqqonlik bilan hisob-kitob qilib, yelib-yugurish lozim. Shu ishlarni qilayapmizmi? Yo'q! «Berilgan imtiyoz ishlasin-da! Ishlamaydigan imtiyozni menga nima keragi bor!», - deb qo'lni qo'ltiqqa urib o'tiribmiz. Bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalaridan ozgina xabardor bo'lgan odam bizning bu xatti-harakatimizni sira tushuna olmaydi.

Imtiyozni berish davlatning vazifasi bo'lsa, uni ishlatishni qoyil-maqom qilib uddasidan chiqish esa bizning vazifamizdir. Yoki davlat imtiyozni berib, uning ishlashini ham ta'minlasinmi? Ko'ngil qursin, nimalarni istmaydi-a? Unda siz bilan biz nima qilamiz? Og'zimizni ochib, tayyor oshga bakovul bo'lib o'tiraveramizmi? Undan tashqari shunday fikrga borayotgan paytimizda, boshdan do'ppini olib, atrofga bir nazar tashlaylik. Axir dunyoning hech bir mamlakatida shu paytgacha hech bir davlat soliq bo'yicha imtiyozni berib, uning ishlab ketishini ta'minlash bilan o'zi shug'ullanmagan. Bu aql bovar qilmaydigan kulguli hol. Bu muammoning hal etilishi davlatning faoliyatiga bog'liq bo'lganda edi, bu narsa allaqachon hal etilar edi. Afsuski, bundoq emas.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida imtiyozga ega bo'lishda muammo paydo bo'lishi mumkin. Ammo qo'lga kiritilgan imtiyozdan foydalanishda, uni ishlatishda esa muammoning bo'lishini aqli raso odam idrok eta olmaydi. Siz bilan biz orzu qilayotgan mamlakatlarda soliqlar bo'yicha zig'irdek imtiyozga ega bo'lish, bizdagidek, osonlik bilan emas, balki ayovsiz va shiddatli kurashlar natijasida qo'lga kiritiladi.

O'sha imtiyozni berish yoki bermaslik masalasi u yoki bu hukumatning taqdirini, hokimiyat tepasida qolish yoki qolmasligini belgilab beradi. Respublikamiz rahbariyati tomonidan hayotga tatbiq etilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat orqali soliqlar bo'yicha turli-tuman imtiyozlar ikki qo'llab taqdim etib turilsa-yu, ulardan samarali foydalanishni uddasidan o'zimiz chiqa olmayotgan bo'lsak, davlat dodini kimga aytsin va u yana nima qilib bersin?

Shu o'rinda quyidagi savolning javobini topish ham alohida ahamiyatga ega: berilgan soliq imtiyozlardan to'liq foydalanishning uddasidan chiqaolsak, unda nima bo'lishi mumkin?

Soliqlar bo'yicha imtiyozlarning berilishi, ma'lum ma'noda davlatga yoki byudjetga tegishli bo'lgan mablag'lar bir qismining xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida qoldirilishini anglatadi. Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, agar hozirgi paytda qonunchilikda hech bir qo'shimcha o'zgarishlarni kiritmasdan turib mavjud imtiyozlardan to'liq foydalanishning uddasidan chiqa olsak, xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida qoldirilishi mumkin bo'lgan mablag'lar byudjet daromadlarining qariyb 50%iga teng bo'lishi mumkin ekan. Bunday natijaning qo'lga kiritilishi davlat byudjetining daromadlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan juda katta risk bo'lsa-da, davlat shunga yo'l qo'yayapti. Uning niyati shunday qaror qabul qilish evaziga xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ahvolini keskin mustahkamlashdan iborat. Shuning uchun ham to'la ishonch bilan aytish mumkinki, berilgan imtiyozlardan to'liq foydalanishning uddasidan chiqa olsak, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ahvoli yaxshilanardi, ularning beli baquvvat bo'lib, o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarar edilar, mavjud muammolarning juda ko'pchiligi hal etilgan bo'lur edi.

Endi quyidagi savollarga javob berishga harakat qilaylik: soliq imtiyozlarini berib, ko'zlagan maqsadlarga erishayapmizmi? Imtiyozga ega bo'lganlarning ahvoli qanday?

Soliqlar bo'yicha imtiyozlarni berib, tadbirkorlik faoliyati keng quloch yoyadi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moli-

yaviy ahvoli keskin yaxshilanadi, to'lov oborotidagi muammolar barham topadi, korxonalar byudjet oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida to'liq bajaradilar, imtiyozga ega bo'lganlarning ahvoli keskin yaxshilanadi, barchamiz samarali foliyat ko'rsatamiz, deya o'z oldimizga maqsadlarni qo'ygan edik. Vaziyat ancha yaxshilangan bo'lishiga qaramasdan baribir bugungi kundagi real ahvolni inobatga olgan holda soliqlar bo'yicha imtiyozlarni berib, ko'zlangan maqsadlarga to'liq erishdik, imtiyozga ega bo'lganlarning ahvoli keskin yaxshilandi, deya olmaymiz. Juda ko'pchilik hollarda imtiyozga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning aksariyati imtiyoz davri davomida faoliyat ko'rsatishga harakat qilayotganlari sir emas. Imtiyoz davrining tugashi yaqinlashgan sayin bunday «firma»larning paytavasiga qurt tushib, qanchalik to'siqlar qo'yilgan bo'lishiga qaramasdan, ularning pulni pulga urishtirib, pul tug'diradigan «rahbar»lari o'z «firma»larini tugatishga va bir vaqtning o'zida parallel ravishda yangi imtiyozga ega bo'luvchi «firma»lar ochishga harakat qilayaptilar. «Qo'lovini topsang, qor ham yonadi», - degan qoidaga rioya qilib, buning ustidan chiqayaptilar ham. O'rni kelganda esa, siz bilan biz «Menga nima, qandini ursin!», - deya oddiy tomoshabin bo'lib o'tiribmiz.

Imtiyozga ega bo'lgan juda ko'pchilik xo'jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy ahvol yaxshilanmayapti. Ularning faoliyati hamon «eski hammom, eski tos»ligicha qolayotir. Bularni qay tarzda baholash mumkin? Nima bu, tuzini eb, tuzliqqa tupurishmi? Yoki siz bilan bizning imtiyozlarni berib qo'ygan davlatimizga o'ziga xos tarzda «rahmat» aytishimizmi? Ana shunday sharoitda «Qo'shimcha soliq imtiyozidan umidvor bo'lishga haqqimiz bormi?», - degan savolning kun tartibiga qo'yilishi tabiiy.

Haqiqiy vaziyat ana shunday bo'lib turgan bir paytda «Soliqlar bo'yicha yana imtiyoz berilsa, ayni muddao bo'lur edi-da! Juda ko'p muammolarmiz o'z-o'zidan hal bo'lib ketar edi», - degan xayollarga boramiz. Amaldagi imtiyozlarga qo'shimcha ravishda yana imtiyoz berilishidan umidvor bo'lamiz. Bunday xayollarga borishdan oldin «Berilgan im-

tiyozlardan qanday foydalanayapman? Ulardan (mavjudlardan) to'liq foydalanishning uddasidan chiqa oldimmi? Menga berilgan imtiyoz o'z oldiga qo'yilgan vazifasini bajardimi?» va hokazo shunga o'xshash savollarga xolisona insof bilan javob bersak yaxshi bo'lar edi.

Ulardan tashqari o'zingizni ham davlatning o'rniga bir qo'yib ko'ring. Siz imtiyozni bersangiz-u, uni olgan tomon imtiyozdan foydalanishning to'liq uddasidan chiqa olmasdan, sizga «Yana qo'shimcha ravishda imtiyoz bering!», - desam, nima deb javob bergan bo'lar edingiz. Hech bo'lmaganda, agar o'zingizni zarracha hurmat qilsangiz, «Og'ayni, oldin olganingni to'liq hazm qilgin, undan so'ng yetishmasa, mendan yana so'rashing mumkin», - deb javob berishingiz, shubhasiz.

Boz ustiga «Ber! Ber!»larning chegarasi ham bo'lishi kerak. Imtiyoz «oltin tog'» bo'lganda ham uni yotib olib yoki yonboshlab yeyaverish maqsadga muvofiq emas, u bir kun tugashi mumkin. Shu ma'noda, berilayotgan imtiyozlarning «rezinka» emasligi ham esdan chiqmasin.

Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish soliq siyosati samaradorligini (ta'sirchanligini) ta'minlashning garovi ekan, bu yerda eng muhimi soliq va unga nisbatan beriladigan imtiyoz o'rtasida dialektik bog'liqlik borligini ko'ra bilishdir¹⁰⁰. Afsuski, uni oddiy ko'z bilan ko'rishning iloji yo'q. U aql ko'zi bilan ko'riladi. Bunday bog'liqlikni ko'rish uchun ozgina farosat, aql-zakovat va bilimning bo'lishi taqozo etiladi. Aks holda barcha urinishlar behuda ketaveradi, o'sha bog'liqlikni ko'ra olmasdan, ojizligimizcha qolaveramiz.

Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlik yaratilgan daromadni taqsimlash jarayonida namoyon bo'ladi. Uning birinchisi (soliq) yaratilgan daromadning bir qismini byudjetga olishni, ikkinchisi (imtiyoz) esa olingan daromadning bir qismini yana qo'shimcha ravishda xo'jalik yurituvchi subyektning ixtiyorida qoldirishni taqozo etadi. Mana

¹⁰⁰ Bu to'g'risida ushbu bobning keyingi paragrafidam batafsil to'xtalamiz.

shu jarayonda maʼlum bir muvozanat taʼminlanishi lozim. Oʻz navbatida, muvozanatning taʼminlanishi shu jarayonda ishtirok etuvchilar (ishchi-xizmatchilar, korxona va davlat) manfaatlarining mushtarakligi (bir-biriga mos kelishi) bilan belgilanadi. Daromadni taqsimlash jarayonida ishtirok etuvchilarning har biri «har kim koʻrpani oʻzi tomonga tortishi kerak» prinsipidan foydalansalar, kelgusi davrda daromad-dan (koʻrpadan) umuman ajralib qolishlari, shubhasiz. Shu joyda ishtirokchilar oʻzlarining kalta oʻylashlari oqibatida A.S.Pushkinning «Baliqchi va baliq haqida ertak» asarining (1833-yilda yozilgan) qahramoni va faqat oʻz manfaatini oʻylagan Baliqchi cholning kampiri ahvoliga (oxir-oqibatda yana oʻz teshik togʻorasiga ega boʻlib qolgan) tushib qolishlarini sira-sira istamas edik.

Soliqlar boʻyicha berilayotgan imtiyoz ikki tomonlama xarakterga ega. Uni bir tomon (davlat) beradi va ikkinchi tomon (xoʻjalik yurituvchi subyektlar) oladi. Soliq va imtiyoz oʻrtasidagi dialektik bogʻliqlik ana shu berish-olish jarayoni har ikkala tomonning ham manfaatlariga mos kelishini taqozo etadi. Koʻpchilik oʻylaganidek, bu jarayonda bir tomon yutib, ikkinchi tomon esa yutqazishi mumkin emas. Yoki undan bir tomon foyda, ikkinchi tomon esa zarar koʻrmasligi kerak. Xoʻsh, bunga qanday qilib erishish mumkin?

Savolning javobi unchalik murakkab emas. Bunga erishish uchun imtiyozni olgan tomon «Ura! Imtiyozga ega boʻldik! Bizning koʻchamizda ham bayram boʻladigan kun bor ekan-ku! Xayriyat, bizning peshonamizga ham oftob tegdi-ya! Endi jonimizni koyitmasdan, oyoqni bimalol uzatib, bamaylixotir ishimizni oldingidek tashkil qilsak boʻlaveradi. Bir kunimiz oʻtsa, boʻldi-da! Jonimizni koyitib ishlaganimiz bilan davlat bizga «Rahmat!» dermidi», - degan kayfiyatda boʻlmasdan, aksincha, «Imtiyozni oldim. Davlat meni toʻgʻri tushundi. Faoliyatimni qoʻllab-quvvatlayapti. Davlatga rahmat. Menga qulay sharoitni yaratib berganligi uchun endi men oldingidan koʻra yanada yaxshiroq va samaraliroq ishlashim kerak!», - degan yakkayu-yagona toʻgʻri xulosaga kelib, oʻz faoliyatini shunga monand ravishda tashkil qilishi kerak. Oʻshan-

dagina oldingidan yanada yaxshiroq va samaraliroq ishlash evaziga imtiyozni olgan tomon ko'proq daromadni yaratishi mumkin. O'z navbatida, oldingidan ko'proq daromadning yaratilishi imtiyozni berish natijasida ko'zlangan maqsadga erishilganligini anglatadi. Ko'proq daromadning yaratilganligidan har ikkala tomon – imtiyozni bergan (davlat) va uni olgan (xo'jalik yurituvchi subyekt) - ham manfaatdordir. Bu narsa har ikkala tomonning manfaatlariga ham mos tushadi. Bu soliq bo'yicha imtiyozni berish natijasida uning ishtirokchilari o'rtasida manfaatlar mushtarakligiga erishildi, demakdir. Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ana shuni taqozo etadi.

Aslida soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlikning ma'no-mazmunini idrok etish siz bilan bizdan ko'p narsani talab etmaydi. Buning uchun yuqorida ta'kidlanganidek, o'z vaqtida o'zbekona aytilgan va necha-necha asrlar davomida hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, to'g'riligi isbot talab qilmaydigan va turmush tarzimizga aksioma sifatida qabul qilingan «Qars» ikki qo'ldan chiqadi», «Six ham kuymasini, kabob ham», «Sizdan «u»gina, bizdan «bu»gina», «Sendan – harakat, mendan - barakat», «Toqqa chiqmasang do'lona, jon kuydirmasang, jonona qayerda?» degan maqollarning bejiz aytilmaganligiga ozgina e'tibor berilsa-yu, ularning zamirida nima yotganligiga har qadamda rioya qilinsa, bo'ldi. Olam guliston!

Muammoning mohiyatini yuqorida keltirilgan tarzda mushohada qilish qo'limizdan kelsa, unga fahm-farosatimiz yetsa, Prezidentimiz tomonidan «**Soliq tizimi nafaqat soliq-larni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim**» deb qo'yilgan vazifani bajarishga o'zimizning munosib, kamtarona hissamizni qo'shgan bo'lar edik.

6.3. Soliq va imtiyoz dialektikasi

Ushbu bobning oldingi paragrafida soliq va imtiyoz dialektikasining mohiyatini ochib berishga harakat qilgan bo'lsakda, muammo o'ta murakkab bo'lganligi uchun bizningcha,

unga batafsil to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bu vazifani quyida bajarishga harakat qilamiz. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, hozirgi kunda soliq to'lovchilarning barchasi soliqlar bo'yicha imtiyoz masalasiga befarq qaray olmasligi hammaga ayon. O'z ixtiyoriga qo'yib berilsa, har bir soliq to'lovchi barcha soliqlar bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lishni xohlaydi. Ularning ishtahalari hatto shu darajadaki, "Agar sizni soliq to'lashdan batamom ozod etsak, nima deysiz?",- deb savol beradigan bo'lsak, sira o'ylanilmasdan, xuddi yuqorida ta'kidlanganidek, "nur ustiga a'lo nur bo'lardi", "ayni muddao bo'lur edi", "ko'nglimdagi gapni topib aytdingiz" va boshqa shu ma'nodagi javoblarga ega bo'lishimiz, shubhasiz. Bu, tabiiy narsadek tuyuladi. Chunki yuqoridagi tadbirning amalga oshirilishi soliq to'lovchilarning manfaatlariga moydek yoqib tushadi va ular xuddi shuning uchun ham yuqoridagi tartibda javob beradilar.

Aslida savolga biz to'g'ri javob qaytardikmikan? Bergan javobimiz o'z asosiga egami? Javobimizni haqqoniyligini hayot tasdiqlarmikan? Savol va uning javobi o'rtasida qandaydir bir dialektik bog'liqlik yo'qmikan? Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektikaning mohiyatidan bizning soliq to'lovchilari-miz xabardormikanlar?

To'g'risini ayta qolaylik: soliq to'lovchilarimizning aksariyati soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektikaning asl mohiyatini to'g'ri tushunayotganlari yo'q. Bu narsa ular tomonidan o'zgina to'g'ri tushunilganda edi, hech bo'lmagan-da, "Falonchi soliq bo'yicha imtiyoz berilganda, ishimiz yurishib ketardi", "Ishimiz yurishmayotganligining asosiy sababi soliqlarda" kabi fikrlarni bildirishga o'rin qolmasdi.

Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektikaning asl mohiyatini to'g'ri tushunmoq uchun dastlab, bir narsaga alohida e'tibor bermoq zarur. Gap shundaki, bizning sharoitimizda "Hayotda nimadan qochib qutulishning iloji yo'q?",-deb savol berilganda, hammamiz jo'r bo'lib, "O'limdan!",- deb javob beramiz va bar-chamiz haqiqatdan ham shunday ekanligiga yuz foiz ishonamiz. Savolning javobi faqat xuddi shundan iborat ekanligi bizning jamiyatimiz a'zolarida hech qanday shubha qoldirmaydi.

Bizda bu javob aksioma sifatida qabul qilingan. Munosabatlari-mizdagi “O’limdan boshqa hammasining iloji bor!”, - deyilgan aqida ham xuddi shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, xuddi shu savol bozor munosabatlari sog’lom rivojlangan mamlakatlarda berilganda ulardagi jamiyat a’zolari bu savolga negadir, o’zgacharoq javob beradilar. Mana ularning javoblari: “Hayotda o’limdan va soliq to’lamaslikdan qochib qutulishning sira iloji yo’q!”. Savolning javobi faqat va faqat shunday bo’lishi kerakligiga ular ham yuz foiz ishonadilar. Bu javob ularda ham aksioma sifatida qabul qilingan.

Jamiyatimiz a’zolari G’arb mamlakatlarida berilgan javobning birinchi qismini to’liq tasdiqlab, unga qo’shilsalar-da, javobning ikkinchi qismi ham bor ekanligiga sira ko’nika olmayotirlar. Oramizda “Kerak bo’lsa, soliqdan qochib qutulishning sizga ming bitta yo’lini ko’rsatishim mumkin”, - deguvchilar ham ko’plab topiladi.

Bundan bir necha asr burun bir g’arb mutafakkiridan “Inson ne uchun dunyoga keladi?” - deb so’ralganida ul zot “O’lish va soliq to’lash uchun!” - deb javob bergan ekan. Bozor munosabatlari sog’lom rivojlangan mamlakatlarda soliq va imtiyoz dialektikasining negizini ana shu falsafiy fikr tashkil etadi.

Yuqoridagi tartibda mushohada qilishimizdan maqsadimiz bitta: soliq to’lovchilar soliq va imtiyoz o’rtasidagi dialektikaning asl ma’nosini to’g’ri tushunishlari uchun dastlab, faqatgina o’limdan emas, balki soliq to’lamaslikdan ham qochib qutulishning iloji yo’q ekanligini qalban his etmoqlari darkor. Soliq to’lovchilarimizda bunday hissiyot paydo bo’lmas ekan, ular soliq va imtiyoz o’rtasidagi dialektikaning asl mohiyatini idrok etishga hamon o’zliklaricha qolaveradilar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yuqoridagi hissiyot jamiyatning har bir a’zosida qaror topmog’i lozim. Bu ham-maga bir xil tarzda tegishli bo’lgan narsadir. Bu narsa oddiy fuqarodan tortib butun dunyoga mashhur bo’lgan, shu millatning faxri hisoblangan, uni butun dunyoga tanitib, uning obro’siga obro’ qo’shgan har bir shaxsga nisbatan ham bir

xilda daxldordir. Agar ta'bir joiz bo'lsa, shu o'rinda biz ham-maga tushunarli bo'lishi uchun bu narsani "shohu gadoga" bab-baravar bo'lgan narsa, deb ta'kidlagan bo'lar edik. Bu hissiyotni vaqtincha bo'lsa-da unutayozganlar, u bilan his-oblashmaganlar jamiyatda qanday mavqeni egallab turgan-laridan qat'i nazar tegishli tarzda beriladigan jazoga loyiqdir-lar va ular, shak-shubhasiz, jazolanmoqlari kerak.

Fikrlarimiz quruq so'zlardan iborat bo'lib qolmasli-gi uchun birgina misol keltiraylik. Shteffi Graf nomli bu-tun jahonga mashhur bo'lgan nemis tennischisini bizning xalqimiz ham juda yaxshi biladi. U ma'lum ma'noda hozir-gi kunda nemis xalqining milliy iftixori, milliy qahramonidir. Tom ma'noda nemis xalqi obro'-e'tibori, nemis davlati uchun uning xizmatlari benihoyadir. Uning xizmatlari nemis xalqi-ni dunyoda yanada mashhur etishga o'z hissasini qo'shdi. U topgan daromadlar faqatgina uning ehtiyojlarini qondirib-gina qolmasdan, balki ma'lum ma'noda nemis davlatining moliyaviy jihatdan baquvvatlashuviga olib keldi. U tomoni-dan xayr-ehson maqsadlariga qilingan xarajatlarni sanab ni-hoyasiga yeta olmaysiz. U tinimsiz mehnati tufayli faqatgina o'zini boyitibgina qolgani yo'q, balki boshqalarni, shu jum-ladan, o'z davlatini ham boyitdi.

Lekin nima bo'ldi-yu, ayrim sabablarga ko'ra uning soliq deklaratsiyasida ko'rsatgan raqamlariga nemis soliqchi mu-taxassislari shubha bilan qarab qoldilar va ularning shub-halari asosli ekanligini hisob-kitoblar tasdiqladi. Ma'lum bo'lishicha, Shteffi Grafga tegishli bo'lgan daromadlarning bir qismi soliq deklaratsiyasida o'z ifodasini topmagan. Vu-judga kelgan bu vaziyat tegishli tarzda prinsipial baholandi: Shteffi Graf to'g'ridan to'g'ri soliq to'lashdan bosh tortganlik-da ayblandi, unga nisbatan bir necha million nemis markasi miqdorida iqtisodiy jazo chorasi – jarima belgilandi va undi-rib olindi. Jazo belgilanayotgan paytda uni nemis xalqining milliy iftixori, qahramoni ekanligi, nemis xalqi va davlatining oldidagi uning xizmatlari inobatga olinmadi, unga nisbatan "o'zbekchilik" qilinmadi, "odamgarchilik" nuqtayi nazaridan qaralmadi. U o'z qilmishiga yarasha (soliq to'lashdan qis-

man bosh tortganligi uchun) jazosini oldi¹⁰¹. Sodir bo'lgan bu fakt biz yuqorida ta'kidlagan faqat o'limdan emas, balki soliq to'lamaslikdan ham qochib qutulishning sira iloji yo'q ekanligi, bu qoida shohu gado uchun bab-baravar ekanligini yana bir marta tasdiqlamoqda.

Soliq va imtiyoz dialektikasining asl mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi, degan niyat bilan Sizning diqqat-e'tiboringizni yana bir narsaga qaratmoqchimiz. Gap shundaki, yurtimizda osoyishtalik, tinchlik, xotirjamlik hukm surayotir. Buni butun dunyo tan olayotir. Ko'plar bu real voqealarga havas bilan qarayotir. Bu holatlar ham soliq va imtiyoz dialektikasining asl mohiyatini to'g'ri tushunishga harakat qilinayotganda nazardan chetda qolmasligi kerak. Nega deysizmi? Marhamat, tasavvur qilib ko'ring. Yurtimizdagi tinchlik tufayli soliq to'lovchilarimizga juda qulay sharoit yaratilgan. Ularning mol-mulklarini yoqib yuborish xavfi yo'q. Reketchilar (yo'lto'sarlar) har qadamda ularning yo'llarini to'sib turgani yo'q. Ularning mol-mulklari zo'ravonlik yo'li bilan talon-toroj qilinmayapti. Farzandlar o'g'irlanib, ota-onalar qon qaqshatilmayapti. Tadbirkorlarimiz yoki uddaburon ishbilarmonlarimiz "buyurtmali o'lim" nima ekanligini hali o'z jismlari yoki o'z issiq jonlari orqali sezib ko'rganlari yo'q. Ertanggi kunga ishonchsizlik kayfiyati qora bulutdek ularning miyasini chulg'ab olmagan.

Uzoqqa bormang. Mamlakatimiz sahnida turib, tevarakatofga nazar tashlang. Ommaviy axborot vositalari orqali sizning e'tiboringizga havola etilayotgan ma'lumotlarni tahlil qiling. Qo'shni mamlakatlarda nimalar sodir bo'lyapti? Ulardagi real ahvol qanday? Boshqa narsalarga e'tibor bermasdan masalaga bevosita aloqador bo'lgan faktni ta'kidlaylik: bu mamlakatlardagi soliq to'lovchilar siz bilan bizdan ko'ra ko'proq soliq to'lasalar to'layotirlar-ki, ammo kam to'layot-

¹⁰¹ Xuddi shunday chora butun dunyoga ma'lum-u, mashhur bo'lgan S.Loren, P.Domingo, L.Pavarotti, B.Bekker, G.Xiddink, U.Snayps va boshqalarga nisbatan ham qo'llanildi. Rossiyalik milliarder M.Xodorkovskiy ozodlikdan mahrum etilganligining asosiy sabablaridan biri soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganligidir.

ganlari yo'q. Buning ustiga ular mol-mulkni yoqib yuborish, reket, zo'ravonlik va "buyurtmali o'lim"lar natijasida juda katta zarar ko'rayotirlar, risk darajasi yuqori bo'lgan sharoitda, tavakkalchilik asosida har qadamda kutilmagan xavf-xatarga duch kelish ehtimoli juda katta bo'lgan holatlarda faoliyat ko'rsatayotirlar. Siz bilan bizdan ko'proq soliqni davlatga to'lab qo'ygan bo'lsalar-da, ularning davlatlari osoyishtalik va xotirjamlikni ta'minlagani yo'q, hanuzgacha tinchlik, degan muqaddas so'z ularning orzusi bo'lib qolayotir. Bularni kafo-latlashni ularning davlatlari uddalayotgani yo'q. Holbuki, o'z fuqarolari uchun tinchlik va osoyishtalikni ta'minlab berish har bir davlat uchun ham qarz, ham farz sanaladi.

Yana bir marta mulohaza qiling: tevarak-atrofimizdagi bir necha mamlakatlarda soliq to'lovchilar bir vaqtning o'zida ham soliq to'layaptilar, ham yuqorida ta'kidlangan notinchlik natijasida juda katta summalarda zarar ham ko'rayotirlar. Ayrim hollarda ko'rilgan zararlar summasi to'langan soliqlar summasidan bir necha baravar ortiq. Bu "o'lganning ustida tepgan" emasmi? Biz bu yerda ma'naviy jihatdan ko'rilgan zararlarni e'tiborga olayotganimiz yo'q. Ba'zan o'sha notinchlik oqibatida etkazilgan ma'naviy zararni hech bir moddiy mablag' bilan tiklashning imkoniyati bo'lmayapti. Shu bois-dan yurtimizdagi tinchlik tufayli soliq to'lovchilarimizga juda qulay sharoit yaratilganligini xolisona tan olmaslik insofdan bo'lmasa kerak. Soliq to'lovchilarimiz bu narsani yana bir marta o'ylab ko'rsalar, bizningcha, yaxshi bo'lar edi. Nima dedingiz? Yoki biz nohaqmizmi?...

Soliq va imtiyoz dialektikasiga nisbatan munosabat bildirilayotganda soliq to'lovchilarimiz masalaning yana bir tomonini inobatga olishlari zarur. Bu o'rinda gap soliq to'lovchilarimizning o'zlarini ijtimoiy jihatdan himoyalash to'g'risida ketayotir. Marhamat, fikrlang: soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlar evaziga byudjetning daromadlar qismi shakllanadi. Xo'sh, hozirgi bizning sharoitimizda bu byudjet daromadlari qayoqqa sarf qilinayotir? Agar biz byudjet xarajatlarining tarkibiy tuzilishini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning asosiy qismi sotsial-madaniy tadbirlarni

moliyalashtirishga yoki aholini ijtimoiy himoyalashga sarf etilayotganligining guvohi bo'lamiz. Obyektiv reallik shundan iborat. Buni hech kim inkor eta olmaydi.

Byudjet xarajatlarining asosiy qismini aholining ijtimoiy himoyalash maqsadlariga yo'naltirib, davlatimiz murakkab bir sharoitda o'zga davlatlardan farqliroq o'z fuqarolarini o'z holiga tashlab qo'ymadi, ularning taqdiriga befarq qaramadi, "o'z aravangni o'zing tort" qabilida ish tutmadi, "yangi sharoitda oramiz ochiq", - demadi va imkoni boricha ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelayotir. Bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o'tish jamiyat a'zolariga haddan ziyod og'irlik qilmasligi to'g'risida yo'l tutib, aholining ijtimoiy guruhlarini o'rtasida keskin farqlar bo'lishiga yo'l qo'yilmayotir. Ishonchimiz komilki, davlatimizning beli baquvvat bo'lmaganida bunday oqilona, uzoqni ko'zlab, ertani o'ylab yurgizilayotgan siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshira olmasdi. O'z navbatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning belini baquvvat, qo'lini uzun qiladigan narsa bu - soliqlardir. Xuddi shuning uchun ham yurtboshimiz o'z asarlarida "Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi", - deb ta'kidlayotir.

Soliq to'lovchilarimizning o'zlarini ijtimoiy jihatdan himoyalash to'g'risida fikr yuritar ekanmiz ularga bir savol berib ko'raylik: "Siz davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinishni xohlaysizmi?" Ularga bu savol bilan murojaat qilganda hech bir soliq to'lovchi rad javobini bermasligi hamмага ayondir. Hamma o'zining davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinishini xohlaydi. O'z navbatida, davlat tomonidan bu ishning amalga oshirilishi ma'lum miqdordagi mablag'larining byudjetdan sarf etilishini taqozo etadi. Mablag' byudjetda bo'lsagina uni xarj etish mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki, byudjetda mablag' bo'lmasa, uni sarf etish to'g'risida gapirish nomantiquiy bo'lib, shunga mos ravishda, soliq to'lovchilarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida gapirish ham o'z ma'nosiga ega emasdir. Mantiqqa rioya qilyapmizmi? To'g'ri gapiryapmizmi? U holda tabiiy ravishda, yana bir savol tug'iladi: Byudjet mablag'ni qayerdan oladi? Ijtimoiy himoya qilinish-

dan umidvor bo'lganlar bu savolga ham to'g'ri javob berishlari kerak. Lekin ularning aksariyati bizning sharoitimizda bu savolga xolisona javob berayotganlari yo'q. "Ishimiz nima, topsin-da!" - deguvchilar hali oramizda juda ko'p. Berilgan savolga shu tarzda o'ylamasdan javob beruvchilar "Holva degan bilan og'iz chuchimas" degan xalq maqolining asl ma'nosini bilsalar-da, negadir "Topsin-da!", - deyilgani bilan topilmasligiga aqlari yetmay turganiga hayronmiz.

Bordi-yu, davlat "topdi" deylik. Masalan, davlatga chetdan (boshqa davlatlar tomonidan) yordam ko'rsatilishi mumkin. Garchi chetdan bekordan bekorga yordam berilmasa-da, boz ustiga bunday yordamning berilish ehtimoli juda-juda kichik bo'lsa-da, bunday "topish" orqali davlat shu yo'l bilan "Topsin-da!" deguvchilarni ma'lum qisqa vaqt ichidagina ijtimoiy jihatdan himoyalashi mumkin, xolos. Aslida shu o'rinda "Topsin-da!" deguvchilar "Yotib yeganga tog' ham chidamas" degan xalq maqoli ham bekorga aytilmagani hisobga olsalar bo'larmidi?

Chetdan mablag' olishning yordam ko'rsatishdan boshqa shakli ham mavjud. Masalan, davlat boshqa bir xorijiy davlatdan ma'lum bir shartlar asosida qarz olishi mumkin. E'tibor bering-a? Biz bu yerda oddiygina qilib «Davlat boshqa bir xorijiy davlatdan qarz olishi mumkin» deyayotganimiz yo'q. "Ma'lum bir shartlar asosida" qarz olishi mumkinligini ta'kidlayapmiz. Haqiqatdan ham hayotda yoki amaliyotda qarz doimo ma'lum bir shartlar asosida beriladi. Hech bo'lmaganda ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng qarzga olingan mablag'ning o'zini uning egasiga qaytarmoq zarur. Aksariyat hollarda esa odatda, qarz undan foydalanganlik uchun haqi bilan birgalikda qaytariladi. Demak, qarz olishning davlat uchun ma'lum bir «og'irlik» tomonlari ham bor. Olingan qarz qo'yilgan tegishli shartlarga qat'iy rioya qilingan holda o'z muddatida egasiga qaytarilmasa, ikkinchi marta qarz olishdan umidvor bo'lish xomxayollikdan o'zga narsa emasdir.

Davlat tomonidan olingan tashqi qarzning faqat iqtisodiy xavfi bo'lmasdan, balki bu tartibda ish yuritishning siyosiy

xavfi ham bor. Buning qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini idrok etish ko'p aqlni talab qilmaydi.

“Byudjet mablag'ni qayerdan oladi?”, - degan savolga xolisona javob berib, gapning indallosini aytib qo'yaqolaylik: davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinishni xohlovchilar o'zlarining xohish-istaklari amalga oshishi uchun davlatga tegishli soliqlarni belgilangan miqdorda va o'z vaqtida to'lab turishlari kerak. Faqat shundagina ularning orzu-umidlari ro'yobga chiqadi. Aks holda...

Shu o'rinda yana bir real voqelikka e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Ayrim hollarda rivojlangan mamlakatlardagi ahvolni ko'rib fuqarolarimizning havaslari kelib qoladi. “Zap ajoyib davlat ekan-da, o'z fuqarolari to'g'risida doim qayg'urar ekan, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlar ekan. Mana buni haqiqiy davlat, desa bo'ladi”, -qabilidagi fikrlarga boriladi. Albatta, havas yaxshi narsa. Lekin ana shunday o'zga davlatlar to'g'risida havas qilinayotgan paytda o'sha davlatlarning insonparvarligi nimaning hisobidan amalga oshirilayotganligi to'g'risida ozgina o'ylab ko'rilsa, gap o'zingiz xohlamagan holda yana beixtiyor soliqlarga borib taqalganligining guvohi bo'lasiz. Soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlarning soni va ularning stavkalarini ko'rib dahshatga tushib qolsangiz-da, o'sha davlatlarning insonparvarligi nima hisobidan moliyalashtirilayotganligini bilasiz va o'z havasingizdan tezda voz kechasiz, lekin tez orada “negadir” bu haqiqiy ahvolni ongli ravishda yana “unutib” qo'yasiz, esdan chiqarasiz, hissiyotga berilib, asossiz havas qilasiz va o'zingizni o'zingiz aldaysiz.

Yana bir hayotiy misol keltiraylik. Yo'llarimizning ahvolini ko'rib, yana davlatdan xafa bo'lamiz. Mashinamizning g'ildiraklari bir marta chuqurga tushib chiqsa, beixtiyor “Davlat qachon bu yo'llarni tuzatarkin”, - deb norozi bo'lamiz. “Qachon bizning yo'llarimiz Evropa mamlakatlarinikidek bo'larkin?” - deb orzu qilamiz. To'g'risini aytib qo'yaqolaylik: bu va shunga o'xshagan muammolarning hal etilishi yoki orzularning ushalishi ham soliqlar va soliq to'lovchilarga bog'liq. Mana isboti: Germaniya yo'llariga qoyil qolib, men

Moliya vazirligining vakiliga savol berdim: “Yo‘llaringizning shu darajada bo‘lishida soliqlarning xizmati katta bo‘lsa kerak. Shu maqsadda olingan soliq summalarining hammasini faqat yo‘llarning sifatini yaxshilashga sarflaysizmi yoki buning boshqa bir yo‘li bormi?” Mas’ul xodimning bergan javobi: “Agar soliq to‘lovchilardan faqat shu maqsadda olingan soliq summalarining hammasini faqat yo‘l qurilishiga sarflasak, butun Germaniyaning territoriyasini asfaltlab chiqqan bo‘lur edik”dan iborat bo‘ldi. Albatta, soliq to‘lovchilar butun Germaniya territoriyasini asfaltlab chiqishga yetgulik mablag‘larni yolg‘iz bir soliq yordamida byudjetga to‘lab qo‘yganlaridan so‘ng ularning yo‘llari havas qilgudek darajada bo‘lmasdan bizniki bo‘lsinmi? Biz bu yerda masalaning boshqa tomonlarini ongli ravishda e’tibordan chetda qoldirayapmiz.

Real ahvol shu darajada bo‘lganligiga qaramasdan ayrimlarimiz yana norozi bo‘lib, “Byudjetga shuncha soliq to‘layapmiz. Bu mablag‘lar qayoqqa ketayapti? Hech kim bizga hisobot bermayapti-ku!” - degan fikrlarga ham boramiz. Ishonchingiz komil bo‘lsin, siz tomondan byudjetga to‘langan mablag‘larni davlat “yeb” ketayotgani yo‘q. Uni o‘zingizga boshqa bir shakllarda qaytarib berayotir. Buning uchun siz byudjetning xarajatlar qismiga nazar tashlashingiz kerak. Sizdan soliqlar shaklida olinib, to‘plangan mablag‘larning qayoqqa “ketayotganligi” tiyinma-tiyin shu hujjatda ko‘rsatilgan. Bu hujjat qonun kuchiga ega. Unga rioya qilmaganlar, albatta, tegishli tarzda jazolanadilar.

“Berilmayotgan hisobot” to‘g‘risida gapirilayotganda quyidagilar e’tiborga olinsa, yaxshi bo‘lardi. To‘g‘ri, bu o‘rinda “Eshmat! Sen byudjetga falon miqdorda soliq summasini to‘lagan eding. U mana bu maqsadlarga sarflandi”, - deb hisobot berilayotgani yo‘q! Bunday tarzdagi “hisobot” dunyoning hech bir mamlakatida berilmagan va berilmaydi ham. Chunki bu tarzda hisobot berish o‘z ma’nosiga ega emas. Shu boisdan bu ma’noda “Hech kim bizga hisobot bermayapti-ku!” - deyishga soliq to‘lovchilarimizning haqqi yo‘q. Chunki hisobot berilayapti. Faqat bu hisobot siz o‘ylaganingizdek tarzda emas, balki boshqacharoq shaklda berilayo-

tir. Axir, har yili bir marta mamlakatimizning Oliy organi tasdiqlangan byudjetning ijrosini muhokama etayapti-ku! Muhokama davomida byudjet xarajatlarining qayoqqa sarf qilinganligi moddama-modda o'z aksini topayotir-ku! Agar siz to'lagan soliq summalarigizni qayoqqa ketayotganligini bilmoqchi bo'lsangiz, ro'znomada e'lon qilingan va shu mavzuga bag'ishlangan materialni erinmasdan o'qib chiqing. "Bu raqamlar meni qiziqitirmaydi, boshni og'ritadi", - deb ro'znomani chetga surib qo'ymang yoki uning to'rtinchi sahifasini o'qishga shoshilmang. Oynai jahonda tegishli mutasaddi shaxs o'tgan yilgi tasdiqlangan byudjet ijrosi to'g'risida gapirayotganda farzandingizga "Buni nimasini ko'ramiz. Boshqasini bura!", - deb buyruq bermang. Agar siz to'lagan solig'ingizning qayoqqa "ketganligini" bilmoqchi ekansiz, soliq inspektorining oldingizga kelib hisobot berishini kutib o'tirmang. Bu savolning javobini topish sizdan ko'p hafsala qilishni talab etmaydi. Savolga javob topmoq uchun siz uchun "zerikarli" bo'lgan va matbuot sahifalarida e'lon qilingan hamda raqamlarga boy bo'lgan materiallar bilan tanishib chiqmog'ingiz kerak, "qiziqarli bo'lmagan" teleko'rsatuvni o'zgina sabr qilib oxirigacha ko'rmog'ingiz lozim. So'rayotgan narsamiz sizga og'irlik qilmayotirmi? Yana aytib qo'yaylik: sizdan bu narsani biz har kuni, har oyda va hokazolarda qilishni talab qilayotganimiz yo'q. Bor-yo'g'i bir yilda bir martagina shu narsaga e'tibor berishingizni so'rayapmiz. Buni ham ertadan kechgacha emas. Oshib borsa, ro'znomaning bir sahifasini o'qib chiqishga qancha vaqt sarflasangiz shuncha vaqt kerak bo'ladi, xolos. Teleko'rsatuvni oxirigacha ko'rishga ham taxminan, sizdan deyarli shuncha vaqt talab qilinadi. Qolgani - sizning idrok etishingizga bog'liq.

Bordi-yu, falakning gardishi bilan tegishli xodim sizning oldingizga kelib, sizdan olingan soliq summalarining qayoqqa sarflanganligi to'g'risida sizga "hisobot" berdi, deylik. Ishoning, har bir tiyin bo'yicha taqsimlanib chiqilganda ham ular baribir oqibat-natijada, 5-6 guruhdan iborat bo'lgan va siz ro'znoma hamda televideniye orqali bilishingiz mumkin bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirishga sarflangani ma'lum

bo'ladi. Bu narsani yilda bir marta shu mavzuga bag'ishlangan ro'znomadagi ma'lumot bilan tanishish yoki teleko'rsatuvni ko'rish orqali bajarish mumkin bo'lib turgan paytda har bir soliq to'lovchining oldiga tegishli xodimni yuborish maqsadga muvofiqmikan? Shu sharoitda "To'lagan soliqlarimiz qayoqqa ketyapti? Bunga kim hisobot beradi?" - deyishga haqqimiz bormikan?

Albatta, bu fikrlarni bildirayotib biz soliq to'lovchilarimiz o'zlarining to'layotgan soliqlari qanday maqsadlarga sarf etilayotgani bilan qiziqmasinlar, bu masala bilan ularning ishlari bo'lmasin, degan fikrlarni bildirishdan yiroqmiz. Shubhasiz, ular bu narsani aniq bilishlari kerak. Chunki faqat loqayd odamgina o'zi to'lagan soliq summalarining taqdiriga befarq qarashi mumkin. Lekin biz jamiyatimiz a'zolari shu narsani bilishga intilayotgan paytda kalta o'ylamasliklarini ma'zur tutasiz, o'rni kelganda kaltafahmlik qilmasliklarini juda-juda istardik. O'ylab ko'ring davlatimiz yuqoridagi tarzda savol beruvchilarning talablarini inobatga olib, tegishli tarzda "har bir soliq to'lovchining soliq summalari qayoqqa "ketganligi" to'g'risida ularga boshma-bosh hisobot berilsin!"- deb ko'rsatma berdi, deylik. Xo'sh, buning oqibati nima bo'ladi? Bunga ketgan xarajatlarni davlat kimning hisobidan qoplaydi? Yana kimga og'ir bo'ladi? Kimning gardaniga yana qo'shimcha yuk tushadi? Yoki masalaning bu tomonlarini inobatga olmaymizmi?

Bu masalaning boshqa bir tomoni ham bor. Chunki davlat tomonidan yuqoridagi savolga bu tarzda javob berilishi davlatning obro'siga obro' qo'shmaydi, uning bu masalani echishda savodsiz ekanini ko'rsatadi, davlat "masxarali" vaziyatga tushib qoladi. Soliq to'lovchilarimiz o'zlarining davlatlarini bunday "ahvol"ga tushib qolishlarini istamasalar kerak?

Shu boisdan quyidagi fikrlarni chertib-chertib ta'kidla moqchimiz: hanuzgacha davlat tomonidan o'z soliq to'lovchilariga hisobot berishning hozirgi shaklidan o'zgacharoq, yanada oqilona shakli topilmagan. Butun dunyodagi davlatlar xuddi bizdagidek tarzda o'z soliq to'lovchilariga hisobot beradilar. Buning boshqa afzalroq yo'li yo'q. Insoniyat

taraqqiyoti, davlatning vujudga kelishi va uning rivojlanish tarixi xuddi shundan dalolat berayotgani o'z-o'zidan ayon. Shu tarzda hisobot berish bu masalani hal etishning eng oqilona usuli ekanligini hayot allaqachon sinab ko'rgan va uning to'g'ri ekanligini tasdiqlayotir.

Yana bir fikr: "To'langan soliqlarimiz qayoqqa ketyapti?" - deb savol berishdan oldin soliq to'lovchilarimiz o'z-o'zlariga "Davlat tomonidan menga qanday yordam ko'rsatildi?" - deb savol berganmikinlar? Bir hisob-kitob qilib ko'ring. Masala kimning foydasiga hal bo'larkin? Yil davomida davlatga qancha soliq to'laganingizning umumiy summasini darhol hisoblab topasiz. Chunki uni siz to'layapsiz-da! "Davlatdan qancha oldingiz, buni ham bir hisoblab ko'ring!" - desak, tan oling bu sizga yoqmaydi. To'g'ri, biz ham tan olaylik, siz tomondan byudjetga qancha to'langanini hisoblashdan ko'ra byudjetdan qancha yordam olganingizni hisoblash ancha murakkab, ayniqsa, siz ko'nika olmaydigan, sizning rozi bo'lishingiz qiyin bo'ladigan, siz ishonmaydigan va hokazo munozarali joylari juda ko'p. Lekin buni ham hisoblasa bo'ladi va davlat allaqachon uni hisoblab qo'ygan. Chunki davlat ham sizga o'xshab o'z yonidan ketadigan mablag'larini hisob-kitob qilmasa bo'lmaydi, u ham bu masalaga sizdek befarq bo'lolmaydi.

Shu joyda xolisona hisob-kitob qilishni sizning ixtiyoringizga qoldiraylik-da (bir harakat qilib ko'ring, juda qiziq vaziyat vujudga keladi, afsus, juda ko'p soliq to'lovchilarimiz uchun masala ular o'ylaganchalik bo'lib chiqmaydi, ularning foydasiga hal bo'lmaydi), hammangizga ma'lum bo'lgan quyidagi real ahvolni ta'kidlaylik: davlat soliq to'lovchilaridan olgan soliq summalariga nisbatan ko'proq xarajat qilyapti. Ishonmayapsiz-a? Marhamat, davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari bir-biriga taqqoslab ko'ring-a. Xarajatlarning umumiy summasi daromadlarning umumiy summasidan ko'proq ekanligiga o'zingiz guvoh bo'lasiz. Byudjet defitsiti, degan narsa paydo bo'layotir¹⁰². Aslida davlat ham

¹⁰² Keyingi bir necha yillar davomida mamlakatimiz davlat byudjeti profitsitli ijro etilayotganligi bilan uning har yili defitsitli qabul qilinayotganligi esdan chiqmasin.

sizga o'xshab daromadlari doirasida xarajat qilishi kerak edi. Chunki xalqimizda "daromadga qarab buromad" degan naql bor. Bu – bekordan bekorga aytilmagan. Bu - davlatga ham tegishli. To'g'rimi? Yoki siz bu qoidaga rioya qilmaysizmi? Ri-oya qilmay ko'ring-chi, ma'lum muddat o'tgandan so'ng ah-vingiz ne kecharkin?

Shunday bo'lishiga qaramasdan davlat o'zi uchun qi-yin vaziyatni vujudga keltirib, daromadlaridan ko'ra ko'proq xarajat qilayotir. Nega? Albatta, o'z fuqarolarining manfaati-ni ko'zlab! Tasavvur qilib ko'ring, hozirgi sharoitda byudjet xarajatlarining biroz qisqartirilishi eng avvalo, kimning man-faatlariga salbiy ta'sir ko'rsatarkin¹⁰³?

To'g'ri byudjet xarajatlarining hammasi ham to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning ixtiyoriga borib tushayotgani yo'q. Uning bir qismi boshqa maqsadlarga ham sarflanayotir. Masalan, mudofaa xarajatlari shular jumlasidandir. Nima bu maqsadga byudjetdan xarajat qilinmasinmi? Aksariyat hollarda esa byudjet xarajatlarining asosiy qismi mamlakat fuqarolarining ahvolini yaxshilash bilan bevosita yoki bilvo-sita bog'liqdir. Buni hech bir kishi inkor eta olmaydi. Bu nar-sa ayniqsa, mahalliy byudjetlarning xarajatlari strukturasi-da yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu byudjetlarda byud-jet xarajatlarining 70% dan 100% gachasi sotsial - madaniy tadbirlarni moliyalashtirishga sarf etilayotir.

Shu joyda: "Men byudjetga 100 so'm miqdorda soliq to'lagan edim, menga byudjetdan hech bo'lmaganda yana aynan 100 so'm qaytarilishini xohlardim. Ana o'shanda ado-latli bo'ladi", - deya xayolga boruvchilarni quyidagi fikrga e'ti-bor berishlarini so'rardik: sizdan byudjet soliq sifatida 100 so'm olib, uning o'rniga yana sizga byudjetdan aynan 100 so'mning qaytarishi o'z ma'nosiga ega emas. Sizdan olingan summani yana o'sha miqdorda sizning o'zingizga qaytaradi-gan bo'lsak, unda uni olib nima qildik? Shu tarzda fikr yu-rituvchilarga bir savolimiz bor edi: agar o'ng cho'ntagingizda-

¹⁰³ Bu xususda biz o'quv qo'llanmamizning 5-bobida batafsil to'xtalib o'tgan edik.

gi 100 so'm pulni olib chap cho'ntagingizga solib qo'ysangiz nima o'zgaradi? Har holda moliyaviy ahvolingiz yaxshilaniib qolmagan bo'lsa kerak? Nimaga ishora qilayotganimizni tushundirsiz?

Bu mulohazalarimizdan soliq to'lovchilarimiz o'zlaricha: "Biz byudjetga ko'proq summada soliq to'lashimiz, byudjet esa kamroq summada qaytarishi kerak ekan-da!" - degan xulosa chiqarmasliklari kerak. Kimdir ma'lum sabablarga ko'ra byudjetga ko'proq soliq to'laydi, lekin undan kamroq naf ko'rishi mumkin. Boshqalar esa aksincha, byudjetga nisbatan kamroq soliq to'laydi, lekin undan ko'proq naf ko'radi. Bu narsa ijtimoiy adolat prinsipining buzilayotganligidan dalolat bermaydi. Buning o'ziga xos obyektiv sabablari bor. Bularning hammasini tarozining ikki pallasiga qo'ysak, pallasning xarajatlar tomoni bosib ketadi. Buni biz yuqorida ham ta'kidlab o'tdik.

"To'lagan soliqlarimiz qayoqqa ketayapti?"- degan savolga yana bir marta qaytaylik-da, davlat soliqlar ma'lum bir qismining qayoqqa ketganligi to'g'risida hisobot bermadi, deb hisoblaylik (haqiqiy ahvolning qandayligi to'g'risida biz yuqorida to'xtaldik). Xo'sh, davlatning shunday yo'l tutishiga haqqi bormi yoki yo'qmi? Bizningcha, haqqi bor. Nima boshqa davlatlar shu sohadagi ayrim narsalarni boshqalardan sir tutmayaptimi? Tarkibida soliq to'lovchilari bor bo'lgan oilaning siri yo'qmikan? "Tijoriy sir" degan narsa bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi hamma subyektlarga tegishlimi? Davlat ham shu subektlarning biri bo'lganligi uchun bu narsa unga ham tegishli bo'lishi kerakmi yoki yo'qmi? Sir tutishning o'ziga xos yaxshi tomonlari ham bo'lsa kerak? Yoki yuqoridagi savollarning hammasini inkor etasizmi? Nima bo'lsa ham yuqoridagi savolga javob izlayotgan paytda masalaning bu tomonlari ham nazardan chetga qolmasligi va ular ham o'zlarining xolisona baholarini olmog'i kerak.

Soliq va imtiyoz masalasi muhokama etilayotgan paytda quyidagi holatning yoki vaziyatning mavjud ekanligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Hozirgi paytda amalda qo'llanilib kelinayotgan soliq qonunchiligiga biror-bir o'zga-

rish kiritmasdan ularda mavjud bo'lgan imtiyozlardan 100% foydalanilsa, xo'jalik yurituvchi subyektlardan byudjetga olinadigan soliqlarning miqdorini (summasini) qariyb 50% ga kamaytirishni imkoni bor ekan. Maxsus ravishda amalga oshirilgan hisob-kitoblarning natijasi ana shuni ko'rsatayapti. Demak, ko'rinib turibdiki, imtiyozlar berilgan, lekin soliq to'lovchilar ulardan yetarli darajada foydalanmasdan kel-yapti. Bunday sharoitda yana qo'shimcha ravishda imtiyozdan umidvor bo'lish o'zining mantiqiy ma'nosiga ega emas.

Haqiqatdan ham berilgan imtiyozlardan to'liq foydalan-sak, undan so'ng bu imtiyozlar yetarli bo'lmagan taqdirda yana qo'shimcha imtiyoz olishga harakat qilsak, bu xat-ti-harakatni tushunish mumkin. Shuning uchun «Soliqlar bo'yicha bizga imtiyoz berilsa yaxshi bo'lar edi», - degan fikrga borishdan oldin «Bizga soliqlar bo'yicha berilgan im-tiyozlarning hammasidan to'liq foydalanib bo'ldikmi?» - deb fikr qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Shuni ham alohida qayd etib o'tish kerakki, soliq va im-tiyoz o'rtasidagi dialektikaning tub mohiyatini hozirgi kunda ayrim iqtisodchilarimiz va hatto, ayrim iqtisodchi olimlari-miz ham to'g'ri tushunayotganlari yo'q. Biz bu o'rinda oddiy fuqarolarimizni, oddiy soliq to'lovchilarimizni to'g'ri tushu-nishimiz va ular soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liq-likni to'g'ri tushunmayotgan bo'lsalar, buni biz ularning ikti-sodiy bilimlilik darajalarining yetarli emasligi bilan izohlashi-miz va ularni ma'lum ma'noda kechirishimiz mumkin. Lekin ayrim iqtisodchi va iqtisodchi olimlarimizni-chi?

Nega biz shu o'rinda o'z ustimizga juda katta mas'uli-yat va javobgarlikni olib ayrim iqtisodchi va iqtisodchi-olim-larimizni ma'lum ma'noda ayblayotirmiz? Asosimiz bormi? Buning boisi nimada?

Birgina misol keltiraylik. Iqtisodchi sifatida juda ko'p anjuman, davra suhbatlari, uchrashuvlarda ishtirok eta-miz. Bularning aksariyatida iqtisodiy muammolar va ularn-ing yechimlari to'g'risida bahslar bo'ladi, bosh qotiriladi. Iqtisodiy jarayonlarning ko'ngildagidek emasligining sababi qidirilganda, "aybdor" izlanganda ayrim iqtisodchilarimiz va

iqtisodchi olimlarimiz, birinchi navbatda, gapni soliqlar tomoniga buradilar. Maʼlum darajada, bu bejiz emas, albat-ta. Hozirgi sharoitda iqtisodiy jarayonlarning koʻngildagidek emasligida soliq tizimining ham hissasi bor. Buni ham xolis-sona tan olmoq lozim. Lekin shunisi ajablanarliki, ayrim iqtisodchi va iqtisodchi-olimlarimiz boshqa sabablarni bir chetga surib qoʻyib, asosiy aybni soliqlarga toʻnkayotirlar. Muammo shu darajada talqin qilinadiki, ularning fikrlaridan ogoh boʻlgan kishi, goʻyo soliq sohasida maʼlum bir oʻzgarishlar kiritilsa, muammolar oʻz-oʻzidan hal boʻlib ketarmish, degan xulosaga keladi. Qani endi shunday boʻlsa! Agar shu-naqa boʻlganda edi, davlat ham boshini ortiqcha ogʻritib oʻtir-masdan allaqachon shu oʻzgarishni amaliyotga joriy etgan boʻlur edi. Lekin “negadir” davlat vujudga kelgan paytidan boshlab hanuzgacha bu ishni amalga oshirmayotir. Nega? Buni bir oʻylab koʻrdingizmi? Iqtisodiyot nazariyasi, marke-ting, menejment, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, xalqa-ro valyuta-kredit munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, buxgalteriya hisobi, informatika, biznes, rejalashtirish, baho va hokazo sohalarning ayrim mutaxassislari, ayrim iqtisod-chilar va iqtisodchi olimlar iqtisodiyotdagi muammolarni hal etish uchun “Soliq sohasida oʻzgartirishlar kerak”, degan “tayyor retsept” berishdan koʻra oʻz sohalarida mavjud mu-ammolar ustida bosh qotirsalar yaxshi boʻlmasmidi? Yoki bu sohalaridagi mavjud muammolar allaqachon sharaf bilan ado etildimikan? Har holda aybni birovga agʻdarish muammoni hal etishning oqilona yoʻli boʻlmasa kerak?

Garchi xalqimizda “Chumchuq soʻysa ham, qassob soʻysin!”, - degan maqol boʻlsa-da, yuqoridagi fikrlarni bildira turib, iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat koʻrsatayotgan ayrim iqtisodchilar va iqtisodchi olimlar “Soliqlar toʻgʻrisida fikr bildirmasinlar!”, - degan fikrni bildirishdan biz juda ham yiroqmiz. Marhamat, ular ham oʻz fikrlarini bildirsinlar. Le-kin buning uchun ular eng avvalo, ikki narsani uddalam-oqlari darkor. Birinchidan, ularning oʻzlari muammoning mohiyatini toʻgʻri idrok etmoqlari lozim boʻlsa, ikkinchidan, ular oʻz sohalaridagi muammolarni qoyilmaqom qilib hal etib

qoʻygan boʻlishlari kerak. Oʻzlarining sohalarida muammolar “tiqilib” yotgan bir paytda, oʻzga sohalaridagi muammolar-ni hal etishda “bilagʻonlik” qilish maqsadga muvofiqmikan? Yoki “har sohadan bir shingil” qabilida ish tutish hozir modadami?

Bundan tashqari “tayyor retsept”ni beruvchilar retseptni berishdan oldin bu retsept qabul qilinganidan soʻng uning oqibati nimaga olib kelar ekan, deb oʻylab koʻrdilarmikan, yoki hisob-kitob qildilarmikan? Afsuski, ularning “tayyor retsept”lari sirtdan beriladigan kuchsizgina mantiqiy zarba-ga ham chidash berolmayapti.

Shu oʻrinda biz bir necha iqtisodchilar va iqtisodchi-olimlarning “tayyor retsept”laridan namunalar keltirsak, ayni maqsadga muvofiq boʻlur edi. Lekin baribir oʻzbekligimizga borayotirmiz, yuz-xotir qilayotirmiz. Shunday boʻlishiga qaramasdan ikkinchi tomondan, yuqorida aytgan achchiq gaplarimizni yetarli deb, gaplarimiz oʻz egalarini, albatta, topar deya umid ham qilayotirmiz.

Xullas, ayrim iqtisodchilar va iqtisodchi olimlar tomonidan beriladigan “tayyor retsept”lar soliq toʻlovchilarimizda soliqlarga nisbatan noxolisona muno-sabatda boʻlishdek kayfiyatni tugʻdirayotir, ularni chalgʻitayotir. Bu oʻzini ham, oʻzgalarni ham aldash bilan barobar boʻlib, maʼlum maʼnoda ilmiy jinoyat sari tashlangan qadamdir. Bu narsaga befarq qarab boʻlmaydi. Shu boisdan soliq toʻlovchilarimiz, jumladan, ayrim iqtisodchilar va iqtisodchi olimlar ham soliq va imtiyoz oʻrtasidagi dialektikaning tub mohiyatini toʻgʻri idrok etmoqlari uchun eʼtiboringizni quyidagi jadvalda keltirilgan maʼlumotlarga qaratmoqchimiz (navbatdagi betdagi 6.3.1-jadvalga qarang).

Birinchi variantda bu bogʻlanish yaqqol koʻzga tashlanmaydi. Chunki sirtdan qaralganda, bu yerda soliqqa tortiladigan obyektning (manbaning) miqdori 1,0 mln soʻmga, soliq stavkasi 30%ga teng boʻlib, shularga koʻra byudjetga 0,3 mln soʻmlik soliq olinayotir va 0,7 mln soʻm soliq toʻlovchining ixtiyorida qolayotir. Aslida esa shu oʻrindagi soliq va imtiyoz oʻrtasidagi dialektik bogʻliqlik, bir tomondan, soliqqa

tortish obyektining (daromad, foyda, ish haqi va boshqalar) tarkibiga nimalar kiritilganligi-yu va nimalar kiritilmaganligi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, bu narsa soliq stavkasining 30%li darajasiga ham bog'liqdir.

6.3.1-jadval

Soliq va imtiyoz dialektikasini ko'rsatuvchi variantlar

t/b	Variantlar	I	II	III	IV
№	Ko'rsatkichlar				
1.	Foyda yoki daromad, mlnso'm	1,0	1,0	1,2	1,4
2.	Soliq stavkasi, %	30	25	25	25
3.	Soliq summasi, mlnso'm	0,3	0,25	0,3	0,35
4.	Soliq to'lovchining ixtiyorida qolgan summa, mln so'm	0,7	0,75	0,9	1,5
5.	Soliq to'lovchi ega bo'lgan qo'shimcha mablag' summasi, mln so'm	-	0,05	0,2	0,35
6.	Byudjetga borib tushmagan mablag' summasi, mln so'm	-	0,05	-	-
7.	Byudjet ega bo'lgan qo'shimcha mablag' summasi, mln so'm	-	-	-	0,5

Dastlabki variantda vujudga kelgan nisbat soliq to'lovchini qoniqtirmayotir va u soliq bo'yicha yana ma'lum bir imtiyozga ega bo'lishni xohlab qoldi, deylik.

Aksariyat hollarda buning ikki yo'li bor, xolos. Birinchi yo'lda soliqqa tortiladigan obyekt summasidan ma'lum bir qismi soliqqa tortilmaydigan qismga o'tkazilsa, ikkinchi yo'lda soliq stavkasi birmuncha kamaytiriladi. Ayrim hollarda bu vazifani bir vaqtning o'zida soliqqa tortiladigan obyekt summasini va o'rnatilgan soliq stavkasini kamaytirish orqali ham bajarish mumkin.

Soliq bo'yicha imtiyoz berilishi ko'zda tutilganda soliq to'lovchilar, birinchi navbatda, soliq stavkasining pasaytirilishini xohlaydilar. Ularning shu xohish-istaklari inobatga olindi-yu, soliqning belgilangan stavkasi 5 punktga pasaytirildi va uning stavkasi 30%ning o'rniga 25%ni tashkil etsin, deylik. U holda o'z-o'zidan ma'lumki, boshqa sharoitlar

o'zgarmagan taqdirda soliqning summasi 0,25 mln so'mni tashkil etib, 1,0 mln so'mlik soliqqa tortiladigan obyektning 0,75 mln so'mi soliq to'lovchining ixtiyoriga qoldiriladi. Buning natijasida soliq to'lovchi qo'shimcha ravishda 0,05 mln so'mlik mablag'ga ega bo'lsa, byudjet xuddi shu miqdordagi mablag'dan mahrum bo'layotir. Bu ikkinchi variantda vujudga kelgan holat soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'lanishning buzilganligidan dalolat berib, bunday o'zgarishni amalga oshirish mumkin emasligini ko'rsatayotir. Imtiyoz olishdan umidvor bo'lgan soliq to'lovchilar bu dialektikadan ogoh bo'lmoqlari lozim. Aks holda, ularning xuddi shu tartibda soliq bo'yicha imtiyoz olishga harakat qilishlari xomxayollikdan o'zga narsa emas. Shuning uchun ham ularning bu sohadagi harakatlari zoye ketaveradi, orzu-istaklari esa xomxayoligicha qolaveradi. Bu amalga oshishi mumkin bo'lmagan orzu-umiddir.

Bordi-yu, ma'lum sabablarga ko'ra soliq to'lovchi shunday imtiyozga ega bo'lib qolsa, u o'zining ma'lum ma'noda o'zgalar hisobidan yashayotganligini xolisona tan olmog'i lozim. Bir vaqtning o'zida u soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlikning ongli ravishda buzayotganligini ham bo'yniga olishi kerak. Yana shunisi muhimki, soliq bo'yicha imtiyoz olish natijasida ikkinchi variantdagi vaziyatni vujudga keltirgan hamda soliq va imtiyoz dialektikasini buzishga olib kelganlarning xatti-harakati natijasida, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, davlatning moliyaviy ahvoli zaiflashadi, byudjet taqchilligi vujudga keladi, mavjud bo'lgan uning darajasi yanada kattalashadi, davlatning obro'siga putur yetadi, ayrim masalalarni hal etishda yoki ularni moliyalashtirishda uning qo'li kaltalik qilib qoladi. Ikkinchi variantdagi vaziyat ana shunday noxush oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ham soliq to'lovchilari-miz bilib qo'yishlari kerak.

Shu variantdagi vaziyatning vujudga kelishi soliq bo'yicha imtiyoz o'z vazifasini bajarmaganidan, o'z maqsadiga erishmaganidan, maqsadsiz, befoyda imtiyoz berilganligidan dalolat berayotir. Bu imtiyozni berish natijasida bunday vaziyatning vujudga kelishi bilan soliqlar iqtisodiy (rag'batlan-

tiruvchi) funksiyani bajaradi, degan fikrimiz bir-biriga mos tushmayotganligini ko'rsatayotir.

Jadvalda keltirilgan uchinchi variantdagi raqamlarga nazar tashlaylik va ularni mulohaza qilaylik. Uchinchi variantda ham soliq to'lovchi birinchi variantdagiga nisbatan 5 punkt kam bo'lgan soliq stavkasiga ega va u ikkinchi variantdagi soliq stavkasiga tengdir. Shunday foizli soliq stavkasiga ega bo'lganidan so'ng u ikkinchi variantdagi soliq to'lovchiga o'xshab qo'lini qovushtirib, jonini koyitmasdan o'tirgani yo'q. U o'z faoliyatini ma'lum darajada faollashtirdi, jonlantirdi. Natijada esa 1,2 mln so'mlik daromad yoki foydaga (soliqqa tortiladigan obyektga) ega bo'lgan. Uning 0,3 mln so'mi ($1,2 \times 0,25 = 0,3$) soliq tariqasida byudjetga olinayotir, 0,9 mln so'mi esa ($1,2 - 0,3 = 0,9$), soliq to'lovchi ixtiyoriga qoldirilmoqda.

Uchinchi variantni vujudga keltirgan soliq to'lovchi faoliyatining diqqatga sazovor joylari quyidagilardan iboratdir:

1. Birinchi va ikkinchi variantlardagidan farqli o'laroq uchinchi variantni vujudga keltirgan soliq to'lovchi 1,2 mln so'mlik soliqa tortish obyektini yaratgan. Bu ko'rsatkich oldingi har ikki variantning har biriga nisbatan 0,2 mln so'mga ko'pdir.

2. Birinchi variantdagiga nisbatan 5 punkt past soliq stavkasiga ega bo'lishiga (25%) qaramasdan 30%li stavka bo'yicha qancha soliq to'langan bo'lsa (0,3 mln so'm) shuncha summani byudjetga o'tkazishga muvofiq bo'layotir. Bunday holda albatta, byudjet manfaatlariga zid yo'l tutilmayotganligi aniq.

3. Ikkinchi variantdagi bilan bir xildagi soliq stavkasiga ega bo'lsa-da, shunga qaramasdan unga nisbatan 0,05 mln so'mlik mablag'ni ko'proq byudjetga o'tkazish imkoniyatini yaratayotir.

4. Soliq to'lovchining o'z ixtiyorida qolgan summa dastlabki har ikki variantdagilarga nisbatan ko'proqdir (mos ravishda 0,2 mln so'm va 0,15 mln so'm).

Keltirilgan xulosalardan ko'rinadiki, uchinchi variantni vujudga keltirgan soliq to'lovchi soliq bo'yicha imtiyozning asl mohiyatini mumkin qadar to'g'ri tushunishga harakat qil-

gan va shunga mos ravishda o'z faoliyatini amalga oshirgan. Imtiyoz bu yerda o'z kuchini ko'rsatgan, xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish natijalaridan manfaatdorligini real ravishda yuqori pog'onaga ko'targan. Bu yerda soliq bo'yicha imtiyoz berish o'z ma'nosiga ega.

Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan uchinchi variant natijasida vujudga kelgan vaziyat e'tiborga loyiq bo'lsada, bizning fikrimizcha, u hanuzgacha soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektikaning asl mohiyatini to'la-to'kis ochib berishga yetarli emas. Chunki uchinchi variantda vujudga kelgan vaziyat bir tomonlamalik xarakterga ega. Demoqchimizki, qo'lg'a kiritilgan natija soliq bo'yicha imtiyoz olgan tomonninggina manfaatlariga to'liq mos kelayotir. To'g'ri yuqorida ta'kidlaganimizdek, uchinchi variantning natijalari byudjet manfaatlariga zid kelayotgani yo'q. Lekin uning birinchi variant natijalaridan farq qilmayotganligi ham ko'rinib turibdi. Holbuki, soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektika bir vaqtning o'zida ham imtiyoz olgan tomonning, ham imtiyoz bergan tomonning manfaatlariga mos kelishini taqozo etadi.

Ana shu tarzdgagi muvozanat jadvalimizdagi to'rtinchi variantda vujudga kelgan bo'lib, u uchinchi variant ega bo'lgan hamma afzalliklarga ega. Ega bo'lganda ham afzalliklar oddiygina takrorlanib qolmasdan, balki ular yanada yuqoriroq pog'onaga ko'tarilgan. Eng e'tiborga loyiq va boshqa variantlardagi vaziyatlardan tubdan farq qiladigan joyi shundaki, to'rtinchi variantda imtiyozdan faqat imtiyozga ega bo'lgan tomon qo'shimcha manfaat ko'rmasdan, balki imtiyozni bergan tomon (davlat, davlat byudjeti) ham qo'shimcha manfaat ko'rayotir. E'tibor bering-a? Soliq stavkasi 5 punktga kamaytirilganligidan maksimal ravishda foydalanish evaziga soliq to'lovchi hech qo'rqmasdan 1,4 mln so'mlik soliqqa tortiladigan obyektни yaratdi. Uning 0,35 mln so'mi byudjetga soliq sifatida to'landi. Buning evaziga byudjet soliq stavkasining pasaytirilishiga qaramasdan oldingi variantdagilarga nisbatan eng kamida 0,05 mln co'mlik qo'shimcha mablag'ga ega bo'ldi.

Demak, to'rtinchi variantdagi vaziyat soliq bo'yicha imtiyozning asl mohiyatini ham imtiyozga ega bo'luvchi, ham imtiyozni beruvchi tomonlar to'g'ri tushungan paytlaridagina vujudga kelishi mumkin. Bu variant natijalari manfaatlar mushtarakligiga erishilganligidan dalolat berayotir. Soliq va imtiyoz dialektikasining tub mohiyati, asl mazmuni ham ana shundan iborat.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlamoqchimiz: aslida soliq va imtiyoz dialektikasi xalqimiz orasida azaldan qo'llanilib kelayotgan "six ham kuymasin, kabob ham", "qars ikki qo'ldan chiqadi", "sizdan ugina, bizdan bugina" kabi aqidalarga asoslangandir. Buning hech ajablanadigan joyi yo'q. Soliq bo'yicha imtiyozdan umidvor bo'lganlar xalqimizda bu kabi aqidalar bekordan-bekorga paydo bo'lmaganligiga va ularning naqadar to'g'ri ekanligini hayotning o'zi har qadamda tasdiqlab turganligiga yana bir marta e'tibor bersalar va ularga rioya qilsalar ayni muddao bo'lur edi.

Soliq va imtiyoz dialektikasini bilmasdan turib soliq bo'yicha imtiyozni istab qolganlar diqqat-e'tiborini yana bir marta jadvalga qaratishlarini va quyidagi savolga javob berishlarini istardik: hozirgi bizning sharoitimizda soliq bo'yicha imtiyoz berilganda jadvaldagi variantlarning qaysi biridagi vaziyat vujudga kelish ehtimoli ko'proq? Agar xolisona javob beradigan bo'lsak, vujudga kelish ehtimoli ko'p bo'ladigan vaziyat ikkinchi variantdagi vaziyatdir. Chunki soliq to'lovchilarimizning aksariyati xuddi shu ikkinchi variantdagidek bo'lishni xohlaydilar. Ularning nazarida imtiyozning asl mazmuni ham xuddi shundan iborat. Bu tarzda fikr yurituvchi soliq to'lovchilarimizga qarata: "Bizni ma'zur tutasiz, siz soliq bo'yicha imtiyozdan umid qilmasangiz ham bo'ladi. Sizga imtiyoz berish o'z ma'nosiga ega emas, befoyda! ", - degimiz keladi.

Jadvaldagi uchinchi variantda mavjud bo'lgan vaziyat ham vujudga kelish ehtimoliga ega ekanligini tan olaylik. Bu ehtimollik ikkinchi variantdagiga nisbatan ancha oz bo'lsa-da, soliq to'lovchilarimizning ma'lum bir qismi soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlikning biz bayon etgan

mazmunini to'g'ri tushunayotirlar. "Imtiyozga ega bo'ldik. Yaxshiroq faoliyat ko'rsataylik. Hech bo'lmaganda oldin qancha soliq to'lasak, shu miqdordagi soliq to'lashni uddasidan chiqaylik. O'zimiz boyiylik, davlatimiz esa ziyon ko'rmasin!" -degan fikrga boruvchi soliq to'lovchilarimiz ham oramizda yo'q emas. Ularning bu xatti-harakatini imtiyoz bergan tomonga o'ziga xos tarzda minnatdorchilik bildirish belgisi sifatida qabul qilish mumkin. Lekin bu minnatdorchilikning sidqidildan ekanligini isbotlash, uni amalda ko'rsatish bunday mulohaza qiluvchilarning ma'lum ma'noda jon kuydirishlarini, tinib-tinchimasliklarini, kuyib-yonishlarini, uyquni harom qilishlarini taqozo etadi. Albatta, bularning hech biri osonlik bilan amalga oshmaydi. Ayrim soliq to'lovchilarimiz bunga bardosh bera olmaydilar. Ayrimlari "Jon kuydirib nima qildim, byudjet baribir oldingi miqdordagi solig'ini olayotir-ku!", - degan xulosaga ham keladilar. Lekin byudjetga 0,3 mln so'mlik soliq to'lab, o'z ixtiyoriga 0,7 mln so'mni emas, balki 0,9 mln so'mni qoldirganlar, o'zlarining shunga qodir ekanliklariga ishonch hosil qiladilar, 0,9 mln so'mlik mablag'ga real ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganlarida 0,7 mln so'm bilan cheklanib qolmaydilar. Biz soliq to'lovchilarimizning ana shunday bo'lishlari tarafdorimiz. Axir bu holda hech bo'lmaganda, soliq to'lovchilarimizning moliyaviy ahvoli yaxshilanayotir-ku! Shuning uchun ham albatta, bunday xatti-harakatni qo'llab-quvvatlamok zarur.

Aslini olganda biz to'rtinchi variantdagi vaziyatning vujudga kelishini va uning ehtimoli eng yuqori darajada bo'lishini juda-juda istardik. Chunki bu vaziyatning vujudga kelishi soliq to'lovchilarimizning soliq va imtiyoz dialektikasi masalasini qay tarzda to'g'ri idrok etganliklarini ko'rsatardi. Bu murakkab masala. Lekin uni muvaffaqiyat bilan hal etishning mumkin ekanligini jahon tajribasi va amaliyoti uzil-kesil ko'rsatib turibdi.

Shunday qilib, biz ushbu bob doirasida soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlikning asl mohiyatini oddiygina tarzda bayon etdik. Undagi fikrlarni har kim o'z o'lchovi bilan o'lchasa-da, ochiq-oydin aytib qo'yaylik: ushbu fikrlar

bilan biz donolikni da'vo qilayotganimiz yo'q, Amerikani ham kashf etmadik, yangidan velosiped ham ixtiro qilmadik. Aksincha, e'tiborga olinmayotgan real bir holatni e'tiborga olinishini ta'kidladik. Estdan chiqqan narsani esga tushirdik. Bu narsadan bexabarlardan xabardor bo'lishlarini so'radik. Ushbu fikrlar bilan tanishgandan so'ng ayrim iqtisodchilar va iqtisodchi olimlar tomonidan iqtisodiyotimizdagi muammolarni hal etishga qaratilgan va afsuski, yetarli darajada o'ylamasdan berilayotgan "tayyor retsept"lar soni keskin kamayadi, deya umid qilib qolamiz.

6.4. Soliq imtiyozlarining salbiy jihatlari

Soliq imtiyozlari taraqqiyotni ta'minlashda va moddiy manfaatdorlikni oshirishda alohida ahamiyatga ega. Davlat soliq imtiyozlarini taqdim etib, tegishli jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishi, ularni jadallashtirishi mumkin. Shu munosabat bilan soliq imtiyozlarining ijobiy jihatlari xususida qancha gapirilsa, shuncha arziydi. Iqtisodiy manbalarda ularning faqat ana shu jihatlari urg'u berilayotganligi, qandayligidan qat'iy nazar mavjud muammolarni hal etishda soliq imtiyozlarining "sehrli tayoqcha" darajasigacha ko'tarilayotganligi bejiz emas, albatta. Lekin keyingi paytlarda masala shu darajagacha borib yetdiki, hatto "Talabalarning ilmga chanqoqligini ta'minlash uchun nima qilish kerak?",- deya savol berilsa, bittamiz hech ikkilanmasdan va ichki ishonch bilan "Ilmga chanqoq bo'lmagan talabalarning stipendiyalaridan soliq olish tartibini joriy etish lozim. Ana shunda ular harakatga tushib qoladi",- degan fikrni aytishdan o'zimizni to'xtata olmayapmiz. Yoki eng umumiy tarzda "Muammoni hal qilish uchun endi nima qildik?",- qabilidagi savol bilan bosh ko'tarilsa yoki tevarak-atrofga nazar solinsa, uning qandayligini sira e'tiborga olmasdan "Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish kerak!",- degan an'anaviy javobga ega bo'lib qolayapmiz va muammoning yechimi topildi deb, xotirjamlikka berilayapmiz.

Masalaning boshqa bir muhim tomoni ham bor: iqtisod ilmi sohasi bo'yicha qaysi ixtisoslik (iqtisodiy nazariya;

makroiqtisodiyot; mikroiqtisodiyot; menejment; marketing; agrosanoat majmuyi iqtisodiyoti; moliya, pul muomalasi va kredit; buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit; statistika va ekonometrika; iqtisodiyotda matematik metodlar va modellash tirish va h.k.) bo'lishiga qaramasdan undagi ayrim "igna bilan quduq qazuvchilar" tomonidan "ishlab chiqilgan" va "ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan" "taklif-tavsiyalar"ning ma'lum bir qismi tomdan tarasha tushgandek, "soliqlar bo'yicha imtiyoz berish"ga borib taqalayapti.

Ustiga-ustak iqtisodiy muammolarni muhokama qilish va ularni hal etish yo'llariga bag'ishlangan davra suhbatlari, ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar, eshittirishlar, ko'rsatuvlar va h.k.lar shaklida amalga oshirilayotgan ayrim tadbirlarning "Takliflar" yoki "Tavsiyalar" qismida ham "soliq imtiyozlarini berish"ga kattagina o'rin berilayapti.

Qayd etilganlarning barchasi yana bir marta, soliqliq imtiyozlarining bizning turmush tarzimizda qanday rol o'ynayotganligini yaqqol ko'rsatayapti.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi holatlarning vujudga kelishi eng avvalo, soliqliq imtiyozlarini sun'iy ravishda ideal-lashtirishga (barcha muammolarni muvaffaqiyatli hal etuvchi vositaga aylantirishga) borib taqaladi. Holbuki, soliqliq imtiyozlari ba'zi-birovlar o'ylaganidek, faqat farishta emas. Ularning nuqsonlari va salbiy jihatlari ham mavjud. Ularda ham tabiat va jamiyat taraqqiyotining (markscha-lenincha falsafaning emas) asosiy qonunlaridan biri bo'lgan qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni o'zini namoyon etadi. Shuning uchun soliqliq imtiyozlarining faqat ijobiy tomonlarini ko'rib, unga sajda qilayotganlar va uni "sehrli tayoqcha" darajasigacha ko'tarib, e'tirof etayotganlar ularning salbiy jihatlari ogoh bo'lsalar, foydadan xoli bo'lmas. Shu munosabat bilan quyida aynan shunday ekanligini jahon ilg'or tajribasi uzil-kesil tasdiqlagan va soliqliq imtiyozlariga xos bo'lgan ayrim salbiy jihatlari xususida to'xtalamiz. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- soliqliq imtiyozlari natijasida amalda hech qachon ular berilayotgan chog'ida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishil-

magan. Ularning samaradorligi esa muayyan bir xarajatlarni yoki dasturlarni byudjetdan bevosita maqsadli (ochiq-oydin va yengil, oson boshqariladigan) moliyalashtirish orqali erishiladigan natijalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada past bo'lgan;

- soliq imtiyozlari iqtisodiy agentlarning teng raqobat qila olish prinsipini buzadi, bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- soliq imtiyozlariga ega bo'lgan kompaniyalar rivojlantirishga bo'lgan intilishni yo'qotadilar va o'zlarining imtiyozli mavqeini saqlab qolishga harakat qilishadi, imtiyozlar bekor qilinganda esa ular faoliyat yuritishdan to'xtaydilar;

- imtiyozga ega bo'lmagan kompaniyalar har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, uni qo'lga kiritishga harakat qiladilar;

- soliq imtiyozlari texnik taraqqiyot jarayonini sekinlashtiradi va korrupsiyaga imkon yaratadi;

- bir vaqtlar berilgan soliq imtiyozlarini amalda bekor qilish juda murakkab hisoblanadi.

Sog'lom fikrlaydigan oddiy bir fuqaro sifatida endi yuqoridagi tasdiqlarga xolisona ozroq e'tibor beraylikchi, ularda "jon" bormikan? Hayotga qarab (xayol surib emas) mushohada yuritishga qodir bo'lgan har bir shaxs ularning bejizga aytilmaganligi xususida ijobiy xulosa chiqarishiga bizda shubha yo'q. Shunday bo'lishiga qaramasdan, shu o'rinda soliq imtiyozlariga tegishli bo'lgan salbiy jihatlarning yuqoridagi ko'rinishlari g'oyibdan paydo bo'lmaganligini, u yoki bu muallif (jumladan, ushbu qo'llanma muallifining ham) fantaziyasi yoki ijodining mahsuli emasligini, yana bir marta, alohida qayd etib o'tmoqchimiz. Soliq imtiyozlariga xos bo'lgan salbiy jihatlarning aynan yuqoridagi ko'rinishlarini obyektiv reallik yoki iqtisodiy hayot yuzaga chiqargan. Ularni ko'rib - ko'rmaslik, sezib - sezmaslik, bilib - bilmaslik Ciz bilan bizning to'g'ri yo'lda ekanligimizdan dalolat bermaydi. Shuning uchun ularni rad etishga shoshilmasdan, uning o'rniga soliq imtiyozlarining yuqorida keltirilgan salbiy jihatlari qanday savollarni kun tartibiga qo'yishi mumkinligi

to'g'risida bir o'ylab ko'raylikchi, manzara (vaziyat) qanday bo'lar ekan?

Bizning nazarimizda, soliq imtiyozlarining yuqoridagi salbiy jihatlari bilan tanishgan va o'zini iqtisodiy bilim-egaman, deb ozgina hurmat qiluvchi har bir mulohazali o'quvchi ularning har bir guruhi bo'yicha quyidagi savollarni o'rtaga tashlashi turgan gap:

- agar soliq imtiyozlarini berish natijasida ko'zlangan maqsadlarga erishilmagan bo'lsa, u holda ularni berish kerakmi yoki yo'qmi? Soliq imtiyozlarining samaradorligi muayyan bir xarajatlarni yoki dasturlarni byudjetdan bevosita maqsadli moliyalashtirish orqali erishiladigan natijalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada past bo'lgan bo'lsa, bozor iqtisodiyotining haqiqiy talablaridan kelib chiqib qaysi variant tanlanishi kerak? Bu o'rinda muammoni soliq imtiyozlarini berib hal qilish kerakmi yoki uni byudjetdan moliyalashtirish orqali hal etish lozimmi? Hozirgi paytda tegishli muammolarni hal etishda, jumladan, soliq imtiyozlariga alohida o'rin berilayotganligining sabablari nimalardan iborat?

- soliq imtiyozlari iqtisodiy agentlarning teng raqobat qila olish prinsipini buzsa, iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, bular soliq imtiyozlarini berish yoki bermaslik masalasining taqdirini hal etishda inobatga olinishi kerakmi yoki yo'qmi? Bozor iqtisodiyoti sharoitida haqiqiy taraqqiyotni faqat raqobat ta'minlay olishi aksioma sifatida e'tirof etilgan bir paytda buni qanday tushunish kerak? Bu o'z oyog'iga bolta urish bilan barobar emasmi? Yoki...?

- soliq imtiyozlariga ega bo'lgan kompaniyalar rivojlanishga bo'lgan intilishni yo'qotsalar va o'zlarining imtiyozli mavqeini saqlab qolishga harakat qilsalar, imtiyozlar bekor qilinganda esa ular faoliyat yuritishdan to'xtasalar, shu umidda ularga soliq imtiyozlari berilgan edimi? Bu narsa soliq imtiyozlari "teplichnie usloviya"ni yaratish, choyni ichib, shammasini chaynab, oyoqni uzatib yotish, toqqa chiqmasdan do'lonaga, jon kuydirmasdan jononaga ega bo'lish maqsadida berilganligini anglatmaydimi? Bularning barchasi bozor iqtisodiyotining talablariga zid emasmi? Vu-

judga kelishi mumkin bo'lgan bunday vaziyatni o'zbekona qanday baholash mumkin? Bu o'ziga xos tarzidagi "Tuzini eb, tuzliqqa tupurish" emasmi?

- imtiyozga ega bo'lmagan kompaniyalar har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, uni qo'lga kiritishga harakat qilsalar, bu qip-qizil g'irromlik-ku!? G'irromlik esa, o'z navbatida, halol raqobatning kushandasiga aylanmaydimi? Buning oqibatida «ayshni nodon surib, kulfatni dono tortmaydimi»? Uning shunday bo'lmasligiga kim kafolat beradi?

- har qanday davlat yoki jamiyat o'z oldidagi muammolarni muvaffaqiyatli hal etishda, jumladan, texnik taraqqiyotning jadallashuviga va korrupsiyaning oldini olishga ham tayanadi, shundaymi? Davlatning qo'lidagi muhim moliyaviy dastaklardan biri bo'lgan soliq imtiyozlari texnik taraqqiyot jarayonini sekinlashtirsa va korrupsiyaga imkon yaratsa, u holda bunday dastakdan foydalanish masalasiga nisbatan davlatning munosabati (pozitsiyasi) qanday bo'lishi kerak? Munosabat (pozitsiya) "Soliq imtiyozlari texnik taraqqiyot jarayonini sekinlashtirsa, sekinlashtiraversin va korrupsiyaga imkon yaratsa, yarataversin hamda bularga bog'liq bo'lmagan holda soliq imtiyozlari berilaversin" tarzida bo'lishi kerakmi yoki...?

- bugun berilgan soliq imtiyozlarini ertaga bekor qilishning iloji yo'q, to'g'rimi? Buning ustiga, bugun soliq imtiyozini berib, uni ertaga bekor qiladigan bo'lsak, uni bugun berib nima qildik? Undan ko'ra, bir vaqtlar berilgan soliq imtiyozlarini amalda bekor qilishning juda murakkabligini hisobga olib, bu masalada "etti o'lchab, bir kesish" maqsadga muvofiq emasmikan? Va h.k.

Endi masalaning quyidagi tomoniga e'tibor bering: keltirilgan savollar oddiy savollar emas. Bu savollar kishi yuragini orqaga tortirib yuborishi, o'zini esa "nokdaun" va hatto "nokaut" holatiga tushirib qo'yishi ham hech gap emas.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan ko'rinib turibdiki, soliq imtiyozlarining talaygina salbiy jihatlari mavjud bo'lib, ular

kun tartibiga bir qancha hayotiy savollarni qo'yadiki, ularning javoblarini hisobga olmasdan turib qabul qilingan qarorlar Siz bilan bizni ko'zlangan maqsad sari ildam yetaklamaydi. Daryoga g'arq bo'layotgan odamning o'zini qutqarish maqsadida xasga ilinish sari qilayotgan harakati besamar bo'lganidek, soliq imtiyozlarining faqat ijobiy tomonlariga qarab, ularning salbiy jihatlarini inobatga olmaslik yoki ularni nazar-pisand qilmasdan esdan chiqarish oqibati puxta o'ylanmagan moliyaviy qarorning qabul qilinishiga olib keladi. Holbuki, bizningcha, bu masalada yetti o'lchab, bir kesishning o'zi kamlik qiladi. Bu yerda yetti o'lchab emas, balki yetmish o'lchab bir kesish kerak. O'shanda soliq imtiyozlari har qanday muammolarni hal etishda "sehrli tayoqcha"ga aylanmaydi.

6.5. Soliqlarni to'lash – qullik emas, hurlik belgisi

«Shunga erishmog'imiz kerakki, har bir soliq to'lovchi u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilsin»¹⁰⁴.

Sirtidan qaralganda oddiygina gaplardan iborat bo'lgan fikr. Lekin uni o'qish yoki unga e'tibor berish jarayonida salgina diqqat qilinsa, uning tagida ko'pchilikning e'tibori-dan hamon chetda qolib kelinayotgan, hamon nazar-pisand qilinmayotgan oddiy hayotiy haqiqat yotganligini aniqlashimiz mumkin.

Gap bu yerda oddiygina tarzda, har bir soliq to'lovchining ishlab chiqarishni rivojlantirishga yoki daromadini oshirishga intilishi kerakligi to'g'risida ketayotgani yo'q. O'zini «Tadbirkorman!», - deguvchilarning har biri o'z ishlab chiqarishini

¹⁰⁴ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir // Xalq so'zi, 2005-yil 29-yanvar.

rivojlantirishga yoki daromadini oshirishga intilishi, tabiiy. Buni hammamiz bilamiz.

E'tibor bering, bu yerda gap har bir soliq to'lovchining **soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan o'z ishlab chiqarishini rivojlantirishi va daromadini oshirishga intilishi zarurligi** xususida ketayapti.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarishni rivojlantirish va daromadlarni oshirishga intilishning ikki yo'li bor. Birinchisi, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlab va olingan daromadlarning bir qismini yashirish orqali bo'lsa, ikkinchisi, aksincha, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarni yashirishga urinmasdan ishlab chiqarishni rivojlantirish va daromadlarni oshirishga intilishdir.

Bu yerda soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlab va olingan daromadlarning bir qismini yashirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish va daromadlarni oshirishga intilish yo'li biz uchun maqbul bo'lmagan yo'l ekanligi ta'kidlanayapti. Bu yo'lning O'zbekiston xalqi va davlatining manfaatlariga zid ekanligi, ko'pning haqqiga xiyonat qilish va boshi berk ko'chaga olib kirish yo'li ekanligi baralla aytilayapti. Nima uchun? Chunki bu yo'l Siz bilan bizni, hammamizni, o'zbek xalqini va o'zbekistonliklarni iqtisodiy taraqqiyotning yuqori bosqichiga olib chiqa olmaydi, biz uchun zarur bo'lgan mustahkam barqarorlikni (iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va h.k.) va tinchlikni ta'minlamaydi, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shilishimizga, shak-shubhasiz, to'g'anoq bo'lib turaveradi, orzu-havaslarimizni ro'yobga chiqarmaydi.

Shuning uchun ham ayrim o'zidan besh qadam narini ko'ra olmayotgan «tadbirkor»larimiz «Soliqdan qochmasak, daromadlarimizni yashirmasak, ishlab chiqarishimizni rivojlantirishning va daromadlarimizni ko'paytirishning sira iloji yo'q», - deb o'ziga o'xshagan «tadbirkor»larning ko'ngliga moydek yoqib tushayotgan gaplarni tarqatayotgan bir paytda masala bugungi kunda aynan shu tarzda qo'yilayapti. Buning boisi ham shundan iborat. Shuning uchun ham mamlakat

rahbari ana shu xususda bong urayapti va uni biz butun vujudimiz quloqqa aylanib eshitishimiz va undan tegishli to'g'ri xulosani chiqarishimiz kerak.

O'zining jismoniy yoki yuridik shaxs ekanligidan qat'iynazar barcha soliq to'lovchilar soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilishi zarur ekan bugungi kunda ularda ana shunday hissiyotni, ana shunday ongni shakllantirish, bizning nazarimizda, alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq to'lovchilarda ana shunday hissiyot, ana shunday ong va boringki, ana shunday kayfiyatni shakllantirmas ekanmiz oldimizga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal eta olmaymiz. Nazoratni kuchaytirish, tekshir-tekshirlar orqali ham ko'zlangan maqsadlarga o'z vaqtida yetib borishimiz amri-mahol. Chunki nazorat qilish va tekshi-ruvlar o'tkazish ma'lum bir darajaga yetgunga qadar o'zining ijobiy samarasini berib turishi mumkin. O'sha darajadan o'tgandan so'ng ular teskari (salbiy) samara beradi. Bu ham to'g'riligini isbot talab etmaydigan hayot qonuni. Uni hisobga olmaslikning ham iloji yo'q.

Soliq to'lovchilarda soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lab turishga nisbatan ongli munosabat, hissiyot va kayfiyat shakllanar ekan, ishonchingiz komil bo'lsin, nazoratni kuchaytirishga, tekshir-tekshirlarning sonini ko'paytirishga va tadbirkorlarning faoliyatiga aralashuvga ham hojat qolmaydi. Chunki soliq to'lovchi tadbirkor belgilangan soliq summalarini o'z vaqtida to'lab tursa, olgan daromadini yashirmasa, xalqi, davlati va jamiyati oldidagi majburiyatini o'z vaqtida to'liq bajarib tursa, uning faoliyatini nazorat qilishdan maqsad nima? Uning faoliyati nima uchun bo'lar-bo'lmasga tekshir-tekshir qilinishi kerak? Buning mantig'i yo'q, to'g'rimi?

Bir vaqtning o'zida hozirgi kunda «tadbirkor»larning orasida «Men solig'ini o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lamayapman. Butun hiyla-nayranglarimni, «mahorat»imni va «yo'li»ni ishga solib, olgan daromadlarimning bir qismini

yashirib qolayapman. Buni davlat ham bilib turibdi. Shuning uchun nazorat qilish kuchayayapti. Tekshir-tekshirlarning adog'i ko'rinmayapti», - deydi mard yo'q. Yoki «Soliq to'lovchi, tadbirkor yoki shu Vatanning farzandi sifatida men belgilangan solig'ini to'lamasdan uning manfaatlariga xiyonat qilayotgan, Vatanim va xalqim oldidagi o'z majburiyatimni ixtiyoriy ravishda bajarmayotgan bo'lsam, davlat qo'lini qovushtirib, indamasdan o'tirishi kerakmi? Bunday sharoitda davlat tomonidan ularga yo'l qo'ymaslik uchun albatta, nazorat kuchaytiriladi, tekshir-tekshirlarning soni ko'payadida», - deyayotgan vatanparvar ham topilmayapti.

Ana shunday sharoitda, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha soliq to'lovchilarda soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilish hissiyotini, ana shunday ongni shakllantirish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etishi¹⁰⁵, shubhasiz.

Xo'sh, soliq to'lovchilarda bunday ongli munosabat, hissiyot va kayfiyatni qanday qilib shakllantirish mumkin? Unga erishishning yo'li qanday? Buning uchun nima qilishimiz kerak? Agar siz bilan biz orzu qilayotgan ayrim mamlakatlarning fuqarolari (tadbirkorlari)da ana shu narsalar shakllangan bo'lsa, ular bunga qanday qilib erishdi ekan? Nega ular «Soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda

¹⁰⁵ Bunday ongni shakllantirishda shubhasiz, mamlakat soliq tizimida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning egallagan pozitsiyasi prinsipial ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, bizning fikrimizcha, o'tgan asrning 80-yillarida soliq boshqarmasi xodimining quyidagi aytgan so'zlari muhim ahamiyatga ega: «Dunyoda soliqdan bo'yin tovlashdan kattaroq jinoyat bo'lmasa kerak, deb hisoblayman. Men hatto xotinimning ham xiyonatini kechirishim mumkin, ammo soliq to'lashdan o'z daromadini yashirganlarni hech qachon!». («Bank axborotnomasi» gazetasi, 2002-yilning 7-13-noyabr soni). Soliq tizimida faoliyat ko'rsatgan bu xodimning fikrlarini Siz qanday izohlaysiz? Xulosa chiqarishga shoshilmang! Bu yerdagi asosiy g'oya nimadan iborat? U bizning sharoitimizda qanday yangi ko'rinish va mazmun olishi kerak? (Bu fikrdan qo'llanmamizning tegishli, keyingi qismida yana bir marta foydalanamiz).

to'lash kerak!», - deb qat'iy ishonib, unga amal qiladilar- u¹⁰⁶, bizda vaziyat boshqacha?

Oldindan aytib qo'yaqolay, bu savollarning javobini izlab yangidan velosiped ixtiro qilish yoki Amerikani kashf qilishga sira hojat yo'q. «Retsept» izlash ham kerak emas. «Soliqlarni to'lash kerak!», - deb qat'iy ishonuvchilar (soliq to'lovchilar) o'zlarining bu harakatlarini birgina «Biz nima uchun to'layotganimizni yaxshi bilamiz!», - degan jumla bilan izohlashadi.

Demak, ko'rinib turibdiki, hech qanday muammolar-siz soliqlarning byudjetga o'z vaqtida va belgilangan summalarda tushib turishini ta'minlashimiz kerak ekan buning uchun, eng avvalo, o'zimizning soliq to'lovchilarimizda ham «Biz nima uchun to'layotganimizni yaxshi bilamiz!», - degan ongli munosabatni, hissiyotni va kayfiyatni shakllantirishimiz zarur.

O'z navbatida, buning uchun nima qilishimiz kerak? Axir, yuqoridagi so'zlarni qayta-qayta takrorlaganimiz bilan soliq to'lovchilarda biz istagan ongli munosabat, hissiyot va kayfiyat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi-ku!

Buning uchun haqiqatdan ham soliq to'lovchilardan undirilgan soliqlarning «qayoqqa ketganligi»ni, ularning nima maqsadlar uchun sarflanganligini, o'sha sarflanishning aynan maqsadga muvofiqligini va ularning qanday samara (iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va h.k) berganligini solig'ini to'lab qo'ygan soliq to'lovchilarimizga ishonarli qilib tushuntirib berishimiz kerak.

Xo'sh, endi ayting: tushuntirib berayapmizmi? Bu ishning uddasidan chiqaolayapmizmi? Bu ishlarni kim qilishi kerak? Bu kimlarning vazifasiga kiradi? Bunga faqat soliqchilar mas'ulmi, yoki ...?

¹⁰⁶ Biroq bu mamlakatlarda ham soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lash kerakligiga rioya etish darajasini 100% deb bo'lmaydi. Soliqlarning undiriluvchanligi eng yuqori bo'lgan mamlakat Shvetsiyada uning darajasi 98,5%ga teng. Shunday bo'lishiga qaramasdan bu mamlakatdagi ko'rsatkichning darajasi va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlardagi shunga yaqin bo'lgan ko'rsatkichlar bizning yuqoridagidek xulosa chiqarishimizga asos bo'la oladi.

Shu vazifani «Men bajarayapman!», - deyayotgan ayrim «shovvoz»larning tayyorgarlik darajasi qanday? U o'zining aytayotgan gaplariga o'zi ishonayaptimi? O'zi tomonidan aytilayotgan fikrlarga o'zi ishonmasa, shubha bilan qarayotgan bo'lsa, o'zgalarni qanday qilib ishontirsin? Ayrimlarimiz soliqlarning qayoqqa ketayotganligini tushuntirib berishni o'zimizning «tirikchilik manbayi»miz deb qaramayapmizmi?

Soliq to'lovchilarimizda «Biz nima uchun to'layotganimizni yaxshi bilamiz!», - degan ongli munosabatni, hissiyot va kayfiyatni shakllantirish uchun yetarli va ishonarli bo'lgan informatsion materiallarga egamizmi? Ulardan qanday foydalanish kerak?

Umuman olganda, to'langan soliq summalarining qayoqqa ketayotganligi to'g'risida har bir soliq to'lovchida ishonarli va to'g'ri tasavvurni shakllantirish uchun ishni nimadan boshlash va nimalarni qilishimiz kerak?

Bu ishni, bizning fikrimizcha, har kim o'z oilasidan boshlashi lozim. O'zimizning peshona terimiz bilan topilgan boyligimiz haddan ziyod ortib ketgan bo'lishiga qaramasdan agar oilamizga davlatning qandaydir shaklda (ularning qandayligi bu yerda prinsipial ahamiyatga ega emas) zig'irchalik nafi tegayotgan bo'lsa ham ularning barchasi soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlar hisobidan moliyalashtirilayotganligini aziz farzandlarimizning qulo-g'iga quyishimiz shart. Bu ishni qilayapmizmi?...

Farzandlarimiz byudjet hisobidan moliyalashtirilayotgan maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotganda «bog'cha-opalar» «Mana shu bino, undagi inventarlar, turli-tuman o'yinchoqlar, ovqatlar va hokazolar soliqlar hisobidan bizning ixtiyorimizga berilgan. Ularni qadriga yetishimiz kerak. Katta bo'lganimizda hammamiz soliqlarni o'z vaqtida to'lab qo'yishimiz shart, to'g'rimi, bolajonlar?», - deyishsa, ular ham mavjud muammoning yechilishiga o'zlarining munosib his-salarini qo'shardilar-kul! Qo'shayapmizmi? ...

Maktab, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari-niing faoliyati, asosan, nima hisobidan moliya-lashtirilay-

apti? Ularda ta'lim-tarbiya olayotganlarga ana shularning hammasi asosan, soliqlar hisobidan ta'minlanayotganligi, bu soliqlarni soliq to'lovchilar bo'lgan ularning ota-onalari to'layotganligi tushuntirilsa, balki shu muassasalar mulkiga bo'lgan munosabat o'z uyimizdagi mol-mulkka bo'lgan munosabat singari o'zgararmidi? Maorif sohasidagi muassasalarining kelgusi-dagi ahvoli bugun shu muassasalarda tahsil olayotganlarning tartibli soliq to'lovchi bo'lib yetishishlariga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi uqtirilsa va shunga erishilsa, ayni muddao bo'lur edi-ku! Uqtirayapmizmi? Yoki...

Sog'liqni saqlash muassasalarida ajal bilan urishib yotgan yoki bir umrga nogiron bo'lish xavfi bo'lgan va umuman, barcha bemorlarga ular davolanib «otdek» bo'lib chiqqanlaridan so'ng tibbiyot xodimlari baralla ovozda «Bugungi kunda hayotga qaytganingning yoki toychoqdek gijinglab yurganingning asosiy sabablaridan biri soliq to'lovchilari-mizning soliqlarni o'z vaqtida to'laganlaridir. Maskanimiz soliq to'lovchilar to'lagan soliqlar hisobidan tegishli dori-darmonlar va asbob-uskunalarni o'z vaqtida olmaganida edi, o'zingni allaqachon arshi-a'loda ko'rar eding», - deb ayta olsalar va aytsalar, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash keskin kamayarmidi!? Bu ishni qilayapmizmi? Afsus...

Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari nima hisobidan moliyalashtirilayapti? Fan rivoji va fundamental tadqiqotlar uchun mablag' qaerdan olinayapti? Ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq bo'lgan muammolar nima hisobidan echilayapti? Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar narxidagi farq nima hisobidan qoplanayapti? Ko'p bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar nima hisobidan to'lanayapti? Iqtisodiyotga xarajatlar va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish nima hisobidan amalga oshirilayapti?

Bu savollarning javobi bitta: SOLIQLAR.

Yurtimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surayapti. Oilalarda – xotirjamlik. Tinchgina uxlayapmiz. Farzandlarimiz chopqillab yurishibdi. Ular o'g'irlanib, ota-onalar qon qa-

qshatilmayapti. «Buyurtmali o'lim» nima ekanligini issiq tanamizga sinab ko'rganimiz yo'q. Uddaburon tadbirkorlarimiz o'z ostonalarida otib ketilmayapti. «Reketchi»lar har daqiqada yo'limizni to'sib turgani yo'q. Mol-mulkimiz talon-taroj etilmayapti. Sarhadlarimiz dahlsiz. Har qanday nokas tumshug'ini tiqib kirib kelib bilgan noma'qulchiligini qilayotgani yo'q. Tinchligimizni buzish, yurtimizdagi osoyishtalikka rahna solish niyatida bo'lganlar o'z vaqtida ta'zirini olayapti.

Ana shunday «Tinchlik!», - degan ulug' ne'matga erishish o'z-o'zidan bo'lmayotgandir? Unga erishish uchun ter to'kishning o'zi etishmaydi. Mablag' ham sarflash kerak. Mablag' qayerdan olinayapti? Solig'ini o'z vaqtida to'lab turgan soliq to'lovchilarning soliqlaridan. Ishoning: buning boshqa manbayi yo'q. Uning yakkayu-yagona manbayi – soliqlar.

Soliqlarni o'z vaqtida to'lab turishning bunday xosiyati bor ekanligini ommaga kim tushuntirib beradi? «Siz to'layotgan soliqlar sizning tinchligingizni ta'minlashga ham xizmat qilayapti!», - deb kim jar solishi kerak? Bularsiz soliq to'lovchilarda soliqlarni o'z vaqtida to'lab turishning zarurligi to'g'risidagi ongli munosabatni, hissiyotni va kayfiyatni qanday qilib shakllantiramiz? Bu sohada qanday ishlar qilinayapti? Qilinayaptimi o'zi?...

...Dunyoning turli burchaklarida erkin qushdek uchib yurgan beli baquvvat davlatlarning fuqarolarini ko'rib havasimiz keladi. Beli baquvvat davlatlarning fuqarolari bo'lganligi uchun ham ular o'zlarini erkin qushdek his qilishadi. Chunki ular beli baquvvat davlatning panohida, himoyasida. O'sha davlatlarning belini baquvvat qilgan narsa nima ekan? Soliqlar! Solig'ini to'lab davlatining belini baquvvat qilgan fuqarosini davlat ozod qushdek yurishini, hurligini ta'minlamasdan nima qilsin? O'z fuqarolarining hech kimdan kam bo'lmashligini ta'minlash niyatida bo'lgan O'zbekiston deb atalmish davlatning ham beli baquvvat va qo'li uzun bo'lishini hammamiz istaymiz-ku! Istasak, harakatimiz istagimizga mos bo'lsin-da!

Zero, soliqlarni o'z vaqtida to'lash qullik emas, ozodlik belgisidir. Bu ham hayotda allaqachon o'z tasdig'ini topgan aksioma. Unga shubha bilan qaramasdan, qat'iy ishonish, o'rni kelganda sajda qilgandek ish tutish soliqlik siyosati muvaffaqiyatining tasavvur etib bo'lmaydigan garovidir.

6.6. “Stimul”mi yoki “rag‘bat”?

Iqtisodiy siyosat ta'sirchanligini ta'minlash va uni oshirishda stimul(lar)ning azal-azaldan hech qanday narsa bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan alohida o'rni bor. “Stimul(lar)siz ham iqtisodiy siyosat ta'sirchanligini ta'minlash va uning darajasini oshirish mumkin!”, deguvchilar, adashurlar. Obrazli qilib aytganda, u(lar)siz bu siyosat ta'sirchanligi “g'arib”ga aylanadi, “kambag'al-qashshoq”lashadi, uning “bag'ri butun” bo'la olmaydi. Ayrim hollarda tom ma'noda stimul(lar)siz yurgizilayotgan iqtisodiy siyosat iqtisodiyot subyektlariga “chivin chaqqanchalik” ta'sir qilmasligi mumkin. Aksincha, boshqa hollarda esa, iqtisodiy siyosatning har tomonlama muvaffaqiyatli “parvozi”, ko'p jihatdan, stimul(lar)ga borib taqaladi. Buning aynan shundayligini to'la-to'kis e'tirof etmaslik, bilmaslik, tushunmaslik, qabul qilmaslik, e'tiborga olmaslik hech bo'lmaganda – yaxshilik alomati emas.

Ammo, afsuski, amaliyotda, ilmiy doiralarda va hatto, o'zaro munosabatlarimizda ham “stimul(lar)” o'z o'rnini “rag'bat(lar)”ga osongina bo'shatib bermoqda. “Negadir”, bu so'z o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan ayniqsa, “kamnamo” bo'lib qoldi. Ayrim hollarda, bu so'zga o'gay ko'z bilan qarayapmiz. Uni “shtik”da qarshi olib, sun'iy ravishda, ishlatmaslikka harakat qilayapmiz: maqolalarimizda bu so'zni ishlatishdan qochayapmiz; monografiyalarimizda bu so'zdan foydalanishga o'rin bermayapmiz; ma'ruzalarimizda bu so'zni ishlatishni o'zimizga ep ko'rmayapmiz. Ishlatayotganlarga esa “Ona tilimizda unga teng kuchli bo'lgan “rag'bat”

degan soʻz turganda “stimul”ni ishlatishga ne hojat?”, - qabilida eʼtiroz ham bildirayapmiz. Goʻyo bu bilan Ona tilimizning “sofligi”ni taʼminlashga oʻzimizning “munosib” hissamizni qoʻshayapmiz va h.k.

Holbuki, “stimul” Ona tilimizda aynan shu tarz (shakl va mazmun)da ishlatilishi mumkin boʻlgan soʻz hisoblanadi. Buning shunday ekanligi tegishli mutaxassislar tomonidan allaqachon eʼtirof etilgan. Shu sababli “stimul” soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da Ona tilimizda ishlatilishi mumkin boʻlgan 80 000 dan ortiq soʻzlardan biri sifatida oʻz oʻrnini egallagan. Bu soʻzdan eng avvalo, iqtisodiyot ilmi va amaliyoti sohasida faoliyat koʻrsatayotganlar foydalanishlari lozim boʻlgan bir paytda bu vazifani yozuvchilarimiz, shoirlarimiz, muxbirlarimiz, adabiyotshunos va tilchi olimlarimiz baja-rishmoqda.

Ushbu maqola doirasida bizning bu xususda “kuyib-pishish”imizning boisi nimada? Buning sababi shundaki, agar biz iqtisodiy siyosatni takomillashtirishning zamonaviy dolzarb yoʻnalishlaridan biri sifatida uning taʼsirchanligini oshirish ekanligini eʼtirof etsak (bundan oʻzgacha tarzda ish tutishimizning esa sira iloji yoʻq), u holda eng avvalo, bu maqsadga erishish yoʻlida qoʻllashimiz mumkin boʻlgan vosita (dastak)larga aniqlik kiritib olishimiz kerak. “Stimul” va “ragʻbat”ning “bir narsa” emasligini aniqlash uchun birinchi navbatda, bu soʻzlarning lugʻaviy maʼnosiga eʼtibor berish lozim.

Shu munosabat bilan dastlab, hozirgi paytda “stimul”ning oʻrniga “gumbirlatib” ishlatilayotgan “ragʻbat” soʻzining maʼno-mazmuniga eʼtibor beraylik. “Ragʻbat” arabcha soʻz boʻlib, eng umumiy koʻrinishda xohish, yaxshi niyat, istak maʼnolarini anglatadi. U 1) biror ishga boʻlgan xohish, istak, mayl, raʼy; 2) qiziqtiruvchi, qoʻzgʻatuvchi omil, sabab; manfaat keltiruvchi (beruvchi) narsa; 3) inson his-tuygʻulari, ruhiy holatlarini rivojlantiruvchi, uni faollikka undovchi ruhiy (psixologik) taʼsir maʼno-mazmunida ishlatilishi mumkin (Qarang: Oʻzbek tilining izohli lugʻati. J. III. – B. 361-362).

“Stimul” esa lotincha “stimulus” soʻzidan olingan boʻlib, soʻzma-soʻz, eng avvalo “hayvonlarni haydash uchun belgilangan uchli tayoq”ni bildiradi. Shuningdek, unga “biror ishga qiziqish tugʻdiradigan, ragʻbatlantiradigan, **undaydigan** (kursiv – bizniki) narsa, omil” sifatida ham qaraladi (Qarang: Oʻsha manba. J. III. – B. 571).

Endi boshqa mavhum va “10-darajali” narsalarni eʼtiborga olmasdan, fantaziyaga berilmasdan, folbinlik qilmasdan, har kim oʻz qarichi bilan oʻlchamasdan (axir ilmning oʻlchanadigan oʻz qarichlari bor!) yuqoridagi har ikki bandda keltirilgan dalillarga eʼtibor beraylikchi, nahotki ular “stimul” bilan “ragʻbat” oʻrtasida “he” yoʻq, “be” yoʻq “tenglik” belgisini qoʻyishga asos boʻlsa?!

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, “stimul” soʻzi lugʻaviy jihatdan, aslida, “uchli tayoq” maʼnosida ishlatilishi va shuni anglatishi lozim. Uchli tayoqning esa “qiziqish tugʻdiradigan” va “ragʻbatlantiradigan” jihatlaridan koʻra boshqa jihatlari ham bor. Xususan, eng avvalo, uning “boshni silash”ga moʻljallanmaganligini hammamiz aniq bilamiz. Zero, “uchli tayoq” – oddiy tayoq emas. Aynan uchli tayoq boʻlganligi uchun ham uning “qiziqish tugʻdiradigan” va “ragʻbatlantiradigan” jihatlaridan koʻra “undaydigan” yoki “majbur qiladigan” jihatlari ancha ustunroqdir. Harqalay “uchli tayoq”ning “qiziqtirishi” yoki “ragʻbatlantirishi”dan koʻra uning koʻproq “majbur qilish” salohiyatiga ega ekanligiga aminmiz.

Toʻgʻri ehtimoli kamroq boʻlsa-da, hayvonlarni qiziqtirish va ragʻbatlantirish yoʻli bilan ham haydash mumkin. Lekin shu tarzda ish tutilganda koʻzlangan maqsadga nisbatan kechroq yetib bormasligimizga kim kafolat beradi? Bunday sharoitda ularning, maʼlum darajada, “oʻyinqaroq” boʻlishlari – tabiiy. “Yuklamasi yengil kelsa – eshak egasini tepadi” yoki “Yuklamasi yengil boʻlsa – tuya(ning) baqiroq (yotogʻi) keladi”, – degan maqollar donoxalqimizda bekordan-bekorga aytilmagan. Ular isbot talab qilmaydi. Bu maqollar bugungi kunning oʻziga xos aksiomasidir. Shuning uchun ham hayvonlarni

haydashning boshqa yo'li bor. Bu majburlash yo'lidir. Lekin ajablanarlisi shundaki, bu yo'l ularni haydashning ikkinchi darajali yo'li emas, balki asosiy yo'li hisoblanadi. Albatta, biz bu o'rinda bo'lar-bo'lmasga majburlash yoki doimiy ravishda majburlashni nazarda tutayotganimiz yo'q. Aksincha, bu joyda o'rni kelgandagi, maqsadga muvofiq bo'lgandagi yoki me'yordagi majburlashni ko'zda tutayotirmiz, xolos. Ko'zlangan maqsadga tezroq erishishning (hammamiz shuni istaymiz-ku, axir!) ta'sirchan va samarali yo'llaridan biri shu yo'l emasmikan? Balki ko'zlangan maqsadga erishgunga qadar "uchli tayoq"ning "undaydigan" yoki "majbur qiladigan" jihatlaridan foydalanib, undan so'ng esa uning "qiziqish tug'diradigan" va "rag'batlantiradigan" tomonlaridan foydalanish kerakdir?!

Mamlakatimizda "uchli tayoq" bilan hamma hayvonlar emas, balki, asosan, eshak haydaladi. U "uchli tayoq" bilan emas, balki faqat oddiy tayoq bilan haydalganda ham (esa) ko'zlangan maqsadga o'z vaqtida yoki tezroq yetib borish – amri-mahol. Buning uchun aynan uchli tayoqdan foydalanish kerak va u Ona tilimizda "xalacho'p" deb ataladi. "Xalacho'p"ga "eshak, tuya kabi hayvonlarni niqtab, tezroq yurgizish uchun ishlatiladigan uchli tayoqcha; xala", deb ta'rif berilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (4-jild, 379-bet).

Eshakni minganingizda qo'lingizdagi tayoqning bor-yo'qligi yoki tayoq uchining o'tkir-o'tkirmasligiga eshak "reaksiya"sinig qanday ekanligiga hech e'tibor berganmisiz!? Qo'lingizda tayoq bo'lmasa – eshakning yurishi o'zgacha. U o'z ixtiyoricha yuradi. Ayrim hollarda oyog'ingiz bilan uning qorniga qanchalik niqtamang, yurish u yoqda tursin, ahyon-ahyonda, yurish davomida o'tlashni ham o'ziga ep ko'radi. Tayog'ingiz bo'lsa – u boshqacha yuradi. Tayog'ingizning uchi o'tkir bo'lganda esa, u yanada boshqacharoq, tezroq yuradi. Bordi-yu, tayoqning uchiga Siz maxsus ravishda mix qoqib olganligingizni sezsa (sezadi, albatta), uning fikri-xayoli faqat Sizni tezroq manzilingizga eltib qo'yishda bo'ladi.

“Stimul” so‘zining negizida yashirinib yotgan uning iqtisodiy jihatlariga e’tibor berayotib, bunday “antiqa” misolni keltirganimizdan aslo xafa bo‘lmang. Bu o‘rinda muallif “ayrimlar”ni nazarda tutayapti yoki nimagadir sha‘ma qilayapti, deb xavotirga ham tushmang. Keltirilgan misol nafsoniyatingizga yoki shaxsiyatingizga tegmasin. Undan siyosiy xatoni ham qidirmang. Bu yerda “kosa tagida nimkosa” – yo‘q. Yoki bu yerda biz “Qizim senga aytayapman – kelinim sen eshit!” qabilida ish tutishdan ham juda yiroqmiz. Lekin ne qilaylikki, “stimul”ning ma‘no-mazmunini “dehqoncha qilib” tushuntirib berishda bundan-da qulayroq, tabiiyroq va tushunarliroq bo‘lgan misolni topa olmadik.

Eshak haqiqatdan ham, XXI asrga allaqachon qadam qo‘ygan bo‘lishimizga qaramasdan qishloq joylarida va ayniqsa, tog‘li hududlardagi qishloq joylarida asosiy foydali ishchi hayvon sifatida hamon qolmoqda. Uning qilgan mehnati e’tirof etilib, “go‘sh ti harom bo‘lsa ham mehnati (xizmati) halol” deb baho berilgan bo‘lishiga qaramasdan, bir vaqtning o‘zida terisining qalinligi ham qayd etilmoqda. Terining qalinligi esa, o‘z navbatida, unga nisbatan ta’sirchanlikni kamaytiradi. Shuning uchun ham eshak harakatini tezlashtirish uchun uchli tayoqdan – xalacho‘pdan – foydalanmaslikning iloji yo‘q. Shu bois keltirgan misolimizdan tegishli xulosani chiqarib, endi iqtisodiyot subyektlariga nisbatan o‘rni kelganda va maqsadga muvofiq bo‘lganda yoki me’yorda “stimul”ning “majburlovchi”, “tezlashtiruvchi”, “yo‘naltiruvchi”, “ildamllovchi”, “undovchi” va h.k. shu kabi jihatlariga e’tibor beraylikchi, vaziyat qanday bo‘larkin!?

Yana bir fikr: hatto uchqur otga mingan chavandozni ham qamchisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kasbi-kori mol boqish bo‘lgan cho‘ponning tayoqsiz “kun ko‘rish”i – ancha murakkab. Usiz podani boshqarish – amri-mahol. Ertadan-kechgacha shoda-shoda peshona terini to‘kayotgan dehqonning dehqonligi ham oxir-oqibatda, uning “ketmon”i

bilan belgilanadi. Ayrim hollarda, ko'zlangan maqsadga erishishda, ming-minglab qilingan pandu-nasihatdan ko'z oldida yulduzchalar paydo qiladigan darajada quloqning tagiga yaxshilab tushirilgan bir shapaloq afzal. Manzilga tezroq yetib borishni istaysizmi – mashinangizni ayamadan, o'z holiga qo'ymasdan majbur qilishingiz, “gaziga tepishingiz” lozim. Toqqa chiqmasangiz – do'lonaga, jon chekmasangiz – jononaga ega bo'la olmaysiz va h.k.

Umuman olganda bizning fikrimizcha, “stimul” va “rag'bat”, “stimullashtirish” va “rag'batlantirish” so'zlari o'rtasida tenglik alomatini qo'yib bo'lmaydi. Shunday qilinsa, bu masalaga nisbatan bir tomonlama, tor yondashuvni aks ettiradi. Unda tabiat va jamiyat taraqqiyoti hamda hayot falsafasining eng asosiy qonunlaridan biri bo'lgan qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining amal qilishi rad etilgan bo'ladi. Holbuki, bu hayot qonunining harakatini rad etgan “mard” dunyoga kelmagan va kelmagay ham.

Eng oddiy tarzda aytilganda, “stimul” va “stimullashtirish” so'zlari ma'no-mazmun va mohiyat jihatidan “rag'bat” va “rag'batlantirish” so'zlaridan ancha kattaroq, kengroqdir. “Rag'bat” “stimul”ning, “rag'batlantirish” esa “stimullashtirish”ning bir qismi, xolos. Ayrim hollarda, sira ikkilanmasdan aytish mumkinki, “rag'bat”ning “stimul”ga va “rag'batlantirish”ning “stimullashtirish”ga “aylanishi” uchun “etti qovun pishig'i bor”. Shuning uchun ham “stimul” to'g'risida gapirib turib faqat “rag'bat” nazarda tutilsa, yoki “stimullashtirish” deyilganda faqat “rag'batlantirish” e'tiborga olinsa – bu ma'lum ma'noda noto'g'ri, asossiz va nari borganda, chala qarorning qabul qilinishiga olib keladi. Bunday qarorlarning ijrosini ta'minlash esa, o'z navbatida, ko'zlangan natijalarni bermaydi. Ularning yuqorida qayd etilgan jihatlariga e'tibor bermasdan “stimul”ni faqat “rag'bat”, “stimullashtirish”ni esa faqat “rag'batlantirish” deb qabul qilganligimiz uchun ham balki bu borada qilayotgan sa'yi-harakatlarimiz,

ma'lum darajada, besamar ketayotgandir?! Iqtisodiy siyosat ta'sirchanligini ta'minlash va uni oshirishning ma'lum bir (katta) zaxiralari shu yerda emasmikan?!..

Bahs-munozara yoki nazorat uchun qo'shimcha savollar

- Soliq imtiyozlarini qanday qilib oqilona taqdim etish mumkin? Bu nimaga bog'liq?

- Soliq imtiyozlarini berishda nimalarga e'tibor bermoq kerak, qanday asosiy prinsiplarga rioya etmoq lozim?

- Iqtisodiy hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan va o'zining hayotiychanligini hamon saqlab kelayotgan soliq imtiyozlarini taqdim etish prinsiplarning eng asosiylari nimalardan iborat?

- Soliq imtiyozlarini berish masalasida inobatga olinishi lozim bo'lgan prinsiplar biror bir iqtisodchi olim ijodining mahsulimi yoki...?

- Soliqlar bo'yicha imtiyozlarni oqilona taqdim etish masalasi qanday bir necha savollarning aniq javobiga ega bo'lishni taqozo etadi?

- Soliqlar bo'yicha imtiyozlarni oqilona taqdim etish masalasini imtiyozni olayotgan tomonning soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlik mavjudligini qanday idrok etishisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu nima degani? Uning zamirida nima yotibdi?

- Soliqlar bo'yicha imtiyozlarning oqilona taqdim etilishini o'zbekona aytilgan va aksioma sifatida turmush tarzimizga qabul qilingan qanday maqollar bilan qiyoslash mumkin?

- Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish uchun hisobga olinadigan amaliy holatlar nimalardan iborat?

- Shukecha-kunduzda istalgan, har bir tadbirkorga, faqat tadbirkorga emas, aslida har birimizga «Faoliyatingizning ko'ngildagidek emasligiga nima sabab? Nima sizga xalaqit berayapti? Nima qilinsa, sizning faoliyatingiz siz istagan

tarzda rivojlanishi mumkin?», - degan mazmunda savol berilsa, uning javoblari qanday bo'lishi mumkin?

- Oddiy tarzda aytiladigan bo'lsa, soliq imtiyozlari nimalar uchun berilmaydi?

- Soliq imtiyozlari faqat oyoqqa turib ketish yoki qadni rostlab olish uchungina beriladimi yoki...?

- Soliqlar bo'yicha imtiyoz nima maqsadda beriladi?

- Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etishda soliq imtiyozlarining berilish darajasiga e'tibor berish kerakmi yoki yo'qmi? Bu erda vaziyat qanday? Imtiyozlarning berilish darajasi yetarli mi? Yoki ular keragidan ortiqchami? Bu masalada xorijlik mutaxassislarining fikri qanday?

- «Soliqlar bo'yicha imtiyozlar yetarli yoki ular keragidan ortiqcha», - degan fikrni bildirgan mardni uchrata olganmisiz? Bu borada aniq misollar keltiraolasizmi?

- Soliq siyosati samaradorligini ta'minlashda soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish muhim rol o'ynar ekan, bu jarayonda "Mavjud soliq imtiyozlaridan to'liq foydalanishning uddasidan chiqa olayapmizmi? Berilgan imtiyozlar qanday ishlayapti? Ishlayaptimi o'zi? Yoki..." qabilidagi savollarning aniq javobiga ega bo'lish prinsipial ahamiyat egami yoki yo'qmi? Nega?

- Imtiyoz berilganidan so'ng undan foydalanish kerakmi yoki...? Imtiyoz berish kimning zimmasida-yu, undan foydalanish kimning zimmasida?

- Soliq imtiyozlari o'z-o'zidan "ishlab" ketishi mumkinmi? Bu nima (kim)larga bog'liq?

- Bozor iqtisodiyoti sharoitida imtiyozga ega bo'lishda muammo paydo bo'lishi mumkin. Undan foydalanishdachi?

- Berilgan soliq imtiyozlardan to'liq foydalanishning uddasidan chiqa olsak, unda nima bo'lishi mumkin?

- Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilayotgan paytda qanday maqsadlarni o'z oldimizga qo'yayapmiz? Ularga erishayapmizmi?

- Imtiyozga ega bo'lganlarning ahvoli qanday? Ularning iqtisodiy ahvoli yaxshilanayaptimi? Yaxshilanmayot-

gan bo'lsa, qo'shimcha soliq imtiyozidan umidvor bo'lishga haqqimiz bormi?

- Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlik qanday jarayonda o'zini namoyon etadi? Bu jarayonda soliq nimani talab qiladi-yu, imtiyoz nimani taqozo etadi? Bu yerdagi muvozanatni ta'minlashga qanday erishiladi?

- Soliqlar bo'yicha berilayotgan imtiyozning ikki tomonlamalik xarakteri qanday namoyon bo'ladi?

- Soliq va imtiyoz dialektikasiga muvofiq bir tomon yutib, ikkinchi tomon yutqazishi mumkinmi? Yoki undan bir tomon foyda, ikkinchi tomon esa zarar ko'rishi kerakmi?

- Soliq imtiyozi qo'lga kiritilganidan so'ng unga musharraf bo'lganning xatti-harakati qanday bo'lishi kerak?

- Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlikning ma'no-mazmunini idrok etishda o'zbekona aytilgan qanday maqollar bizga yordam berishi mumkin?

- Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektikaning asl mohiyatini to'g'ri tushunmoq uchun bizning sharoitimizda "Hayotda nimadan qochib qutulishning iloji yo'q?,-degan savolning javobi qanday rol o'ynaydi?

- Bozor munosabatlari sog'lom rivojlangan mamlakatlarda soliq va imtiyoz dialektikasining negizini qanday falsafiy fikr tashkil etadi?

- "Soliq to'lovchilar soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektikaning asl ma'nosini to'g'ri tushunishlari uchun dastlab, faqatgina o'limdan emas, balki soliq to'lamaslikdan ham qochib qutulishning iloji yo'q ekanligini qalban his etmoqlari darkor. Soliq to'lovchilarimizda bunday hissiyot paydo bo'lmas ekan, ular soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektikaning asl mohiyatini idrok etishga hamon ojizliklaricha qolaveradilar", degan fikrga Sizning munosabatingiz qanday?

- Yurtimizda osoyishtalik, tinchlik, xotirjamlik hukm surayotganligi ham soliq va imtiyoz dialektikasining asl mohiyatini to'g'ri tushunishga harakat qilinayotganda nazardan chetda qolmasligi kerakmi?

- Soliq va imtiyoz dialektikasiga nisbatan munosabat bildirilayotganda soliq to'lovchilarimizning o'zlarini ijtimoiy jihatdan himoyalash ham hisobga olinishi lozimmi?

- Soliq to'lovchilarga "Siz davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinishni xohlaysizmi?" deb savol berilganda rad javobini beruvchilar topiladimi?

- Byudjet mablag'ni qayerdan oladi? Ijtimoiy himoya qilinishdan umidvor bo'lganlar bu savolga ham to'g'ri javob berishlari kerakmi yoki yo'qmi? Haqiqiy javob nimadan iborat?

- Havas hamda soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlik masalasida nimalar nazarda tutilishi mumkin?

- "Byudjetga shuncha soliq to'layapmiz. Bu mablag'lar qayoqqa ketayapti? Hech kim bizga hisobot bermayapti-ku!" tarzidagi "e'tiroz" hamda soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlik orasida qanday uzviylik mavjud?

- "Qancha soliq summalarini to'ladik?" va "Davlat tomonidan menga qancha (qanday) yordam ko'rsatildi?" savollari o'rtasidagi masala haqiqatda kimning foydasiga hal bo'layapti (bo'lishi mumkin)?

- Davlat soliqlar ma'lum bir qismining qayoqqa ketganligi to'g'risida hisobot bermadi, deb hisoblaylik. Xo'sh, davlatning shunday yo'l tutishiga haqqi bormi yoki yo'qmi?

- Hozirgi paytda amalda qo'llanilib kelinayotgan soliq qonunchiligiga biror-bir o'zgarish kiritmasdan ularda mavjud bo'lgan imtiyozlardan 100% foydalanilsa, xo'jalik yurituvchi subyektlardan byudjetga olinadigan soliqlarning miqdorini (summasini) qariyb 50% ga kamaytirishni imkoni bor ekan. Soliq va imtiyoz masalasi muhokama etilayotgan paytda bu holatning yoki vaziyatning mavjud ekanligi ham nazardan chetda qolmasligi kerakmi?

- «Soliqlar bo'yicha bizga imtiyoz berilsa yaxshi bo'lar edi», - degan fikrga borishdan oldin «Bizga soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning hammasidan to'liq foydalanib bo'ldikmi?» - deb fikr qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lmaydimi?

- Soliq sohasida ma'lum bir o'zgarishlar kiritilsa, haqiqatdan ham, iqtisodiy hayotimizdagi muammolar o'z-o'zidan hal bo'lib ketadimi?

- Iqtisodiyot nazariyasi, marketing, menejment, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, buxgalteriya hisobi, informatika, biznes, rejalashtirish, baho va hokazo sohalarining ayrim mutaxassislari, ayrim iqtisodchilar va iqtisodchi-olimlar iqtisodiyotdagi muammolarni hal etish uchun "Soliq sohasida o'zgartirishlar kerak", degan "tayyor retsept" berishdan ko'ra o'z sohalarida mavjud muammolar ustida bosh qotirsalar yaxshi bo'lmasmidi? Yoki bu sohalaridagi mavjud muammolar allaqachon sharaf bilan ado etildimikan?

- "Tayyor retsept"ni beruvchilar retseptni berishdan oldin bu retsept qabul qilinganidan so'ng uning oqibati nima-ga olib kelar ekan, deb o'ylab ko'rishlari yoki hisob-kitob qilishlari kerakmi yoki yo'qmi?

- Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektikaning tub mohiyatini to'g'ri idrok etishning bir necha variantlariga izoh berolasizmi? Ular nimalardan iborat?

- Hozirgi bizning sharoitimizda soliq bo'yicha imtiyoz berilganda variantlarning qaysi biridagi vaziyat vujudga kelish ehtimoli ko'proq? Aslida qaysi biri vujudga kelishi lozim edi?

- Soliq imtiyozlari faqat "farishta" yoki "sehrli tayoqcha"mi yoki ularning salbiy jihatlari ham bormi? Bor bo'lsa, ular nimalardan iborat?

- Soliq imtiyozlari natijasida amalda hech qachon ular berilayotgan chog'ida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishilmagan. Ularning samaradorligi esa muayyan bir xarajatlarni yoki dasturlarni byudjetdan bevosita maqsadli (ochiq-oydin va engil, oson boshqariladigan) moliyalashtirish orqali erishiladigan natijalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada past bo'lgan. Bu fikrlarning qanchalik to'g'riligini isbotlab bera olasizmi?

- “Soliq imtiyozlari iqtisodiy agentlarning teng raqobat qila olish prinsipini buzadi, bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi” degan fikrga qo’shilasizmi?

- “Soliq imtiyozlariga ega bo’lgan kompaniyalar rivojlanishga bo’lgan intilishni yo’qotadilar va o’zlarining imtiyozli mavqeyini saqlab qolishga harakat qilishadi, imtiyozlar bekor qilinganda esa ular faoliyat yuritishdan to’xtaydilar” degan fikrning to’g’riligini rad eta olasizmi?

- Imtiyozga ega bo’lmagan kompaniyalar har qanday yo’l bilan bo’lsa-da, uni qo’lga kiritishga harakat qiladilar. Haqiqatdan ham shundaymi?

- Soliq imtiyozlari texnik taraqqiyot jarayonini sekinlashtiradi va korrupsiyaga imkon yaratadi. Shu fikr to’g’rimi?

- Bir vaqtlar berilgan soliq imtiyozlarini amalda bekor qilish juda murakkab hisoblanadi. Nega?

- “Soliqlarni to’lash – qullik emas, ozodlik belgisi” ekan, shu fikrning to’g’riligini qanday qilib tasdiqlay olasiz?

- Har bir soliq to’lovchi, u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo’lsin, soliq to’lashdan bo’yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o’z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilishi mumkinmi? Bu yo’lda qanday to’siqlar uchrashi mumkin?

- O’zining jismoniy yoki yuridik shaxs ekanligidan qat’iy nazar barcha soliq to’lovchilar soliq to’lashdan bo’yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o’z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilishi zarur ekan bugungi kunda ularda ana shunday hissiyotni, ana shunday ongni shakllantirish uchun qanday ishlarni qilish kerak?

- Nazoratni kuchaytirish, tekshir-tekshirlar orqali ham ko’zlangan maqsadlarga o’z vaqtida yetib borishimiz mumkinmi?

- Soliq to’lovchilarda soliqlarni to’lashga nisbatan ongli munosabat, hissiyot va kayfiyatni qanday qilib shakllantirish mumkin? Unga erishishning yo’li qanday? Buning

uchun nima qilishimiz kerak? Agar siz bilan biz orzu qilayotgan ayrim mamlakatlarning fuqarolari (tadbirkorlari)da ana shu narsalar shakllangan bo'lsa, ular bunga qanday qilib erishdi ekan? Nega ular «Soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lash kerak!», - deb qat'iy ishonib, unga amal qiladilar- u, bizda vaziyat boshqacha?

- Eng avvalo, o'zimizning soliq to'lovchilarimizda ham «Biz nima uchun to'layotganimizni yaxshi bilamiz!», - degan ongli munosabatni, hissiyotni va kayfiyatni shakllantirish uchun nimalarni qilishimiz kerak?

- Soliq to'lovchilarimizda «Biz nima uchun to'layotganimizni yaxshi bilamiz!», - degan ongli munosabatni, hissiyot va kayfiyatni shakllantirish uchun yetarli va ishonarli bo'lgan informatsion materiallarga egamizmi? Ulardan qanday foydalanish kerak?

- Umuman olganda to'langan soliq summalarining qayoqqa ketayotganligi to'g'risida har bir soliq to'lovchida ishonarli va to'g'ri tasavvurni shakllantirish uchun ishni nima boshlash va nimalarni qilishimiz kerak?

- Soliqlarni o'z vaqtida to'lab turishning ijobiy xosiyatlari bor ekanligini ommaga kimlar tushuntirib berishi lozim? «Siz to'layotgan soliqlar sizning tinchligingizni ta'minlashga ham xizmat qilayapti!», - deb kimlar “jar” solishi kerak? Bularsiz soliq to'lovchilarda soliqlarni o'z vaqtida to'lab turishning zarurligi to'g'risidagi ongli munosabatni, hissiyotni va kayfiyatni shakllantira olamizmi? Bu sohada qanday ishlar qilinayapti? Qilinayaptimi o'zi?...

7-BOB. BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING ZAMONAVIY DOLZARB MUAMMOLARI, ULARGA NISBATAN BILDIRILAYOTGAN E'TIROZLAR, MUAMMO- LARNI HAL ETISH VA E'TIROZLARNI YUMSHATISH YO'LLARI¹⁰⁷

Respublikamizda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgan byudjet-soliq siyosatiga nisbatan yakdillik bilan fikr bildirilmayapti¹⁰⁸. Bir tomondan, buning shunday bo'lishi ta-

¹⁰⁷ O'quv qo'llanmasining ushbu bobida muhokama etilayotgan masalalar ong-li ravishda bir necha maxsus paragraflarga ajratilmadi. Bunga ko'tarilgan mas-alalarning murakkablik darajasi, ma'lumotlar yoki dalillar bilan ta'minlanganligi, dolzarbligi va ahamiyatining turli darajada ekanligi va h.k.lar sabab bo'ldi. Bob materiallarini diqqat va e'tibor bilan o'qigan har bir o'quvchi ularni alohida-alohida paragraflarga ajratishning maqsadga muvofiq emasligi, ularning mantiqiy jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'lanib qolganligi xususida tasavvur hosil qilishi mumkin. Bi-roq buning boshqa bir asosiy sababi ham bor. Chunki qanday bo'lishidan qat'iy nazar har qanday mavzuni bir necha "savollar"ga bo'lib, muhokama etish allaqa-chon bizda odat tusiga kirib qolgan. Ayrim hollarda hatto, mavzuni "savollar"ga bo'lmasdan muhokama etishni tasavvur ham qila olmaymiz. Aslida, boshqa sha-roitlar teng bo'lgan taqdirda mavzuni "savollar"ga bo'lib muhokama etish, uning faqat shu "savollar" doirasida muhokama etilishini taqozo etib, cheklash xarak-teriga ega. "Savollar" cheklanganda, mavzuning to'liq ochilmay qolishi, tabiiy. Shu bois, fikrlar rang-barangligiga katta e'tibor va hurmat bilan qaralayotgan hozirgi bir paytda, muallif nazarida mavzuni bayon etishda an'anaviy tarzda "savollar qo'yish" usulidan foydalanish yoki foydalanmaslik masalasi prinsipial ahamiyatga ega emas. Hayot saboqlari muammoni "qolip"dan chiqib ham hal etish mumkin-ligini ko'rsatayapti. Albatta, bunday noan'anaviy tarzda yo'l tutish mavzuni bayon etishda o'zboshimchalikka, boshboshdoqlikka, o'zi bo'larchilikka, "anarxiya"ga yoki "xaos"ga olib kelmasligi kerak. Qayerda qaysi variant qo'llanilishining maqsadga muvofiqligini yoki afzalligini aniqlash uchun ushbu qo'llanmaning ayrim boblari materiallarini o'zaro taqqoslashning o'zi etarli. Biz shu yo'lni tanladik. Unga nis-batan o'zingiz uchun qanday xulosani chiqarasiz - bu Sizning hukmingizga havola. Bu borada bizning pozitsiyamiz ana shunday qat'iy ko'rinishga ega bo'lsa-da, ba'zi bir sabablarga ko'ra qo'llanmamizning "Mundarija" qismida undan ongli ravishda voz kechdik va shunday variantning bo'lishi mumkinligi hech qanday muammoni tug'dira olmasligini yana bir marta ko'rsatishga harakat qildik.

¹⁰⁸ Buning aynan shunday ekanligini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinayotgan materiallarni tahlil qilish asosida aniqlashning iloji yo'q. Tegishli doiralarda va hatto xalqaro miqyosda ham bu sohada to'g'ri siyosatning yu-

biiydek tuyuladi. Chunki bu siyosat umumdavlat, umumxalq manfaatlariga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan kimningdir manfaatlariga to'liq mos kelishi yoki kelmasligi mumkin. Shunga muvofiq ravishda mos kelsa – yoqadi, aksincha bo'lsa – yoqmaydi. Ikkinchi tomondan, byudjet-soliq siyosati hamma vaqt ham barchaning manfaatlariga birdek mos kelavermasligi oldindan aniq. Bu narsani shu siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmi o'zida mujassam etadi. Buning ustiga hozirgi paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli demokratik islohotlar, shaxs erkinligi, fikrlar xilma-xilligi va ularning har biriga hurmat bilan qarashning zarurligi byudjet-soliq siyosatiga baho berilayotgan paytda o'z izini qoldirmoqda.

Shunday bo'lishiga qaramasdan “Mamlakatimizdagi byudjet-soliq siyosati sizga ma'qulmi? U sizning manfaatlaringizni to'liq ifodalayaptimi? Bu siyosat sizga yoqayaptimi? Uni to'g'ri deb hisoblaysizmi?” shaklida berilgan savollarga javoblarimiz qanday bo'layapti? Bunday savollarga javob berayotgan paytda ixtiyor o'zingizda bo'lsa “Ma'qul emas. To'liq ifodalamayapti. Yoqmayapti. Noto'g'ri deb hisoblayman” deb javob berishingizga bizda hech qanday shubha yo'q. Ba'zi bir holatlarni hisobga olib, ularning barchasiga bir so'z bilan “Ha” deb javob bersangiz ham bu javobingizga aslida o'zingiz ham ishonmaysiz va o'zgani ham ishontira olmasligingiz aniq.

Savol “Mamlakatimizdagi byudjet-soliq siyosatining nima-si Sizga ma'qul emas? Nimasi yoqmayapti? Nimasi noto'g'ri?” shakli va mazmunida berilsa va Sizni burchakka olib-borib, “tiqib” qo'ysak, ilojisiz qolgandan so'ng oxir-oqibatda “yorila-

ritilayotganligi e'tirof etilayapti. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan, ayrim hollarda va o'rni kelgan joylarda bu siyosatga nisbatan o'zimizning norozi ekanligimizni astagina bildirishga harakat qilayapmiz. Unga nisbatan xayrixoh bo'lganlarni ham topayapmiz. Minbarda mamlakatimiz byudjet-soliq siyosatining afzalliklari va xalqparvarligi xususida gapirib turib, undan tushgandan so'ng, ayrim hollarda, o'z fikrimizdan qaytayapmiz. Unga tegishli bo'lgan ayrim savollarning haqiqiy javoblarini topa olmasdan, muxolifimizning fikrini qo'llab-quvvatlashga majbur bo'layapmiz. Bu siyosatning to'g'ri ekanligini qo'llab-quvvatlash o'zimiz (bu yerda biz “o'zimiz” deganda byudjet mablag'lari hisobidan ro'zg'or tebratuvchilarning barchasini nazarda tutayapmiz) uchun ham qarz, ham farz ekanligiga qaramasdan, osongina “taslim” bo'layapmiz.

siz”, “dard”ingizni oshkor etasiz. Aksariyat hollarda ular eng umumiy ko‘rinishda quyidagilardan iborat bo‘ladi¹⁰⁹:

- “byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlari kam”;
- “soliqlarning soni ko‘p va ular ko‘payib borayapti”;
- “soliq stavkalari yuqori darajada”;
- “soliq imtiyozlari yetarli darajada emas”;
- “soliq yuklamasi nisbatan og‘ir”;
- “soliq yuklamasi notekis taqsimlangan”;
- “soliqlar tomonidan yetarli darajada rag‘batlantirilmayapti”;
- “soliq qonunchiligi (tizimi) nobarqaror”;
- “soliq tizimi haddan ziyod fiskal xarakterda”;
- “foyda (daromad) soliqqa ko‘proq darajada tortilayapti”;
- “molk-mulkdan kamroq soliq olinayapti”;
- “jismoniy shaxslar daromadi yuqori darajada soliqqa tortilayapti”;
- “oldin mavjud bo‘lmagan qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgan”;
- “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlarga nisbatan qattiq moliyaviy jazolar qo‘llanilayapti”;
- va boshqalar.

Byudjet-soliq siyosatiga nisbatan yuqorida keltirilgan “e’tirozlar”ni “yotig‘i” bilan, xolisona mushohada yuritib va mantiqning tegishli qoidalariga qat’iy rioya etgan holda bir muhokama qilib (tahlil etib) ko‘raylikchi, qanday manzaraning guvohi bo‘lar ekanmiz?¹¹⁰

Dastlab, birinchi o‘rinda keltirilgan “byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlari kam” shakli va mazmunida bildirilgan “e’tiroz”ni ko‘rib chiqaylik. Shu munosabat bilan

¹⁰⁹ Ularning ro‘yxatini yana ancha davom ettirish mumkin. Biz bu yerda ularning eng ko‘p marta takrorlanayotganlarini keltirish bilan cheklandik, xolos. Ular muallif fantaziyasining mahsuli emas. Keltirilgan “dard”lar turli doiradagi va darajadagi auditoriyalardan olingan va ular ko‘chirma gap bo‘lganligi uchun o‘zgarishsiz, qo‘sh tirnoq ichida keltirilayapti.

¹¹⁰ Bunday tarzda ish tutishda tarafdorlarimizdan ko‘ra muxoliflarimiz ko‘p bo‘lishini oldindan bilsak-da, bu yerda ham “bilib qo‘ygan – yaxshi” aqidasiga rioya etishni afzal deb bildik.

oldin yana bir marta shu tarzda “e’tiroz” bildirilayaptimi yoki yo’qmi, shuni aniqlaylik. Bunday “e’tiroz”ni kimlar bildirishayapti? Byudjet hisobidan maosh oladiganlar. Ular kimlardan iborat? Bular, asosan, maorif, sog’liqni saqlash, madaniyat, sport, fan, sotsial ta’minot sohalarida, davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlari, fuqarolarni o’z-o’zini boshqarish organlarida faoliyat ko’rsatuvchilardan iborat. Ular haqiqatdan ham yuqoridagi tarzda “e’tiroz” bildirishayaptimi yoki yo’qmi? Bu savolga nima deb javob beramiz? Savolning javobi Sizga ma’lum. U quyidagidan iborat: ularning orasida oladigan oylik maoshim yetarli emas, deguvchilar ko’pchilikni tashkil qiladi. Shunday bo’lishiga qaramasdan bu sohada faoliyat ko’rsatayotganlarning kamdan kami “Oyligim kam” deb boshqa sohaga (nodavlat sohasiga) o’tib ketayotibdi, xolos. Ayrim hollarda esa “o’tgan”lari ham tezda ortga qaytishga harakat qilishayapti. Nega? Buning ustiga “Oyligim” kam” deyayotganlarning aksariyati o’z sohalaridan boshqa tomonga “o’tish” niyati yo’q. Nima uchun?

“Byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlari kam” tarzida “e’tiroz” bildirilayotganda quyidagi oddiy savollarga jiddiy e’tibor bermoq va ularning aniq javobiga ega bo’lmoq lozim:

- hech bo’lmaganda, byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlarini oshirish nimaga bog’liq? Bu savolning aniq javobiga ega bo’lmasdan bildirilgan e’tiroz e’tirozligicha qolaveradi. Bunday “e’tiroz”ga aqli odam e’tibor bermaydi, boshini og’ritib o’tirmaydi, vaqtini behudaga sarflamaydi ham. Byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlarini oshirish eng avvalo, shunday oshirishga imkon beruvchi mablag’larning byudjetda bo’lishiga bog’liq. Oylik maoshlarini oshirishga imkon beradigan mablag’ byudjetda bo’lmasa, yuqoridagi tarzda bildirilayotgan “e’tiroz” xom xayollikdan o’zga narsa emas-ku! Bunday holatni inobatga olmasdan turib “Byudjetda mablag’ bormi-yo’qmi, bunday qat’iy nazar byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlari kam, ularni oshirish kerak” degan tarzda bildirilgan “e’tiroz” o’zining moliyaviy asosiga ega emas va uni obyektiv e’tiroz sifatida

e'tirof etib bo'lmaydi. Buning ustiga byudjet hisobidan oylik maosh oladigan-larning oyligini oshirishda eng avvalo, byudjetda mablag'larning bo'lishi taqozo etilar ekan, buning uchun byudjetni qo'shimcha daromadlar bilan ta'minlash ham lozim. Bu esa o'z navbatida, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, soliqlarning oshirilishini talab qiladi. Bunga rozi bo'lamizmi? Bir vaqtning o'zida boshqa bir tomondan byudjetda tegishli ortiqcha mablag'ning bor ekanligi ham oylik maoshni oshirishga yetarli darajada asos bo'lavermaydi. Buning uchun navbatdagi savolga ham xolisona javob berish maqsadga muvofiq;

- byudjetdan olayotgan maoshimga arzigulik mehnat qilayapmanmi o'zi yoki yo'qmi? Bu juda munozarali savol. Unga javob izlab turib, barcha "pozitsiya"larda masalani o'z foydamizga hal qilishga harakat qilamiz. Qilgan mehnatimiz munosib taqdirlanmayapti, degan xulosaga ham kelamiz. Bunday paytda xolislik oxirgi o'ringa tushib qoladi. Qilayotgan mehnatim haqiqatdan ham samaralimi? U nimada o'z ifodasini topayapti?¹¹¹ Bular xususida bir o'ylab ko'ringchi, manzara qanday bo'larkin? Xolisona xulosa chiqarilsa, ko'p hollarda ko'pchiligimizning byudjetdan olayotgan maoshimizga munosib mehnat qilmayotganligimiz ma'lum bo'ladi. Bunday sharoitda oylik maoshlarini oshirish masalasini kun tartibiga qo'yish o'rinlimi? Byudjetdan olayotgan maoshimizga arzigulik mehnat qilganligimiz ma'lum bo'lganda ham bunday masalani kun tartibiga qo'yish o'zining ma'nosiga ega emas;

- "e'tiroz"lar e'tiborga olinib, byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlari asossiz ravishda oshirilsa, buning oqibati nimalarga olib kelishi mumkin? Aksariyat hollarda, bunday qaror qabul qilinishining oqibatlari quyidagilardan iborat: byudjet defitsitining darajasi ortadi; mehnat motivatsiyalanishining asoslariga putur yetadi; xodimlarda boqimandalik va tanballik kayfiyatlari yanada kuchayadi;

¹¹¹ Shu maqsadda byudjet hisobidan maosh oladiganlarning bir kunlik mehnat faoliyatlarini xolisona bir tahlil qilib ko'ringchi, qanday xulosaga kelarkansiz?

infllyatsion jarayonlar o'tkirlashadi; pul va tovar massasi o'rtasidagi nomutanosiblik ortadi va h.k.;

- byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlarini oshirishning asosida haqiqatda, nima yotishi kerak? Bu savolning obyektiv, yakka-yu, yagona quyidagi javobi mavjud: shu sohada faoliyat ko'rsatayotganlar mehnatining unumdorligi¹¹². Bu yerda ham ish haqining o'zgarishi mehnat unumdorligining o'zgarishiga bog'liq bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida mamlakatimizda byudjet sohasida ishlayotganlarning oylik maoshlari necha marta oshirildi¹¹³-yu, ular mehnatining unumdorligida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi, degan savolga bir javob izlangchi, javobingiz nimalardan iborat bo'lar ekan?;

- odatda, kimlarning oylik maoshlari yuqoriroq yoki pastroq bo'lishi kerak: byudjet sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarnikimi yoki nodavlat sektoridagilarniki? Boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, byudjet sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning oylik maoshlariga nisbatan nodavlat sektorida faoliyat ko'rsatayotganlarining oylik maoshlari yuqoriroq bo'lishi to'g'ri hisoblanadi. Nima uchun? Chunki davlat sektorida (byudjet sohasida) faoliyat ko'rsatayotganlarining oylik maoshlari kafolatlangan bo'lib, ularning riskka ta'sirchanligi past darajada. Nodavlat sektoridagilarniki esa – buning aksi. Shu sababli, ba'zi hollarda professor yoki akademikning ish haqidan mexanizator yoki shaxtyorning ish haqi yuqori bo'lib qolgan bo'lsa, ajablanishga hech hojat yo'q¹¹⁴.

Respublikamizdagi byudjet-soliq siyosatiga nisbatan bildirilayotgan “e'tiroz”larning ikkinchisi sifatida “soliqlar sonining ko'pligi va ularning ko'payib borayotganligi”ni ko'rsatish mumkin. Bu “e'tiroz”ning tarafdorlari mamlakatimizda juda

¹¹² Amaliyotda buni aniqlashning qanday muammolari mavjud? Ular qanday hal qilingan va qanday hal qilinishi kerak?

¹¹³ Bundan ko'zlangan maqsad va uning sabablari nimalardan iborat ekanligi xususida o'ylab ko'ring.

¹¹⁴ Shu joygacha “byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlari kam” tarzida “e'tiroz” bildirilayotganda jiddiy e'tibor berilishi va aniq javobiga ega bo'lishi lozim bo'lgan savollarning eng hayotiyalarini keltirish bilan cheklandik. Ularni yana davom ettirasiz degan umiddamiz.

ko'p. Shuning uchun unga nisbatan haqiqiy "diagnoz"ni qo'yish kerak (haqiqiy javobni berish kerak, deb o'qing). Bunda eng avvalo, quyidagi uch savolning aniq javobiga ega bo'lish prinsipial ahamiyatga ega:

- shu kecha-yu kunduzda soliqlarning soni nechta?
- oldingi vaqtlarda (1, 5, 10, 20, 50, 70 yil oldin) soliqlarning soni nechta bo'lgan?
- qiyoslaganda soliqlarning soni ko'payibdimi yoki kamayibdimi?

Haqiqatdan ham yuqorida keltirilgan har uchala savolning aniq javobiga ega bo'lmasdan turib, "soliqlar sonining ko'pligi va ularning ko'payib borayotganligi" xususida gapirish yoki shu mazmunda byudjet-soliq siyosatiga nisbatan e'tiroz bildirish o'z ma'nosiga ega emas¹¹⁵.

Xo'sh, "shu kecha-kunduzda soliqlarning soni nechta?" degan savolga qanday javob beramiz? Shu savol bilan eng avvalo, "soliqlar soni ko'p va ular ko'payib borayotibdi" degan e'tirozchining o'zidan so'rab ko'ringchi, shu kecha-kunduzda soliqlar sonining nechta ekanligini bilarmikan? Bilmaydi. Undan so'ng, e'tirozchining "e'tirozi"ni to'g'ri deb hisoblab, unga "hamdard" bo'layotgan o'zimizga o'zimiz murojaat qilib ko'raylikchi, javobimiz nimadan iborat bo'larkin? O'zimizda ham javob yo'q. Balki bu savolning aniq javobini unga nisbatan ma'lum ma'noda, "buloqning boshida turgan" Soliq kollejlari, Toshkent Moliya instituti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Soliq akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi va h.k.larning talabalari bilishar? Bilishmaydi. Ular bilishmasa, balki yuqoridagi ilm dargohlarida faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodchi olimlar yoki professor-o'qituvchilar bundan xabardordir? Afsuski, ularning aksariyati ham bundan xabardor emas. Va nihoyat, bu savolning aniq javobini beruvchi oxirgi najot tariqasida shu sohaning "nonini eb yurgan" soliq tizimida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi mutaxassislariga murojaat qilib ko'ringchi, ular bu javobdan

¹¹⁵ Yoki Siz bu fikrga qo'shilmaysizmi? Qo'shilmasangiz bir urinib ko'ringchi?!

ogohmikanlar? Yo'q, ogoh emas¹¹⁶. Bunday vaziyatda yuqorida savolning aniq javobini topaman deb mamlakatimizning qolgan boshqa fuqarolariga, jumladan, mehnatkash paxtakor-u g'allakorga yoki dehqon-u chorvadorga murojaat qilish o'zining ma'nosiga ega emas.

Ochig'ini aytib qo'yaylik, yuqoridagi oddiy savolning javobini topish oson ish emas. U ancha ter to'kishni va puxta mushohada yuritishni taqozo etadi. Buning uchun hech bo'lmaganda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi"ni qo'lga olib, uning "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi" deb nomlangan 3-bobidagi "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari" deb nomlanuvchi 23-moddasiga qarash kerak¹¹⁷. Biroq ushbu moddani hijjalab bir necha marta o'qib chiqsangiz-da, unda "O'zbekistonda shu kecha-yu-kunduzda mana shuncha soliqlar bor" degan jumlani topa olmaysiz va u yerda soliqlar sonining nechta ekanligini to'g'ridan to'g'ri aniqlay olish imkoniyatiga ega emassiz.

"Kodeks"dagi "Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq",

¹¹⁶ Bu shakldagi qat'iy javoblar bizning shaxsiy kuzatuvlarimiz natijalariga asoslangan. Bu bilan biz ularning iqtisodiy bilimlilik darajasi yoki saviyasiga baho bermoqchi emasmiz. Aksincha, ushbu masalaga nisbatan mavjud bo'lgan real (haqiqiy) holatni qayd etmoqchimiz, xolos.

¹¹⁷ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: "Adolat", 2008. 20-22-betlar.

deb ular 10 turining ko'rsatilganligi shu kecha-yu kunduzda soliqlar sonining 10 taligidan darak bermaydi. Chunki shu yerning o'zida birgina 5-punktdagi "yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar" deb yozilganligi ular sonining 10 ta emasligiga shubha tug'diradi. 7-punktda keltirilgan "mol-mulk solig'i" va 8-punktdagi "yer solig'i" yuridik va jismoniy shaxslar uchun alohida-alohida soliqlar ekanligi inobatga olinadigan bo'lsa, soliqlar sonining 10 ta emasligi haqidagi shubha yanada kuchayadi. Shu moddaning oxirrog'ida "Ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

yagona soliq to'lovi;

yagona yer solig'i;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq"¹¹⁸ deb yozilganligi esa O'zbekistondagi soliqlar sonining 10 ta ekanligini ochiqdan-oydin chippakka chiqaradi.

Buning ustiga "Soliq kodeksi" 23-moddasining eng oxirida "Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi"¹¹⁹ deb qayd etilganligi ham "Mamlakatimizda soliqlarning soni 10 ta", deb aytishga imkon bermaydi.

Va nihoyat, qo'yilgan masalaga nisbatan soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari (xususan, a) to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga; b) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatga; v) dehqon xo'jaliklariga; g) bozorlarga; d) gastrol-konsert faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga; advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari) ham inobatga olinadigan

¹¹⁸ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: "Adolat", 2008. 21-bet.

¹¹⁹ O'sha yerda, 22-bet.

bo'lsa, bu narsa shu kecha-yu-kunduzda soliqlar sonining nechtaligini aniqlashni yanada murakkablashtiradi.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan yaqqol ko'rinib turibdiki, shu kecha-yu kunduzda mamlakatimizda soliqlar sonining nechta ekanligini aniqlashda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi"ning o'ziga ega bo'lish va uning tegishli moddalarini ko'r-ko'rona mutoala qilishning o'zi ham yetarli emas. Bu tarzda soliqlar sonining nechta ekanligini aniqlashning iloji yo'q. Buning uchun, hech bo'lmaganda, o'quvchining (sanovchining) oddiy ko'zidan tashqari "aql ko'zi" ham bo'lishi taqozo etiladi.

Xullas, "Soliq kodeksi"ga muvofiq hozirgi paytda soliqlar sonining nechta ekanligini aniqlash sanovchining saviyasiga, iqtisodiy bilimlilik darajasiga bog'liq. Saviya turlicha bo'lganligi uchun "Soliq kodeksi"ni "Eshmat" qo'lga olib sanasa, soliqlarning soni "X" ta bo'ladi. "Toshmat"ning sanashiga ko'ra bu narsa "U" taga teng bo'lishi mumkin. "Begmat" sanaganda esa, ularning soni "Z" ta chiqishi ham ehtimoldan xoli emas¹²⁰.

Ajablanarlisi shundaki, sanash iqtisodchi olimlar yoki amaliyotchi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilsa ham natija shunga o'xshash bo'ladi. Chunki ularda ham saviya – turlicha. Buning ustiga soliqlarning sonini aniqlashda qanday yondashish kerakligi xususida ular o'rtasida hamon yakdillik yo'q¹²¹. Ularning bir toifasi soliqlarning sonini aniqlashda faqat "soliq" deb nomlanganlarni sanash

¹²⁰ Bunga sira ajablanmaslik kerak. Buning uchun har birimiz qo'limizga sanoq cho'pni olib, ilk marta sanashni qanday o'rgangan paytimizni esga olaylik. Murabbiy-ustozimiz har birimizning qo'limizga 20 tadan bo'lgan sanoq cho'pni berib, "Qani, sananglarchi, qo'llaringizda nechta sanoq cho'pi bor ekan?" deb bergan savolidagi javobimizga ko'ra hammamizning javobimiz ham "20 ta!" dan iborat bo'lmagan: "Eshmat"lar guruhiga kirgan sinfdoshlarimizning umumiy javobi "20 tadan kam", "Toshmat"larniki – "20 ta!", "Begmat"larni esa – hatto "20 tadan ko'p"ni tashkil etgan.

¹²¹ Bu narsa fikrlar xilma-xilligiga yoki rang-barangligiga alohida e'tibor va hurmat bilan qaralayotgan hozirgi paytda yanada kuchaymoqda. Afsuski, ayrim hollarda bu narsa keraksiz yoki foydasiz munozaralarning kelib chiqishiga va ularning uzoq vaqt davom etishiga sabab bo'lmoqda.

bilan cheklanishadi. Ikkinchi toifadagilar esa, soliqlarning sonini aniqlashda faqat “soliq” deb nomlanganlardan tashqari yana “majburiy to’lovlar”ni ham inobatga olish kerakligini qayd etadilar va soliqlar sonini ana shundan kelib chiqib, aniqlaydilar. Soliqlar sonini aniqlashda yana boshqacha tarzda yondashadiganlar, ya’ni soliqlarning tarkibiga yuqoridagi ikki “element”dan tashqari yana “majburiy ajratmalar” va “yig’im”larni ham qo’shib hisoblanishini ta’kidlaydigan uchinchi toifadagilar bor. Va nihoyat, soliqlar sonini yuqoridagi uch “element”ning turli kombinatsiyalaridan foydalangan holda aniqlash tarafdorlari ham mavjud.

Bulardan ko’rinib turibdiki, soliqlar sonini aniqlashda yondashuvlar turlicha bo’lganligi uchun ularni qo’llash evaziga qo’lga kiritilgan natija – soliqlar sonining nechtaligini ko’rsatuvchi ko’rsatkich – ham turlicha bo’lishi, tabiiy¹²².

Shunday bo’lishiga qaramasdan hozirgi paytda soliqlar sonining nechtaligini aniqlashda, ularning qanday atalishidan qat’iy nazar “soliqlar”, “yig’imlar”, “to’lovlar” va “ajratmalar” barchasining ularni to’lovchilar uchun majburiy xarakterdaligi hisobga olinadigan va ularning har biri o’z nomi bilan atalib, mustaqil soliq sifatida e’tirof etiladigan bo’lsa, bu ko’rsatkich darajasining 40 tadan ortiq ekanligini aniqlashimiz mumkin¹²³.

¹²² Bunga keyingi paytlarda soliqlar sonini sanovchining qaysi mamlakat fuqarosi ekanligi o’zining ta’sirini ko’rsatishi mumkinligi ham qo’shilmoqda. Chunki Rossiya fuqarosi tomonidan internetda e’lon qilingan ma’lumotlarga ko’ra Roosiya 22 ta soliq mavjud. Gambiyada ularning soni 50 taga yetadi. Ukrainada soliqlarning 99, O’zbekistonda – 118, Belorussiyada esa – 124 turi bor (bu ma’lumotlar internetning <http://www.gazeta.ru/> saytidan olingan).

¹²³ Yuqorida qayd etilganidek, bu yerda tegishli javobni berayotgan paytda o’ta ehtiyotkorlik qilmoq lozim. Chunki soliqlarning sonini mana shuncha deb faqat ma’lum bir sanani hisobga olgan holda aytish o’rinli. O’sha sana uchun to’g’ri bo’lgan soliqlarning soni boshqa sanaga to’g’ri kelmasligi mumkin. Boshqa bir sanada ularning soni o’zgarib (ko’payib yoki kamayib), boshqacha bo’lish ehtimoli ham mavjud. Garchi soliqlarni joriy etish yoki ular ayrimlarini bekor qilishning o’ziga xos qat’iy tartibi bo’lishiga qaramasdan hozirgi o’zgaruvchan sharoitda bu tartibga hamma vaqt ham qat’iy rioya etishning iloji bo’lmay qolayapti. Davrimizning shid-

Yuqorida qo'yilgan uch savolning birinchisiga javobni osonlikcha topmaganimizdan so'ng endi navbatdagi ikkinchi savolning, ya'ni "oldingi vaqtlarda (1, 5, 10, 20, 50, 70 yil oldin) soliqlarning soni nechta bo'lgan?", degan savolning javobini topishga harakat qilib ko'raylikchi, manzara qanday bo'larkin? Shubhasizki, bu ikkinchi savolning javobi birinchisidikiga nisbatan ham yanada murakkabroq. Shu kecha-yu kunduzda soliqlar sonining qanchaligini bilmaydiganlardan bu ikkinchi savolning javobini kutish maqsadga muvofiq emas¹²⁴. Chunki bu savolning javobini topish birinchi savolning javobini topishdan ko'ra ko'proq mehnatni talab qiladi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu ikkinchi savolning ham aniq javobi bor. Buning uchun "Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ro'yxati" deb nomlangan maxsus manbaga murojaat qilmoq lozim¹²⁵. Har qanday davlat taraqqiyotining har bir moliyaviy yili uchun bu manba (hujjat) mavjud bo'lib, unda jumladan, davlat byudjeti daromadlarining qanday soliqlar evaziga tarkib topganligi nomma-nom yozilgan. Qolgani – yuqorida ta'kidlanganidek, Siz bilan bizning qanday sanashimizga bog'liq.

Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlatimiz byudjetining daromadlari 45-47 nomdagi soliqlarni qo'llash evaziga shakl-

dat bilan o'zgarib borayotganligi, o'rnatilgan tartibga hamma vaqt ham ko'r-ko'rona rioya etishning maqsadga muvofiq emasligi va shunday qilsa, ayrim hollarda uning nihoyatda "qimmat"ga tushib qolishi mumkinligi shuni taqozo etayapti. Undan tashqari bu yerda hozirgi paytda soliqlar sonining aniq emas, balki 40 tadan ortiqroq, deb umumiy tarzda e'tirof etilayotganida, hatto "ashaddiy" sanovchilar saviyasining ham turlicha bo'lishi mumkinligi esdan chiqmasin.

¹²⁴ Bugun soliqlar sonining nechtaligini bilmaydiganlardan ularning soni kecha nechta ekanligini so'rash o'zining ma'nosiga ega emasligi o'z-o'zidan, aniq.

¹²⁵ Shu o'rinda bu manbaga (hujjatga) ega bo'lish, u bilan atroflicha tanishish hammaga ham har doim nasib etavermasligini qayd etib o'tishimiz lozim. Chunki bu manba (hujjat) "Faqat xizmat doirasida foydalalanish uchun" grifiga ega.

langan. 1995-yilning 1-yanvar holatida ularning soni 42 ta bo'lgan. Sho'rolar davrining oxirgi yillarida ham byudjet daromadlarini shakllantirishda 50 dan kam bo'lmagan nomdagi soliqlar ishtirok etgan¹²⁶. 1930-1932-yillarda SSSRda soliq islohoti o'tkazilgan bo'lib, ungacha soliq to'lovchilar va byudjet o'rtasida munosabatlar 83 nomdagi soliqlar¹²⁷ yordamida amalga oshirilgan¹²⁸.

Endi bu raqamlarni hozirgi paytdagi raqamlar bilan taqqoslab ko'ringchi, soliqlar soni oldingi yillarga nisbatan ko'payibdimi yoki kamayibdi? Javob aniq: mamlakatimizda soliqlar soni yildan yilga ko'payib borayotgani yo'q. Aksincha, ularning soni kamayib bormoqda. Bu yuqorida qo'yilgan uchinchi savolimizga javob.

¹²⁶ Buning aynan shunday ekanligini "Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ro'yxati" asosida yilma-yil aniqlash mumkin.

¹²⁷ Bu o'rinlarda "soliqlar" so'zining ishlatilishi ba'zi-birovlarning e'tiroziga sabab bo'lishi mumkin. Chunki markscha-lenincha nazariyada soliqlar kapitalizmga mehnatkash xalq ommasini hukmron sinflar tomonidan qo'shimcha ekspluatatsiya qilish vositasi sifatida e'tirof etilgan. Bu nazariyaga muvofiq sotsializmga esa kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilishga barham beriladi va shunga mos ravishda ularni qo'shimcha ekspluatatsiya qilish quroli sifatida soliqlar ham barham topishi kerak edi. Ana shuni hisobga olgan holda Sho'rolar davrida soliqlarga "barham" berishga harakat qilindi. Bu so'zning o'rniga "foydadan to'lovlar", "foydadan ajratmalar", "foydaning ozod qoldig'i" va h.k. shu kabi so'zlar ishlatilib, "soliqlar"ga o'ziga xos tarzda "yangi to'n" kiydirilgan bo'lsa-da, aslida ularning mazmun-mohiyati o'zgarmasdan qolaverdi. Buning ustiga sotsialistik amaliyot ham "soliqlar" so'zidan butunlay voz kechishning iloji yo'qligini ko'rsatdi. Soliqlar sotsializmning tabiatiga zid, deb e'tirof etilgan bo'lishiga qaramasdan o'sha davrda ham "oborot solig'i", "daromad solig'i", kolxoz-kooperativ korxonalaridan olinadigan daromad solig'i", "bo'ydoqlik solig'i" va shu kabi iboralarni ishlatilmaslikning iloji bo'lmadi. Shuning uchun sotsializmga ham qanday deb atalishidan qat'iy nazar bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi hamda, ikkinchi tomondan, davlat o'rtasidagi byudjet daromadlarini shakllantirishga qaratilgan munosabatlar majburiylik xarakteriga ega bo'lib, ular soliqlardan boshqa hech narsa emas edi.

¹²⁸ Buni Sho'rolar davrining turli yillarida A.M.Aleksandrov, E.A.Voznesenskiy, M.K.Shermenyov, V.M.Rodionova, P.N.Nikolskiy va boshqalar tahriri ostida "Finansi SSSR", "Finansi sotsialisticheskix gosudarstv" va "Finansi sotsialisticheskogo obshestva" nomlari bilan nashr qilingan darslik va o'quv qo'llanmalariga murojaat qilish asosida aniqlasa bo'ladi.

“Soliqlar soni ko‘p va ular ko‘payib borayapti” tarzida soliq siyosatiga nisbatan “e‘tiroz” bildirayotganlar shu o‘rinda quyidagi savolning aniq javobiga ham ega bo‘lishlari lozim: iqtisodiy faoliyatni (jumladan, ishlab chiqarishni) sog‘lom rivojlantirish va davlat byudjetini yetarli miqdordagi daromadlar bilan ta‘minlash nuqtayi nazaridan qaysi variant maqbul: soliqlar sonining kamligi-yu, stavkalarining maksimalligimi? Yoki soliqlar sonining ko‘pligi-yu, stavkalarining minimalligimi?

Amaliyot va tajribaning ko‘rsatishicha, bu savolning javobi izlanayotgan paytda uni izlovchilar, beixtiyor, bir necha guruhlariga bo‘linib qoladi. Ularning bir guruhi “soliqlar sonining kamligi-yu, stavkalarining maksimalligi maqbul”ligini yoqlab, o‘z argumentlarini keltirishsa, ikkinchi guruhdagilar esa, aksincha, “soliqlar sonining ko‘pligi-yu, stavkalarining minimalligi maqbul”ligining afzal ekanligini isbotlashga harakat qilishadi. Muhokama jarayonida “soliqlar soni ko‘p va ularning stavkalari maksimal darajada bo‘lsin” deguvchilar topilmasada, biroq “soliqlar soni kam va ularning stavkalari minimal bo‘lsa, ayni muddao bo‘lur edi” deguvchilar ham paydo bo‘ladi¹²⁹.

Savol yuqoridagi shakl va mazmunda qo‘yilgan paytda, eng avvalo, uning yakka-yu yagona javobi mavjud emasligini qayd etish kerak. Soliq tizimiga oid jahon tarixi va mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha, bir tomondan, iqtisodiy faoliyatni sog‘lom rivojlantirish va ikkinchi tomondan, davlat byudjetini yetarli miqdordagi daromadlar bilan ta‘minlash uchun yuqorida keltirilgan savol javoblarning turli kombinatsiyalaridan foydalanilgan va ularning har biri o‘zining tegishli samarasini bergan. Biroq, shunday bo‘lishiga qaramasdan, yuqoridagi savolga nisbatan javoblarning qaysi variantini tanlanganligi iqtisodiy faoliyatni sog‘lom rivojlantirish va byudjetni yetarli darajadagi daromadlar bilan ta‘minlashning yagona yo‘li bo‘laolmaydi. O‘z-o‘zidan bu variantlar qo‘llanilishining hech biri avtomatik tarzda iqtisodiy faollik-

¹²⁹ Bu bildirilayotgan fikrlar mualliflarning shaxsiy kuzatuvlari va turli doiralarda o‘qigan ma‘ruzalarining natijalariga tayangan holda bildirilayapti.

ning rivojlanishiga va byudjetning yetarli darajadagi daromadlar bilan ta'minlanishiga olib kelmaydi. Bu vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishiga yuqoridagilardan tashqari yana ko'plab omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi¹³⁰.

“Soliqlar soni ko'p va ular ko'payib borayapti” tarzida soliq siyosatiga nisbatan “e'tiroz” bildirayotganlar “Byudjet manfaatlari nuqtayi nazaridan soliqlar sonining ko'pligi yoki kamligi prinsipial ahamiyatga egami yoki yo'qmi?”, degan savolning javobidan ham ogoh bo'lmoqlari lozim.

Sirtidan qaralganda savolning bu tarzda qo'yilishi, hech bo'lmaganda, g'alatiroq tuyuladi. Shuning uchun ham shu tarzdagi savol e'lon qilinganda, ayrim hollarda birdaniga “Albatta, prinsipial ahamiyatga ega. Soliqlar soni qancha ko'p bo'lsa, byudjetga shuncha yaxshi. Chunki byudjetga daromadlar shuncha ko'p boradi”, degan javobga ham ega bo'lamiz. “Nega bunday javob berildi?”, deb uni aniqlashtirishga harakat qilsak, bunday tarzdagi javobning “bejiz” berilmaganligi ma'lum bo'ladi. Yuqoridagi javob matematika-ning quyidagi oddiy qoidasiga asoslangan ekan: qo'shiluvchilar sonining ko'payishi, yig'indining ortishiga olib keladi.

Bu tarzdagi javob, ma'lum ma'noda, o'zining mantig'iga ega bo'lsa-da, byudjet daromadlarini shakllantirish nuqtayi nazaridan uni har doim ham to'g'ri javob, deb bo'lmaydi. Bunday javob, boshqa holatlar o'zgarmagan taqdirda yangi soliqlar sonining ko'paytirilishi avtomatik tarzda byudjetga undiriladigan soliq summalarining ortishiga olib kelsagina, o'rinli bo'lishi mumkin. Lekin bu degani hamma vaqt yoki doim ham shunday bo'laveradi, degani emas. Iqtisodiy hayotning ko'rsatishicha, soliqlar sonining ko'paytirilishi byudjetga boruvchi daromadlar summasini o'zgartirmasligi yoki hatto kamaytirishi ham mumkin. Buning xuddi shunday bo'lishi mumkinligi faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham o'rinli. Ko'rinib turibdiki, bu yerda matematikaning oddiy qoidalari ham ayrim hollarda o'z kuchini yuqotayapti. Bu yerda soliqlar soni va byud-

¹³⁰ Bir urinib ko'ringchi, bular qanday omillar ekan?!

jet daromadlarining summasi o'rtasida to'g'ri proporsional bog'lanish mavjud, deb ham bo'lmaydi. Shu ma'noda, byudjet manfaatlari nuqtayi nazaridan soliqlar sonining ko'pligi yoki kamligi prinsipial ahamiyatga ega emas, deyish mumkin. Bu degani davlat istasa – yagona bitta soliqni qo'llab, xohlasa – bugungi kundagidek 40dan ortiq soliqlarni joriy etib, o'ziga tegishli bo'lgan mablag'ni byudjetga olishi mumkin, degani bilan barobardir.

Bu tasdiqning ma'no-mazmunini to'liqroq va to'g'riroq tushunish uchun umumiy tarzda "Soliq summasi nimalarga bog'liq?" degan savolning javobiga ham ega bo'lish kerak. Javob tabiiyki, "Soliqning summasi soliqqa tortiladigan obyektning summasi¹³¹ga va soliqning stavkasiga bog'liq"dan iborat bo'ladi. Bu eng umumiy javob bo'lsa-da, e'tibor bering, biz bu yerda "Soliqning summasi soliqning soniga bog'liq" degan javobni bermayapmiz.

Shu joyda yana bir o'rinli savol paydo bo'ladi: byudjet manfaatlari nuqtayi nazaridan soliqlar sonining ko'pligi yoki kamligi prinsipial ahamiyatga ega emas ekan va davlat istasa – yagona bitta soliqni qo'llab, xohlasa – bugungi kundagidek 40dan ortiq soliqlarni joriy etib, o'ziga tegishli bo'lgan mablag'ni byudjetga olishi mumkin ekan, nega u holda soliqlarning sonini yagona (bitta) qilib o'rnatish maqsadga muvofiq emas¹³²? Ko'rinib turibdiki, bu savol mantiqiy jihatdan mushohadalashning natijasi. Shu tarzda mushohada qilinganidan so'ng bu savoldan qochib qutilishning hech iloji yo'q.

Haqiqatdan ham yuqoridagi tasdiqlar to'g'ri bo'lsa, bugungi kunda 40dan ortiq soliqlarni qo'llashning nima keragi bor? Bitta soliqdan foydalangan holda davlat o'ziga tegishli bo'lgan summani (daromadni) olavermaydimi? Shunday qilinsa, boshqalarga (soliq to'lovchilarga) ham yaxshi bo'lar edi-ku!? O'z navbatida, soliqqa tortish jarayonlari ham soddalashardi, to'g'rimi!? Hammamizning ham niyatimiz aslida shundan iborat emasmi? Va h.k. Bunaqangi hayotiy savol-

¹³¹ Bu o'rinda soliqqa tortiladigan aylanma, mol-mulkning qiymati, daromad va shu kabilar nazarda tutilmoqda.

¹³² Maqsadga muvofiq emasligini tasdiqlovchi dalillarni keltiraolasizmi?

larning kun tartibiga qo'yilmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Bu savollarga asosli javobni berish uchun ularga qo'shimcha tarzda, yana bir savolning javobini topish zarur. Aks holda, barcha urinishlar besamar ketadi. Javobimiz ishonchli chiqmaydi. Bu qo'shimcha tarzda beriladigan oddiy savol quyidagidan iborat: soliq tizimining oldiga qanday vazifalar qo'yilgan? Bu savolning asosli javobini topmasdan turib, "Nega soliqlarning sonini yagona (bitta) qilib o'rnatish maqsadga muvofiq emas?", degan savolning haqiqiy javobini topib bo'lmaydi.

Yuqoridagi savolga javob beraturib, soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalarning bir nechtasini "sharillatib" sanab berishni uddasidan chiqa olsak-da, ayrim hollarda eng asosiy narsa, ya'ni bu vazifalarning soni, aslida, bor-yo'g'i quyidagi ikkitadan iborat ekanligi esimizdan chiqib qoladi:

- davlat byudjetini yetarli miqdordagi daromadlar bilan ta'minlash;
- iqtisodiy faoliyatning yuqori sur'atlarda rivojlanishini rag'batlantirish¹³³.

Haqiqatdan ham, soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalarni qanchalik konkretlashtirib sanamaylik, sinchiklab e'tibor beradigan bo'lsak, ular, oxir-oqibatda, baribir yuqoridagi ikki vazifaning biriga tegishli ekanligi ma'lum bo'ladi.

Bu o'rinda soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalarning o'ziga xosligini ham alohida qayd etib o'tmoq lozim. Ularning o'ziga xosligi shundan iboratki, bu vazifalar bir vaqtning o'zida parallel ravishda bajariladigan va o'zaro teng kuchga ega bo'lgan vazifalar hisoblanadi. Teng sharoitlarda ularning bi-rortasiga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq emas. Amaldagi soliq tizimining qo'llanilishi natijasida har ikkala vazifa ham birdek muvaffaqiyatli bajarilmog'i lozim. Agar davlat byudjeti yetarli miqdordagi daromadlar bilan ta'minlansa-yu,

¹³³ O'zingizga bir erk berib ko'ringchi, bu ifodaga qanday izohlarni berar ekansiz?!

iqtisodiy faoliyatning yuqori sur'atlarda rivojlanishi amalga oshirilmasa yoki buning aksi bo'lsa, bu soliq tizimining o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarmaganligidan dalolatdir.

Xo'sh, ana shunday xususiyatlarga ega bo'lgan bu vazifalarni qanday qilib muvaffaqiyatli bajarish mumkin? Yagona (bitta) soliqni joriy qilibmi yoki soliqlarning turli-tumanlaridan foydalanish orqalimi? Jahon tarixiy va iqtisodiy taraqqiyotining darak berishicha, bu vazifani yagona (bitta) soliqni joriy qilib, muvaffaqiyatli bajarishning mutlaqo iloji yo'q. Buni jahondagi barcha taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or tajribalari uzil-kesil ko'rsatayapti va tasdiqlayapti. Aksincha, soliq tizimining oldiga qo'yilgan yuqoridagi har ikki vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishiga soliqlarning turli-tumanlaridan foydalanish imkon berayapti. Shuning uchun taraqqiy etgan mamlakatlarning fuqarolari hatto beixtiyor yo'talib qo'yganlarida ham, "Solig'ini to'ladingmi?" degan savolning qo'yilayotganligidan hayratga tushayotganlari yo'q.

Shuning uchun ham byudjet manfaatlari nuqtayi nazaridan soliqlar sonining ko'pligi yoki kamligi prinsipial ahamiyatga ega bo'lmasa-da, shunday bo'lishiga qaramasdan agar bugungi kunda soliqlar sonining yagona (bitta) qilib o'rnatishning iloji bo'lmayotgan bo'lsa, bu narsa soliq tizimining oldiga qo'yilgan har ikki vazifaning qay variantda muvaffaqiyatli bajarilishi mumkinligiga borib taqaladi. Agar yagona (bitta) soliqni joriy etish evaziga soliq tizimining oldiga qo'yilgan har ikkala vazifani muvaffaqiyatli bajarishning iloji bo'lsa edi, davlat allaqachon bu ishni amalga oshirgan bo'lur edi. Afsuski, yuqorida ta'kidlanganidek, buning iloji yo'q.

Buning ustiga yagona (bitta) soliq o'rnatish xususida qaror qabul qilishga hozirlanayotgan paytda, hech bo'lmaganda buning oqibatlari amalda nimalarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida ham o'ylab ko'rish kerak.

Albatta, bizning sharoitimizda har bir soliq to'lovchi (yoki tadbirkor) bu masalaga nisbatan eng umumiy tarzda quyidagicha mulohaza yuritishi, tabiiy: "Oldin xarajat qilay. Qilgan xarajatlarim evaziga tegishli daromadga ega bo'lay. Ol-

gan daromadlarim hisobidan qilgan xarajatlarimni qoplay. Undan so'ng foyda olsam, marhamat, davlat solig'ini olsin"¹³⁴.

Davlat ham Sizning bu mulohazalaringizga "jon bor" deb hisobladi-da, barcha soliqlarni Sizni ko'nglingizda-gidek qilib bekor qilib, ularni barchasining o'rniga "Bor-e!" deb yagona (bitta) tarzda foydadan olinadigan soliqni joriy qildi, deylik. Xo'sh, buning oqibatlari nima bo'lar ekan? Iqtisodiyotda yagona (bitta) soliqning joriy etilishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Ana shu savollarga javob beradi, degan umidda 9.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni e'tiboringizga havola qilamiz.

7.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga izoh berish va ulardan tegishli xulosa chiqarishdan oldin ba'zi bir holatlar ustida to'xtalib o'tish kerak. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

7.1-jadval

Yagona (bitta) soliq joriy etilishining iqtisodiy (moliyaviy) oqibatlari¹³⁵

T/r	Ko'rsatkichlar	K o r x o n a l a r			
		"A"	"B"	"V"	"G"
1.	Korxona ega bo'lgan resurslar summasi, mln so'm	1000,0	2000,0	2000,0	2000,0
2.	Olingan foyda summasi, mln so'm	100,0	100,0	200,0	50,0
3.	Xo'jalik faoliyatining rentabellik darajasi, %	10,0	5,0	10,0	2,5
4.	Foyda solig'ining stavkasi ¹ , %	25,0	25,0	25,0	25,0
5.	Foyda solig'ining summasi, mln so'm	25,0	25,0	50,0	12,5

¹³⁴ Yoki Siz bu o'rinda boshqacha fikrlaysizmi? Mulohazalaringizni bir bayon qilingchi, ularga atrofdagilarning munosabati qanday bo'lar ekan? (Ajablanmang, bu yerda fikr, atayin, adabiy tilda emas, balki oddiy fuqaro tilida va uning o'ziga xos bo'lgan shevasida bayon qilindi).

¹³⁵ Tushunishga oson bo'lishi uchun bu yerda shartli raqamlardan foydalanildi.

Jadvalda ma'lumotlari keltirilgan "A", "B", "V" va "G" korxonalar bir xil turdagi (masalan, "A" korxona etik chiqadigan bo'lsa, "B" korxona ham shu mahsulotni ishlab chiqaradi va h.k.) mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar hisoblanadi. Ularning aynan shu tarzda e'tirof etilishi chiqarilishi lozim bo'lgan xulosalarning asoslanganlik darajasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Aksincha, ularning o'rniga turli xildagi mahsulot (masalan, "A" korxona oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarsa-yu, "B" korxona esa avtomobillar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa va h.k.) ishlab chiqaradigan korxonalarning ma'lumotlari taqqoslanadigan bo'lsa, chiqariladigan xulosalarning asoslanganlik darajasi ayovsiz tusni oladi;

- jadvaldagi "korxona ega bo'lgan resurslar summasi" deb nomlangan 1-ko'rsatkichda uning ixtiyorida bo'lgan va ishlab chiqarish maqsadlariga mo'ljallangan barcha resurslar, ya'ni moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslarning hammasi nazarda tutilayapti. Uning aynan ana shu tarzda e'tirof etilganligi ortiqcha e'tirozlarning paydo bo'lishiga hojat qoldirmaydi;

- barcha korxonalar uchun mavjud hamma soliqlar bekor qilinib, ularning o'rniga yagona (bitta) soliq joriy qilingan va uning stavkasi esa ular uchun bir xil darajada – 25,0% darajasida o'rnatilgan.

Ana shu umumiy izohlardan keyin mamlakat iqtisodiyotida yagona (bitta) soliq joriy etilishining iqtisodiy (moliyaviy) oqibatlari nimalardan iborat bo'lishi mumkinligini aniqlashga harakat qilaylik¹³⁶. Shu munosabat bilan "A" va "B" korxonalarning ma'lumotlari taqqoslanganda, dastlab ikkinchisi (2000,0 mln so'm) birinchisiga (1000,0 mln so'm) nisbatan ikki baravar ko'p resursga ega bo'lishiga qaramasdan, bir xil summadagi foyda (100,0 mln so'm) olganligi

¹³⁶ Shu joyda yagona (bitta) soliq joriy etilishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarning bir nechasini keltirish bilan cheklanamiz. Holbuki, bunday oqibatlarning soni juda ko'p bo'lib, ularning qolganlarini, uzoqqa bormasdan, 9.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning turli kombi-natsiyalaridan foydalangan holda aniqlash mumkin. Bu vazifani bajarish-ni erkin mushohada yurituvchi o'quvchilarimizning ixtiyoriga qoldiramiz.

ma'lum bo'ladi. Har ikkala korxonaga nisbatan yagona (bitta) soliqning stavkasi bir xil qilib belgilangani uchun ular bir summadagi (25,5 mln so'm) soliqni to'laydilar. Amaliyotda bunday holatning vujudga kelmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. O'z navbatida, bunday holatning vujudga kelganligi ijtimoiy adolat prinsipining qo'pol ravishda buzilganligini ko'rsatadi. Chunki bu variantda fuqarolarning (soliq to'lovchilarning) xoxish-istaklari hisobga olingan holda joriy etilgan yagona (bitta) soliq nisbatan yomon faoliyat ko'rsatgan "B" korxonani ("A" korxonaning rentabelligi – 10,0%, "B" korxonaniki esa – 5,0%), o'ziga xos tarzda rag'batlantirayapti. Uni samarali faoliyat ko'rsatishga undamayapti. Bu yerda yagona (bitta) soliqqa tortish mexanizmi ta'sirchan kuchga ega emas. U bu kuchdan butunlay mahrum bo'lib qolgan.

Bunday vaziyat vujudga kelgan holda yagona (bitta) soliqdan iborat bo'lgan mavjud soliqqa tortish tizimiga nisbatan "A" korxonaning munosabati qanday bo'ladi? Bu yerda o'zini bozor iqtisodiyotining eng oddiy talablaridan (prinsiplaridan) boxabar bo'lgan "A" korxonaning jaydari falsafasi, hech bo'lmaganda quyidagilardan iborat bo'lishi tabiiy: "Men-ku, "B" korxonaga nisbatan ikki baravar kam bo'lgan resursga ega edim. Shunday bo'lishiga qaramasdan, kechani – kecha, kunduzni – kunduz, demasdan tinimsiz faoliyat ko'rsatdim (ishladim). Natijada o'zimdan ikki baravar ko'p resursga ega bo'lgan "B" korxona qancha foyda (100,0 mln so'm) olgan bo'lsa, men ham shuncha foyda (100,0 mln so'm) oldim. Bu mening "B" korxonaga nisbatan ikki baravar yaxshi ishlaganimdan darak beradi. Lekin bu narsani davlat yagona (bitta) soliqni joriy etib, hisobga olmadi. Mendan ikki baravar yomon ishlagan "B" korxona ham qancha soliq summasini (25,0 mln so'm) to'lagan bo'lsa, unga nisbatan ikki baravar yaxshi ishlagan bo'lishimga qaramasdan men ham shu summadagi (25,0 mln so'm) soliqni to'ladim. Bunday bo'ladigan bo'lsa, jonimni kuydirib nima qildim. Men ham jonimni jabborga bermasdan, "B" korxona singari ishlaganimda, unga nisbatan olgan foydamning summasi ham ikki baravar kam bo'lardi va soliqning summasini ham ikki bara-

var kam to'ldirdim. Umuman olganda, hammamiz uchun yagona (bitta) qilib belgilangan foyda solig'i mening manfaatlarimga to'g'ri kelmas ekan. Uni o'zgartirmasa, bo'lmaydi".

Endi yagona (bitta) foyda solig'ini qo'llash natijasida vujudga kelgan yuqoridagi vaziyatga nisbatan "A" korxonadan ko'ra ikki baravar yomon ishlagan (faoliyat ko'rsatgan) "B" korxonaning munosabati qanday bo'lar ekan? Mana uning eng oddiy va qisqacha munosabati: "Yetarli darajadagi resurslarga ega bo'lganimdan hech xavotirlanmasdan faoliyatimni bamaylixtir, odatdagidek davom ettirdim, kuyib pishmadim, yelib-yugurmadim. Jonimni jabborga ham berganim yo'q. Shunday bo'lishiga qaramasdan kecha-yu, kunduz "o'lib-tirilib" ishlagan "A" korxona qancha foyda summasiga ega bo'lsa, meniki ham unikidan kam bo'lmadi. Lekin dunyoning ishlari qiziq ekan. Ter to'kib, astoydil, mendan ikki baravar samarali ishlagan bo'lishiga qaramasdan "A" korxona qancha soliq summasini (25,0 mln so'm) to'lagan bo'lsa, unga nisbatan ikki baravar pastroq darajada ishlagan men ham shu soliq summasini (25,0 mln so'm) to'ladim. Menga o'xshaganlarining g'amini yeb, shu yagona (bitta) soliqni joriy etgan davlatning otasiga rahmat! Zap ko'ngildagidek, ish bo'ldi-da!"

Endi e'tibor beraylikchi, "A" va "V" korxonalarning bir-biriga bo'lgan munosabati qanday bo'lishi mumkin? Shuni ta'kidlash joizki, ularga tegishli bo'lgan yuqoridagi raqamlar bu korxonalarning bir-biriga taqdim etilsa, bu raqamlarni tahlil qilish natijasida ularning bir-biriga nisbatan chiqargan xulosalari (munosabatlari) deyarli bir xil bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: "Faoliyatni amalga oshirish maqsadida ega bo'lgan resurslarimizga nisbatan imkoniyatlarimiz bir-birimiznikidan ikki baravar ko'pligi ("V"ning "A"ga nisbati) yoki kamligi (aksincha, "A"ning "V"ga nisbati) bilan xarakterlanar edi. Shu narsa (farq) boshqa qolgan ko'rsatkichlarimizga o'z ta'sirini bir xil ko'rsatibdi, ya'ni birimiz ikkinchimizga nisbatan foyda summasiga ikki baravar ko'p ("V"ning "A"ga nisbati) yoki kam (aksincha, "A"ning "V"ga nisbati) ega bo'libmiz. Bu ikkalamizning ham bir xil darajada (buni rentabellik ko'rsatkichlarimizning bir xilligi,

ya'ni 10,0%ligi ham tasdiqlaydi) ishlaganimizni ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, to'langan soliqlarimizning summasi ham bir-birimiznikidan ikki baravar ko'p ("V"ning "A"ga nisbati) yoki oz (aksincha, "A"ning "V"ga nisbati). Hamma ham bizlardek ishlasa, yagona (bitta) soliqqa nisbatan hech qanday e'tirozimiz yo'q".

Shu o'rinda "G" korxonaning yagona (bitta) soliqqa nisbatan munosabati o'ziga xos ekanligini ham qayd etib o'tish kerak. Quyidagilar uning ana shunday "kayfiyat"i nimalardan iborat ekanligini ko'rsatadi: "Aslida, men ham "B" va "V" korxonalar singari bir xil (2 000,0 mln so'mlik) va "A" korxonaga nisbatan ikki baravar (2 000,0 : 1 000,0) ko'p miqdordagi resurslarga ega edim. Shunday bo'lishiga qaramasdan, men "A" va "V" korxonalarga nisbatan to'rt (10,0 : 2,5) va "B" korxonaga nisbatan ikki baravar (5,0 : 2,5) yomon faoliyat ko'rsatgan bo'lsam-da, birov mushugimni "pisht" degani yo'q. Hatto davlat ham "Sen nima qilayapsan, o'zi?", deb so'ramadi-ya?! Buning ustiga mening yomon ishlaganimga (chunki ular xo'jalik faoliyatining rentabelligi 5,0%dan 10,0%gacha bo'lib turgan bir paytda meniki, bor-yo'g'i, 2,5% edi-da) davlatning rahmi keldi, shekilli, solig'ini ham boshqalarga nisbatan kamroq ("A" va "B" ga nisbatan 12,5 mln so'm va "V"ga nisbatan 38,5 mln so'm) oldi. Bizga o'xshaganlarning dardiga malham bo'ladigan yagona (bitta) soliqni o'ylab topgan davlatning otasiga ming rahmat!"

Yuqorida bayon qilinganlar yagona (bitta) soliq joriy etilishining salbiy oqibatlarini ko'rsatuvchi bir necha holatlardir, xolos. Aslida ularning soni juda ko'p. Ayniqsa, bu muammoga bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar nuqtayi nazaridan emas, balki turli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar nuqtayi nazaridan qaralsa, uning oqibatlari yanada yomon bo'ladi, vaziyat yanada keskinlashadi.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalar asosida yagona (bitta) soliq joriy etilishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni inobatga holda prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- soliq to'lovchilar nazarida ularning "dardiga malham" bo'lishi mumkin bo'lgan yagona (bitta) soliqning joriy etilishi boshqalarga nisbatan samarali faoliyat ko'rsatib kelayotganlarni rag'batlantirmaydi. Ularning yaxshi ishlashga bo'lgan intilishlarini, qiziqishlarini so'ndiradi. Iqtisodiy (moddiy) manfaatdorlik asoslariga putur yetkazadi. Soliq tizimi va soliq siyosatiga nisbatan asosli e'tirozlarini kuchaytiradi, norozilik kayfiyatini vujudga keltiradi. Iqtisodiy jarayonlarning samarali tashkil etilishiga katta zarar yetkazadi. Bozor prinsiplari asosida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish asoslarini zaiflashtiradi va h.k;

- boshqa soliqlar barchasini bekor qilib, uning o'rniga yagona (bitta) soliqning joriy etilishi, asosan, samarali faoliyat ko'rsatmayotgan va shunday faoliyat ko'rsatishni udalay olmayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning (soliq to'lovchilarning) manfaatlariga ko'proq mos keladi. Ular uchun, o'ziga xos tarzda, "teplichnie usloviya"ni, engillikni yaratib beradi. Ularda boqimandalik kayfiyatini vujudga keltiradi. Soliqqa tortish bu mexanizmining ta'sirchanligi ular faoliyati natijalarini yaxshilash uchun yetarli emas;

- bir xil turdagi faoliyat bilan emas, balki turli-tuman turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati majmuidan iborat bo'lgan iqtisodiyot uchun yagona (bitta) soliq joriy etilishining salbiy oqibatlari yanada keskin bo'ladi. Ularning keskinligi, hatto shu darajadagi, bu narsa bunday soliqqa tortish mexanizmini amaliyotda qo'llash imkoniyatini chippakka chiqaradi;

- eng asosiysi, bunday soliqqa tortish mexanizmiga ega bo'lgan soliq tizimi o'z oldidagi, bir tomondan, byudjetni yetarli darajada daromadlar bilan ta'minlash va ikkinchi tomondan, iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishdan iborat bo'lgan asosiy vazifani bajarish imkonini bermaydi. Bu narsa esa, o'z navbatida, yagona (bitta) soliq joriy etilishi mumkinligini uzil-kesil rad etadi.

Soliq siyosatiga "soliqlar stavkalari yuqori darajada" mazmunida ham e'tirozlar bildirilayapti. Haqiqatdan ham istalgan soliq to'lovchidan u yoki bu soliqning o'rnatilgan

stavkasi va unga nisbatan munosabat bildirish so'ralsa, ular tomonidan bu soliq stavkasining oqilona o'rnatilganligi xususida javobni kutish qiyin. Soliq to'lovchilarning deyarli hammasi soliqlar stavkalarining o'rnatilganiga nisbatan hech bo'lmaganda, biroz pastroq bo'lishini istashadi. Buni tabiiy hol sifatida ham e'tirof etish mumkin.

Biroq, bizning fikrimizcha, soliq siyosatiga "soliqlar stavkalari yuqori darajada" mazmunida e'tiroz bildirishga shaylanayotgan paytimizda avvalo, o'zimiz uchun bir necha savollarga aniqlik kiritib olishimiz darkor. Ana shunday savollarning birinchisi "Soliqlar stavkalarining o'rnatilgan darajalari qanday?" degan savoldir. Bu savol biz bilgan bir yoki bir necha soliqlar stavkalariga emas, balki amaldagi barcha soliqlar stavkalariga nisbatan o'rinli. Ularga nisbatan o'rnatilgan soliqlar stavkalari darajalarining qandayligidan bexabar bo'lsak, "soliqlar stavkalari yuqori darajada" deb soliq siyosatiga e'tiroz bildirishga hojat yo'q. Bir yoki bir necha soliq stavkalarining o'rnatilgan darajalaridan boxabarligimiz ham bizga yuqoridagi tarzda e'tiroz bildirish huquqini bermaydi. Chunki odatda, soliqlar stavkalari "tomdan tarasha tushganday" yoki o'z-o'zidan emas, balki bir-birlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rnatiladi. Bir soliq stavkasining u yoki bu darajada o'rnatilishi boshqa soliq stavkalarining qanday o'rnatilishiga o'zining ta'sirini, ayrim hollarda, bevosita, boshqa hollarda esa, bilvosita ko'rsatadi.

Soliq siyosatiga "soliqlar stavkalari yuqori darajada" deb e'tiroz bildirilayotganda "Soliqlar stavkalari darajasining o'rnatilishi (belgilanishi) nima(lar)ga bog'liq?" degan savolning javobidan ham ogoh bo'lmoq lozim. Harqalay ayrimlar o'ylayotganidek, soliqlar stavkalari darajasining o'rnatilishi mamlakat Prezidenti, Bosh vaziri, Moliya vaziri, Qo'mita raisi yoki hokimlarning oddiy xohish-istagiga bog'liq emas. Aksincha, har qanday soliq stavkasining darajasi, eng avvalo, shu soliqning oldiga qanday vazifaning qo'yilganligiga bog'liq. Shunga mos ravishda soliqning o'rnatilishi lozim bo'lgan stavkasi uning oldiga qo'yilgan vazifaning muvaffaqiyatli bajarishga xizmat qilmog'i lozim. Ayrim hollarda esa taqiqlovchi

(to'sqinlik qiluvchi) soliq stavkalari yuqoriroq, rag'batlantiruvchi soliq stavkalari esa pastroq darajada o'rnatilishi ham mumkin. Shuningdek, soliq stavkasining darajasi belgilanayotgan paytda, byudjet daromadlarini o'z vaqtida va belgilangan summalarda shakllantirishning zarurligi va byudjet xarajatlarining xuddi shu tarzda amalga oshirishning lozimligi ham e'tiborga olinadi.

“Soliqlar stavkalari yuqori darajada” deb soliq siyosatiga e'tiroz bildirishdan oldin “Soliqlarning stavkalarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Tendensiya nimadan iborat?” degan savollarning javobi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu munosabat bilan soliqlarning stavkalari oshib yoki kamayib, umumiy tendensiya oshish yoki kamayishdan iborat bo'lsa, shoshilmasdan, oldin uning sabablarini aniqlab olmoq va undan so'ng esa, boshqa yana bir necha muhim omillarni ham hisobga olgan holda, munosabat bildirishga og'iz juftlamoq lozim. Shu o'rinda mamlakatimizda “Mustaqillikning dastlabki yillarida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining darajasi qanday edi-yu, hozir qay darajada? Xuddi shu narsada yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliqning stavkalarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning maksimal stavkasi qanchaga o'zgardi? va h.k”. shu kabi savollarga javob berib ko'ringchi, “soliqlar stavkalari yuqori darajada” qabilida bildirilayotgan e'tirozlar qanchalik o'rinli?!

Soliq siyosatiga “soliqlar stavkalari yuqori darajada” tarzida e'tiroz bildirilayotganda “Soliq stavkalarini istagancha pasaytirishning imkoni bormi?” degan savolning javobi ustida ham bosh qotirib ko'rish maqsadga muvofiq. Savolning bu mazmunda qo'yilishi, bizningcha, tabiiy. Chunki bizning sharoitimizda soliqning stavkasi qanchalik past qilib o'rnatilmasin “Bo'ldi! Endi pasaytirmaslik kerak” degan “mard”ni topish ancha murakkab. Aksincha, baribir “Yana ozroq pasaytirilsa, ayni muddao bo'lur edi” degan kayfiyat hali anchagacha ustunlik qilib kelaveradi.

Nazariy va amaliy jihatdan olib qaralganda ham aslida, soliqlarning stavkalarini istagancha pasaytirishning imkoni

bor. Hatto ularni “nol”ga tenglashtirib, soliqlardan butunlay voz kechish ham mumkin. Biroq bunda biz eng umumiy va qisqa tarzda aytiladigan bo’lsa, bir shartga rozi bo’lishimiz kerak, ya’ni soliqlar hisobidan davlat tomonidan bajarilib kelinayotgan funksiyalarni (vazifalarni) mamlakat miqyosida, hech bo’lmaganda, oldingidek bajarilishini o’z zimmamizga olishimiz darkor. Buning iloji bo’lmaganligini aksincha, kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun teskari tendensiyasining xosligini tarixiy taraqqiyotning o’zi yaqqol ko’rsatib turibdi. Buni idrok etish uchun ortga, tarixga nazar solishning o’zi yetarli. Shu sababli soliqlar stavkalarini istagancha pasaytirish g’oyasi xom-xayollikdan o’zga narsa emas.

“Soliqlar stavkalari yuqori darajada” deb, soliq siyosatiga e’tiroz bildirayotganlar, o’zlarining e’tirozlari nuqtayi nazaridan, “Daromadga qarab – buromad”, “Ko’rpangga qarab oyoq uzat!”, “Yotib yeganga tog’ ham chidamas” kabi o’zbekona maqollar bekordan-bekorga aytilmaganligi xususida bir o’ylab ko’rsalar, bizningcha, ayni muddao bo’lur edi.

Soliq siyosatiga “soliq imtiyozlari yetarli darajada emas va soliqlar tomonidan yetarli darajada rag’batlantirilmayapti” mazmunida ham e’tiroz bildirilayapti. Soliq to’lovchilarning e’tirozlari bu shakllarda namoyon bo’layotgan paytda ular, dastlab, “Soliqlar bo’yicha imtiyoz berishdan maqsad nimadan iborat? Soliq imtiyozlarining berilish darajasi qanday? Mavjud soliq imtiyozlaridan to’liq foydalanishning uddasidan chiqa olayapmizmi? Soliq imtiyozlarini berib, ko’zlagan maqsadlarga erishayapmizmi? U yoki bu soliqlar bo’yicha imtiyozga ega bo’lganlarning ahvoli qanday? Berilgan soliq imtiyozlari qanday «ishlayapti»? «Ishlayaptimi» o’zi? Yoki...? Soliqlar bo’yicha berilgan imtiyozlardan to’liq foydalanishning uddasidan chiqa olsak, unda nima bo’lishi mumkin? Berilgan soliq imtiyozlaridan to’liq foydalanmasdan turib qo’shimcha imtiyozdan umidvor bo’lishga haqqimiz bormi yoki yo’qmi? Soliq va imtiyoz o’rtasidagi dialektik bog’liqlik nimadan iborat? Soliq imtiyozlari faqat muammolarni hal etishning “sehrli tayoqcha”simi yoki ularning salbiy tomon-

lari ham bormi?” kabi savollarning javoblarini topsalar¹³⁷, bizning nazarimizda bu tarzda e’tirozga o‘rin qolmas edi.

Soliq siyosatiga nisbatan “Soliq yuklamasi nisbatan og‘ir va u soliq to‘lovchilar o‘rtasida notekis taqsimlangan”, degan e’tiroz ham mavjud. Bunday tarzda e’tirozning bildirilishi, ko‘p jihatdan, e’tiroz bildiruvchilarning “Soliq yuklamasi deganda nima tushuniladi va u qanday o‘lchanadi? Soliq yuklamasining og‘irligi qanday? Soliq yuklamasining og‘irligi qay darajaga yetgunga qadar “chidab turish” mumkin? Soliq yuklamasining og‘irligini kamaytirish nima(lar)ga bog‘liq? Soliq yuklamasi soliq to‘lovchilar o‘rtasida qanday taqsimlangan? Soliq yuklamasi soliq to‘lovchilar o‘rtasida tekis taqsimlanganda vaziyat qanday bo‘lar edi? Soliq yuklamasining og‘irligi hamma vaqt ham salbiy ma’noda talqil qilish o‘rinlimi?” degan savollarning javoblaridan¹³⁸ ogohlighi yoki ogoh emasligiga bog‘liq.

“Soliq qonunchiligi (tizimi) nobarqaror” mazmunida bildirilayotgan e’tiroz ham soliq siyosatiga nisbatan bildirilayotgan e’tirozlarning navbatdagisi hisoblanadi. Soliq siyosatiga nisbatan bunday tarzda e’tiroz bildirilishining o‘ziga xos bo‘lgan obyektiv sabablari mavjud. Chunki soliq qonunchiligi (tizimi)da tez-tez o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ba’zi bir sabablarga ko‘ra soliqlarning stavkalari, soliqlarga tortish obyektlari, soliqlarni to‘lash muddatlarining o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘yilayapti. Amal qilib kelayotgan ba’zi bir soliqlar bekor qilinayapti. Ularning o‘rniga yangi soliqlar joriy etilayapti¹³⁹ va h.k. Bunday o‘zgarishlarning sodir etilganligini soliq to‘lovchilarning bir guruhi (kimdir) xursandchilik bilan kutib olayotgan bo‘lsa, ularning boshqa bir guruhi (kimdir) esa, aksincha, xafachilik bilan qarshi olayotir. Bunday vaziyatda “soliq qonunchiligi (tizimi) nobarqaror”, deb e’tiroz bildirish-

¹³⁷ Bu savollarning javoblari qo‘llanmamizning 7-bobida keltirilganligi uchun bu yerda ularga yana bir marta to‘xtalib o‘tishga hojat yo‘q.

¹³⁸ Bu javoblar qo‘llanmamizning 6-bobida keltirilganligi uchun bu yerda to‘xtalib o‘tirmaymiz.

¹³⁹ Ta’kidlangan o‘zgarishlarga tegishli bo‘lgan aniq misollarni keltira olasizmi?

dan oldin “U nega nobarqaror? Nobarqarorlikning sabablari nimalardan iborat? Nobarqarorlik qanday oqibatlariga olib kelayapti? Barqarorlikni ta’minlash uchun nimalarni qilmoq zarur?”, degan savollarga javob topish kerak.

Aslida, boshqa sharoitlar teng bo’lgan taqdirda, soliq qonunchiligi (tizimi)ning barqaror bo’lgani ma’qul. Soliq to’lovchilarning barchasi – tadbirkorlar-u, xorijiy investorlar ham shuni istashadi. Chunki soliq qonunchiligi (tizimi) barqaror bo’lsa, ular o’zlarining faoliyatlarini shunga qarab tashkil qilishadi. Soliq qonunchiligi (tizimi)ning nobarqarorligi esa u yoki bu turdagi faoliyatni amalga oshirishda yoki tegishli moliyaviy qarorni qabul qilishga nisbatan to’xtatib turuvchi (to’sqinlik qiluvchi) rolni o’ynaydi.

Boshqa bir tomondan, soliq qonunchiligi (tizimi) o’z oldiga qo’yilgan maqsadga, ya’ni bir tomondan, byudjetni yetarli darajadagi daromadlar bilan ta’minlash va ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish jarayonini rag’batlantirishga erishishni to’liq ta’minlab turgan bo’lsagina, u barqaror bo’lishi mumkin. Agar ana shu maqsadga yetarli darajada erishishga muvaffaq bo’linmayotgan bo’lsa, uning o’zgarib turishi tabiiy.

Bu yerda soliq qonunchiligi (tizimi)ning nobarqarorligini nazarda tutib, soliq siyosatiga nisbatan e’tiroz bildirishga hozirlanayotgan paytda boshqa bir narsa ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Gap bu o’rinda davrimiz o’zining o’zgaruvchan ekanligi to’g’risida ketayapti. Haqiqatdan ham hozirgi paytda hammamizning hayotimizda shiddatli o’zgarishlar sodir bo’lmoqda. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o’tilmoqda. Iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida bozor munosabatlari qaror topib, ularning har biri turli sur’atlarda rivojlanmoqda. Bu jarayonning boshlanish davri aniq bo’lishiga qaramasdan, uning qancha davom etishi, qachon tugashi va shunga muvofiq ravishda bozor munosabatlarining ham qachon to’liq va barqaror tarkib topishi hamda yuqori sur’atlarda iqtisodiy taraqqiyot darajasining ta’minlanishiga erishilishi ma’lum emas. Bunday sharoitda o’zgarishlarning bo’lishi tabiiy va ular o’ziga xos tarzda, jumladan, soliq qonunchiligi (tizimi)da ham o’z aksini topmog’i lozim.

Xullas, davrimizning o'zi o'zgaruvchan bo'lib turgan bir paytda soliq qonunchiligi (tizimi)ning o'zgaruvchan bo'lmasligi mumkin emas. Aks holda, soliq qonunchiligi (tizimi) o'zgaruvchanlik xos bo'lib turgan jamiyat taraqqiyotining rivojlantirishiga to'sqinlik rolini o'ynashi ehtimoldan xoli emas.

Bir vaqtning o'zida bizning nazarimizda, soliq qonunchiligi (tizimi)ning nobarqarorligi shunday barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi o'ziga xos bo'lgan maktabning mamlakatimizda hali-hamon shakllanmaganligi yoki yo'qligi bilan ham belgilanadi. Mustaqillik yillarida bu sohada juda katta yutuqlarga¹⁴⁰ erishilganiga qaramasdan qanchalik achchiq bo'lmasin, ularni hozirgi davrimizning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida to'liq mujassam etuvchi barqaror soliq qonunchiligi (tizimi)ni yaratishga qodir deb bo'lmaydi.

Soliq siyosatiga "soliq tizimi haddan ziyod fiskal xarakterga ega", deb ham e'tiroz bildirilayapti. Bunda eng avvalo, soliqqa tortish masalalarida umumdavlat manfaatlariga ustuvorlik berilayotganligi, soliq to'lovchilarning manfaatlari esa ikkinchi o'ringa tushib qolayotganligi nazarda tutilayapti. Bunday e'tirozga xayrixoh bo'lishdan oldin ba'zi bir masalalarga aniqlik kiritib olmoq zarur.

Shu munosabat bilan avvalo, soliqqa tortish masalalarida bir tomonning (davlatning yoki soliq to'lovchilarning) manfaatlariga ustuvorlik berishning maqsadga muvofiq emasligini qayd etib o'tmoq lozim. Bu masalada davlatning yoki aksincha, soliq to'lovchilarning manfaatlariga ustuvorlik beriladigan bo'lsa, bu soliq siyosatining o'ziga xos tarzda, noto'g'ri yuritilayotganidan darakdir. Barcha hollarda bo'lganidek, bu yerda ham soliqqa tortish masalalarida davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida manfaatlarning mushtarakligiga erishish kerak. Aks holda, bunga erishishni ta'minlamasdan yoki e'tibordan chetda qoldirib yurgizilayotgan soliq siyosati ko'zlangan natijani (samarani) bermaydi.

To'g'ri, ayrim hollarda u m;lk; yoki bu mamlakat tarixiy taraqqiyotining ba'zi bir bosqichlarida davlat va soliq to'lovchi-

¹⁴⁰ Bu yutuqlar nimalardan iborat? Ularga bir necha misollar keltiringchi?!

lar o'rtasida bo'lishi lozim bo'lgan manfaatlar mushtarakligidan chekinilishi va bu narsa biror bir tomonning (yo davlatning, yoki soliq to'lovchilarning) foydasiga hal qilinishi mumkin. Bunday qarorning qabul qilinishi tomonlardan qay birining tegishli mas'uliyatni¹⁴¹ o'z zimmasiga olishiga bog'liq. Agar mas'uliyat davlatning zimmasiga yuklanadigan bo'lsa, jumladan, shunga mos ravishda, soliqqa tortish masalalarida ham ustuvorlik davlatning foydasiga hal qilinishi kerak va aksincha. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida ishlab chiqarishni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlash va uni kuchaytirish, ularning ixtiyoriga katta miqdordagi moliyaviy resurslarni qoldirish va h.k.lar zaruriyati vujudga kelsa, u holda soliqqa tortish masalalarida ustuvorlik soliq to'lovchilar tomon yuz tutmog'i lozim.

Soliqqa tortish masalalarida qaysi tomonga (davlatgami yoki soliq to'lovchilarga?) ustuvorlik berilishidan qat'iy nazar bunday holatning vujudga kelishi albatta, cheklangan xarakterga ega bo'ladi. Chunki bu masalada ustuvorlik bir tomonga doimiy tarzda berilishi mumkin emas. Buning aynan shunday ekanligini ikkala tomon ham oldindan bilish salohiyatiga ega bo'lmog'i va uni sog'lom tarzda qabul qilmog'i lozim. Ustuvor holatga ega bo'lgan tomon bu narsani doimiy deb bilib, xotirjamlikka berilmasligi (tushmasligi) va bir kun kelib, undan mahrum bo'lishi mumkinligini oldindan bilib, shunga monand ravishda o'z ishini tashkil qilmog'i kerak. Manfaatlari ikkinchi o'ringa tushib qolgan tomon esa, buning vaqtincha ekanligini bir kun kelib, albatta, uning ko'chasida ham "bayram" bo'lajagini bilib, "to'nini teskari" kiymasdan, tushkunlikka tushmasdan, "achchiq" qilmasdan, ehtiroslarga berilmasdan, behudaga asossiz e'tirozlarni qalashtirib tashlamasdan, o'z-o'zini aldamasdan o'z faoliyatini mardlarcha davom ettirmog'i lozim.

Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyoti sari yuz tutilganda "o'z aravangni o'zing tort" qabilida ish tutmasdan, oddiy

141 Bu yerda nimalar nazarda tutilayapti?

tomoshabin bo'lmagan, bosh islohotchi sifatida kim mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi? Bunday paytda soliqqa tortish masalalarida ustuvorlik kimning foydasiga hal qilinishi kerak edi? Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotida keyin qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Shunga mos ravishda soliq siyosati ham o'zgardimi yoki yo'qmi? Bir paytlar soliq siyosatining "konsentratsiya"lashgan ifodasi bo'lgan soliq yuklamasining darajasida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? U yanada og'irlashdimi yoki yengillashdi? Uning darajasi mustaqilligimizning dastlabki yillarida qanday edi-yu, hozir qancha va h.k.

Bu savollarga mustaqil javob berishni o'quvchilarimizning ixtiyoriga qoldiramiz va ularni buning uddasidan chiqadilar, deb ishonamiz. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu yerda quyidagi birgina dalilni, albatta, keltirib o'tish kerak, deb o'ylaymiz: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi mutaxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda soliq yuklamasining darajasi mamlakatimizda 1991-yilda 49,1%ga teng bo'lgan bo'lsa, uning 1996-yildagi darajasi 34,3%ni, 1999-yilda – 29,3%ni, 2002-yilda – 25,0%ni va 2009-yildagi darajasi esa 22,5%ni tashkil etgan¹⁴².

Soliq siyosatiga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlardan biri "oldin mavjud bo'lmagan qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan" ko'rinishiga ega¹⁴³. Bunday tarzda e'tiroz bildirilayotganda hech bo'lmaganda, "Bu soliq bizda qachon joriy etildi va nima uchun? Oldin bu soliqning funksiyasini qanday soliq(lar) bajargan edi? Bu soliq joriy etilganidan so'ng nima o'zgardi? Masala kimning foydasiga hal bo'ldi? Kim yutdi-yu, kim yutqazdi? Uning stavkalarida qanday o'zgarishlar sodir

¹⁴² Ma'lumotlar Toshkent Moliya institutida 2010-yilning mart oyida "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida moliya va byudjet tizimini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligining bo'lim boshlig'i, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent A. Nabixojayevning "O'zbekistonning inqirozga qarshi dasturi: birinchi natijalar va tendentsiyalar" muammolariga bag'ishlangan prezentatsiya materiallaridan olingan.

¹⁴³ Tadbirkorlarning ayrim tor doiralarida bu e'tiroz "NDS degan balo" tarzida ham talqin qilinadi.

bo'ldi? Ulardagi umumiy tendensiya nimadan iborat?" degan savollarning javobini hisobga olish kerak.

Dastlabki savolning birinchi qismi bildirilayotgan e'tiroz nuqtayi nazaridan prinsipial ahamiyatga ega bo'lmasa-da, bilib qo'yan foydadan xoli emas: O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), asosan, 1992-yildan buyon amal qilib kelmoqda. U dunyoda birinchi marta 1954-yilda Fransiyada qo'llanilgan. Hozirgi paytda bu soliq dunyoning 140ga yaqin mamlakatida qo'llanilmoqda. Bugungi kunda QQSning bir necha mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirli, Quvayt va Venesuela amaliyotida qo'llanilmayotganligi uning O'zbekistonda ham qo'llanilishi mumkin emasligiga asos bo'la olmaydi.

Bu soliqning joriy etilishini mustaqilligimizning "sharofati" tarzida talqin qilish ham insofdan emas. Aslida bu soliq oldin ham, ya'ni Sho'rolar davrida ham bor bo'lib, u 1932-yildan buyon "oborot solig'i" nomi bilan amal qilib kelayotgan edi. Agar bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan oborot solig'i bekor qilinib, uning o'rniga QQS joriy etilgan bo'lsa, buning o'ziga xos bo'lgan obyektiv sabablari bor.

Ma'lumki, rejali iqtisodiyotda amal qilgan oborot solig'i baholar o'rtasidagi farq tovar aylanmasiga nisbatan foizda va mahsulot birligiga nisbatan qat'iy so'm va tiyinlarda metodlarini qo'llash evaziga hisoblanar edi. Ana shu 3 metodning birinchisi, ya'ni baholar o'rtasidagi farq metodini qo'llash hisobiga oborot solig'ining 80%dan ortiqroq bo'lgan qismi hisoblanar va byudjetga o'tkazilardi. Bunda oldindan belgilangan chakana va ulgurji baholar alohida ahamiyatga ega edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oldindan qat'iy tarzda belgilanadigan chakana va ulgurji baholar o'z ahamiyatini yuqotdi. Ularning o'rnini talab va taklif asosida belgilanadigan erkin yoki shartnoma baholari egalladi. Bunday vaziyatda oborot solig'ining asosiy qismi hisoblanadigan baholar o'rtasidagi farq metodidan foydalanishning iloji bo'lmay qoldi va bu narsa oborot solig'ining yangi sharoitdagi taqdirini belgilashda hal qiluvchi rol ni o'ynadi: oborot solig'i QQS bilan almashtirildi. Bir vaqtning o'zida xuddi shunday funktsiyani bajarib ke-

layotgan va 5%li stavkada olinayotgan ikkinchi bir soliqdan – sotuvdan olinadigan soliqdan – ham voz kechildi¹⁴⁴.

Shunday bo'lishiga qaramasdan bizning fikrimizcha, oborot solig'ini bozor iqtisodiyoti sharoitida ham yashashga haqqi va imkoniyati bor edi. Chunki bunday vaziyatda oborot solig'ini hisoblashning baholar o'rtasidagi farq metodidan emas, balki tovar aylanmasiga nisbatan foizda metodidan foydalanish bunday imkoniyatni berar edi. Biroq bu yerda boshqa bir omil, ya'ni oborot solig'ining faqat sotsialistik lager tizimidagi mamlakatlarda qo'llanilganligi va aksincha, dunyoning boshqa mamlakatlarida undan foydalanilmaganligi hal qiluvchi rolni o'ynadi. Iqtisodiy aloqalar borasida xalqaro hamjamiyat vakillari bilan "bir tilda gaplashish"ning zarurligi ham oborot solig'ining QQS bilan almashtirilishini taqozo etdi.

Xo'sh, oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliq bekor qilinib, ularning o'rniga QQS joriy etilganidan so'ng nima o'zgardi? Masala kimning foydasiga hal bo'ldi: kim yutdi-yu, kim yutqazdi? Bu savollarga qisqa va aniq javob berish uchun quyidagi dalillarni keltirishning o'zi yetarli: oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliq amal qilgan davrlarda birgina oborot solig'i hisobidan SSSR davlat byudjeti daromadlarining 30-33% qismi muttasil ravishda shakllanib kelgan. Ular bekor qilinib, QQS joriy etilganda esa, dastlabki bir necha yil davomida bu soliq hisobidan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 20-22% shakllangan, xolos. Bir paytlar byudjet daromadlarining 1/3 qismini shakllantirgan soliqni bekor qilib, uning o'rniga boshqa bir soliqni joriy qilish evaziga byudjet daromadlarining 1/5 qismi (dastlabki yillarda bo'lsa ham) shakllantirilgan bo'lsa, masala kimning foydasiga hal bo'lgan ekan?

Buning ustiga, QQS joriy etilganda uning asosiy stavkasi 32% qilib belgilangan bo'lsa, mana bir necha yildirki, uning darajasi 20%ni tashkil etib kelayapti. Ayrim yillarda u 18%gacha pasayib borgan edi. Bu soliq stavkasining hozir-

¹⁴⁴ Holbuki, bu soliq xalq orasida ommabopligi tufayli va yana boshqa bir qancha sabablarga ko'ra "Gorbachyov solig'i" nomini olishga ulgurgan ham edi.

gi yillardagi darajasini uning dastlabki o'rnatilgan paytdagi darajasi bilan taqqoslab, shu davrda uning 37,5%ga pasaytirilganligini (ba'zi birovlar qayd etayotganidek, 12%ga emas) aniqlashimiz mumkin. Demak, ushbu soliq bo'yicha stavkaning o'zgarishi pasayish tendensiyasiga ega. Bu yerda, bir vaqtning o'zida, joriy etilgan QQSning stavkasini 10-15 yil orasida bunday sur'atlarda pasaytirish vazifasini udalagan mamlakatlarning tarixda ko'p emasligini ham qayd etib o'tmoq lozim.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar e'tiborga olinadigan bo'lsa, soliq siyosatiga "oldin mavjud bo'lmagan qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan" tarzda bildirilayotgan e'tirozning qanchalik asoslanganligi-yu, qanchalik asoslanmaganligi yaqqol ma'lum bo'ladi-qoladi¹⁴⁵.

"Mol-mulkdan kamroq soliq olinayapti", degan tarzda e'tirozning bildirilayotganligi soliq siyosatiga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlarning ko'rinishlaridan biridir. Bunday sharoitda "Qanday sabablarga ko'ra bunday e'tiroz bildirilayapti? Mol-mulkdan olinadigan soliqning stavkasi qay darajada? Stavka pastmi yoki yuqori? Bu soliq mol-mulkdan samarali foydalanishga o'z ta'sirini ko'rsatayaptimi yoki yo'qmi? Byudjet daromadlarini shakllantirishda mol-mulk solig'ining salmog'i qanday? Mol-mulk solig'ini hisoblashda uning qanday qiymati hisobga olinayapti? Aslida, qanday qiymati hisobga olinishi kerak? Mol-mulkdan ko'proq soliq olinsa, bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Uning ijobiy va salbiy jihatlari nimalardan iborat?" kabi savollarning javobini izlash alohida ahamiyatga ega.

Undan tashqari bunday e'tiroz bildirilishining o'ziga xos bo'lgan boshqa sabablari ham mavjud. Chunki mustaqillik yillarida xalqimiz hayotining barcha jabhalarida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sho'rolar davrida pastqam, tomi tuproq bosilib, loy bilan suvalgan, devori paxsa qilib urilgan, qish oylarida namdan asrash uchun gilamining tagiga xas-xashak solinadigan xonalardan iborat bo'lgan uy-bino-

¹⁴⁵ Bunga teskari bo'lgan argumentlaringiz bo'lsa, keltiraolasizmi?!

larining o'rniga barcha sharoitlarga ega bo'lgan uylar qad ko'tardi. Ularning ayrimlari, "mana-man degan shoh saroylari"dan qolishmaydi. Ikki va undan ortiq bo'lgan oilalar, oldingidek, bir xonadonga tiqilib o'tirayotgani yo'q. Bir paytlardagidek, qishloqning markaziy ko'chasidan onda-sonda "Moskvich-412" markali avtomobil o'tib qolsa, barchamiz hayrat bilan ko'cha tomon talpinayotganimiz va mashinaning ortidan havas bilan qarab qolayotganimiz yo'q. O'zimizda ishlab chiqarilayotgan "Nexia", "Damas", "Tico", "Matiz", "Lacetti" va h.k.lardan biri kirib bormagan xonadon-u, yetib bormagan qishloqlar deyarli qolmadi. Dunyoning eng mashhur kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillarning o'zbekistonlik fuqarolar mulkiga aylanib, mamlakatimiz bo'ylab "uchib" yurganini ko'rganda, oldingidek, "Bu nima ekan?" deya, hayratga tushayotganimiz yo'q. Shaxsiy texnika vositalariga ega bo'lib borayotgan fermerlarning soni ham tobora ko'payib borayapti va h.k.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagilarning barchasi mehnatkash xalqimizning yildan-yilga boyib, mol-mulkining ko'payib borayotganligini ko'rsatayapti va bu narsa, ishonchingiz komil bo'lsin, xalqimiz turmush tarzining yanada farovon bo'lishini ta'minlashga qaratilgan soliq siyosatining natijasi hamdir. Shu o'rinda "Soliq siyosatining bunga aloqasi yo'q!" deguvchilar chuchvarani xom sanashibdi. Eslang, ota-onangiz, bobo-buvingiz yoki yoshi tabarruklardan bir so'rab ko'ring: bir paytlar oilada ikkita sigir bo'lsa, biri soliq sifatida olib qo'yilmasmidi? Har yili majburiy ravishda tuxum, sariq yog', go'sht yetkazib berish va uni "davlatga topshirish" shundoq ham kosasi oqarmayotgan qishloq aholisining zimmasiga yuklanmaganmidi? Tomorqadagi "ortiqcha" olma daraxtiga nisbatan ham soliq belgilanib, buning oqibatida olma daraxtlari "kesilib" ketgandi-ku! Hatto o'sha davrda qishloq joylarida asosiy "transport vositasi", foydali va ishchi uy hayvoni sanalgan eshakka nisbatan o'rnatilgan soliq ularning "qirilib" ketishiga olib kelmaganmidi?!

"Molk-mulkdan kamroq soliq olinayapti", degan "gap" qayerdan yoki kimdan chiqdi? Albatta, mol-mulkka ega bo'lgan-

lar va ega bo'layotganlardan bu "gap"ning chiqqanligiga ishonib bo'lmaydi. Demak, soliq siyosatiga nisbatan bunday tarzda e'tirozning "muallif"lari – yetarli darajada mol-mulkka ega bo'lmaganlar va ega bo'lishning uddasidan chiqa olmayotganlar. Haqiqatdan ham soliq to'lovchilarning bunday toifasiga kiruvchilar tevarak-atrofdan mol-mulkka ega bo'lish borasida yuqorida sodir bo'layotgan bunday o'zgarishlarni ko'rib, "Davlat qayoqqa qarayapti? Solig'ini otni kallasidek qilib qo'ysa, bunday holatlar sodir bo'lmadi", degan xayol-larga borishlari, tabiiy. Lekin bizning fikrimizcha, bunday vaziyatda yetarli darajada mol-mulkka ega bo'lmaganlar va ega bo'lishning uddasidan chiqa olmayotganlar bunday muammoni qonunga qat'iy rioya etgan holda muvaffaqiyatli hal etganlar va etayotganlarga hasad bilan emas, havas bilan qarab, yuqoridagi tarzda soliq siyosatiga nisbatan e'tiroz bildirmasdan, ulardan o'rnak olsalar maqsadga muvofiq bo'lur edi. Bir vaqtning o'zida "molk-mulkdan kamroq soliq olinayapti" degan e'tirozdan xabardor bo'lgan va mol-mulkini qonuniy tarzda ko'paytirishni uddasidan chiqayotgan mulkdorlar sukut saqlamasdan "Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich!" qoidasiga rioya etgan holda bunday mol-mulkka qonun doirasida erishishning iloji borligini bildirib qo'ysalar, foydadan xoli bo'lmas.

Soliq siyosatiga doir e'tirozlarning yana biri "foйда (daromad) soliqqa ko'proq darajada tortilayapti" shaklida ifodalanmoqda. Uning asosli yoki asossiz e'tiroz ekanligini aniqlashda odatdagidek, "Bunday e'tiroz vujudga kelishining sabablari nimalardan iborat? Uning asosida nimalar yotibdi? "Hisoblash metodologiyasi" to'g'rimi? Amaliyotimizda foyda (daromad)ning soliqqa tortilish darajasi qanday? Mustaqillik yillarida soliqning stavkalarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi va bundagi tendensiya nimadan iborat? Byudjet daromadlarini shakllantirishda bu soliqning salmog'i va uning tendensiyasi qanday? Byudjet daromadlarini shakllantirishda foyda (daromad) solig'i salmog'ining pasayishi nimadan dalolat beradi? "Oldin" va boshqa mamlakatlarda foyda (daromad)ning soliqqa tortilish darajalari qanday

(edi)? Kim imtiyozli (qulay) holatda? “Teplichnie usloviya”ni yarataverishning chegarasi bormi o‘zi? “Hotamtoylik” doimo suiiste’mol qilinaverishi kerakmi?” kabi savollarning javobi muhim rol o‘ynaydi.

Avvalo, shuni qayd etish lozimki, bunday tarzdagi e’tirozning bildirilishi, o‘z-o‘zidan emas, balki e’tiroz bildiruvchilarning o‘ziga xos bo‘lgan “hisob-kitob”lariga “asoslangan”. Unga ko‘ra foyda yoki daromadning soliqqa ko‘proq darajada tortilayotganligini “aniqlash” uchun quyidagi “usul”dan foydalaniladi: dastlab, soliq to‘lovchi tomonidan byudjetga to‘langan soliqlarning umumiy summasi aniqlanadi. Undan so‘ng esa, ushbu summa soliq to‘lovchi foydasi yoki daromadining summasi bilan taqqoslanadi. Natijada soliq to‘lovchi foydasi yoki daromadining soliqqa tortiluvchanlik darajasi “ma’lum” bo‘ladi. Unga ko‘ra ba’zi hollarda bu “ko‘rsatkich”ning darajasi juda yuqori bo‘lib, u soliq to‘lovchining ixtiyorida “hech vaqo”ning qolmayotganligini ham “ko‘rsatib” qo‘yishi mumkin. Boshqa hollarda esa, shu “usul” qo‘llanilib hisoblangan foyda yoki daromadning darajasidan to‘langan soliqlarning summaları ko‘proq bo‘lgan summani tashkil etib ham qoladi. Bunday holda hisoblash usulining asossizligidan bexabar bo‘lgan soliq to‘lovchining “fig‘oni falakka” chiqishi, tabiiy.

Juda ko‘pchilikning nazarida yuqoridagi “usul”da foyda yoki daromadning soliqqa tortiluvchanlik darajasini aniqlash to‘g‘ri yo‘l hisoblansa-da, aslida bunday emas. Chunki jahon amaliyotida o‘rnatilgan tartibga muvofiq hamma soliqlarga nisbatan emas, balki faqat foyda yoki daromaddan to‘lanadigan soliqlarga nisbatan ularning (foyda yoki daromadning) soliqqa tortiluvchanlik darajasini hisoblash o‘z ma’nosiga ega. Chunki soliqlarni to‘lash manbayi faqat foyda yoki daromad hisoblanib qolmasdan, balki bunday manbalar qatoriga qo‘shilgan qiymat, tushum, tannarx, moliyaviy natija, foyda va jami daromadlar ham kiradi. Shunga mos ravishda har bir soliqni o‘z to‘lanish manbayiga nisbatan soliqqa tortilish darajasini aniqlash o‘rinli hisoblanadi. Bu - “foyda yoki daromadning yuqori darajada soliqqa tortilayotganligi”ni ro‘kach

qilib, soliq siyosatiga nisbatan bildirilayotgan e'tiroz asossizligining bir tomoni.

Uning ikkinchi tomoni shundan iboratki, “foyda (daromad) yuqori darajada soliqqa tortilayapti”, deb soliq siyosatiga nisbatan e'tiroz bildirishdan oldin, soliq siyosatiga nisbatan hech qanday e'tiroz bildirmasdan, “lom-mim” demasdan, nafasimizni ichimizga yutib yurgan payt-larimizda, ya'ni “Rejali iqtisodiyotda yoki Sho'rolar davrida foyda (daromad) soliqqa qay darajada tortilgan ekan?”, deb o'ylab ham ko'rish kerak. Shunday qilinsa, avvalo, foyda hisobidan ko'plab soliqlarning undirilganligi ma'lum bo'ladi. Fond haqi to'lovi, qat'iy renta to'lovi, foydaning ozod qoldig'i, foydadan ajratmalar va h.k.lar shular jumlasidandir. Foydadan olinadigan bu soliqlar qani hozir? Ularning hammasi bekor qilingan va o'rniga birgina foydadan olinadigan soliq joriy etilgan. Buning ustiga, o'sha paytlarda foydaning soliqqa tortiluvchanlik darajasi, turli yillarda, 55%dan 62%gacha yetib borgan. Buni aniqlash uchun o'sha yillarda har yili nashr qilingan va “Народное хозяйства СССР в ... году” deb nomlangan statistik to'plamning tegishli betiga murojaat qilishning o'zi yetarli. Hozirgi paytda esa, bu ko'rsatkichning o'rtacha darajasi, hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, 42-45%ga teng. Foydaning soliqqa tortiluvchanlik darajasi 62%gacha borgan paytlarda jim turgan paytimizda, uning darajasi pasayib, 42%gacha yetib borganda, “xizmatga – tuhmat” yoki “yaxshilikka – yomonlik” tarzida ish tutsak, qanday bo'larkin?

Soliq siyosatiga “jismoniy shaxslar daromadi yuqori darajada soliqqa tortilayapti” mazmunida e'tirozning bildirilishi unga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlarning yana biri hisoblanadi. Avvalo, bunday e'tirozlarni quyidagi savollarning aniq javobiga ega bo'lmasdan turib bildirish noo'rin hisoblanadi: qanday sabablarga ko'ra bunday e'tiroz bildirilayapti yoki uning asosida nimalar yotibdi? Byudjet daromadlarini shakllantirishda bu soliqning salmog'i qanday? “Oldin” qanday edi? Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi salmog'i keyingi yillar orasida qanday tendensiyaga ega? Bizda bu

soliqni, asosan, kimlar to'layapti? Qolganlarchi? Soliq to'lash bo'yicha og'irlik, asosan, kimlarning zimmasiga tushayapti? Tushishi kerakmi o'zi? Daromad solig'ining stavkasini Rossiya Federatsiyasidagidek qilib o'rnatishning bizda moliyaviy imkoniyati bormi yoki yo'q? Jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi dunyoning boshqa mamlakatlarida qanday va h.k.?

Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, bunday e'tiroz bildirilayotgan paytda eng avvalo, sho'rolar davrida ish haqi-ga nisbatan soliqqa tortilmaydigan minimumning amal qilganligi, uning yuqori qismidan 100 so'mgacha bo'lgan qismida daromad solig'ining maxsus jadval orqali aniqlanganligi, 100 so'mdan oshgan qismidan esa yagona bir stavkada, ya'ni 13% miqdorida daromad solig'ining olinganligi e'tiborga olinmoqda. Soliq to'lovchilarimiz orasida bunday e'tirozning paydo bo'lishida Rossiya Federatsiyasining telekanallari orqali namoyish etilayotgan va "самая низкая ставка в мире" deb e'lon qililib, ko'm-ko'k olmaning shunga mos qismi kesib ko'rsatilayotgan reklamalar ham o'zining "munosib" hissasini qo'shmoqda.

Ana shulardan "ilhomlanib" soliq siyosatiga nisbatan e'tiroz bildirishga shaylanishdan oldin ba'zi bir masalalarga aniqlik kiritib olish zarur. Ularning eng muhimlari sifatida bizningcha, quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- birinchidan, Sho'rolar davrida SSSR davlat byudjeti daromadlari qismining bor-yo'g'i 10%ga yaqini aholidan olinadigan to'lovlar hisobidan shakllanib, undan 8,8% aholidan olinadigan daromad solig'ining hissasiga to'g'ri kelar edi. Byudjet daromadlarining qolgan qismi, ya'ni 90%dan ortiqrog'i esa "sotsialistik xo'jalik"dan kelib tushadigan daromadlar hisobidan tarkib topgan¹⁴⁶. Hozirgi sharoitda esa

¹⁴⁶ Bunday ma'lumotlarni Sho'rolar davrida turli yillarda A.M.Aleksandrov, E.A.Voznesenskiy, G.L.Rabinovich, V.M.Rodionova, T.V.Guyda, M.K.Shermenyov, P.N.Nikolskiy, V.G.Senchagov, N.I.Sichyov, V.I.Kolesnikov, P.N.Jevtyak, O.V.Vrublevskaya, N.L.Margolina, M.V.Romanovskiy, A.M.Ivankov va boshqa mualliflar tahriri ostida nashrdan chiqqan "Финанси СССР", "Государственный бюджет СССР", "Финанси и кредит

vaziyat boshqa tomonga o'zgargan. Keyingi yillarda birgina jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq evaziga O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 12-15% shakllanmoqda. Bu yerda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan qat'iy soliq va transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning summalari ham e'tiborga olinadigan bo'lsa, byudjet daromadlarini shakllantirishda jismoniy shaxslar daromadining qanchalik rol o'ynayotganligi ma'lum bo'ladi va bu narsa o'z navbatida, jismoniy shaxslar daromadining soliqqa tortilish darajasiga o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi;

- ikkinchidan, jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq evaziga O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 12-15% shakllanayotgan bir paytda uning asosiy qismi byudjet sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxslarning hissasiga to'g'ri kelayapti. Aksincha, xususiyl sektorda faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxslar bu muammoning o'tkirligini unchalik his qilishmaydi va u yerda bu muammoni hal qilishning turli yo'llari mavjud bo'lib¹⁴⁷, undan ular muvaffaqiyatli foydalanishmoqda;

- uchinchidan, jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning stavkasini Rossiya Federatsiyasidagidek 13% qilib o'rnatishning moliyaviy imkoniyati bizda yo'q. Esingizdami, Rossiya Federatsiyasida bu soliqning stavkasini shu tarzda belgilash sari qarorning qabul qilinishi arafasida juda keskin munozaralar bo'lib o'tgan edi. Uning qabul qilinishida Rossiya hukumati raisining o'rinbosari, Moliya vaziri A.Kudrinning quyidagi so'zlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan edi: "Hozir¹⁴⁸ dunyo bozorida 1 barrel neftning bahosi 27,0 AQSh dollariga teng bo'lib turibdi. Uning baho-

СССР", "Государственные доходы" kabi darsliklar va o'quv qo'llanmalaridan topish mumkin.

¹⁴⁷ Gap bu yerda qanday yo'llar xususida ketayapti? Bir o'ylab ko'ringchi?!

¹⁴⁸ Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkasi 13% darajasida belgilangan yil nazarda tutilayapti.

si 17,5 AQSh dollariga teng bo'lganda ham bizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkasini 13% darajada o'rnatishning real moliyaviy imkoniyati mavjud"¹⁴⁹. Holbuki, keyingi yillarda jahon bozorida 1 barrel neftning bahosi 150,0 AQSh dollarigacha yetib bordi;

- to'rtinchidan, Rossiya Federatsiyasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkasini 13% qilib belgilash sari qaror qabul qilinganda ba'zi bir maqsadlarga erishish ham ko'zda tutilgan edi. Ana shunday maqsadlardan biri daromad solig'ining stavkasi shunday qilib belgilansa, daromadlarni legallashtirish sodir bo'ladi, xufyona sektorning ko'لامي qisqaradi, deya umid qilingan edi. Amalda hali-hamon bu narsaga erishilmadi. Mana uning isbotlaridan biri: Rosstatning ma'lumotlariga ko'ra Rossiyaning bir mintaqasida ish haqi sifatida 9,1 mlrd rubl berilgan bo'lishiga qaramasdan, 447,4 mln rubllik daromad solig'i undirilgan¹⁵⁰. Holbuki, undirilishi lozim bo'lgan daromad solig'ining summasi 13%li stavkaga muvofiq 1,183 mlrd rublga teng bo'lmog'i lozim edi. Ko'rinib turibdiki, daromad solig'ining stavkasi pasaytirilgan bo'lishiga qaramasdan daromadlarni legallashtirish sodir bo'lmagan: undirilgan summa undirilishi lozim bo'lgan summadan 2,6 martaga kam bo'lgan;

- beshinchidan, dastlabki joriy qilingan paytida 45% qilib belgilangan bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda¹⁵¹ mamlakatimizda jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning eng yuqori stavkasi 22% qilib belgilangan bo'lsa, undan tashvishga tushishga sira hojat yo'q. "Rossiya Federatsiyasida bu ko'rsatkich 13%ga teng", deb xafa ham bo'lmaslik kerak. Aslini olganda, o'zbekona aytadigan bo'lsak, "bu hali holva". Chunki uning darajasi, ba'zi bir sabablarga ko'ra, Siz bilan biz orzu qiladigan mamlakat-

¹⁴⁹ Bu fikr A.Kudrin tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali bir necha marta aytili va Rossiyaning "Finansovaya gazeta", "Izvestiya", "Trud", "Kommersant" va boshqa gazetalarida bir necha marta e'lon qilindi.

¹⁵⁰ Bunday ma'lumotlarni Rossiya Federatsiyasining OAVda ko'plab uchratish mumkin.

¹⁵¹ 2010 yil nazarda tutilayapti.

larda ancha yuqori. Masalan, bu ko'rsatkichning darajasi Filippinda – 32,0% (O'zbekistondagidan 45,4%ga yuqori); Tailandda – 37,0% (O'zbekistondagidan 68,2%ga yuqori); AQShda – 39,6% (O'zbekistondagidan 80,0%ga yuqori); Kipr va Taypeyda – 40,0%dan (O'zbekistondagidan 81,8%ga yuqori); Avstraliyada – 47,0% (O'zbekistondagidan 2,1 marta yuqori); Ispaniyada – 48,0% (O'zbekistondagidan 2,2 marta yuqori); Yaponiya, Avstriya va Isroilda – 50,0%dan (O'zbekistondagidan har birida 2,3 marta yuqori); Germaniyada – 53,0% (O'zbekistondagidan 2,4 marta yuqori); Fransiyada – 54,0%¹⁵² (O'zbekistondagidan 2,5 marta yuqori) va h.k. Shuningdek, bu yerda mamlakatimizdagi jismoniy shaxslar uchun o'rnatilgan eng yuqori stavkaning dastlabki o'rnatilgan vaqtidan hozirgacha ikki martadan ko'proqqa qisqartirilganligini ham hisobga olish lozim. Bu siyosatning yana shu tarzda davom ettirilishi va bu yuqori stavkaning yanada kamaytirilishi ehtimoldan xoli emas.

Soliq siyosatiga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlarning yana biri “soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganlar va soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan qattiq moliyaviy jazolar qo'llanilayapti” shakliga ega. Ayrim doiralarda (holalarda) “Soliqlarni to'lash u yoqda tursin, hatto uning jarimalarini to'lashga ham soliq to'lovchilarning qurbi yetmay qolayapti” mazmunida fikrlar bildirilayapti. Bu e'tirozga nisbatan “orani ochiq qilib olish”ni quyidagi savollarning aniq javobisiz tasavvur etib bo'lmaydi:

- moliyaviy jazo nima uchun qo'llaniladi, u qo'llanilishi kerakmi o'zi yoki yo'qmi?
- moliyaviy jazo qo'llanilmasa nima bo'ladi?
- qo'llanilayotgan moliyaviy jazolarning darajalari qanday, qattiqmi yoki...?
- amaldagi moliyaviy jazolarni qo'llab turib, ko'zlangan maqsadlarga erishilayaptimi?

¹⁵² Bunday ma'lumotlar “Soliq to'lovchining jurnali”, “Экономическое обозрение” jurnallari va “Soliqlar va bojxona xabarlari”, “Soliqinfo” gazetalari orqali ko'plab e'lon qilinadi. Masalan, qarang: “Soliq to'lovchining jurnali”, 2001 yil, 4-son, 56-bet.

• soliqlarning undiriluv (yigʻiluv)chanlik darajasi qanday va aslida u qanday boʻlishi kerak?

• soliqlarning undiriluv (yigʻiluv)chanlik darajasi nisbatan past boʻlsa, moliyaviy jazoning darajasi qanday boʻlishi kerak?

• haddan ziyod qattiq moliyaviy jazolarning qoʻllanilishidan davlat (byudjeti) manfaaddormi?

• har doim ham qattiq moliyaviy jazolarning qoʻllanilishi bizni koʻzlangan maqsad sari yetaklayveradimi?

• moliyaviy jazo qachon yoki qanday vaziyatda oʻz samarasini berishi mumkin?

Yuqorida keltirilgan savollarning qisqacha, tabiiy, toʻgʻri, haqiqiy, ilmiy va mantiqiy javoblari quyidagilardan iborat:

• moliyaviy jazo oʻrnatilgan tartib-qoidani, oʻz zimmasiga olgan majburiyatni, shartnomani va h.k.larni buzmaslik, ularga qatʻiy va toʻliq rioya etishni taʼminlash maqsadida joriy etiladi. Oʻrnatilgan tartib-qoida buzilsa, unga qatʻiy va toʻliq rioya etilmagan boʻlsa, majburiyat va shartnoma shartlari bajarilmasa, moliyaviy jazo, albatta, qoʻllanilishi kerak;

• moliyaviy jazo qoʻllanilmasa oʻrnatilgan tartib-qoida buzilaveradi, unga qatʻiy va toʻliq rioya etilmaslik davom etaveradi, majburiyat va shartnoma shartlari hamon bajarilavermaydi;

• amaliyotning koʻrsatishicha, mamlakatimizda qoʻllanilayotgan moliyaviy jazolarning darajalari qattiq emas. Ularning taʼsirchanligi past darajada. Moliyaviy jazolarning darajasi “oʻtkir qilich” tusini olmagan. Tartib-qoida, majburiyat, shartnoma va h.k. buzarlar hayotini (faoliyatini) xavf ostiga qoldirib, “oyogʻi kuygan tovuqdek” yugurtirib, ularni tashvishga solayotgani yoʻq;

• amaldagi moliyaviy jazolarni qoʻllab turib, koʻzlangan maqsadlarga toʻliq erishilmayapti. Yuqorida taʼkidlanganidek, moliyaviy jazolarni qoʻllashdan maqsad tartib-qoidani, oʻz zimmasiga olgan majburiyatni, shartnoma shartlarini va h.k.larni buzmaslik, ularga qatʻiy va toʻliq rioya etishni taʼminlashdan iborat. Bu esa – toʻliq taʼminlanmagan. Bu so-

hada ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligiga qaramasdan, ular, afsuski, har qadamda hamon uchrab turibdi;

- soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasi yaxshi emas. U taraqqiy etgan mamlakatlardagi darajadan nisbatan ancha past. Aslida, hisoblangan soliq summolari o'z vaqtida byudjetga to'liq o'tkazilishi kerak. Biroq, amaliyotda bu vazifani to'liq uddalashning iloji bo'lmayapti. Buni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlarida faoliyat ko'rsatayotgan 12 mingdan ortiqroq bo'lgan xodimlar ham yetarli darajada eplay olishmayapti;

- soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasi nisbatan past bo'lsa, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, moliyaviy jazoning darajasi, aslida, aksincha, ya'ni nisbatan yuqori bo'lishi kerak. Uning ana shunday darajasi soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasining ko'zlangan darajasiga etgunga qadar saqlanib turmog'i lozim. Unga erishilganidan keyin moliyaviy jazoning darajasi, ma'lum bir muddatda saqlab turilganidan so'ng pasaytirilishi mumkin. Soliqlarning 100%lik undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasiga erishilganida va bu narsa barqarorlik kasb etsa, ularga nisbatan qattiq moliyaviy jazolarning saqlanib qolishi o'z ma'nosini yo'qotadi;

- haddan ziyod qattiq moliyaviy jazolarning qo'llanilishidan davlat (byudjeti), aslida, manfaatdor emas. Yuqorida qayd etilganidek, agar o'rnatilgan soliqlar byudjetga belgilangan summalarda va o'z vaqtida tushib turaversa, davlat (byudjeti) uchun moliyaviy jazolarning umuman keragi yo'q. Aksincha, soliqlar belgilangan summalarda va o'z vaqtida byudjetga tushavermasa, davlat "Soliq to'lovchilarning o'zlariga insof bersin", deb qo'lini qovushtirib, kutib o'tiraolmaydi. U ham o'z harakatini qilishi kerak. Uning ana shunday harakatlaridan biri ta'sirchan moliyaviy jazolar tizimini qonuniy tarzda joriy etish hisoblanadi;

- yo'q, har doim ham qattiq moliyaviy jazolarning qo'llanilishi bizni ko'zlangan maqsad sari yetaklayvermaydi. Bu yerda qattiq moliyaviy jazoning qo'llanilishi ko'zlangan maq-

sadga erishishning yakka-yu-yagona yo'li emas. Agar uni shunday, deb o'ylab, qoidabuzar soliq to'lovchiga nisbatan doim yoki ayovsiz ravishda qo'llayversak, oxir-oqibatda undan "ajralib" qolishimiz mumkin. Soliq to'lovchini bunday yo'l bilan "o'ldirish" - davlatning maqsadi emas. Bunday tarzda ish tutiladigan bo'lsa, bu davlat uchun "o'z oyog'iga o'zi bolta urish" bilan barobar sanaladi. Shuning uchun qattiq moliyaviy jazolarni qo'llash evaziga belgilangan muddatda ko'zlangan maqsadlarga erishishning iloji bo'lmasa va buning aynan shunday ekanligi mutlaqo aniq bo'lsa, soliq to'lovchini "o'ldirmasdan", unga nisbatan "mehr-shavqat" ko'rsatish – moliyaviy jazo summalarining undirilish muddatlarini ta'sirchan tarzda ortga surish, moliyaviy ahvolini yaxshilab olishga imkoniyat berish, bir-ikki marta "kechirish" va h.k.lar qilish – maqsadga muvofiq; Bir vaqtning o'zida, bunday sharoitda, ba'zi hollarda, ashaddiy tartibbuzar soliq to'lovchini aniqlab, unga nisbatan qattiq moliyaviy jazolarni qo'llab, boshqalarga o'rnak qilish maqsadida ahvoliga "maymunlarni yig'latib", uning "bahridan kechish" ham o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin;

- ilg'or xalqaro tajribaning ko'rsatishicha, moliyaviy jazo ta'sirchan bo'lsa va sog'lom vaziyatda o'z samarasini beradi. "Chivin chaqqanday" ham ta'sir ko'rsatmaydigan moliyaviy jazodan, aytishga arzigulik, samara kutib bo'lmaydi. Bunday vaziyatda soliq to'lovchi uchun o'rnatilgan tartibni ongli ravishda buzib, "chivin chaqqanday" ta'sir ko'rsatadigan moliyaviy jazoni olish foydali yoki afzal hisoblanadi. Umumiy vaziyatning sog'lom emasligi¹⁵³ ham moliyaviy jazoning samaradorligini yo'qqa chiqarishi mumkin.

Soliq siyosatiga "soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganlar va soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan qattiq moliyaviy jazolar qo'llanilayapti" deya e'tiroz bildirilayotganda bozor munosabatlari risoladagidek rivojlangan mamlakatlarda yoki jahon amaliyotida soliq to'lovchilar tomonidan xuddi shunday xatolikka yo'l qo'yilganda qanday choralar

¹⁵³ O'ylab ko'ringchi, bu yerda nimalar nazarda tutilayapti?

ko'rilmogda ekan, deb ham o'ylab ko'rmoq lozim. Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraladigan bo'lsa, bizning amaliyotimizda qo'llanilayotgan moliyaviy jazolarda hali-hamon insonparvarlik xislatlari ustunlik qilib kelayotganligi ma'lum bo'ladi.

Esingizdami, soliq summalari noto'g'ri hisoblanib, to'langani uchun (to'lanmaganligi uchun emas!) jahonga mashhur nemis tennischisi Sh.Graffning otasi bir necha oy qamoq jazosiga hukm qilingan edi. Bu jarayonda uning farzandi nemis xalqining milliy qahramoni ekanligi, uning bir o'zi yuz minglab nemis fuqarolari to'lashi mumkin bo'lgan soliq summalarini allaqachon to'lab qo'yganligi inobatga olinmadi¹⁵⁴.

Boshqa yana bir mashhur nemis tennischisi B.Bekker 1992-1996-yillar mobaynida olgan daromadlarining bir qismini soliq tashkilotlariga kamaytirgan holda ko'rsatgan. Bo'lib o'tgan sud ishida unga nisbatan shartli ravishda 2 yil qamoq jazosi belgilangan¹⁵⁵.

Italiyalik tenor L.Pavarotti dunyoda bunday salohiyatga ega bo'lgan tanho opera ijrochisi bo'lishiga qaramasdan, soliqqa tortish masalalarida uning bu xizmatlari ham hisobga olinmadi. Soliq qonunchiligiga qisman rioya etmaganligi uchun soliq to'lashdan bosh tortganlikda ayblanib, omma-viy axborot vositalari orqali u butun dunyoga sharmandayi sharmisor qilindi. Dunyodagi millionlab muxlislarning muhabbatiga sazovor bo'lgan kinoaktrisa S.Lorenga nisbatan ham munosabat shunday bo'ldi.

AQShlik mashhur kinoaktyor U.Snaypsning taqdiri bundan ham battarroq bo'ldi: sudlashilgandan so'ng olgan daromadlaridan 3,0 mln AQSh dollarida to'lamagan soliqlarini uzr so'rab, 15 kun ichida ikkiga bo'lib to'laganiga qaramasdan, unga nisbatan belgilangan 3 yillik turmaga o'tirish jazosidan qutilib qola olmadi.

Bu masalada jahonga mashhur futbol murabbiysi gollandiyalik G.Xiddinkni xudoning o'zi bir asradi, deyishimiz

¹⁵⁴ Bu to'g'risida, ushbu qo'llanmamizning 267-268-betlariga ham batafsilroq qarang.

¹⁵⁵ Qarang: "Bank axborotnomasi", 2002-yil, 7-13 noyabr soni.

mumkin. To'lanmagan soliq summolari aniqlanishi bilan, faqat sudlashib o'tirishni sira xayoliga ham keltirmasdan, "g'iring" demasdan, tezda chopqillab borib, tegishli summani byudjetga to'lab qo'yishi uni qamoq jazosidan qutqarib qoldi.

E'tibor bering: yuqorida nomlari tilga olinganlar o'z mamlakatlarining oddiy fuqarolari emas. Ularning o'z xalqlari va davlatlari oldidagi xizmatlari shu qadar kattaki, birgina soliqlar to'lash borasidagi ularning bu gunohlari, o'zbekona aytganda va odamgarchilik nuqtayi nazaridan qaralsa, insof qilinsa, kechirilsa - arziydi. Lekin bunday qilinmadi. Buning o'rniga ularning bu boradagi xatoliklari faqat o'z mamlakatlari ichida emas, balki butun dunyoga "doston" qilindi. Ularning bunday ayblarini va ularga nisbatan qo'llanilgan jazolarni soliq to'lovchisi bo'lgan dunyo mamlakatlarining har bir xonadoni eshitdi (bildi). Endi bir o'ylab ko'ring: shunday obro'ga, salohiyatga va boylikka ega bo'lgan Sh.Graff, B.Bekker, L.Pavarotti, S.Loren, U.Snayps, G.Xiddink va boshqalarga nisbatan bu borada shunday munosabat qilinganda, o'zlarini saqlab qolish uchun ularning qo'ldan hech narsa kelmaganda, soliqqa tortish masalalarida xatolikka yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan oddiy fuqarolar – soliq to'lovchilarning ahvoliga "maymunlarning bundan-da, bat-tarroq yig'lashi", turgan gap.

Bu keltirilgan dalillar o'zimizdagi haqiqiy vaziyat bilan taqqoslanilsa, soliq siyosatiga "soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganlar va soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan qattiq moliyaviy jazolar qo'llanilayapti" deya e'tiroz bildirishga og'iz juftlayotgan paytimizda nafasimiz ichimizga tushib ketmaydimi? Bu masalada mamlakatimizdagi qaysi mashhurlarimizning boshiga bunday "qora kun" solindi? Aksincha, ular el-yurt ardog'ida emasmi? Ularga "gard" ham yuqtirmaslikka harakat qilmayapmizmi? Hatto, bir necha yil davomida soliqlarni to'lab kelmaganligi aniqlansa ham, ba'zi hollarda, oddiy "uchar tadbirkor"imizning qaramog'ida "jo'jabirdek jon" bor ekanligi hisobga olinmayaptimi? Holbuki, barcha mamlakatlarda bo'lgani singari bizning mamlakatimizda ham Vatanimizning asosiy qonuni – Konstitut-

siyasining 51-moddasida “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliq va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar”¹⁵⁶ deb yozib qo‘yilgan. Unga qat’iy rioya etish, ta’bir joiz bo‘lsa, unga sajda qilish – har fuqaro, har bir soliq to‘lovchi uchun – ham qarz, ham farz emasmi?¹⁵⁷

Endi o‘tgan asrning 80-yillarida soliq boshqarmasi xodimining quyidagi aytgan so‘zlariga bir e’tibor bering: “Dunyoda soliqdan bo‘yin tovlashdan kattaroq jinoyat bo‘lmasa kerak, deb hisoblayman. Men hatto xotinimning xiyonatini ham kechirishim mumkin, ammo soliq to‘lashdan o‘z daromadini yashirganlarni hech qachon!”¹⁵⁸. Soliq siyosatiga “soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaganlar va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlarga nisbatan qattiq moliyaviy jazolar qo‘llanilayapti” tarzida e’tiroz bildirish nuqtayi nazaridan bu bildirilgan fikrning zamirida nimalar yotganligini aniqlashga o‘quvchimizni bu yerda ham qodir, deb hisoblaymiz va unga nisbatan erkin mulohaza yuritishni ularning ixtiyoriga qoldiramiz.

Byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e’tirozlar, muammolarni hal etish va e’tirozlarni yumshatish yo‘llarining bir qismi ana shu yuqorida bayon qilinganlardan iborat.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun qo‘shimcha savollar

- Respublikamizda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgan byudjet-soliq siyosatiga nisbatan yakdillik bilan fikr bildirilayaptimi? Bildirilmayotgan bo‘lsa, buning sabablari nimalardan iborat?
- Oddiy bir soliq to‘lovchi sifatida “Mamlakatimizdagi byudjet-soliq siyosati sizga ma’qulmi? U sizning manfaatlaringizni to‘liq ifodalayaptimi? Bu siyosat sizga yoqayaptimi? Uni to‘g‘ri, deb hisoblaysizmi?” shaklida berilgan savollarga javoblaringiz qanday bo‘lur edi?

¹⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “Adolat”.

¹⁵⁷ Bu to‘g‘risida o‘quv qo‘llanmamiz 7-bobining 5-paragrafidan batafsil to‘xtalib o‘tgan edik.

¹⁵⁸ Qarang: “Bank axborotnomasi”, 2002-yil, 7-13 noyabr soni.

- Sizga “Mamlakatimizdagi byudjet-soliq siyosatining nimasi Sizga ma’qul emas? Nimasi yoqmayapti? Nimasi noto’g’ri?” shakli va mazmunida savol berilsa, nima deb javob bergan bo’lur edingiz? Javoblaringizni asoslab berishga tayyormisiz? Argumentlaringiz nimalardan iborat?

- Hozirgi paytda byudjet-soliq siyosatiga nisbatan bildirilayotgan “e’tiroz”larning eng umumiy ko’rinishlari nimalarni ko’rsata olasiz?

- “Byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlari kam” shakli va mazmunida bildirilgan “e’tiroz”ning negizida nimalar yotibdi? U qanchalik asoslangan-u, qanchalik asoslanmagan?

- “Byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlari kam” tarzida “e’tiroz” bildirilayotganda qanday oddiy savollarga jiddiy e’tibor bermoq va ularning aniq javobiga ega bo’lmoq lozim?

- Byudjet-soliq siyosatiga “soliqlarning soni ko’p va ular ko’payib borayotibdi” tarzida “e’tiroz” bildirilayotganda “Shu kecha-yu kunduzda soliqlarning soni nechta? Oldingi vaqtlarda (1, 5, 10, 20, 50, 70 yil oldin) soliqlarning soni nechta bo’lgan? Qiyoslaganda soliqlarning soni ko’payibdimi yoki kamayibdimi?” kabi savollarning javoblari e’tiborga olinishi kerakmi yoki...?

- “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi”ni qo‘lga olib, uning “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tizimi”, deb nomlangan 3-bobidagi “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning turlari” deb nomlanuvchi 23-moddasiga qarasa, bu yerda soliqlarning sonini nechta ekanligini aniq aniqlashning iloji bormi? Nega? Bu yerda qanday murakkabliklar mavjud?

- “Soliq kodeksi”ga muvofiq hozirgi paytda soliqlar sonining nechta ekanligini aniqlash sanovchining saviyasiga, uning iqtisodiy bilimlilik darajasiga bog‘liq” degan fikrga qo‘shilasizmi yoki uni rad etasiz? Nima uchun?

- Soliqlarning sonini aniqlashda qanday yondashuvlar mavjud? Bu borada yakdillikning yo‘qligida nimalar sabab?

- Umuman olganda, oldingi vaqtlarda (1, 5, 10, 20, 50, 70 yil oldin) soliqlarning soni nechta bo'lgan? Bu savolning javobini topishda qanday murakkabliklar bor?

- Iqtisodiy faoliyatni (jumladan, ishlab chiqarishni) sog'lom rivojlantirish va davlat byudjetini yetarli miqdordagi daromadlar bilan ta'minlash nuqtayi nazaridan qaysi variant maqbul: soliqlar sonining kamligi-yu, stavkalarining maksimalligimi? Yoki soliqlar sonining ko'pligi-yu, stavkalarining minimalligimi?

- Byudjet manfaatlari nuqtayi nazaridan soliqlar sonining ko'pligi yoki kamligi prinsipial ahamiyatga egami yoki yo'qmi?

- “Davlat istasa – yagona bitta soliqni qo'llab, xohlasa – bugungi kundagidek 40dan ortiq soliqlarni joriy etib, o'ziga tegishli bo'lgan mablag'ni byudjetga olishi mumkin”, degan tasdiq o'rinlimi yoki...?

- Soliq summasi nimalarga bog'liq?

- Byudjet manfaatlari nuqtayi nazaridan soliqlar sonining ko'pligi yoki kamligi prinsipial ahamiyatga ega emas ekan va davlat istasa – yagona bitta soliqni qo'llab, xohlasa – bugungi kundagidek 40dan ortiq soliqlarni joriy etib, o'ziga tegishli bo'lgan mablag'ni byudjetga olishi mumkin ekan, nega, u holda, soliqlarning sonini yagona (bitta) qilib o'rnatish maqsadga muvofiq emas?

- Soliq tizimining oldiga qanday vazifalar qo'yilgan? Ularning o'ziga xosligi nimadan iborat?

- Yagona (bitta) soliq joriy etilishining iqtisodiy (moliyaviy) oqibatlari qanday bo'lishi mumkin?

- Yagona (bitta) soliq joriy etilishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni inobatga holda prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan qanday xulosalarni chiqarsa bo'ladi?

- Soliq siyosatiga “soliqlar stavkalari yuqori darajada” mazmunida e'tiroz bildirishga shaylanayotgan paytimizda avvalo, o'zimiz uchun qanday bir necha savollarga aniqlik kiritib olishimiz darkor va ularning haqiqiy javoblari nimalardan iborat?

- “Soliq imtiyozlari yetarli darajada emas va soliqlar tomonidan yetarli darajada ragʻbatlantirilmayapti” mazmunida soliq siyosatiga eʼtiroz bildirilayotganda dastlab, qanday savollarga aniqlik kiritish kerak?

- Soliq siyosatiga “Soliq yuklamasi nisbatan ogʻir va u soliq toʻlovchilar oʻrtasida notekis taqsimlangan”, degan eʼtirozning bildirilishi, koʻp jihatdan, eʼtiroz bildiruvchilarning nimalardan ogohlighi yoki ogoh emasligiga bogʻliq?

- “Soliq qonunchiligi (tizimi) nobarqaror” mazmunida soliq siyosatiga eʼtiroz bildirilishining qanday oʻziga xos boʻlgan obyektiv sabablari mavjud?

- “Soliq qonunchiligi (tizimi)ning nobarqarorligi shunday barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiluvchi oʻziga xos boʻlgan maktabning mamlakatimizda hali-hamon shakllanmaganligi yoki yoʻqligi bilan ham belgilanadi” degan fikrga Sizning munosabatingiz qanday?

- Soliq siyosatiga “soliq tizimi haddan ziyod fiskal xarakterga ega”, deb ham eʼtiroz bildirilayotganda eng avvalo, qanday masalalarga aniqlik kiritib olmoq zarur?

- “Oldin mavjud boʻlmagan qoʻshilgan qiymat soligʻi joriy etilgan” koʻrinishida soliq siyosatiga eʼtiroz bildirilayotganda hech boʻlmaganda, “Bu soliq bizda qachon joriy etildi va nima uchun? Oldin bu soliqning funksiyasini qanday soliq(lar) bajargan edi? Bu soliq joriy etilganidan soʻng nima oʻzgardi? Masala kimning foydasiga hal boʻldi? Kim yutdi-yu, kim yutqazdi? Uning stavkalarida qanday oʻzgarishlar sodir boʻldi? Ulardagi umumiy tendensiya nimadan iborat?” degan savollarning javobini hisobga olish kerakmi yoki yoʻqmi? Bu borada Sizning javoblaringiz nimalardan iborat?

- Soliq siyosatiga “Mol-mulkdan kamroq soliq olinayapti”, degan tarzda eʼtiroz bildirishdan oldin “Qanday sabablarga koʻra bunday eʼtiroz bildirilayapti? Mol-mulkdan olinadigan soliqning stavkasi qay darajada? Stavka pastmi yoki yuqori? Bu soliq mol-mulkdan samarali foydalanishga oʻz taʼsirini koʻrsatayaptimi yoki yoʻqmi? Byudjet daromadlarini shakllantirishda mol-mulk soligʻining salmogʻi qanday? Mol-mulk soligʻini hisoblashda uning qanday qiymati

hisobga olinayapti? Aslida, qanday qiymati hisobga olinishi kerak? Mol-mulkdan ko'proq soliq olinsa, bu qanday oqibat-larga olib kelishi mumkin? Uning ijobiy va salbiy jihatlari nimalardan iborat?" kabi savollarning javobini izlash alohida ahamiyatga ega emasmi? Bu savollarga javob berishga uri-nib ko'ra olasizmi?!

- “Foyda (daromad) soliqqa ko'proq darajada tortila-yapti” shaklida soliq siyosatiga e'tiroz bildirilayotgan ekan, bunda “Bunday e'tiroz vujudga kelishining sabablari nima-lardan iborat? Uning asosida nimalar yotibdi? “Hisoblash metodologiyasi” to'g'rimi? Amaliyotimizda foyda (daromad) ning soliqqa tortilish darajasi qanday? Mustaqillik yillari-da soliqning stavkalarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi va bundagi tendensiya nimadan iborat? Byudjet daromadlarini shakllantirishda bu soliqning salmog'i va uning tendensi-yasi qanday? Byudjet daromadlarini shakllantirishda foyda (daromad) solig'i salmog'ining pasayishi nimadan dalolat be-radi? “Oldin” va boshqa mamlakatlarda foyda (daromad)ning soliqqa tortilish darajalari qanday (edi)? Kim imtiyozli (qulay) holatda? “Teplichnie usloviya”ni yarataverishning chegarasi bormi o'zi? “Hotamtoylik” doimo su'iste'mol qilinaverishi ker-akmi?” kabi savollar javobining e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq emasmi?

- Soliq siyosatiga “jismoniy shaxslar daromadi yuqori darajada soliqqa tortilayapti” mazmunida e'tiroz bildirilayot-gan paytda nimalar hisobga olinishi kerak? Bunda “Qanday sabablarga ko'ra bunday e'tiroz bildirilayapti yoki uning aso-sida nimalar yotibdi? Byudjet daromadlarini shakllantirish-da bu soliqning salmog'i qanday? “Oldin” qanday edi? Jis-moniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning byud-jet daromadlarini shakllantirishdagi salmog'i keyingi yillar orasida qanday tendensiyaga ega? Bizda bu soliqni, asosan, kimlar to'layapti? Qolganlarchi? Soliq to'lash bo'yicha og'ir-lik, asosan, kimlarning zimmasiga tushayapti? Tushishi ker-akmi o'zi? Daromad solig'ining stavkasini Rossiya Federat-siyasidagidek qilib o'rnatishning bizda moliyaviy imkoniyati bormi yoki yo'q? Jismoniy shaxslarning daromadlaridan un-

diriladigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi dunyoning boshqa mamlakatlarida qanday? va h.k" kabi savollarning javobini bilish muhim emasmi?

- "Soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganlar va soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan qattiq moliyaviy jazolar qo'llanilayapti" shaklida soliq siyosatiga e'tiroz bildirilayotganda moliyaviy jazo nima uchun qo'llaniladi? U qo'llanilishi kerakmi o'zi yoki yo'qmi? Moliyaviy jazo qo'llanilmasa nima bo'ladi? Qo'llanilayotgan moliyaviy jazolarning darajalari qanday, qattiqmi yoki...? Amaldagi moliyaviy jazolarni qo'llab turib, ko'zlangan maqsadlarga erishilayaptimi? Soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasi qanday va aslida u qanday bo'lishi kerak? Soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasi nisbatan past bo'lsa, moliyaviy jazoning darajasi qanday bo'lishi kerak? Haddan ziyod qattiq moliyaviy jazolarning qo'llanilishidan davlat (byudjeti) manfaatdormi? Har doim ham qattiq moliyaviy jazolarning qo'llanilishi bizni ko'zlangan maqsad sari etaklayveradimi? Moliyaviy jazo qachon yoki qanday vaziyatda o'z samarasini berishi mumkin, singari savollarning haqiqiy javobi topilsa, "e'tiroz" qay ahvolga tushib qolishi mumkin?

- Soliq siyosatiga "soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganlar va soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan qattiq moliyaviy jazolar qo'llanilayapti" deya e'tiroz bildirilayotganda bozor munosabatlari risoladagidek rivojlangan mamlakatlarda yoki jahon amaliyotida soliq to'lovchilar tomonidan xuddi shunday xatolikka yo'l qo'yilganda qanday choralar ko'rilmogda ekan, deb ham o'ylab ko'rmoq lozimmi? Unday bo'lsa...?

8-BOB. O‘ZBEKISTONDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING FUNDAMENTAL ASOSLARI (USTUVOR YO‘NALISHLARI)¹⁵⁹

8.1. Amir Temur qarashlarida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asos (ustuvor yo‘nalish)lari yaratilganligi (belgilanganligi)

Har qanday siyosat singari byudjet-soliq siyosati ham juda nozik bo‘lganligi tufayli uni takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo‘nalishlari)¹⁶⁰ xususida to‘xtalish oson emas. Biroq bu o‘rinda mamnuniyat bilan shuni qayd etish kerakki, byudjet soliq-siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo‘nalishlari)ni belgilashda eng avvalo, buyuk bobokalonimiz sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos. Buning aynan shunday ekanligini aniqlash uchun bobomizning quyidagi bir necha fikrlariga e‘tibor berishning va ularning ma‘no-mazmuniga tushunishning o‘zi yetarli:

**Amir Temur fikri: “...raiyatdan xiroj yig‘ishda uni
og‘ir ahvolga tushirib qo‘yishdan yoki mamlakatni**

¹⁵⁹ Ba’zi-bir sabablarga ko‘ra qo‘llanmamizning ushbu bobini ham xuddi uning oldingi bobidagidek, alohida-alohida paragraflarga bo‘lishni maqsadga muvofiq deb hisoblamadik. Bu o‘rinlarda shunday yo‘l tutishning afzalligi yoki aksincha, kamchiligi xususida baho berishni o‘quvchimizning ixtiyoriga qoldirayapmiz.

¹⁶⁰ “Fundamental asoslar” va “ustuvor yo‘nalishlar” o‘rtasida prinsipi-al farqlarning bo‘lishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatiga biz ham ega bo‘lsak-da, lekin ba’zi bir sabablarga ko‘ra bu o‘rinda ularni ayni shu tarzda, ya’ni “fundamental asoslari (ustuvor yo‘nalishlari)” shaklida ishlatishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Nega? Bu shunchalik “so‘z o‘yini”mi yoki boshqa narsami? Buning sabablarini tushuntirib bera olasizmi?

qashshoq qilib qo'yishdan saqlanmoq zarur, chunki raiyatni xonavayron qilish xazinaning g'ariblashuviga olib keladi. Xazinaning g'ariblashib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqalib ketishi o'z navbatida saltanatning zaiflashishiga olib keladi".

(Temur tuzuklari. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 122-123-betlar).

Jahongir Amir Temurning bu fikridan byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari)ga bevosita daxldor va hozirgi davrimiz nuqtayi nazaridan ham prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan bir necha xulosalarni chiqarish mumkin. Xususan, byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish (natijasi)da:

- birinchidan, eng avvalo, soliq to'lovchilarni "...og'ir ahvolga (bu yerda "soliq to'lovchilarning og'ir ahvolga tushishi"-ga zamonaviy tus berib, qabul qilmoq lozim – ta'kid bizniki. T.M.) tushirib qo'yishdan..." saqlanish kerak;

- ikkinchidan, "... mamlakatni qashshoq qilib qo'yishdan (bu yerda "mamlakatning qashshoqligi" iborasini tor ma'noda emas, balki keng ma'noda idrok etmoq lozim – ta'kid bizniki. T.M.) saqlanmoq zarur";

- uchinchidan, soliq to'lovchilar xonavayron qilinadigan bo'lsa, bu narsa, "xazinaning (davlat byudjetining – ta'kid bizniki. T.M.) g'ariblashuviga (byudjeti defitsiti darajasining belgilangan chegaradan chiqib ketishiga – ta'kid bizniki. T.M.) olib keladi";

- to'rtinchidan, xazina g'ariblashib qoladigan bo'lsa, bu narsa o'z navbatida "... sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi";

- beshinchidan, "sipohning tarqalib ketishi o'z navbatida saltanatning (davlatning – ta'kid bizniki. T.M.) zaiflashishiga olib keladi".

Albatta, chiqarilgan xulosalarning 4- va 5-punktlarida keltirilgan "sipohning tarqalib ketishi" iborasi endi bugungi

kunda faqatgina armiyaning tarqalib ketishini anglatmaydi. Balki bu o'rinda endilikda unga qo'shimcha ravishda, shu iboraning zahirida, soliq to'lovchilarning xufyona sektorga o'tib ketishi yoki kapitalning chetga chiqib ketishi va boshqa shunga o'xshash holatlar ham nazarda tutilishi kerak.

Shuningdek, bu yerda bobomizning fikrida quyidagi mantiqiy bog'lanishning mavjudligini ko'ra bilish ayniqsa, diqqatga sazovor: "soliq to'lovchilarning og'ir ahvolda tushib qolishi – mamlakatning qashshoqlashuvi – byudjetning nochorligi – davlat salohiyatining zaiflashuvi". Masala ana shu zanjirli ko'rinishda talqin etiladigan bo'lsa, u holda bu bog'lanishda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari)ga tegishli bo'lgan asosiy g'oyalardan birining mujassam ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu g'oya bugungi kunda ham butun dunyoda bizning fikrimizcha, aksioma sifatida e'tirof etilmoqda.

Amir Temur fikri: ***"... kimda-kim biror sahrani obod qilsa yoki koriz (yer ostidan qurilgan ariq) qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa) qonun-qoidaga muvofiq xiroj olsinlar"***.

(Temur tuzuklari. – T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 124-bet).

Byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari)da soliq imtiyozlari masalasiga alohida o'rin ajratilishi albatta, kerak. Bobomiz sohibqiron Amir Temurning yuqorida keltirilgan ikkinchi fikrida ana shunday imtiyozni qay tartibda taqdim etishning maqsadga muvofiqligi o'z aksini topgan. Bir vaqtning o'zida bobomizning "... kimda-kim biror sahrani obod qilsa yoki koriz (yer ostidan qurilgan ariq) qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa"

degan fikrlari, bir tomondan, bugungi kunda ham o'z shaklu-shamoyilini to'liq saqlab qolgan bo'lishiga qaramasdan ikkinchi tomondan, yangicha mazmun kasb etib, "yangidan tashkil etilayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, xoriijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, ishlab chiqarishni modernizatsiya va rekonstruksiya qilishga jiddiy e'tibor berayotgan va h.k. korxonalar" shaklini olmayaptimi? O'sha davrda aytilgan fikrlardan bugungi kunda ham to'liq foydalanilmayaptimi?

Sohibqiron Amir Temurning "...birinchi yili undan arsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa) qonun-qoidaga muvofiq xiroj olsinlar", deya bergan amri bugungi kunda ozroq o'zgargandek tuyulsa-da, hamon o'z kuchini yuqotmabdi-ku?! Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga nisbatan 1 yil, 2 yil va h.k.muddatlarda soliqlardan ozod qilish tartibining o'rnatilishi zahirida bobomizning g'oyasi yotgan ekan-ku?! Buning ustiga jahongir Amir Temurning yuqoridagi fikrida bizningcha, hozirgi sharoitda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) sifatida e'tirof etilishi lozim bo'lgan yana bir g'oya mavjud.

Gap bu o'rinda bobomizning "...ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar...", degan fikri xususida ketayapti. Unga ko'ra soliqlar bo'yicha imtiyozlarda bir necha davr belgilanishi kerak, ya'ni birinchi davrda soliqlar umuman olinmaydi. Ikkinchi davrda soliqlar soliq to'lovchining roziligi asosida olinadi. Uchinchi davrdan boshlab esa soliqlar hamma qatori qonun-qoidaga muvofiq olinishi kerak. Bir tasavvur qilib ko'ring, agar shunday tartib o'rnatiladigan bo'lsa, u qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Nahotki, o'ziga imtiyozli sharoitni yaratib bergan davlatiga ma'lum bir muddatdan keyin soliqni o'z ixtiyorlari bilan to'laydigan birorta ham insofli soliq to'lovchi topilmasa?! Topiladi! Topilajak, albatta! Bu byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) sifatida buyuk bobokalonimiz Amir Temurning bundan bir necha asr muqaddam aytgan fikrlarida hamon ma'lum bir foydalanilmagan zaxiralarning mavjudligidan dalolat emasmi?!

Bizning fikrimizcha, buyuk bobokalonimiz Amir Temurning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqishi mumkin bo'lgan bu xulosalar ilmiy va amaliy asosga ega bo'lib, ular hanuzgacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan va yo'qotmagay, inshoalloh! Bir vaqtning o'zida ular zamonaviy byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) bo'lib hali uzoq yillar davomida jamiyatimizning taraqqiyotiga, O'zbekistonimizning kelajagi buyuk davlatga aylanishida o'zining munosib hissasini qo'shaveradi.

8.2. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish fundamental asos (ustuvor yo'nalish)larining yanada rivojlantirilishi

Byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning zamonaviy fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) nimalardan iborat bo'lishi mumkinligi xususida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning fikrlari ham alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan o'quv qo'llanmamizning ushbu bobi doirasida biz respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan byudjet-soliq siyosati xususida bildirilgan fikrlar to'g'risida mulohaza yuritishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Nazarimizda Buning, bir necha asosli sabablari mavjud.

Birinchidan, shu narsani alohida ta'kidlash joizki, Prezidentimizning asarlari bilan tanishar ekanmiz, aynan ana shu asarlarda byudjet-soliq siyosatining nazariy masalalariga asos solinganiga (nazariy asoslarining yaratilganligiga) guvoh bo'lamiz.

Ikkinchidan, hozirgi paytda biz ishlab chiqilayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan byudjet-soliq siyosatining asl mohiyatini to'g'ri idrok etishni istar ekanmiz, davlatimiz rahbarining bu xususda bildirgan fikrlariga alohida e'tibor bilan qarashimiz darkor.

Uchinchidan, davlat rahbari sifatida byudjet-soliq siyosatiga nisbatan Prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikrlar

barchaning (hatto shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan tegishli mutaxassislarning ham) e'tiboriga yetarli tarzda yetib bormaganligini xolisona tan olishimiz kerak.

To'rtinchidan, «Prezidentimiz byudjet-soliq siyosati to'g'risida qanday fikrlarni bildirgan?» - degan savolga faqat tegishli iqtisodchilar va iqtisodchi olimlarning tor doirasigina javob berishga qodir bo'lsa, ularning ayrimlari «Nima uchun aynan shunday fikrlar bildirilgan?» - degan savolga malakali tarzda javob berishga hamon o'zlik qilishmoqda.

Bu va shunga o'xshash yana bir necha asosli sabablarni inobatga olgan holda yurtboshimizning turli yillardagi byudjet-soliq siyosatiga xos bo'lgan fikrlarini quyida keltiraylik va ular to'g'risida mulohaza yuritishga harakat qilaylik. Shubhasiz, ularda hozirgi paytda va yaqin kelajakda mamlakatimizda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) o'z in'ikosini topgan.

Birinchi fikr: «Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi».

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
- T.: "O'zbekiston", 1998. 358-bet)

Sirtidan qaralganda oddiy so'zlardan iborat bo'lgan bir fikr. Lekin ana shu birgina fikrning o'zida juda katta va prinsipial ahamiyatga molik bo'lgan ma'no bor. Eng avvalo, mamlakat doirasida iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda soliqlarning alohida o'рни bor ekanligi qayd etilayapti. Haqiqatdan ham davlat o'zi ishlab chiqqan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda yoki uni hayotga tatbiq etishda turli vositalardan, dastaklardan, usullardan va hokazolardan foydalanadi. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda turli shakllardan foydalaniladiganlar qatoriga baholarni shakllantirish mexanizmini, bojxona tizimining o'ziga xos bo'lgan tartib va qoidalarini, Markaziy Bankning pul-kredit instrumentlarini, davlatning markazlashtirilgan investitsiya dasturlarini

va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Yuqoridagilarning har biri ham davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda ma'lum rol o'ynaydi.

Ularning orasida soliqlarning «...iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil...» ekanligini Prezident tomonidan e'tirof etilishi, albatta, bejiz emas. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning eng madaniylashgan, eng tabiiy va eng sog'lom yo'li haqiqatdan ham soliqlardir. Buni jahon tajribasi yaqqol ko'rsatib turibdi. Bu narsaning xuddi shunday ekanligi jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida ham uzil-kesil e'tirof etilgan.

Prezident tomonidan bildirilgan bu fikrning mazmuni to'g'risida mulohaza yuritir ekanmiz, yana bir marta soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda bu yerda faqat «omil» sifatida qaralmayotganligini ko'rsatib o'tishimiz kerak. Bu yerda soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda «boshqaruvchi omil» sifatida ham qaralmayapti. Bu yerda soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda «muhim boshqaruvchi omil»dir degan fikr ham bildirilmayapti. Aynan soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda «eng muhim boshqaruvchi omil» ekanligining ma'nosini shu fikrni ifodalovchi so'zlarning birortasini ham «tushirib» yubormasdan idrok etmoq lozim. Ana shundagina biz «omil», «boshqaruvchi omil», «muhim boshqaruvchi omil» va nihoyat, «eng muhim boshqaruvchi omil» deb nomlangan so'z va iboralar o'rtasida o'rni kelganda «yer bilan osmoncha» farq borligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

Ikkinchi fikr: «Soliqlar xazinani to'ldirish siyosatining asosiy unsuri bo'lib, davlat byudjetining daromad qismi eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashi lozim».

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
- T.: "O'zbekiston", 1998. 358-bet).

Bu yerda ikki asosiy g'oya ilgari surilayapti. Birinchisida soliqlar xazinani to'ldirishda asosiy element ekanligi ta'kidlanayapti. Bir vaqtning o'zida xazinani to'ldirishda soliqlardan boshqa elementlarning ham bor ekanligi tan olinayapti. Ular (masalan, turli to'lovlar, ajratmalar) davlat xazinasini to'ldirishda asosiy rolni o'ynamasa-da, lekin xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat byudjeti o'rtasidagi munosabatlarda o'ziga xos vazifani bajaradi.

Ikkinchi g'oyada, soddaroq qilib aytsak, juda ko'pchilik javobini bilishni istaydigan «Davlat byudjetining daromad qismi qancha bo'lishi kerak?» - degan hayotiy savolning javobi o'z aksini topgan. Demak, keltirilgan fikrdan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti daromad qismining hajmi eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda bo'lishi kerak. Bu fikrda bir tomondan, qo'yilgan savolning umumiy javobi o'z aksini topgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha savolning konkret javobi ham ifodalangan. Chunki yuqoridagi savolga u yoki bu narsani hisobga olgan holda oldindan «Davlat byudjetining daromad qismi mana buncha bo'lishi kerak», - deb bir xil tarzda javob berish o'zining ma'nosiga ega emas. Mulohazalarimizdan ma'lum bir davrda (odatda byudjet yili davomida) eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini to'liq bajarish yoki hal etish uchun qancha miqdordagi mablag' talab qilinsa, davlat byudjetining daromadlari qismida soliqlar yordamida shuncha miqdorda mablag' to'planishi lozim, degan umumiy xulosalar kelib chiqadi.

Albatta, eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan mablag'larning bir qismini davlat boshqa manbalar hisobidan ham qoplashi yoki moliyalashtirishi mumkin. Davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, tashqi davlatlardan qarz olish va h.k.lar shular jumlasidandir. Eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini bajarish uchun moliyalashtirishning bu shakllaridan ham amaliyotda maqsadga muvofiq bo'lgan hollarda foydalanib kelinmoqda. Bu narsa eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini bajarishda davlat byudjetining

daromadlari yetarli bo'lmagan holda maydonga chiqadi. Soliqlar yordamida to'plangan daromadlar yetarli bo'lgan taqdirda muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqarish (ichki qarz) va chet mamlakatlardan qarz olishga (tashqi qarz) hojat qolmas edi. Jahon amaliyotida yetishmagan mablag'ga ega bo'lishning biz sanab o'tgan har ikki yo'li ham normal holat sifatida qaralsa-da, ularning har ikkalasi ham qarziy mablag' (ichki va tashqi qarz) bo'lganligi uchun o'zida kattagina riskni namoyon etadi. Bu riskning bir qismi siyosiy riskdan iborat. Shuning uchun ham «davlat byudjetining daromad qismi eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashi lozim», - degan fikrga alohida hurmat bilan qaramoq kerak. Chunki bu fikr va uning amalga oshirilishi mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchinchi fikr: «Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bir tomondan, xodimlarni o'z mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga rag'batlantirishi, ikkinchi tomondan, ish haqi darajasi sarflangan mehnat samarasiga mutanosib bo'lishga yordam ko'rsatishi, mehnatkashlarning daromadlaridagi tafovut asossiz ravishda katta bo'lishiga olib kelmasligi lozim».

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.

- T.: "O'zbekiston", 1998. 360-bet)

Sinchkovlik bilan e'tibor beradigan bo'lsak, bu yerda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar oldiga aslida uch murakkab vazifaning qo'yilganligi ma'lum bo'ladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar xodimlarni o'z mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga rag'batlantirishi kerak. Buning ma'nosi shundan iboratki, jismoniy shaxslardan soliqlar olinganda bu soliqlar ularni ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga un-

dashi lozim. Bu soliqlarning olinishi ularda asossiz norozilik kayfiyatining tug'ilishiga olib kelmasligi kerak. Vazifaning bu tarzda qo'yilishi prinsipial ahamiyatga ega bo'lib, bu narsa jismoniy shaxslarga nisbatan soliq siyosati ishlab chiqarilayotgan paytda albatta, inobatga olinishi shartdir;

- jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar ish haqi darajasi sarflangan mehnat samarasiga mutanosib bo'lishiga yordam ko'rsatishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi va unga sarflangan mehnat o'rtasidagi o'zaro munosabat eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy adolat prinsipining hayotga tatbiq etilishi ko'p jihatdan ana shu munosabatning darajasi bilan belgilanadi. Aksariyat hollarda ish haqining darajasi sarflangan mehnat samarasiga mutanosib bo'lgan taqdirda ijtimoiy adolat prinsipiga qat'iy rioya qilinayotganligi ma'lum bo'ladi. Bu narsaga erishish jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun ham jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar oldiga ana shu mutanosiblikni ta'minlashga yordam ko'rsatish vazifasi qo'yilayapti;

- jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mehnat-kashlarning daromadlaridagi tafovut asossiz ravishda katta bo'lishiga olib kelmasligi lozim. Bu vazifani aslida yuqorida qayd etib o'tilgan ikkinchi vazifadan ajratib olib alohida tarzda tasavvur qilish mumkin emas. Chunki ish haqi, sarflangan mehnat samarasi, daromadlar o'rtasidagi tafovut bir-biri bilan uzviy bog'langan tushunchalardir. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan mehnatkashlarning daromadlari faqat ish haqidan tarkib topmaganligi uchun biz bu vazifani ikkinchi vazifadan ajratib olib, alohida tarzda ko'rsatib o'tishga jazm etdik.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar oldiga qo'yilgan bu vazifada dastlab, mehnatkashlarning daromadlari o'rtasida albatta, tafovutlarning bo'lishi qayd etilayapti. Bu tafovutlar asosli bo'lgan hollarda katta bo'lishi mumkinligi ham ta'kidlanayapti. Tafovutlar asossiz ravishda katta bo'lgan paytda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bu narsaga barham berishi lozimligi ko'rsatib o'tilayapti. Chunki bun-

day qilinmasa, bu narsa aholi qatlamlari o'rtasida turli ziddiyatlarning kelib chiqishiga va ularning kuchayishiga zamin yaratishi mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar oldiga qo'yilgan vazifalarning murakkabligi shundan iboratki, ularning hammasi parallel ravishda bir vaqtning o'zida bajarilishni taqozo etadi. Bir vazifaning bajarilishi ikkinchi yoki uchinchi vazifaning bajarilishiga aks ta'sir qilmasdan yoki to'sqinlik qilmasdan, aksincha, navbatdagi vazifalarning bajarilishiga yordam berishi kerak. Bu o'z navbatida, «bir o'q bilan ikki quyonni» emas, balki «uch quyonni urish» bilan barobardir. Holbuki, bir o'q bilan ikki quyonni va ayniqsa, uch quyonni urish uchun (qo'yilgan uch vazifani bajarish uchun) merganlar (jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga nisbatan tegishli soliq siyosatini ishlab chiquvchilar va uni hayotga tatbiq etuvchilar) o'ta darajada mohir bo'lmoqlari lozim.

To'rtinchi fikr: ***«Korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasining yengillashtirilishi, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining kamaytirilishi oqibat natijada ishlab chiqarishni jonlashtirishga olib kelishi lozimki, bu narsa iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini hal etishda g'oyat katta ahamiyatga ega».***

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.

- T.: "O'zbekiston", 1998. 360 bet)

Bildirilgan bu fikr bizning nazarimizda, izohga muhtoj emas, o'quvchilarga shundoq ham tushunarli. Shunday bo'lishiga qaramasdan fikrda bildirilgan tadbirlarning (soliq yuklamasining yengillashtirilishi, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining kamaytirilishi) amalga oshirilishi o'zining ma'lum bir chegarasiga ega ekanligini qayd etib o'tmoq lozim. Gap bu yerda soliq to'lovchilarning xohish-istaklariga qarab soliq yuklamasini kamaytirish yoki qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasini pasaytirish

to'g'risida ketayotgani yo'q. Xuddi shu ma'noda soliq yuklamasini kamaytirish va qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasini pasaytirish to'g'risidagi bu fikr ayrim manfaatdor soliq to'lovchilar qo'lida «bayroq» vazifasini bajarishga mo'ljallanmagan. Bundan tashqari bu fikrda bildirilgan tadbirlarning bajarilishi bevosita quyida keltirilgan uch shartga bog'liq bo'lib, ular bu tadbirlarning bajarilish chegarasini belgilab beradi:

- korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasining yengillashtirilishi, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining pasaytirilishi shu tadbirlar amalga oshiriladigan davr mobaynida byudjetdan qilinadigan xarajatlarni moliyalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu o'z navbatida, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda byudjetdan qilinadigan xarajatlarning mos ravishda qisqartirishini taqozo etadi;

- soliq yuklamasining yengillashtirilishi, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining pasaytirilishi, oqibat-natijada byudjet defitsiti darajasining oshishiga olib kelmazligi lozim;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yuklamasini yengillashtirish, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasini pasaytirishdan asosiy maqsad ishlab chiqarishni jonlantirishdir. Bu narsa sodir bo'lsagina yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Aks holda bu o'zgarishlar o'zining ma'nosiga ega bo'lmay qoladi. Soliq yuklamasining engillashishi, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining pasayishi natijasida ishlab chiqarish jonlansa, buning evaziga byudjet yuqoridagi har ikkala tadbirni amalga oshishidan ko'pchilik o'ylaganidek zarar ko'rmaydi. Aksincha, ishlab chiqarishning jonlanishi oqibatida soliq yuklamasining yengillashishi, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining pasayishi natijasida byudjetga borib tushmaydigan soliqlar summasi kompensatsiya qilinishi mumkin. Bu narsaning sodir bo'lishi iqtisodiyotning barqarorlashganligidan dalolatdir.

Beshinchi fikr: **«Avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani - fiskal (xazina to'ldirish), qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak».**

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.

- T.: "O'zbekiston", 1998. 358-bet).

Ko'rinib turibdiki, bu yerda soliq tizimining oldiga o'ziga xos uch vazifaning qo'yilishi kerakligi ko'rsatilgan:

1. Fiskal (xazina to'ldirish).
2. Qayta taqsimlash.
3. Rag'batlantirish.

Lekin bundan soliq tizimi faqat shu uch vazifani bajarishi kerak ekanda, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Chunki soliq tizimi yuqoridagilardan tashqari yana bir necha vazifalarni ham bajaradi, masalan, nazorat qilish, taqiqlash yoki to'sqinlik qilib turish va boshqalar. Shuning uchun ham yuqoridagi fikrni ifodalashda «avvalo» degan so'z bejiz ishlatilmagan. Bu - ushbu fikr bo'yicha mulohaza yuritilayotgan paytda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan birinchi momentdir.

Ikkinchidan, bu fikr talqin qilinayotgan paytda soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalar ketma-ketligi nazardan chetda qolmasligi kerak. Bu yerda soliq tizimining oldiga birinchi galdagi vazifa sifatida fiskal (xazinani to'ldirish) vazifasi qo'yilayapti. Qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifalarining ikkinchi va uchinchi o'rinlarda qo'yilishi o'z navbatida, mantiqning tegishli qoidalariga qat'iy ravishda rioya qilinganligidan dalolat beradi. Haqiqatdan ham soliq tizimi dastlab fiskal (xazinani to'ldirish) vazifani bajarib bo'lganidan so'ng qayta taqsimlash va undan keyingina rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kun tartibiga qo'yiladi.

Uchinchidan, bu fikr to'g'risida mulohaza yuritilayotgan vaqtda vazifalarning bajarilishiga yoki ularning bajarilish darajasiga ham (qay darajada bajarilishiga ham) alohida urg'u berilganligi hisobga olinishi lozim. Darhaqiqat bu yerda soliq tizimining avvalo, o'ziga xos bo'lgan 3 vazifani bajarishi kerakligi aniqlashtirilibgina qolmasdan, balki ularning «to'la darajada» bajarilishi kerakligi ham qayd etilgan.

To'rtinchidan, soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalari-ning ketma-ketligi har doim ham shu tartibning (ketma-ketlikning) saqlanib qolishi kerakligini taqozo etmaydi. Tarixiy taraqqiyotning alohida olingan ma'lum bir bosqichida bu vazifalar ketma-ketligi o'zgarishi, keyingi qatorda turgan vazifalar oldingi qatorga o'tishi mumkin. Bu narsa umumiy tarzda qaysi vazifaning mamlakat taraqqiyoti uchun birinchi darajali vazifaga aylanganligiga bog'liq.

Oltinchi fikr: «Soliq tizimining eng muhim vazifasi – ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir».

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
- T.: "O'zbekiston", 1998. 359-bet).

Avvalo shuni qayd etish lozimki, Prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikrni o'qib, o'quvchida «Bu fikr oldingi fikrga zid emasmikan?», - degan tasavvur tug'ilmasligi kerak. Chunki bu fikrda oldingi fikrdagi asosiy g'oyalardan biri yanada rivojlantirilayapti, yanada konkretlashtirilayapti. Oldingi fikrda soliq tizimining oldiga qo'yilgan o'ziga xos uch vazifaning uchinchisi rag'batlantirish, deb ko'rsatilgan bo'lsa, bu fikrda ana shu rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan vazifaga ancha aniqlik kiritilgan.

Ma'lum bir belgilarni inobatga oladigan bo'lsak, bu yerda soliq tizimining oldiga qo'yilgan rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim vazifalarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish;
- moddiy xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish;
- to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish.

Bu yerdagi birinchi punktda ishlab chiqarishni rag'batlantirish to'g'risida gap ketayotgani yo'q, balki aynan ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish to'g'risida gap ketayapti. Ana shu yerdagi «rivojlantirish» so'ziga alohida urg'u berib qaralgan taqdirdagina fikrning asl mohiyatini to'g'ri idrok etish mumkin.

Amaldagi soliq tizimi barcha resurslardan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi lozim. Bu yerda resurslarning qanday shaklda (moddiy xomashyo, tabiiy, moliyaviy, mehnat va boshqa) bo'lishi prinsipial ahamiyatga ega emas. Bozor iqtisodiyoti barcha resurslardan har doim samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu o'rinda fikrdagi «samarali» so'ziga alohida e'tibor berilishi uning tub mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Soliq tizimining oldiga qo'yilgan rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim vazifalarning navbatdagisi to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir. Bu yerda ham to'plangan mol-mulkning kimga tegishli ekanligi prinsipial ahamiyatga ega emas. Undan qat'iy nazar bozor iqtisodiyoti to'plangan mol-mulkdan har doim samarali foydalanish kerakligini talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti «Bu to'plangan mol-mulk meniki. Uning taqdirini o'zim hal qilaman. Xohlasam foydalanaman, xohlama-sam - yo'q», - qabilida ish tutishni yoqtirmaydi. Boshqa bir tomondan to'plangan mol-mulkning taqdiriga uning egasigina (bozor iqtisodiyotining tegishli qonun qoidalarini bilmaydiganlar) befarq qarashi mumkin. Davlat esa bunday qila olmaydi. Soliq tizimi orqali, aksincha to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga harakat qilaveradi. Davlatning bu sohadagi xatti-harakatini tabiiy ravishda qabul qilmoq lozim.

Yettinchi fikr: ***«Soliq tizimini o'zgartirishda asos qilib olingan bosh tamoyil - korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasini keskin kamaytirishdir».***

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
- T.: "O'zbekiston", 1998. 359-bet)

Iqtisodchi-olimlar va amaliyotchi mutaxassislar, moliyachilar, soliq xizmati xodimlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlari orasida juda ko'p munozaralarga sabab bo'layotgan masalalardan biri «soliq yuklamasi» yoki «soliq og'irligi» masalasidir. Bu muammoga nisbatan bildirilgan fikrlarni (ularni bildirganlarning qaysi toifaga kirganligini hisobga olmagan holda) bir necha guruhlariga bo'lish va unga munosabatni eng umumiy tarzda qisqacha qilib quyidagi ko'rinishlarda ifoda etish mumkin:

- soliq yuklamasi og'ir;
- soliq yuklamasi haddan ziyod og'ir;
- soliq yuklamasi shu kecha-kunduzning talablari darajasida belgilangan;
- ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslaganda soliq yuklamasi og'ir emas;
- soliq yuklamasini hozirgi darajasidan pasaytirish mumkin emas va h.k.

Masalaga munosabat bunday xilma-xil yoki rang-barang bo'lib turgan bir paytda yurtboshimiz tomonidan yuqoridagi fikrning bildirilishi muammoning javobiga ancha oydinlik, aniqlik kiritadi.

Bildirilgan bu fikr to'g'risida mulohaza yuritish jarayonida, dastlab amaldagi soliq tizimini o'zgartirish zarurligini qayd etib o'tmoq lozim. Bu narsa shubhasizdir. Soliq tizimini o'zgartirish zarur ekan, bu jarayon ma'lum bir tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak. Ana shu tamoyillar orasidagi bosh tamoyil korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasini keskin kamaytirishdir.

Bu yerda hozirgi paytda korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasining ancha og'ir ekanligi tan olinayapti. Shuning uchun ham soliq yuklamasini kamaytirish emas, balki keskin kamaytirish zarurligi ta'kidlanayapti.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida qayd etib o'tmoq lozim. Gap shundaki, davlatimiz rahbari tomonidan korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasiga nisbatan bu tarzdagi fikrni xaspo'shlamasdan ochiq-oydin aytilishi quyi doiralarda «Soliq yuklamasiga nisbatan aniq vaziyatni «yuqoridagi-

lar» bilishmaydi», - tarzida aytiladigan fikrlarning asossiz ekanligini ko'rsatib beradi.

Sakkizinchi fikr: **«Islohotning ikkinchi bosqichida iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash birinchi navbatdagi vazifaga aylangan chog'da soliq tizimi birinchi galda rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak».**

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
- T.: "O'zbekiston", 1998. 359-bet).

Yuqorida biz birinchi fikrga izoh berayotgan paytimizda soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalar ketma-ketligi jamiyat taraqqiyotining talablaridan, uning oldiga ma'lum bir davrda qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda birmuncha o'zgarishi mumkin, degan fikrni bildirgan edik. Keltirilgan yuqoridagi fikr buning xuddi ana shunday ekanligini tasdiqlayapti.

Mustaqil mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirib borar ekan, bu islohotlarning ikkinchi bosqichida iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash birinchi navbatdagi vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Bunday sharoitda soliq tizimi, eng avvalo, fiskal (xazinani to'ldirish), qayta taqsimlash vazifalarini emas, balki birinchi galda rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak. Ko'rinib turibdiki, bu yerda mamlakatimiz doirasida iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashning ahvoli bevosita soliq tizimining birinchi navbatda rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarishi bilan uzviy bog'liq qilib qo'yilmoqda. Boshqacha aytganda, iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash borasida erishgan yutuqlarimiz ko'p jihatdan soliq tizimining birinchi galda rag'batlantiruvchilik vazifasini qay darajada bajarganligi bilan ham belgilanadi. Yanada oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, soliq tizimi birinchi navbatda rag'batlantiruvchilik vazifasini to'liq bajar-

sa, mamlakat miqyosida iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga erishiladi.

To'qqizinchi fikr: **«Soliq tizimi ham bozor infrastrukturasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uni hali chinakamiga tashkil etishga to'g'ri keladi».**

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
- T.: "O'zbekiston", 1998. 49-bet).

Keltirilgan fikrdan ko'rinib turibdiki, bozor infrastrukturasini soliq tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uni soliq tizimisiz to'la tarzda tarkib topgan, kam-ko'stsiz bozor infrastrukturasini deyish mumkin emas. Bozor infrastrukturasining to'laqonli faoliyat ko'rsatishi ham ko'p jihatdan soliq tizimini o'sha infrastruktura tarkibida borligiga bog'liq.

Fikrning ikkinchi qismiga e'tibor berilsa, bu sohada ham juda katta ish qilish zarur ekanligi ma'lum bo'ladi. Gap bu yerda bozor infrastrukturasining tarkibiy qismi sifatida soliq tizimimizning tan olinishi uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida ketayapti. Soliq tizimi bozor infrastrukturasini to'laqonli tarkibiy qismi sifatida tan olinishi uchun haqiqatdan ham chinakamiga tashkil etish kerak. Bu yerdagi fikrning asl mohiyatini to'g'ri idrok etmoq uchun «chinakamiga» deyilgan so'zga alohida e'tibor bermoq lozim.

To'g'ri, haqiqatdan ham mustaqillik yillarida mustaqil davlatimizning soliq tizimini tashkil etish bo'yicha juda katta ishlar qilindi. Dastlab, aytishimiz mumkinki, O'zbekistonning mustaqil soliq tizimiga asos solindi, soliq tizimining huquqiy asoslari yaratildi, MDH davlatlari orasida birinchilar qatorida «Soliq kodeksi» qabul qilindi, soliq xizmati xodimlarining tarkibiy tuzilishi bo'yicha jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi, soliq tizimiga tegishli bo'lgan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari umumlashirildi, soliq idoralarining moddiy-texnika bazasi ancha mustahkamlandi va h.k.

Albatta, soliq tizimini tashkil etish bo'yicha mamlakatimizda qilingan ishlar ro'yxatini ana shu tarzda yana ancha

davom ettirish mumkin. Lekin ularning hammasini to'plab, faqat «Soliq tizimimiz tashkil qilindi», - deyishimiz mumkin. Bu fikrni bildirish yoki shunday xulosa chiqarish uchun asoslarimiz yetarlidir. Biroq bu sohada amalga oshirilgan ishlar «Soliq tizimimiz chinakamiga tashkil qilindi», - deyishga yetarli emasligini hayotning o'zi har qadamda ko'rsatib turibdi. Soliq tizimini tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlardagi noaniqliklar, «Soliq kodeksi»ning munozarali joylari, soliq xizmati xodimlarining ayrimlarini xizmat vazifasiga nisbatan nomunosibligi, soliq xizmati ko'rsatish sifatining nisbatan pastligi, soliq tizimiga nisbatan asosli e'tirozlarning mavjudligi, ayrim davrlarda soliq qonunchiligining nobarqarorligi, soliq madaniyatining yetarli darajada emasligi va h.k. lar ana shular jumlasidandir. Shuning uchun ham «Uni (soliq tizimini - qayd bizniki T.M.) hali chinakamiga tashkil etishga to'g'ri keladi».

O'ninchi fikr: ***«Soliq xizmati faqat soliq to'plash idorasigina bo'lib qolmasdan, balki tadbirkorlarga ularning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda hamda moliya intizomiga rioya qilinishida ko'maklashishi kerak».***

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
- T.: "O'zbekiston", 1998. 49-bet)

Bizning nazarimizda, bu bildirilgan fikr eng avvalo, har bir soliq xizmati xodimining ko'z oldida turishi va doimo qulog'i ostida jaranglab turmog'i lozim. Ming afsuski, soliq xizmatini hozirgi paytda faqat soliq to'lovchilargina emas, balki soliq xizmati xodimlarining ko'pchiligi ham soliq to'plash idorasi sifatida talqin qiladilar. Ular tomonidan turli shakllarda amalga oshiriladigan xatti-harakatlar ham shunga mosdir. Holbuki, masalaning qolgan tomonlari aksariyat hollarda, soliq xizmati xodimlarining diqqat-e'tiboridan chetda qolmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, soliq xizmati tomonidan «soliq to'plash» vazifasining bajarilishi yoki qay darajada bajarili-

shu faqat shu bilan bog'liq bo'lgan ishlar bilan belgilanmaydi. Bu vazifaning bajarilishi soliq xizmati xodimlari tomonidan tadbirkorlarga ularning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda hamda moliya intizomiga rioya qilinishdagi ko'maklashuviga ham bevosita bog'liqdir.

Xolisona tan olaylik, hozirgi paytda moliyaviy faoliyatni tashkil etishda tadbirkorlarga ko'maklashuvga jonbozlik ko'rsatayotgan soliq xizmati xodimlarini har doim ham uchratavermaymiz.

To'g'ri, bu sohada ham ma'lum ishlar qilinayapti. Masalan, turli maslahatlar berishlar uyushtirilayapti, televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar amalga oshirilayapti. Lekin bu bilan biz: «Soliq xizmati xodimlari tadbirkorlarning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda ko'maklashayapti», - deyish uchun yetarli asosga ega emasmiz.

Tadbirkorlarning moliya intizomiga rioya qilishlarida ko'maklashuv masalasiga nisbatan ham xuddi shunday fikrni bildirish mumkin. Buning ustiga ayrim hollarda soliq xizmatining ayrim xodimlari bu masalaga nisbatan «kutuvchanlik pozitsiyasi»ni egallayotganlari ham hammaga ayon.

Xullas, har ikki holda ham bu masalalarga nisbatan soliq xizmati xodimlarining qiziquvchanligi yoki manfaatdorligining nihoyatda past darajada ekanligi ma'lum bo'ladi.

Bu yerda moliyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etish va moliyaviy intizomga qat'iy rioya qilish, eng avvalo, har bir tadbirkorning o'ziga tegishli masala ekanligini ham qayd etib o'tish lozim. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan bu masalalarga nisbatan soliq xizmati xodimlari passiv «tomoshabin» pozitsiyasini egallamasliklari kerak. Chunki tadbirkorlarning moliyaviy faoliyatini tashkil etish va ularning moliyaviy intizomga rioya qilish natijalaridan soliq xizmatining xodimlari ham manfaatdordirlar. Manfaatdor bo'lganda ham o'sha tadbirkorlardan kam bo'lmagan darajada manfaatdor ekanliklarini ular bilishlari kerak.

Bir tasavvur qilib ko'raylik, tadbirkorlar bilan soliq xizmati xodimlari bir yoqadan bosh chiqarib, o'z faoliyatlarini tashkil

qildilar-u, buning natijasida tadbirkorlarning moliyaviy faoliyati juda yaxshi tashkil qilindi va ular hisobot yili davomida moliyaviy intizomga qat'iy ravishda rioya qilishgan bo'lsin. Xo'sh, buning oqibatida nima bo'ladi? Shubhasizki, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, buning natijasida tadbirkorlar moliyaviy jihatdan baquvvatlashadilar, o'zlarining hamkorlari oldida ularning obro'si ortadi, ularga nisbatan ishonch yanada mustahkamlanadi, jamoaning kayfiyati yaxshilanadi, faoliyatning kelajagiga (istiqboliga) ishonch ortadi, ularning davlat (byudjet) oldidagi majburiyatlari o'z vaqtida ado etiladi, faqatgina tadbirkorning emas, balki davlatning (byudjetning) ham moliyaviy ahvoli mustahkamlanadi, ortiqcha tekshiruv yoki nazorat ishlarini amalga oshirishga ehtiyoj qolmaydi, katta miqdordagi mablag'lar iqtisod qilinadi, ulardan yanada oqilona foydalanishning imkoniyati vujudga keladi va h.k. Shunday ekan, «Soliq xizmati faqat soliq to'plash idorasigina bo'lib qolmasdan, balki tadbirkorlarga ularning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda hamda moliya intizomiga rioya qilishda ko'maklashishi kerak»ligi shubhasizdir.

O'n birinchi: ***«Muayyan byudjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishidir».***

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.

– T.: “O'zbekiston”, 1998. 361-bet)

Bu o'rinda hozirgi paytda soliq tizimini takomillashtirishning yo'nalishlaridan biriga e'tibor qaratilayapti va uning eng muhim yo'nalish ekanligi qayd etilayapti. Boshqa bir tomondan, respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida ma'lum bir chegara bo'lsa-da, uning yetarli darajada aniq emasligi ta'kidlanayapti.

Yuzaki qaraganda yoki bir tomonlama yondashilganda alohida olingan soliq turining respublika yoki mahalliy soliqlar(i)

tarkibiga kiritilishi prinsipial ahamiyatga ega emasdek ko'rinadi. Bu narsa, ayniqsa, soliq to'lovchi nuqtayi nazaridan qaralganda yaqqol seziladi. Haqiqatdan ham soliqni to'lash natijasida soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi uning ixtiyoridan majburiy ravishda (qonunga binoan) olib qo'yilgani uchun bu mablag'ning keyingi taqdiri uni qiziqitirmasligi, tabiiydek. «Mablag' mening ixtiyorimdan ketganidan keyin uning respublika byudjeti yoki mahalliy byudjetlarga borishi men uchun unchalik ahamiyatga ega emas», mazmunidagi fikrlar ham bildiriladi. Holbuki, soliqlarning mahalliy va respublika (davlat) soliqlariga bo'linishi hamda ularning shunga mos ravishda mahalliy va respublika byudjetiga borib tushishi oddiy soliq to'lovchilar o'ylaganidek unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan masala emas.

Aksincha, o'zining tarkibiy tuzilishiga ko'ra bir necha ma'muriy-hududiy bo'linmalardan tashkil topgan bizning mamlakatimiz uchun bu masala eng muhim masalalardan biridir. Chunki ana shu alohida-alohida olingan ma'muriy-hududiy bo'linmalarning bir-biriga mos ravishda rivojlantirish sur'atlari, ular o'rtasidagi mavjud nomutanosibliklarning barham etilishi, o'zaro rivojlanishlardagi uzilishlarga barham berilishi, ma'muriy-hududiy bo'linmalar o'rtasidagi mavjud tafovutlarning ma'lum darajada qisqarishi, mamlakat doirasida yagona moliyaviy siyosatning yurgizilishi, hududlar doirasida iqtisodiy rivojlanishdan manfaatdorlikning so'nmasligi va shu kabilar respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq va oqilona chegaraning o'tkazilishiga bevosita bog'liq.

O'n ikkinchi fikr: **«Soliq siyosatining vazifasi - bir tomondan, byudjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchi tomondan - korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat».**

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
– T.: "O'zbekiston", 1998. 52-bet).

Yuqorida bildirilgan fikrda soliq siyosati vazifasining iktiyozlamalik xarakteri yaqqol ko'rinib turibdi.

Bir tomondan soliq siyosatining vazifasi davlat byudjetini daromadlar bilan ta'minlash ekanligi ko'zda tutilayapti, ammo bu vazifa byudjetni daromadlar bilan oddiygina ta'minlashdan iborat emas. Bu yerda vazifaning byudjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan iboratligiga e'tibor qaratilayapti. Ta'kidlangan fikrning o'zagini «... barqaror safarbarligini ta'minlash ...»dan iborat bo'lgan iboralar tashkil etadi.

Soliq siyosatining amalga oshirilishi natijasida byudjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdek vazifaning bajarilishi prinsipial ahamiyatga ega. Bu vazifaning bajarilishi davlat moliyaviy ahvolidan mustahkamligidan dalolat beradi, davlat zimmasiga yuklangan majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishiga moliyaviy zamin yaratadi, byudjet sohasini uzluksiz moliyalashtirishda muammolar paydo bo'lmaydi, davlat o'zining funksiyalarini to'liq va o'z vaqtida bajarish imkoniga ega bo'ladi va h.k. Aksincha, soliq siyosatini amalga oshirish natijasida byudjet daromadlarining barqaror safarbarligini ta'minlash vazifasining bajarilmasligi juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligi shundoq ham ayon.

Ikkinchi tomondan, soliq siyosati korxonalarni respublikamiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi ham kerak. Bu yerda gap soliq siyosatini amalga oshirish natijasida, eng avvalo, respublikamiz ichki bozorining ehtiyojlarini to'laroq qondirish haqida ketayapti. Haqiqatdan ham soliq siyosati ana shu ehtiyojni to'laroq qondirishga xizmat qilishi kerak. Undan tashqari soliq siyosati umumiy tarzda korxonalarni mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirmasdan, balki ularni respublikamiz uchun zarur bo'lgan yoki respublikamizdagi talabga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi kerak.

Bu yerdagi soliq siyosatining oldiga qo'yilgan har ikki vazifadan birining bajarilish darajasini ikkinchisiz tasav-

vur etib bo'lmaydi. Bu yerda vazifalardan birini birinchi darajali, ikkinchisini esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega deb tasavvur qilish maqsadga muvofiq emas. Har ikkala vazifaga bab-baravar, bir ko'z bilan qaramoq lozim. Bular parallel yo'nalishga va teng kuchga ega bo'lgan vazifalardir.

O'n uchinchi fikr: ***«Mustaqil moliyaviy siyosatni respublikaning byudjet tizimini mustahkamlash, byudjet daromadlarini to'ldirishni ta'minlaydigan va amaliy faol-likni rag'batlantiradigan izchil soliqlik siyosatini o'tkazish... ...yo'li bilan shakllantirish mo'ljallanmoqda».***

(Karimov I.A. - O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura - T.: "O'zbekiston" 1996. 349-bet).

Bu fikrdan kelib chiqadigan dastlabki xulosa soliqlik siyosati moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi ekanligidir. Moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi ko'p jihatdan soliqlik siyosatining muvaffaqiyatiga bog'liq. Shuning uchun ham bu yerda haqli ravishda mamlakatimizda mustaqil moliyaviy siyosatni «soliqlik siyosatini o'tkazish ... yo'li bilan shakllantirish mo'ljallanmoqda», - degan fikr bildirilmoqda. Bir vaqtning o'zida mustaqil moliyaviy siyosatni amalga oshirishda soliqlik siyosatining oldiga qo'yilishi lozim bo'lgan vazifalar ham shu joyning o'zida o'z aksini topgan. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- respublikaning byudjet tizimini mustahkamlash;
- byudjet daromadlarini to'ldirishni ta'minlash;
- amaliy faollikni rag'batlantirish.

Agar yurgizilayotgan soliqlik siyosati ana shu uch vazifani bajarish imkonini bersa, uni sira ikkilanmasdan izchil soliqlik siyosati deb hisoblash va u mustaqil moliyaviy siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qayd etish mumkin.

O'n to'rtinchi: **«Byudjetning daromad qismini kengaytirishning asosini iqtisodiy vaziyatni umumiy ravishda sog'lomlashtirish tashkil etishi lozim».**

(Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura - T.: "O'zbekiston", 1996. 349-bet).

Ushbu fikr respublikamiz soliq siyosatining mazmunini belgilab berishda alohida o'rin egallaydi. Dastlab, bu yerda byudjetning daromad qismini kengaytirish kerak ekanligini anglab olish uncha murakkab emas. Byudjetning daromad qismini kengaytirishning bir necha yo'llari mavjud. Ulardan biri soliq stavkalarini yuqoriga ko'tarishdir. Lekin bu yo'l bizning sharoitimizda maqbul emasligini yuqoridagi fikrlar yaqqol ko'rsatib turibdi. Aksincha, byudjetning daromad qismini kengaytirishning asosini iqtisodiy vaziyatni sog'lomlashtirish tashkil etishi kerakligi ta'kidlanayapti. Albatta, iqtisodiy vaziyatni sog'lomlashtirish oson ish emas. Lekin bizning oldimizda byudjetning daromad qismini kengaytirishning o'zga maqbul varianti yo'q. Buni har bir soliq to'lovchi to'g'ri anglab olmog'i lozim.

Iqtisodiy vaziyatning umumiy ravishda sog'lomlashganligi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining faollashganligidan, resurslardan oqilona va samarali foydalanilayotganligidan, manfaatlar mushtarakligiga erishilganligidan, kam xarajat qilinib ko'p samara olinayotganligidan va h.k.lardan dalolat beradi. Bularning barchasi oqibat-natijada soliqqa tortiladigan obyekt hajmining ko'payishiga (ortishiga) olib keladi. Soliqqa tortiladigan obyekt hajmining ko'payishi esa o'z navbatida, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda byudjetning daromad qismining kengayganligidan dalolatdir.

O'n beshinchi fikr: **«Yangi soliq siyosati doirasi-da soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol-mulk solig'ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yiladi».**

(Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
- T.: "O'zbekiston", 1998. 361-bet)

Bildirilgan bu fikrni tahlil qilish yangi soliq siyosati doirasida uch muhim vazifaning kun tartibiga qo'yilayotganligidan dalolat beradi.

1. Soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish.

Yangi soliq siyosati doirasida dastlabki vazifaning bu tarzda qo'yilishi amaldagi soliq tushumlarining tarkibi hozirgi davrning talablariga yetarli darajada to'liq javob bera olmayotganligini ko'rsatayapti. Soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish bir tomondan, ularning ayrimlaridan butunlay voz kechishni va yangilarini joriy etishni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, saqlanib qolishi mo'ljallanilayotgan soliq tushumlarining o'zaro nisbatini, o'zaro proporsiyasini ancha o'zgartirishni ham talab qiladi.

2. Resurslar, mol-mulk solig'ining rolini oshirish.

Qo'yilgan bu vazifa birinchi vazifaning mantiqiy davomi hisoblanadi. Chunki resurslar va mol-mulk solig'ining rolini oshirish sari yuz tutish, o'z navbatida, soliq tushumlari tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Boshqa bir tomondan resurslar va mol-mulk solig'ining rolini oshirish to'g'risida aniq vazifa belgilangan ekan, bu narsa bizning sharoitimizda hamon resurslar va mol-mulkdan yetarli darajada samarali va oqilona foydalanib kelinma-yotganligini bildiradi. Bu yerda resurslar va mol-mulk solig'ining rolini oshirishdan ko'zlangan maqsad ana shu soliqlar yordamida ulardan samarali va oqilona foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir.

3. Jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish.

Yangi soliq siyosati doirasida bu vazifaning qo'yilishi jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mexanizmida bir necha juz'iy kamchiliklarning borligi, amaldagi soliqqa tortish mexanizmi jismoniy shaxslarning faollik darajasini oshirishga yetarli darajada ta'sir ko'rsatmayotganligi, bu mexanizmni davr talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirishning zarurligi bilan belgilanadi. Gap bu yerda jismoniy shaxslar daromadlarining ortib borishi bilan to'lanadigan soliq summalarining ham ortib borishi to'g'risida emas, balki ulardan soliq undirishning ilg'or tizimini joriy etish to'g'risi-

da ketayapti. Bu ilg'or tizimning joriy etilishi jismoniy shaxslar va byudjetning manfaatlariga baravar mos kelishi, jismoniy shaxslarning mehnat faoliyatini faollashtirish va o'z mehnatlarining natijalaridan manfaatdorligini oshirishga olib kelmog'i lozim.

O'n oltinchi fikr: **«Moliyaviy ahvol qanchalik murakkab bo'lsin, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun zarur mablag' qidirib topilishi shart».**

(Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.
– T.: “O'zbekiston”, 1996. 143-bet)

Keltirilgan bu fikrda «byudjet-soliq siyosati» deb nomlangan ibora ishlatilmagan bo'lishiga qaramasdan u bevosita byudjet-soliq siyosati bilan bog'liqdir, undan byudjet-soliq siyosatiga tegishli bo'lgan «hid» kelib turibdi. Chunki bu yerda gap zarur mablag'ni qidirib topish to'g'risida ketayapti. Zarur mablag'ni alohida olingan davlat doirasida qidirib topishni esa faol va samarali byudjet-soliq siyosatini yurgizmasdan turib topishning iloji yo'q. Zarur bo'lgan mablag'ning miqdori bu yerda ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat sohasini qo'llab-quvvatlashgagina yetarli bo'lib qolmasdan, balki bu mablag'lar ularni rivojlantirish imkonini ham berishi kerak.

Yuqoridagi sohalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning qidirib topilishini moliyaviy ahvolning og'irligiga yoki uning murakkabligiga bog'liq bo'lmagan masalalar sifatida qaralayapti. Moliyaviy ahvolning murakkabligi to'g'risidagi fikr bu yerda faqat davlatning moliyaviy ahvoliga tegishli bo'lmagan, balki barcha soliq to'lovchilarga ham tegishlidir. Vazifaning yuqoridagi tarzda qo'yilishi soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yuklamasining og'irlashuviga olib keladi. Soliq to'lovchilar soliq yuklamasi og'irlashuvining sabablaridan biri moliyaviy ahvol qanchalik murakkab bo'lishiga qaramasdan mablag'lar bir qismining ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat sohasini

qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun sarflanayotganligini va bu narsa hayotga tatbiq etilayotgan soliq siyosatida o'z ifodasini topayotganligini to'g'ri idrok etmoqlari lozim.

O'n ettinchi fikr: «O'zbekistonning bu boradagi siyosati boshqacha, ya'ni bizlarda juda katta boylar ham bo'lmaydi va mutlaqo qashshoqlar ham bo'lmaydi. Mana shu siyosatni biz ushlab turamiz. Ya'ni soliq siyosati hisobidan ijtimoiy nochor aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga e'tiborni biror daqiqa ham susaytirmayapmiz».

(Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: "O'zbekiston", 1999. 9-bet)

Bildirilgan bu fikrning quyidagi jihatlariga alohida e'tibor bermoq lozim:

- davlatimizning o'z fuqarolari taqdiriga befarq qaramasligi yana bir marta ochiq-oydin aytilayapti. Lekin bu yerda gap boylarning va qashshoqlarning umuman bo'lmasligi to'g'risida ketayotgani yo'q. Bu sohadagi siyosatning yurgizilishi boylarning va katta boylarning bo'lishiga hamda juda katta boylarning bo'lmasligiga, qashshoqlarning bo'lishiga hamda mutlaqo qashshoqlarning bo'lmasligiga imkon berishi kerak. Aks holda «Boylar ham, qashshoqlar ham bo'lmas ekan» qabilida xulosaga kelinsa, bu narsa tadbirkorlik faoliyatini so'ndirishga, boqimandalik kayfiyatining mustahkam o'rnashib olishiga olib kelishi mumkinki, bularning barchasi bozor iqtisodiyotining tegishli tamoyillariga mutlaqo ziddir;
- kuchli ijtimoiy himoya siyosatini soliq siyosatisiz amalga oshirishning iloji yo'qligi qayd etilayapti. Ana shunday ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlarning barchasi («Ijtimoiy himoyaga muhtoj emasman», - deguvchilar kamdan-kam topiladi) soliq yuklamasining biroz og'irligiga bardosh berishlari kerak. Undan tashqari, yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqqan holda soliq siyosatining yurgizilishi ijtimoiy nochor bo'lmagan aholi qatlamlarida soliq yuklamasining «anchagi-

na» og'ir bo'lishini taqozo etayotganligini ular ham bilishlari lozim;

- ijtimoiy nochor aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutib yurgizilayotgan soliq siyosati jamiyat a'zolari-ning keskin tabaqalashuviga, aholi daromadlarining asossiz o'sishiga olib kelmasligi lozim. Bu narsa biz tomonimizdan shunday siyosatni doimo ushlab turishni va unga nisbatan e'tiborni biror daqika ham susaytirmaslikni taqozo etadi.

O'n sakkizinchi fikr: ***“Soliqlar qanchalik past darajada bo'lmasin, hech kimga, hech qachon va hech qayerda yoqqan emas. Muhimi, soliqlar asosli, barqaror, moslashuvchan bo'lishi, mahsulot ishlab chiqaruvchining qo'lini bog'lab qo'ymasligi, aksincha, uni rag'batlantirishi zarur. Soliqlar korxonalarining tadbirkorligini har tomonlama rag'batlantirishi lozim”.***

(Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo'limiz. // Xalq so'zi, 2002 yil 15 fevral)

Bu keltirilgan fikr ustida mulohaza yuritib, byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishda prinsipial ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan bir necha xulosalarni chiqarish mumkin. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- soliq siyosati ishlab chiqilayotgan paytda bu siyosatning soliq to'lovchilarga yoqishi yoki yoqmasligi masalasi oldingi o'ringa turmasligi kerak. Chunki yuqorida qayd etilganidek, “Soliqlar qanchalik past darajada bo'lmasin, hech kimga, hech qachon va hech qayerda yoqqan emas”. Bunday fikr bekordan-bekorga bildirilmayapti. Uning ilmiy-nazariy, amaliy va hayotiy asosi bor. Bu asos soliqlarning majburiy xarakterga ega ekanligi bilan belgilanadi. Haqiqatdan ham u yoki bu narsaning kimgadir (soliq to'lovchilarga) ma'qul kelishini yoki yoqishi mumkinligini avvalo, uning ixtiyoriyligi belgilab beradi. Aks holda, ma'qul kelish yoki yoqish to'g'risida gapirish o'rinsizdir;

- soliq siyosati takomillashtirilayotgan paytda soliqlarning “...asosli, barqaror, moslashuvchan bo‘lishi... zarur”ligiga jiddiy e’tibor bermoq lozim. Bu narsalar qolaversa, soliq siyosatini takomillashtirishda eng muhim narsa sifatida e’tirof etilmog‘i kerak. Ko‘pchilik hollarda soliq siyosatining muvaffaqiyatini ham shular belgilab beradi;

- “...soliqlar... ..mahsulot ishlab chiqaruvchining qo‘lini bog‘lab qo‘ymasligi, aksincha, uni rag‘batlantirishi... ..zarur” degan g‘oya soliq siyosatini takomillashtirishning markaziy o‘rinlaridan birida turishi kerak;

- va nihoyat, soliq siyosatini takomillashtirish masalalari kun tartibiga qo‘yilayotgan paytda “soliqlar korxonalarning tadbirkorligini har tomonlama rag‘batlantirishi lozim”ligi e’tibordan chetda qolmasligi zarur. Shuningdek, bu yerda soliqlar yordamida umuman rag‘batlantirish to‘g‘risida gap ketayotgani yo‘qligini qayd etib o‘tish lozim. “Soliqlar korxonalarning faoliyatini rag‘batlantirishi kerak” degan fikr ham bildirilmayapti. Aksincha, bu yerda gap “korxonalarning tadbirkorligini” rag‘batlantirish xususida ketayapti¹⁶¹.

O‘n to‘qqizinchi fikr: ***“Biz bundan buyon ham soliqlar miqdorini kamaytirish siyosatini izchillik bilan olib borishimiz kerak. Ayni vaqtda soliqlarning rag‘batlantiruvchi roli oshib borishi, bu jarayon ayniqsa, tabiiy va mineral-xomashyo resurslaridan foydalanish borasida kuchayishi kerak”.***

(Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish
– bosh yo‘limiz. // Xalq so‘zi, 2002-yil 15-fevral).

Bu bildirilgan fikrda, oddiy tarzda, soliq siyosatining oldin qay tomonga yo‘naltirilganligi va keyin qay tomonga yo‘naltirilishi lozimligi o‘z aksini topgan. O‘z navbatida, “... soliqlar miqdorini kamaytirish siyosati...” soliq yuklamasi-

¹⁶¹ “Korxonalarning faoliyati” va “korxonalarning tadbirkorligi” o‘rtasidagi farqlarni ko‘ra olasizmi? Ular nimalardan iborat?

ning yengillashtirilishiga olib keladi. Shuningdek, soliq siyosatida soliqlar ragʻbatlantiruvchi rolining oshib borishiga alohida eʼtibor bermoq lozim. Biroq bu yerda uning oʻziga xos boʻlgan xarakterli xususiyati shundan iboratki, soliqlarning ragʻbatlantiruvchilik rolini oshirish “...tabiiy va mineral-xo-mashyo resurslaridan foydalanish borasida kuchayishi kerak”.

Yigirmanchi fikr: ***“Prinsipial muhim ustuvor vazifalardan biri – soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir. ...ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatini takomillashtirish bilan bevosita bogʻliq. Busiz hech qanday vazifani hal etib boʻlmaydi”.***

(Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.

// Xalq soʻzi, 2005-yil 29-yanvar)

Bu bildirilgan fikrda soliq siyosati va uni takomillashtirishga nisbatan quyidagi bir necha gʻoyalar ilgari surilmoqda:

- soliq siyosatini yanada takomillashtirish mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor vazifasi sifatida eʼtirof etilgan. Bu narsa eʼtirof etilganda ham oddiy tarzda emas, balki “prinsipial muhim ustuvor vazifa” sifatida qayd etilgan;
- soliq siyosatini takomillashtirishning roliga oʻziga xos tarzda baho berilib, ustuvor vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishini taʼminlashda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati koʻrsatilgan va bu narsa “...ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatini takomillashtirish bilan bevosita bogʻliq” tarzida ifodalangan. Shu oʻrinda hozirgi paytda mamlakatimiz taraqqiyoti oldida turgan ustuvor vazifalarning aniq koʻrinishlari¹⁶² nimalardan iborat ekanligidan ogoh boʻlsak, soliq siyosatini takomillashtirishning bu jarayondagi roli yanada yaqqolroq namoyon boʻladi;

¹⁶² Ular nimalardan iborat edi oʻzi?!

- bu yerda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti tomonidan “busiz hech qanday vazifani hal etib bo‘lmaydi”, degan fikr bildirilganda uni faqat ustuvor vazifalarning bajarilishi bilan bog‘lab qo‘ymaslik kerak. Aslida, tom ma’no-da ham soliqlarsiz va soliq siyosatini takomillashtirmasdan turib jamiyatimiz oldida turgan har qanday vazifani ham o‘z vaqtida va muvaffaqiyatli bajarishning iloji yo‘q.

Yigirma birinchi fikr: ***“Soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan foydalanish o‘ta muhim ahamiyatga ega”.***

(Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. // Xalq so‘zi, 2005 yil 29 yanvar)

Bu o‘rinda soliqqa tortish masalasida eng avvalo, quyidagi ikki holatga alohida e‘tibor berish kerakligi ta’kidlanayapti:

- amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish;
- boshqa mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan foydalanish.

Biroq bu tarzdagi fikrlar bildirilishining negizida boshqa muhim holatlar, yashirin tarzda yotgan bo‘lishiga qaramasdan ham o‘z aksini topgan. Gap bu yerda shuningdek, soliqqa tortish masalasining nihoyatda murakkabligi va qat’lisligini hisobga olgan holda tavakkalchilikka yo‘l qo‘yishning maqsadga muvofiq emasligi, bu masalaga nisbatan o‘zgartirishlar kiritishdan oldin amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlar avvalroq ishlab chiqilishining zarurligi xususida ketayapti. Buning muhimligi shundan iboratki, byudjet-soliq siyosati, jumladan, uning ajralmas qismi hisoblangan soliq siyosatining muvaffaqiyatini aslida bu sohada qilingan o‘zgarishlarning amaliyotda sinalgan prinsiplar va yondashuvlarga qay darajada muvofiq kelishi belgilab beradi. Agar qilingan o‘zgarishlar ana shu prinsiplar va yon-

dashuvlarga to'g'ri kelsa, ularning muvaffaqiyat qozonishi muqarrar va aksincha.

Soliqqa tortish masalasida boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bu narsa ayniqsa, bizning sharoitimizda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki soliqqa tortish masalalari bizning mamlakatimizda asosan, keyingi 20 yil davomida muhokama qilib kelinayotgan bo'lsa, aslida bu masalalar bir necha 100 yillik tarixga ega. Ilk markazlashgan davlatlar tashkil topgandan buyon uning ahamiyati yanada ortib borgan. Bu boradagi juda ko'p masalalar allaqachon o'zining oqilona yechimini topgan. Shu ma'noda bizning sharoitimizda soliqqa tortishning juda ko'p masalalarini "sinab ko'rish", "eksperiment o'tkazish" yoki "tajriba qilib ko'rish" orqali hal qilish maqsadga muvofiq emas. O'rni kelganda ayrim soliqqa tortish masalalarida "biz bu masalani o'zgacha hal qilamiz", "bu masalada bizning o'z yo'limiz bor" yoki "biz boshqa yo'ldan boramiz" qabilidagi qarorlar ham hayotda o'zini oqlamay qoladi. Biroq bu narsa xorijiy mamlakatlarning soliqqa tortish borasidagi ilg'or tajribalari O'zbekistonga avtomatik tarzda o'tkazilishi kerak, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki har bir mamlakatning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari soliqqa tortish masalalarida, albatta, o'z "iz"ini qoldirishi tabiiy. Shu munosabat bilan bu o'rinda soliqqa tortishga doir xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan har bir mamlakatning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanmoq lozimligini ta'kidlab o'tmoq joiz.

Yigirma ikkinchi fikr: *"Bugun hayotning o'zi soliqlar adresli bo'lishini taqozo etmoqda. Soliq to'lovchi nima uchun va qancha soliq to'lashi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i darkor"*.

(Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. // Xalq so'zi, 2005 yil 29 yanvar).

Soliqlarning “adresli bo‘lishi” ularni joriy etishdan maqsadning nima ekanligini yanada konkretlashtirish oqibatidir. Bugungi kunda “Soliqlar, asosan, ikki maqsadda, ya’ni bir tomondan, byudjet daromadlarini shakllantirish va ikkinchi tomondan, tegishli faoliyatni tartibga solish (rag‘batlantirish) maqsadida joriy etiladi” deyishning o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi.

Xuddi shuningdek, “Soliq summolari umumiy “qozon”ga (byudjetga) borib tushadi va shunga muvofiq ravishda sarflanadi” degan fikr ham ancha eskirib qoldi. Soliq to‘lovchi uchun to‘lanayotgan soliq summalarining byudjetga borib tushishini bilish endi yetarli emas. Uni “Undan so‘ng nima bo‘ladi?” degan savolning javobi ko‘proq qiziqtirayapti. Ana shu “undan so‘ng” nima bo‘lishini aniq bilgan va uning maqsadga muvofiq ekanligiga ishongan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq summalarini byudjetga o‘tkazish borasida muammolar kelib chiqmayapti. Aksincha, “undan so‘ng” nima bo‘lishini aniq bilmaydigan soliq to‘lovchilar oldida “Nega to‘lashim kerak?” degan savol ko‘ndalang turibdi. Savolning aniq yoki ishonchli javobiga ega bo‘lmaganlar soliq summalarini iloji boricha kamroq to‘lash imkoniyatlarini qidirib topishga harakat qilayaptilar va buning uddasidan chiqayaptilar ham. Buni ham hayotning o‘zi taqozo etayapti.

Ana shunday vaziyatda Prezidentimiz tomonidan masalaning “Soliq to‘lovchi nima uchun va qancha soliq to‘lashi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmog‘i darkor” tarzida yana bir marta kun tartibiga qo‘yilayotganligi bejiz emas, albatta. Haqiqatdan ham soliq to‘lovchilar nima uchun va qancha soliq to‘lashlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lsalar hamda uning maqsadga muvofiq ekanligi xususida qat’iy ishonsalar, byudjet-soliq siyosatidagi mavjud ancha muammolar allaqachon o‘zining yechimini topgan bo‘lur edi.

Yigirma to‘rtinchi fikr: **“Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida ham tub o‘zgarishlarni amalga oshirish zarur. Bu idoralarning bosh vazifasi soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta’minlashgi-**

na emas, balki eng muhimi, soliqqa oid jinoyatlarning oldini olish maqsadida soliq to'lovchilarga yordam berish va ularning bu boradagi bilimlarini oshirishga ko'maklashish, ular bilan muntazam ish olib borishdan iborat".

(Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. // Xalq so'zi, 2005 yil 29 yanvar).

Bu bildirilgan fikrdan quyidagi mantiqiy xulosalarni chiqarish mumkin:

- soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida muammolar mavjud, ular oxirigacha muvaffaqiyatli hal etilma-gan, shu bois bu tizimda tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarur;
- soliq organlari idoralarining bosh vazifasi faqat soliq-larning byudjetga o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlash-dan iborat emas. Ularning vazifasini ana shu tarzda idrok etish amaliyotiga chek qo'yish darkor;
- soliq idoralari soliqqa oid jinoyatlarning oldini olish maqsadida soliq to'lovchilarga yordam berishi va ularning bu boradagi bilimlarini oshirishga ko'maklashishi lozim. Haqiqat-dan ham bugungi kunda soliq organlari tomonidan soliqqa oid jinoyatlarning sodir etilganini qayd etish, bular natijasida davlatga yetkazilgan zararni aniqlash va uni qoplash (undi-rish) borasida ishlarni amalga oshirishdan ko'ra ular tomoni-dan soliqqa oid jinoyatlarning oldini olish maqsadida soliq to'lovchilarga yordam berish va ularning bu boradagi bilimla-rini oshirishga ko'maklashishning har tomonlama afzal ekan-ligini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatmoqda;
- soliq organlari soliq to'lovchilar bilan muntazam ra-vishda yetarli darajada ish olib bormayaptilar. Holbuki, amalda bu ishni yetarli darajada olib borishlari kerak. Bu yerda "muntazam" so'zining zamirida nima yotganligiga jid-diy e'tibor berish va unga to'liq erishishga harakat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yigirma beshinchi fikr: ***“Dastur doirasida¹⁶³ amalga oshirilgan yana bir muhim tadbirimiz – soliqlar yuklamasini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir”.***

(Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O'zbekiston”, 2010. 41-bet).

Bu bildirilgan fikrning zamirida nimalar yotibdi? Unda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq yuklamasini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qanday choralarning ko'rilganligi nazarda tutilayapti? Bu savollarga javob bermoq uchun:

- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham mamlakatimiz xo'jalik subyektlariga keng ko'lamli qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berish davom ettirilganligi;

- yengil va oziq-ovqat sanoatining iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun daromad solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlarning yaratilganligi;

- uy-joy qurilish va rekonstruksiya qilish bo'yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlarining 5 yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod etilganligi;

- korxonalar muassislarning kapitallashuv va investitsiya kiritishga yo'naltiriladigan dividendlarining 5 yil davomida soliqqa tortilmasligi;

- Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish doirasida soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish hisobidan 500 mlrd so'mdan ortiq mablag'larning xo'jalik yurituvchi subyektlar tasarrufida qoldirilganligi va ularning aylanma mablag'larni to'ldirish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash,

¹⁶³ Bu yerda 2009-2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi nazarda tutilmoqda.

yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish, ishchilarni moddiy rag'batlantirish uchun yo'naltirilganligi¹⁶⁴ bilan xarakterlanadigan obyektiv realliklarga e'tibor bermoq lozim.

Hozirgi paytda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) asosan, ana shulardan iborat. Ularni e'tiborga olgan holda va ular doirasida amalga oshirilgan byudjet-soliq siyosati muvaffaqiyatli ravishda bizni buyuk kelajak sari yetaklayveradi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun qo'shimcha savollar

- Byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari)ni belgilashda buyuk bobokalonimiz Amir Temurning xizmatlari qanday? Bu borada ul zotning qanday fikrlaridan boxabarsiz? Ularni sharhlay olasizmi? Amir Temurning bundan bir necha asr burun bildirgan bu fikrlari "eskirib" qolmadimikan? "Eskirmagan"ligini isbotlab bera olasizmi? Ulardan hanuz foydalanib kelinayotganligini qanday dalillar tasdiqlaydi? Sohobqiron Amir Temur tomonidan aytilgan bu fikrlarni byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari), deb atashga nimalar asos bo'lishi mumkin?

- "...raiyatdan xiroj yig'ishda uni og'ir ahvolga tushirib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoq qilib qo'yishdan saqlanmoq zarur, chunki raiyatni xonavayron qilish xazinaning g'ariblashuviga olib keladi. Xazinaning g'ariblashib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqalib ketishi o'z navbatida saltanatning zaiflashishiga olib keladi". Jahongir Amir Temurning bu fikridan byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari)ga bevosita daxldor va hozirgi davrimiz nuqtayi nazaridan ham prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan qanday xulosalarni chiqarish mumkin? Bobomizning bu fikrida qanday mantiqiy bog'lanish mavjud?

- "... kimda-kim biror sahroni obod qilsa yoki koriz (yer ostidan qurilgan ariq) qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud

¹⁶⁴ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston", 2010. 41-bet.

biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa) qonun-qoidaga muvofiq xiroj olsinlar". Bobomiz sohibqiron Amir Temurning keltirilgan bu fikrida soliq imtiyozini qay tartibda taqdim etishning maqsadga muvofiqligi o'z aksini topmaganmi? Buning ustiga jahongir Amir Temurning yuqoridagi fikrida hozirgi sharoitda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) sifatida e'tirof etilishi lozim bo'lgan yana qanday bir g'oya bor?

- Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning zamonaviy byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari)ni belgilashdagi xizmatlari nimalardan iborat? Prezidentimizning ana shu masalaga bevosita daxldor bo'lgan qanday fikrlarini bilasiz? Ularni mustaqil izohlashga qodirmisiz? Bir urinib ko'ring-chi?!

- Sohibqiron Amir Temur va Prezident I.A.Karimovlarning byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) borasidagi qarashlarida umumiylik, o'xshashlik, bir-birini to'ldiruvchanlik, davomiylik jihatlari bormi? Ularni topish niyatida astoydil bir qidirib ko'ring-chi, topa olasizmi?!

- Birinchi Prezidentimiz «Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi», degan fikrni bildirayapti. Nega? Buning sabablari nimalardan iborat?

- «Soliqlar xazinani to'ldirish siyosatining asosiy usuri bo'lib, davlat byudjetining daromad qismi eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashi lozim», deb mamlakatimiz rahbari bu yerda qanday ikki asosiy g'oyani ilgari surilayapti?

- «Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bir tomondan, xodimlarni o'z mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga rag'batlantirishi, ikkinchi tomondan, ish haqi darajasi sarflangan mehnat samarasiga mutanosib bo'lishga yordam ko'rsatishi, mehnatkashlarning daromad-

laridagi tafovut asossiz ravishda katta bo'lishiga olib kelmasligi lozim». Sinchkovlik bilan e'tibor beringchi, bu yerda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar oldiga aslida qanday uch murakkab vazifaning qo'yilganligi ma'lum bo'ladi?

- «Korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasining yengillashtirilishi, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining kamaytirilishi oqibat natijada ishlab chiqarishni jonlashtirishga olib kelishi lozimki, bu narsa iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini hal etishda g'oyat katta ahamiyatga ega». Fikrda bildirilgan tadbirlarning (soliq yuklamasining yengillashtirilishi, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining kamaytirilishi) amalga oshirilishi o'zining ma'lum bir chegarasiga ega ekanligi qayd etib o'tilmayaptimi?

- «Avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani - fiskal (xazina to'ldirish), qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak». Bu yerda soliq tizimining oldiga o'ziga xos uch vazifaning qo'yilishi kerakligi ko'rsatilmaganmi? Nega ular bunday ketma-ketlikda keltirilgan?

- «Soliq tizimining eng muhim vazifasi - ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir». Birinchi Prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikrni o'qib, o'quvchida «Bu fikr oldingi fikrga zid emasmikan?», - degan tasavvur tug'ilmaydimi? Nega? Ma'lum bir belgilarni inobatga oladigan bo'lsak, bu yerda soliq tizimining oldiga qo'yilgan rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim vazifalarni qanday guruhlariga bo'lish mumkin?

- «Soliq tizimini o'zgartirishda asos qilib olingan bosh tamoyil - korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasini keskin kamaytirishdir». Soliq yuklamasi masalasiga munosabat xilma-xil yoki rang-barang bo'lib turgan bir paytda yurt-boshimiz tomonidan yuqoridagi fikrning bildirilishi muammoning javobiga ancha oydinlik, aniqlik kiritadimi? Undan qanday xulosalar kelib chiqadi?

- «Islohotning ikkinchi bosqichida iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash birinchi navbatdagi

vazifaga aylangan chogʻda soliq tizimi birinchi galda ragʻbatlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak». Bunday fikrni bildirishning asosida nimalar yotadi?

- «Soliq tizimi ham bozor infrastrukturasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uni hali chinakamiga tashkil etishga toʻgʻri keladi». Bu bildirilgan fikrni qanday izohlaysiz?

- «Soliq xizmati faqat soliq toʻplash idorasigina boʻlib qolmasdan, balki tadbirkorlarga ularning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda hamda moliya intizomiga rioya qilinishida koʻmaklashishi kerak». Nega bunday fikr bildirilayapti? Qoʻyilgan vazifaning uddalanishi qanday natijalarga olib kelishi mumkin?

- «Muayyan byudjetlarni shakllantirish manbalari boʻlgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar oʻrtasida aniq chegara oʻtkazish soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yoʻnalishidir». Nega? Bu oʻrinda nimalar nazarda tutilayapti?

- «Soliq siyosatining vazifasi – bir tomondan, byudjet daromadining barqaror safarbarligini taʼminlashdan, ikkinchi tomondan - korxonalarni respublika uchun zarur boʻlgan mahsulotlar ishlab chiqarishni koʻpaytirishga ragʻbatlantirishdan iborat». Bu bildirilgan fikrda soliq siyosati vazifasining qanday xarakteri yaqqol koʻrinib turibdi? Ularning asosiy mazmuni nimalardan iborat?

- «Mustaqil moliyaviy siyosatni respublikaning byudjet tizimini mustahkamlash, byudjet daromadlarini toʻldirishni taʼminlaydigan va amaliy faollikni ragʻbatlantiradigan izchil soliq siyosatini oʻtkazish... ..yoʻli bilan shakllantirish moʻljallanmoqda». Bu fikrdan kelib chiqadigan dastlabki xulosa nima? Bu fikrda mustaqil moliyaviy siyosatni amalga oshirishda soliq siyosatining oldiga qoʻyilishi lozim boʻlgan vazifalar oʻz aksini topganmi?

- «Byudjetning daromad qismini kengaytirishning asosini iqtisodiy vaziyatni umumiy ravishda sogʻlomlashtirish tashkil etishi lozim». Ushbu fikr respublikamiz soliq siyosatining mazmunini belgilab berishda qanday oʻrin egallaydi?

- «Yangi soliq siyosati doirasida soliq tushumlari tarkibini tubdan oʻzgartirish, resurslar, mol-mulk soligʻining rolini

oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yiladi». Bu fikrda yangi soliq siyosati doirasida qanday muhim vazifalarning kun tartibiga qo'yilayotganligi mujassam etilgan?

- «Moliyaviy ahvol qanchalik murakkab bo'lmasin, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun zarur mablag' qidirib topilishi shart». Bu fikr bevosita byudjet-soliq siyosati bilan bog'liqmi? Undan byudjet-soliq siyosatiga tegishli bo'lgan qanday «hid» kelib turibdi?

- «O'zbekistonning bu boradagi siyosati boshqacha, ya'ni bizlarda juda katta boylar ham bo'lmaydi va mutlaqo qashshoqlar ham bo'lmaydi. Mana shu siyosatni biz ushlab turamiz. Ya'ni soliq siyosati hisobidan ijtimoiy nochor aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga e'tiborni biror daqiqa ham susaytirmayapmiz». Bildirilgan bu fikrning qanday jihatlari-ga alohida e'tibor bermoq lozim?

- “Soliqlar qanchalik past darajada bo'lmasin hech kimga, hech qachon va hech qayerda yoqqan emas. Muhimi, soliqlar asosli, barqaror, moslashuvchan bo'lishi, mahsulot ishlab chiqaruvchining qo'lini bog'lab qo'ymasligi, aksincha, uni rag'batlantirishi zarur. Soliqlar korxonalarning tadbirkorligini har tomonlama rag'batlantirishi lozim”. Bu keltirilgan fikr ustida mulohaza yuritib, byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishda prinsipial ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan qanday xulosalarni chiqarish mumkin?

- “Biz bundan buyon ham soliqlar miqdorini kamaytirish siyosatini izchillik bilan olib borishimiz kerak. Ayni vaqtda soliqlarning rag'batlantiruvchi roli oshib borishi, bu jarayon, ayniqsa, tabiiy va mineral-xomashyo resurslaridan foydalanish borasida kuchayishi kerak”. Bu bildirilgan fikrda oddiy tarzda soliq siyosatining oldin qay tomonga yo'naltirilganligi va keyin qay tomonga yo'naltirilishi lozimligi o'z aksini topganmi? Bu nimalarda ko'rinadi?

- “Prinsipial muhim ustuvor vazifalardan biri – soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir. ...ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Busiz hech qanday vazifani hal etib bo'lmaydi”. Bu

bildirilgan fikrda soliq siyosati va uni takomillashtirishga nisbatan qanday bir necha g'oyalar ilgari surilmoqda?

- “Soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish o'ta muhim ahamiyatga ega”. Bu o'rinda soliqqa tortish masalasida eng avvalo, qanday ikki holatga alohida e'tibor berish kerakligi ta'kidlanayapti? Shuningdek, bu tarzda fikrlar bildirilishining negizida boshqa muhim holatlar yashirin tarzda yotgan bo'lishiga qaramasdan ham o'z aksini topganmi? Ular nimalardan iborat?

- “Bugun hayotning o'zi soliqlar adresli bo'lishini taqozo etmoqda. Soliq to'lovchi nima uchun va qancha soliq to'lashi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i darkor”. Bu fikrlarning zahirida nimalar yotibdi?

- “Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarur. Bu idoralarning bosh vazifasi soliqlarning byudjetga o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlashgina emas, balki, eng muhimi, soliqqa oid jinoyatlarning oldini olish maqsadida soliq to'lovchilarga yordam berish va ularning bu boradagi bilimlarini oshirishga ko'maklashish, ular bilan muntazam ish olib borishdan iborat”. Bu bildirilgan fikrdan qanday mantiqiy xulosalarni chiqarish mumkin?

- “Dastur doirasida amalga oshirilgan yana bir muhim tadbirimiz – soliq yuklamasini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir”. Bu bildirilgan fikrning zahirida nimalar yotibdi? Unda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq yuklamasini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qanday choralarning ko'rilganligi nazarda tutilayapti?

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 2013. 26-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi T.: Adolat, 2008. 692 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga mo'jallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli farmoni. 2017. 7-fevral.
5. O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risidagi PQ-4086-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2699-sonli qarori.
7. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2270 от 04.12.2014г. «О прогнозе основных макроэкономических показателей и параметрах Государственного бюджета на 2015 год».
8. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2455 от 22.12.2015г. «О прогнозе основных макроэкономических показателей и параметрах Государственного бюджета на 2016 год».
9. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2699 от 27.12.2016г. «О прогнозе основных макроэкономических показателей и параметрах Государственного бюджета на 2017 год».
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrda PP-1449-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrda PP-1245-sonli "O'zbekiston Respublikasining

2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PP-1024-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrda PQ-744-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrda PQ-532-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 27-dekabrda PQ-244-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori.

16. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.

17. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2017. 56 b.

18. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017. 104 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017. 48 b.

20. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: O'zbekiston, 2010. 56 b.

21. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada oshirishdir. T.: O'zbekiston, 2010. 80 b.

22. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.

23. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyoti yo'li. T.: O'zbekiston, 2007.

24. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish barcha demokratik yangilash va iqtisodiy islohotimizning pirovard maqsadidir. T.: O'zbekiston, 2007.

25. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. T.: O'zbekiston, 2005.

26. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.

27. Karimov I.A. O'zbekiston – iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yulida. T.: O'zbekiston, 1995.

28. Алёшин В., Зотова А. Финансы: Учебник. Ростов н/Д: Феникс, 2009. 346 с.

29. Аникин А. История финансовых потрясений. Российский кризис в свете мирового опыта. М.: Олимп-Бизнес, 2009. 448 с.

30. Абдуллаев Ё.А., Срожиддинова З.Х., Усипбаев Н.И. Государственные финансы Республики Узбекистан: Учебное пособие. Т.: ТФИ, 2001.

31. Александров И.М. Бюджетная система Российской Федерации: Учебник. М.: Дашков и К, 2006.

32. Алле М. За реформу налоговой системы / Пер. с фр. М., 2001.

33. Афанасьев М. Бюджетная политика и бюджетный процесс: Материалы к лекциям. Ч.1,2. М.: ГУ ВШЭ, 2000.

34. Афанасьев М. Предпосылки концепции бюджетного устройства и бюджетного процесса // Вопросы экономики. 2000. №11.

35. Барулин С. Финансы: Учебник. М.: КНОРУС, 2010. 640 с.

36. Боди З., Мертон П. Финансы / Пер. с англ. М.: «Вильямс», 2009. 592 с.

37. Бочаров В., Леонтьев В. Финансы. СПб.: Питер, 2009. 400 с.

38. Шаховская Л., Хохлов В. Бюджетирование: теория и практика (+CD): Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2009. 400 с.

39. Бабич А., Павлова Л. Государственные и муниципальные финансы: Учебник для вузов. М.: Финансы: -ЮНИТИ, 1999.

40. Бабич А., Павлова Л. Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учебник. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000.

41. Бланк И.А. Основы финансового менеджмента. В 2-х томах. Киев: Ника-центр, 1999.
42. Брайчева Т.В. Государственные финансы: Учебное пособие. СПб., 2001.
43. Брюммерхофф Д. Государственные финансы: теория государственных финансов / Пер. с нем. Под ред. А.Кудрина, В.Дзгоева. Владикавказ: Пионер-Пресс, 2002.
44. Бушмин Е.В. Бюджет: процедуры и эффективность. М.: Альтернатива-Евролинц, 2003.
45. Бюджетная система Российской Федерации: Учебник / Под ред. М.Романовского, О.Врублевской. М.: Юрайт, 1999.
46. Бюджетная система и учёт в России: Учебно-методическое пособие / Под ред. В.М.Герасимова, М.П.Афанасьева, Б.П.Елисеева, А.Г.Шорникова, М.: Мысль, 2002.
47. Бюджетная система России: Учебник для вузов / Поляк Г., Астахов А., Вафина Л., и др.; Под ред. Г.Поляка. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 1999.
48. Бюджетная система Российской Федерации. Под ред. М. В. Романовского, О. В. Врублевской. М.: Юрайт, 2000.
49. Бюджетная система Российской Федерации: Учебник / Под ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. М.: Юрайт, 2001.
50. Бюджетная система Российской Федерации: Учебник / Под ред. Г.Б. Поляка. М.: ЮНИТИ, 2001.
51. Бюджетный федерализм и межбюджетные отношения: проблемы и перспективы развития. СПб.: Кодекс INFO, 2001.
52. Л. Баранова, О. Врублевская, Т. Косарева, Л. Юринова. Бюджетный процесс в Российской Федерации: Учебное пособие. М.: Перспектива, 1998.
53. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: Darslik. T.: Sharq, 2011. 804 b.
54. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: Darslik. T.: Noshir, 2011. 712 b.
55. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 316-b.
56. Vaxobov A.V., Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2002.

57. Вахобов А.В., Жамолов Х.Н. Согласование межбюджетных отношений: Учеб.пос. Т.: Iqtisod-Moliya, 2003.
58. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2005.
59. Вахабов А.В., Срожиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. Т.: Iqtisod-Moliya, 2006.
60. Вахабов А.В., Срожиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. Т.: Iqtisod-Moliya, 2007.
61. Васильева М.В. Финансовая политика: Учеб. пособие. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. 220 с.
62. Вавилов А. Государственный долг: уроки кризиса и принципы управления. М.: Городец-издат, 2001.
63. Ван Хорн Дж.К. Основы управления финансами / Пер. с англ. М., 2000.
64. Воронин Ю.М. Государственный финансовый контроль: вопросы теории и практики. М., 2005.
65. Gazetalar: "Soliqlar va bojxona xabarları" (O'zbekiston), "Бизнес вестник Востока" (O'zbekiston), "Финансовая газета" (Rossiya), "Экономика и жизнь" (Rossiya).
66. Гапоненко В., Браткова О. Финансы и кредит: Учебное пособие. М.: Элит, 2008. 136 с.
67. Государственные и муниципальные финансы: Учебное пособие / Под ред. Г.Б.Поляк. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. 375 с.
68. Государственные и муниципальные финансы: Учебник / Под ред. С.И.Лушина. М.: Экономист, 2007. 763 с.
69. Годин А.М., Максимова Н.С., Подпорина И.В. Бюджетная система Российской Федерации: Учебник. 2-е изд. испр. и доп. М.: Дашков и К, 2006.
70. Государственный бюджет: от подготовки до исполнения. Министерство экономики, финансов и планирования. – Париж: Les Editions de Bergu. 1995.
71. Государственные и муниципальные финансы: Учебник / Под ред. И.Д.Мацкуляка. М., 2003.
72. Государственное регулирование рыночной экономики: Учебник. М., 2002.
73. Давыдова Л. Финансы в схемах: Учебное пособие. М.: Финансы и статистика, 2008. 80 с.
74. Деева А. Финансы и кредит: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2009. 544 с.

75. Джеймс С. Ван Хрон Джон. М. Вахович. Основы финансового менеджмента / Пер. с англ. М.: Дом Вильямс, 2010. 1232 с.

76. Данилов Ю. А. Рынки государственного долга: мировые тенденции и российская практика. М., 2002.

77. Davlat moliyasi tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. 3 jildlik. T.: O'zbekiston, 2002.

78. Долан Э., Кэмпбелл К., Кэмпбелл Р. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. Москва-Ленинград: Профико, 1991.

79. Дробозина Л. А. Общая теория финансов. М.: Банки и биржи, 1999.

80. Дмитриев М. Бюджетная политика в современной России. М.: Московский Центр Карнеги 2001.

81. Journallar: "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi", "Soliq to'lovchining jurnali", "Bozor, pul va kredit", "Экономическое обозрение", "Вопросы экономики" (Rossiya), "Финансы" (Rossiya), "Налоговый вестник" (Rossiya).

82. Журавлева Л. В. Бюджетная политика как метод государственного регулирования. М.: Дело ЛТД, 2001.

83. Harvey S. Rosen, Ted Gayer. Public finance. - 10 th ed. - United States, 2013.

84. Орешин В. П. Государственное регулирование национальной экономики: Учебное пособие. М.: Юрист, 1999.

85. Пансков В. Г. Налоги и налогообложение: Учебник и практикум / 5-е изд., перераб. и доп. М.: Юрайт, 2017. 382 с.

86. Пансков В. Г. Налоги и налогообложение в Российской Федерации. М., 2006.

87. Пеньков Б. Е. Налоговый импульс экономического роста // Экономист. 2005. №6.

88. Премчанд А. Управление государственными финансами. Вашингтон: МВФ, 1994.

89. Пономаренко Е. В. Финансы общественного сектора России. М., 2001.

90. Пономаренко Е. В. Финансовые приоритеты общественного сектора экономики. М., 2001.

91. Пушкарева В. М. История финансовой мысли и политики налогов: Учебное пособие. М.: Финансы и статистика, 2003.

92. Ракитина И.С., Березина Н.Н. Государственные и муниципальные финансы: Учебник и практикум/ М.: Юрайт, 2017. 482 с.

93. Романовский М., Врублевская О. Финансы: Учебник для бакалавров / 3-е изд., перераб. и доп. М.: Юрайт, 2012. 590 с.

94. Романовский М., Врублевская О., Сабанти Б. Финансы: Учебник для вузов. М.: Юрайт, 2000.

95. Румянцева Е.Е. О новых подходах к управлению финансами предприятий // Финансы и кредит. 2004. №24.

96. Сабанти Б. Теория финансов: Учебное пособие. М.: Менеджер, 1998.

97. Срождиддинова З.Х., Вахобов А.В., Сиддиков Ж.Р. Государственный бюджет Республики Узбекистан: Учебное пособие. Т.: ТФИ, 2001.

98. Станиславчик У.Н. Основы финансового менеджмента. М., 2001.

99. Тренев Н.Н. Управление финансами: Учебное пособие. М., 2003.

100. Финансы: учебник / Под ред. М.В.Романовского и др. М.: Высшее образование, 2010. 462 с.

101. Финансы: учебник / Под ред. Г.Б.Поляка. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. 703 с.

102. Финансы: Учебник / Под ред. А.И.Архипова, И.А.Пога-сова. М.: Проспект, 2009. 640 с.

103. Финансы и кредит: Учебник / Под ред. Г.В.Поляка. М.: Влоте́рс Клувер, 2010. 800 с.

104. Финансы, налоги и кредит: Учебник / Под ред. И.Д.Мацкуляка. М., РАГС, 2007.

105. Финансы: Учебник для вузов / Дробозина Л., Поляк Г., Константинова Ю. и др. Под ред. Л.Дробозиной. М.: Финансы: ЮНИТИ, 2000.

106. Финансы и кредит / Под ред. А.М.Ковалевой. М., 2005.

107. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. / Под ред. В.К.Сенчагова и А.И.Архипова. М., 2004.

108. Финансовый менеджмент / Под ред. А.Ф.Самсонова. М., 2004.

109. Формирование национальной финансовой стратегии России: путь к подъёму и благосостоянию. М., 2004.

110. Фостер Р.С. Искусство слияний и поглощений / Пер. с англ. М., 2004.
111. Федякина Л.Н. Международные финансовые отношения. СПб. 2004.
112. Хэррис Дж. Мэнвилл. Международные финансы / Пер. с англ. М., 1996.
113. Чернецов С. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебное пособие. М.: Магистр, 2010. 285 с.
114. Шарифходжаев М.Ш., Срожиддинова З.Х., Туляганова Н.Б. Бюджетная политика Республики Узбекистан: Учебное пособие. Т.: ТФИ, 2001.
115. Шадыбаев Т. И др. Фонд реконструкции и развития: сферы влияния // Экономическое обозрение. №11-12. 2007.
116. Шмелев В. Хмыз О. Глобализация мировых валютно-финансовых рынков: Монография. М.: Проспект, 2010. 200 с.
117. Игонина Д. Муниципальные финансы: Учебное пособие. М.: Экономистъ, 2003. 330 с.
118. Кадомцева С.В. Государственные финансы: Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2010. 352 с.
119. Карасова О. Бюджетирование и контроль затрат на предприятии: Практическое пособие. М.: Омега-Л, 2009. 169 с.
120. Касимов Ю. Финансы и инвестиции. М.: Анкил, 2008. 232 с.
121. Кучкаров Д.А. Принципы организации казначейского исполнения Государственного бюджета Республики Узбекистан. Уч.пос. Т.: Мир экономики и права, 2005.
122. Красавина Л.Д. и др. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. М., 2005.
123. Кризис доллара: причины, последствия и пути выхода / Пер. с англ. М.Волковой. М.: Евро, 2010. 292 с.
124. Кругер Д. Тайный язык денег. Как принимать разумные финансовые решения. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2010. 352 с.
125. Купер Д. Природа финансовых кризисов. Центральные банки, кредитные пузыри и заблуждения эффективного рынка / Пер. с англ. Г.Панкова. М.: Любавич, 2010. 210 с.

126. Когденко В. Краткосрочная и долгосрочная финансовая политика: учебное пособие. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. 471 с.
127. Ковалёва Т.М. Бюджетная политика и бюджетное планирование в Российской федерации: Учебное пособие. М.: Кнорус, 2016. 472 с.
128. Ковалев В.В. Финансы организаций. М., 2005.
129. Ковалев В.В. Введение в финансовый менеджмент. М., 2001.
130. Ковалева А.М., Лапуста М.Г., Скамай Л.Г. Финансы фирмы. М., 2005.
131. Ковалева В. Финансы организаций (предприятий): учебник. М.: Проспект, 2010. 352 с.
132. Ковалев В. Корпоративные финансы и учёт: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2010. 768 с.
133. Котляр Э.А., Самойлов Л.Л., Лактионова О.О. Искусство и методы финансового планирования. М., 2004.
134. Лапуста М., Мазурина Т. Финансы предприятий: Учебное пособие. М.: Альфа-Пресс, 2009. 640 с.
135. Лупей Н.А. Финансы: Учебное пособие. М., 2004.
136. Любимцев Ю.И. Финансовая политика: российский путь. М., 2005.
137. Malikov T.S. Moliyaviy qaror qabul qilish asoslari. T.: Sharq, 1996. 98 b.
138. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. T.: Akademiya, 2000. 202 b.
139. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: Akademiya, 2002. 204 b.
140. Malikov T.S. Soliq yuklamasining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. 32 b.
141. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2007. 84 b.
142. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2007. 244 b.
143. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni): O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 84 b.
144. Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2009. 556 b.
145. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2009. 288 b.

146. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010. 662 b.

147. Vahobov A.V, Malikov T.S. Moliya: Darslik. T.: Noshir, 2011. 712-b.

148. Malikov T.S., Jalilov P.T., Abduraupov R.R. Amaliy moliya asoslari: O'quv qo'llanma. T.: Yangi asr avlodi, 2015. 96 b.

149. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: O'quv uslubiy qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2016. 116 b.

150. Malikov T.S., Jalilov P.T., Byudjet-soliq siyosati: monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.

151. Malikov T.S., Jalilov P.T. Davlat byudjeti daromadlari: test (savol-javob)lar: O'quv-uslubiy qo'llanma. T.: Iqtisodiyot, 2014. 116 b.

152. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat moliyasi: test (savol-javob)lar. Toshkent moliya instituti. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 496 b.

153. Malikov T.S., Tilabov N. Moliya: Test-savol-javoblar. T.: Akademnashr, 2013. 448-b.

154. Макконнелл К.Р., Брю С.А. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В.2-х т. / Пер. с англ. М.: Республика, 1993.

155. Мардаровская Ю. Долгосрочная и краткосрочная финансовая политика предприятия: Учебное пособие. М.: Элит, 2009. 272 с.

156. Нешиной А. Финансы: Учебник. М.: Дашков и К., 2009. 528 с.

157. Нешиной А. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник. М.: Дашков и К., 2010. 592 с.

158. Olimjonov O.O., Malikov T.S., Qaroliev T.M. Zamonaviy moliya-bank atamalarining inglizcha-ruscha-o'zbekcha ekvivalent lug'ati. T.: Sharq, 1998. 196 b.

159. Olimjonov O.O., Malikov T.S., Qaroliev T.M. Zamonaviy moliya-bank atamalarining inglizcha-o'zbekcha-ruscha lug'ati. T.: Sharq, 2009. 232 b.

160. Петрова Г. Международное финансовое право: Учебник. М.: Высшее образование, 2009. 457 с.

161. Суэтин А. Международные валютно-финансовые отношения: Учебник. М.: КНОРУС, 2010. 440 с.

162. Суэтин А. Международные валютно-финансовые и кредитные отношения: Учебник. Ростов н/Д: Феникс, 2009. 411 с.

163. Yuldashev Z.Yu., Malikov T.S. Moliya: uy xo'ja-liklari moliyasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 112 b.

164. Юлдашев З.Ю., Срожиддинова З.Х., Мирзаев У.А. Местные бюджеты: Учебное пособие. Т.: ТФИ, 2001.

165. Якушев А. Государственные и муниципальные финансы: Конспект лекций. М.: А – Приор, 2008. 176 с.

166. Янжул И.И. Основы начала финансовой науки: Учение о государственных доходах. М.: Статус, 2002.

167. G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni (matn): O'quv qo'llanma. T.: Baktria press, 2016. 168 b.

168. Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya. 2005.

169. Haydarov N. Davlat moliyasini boshqarish. T.: Akademiya, 2005.

Internet saytlari:

www.minfin.ru

www.mf.uz

www.budget.ru

www.df.ru

www.gov.uz

www.mfa.uz

www.mfer.uz

www.cer.uz

www.analitik.org.ua

www.mstu.edu.ru

www.businessvoc.ru

www.i-u.ru

www.eerc.ru

www.darvoza.uz/

www.cagateway.org

www.dcc.uz

MUNDARIJA

1-bob. Byudjet-soliq siyosati: nimalarni va qanday o'rganamiz.....	6
2-bob. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosatining o'zaro bog'liqligi.....	22
3-bob. Byudjet defitsitini kamaytirish –byudjet siyosatining markaziy masalasi	30
3.1. Byudjet defitsiti: mohiyati, ta'rifi, turlari va vujudga kelish sabablari	30
3.2. Byudjet defitsitiga nisbatan strategik yondashuv va uning darajasini kamaytirish chora-tadbirlarining asosiy yo'nalishlari	40
3.3. Byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari	42
3.4. Byudjet defitsiti va byudjet siyosati muammolariga konseptual yondashuvlar.....	47
4-bob. Zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishning fundamental asoslari... 	56
4.1. Soliqlar, soliq tizimi va soliq siyosatidagi vaziyat	56
4.2. Soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosi va soliq siyosati	90
4.3. Soliq tizimi, soliqqa tortish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari, ularning soliq siyosati hayotiychanligiga ta'siri.....	94
4.4. Iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida soliq va soliq siyosati.....	136
4.5. Soliq siyosati va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari.....	145
4.6. Soliqlarning undiriluvchanligini oshirish va soliq siyosati	148

5-bob. Soliq yuklamasini yengillashtirish – soliq siyosatining eng dolzarb masalasi	165
5.1. “Soliq yuklamasi”, “soliq yuklamasi”mi yoki “soliqiy yuklama”mi	165
5.2. Soliq yuklamasi: nima u?.....	172
5.3 Soliq yuklamasi: aniqlanish tartibi, darajasi, kamaytirishning nimalarga bog‘liqligi, taqsimlanganligi	176
5.4. Soliq yuklamasini kamaytirishning munozarali masalalari.....	192
 6-bob. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish – soliq siyosati samaradorligini ta’minlash garovi... 202	
6.1. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish prinsiplari	202
6.2. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish uchun hisobga olinadigan amaliy holatlar	205
6.3. Soliq va imtiyoz dialektikasi	216
6.4. Soliq imtiyozlarining salbiy jihatlari	240
6.5. Soliqlarni to‘lash – qullik emas, hurlik belgisi.....	245
6.6. “Stimul”mi yoki “rag‘bat”?	253
 7-bob. Byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e’tirozlar, muammolarni hal etish va e’tirozlarni yumshatish yo‘llari	266
 8-bob. O‘zbekistonda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo‘nalishlari)	320
8.1. Amir Temur qarashlarida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asos (ustuvor yo‘nalish)lari yaratilganligi (belgilanganligi) ...	320
8.2. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish fundamental asos (ustuvor yo‘nalish)larining yanada rivojlantirilishi.....	324
 Adabiyotlar	362

MALIKOV TOHIR SATTOROVICH

BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI

O'quv qo'llanma

Muharrir **N.Artikova**

Badiiy muharrir **K.Boyxo'jayev**

Kompyuterda sahifalovchi **O.Fozilova**

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.
Bosishga ruxsat 10.01.2019-yilda berildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'ozi №2.
«Bookman Old Style» garniturası.
Shartli b.t. 21,6. Nashr hisob t. 22,6.
Adadi 50 dona. 1-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60^a.

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI”
bosmaxonasida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur 60^a.